

Joanna Ketlin Rouling



Garri Potter VA

MAXFIY XONA

321.111
R79

JAHON ADABIYOTINING JAVOHIRLARI

Joanna Ketlin ROULING

GARRI POTTER

(ruschadan Dolimov Shokir tarjimasi)

**GARRI POTTER VA MAXFIY
XONA**

(«Garri Potter» romanlar turkumining II qismi)



“Zukko kitobxon”

Toshkent – 2021

UDK: 821.111(410)

KBK: 84-44(4Be.1)

R 79

Joanna Ketlin Rouling. «Garri Potter va Maxfiy xona» /roman/ «Garri Potter» romanlar turkumi /II qism/ «Jahon adabiyotining javohirlari turkumi» – T.: “Zukko kitobxon”, 2021. – 400 b.

Nashrga tayyorlovchi: Ergashbay MATYAKUBOV.

HURMATLI KITOBXON!

Hurmatli kitobxonlar! «Garri Potter» romanlar turkumi ona tilimizga tarjima qilishdan maqsad, sehr-jodu yoki afsungarlikni targʻib qilish emas, aksincha yoshlarning yaxshilikka, adolatga, haqiqatga, mehr-muhabbatga hoʻlgan ishonchini yanada mustahkamlashdir.

Sizlar «Garri Potter» romanlar turkumi «Garri Potter va Maxfiy xona» deb nomlanuvchi ushbu qismida Xolasining uyida ulgʻaygan oʻn bir yoshli yetim bola Garri Potter aslida sehrgar ekanini oʻzi bilmagani, boyqush pochasi orqali uning nomiga yoʻllangan xat hayotini tubdan oʻzgartirib yuborgani, «Xogvars» sehrgarlik va afsungarlik sanʼati maktabida misli koʻrilmagan voqealarni boshdan kechirgani, dunyodagi eng yovuz sehrgar bilan yuzma-yuz kelgani, doʻstlari Ron va Hermiona bilan birga Falsafiy tosh sirini fosh etganidan asarning birinchi qismini oʻqib, xabar topdingiz.

Yozgi taʼtilning zerikarli kunlari oʻtib, Garri Potter yana «Xogvars»ga qaytdi. Asarning ikkinchi qismini oʻqir ekansiz mashinalar uchadigan, daraxtlar urishadigan, oʻrgimchaklar gapiradigan, xatlar qichqiradigan ushbu oʻquv yilida roʻy bergan koʻplab tashvishli voqealar guvohi boʻlasiz, Garrini taʼqib qilib yurgan uy elfning asl maqsadini, nima uchun ilonzabon boladan hamma yuz oʻgirishini bilib olasiz, maktabni yopib qoʻyishmasligi uchun asarning bosh qahramoni oʻz sadoqatli doʻstlari bilan birga bir zamonlar uchilgan Maxfiy xona siri bilan tanishasiz, Garri bilan yolgʻiz qolib, yovuz lord Voldemort bilan yana jang qilasiz.

Tarjimon – *podpolkovnik Dolimov Shokir Zokirovich*

UDK: 821.111(410)

KBK: 84-44(4Be.1)

ISBN: 978-9943-7201-4-5

- © Ergashbay Matyakubov.
- © «Garri Potter va Maxfiy xona»
- © “Zukko kitobxon”, 2021-yil.



SO'ZBOSHI

Hech kimga sir emaski, kitob mutolausi barchaning, shu jumladan, yoshlarning qulbiga ezgulikka, yaxshilikka xizmat qilish tuyg'usini singdiradi. Shuningdek, kitob mutolausi orqali yoshlarimizning ongi rivojlanadi, mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, kitoblar, ayniqsa hududiy kitoblar yoshlarimizni «XXI asrning dahshatli quroli – internet axboroti xurujidan himoyalash vazifasini ham to'laqonli bajaradi. Shuning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni kitoblar bilan ta'minlash har qanday davlat va jamiyatning asosiy burch va vazifasidir.

Kitoblarning davlatimizning asosiy kuchi hisoblangan yoshlar hayotida qanchalik muhim o'rin tutganini yurtimiz Prezidenti **Shavkat Mirziyoyevning** 2017-yilning 12-yanvar kuni «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolausi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida» farmoyishida ham bevosita ko'rishimiz mumkin. Ushbu farmoyishda yurtimiz adiblarining kitoblurini chop etish bilan birga jahon adabiyoti namoyundalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish vazifalari alohida ko'rsatilgan va bunday kitoblarning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlangan.

Shularga tayangan holda ingliz adibi **Joanna Kettlin Rouling** tomonidan yozilgan «**Garri Potter**» romanlar turkumini rus tilidagi tarjimasi asosida (rus tiliga **Mariya Viktorovna Spivak** tarjima qilgan) podpolkovnik **Dolimov Shokir Zokirovich** tomonidan ona tilimizga tarjima qilgan. Qo'lingizdagi ushbu kitob **Garri Potter**» romanlar turkumini ikkinchi, ya'ni «**Garri Potter va Maxfiy xona**» deb nomlanuvchi qismidir.

Aziz kitobxonlar!

Sizlar «**Garri Potter**» romanlar turkumi asosida chop etilayotgan kitoblarni o'qish orqali sehr-jodu va afsungarlikning emas, balki adolatning jaholat ustidan, ezgulikning yovuzlik ustidan, haqiqatning yolg'on ustidan doimo tantana qilib kelganiga guvoh bo'lasiz. Ushbu fikrimizning isboti sifatida asarning asosiy qahramonlari: **Albus Dambldor** va **Garri Potterni**ng «**Garri Potter va Maxfiy xona**» kitobidan olingan quyidagi suhbatni keltiramiz:

Garri Potter: – Nima uchun **Kvirrell** menga qo'l tekkingiz? Nima uchun?

Albus Dambldor: – Onang seni himoya qilib, halok bo'ldi. Bu dunyoda **Voldemort** va unga o'xshaganlar tushunib yetmaydigan shunday bir tushuncha borki, o'g'lim, u ham bo'lsa, muhabbat. Onangning

senga bo'lgan muhabbati va ushbu muhabbat kuchi o'z izini qoldirishi mumkinligini u hech idrok eta olmaydi. Bu iz peshonangdagi chandiq ham emas, biror-bir ko'zga ko'rinadigan boshqa alomat ham emas... Onangning senga bo'lgan muhabbati juda kuchli bo'lgani uchun u vafotidan so'ng ham o'z muhabbati ila himoya qilib boradi seni. Vujudingga onangning muhabbati singib ketgan. Shu bois ham o'z jon-u tanini Voldemort bilan baham ko'rib, yuragi nafrat, hasrat va g'azahga to'lib-toshgan Kvirrell senga qo'l tekkiza olmadi. Onaning farzandga bo'lgan mehr-muhabbatiga qarshi qo'l ko'tarish uning uchun, to'm ma'noda, o'lim bilan barobar bo'ldi.

Demak, asar muallifi ham xuddi shunday fikrda, ya'ni bu asarda ta'riflangan voqealar (garchi ko'proq xayolot muhsuloti bo'lsa-da), to'm ma'noda, ezgulik va yovuzlik orasidagi ramziy kurashlardan iborat ekanligi va bu kurashlarda mehr-muhabbatning, adolatning, ezgulikning, haqiqatning doimo g'olib chiqishini tasvirlagan.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bu asar rus tilidan, shunchaki so'zma-so'z tarjima qilinmadi. Balki asarni tarjima qilish va nashrga tayyorlash jarayonida imkoni boricha asarga sharqona, ya'ni milliy mentalitetimizga xos xususiyat berishga harakat qilindi. Shuningdek, asarda uchraydigan har xil afsonaviy va tarixiy obrazlar, ilmiy va hadiiy atamalar, marosim nomlari bildiruvchi so'zlar va shu kabi izohtalab so'z va jumalarga alohida iqtibos va izohlar keltirildi tushbu iqtibos va izohlarning aksariyati asarning ingliz tilidagi nashrida ham va rus tilidagi tarjimasida ham yo'q). Bu esa o'z navbatda kitobxonning so'z boyligining oshishiga va dunyoqarashining o'sishiga xizmat qiladi. Qolaversa, kitobxon hadiiy asarni o'qish haroborida ona tilimizning imlo qoidalarini o'rganishi va o'zida ko'nikma hosil qilish borishini ko'zda tutgan holda asarning mazkur nashri hozirgi o'zbek adabiy tilining imlo qoidalariga moslangan holda berildi.

Budiiy kitoblarning mutoluasi sizlarning orangizdan ham butun dunyoga tanilgan Joanna Ketlin Rouling kabi mashhur adib bo'lishingizga yordam beradi degan niyadimiz!

Zero, yaxshi niyat – yarim davlat!

**Nashrga tayyorlovchi – «GOLD STAR EDUCATION» NTM
direktori Matyakubov E. R.**



I BOB. JUDA KO'NGILSIZ TUG'ILGAN KUN

«Odamovilar» xiyobonidagi 4-uy sohiblarining kundalik nonushtasi vaqtida ko'tariladigan janjal Garri ta'tilga qaytganidan buyon deyarli an'anaga aylandi. Janjalning asosiy sababi mister Vernon Durslning hali tong otmay Garrining xonasidan baland eshitaladigan uvillashdan uyg'onishidir.

– Shu haftaning o'zida uchinchi bor takrorlanishi! – o'shqirdi, stolning narigi tomonida o'tirgan amaki. – Agar boyqushingni idora qilmas ekansan, u bilan xayrlashishga majbur bo'lasan!

– Bechora qush zerikyapti, axir! – dedi Garri, yana bir bor tushuntirishga urinib, – ko'ngli istagan joyda uchib yurishga o'rganib qolgan. Loaqal, tunda qo'yib yuborishga ijozat bersangiz...

Men nima, seningcha ahmoqqa o'xshaymanmi? – darg'azab kuldi Vernon amaki, quyuq mo'yloviga yopishib qolgan tuxum quymoqning parchasini silkitgancha. – Jirkanch boyqushning qo'yib yuborilishi qanday oqibatlarga olib kelishini bilmaydi, deb o'ylaysanmi?

Er-xotin Dursllar bir-biriga g'amingin nigoh-la qarab qo'yishdi.

Garri dalil keltirish uchun og'iz juftladi-yu, lekin Dudlining baland kekirishi ovozi bosib yubordi.

– Bekondan¹ yana yeyman, – dedi Dudli, yeb turib ma'raydigan qo'yday.

– Tovada yotibdi-ku, ol yoqimtoyginam, – dedi Petuniya xola, muloyimlikdan xiralashgan nigoh-la o'g'lining yirik tanasini navozish qilib. – Imkon borida semirib olishing kerak... Maktabingda beriladigan taomlar haqidagi

¹ Bekon (inglizcha) – maxsus buqilgan cho'chqa go'shtidan tuzlab yoki oluvda dudlab tayyorlanadigan taom.

I BOB. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun

gaping yoqmadi menga...

– Bo'lmagan gap, Petuniya, – qat'iy e'tiroz bildirdi Vernon amaki, – «Smelting»da o'qib yurgan kezlaringda hech qachon och qolmaganman. Dudli to'yguncha ovqatlanadi maktabda, shundaymi o'g'lim?

Yog' bosgan dumbasi kursiga sig'may, ikki tomonga osilib tushgan Dudli hiringlab qo'yib, Garriga yuzlandi-da, buyurdi: Tovani uzatib yubor.

– Sehrli so'zni aytishni unutding, – achchiq-la javob berdi Garri.

Bor-yo'q «iltimos» so'zi talab qilingan ushbu oddiy gapning oila a'zolariga ko'rsatgan ta'siri ajoyib tomosha bo'ldi: dahshatga tushgan Dudli tiqilib qolib, butun oshxonani zirillatgancha, o'tirgan joyidan ag'anab tushdi; missis Dursl ingichka chiyillab, kaftini og'ziga bosdi; o'midan irg'ib turgan mister Durslning esa chakkasidagi tomirlari bo'rib chiqdi.

– Men «iltimos» so'zini nazarda tutgan edim! – tez tushuntirish berishga urindi Garri, – Boshqa ma'no...

– Men nima degan edim SENG! – o'shqirdi amaki, so'lagini dasturxonga sachratib, – «S» harfi bilan boshlanadigan o'sha so'zni bizning uyimizda og'zingga olma DEMAGANMIDIM?!

– Biroq men...

Dudlini qo'rqitishga qanday HADDING SIG'DI! – baqirishini qo'ymadi Vernon amaki, stol mushtlab.

– Men bor-yo'q...

– Takror aytaman! Mening uyimda tentakligingga oid birorta so'z AYTIMASIN!

Gari nigohini amakisining arg'uvon¹ basharasidan

¹ Arg'uvon (*forscha*) – yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan, bahorda ochiladigan qizil-gulli bir daraxt (burchokdoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumi) ning guliga rangiga o'xshash rang, qizil rang.

Dudlini ko'tarishga behuda urinayotgan xolasining murda-dek oppoq yuziga olib o'tdi.

– Bo'pti, – dedi Garri, – gapirmayman, bas...

Mitti ko'zining yovuz nigohini Garridan uzmagani Vernon amaki, holdan toygan karkidonday harsillab joyiga yiqildi.

Garri yozgi ta'tilga qaytgan kundan buyon Vernon amakining u bilan muomalasi xuddi har qanday fursatda portlab ketadigan bomba kabi kechmoqda. Buning sababi ayon: chindan ham, Garri oddiy bola emas – u sehrgar.

Garri Potter «Xogvars» sehrgarlik va afsungarlik san'ati maktabining birinchi sinfini endigina tamomlagan sehrgar bola. Dursllar oilasi yoz faslini Garri bilan o'tkazishday qismatni o'ylab vahimaga tushgan bo'lsa, ularning ichki kechinmalari Garrining ichki kechinmalari oldida hech gap emas.

Maktabni qo'msab yashash go'yo qomida yuz bera-digan qattiq og'riqday qiynaydi uni. Garri arvoqlar va maxfiy yo'laklar bilan to'lib-tushgan «Xogvars» qasrini, unda o'tkaziladigan mashg'ulotlar va saboq beradigan ustozlarini (sehrli damlamalar tayyorlash fani o'qituvchisi Sneggdan tashqari, albatta) juda sog'inardi. Shuningdek, boy-qushlar keltiradigan tonggi pochtani, to'q qizil baxmaldan tayyorlangan guldor chodir ostidagi karavotini, maktab qorovuli Xagridning «Taqiqlangan o'rmon» chetidagi kulbasida do'stona kayfiyatda o'tadigan choyxo'rlikni va, albatta, sehrgarlar olamida keng tarqalgan kvidish¹ o'yinini ham qo'msar edi.

Garri ta'til o'tkazgani uyga kirib kelishi bilan Vernon amaki uning afsunlar haqidagi kitob va darsliklari, «Nim-

¹ Kvidish – supurgilarda uchib yuradigan o'n to'rt nafar o'yinchi tomonidan, ditta tik o'matilgan halqali uzun layoq va to'rtta uchur ko'ptuk vositasida o'ynaladigan sehrgarlar

I BOB. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun

bus-2000» rusumli zamonaviy supurgisi, sehrli tayoqchasi, maktab kiyimi, qozonchasini ichki zina ostidagi bufetga kiritib, qulflab qo'ygan. Yoz davomida mashq qilmay, amaliy ko'nikmalarini yo'qotgan Garrining kvdish jamoasidan chetlatilishi bilan Dursllarning nima ishi bor? Uyga berilgan vazifalarning birortasini bajarmay maktabga qaytishi bilan ham nima ishi bor ularning? Negaki tabiatan magl¹ bo'lmish Dursllarning fikricha, oilada sehrgar bo'lishi ushbu oila sha'niga tekkan abadiy dog', uyat, isnod va sharmandalikdir. Vernon amaki Garrining sehrgarlar bilan mu loqot qilmasligi uchun hatto boyqushi – Xedvigni ham qafasga qamab, chiqarishni man etib qo'ydi.

Garri o'zining zohiriy ko'rinishi bilan ushbu oilaning boshqa birorta a'zosiga o'xshamaydi. Uzun qora mo'ylov qo'ygan, ortiq darajada semiz Vernon amakining jussasi juda yirik bo'lib, buqa bo'yni deyarli ko'rinmaydi; terisi su-yagiga yopishgan Petuniya xolaning bo'yni aksincha: oddiy ayolning bo'yniga nisbatan ikki chandon uzun, yuzi ot tumshug'iga o'xshash cho'ziq, oq-sariq sochli, pushti bashara. Dudli esa nimasi bilandir cho'chqani eslatadi. Sochi ko'mirdek qora, yumaloq ko'zoynak taqib yuradigan Garrining bo'yi ulardan past, tanasi ozg'in, ko'zi yashil. Peshonasiga esa yashin zigzagi shaklidagi chandiq ko'rk beradi.

Ayni mana shu chandig'i bilan Garri hatto sehrgar jamiyatida ham ajrab turadi. Chunki, bu chandiq sirli o'tinish, ya'ni o'n bir yil oldin murg'akkina Garrini Dursllar xonadonining ostonasiga keltirib qo'ygan mudhish voqealardan qolgan yagona dalolatdir.

O'shanda Garri bir yoshda bo'lishiga qaramay, o'tmishda yashab o'tgan dahshatli sehrgarlar orasida eng yo-

¹ Magl – sehrgarlik qobiliyatlardan mahrum bo'lgan yoki sehrgar oilada tug'ilmag'an inson. Magllar ham o'zlarini tomonida bir tomchi ham sehrgarlik qini bo'lmagan odamlar deb ta'riflashgan.

I BOB. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun

vuzi, ismini aksariyat sehrgarlar hozir ham talaffuz etishga jur'at eta olmaydigan Lord Voldemortning ajal keltiradigan afsunni aql bovar qilmaydigan tarzda yengishga muvaffaq bo'lgan. Garrining ota-onasi Voldemort bilan jang qilib halok bo'lishgan. Peshanasi jarohatlangan jajjigina Garri omon qolgan. Sababini hech kim bilmaydi-yu, negadir Voldemortning sehr qudrati ayni Garrini o'ldirmoqchi bo'lgan fursatda sirli ravishda barham topgan.

Shu tariqa jajji sehrgar halok bo'lgan onasining tug'ishgan opasi qo'lida qoldi. Bola Dursllar oilasida o'n yil yashadi. U, peshanasidagi chandiqni, qarindoshlarining istar-istamas aytgan gapiga qaraganda, ota-onasi halok bo'lgan mudhish avtomobil halokatidan qolgan xotira deb o'ylar, g'aroyib, ba'zan o'z xohish-istagidan qat'i nazar ro'y beradigan ba'zi ishlarni qay tarzda amalga oshirayotganini o'zi anglab yetmas edi.

Keyinchalik, ya'ni roppa-rosa bir yil oldin, «Xogvars»-dan xat kelgach, Dursllar xonadonida Garridan sir tutilgan barcha gaplar oshkor bo'ldi. Bola sehrgarlar maktabida o'zining munosib o'rmini topdi. U yerda Garrining o'zi ham peshanasidagi chandiq ham juda mashhur. Biroq o'quv yili yakun topgach, ta'til o'tkazgani Dursllar xonadoniga qaytishga majbur bo'ldi. Bu yerda esa Garriga allaqanday sassisq narsaga bulg'anib, yanada xavfli bo'lib qaytgan jirkanch it bilan muloqot qilinganday munosabat ko'rsatilmoqda.

Bugun Garrining tug'ilgan kuni ekani Dursllarning xayoliga ham kelgani yo'q. Tug'ilgan kuni munosabati bilan u hech qachon sovg'a olmagan. Bugun ham biron-bir sovg'aga umid qilmaydi. Bunday kunga bag'ishlab pireg ham pishirilmaydi. Lekin uning tug'ilgan kunini mutlaqo esga olmaslik...

Garri ayni shu haqda o'ylab turgan ediki, Vernon unaki tomog'ini qirib olib, gap boshladi.

1 BOB. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun

– Hammamizga ma'lumki, bugun nihoyatda muhim kun.

Garri qulog'iga ishonmay, boshini ko'tardi.

– Mehnat faoliyatimning eng muhim sanasi bo'lishi mumkinligi ham ehtimoldan xoli emas, – davom etdi Vernon amaki.

Garri nigohini yana qo'lidagi buterbrod¹ga qaratdi. «Tushunarli», – esga oldi u alam bilan. Bu haqda ikki haftadan buyon gapiriladi. Vernon amaki, bugungi kunda o'ta boy sanalgan qurilish kompaniyasi sohibini rafiqasi bilan birga kechki ovqatga taklif qilgan bo'lib, parina ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona rahbari sifatida undan yirik buyurtma olish va tegishli shartnoma tuzishni ko'zlagan.

– Kechki ovqat davomida hafta birimiz bajaradigan xatti-harakatlarni yana bir bor takrorlab olsak, yomon bo'lmaydi, – dedi u. – Muhimi, soat sakkizga yaqin hamma o'zi uchun oldindan belgilangan marrani egallab olishi lozim. Xo'sh, shunday qilib, sen Petuniya?...

– Mehmonxonada bo'laman, – shaylik-la javob berdi Petuniya xola. – Uyimizga kelganlarni dilrabo tabassum ila qarshi olish uchun o'sha yerda kutaman.

– Juda yaxshi, juda soz! Dudli, sen-chi?

– Mehmonlarni ehtirom-la uyga kiritish uchun kirish eshigi yonida turaman va ular ostona hatlab o'tishlari bilan «Paltongizni olishga ijozat bering mister Meyson... missis Meyson», deya kutib olaman, – dedi Dudli o'z turqini jirkanch alfozda qiyshang'i tirishtirib.

– Mehmonlar o'g'limizga shaydo bo'lishi muqarrar, – xitob qildi Petuniya xola.

– Juda soz, Dudli, – maqtadi Vernon amaki va Garriga

¹ Buterbrod (nemischa. Butter – yog' + Brot – non) – ustiga sariyog' surtilgan yoki pishloq, kolbasaning bir bo'lagi qo'yilgan bir bo'lak non.

yuzlandi: – xo'sh, sen-chi?

– Men o'z xonamda bo'laman. U yerda juda jim o'tirib, o'zimni, go'yo bu uyda mutlaqo yo'qday tutaman. – ifodasiz javob berdi Garri.

– Juda to'g'ri, – o'ta qabih bashara yasagancha tasdiqladi Vernon amaki. – Men ularni mehmonxonaga boshlab kirib, sen bilan tanishtiraman, Petuniya. Shundan so'ng ularga ichimlik taklif qilaman. Xo'sh... soat sakkizdan o'n besh daqiqa o'tganda...

– Men hammani dasturxonga taklif qilaman, – bildiruv berdi Petuniya xola.

– Sen Dudli, ularga...

– Sizni oshxonagacha kuzatib borishga ijozat bersangiz, missis Meyson, – yod olgan luqmasini eshittiri Dudli, ko'zga ko'rinmayotgan g'oyibona ayolga ikki bukilgancha, yog'li qo'lini uzatib.

– Mening jajji jentlmenim! – dedi ko'ziga yosh keli-shiga sal qolgan Petuniya xola.

– Sen-chi? – Garriga haybat-la yuzlandi Vernon amaki, ko'zini qisib.

– Men o'z xonamda bo'laman. U yerda juda jim o'tirib, o'zimni, go'yo bu uyda mutlaqo yo'qday tutaman, – zerikkan kishiday to'ng'illadi Garri.

– Shunday bo'lsin. Endi kechki ovqat davomida erkin ohangda aytiladigan bir nechta maqtovlarni o'ylab ko'rishimiz kerak. Petuniya, biror-bir g'oya bormi?

– Vernonning gapiga qaraganda, golf o'yinining ustadisi ekansiz, mister Meyson... Egningizdagi benazir ko'ylakni qaysi do'kondan xarid qilganingizni mendan sir tutmaysiz degan umiddaman, missis Meyson.

– Ajoyib... Seni galing, Dudli.

– Xonimlar va janoblar! Maktabda «Men ibrat oladigan qahramon!» mavzusida insho yozish vazifasi berildi.

1 BOB. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun

Mister Meyson, men ayni siz haqingizda yozdim!

Bu gap Petuniya xolaga ham Vernon amakiga ham juda yoqib tushdi. Qalbi baxtga to'lgan Petuniya xola ko'ziga yosh olib, quchib olish, bag'riga mahkam bosish uchun o'g'li tomon otildi. Garri esa kulgidan bazo'r tiyilib ezilayotganini hech kim payqamasligi uchun stol ostiga bekindi.

– Sen-chi? Hoy bola, qayerga yo'qolding?

Stol ostidan chiqar ekan, jiddiy qiyofada bo'lishga uringan Garri:

– Men o'z xonamda bo'laman. U yerda juda jim o'tirib, o'zinmi, go'yo bu uyda mutlaqo yo'qday tutaman. – dedi.

– Tutmay qayerga ham borar eding. – qat'iy ta'kidlagancha irilladi Vernon amaki, – o'zingni, go'yo bu uyda mutlaqo yo'qday tutasan. Sen bu dunyoda borligingdan Meysonlar mutlaqo bexabar. Bu holat shundayligicha qolishi shart. Tushundingmi? Kechki ovqatdan so'ng Petuniya, mehmonlarni yana mehmonxonaga chorlab, kofe taklif qilasan. Ana shunda men tabiiy ravishda parmalar mavzusini boshlayman. Agar omadim chopsa, kechki yangiliklar boshlanmay turib, shartnomani imzolatib olaman-da, Xudo xohlasa ertaga, ayni shu vaqtda. Mayorka orolidagi uylardan birini tanlashga kirishamiz.

Bola ushbu xonadonning xursandchiliklariga sherik bo'la olmaydi. Negaki u Dursllarning O'rta dengizdagi Mayorka orolidan xarid qilinadigan uyida umuman ortiqcha bo'ladi. U shundoq ham hozir Syurrey grafligi, Littl Uinging shaharchasi, «Odamovilar» ko'chasida istiqomat qilishayotgan 4-uyda ortiqcha sanaladi.

– Juda soz... Unday bo'lsa, – suhbatga yakun yasadi Vernon amaki, – men shaharga, smoking¹ olib kelgani tushaman. Sen esa – yana irilladi u, Garriga qarab, – xolangga

¹ Smoking - qora moyitdan qilingan, qaytarma shoyi yoqali kastum

I BOB. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun

uyni tartibga keltirishga xala! bermay, oyoq ostida o'ralashmay o'tir.

Garri orqa eshikdan tashqariga chiqdi. Kun juda ajoyib, tonggi quyosh charaqlamoqda. Bola bir tekis o'rilgan maysazordan yurib, bog' kursisiga o'tirdi-da:

– Tug'ilgan kunim bilan... tug'ilgan kunim bilan, – deya xirgoyi boshladi.

Bola o'zining tug'ilgan kunini biror-bir otkritkasiz, sovg'asiz, e'tibordan chetda qolib o'tkazishga, umuman, bugungi oqshom, o'zini go'yo bu uyda mutlaqo yo'qday tutishga majbur. Alam qilib, bog'ning chakalak devoriga termilib qoldi. Garri, «Xogvars»da qolgan narsalardan ham kvidish o'yinidan ham ko'proq o'zining eng yaqin do'stlari Ron Uesli va Germiona Grenjerni sog'ingan. Ular esa ko'rinish turibdiki, Garrini esga ham olishmagan. Birortasi yoz davomida bir enli bo'lsin, xat yo'llashga yaramadi. Vaholanki, Ron Garrini uyga, mehmonga taklif qilishga va'da bergan edi.

Garri o'zining sehgartlik ko'nikmalarini ishga solish, Xedvigning qafasini ochib, Ron bilan Germionaga xat yo'llashga tayyor. Lekin har safar o'zini bu ishdan bazo'r to'xtatib qoladi. Gap shundaki, balog'atga yetmagan, ta'lim muassasasidan tashqarida yurgan yosh sehgartlarga sehrjodu bilan shug'ullanish qat'iyan taqiqlangan. Garri ushbu taqiq haqida Dursllarga og'iz ochmadi. Dursllar esa go'ng qo'ng'iziga aylanib qolishlarini yaxshi idrok etishgani uchun ham Garrini, ichki zina ostidagi bufetga, uchar supurgisi va sehrli tayoqchasi bilan birga qamab qo'yishmayapti.

Ta'tilga kelganidan so'ng Garri birinchi ikki hafta davomida yarim ovoz chiqargancha allanima po'ng'illab, vahimaga tushgan semiz Dudlining xonadan pishillagancha pirillab chiqishini tomosha qilishdan huzur qilib yurdi. Ammo Ron va Germionadan xabar kelavermagach, o'zini

I BOB. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun

go'yo sehirgarlar olamidan tobora yiroqlashib ketayotganini his etib, hatto Dudlini mazax qilish nayrangini ham qiziq tuyulmay qoldi. Bugun esa ular Garrini, loqaq, tug'ilgan kuni bilan ham tabriklashmadi. Yana do'st emish!

U hozir «Xogvars»dan... yoki kimdan bo'lmasin, yo'tlangan qisqagina xat uchun har narsasini berishga, maktabda o'tkazilgan o'quv yili tush bo'lmaganiga amin bo'lish uchun hatto ashaddiy dushmani Drako Malfoy bilan uchrashishga ham tayyor.

O'quv yilini quvonchli o'tdi deb bo'lmaydi. So'nggi semestr¹ xotimasida Garriga, kimsan Lord Voldemort bilan yuzma-yuz to'qnash kelishga to'g'ri keldi. O'zining oldingi holatiga taqlid qilgan bo'lib, aslida achinarli ahvolda bo'lsa-da, Lord Voldemort hozir ham qo'rqinchli, makkor, nima qilib bo'lsa ham o'z qudratini qaytarib olish yo'lida qat'iy chora ko'rishga shay holatda. Garri uning changalidan ikkinchi bor, ammo bu safar qandaydir mo'jiza tufayligina omon qoldi. Oradan bir necha hafta o'tganiga qaramay, bola haligacha kechalari sovuq terga botib uyg'onadi. Voldemort hozir qayerlarda kezib yurganini o'ylaydi. Uning g'azabli yuzi va telbanamo baqraygan ko'zini unuta olmaydi.

Birdan seskanib ketgan Garri to'g'ri o'tirib oldi. U bog'ning chakalak devoriga termilib o'tirar ekan, daf'atan... chakalak ham unga qarab turganini payqai! Yaproqlar orasidan bir juft, aqlga sig'mas darajada yirik ko'z chaqnab turibdi.

Garri irg'ib turdi. O'chakishganday, ayni shu paytda maysazorning narigi chetidan Dudlining kishini xo'rovchi ovozi eshitildi.

– Bugun qanaqa kunligini bilaman, – xirgoyi qildi u.

¹ Semestr (fransuzcha – semestre; lotincha semestris – olti oylik; yarim yillik (sex – olti + mensis – oy)) – olti va o'tta maxsus o'quv yurtlarida o'quv yilining yarmi.

lapanglagancha yaqin kelib.

Chakalak devorning yirik ko'zi bir-ikki bor pirpiradi-da. g'oyib bo'ldi.

– Nima deding? – so'radi Garri, nigohini ko'z ko'ringan joydan uzmay.

– Bugun qanaqa kunligini bilaman, – takrorladi Dudli Garriga taqalib qolguday yaqin kelib.

– Yasha! Nihoyat hafta kunlarini yod olibsan, – kesatdi Garri.

– Bugun sening tug'ilgan kuning, – tishining oqini ko'rsatdi Dudli, – nima uchun senga otkritka yo'llashmadi? Do'stlaring yo'qmi anavi yerda... Qayerda o'qir eding sen?

– Men tahsil ko'rayotgan maktab haqida gapirayotganingni onang bilmagani yaxshi, – sovuq ohangda ogohlantirdi Garri.

Dudli yumaloq qornidan pastga tushib ketayotgan ishtonini ko'tardi.

– Nega chakalak devorga baqrayib qolding.

– Afsunlarimning qaysi birini qo'llab, uni yoqib yuborishni o'ylayapman, – xushmuomalalik-la tushuntirish berdi Garri, Dudlidan xalos bo'lish niyatida.

Kutilganday bo'ldi. Yog' bosgan basharasini dahshat qamragan Dudli shu zahoti ortga tisarikdi.

– M-mumkin emas... m-man... D-dadam senga s-sehr bilan shug'ullanishni m-man etgan... uydin quvib yuboradi... boradigan joying yo'q seni... Hatto o'z uyiga k-kiritadigan do'stlaring ham yo'q...

Dudlining so'nggi gapi Garrining jahlini chiqardi.

– Koldi-boldi! Fog'li-mog'li! Kuf-suf... – jahd-la to'ng'illay boshladi Garri.

– OOOYIII! – baqira ketdi o'takasi yorilib, uy tomon pildiragan Dudli, OOOYIII! Anavi... o'zing bilasan nima

bilin olg'ullayapmi?

I BOB. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun

Bunday zararsiz o'yin Garriga qimmatga tushdi. Dudliga ham chakalak devorga ham hech nima qilgani yo'q, albatta. Petuniya xola ham hech qanday sehr-jodu qo'llanilmaganini ko'rib turibdi. Shunday bo'lsa-da, har ehtimolga qarshi, Garrini shashtidan qaytarish niyatida bo'lsa kerak, qo'lidagi tovani bolaga qarata uloqtirdi. Shundan so'ng Garriga bir dunyo ish buyurib, ularni bajarib bo'lganidan so'nggina ovqat haqida o'ylashi mumkinligini ma'lum qildi.

Dudli atrofda sandiroqlab, muzqaymoq yeb yurdi. Garri esa uy derazalari va amakisining mashinasini yuvib, bog'dagi maysalarni o'rdi, hovlidagi gullar atrofini yovvoyi o'tdan tozaladi, atirgulga suv quyib, ortiqcha novdalarini kesdi, bog' kursisini bo'yadi. Quyoshning tobora kuchli qizdirayotgan nuri bolaning bo'ynini ayovsiz kuydirdi. Garri, Dudlining nog'orasiga o'ynamasligi kerakligini biladi-yu, biroq bu gal u ablah, nozik joyidan oldi... Ehtimol, u haqdir. Balki, Garri «Xogvars»da bir yil yurib, haqiqatan ham biror nafar chin do'st ortira olmagandir...

Terga botgan, beli og'rib, lohas bo'lgancha, egatga go'ng sepayotgan dengdor Garri Potterming hozirgi ahvolini hech kim ko'rmayotganidan bola darg'azab bo'ldi.

Nihoyat, soat yetti yarim bo'lib, bola batamom holdan toyganida, uni uyga chaqirayotgan xolasining jirkanch ovozi eshitdi:

– Hoy sen, uyga kir! Oyoq ostiga qara, polga to'shalgan gazetalarni bosib o't!

Biroz yengil tortgan Garri oshxonaga kirdi. Muzlatkich ustida mehmonlar uchun tayyorlangan puding¹ – katta telpakka o'xshatib tayyorlanib, shakar binafsha bilan beza-

¹ Puding (inglizcha) – ingliz sevib iste'mol qiladigan, tuxum, shakar, sui va un qorishmasidan tayyorlanadigan pishiriq.

I BOB. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun

tugan ko'pchitilgan tuxum oqi turibdi. Duxovka¹dan esa lahm go'shtning yirik bo'lagi pishillab chiqarayotgan tovu-shi eshitilyapti.

– Tez ovqatlan! Xayol o'tmay Meysonlar keladi! – do'q urdi Petuniya xola, likopchaga ikki burda non bilan pishloq qoldiqlarini tashlab.

Xolasi bayram kechalarida kiyiladigan qizil baliq-rangli ko'ylagini kiyib olishga ulguribdi.

Garri qo'lini yuvib, g'aribona kechki ovqatini og'ziga solishi bilan xolasi qo'lidan likopchani tortib olib vishilladi:

– Yuqoriga! Tez yo'qol!

Mehmonxona eshigi yonidan o'tar ekan, smoking kiyib, kapalaknusxa galstuk taqib olgan Vernon amaki bilan Dudliga ko'zi tushdi. U endigina ikkinchi qavatdagi zina maydonchasiga ko'tarilgan ediki, kirish eshigining qo'ng'i-roq'i chalindi. Shu zahoti pastda, zina panjarasi orasida amakisining basharasi ko'rindi.

– Yodingda bo'lsin bola, churq etgan ovozing eshitilsa bormi...

Darmonsiz Garri oyoq uchida yurib, xonasiga kirdida, eshikni ichkaridan bekitib, cho'zilish niyatida karavotiga yuzlandi. Afsuski, karavot band. Unga kimdir astoydil joylashib olgan.



¹ Duxovka (ruscha) – ush-xona tokplitasi yoki gazplitasining ichiga o'tatilgan, qizdirib turli taomlar pishiriladigan maxsus tunuka moslama.

II BOB. XAVF HAQIDA DOBBINING XABAR BERISHI

Bamaylixotir o'tirgan g'aroyib mitti maxluqni ko'rgan Garri qichqirib yuborishdan o'zini bazo'r tiyib qoldi. Maxluqchaning ko'rshapalak qulog'ini eslatadigan qulog'i tanasiga nisbatan ancha katta, har biri tennis koptogiday keladigan yashil baqako'zlari esa kichkinagina yuzini deyarli batamom egallab charaqlamoqda. Bugun tongda bog'ning chakalak devoridan ayni shu ko'z qarab turganiga Garri ishonchi komil.

Bola va chaqirilmagan mehmon bir-biriga tikilib, muayyan vaqt sukut saqlashdi. Pastda esa Dudlining: «Paltongizni bering mister Meyson..., ijozatingiz bilan missis Meyson», – degani eshitildi.

Maxluq karavotdan polga sirpanib tushib, uzun burining uchi gilamga tegkuday darajada chuqur ta'zim bajo ayladi. Garri mehmonning egnidagi, qo'l va oyoq uchun qo'pol teshilgan, eski yostiq jildga o'xshash kiyimga e'tibor qildi.

– E-e-e... Salom! – ikkilanib salomlashdi Garri.

– Garri Potter! – birinchi qavatda eshitilishi mumkin bo'lgan baland chinqiriq-la xitob qildi maxluq, – Dobbi ko'pdan buyon siz bilan tanishish orzusida yurgan edi... Qanday muazzam sharaf!...

– Rah... rahmat, – javob berdi Garri.

Bola devor bo'ylab yurib, qafasga qamalgan Xedvig uxlayotgan yozuv stoli yoniga yetgach, kursiga o'tirdi. «Siz qanaqangi maxluqsiz?» deb so'ramoqchi bo'ldi-yu, savoli qo'pol eshitilishini o'ylab, fikridan qaytdi va oddiygina qilib ismini so'rab qo'ya qoldi:

– Siz kimsiz?

– Dobbi, ser. Oddiygina qilib Dobbi deya chaqira qo-

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

ling. Dobbi uy elfi¹ bo'ladi, – javob berdi mehmon.

– Rostdanmi? – xitob qildi Garri. – E-e-e... menga qarang, muhtaram mehmon. Sizga tarbiyasi yomon, qo'rs kishiday ko'rinmoqchi emasman-u, biroq... hozir men shunday ahvoldamanki. Qanday tushuntirsam ekan sizga?! Bu uyda qaror topgan vaziyat... Bir so'z bilan aytganda, hozir men uchun, uy elflarini qabul qilish mavridi emas.

Elf xuddi xafa bo'lgandek, katta qulog'ini osiltirib, boshini xam qildi. Pastda esa Petuniya xolaning uzoq, soxtaligi yaqqol bilinayotgan kulgisi yangradi.

– Nima bo'lganda ham tashtrifingizdan va sizni ko'rib turganimdan xursandman, – tez qo'shimcha qildi Garri. – Fikrimcha siz biror-bir jiddiy sabab tufayli kelgan bo'lsangiz kerak?

– Ha, albatta, ser, – jiddiy ohangda javob berdi Dobbi. – Dobbi aytmoqchiki, ser... Bu gapni aytilish Dobbiga u qadar oson kechmaydi, ser... Dobbi gapni nimadan boshlashni bilmayapti...

– O'tiring, – iltifot qildi Garri, karavotini ko'rsatib.

– O'-o'ti-iri-ing... – birdan uvillay ketdi elf. – Dobbiga hech kim, hech qachon... oldin hech qachon...

Garri, birinchi qavatda o'tirganlarning ovozi tinib qolganini sezdi.

– Ma'zur tuting, – pichirladi u. – Sizni xafa qilish niyatim yo'q edi. Umuman aytganda...

– Dobbini xafa qilish! – dedi hissiyotlarga to'lib, entikib qolgan elf. – Dobbiga hali hech qachon o'tirish taklif etilmagan... Hali biron-bir sehrgar... Dobbini o'ziga teng

¹ Elf – qadimgi Skandinaviya afsonalarida: arvoj, pari kabi afsonaviy maxluq. Elflar (nemischa: elf – alb so'zidan – oq ma'nosini anglatadi) – german-skandinaviya va kelt folklorida (xalq og'zaki ijodida) iliga olingan sehrgar xalq. Alvlar nonni bilan ham ma'lum. Elflar tavsifi turli afsonalarda har xil keltirilgan bo'lishiga qaramay, insonga do'stona munosabat bildiradigan, ruhoviyatda go'zal maxluqlar, o'rmon ruhlari sifatida gavydalanirilgan.

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

ko'rib...

Garri bir vaqtning o'zida ham «ts-s» deyish, ham yuzida achinish qiyofasini yasashga uringancha, Dobbini krovatga yetakladi. Mayriq qo'g'irchoqqa o'xshagan elf hiqichog'i tutib, krovatga astoydi! joylashgach, o'zini qo'lga oldi va hazin muhabbat to'la mungli nigohini Garriga qaratgancha, jim bo'ldi.

– Xushxulq sehrgarlarni kam uchratgan ko'rinasiz, chamasi, – tasalli berdi Garri.

Dobbi bosh iring'idi so'ng shartta o'rnidan sapchib turib:

– Dobbi yomon! Dobbi yomon! – degancha, boshini deraza oynasiga qarsillatib ura ketdi.

Garri, elf yoniga uchib borib, karavotga tortdi.

– Bas qiling, bu nima qilganingiz? – vishilladi u.

Kutilmagan to'polondan Xedvig uyg'onib, quloqni teshib yuboradigan darajada uvillagancha, qanotini qafas chiviqclariga urdi.

Boshini derazaga urish tufayli ko'zi qanshar tomon siljigan hechora elf Garriga yuzlandi.

– Dobbi o'zini o'zi jazolashi lozim, ser, – qilgan qiligi'ga tushuntirish berdi u, – Dobbi o'z oilasi haqida yomon gapirib qo'yishiga sal qoldi, ser...

– Oilasi haqida?

– Dobbi o'zi xizmat qilayotgan sehrgar oila haqida aytyapti, ser. Dobbi hozirgina aytganday, uy elfi bo'lib, o'sha xonadonning azaliy xizmatkori va bundan keyin ham abadiy xizmat qilmog'i darkor...

– Huzurimga tashrif buyurganingizdan xabari bormi, ularning? – qiziqdi Garri.

Bu savol Dobbini seskantirib yubordi.

– O, yo'q, ser, yo'q... Dobbi bu yerga kelgani uchun o'zini qattiq jazolashi kerak, ser. Bu ishi uchun Dobbi o'z

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

bormi, ser...

– Qulogʻingizni duxovka eshigiga qisganingizni payqashmaydimi?

– Yoʻq, ser. Dobbi bu masalada shubha qiladi. Negaki Dobbi doimo oʻz aybi uchun oʻzini oʻzi jazolab boradi. Uy egalari bunga koʻnikib qolishgan, ser. Baʼzan esa bu haqda Dobbiga oʻzlari ham eslatib turishadi...

– Ahvolingiz shu qadar ayanchli ekan, nega ularning xonadonini tark etib ketmaysiz? Nega ulardan qochib qutulmaysiz?

– Buning uchun, ser, uy elfi qullikdan ozod etilishi lozim. U oila esa Dobbini hech qachon ozod etmasligi aniq. Dobbi oʻla-oʻlguncha oʻsha xonadon xizmatida boʻladi, ser...

– Ha-a-a... tushunarli! Men esa arzimagan toʻrt hafta qolganidan norozi boʻlib yuribman. Sizning oilangiz bilan qiyoslaydigan boʻlsak, Dursllar eng mehribon oila ekan-da. Birov yordam bera oladimi sizga, misol uchun men?

Garri, gʻamxoʻrlik koʻrsatgani uchun shu zahoti afsus qildi. Negaki Dobbi ovozi boricha oh-voh qilib, minnatdorlik izhor etishga rushdi.

– Iltimos, – chorasiz pichirladi Garri, – iltimos, sekin roq gapiring. Agar Dursllar eshitib qolsa... agar huzurimda birov borligini bilib qolishsa...

– Garri Potter yordam qoʻlini uzatmoqchi. Dobbi... Dobbi sizning buyukligingiz haqida eshitgan-u, bu qadar gʻamxoʻrligingizni bilmagan ekan...

Bunday gapdan Garrining yuzi qizardi.

– Buyukligim haqida eshitgan gapingizning bari or tiqcha safsata. Men hatto aʻlochi ham emasman. Aʻlochi Germiona... u...

Garri gap boshlashga boshladi-yu, davom eta olmadi.

Germionaning eshitishiga unga qoʻl koʻchadi.

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

Dobbining sharsimon ko'zida zavq ifodalandi.

– Garri Potter nihoyatda odobli va o'ta kamtarin ekan, – dedi izzat-hurmatni ifodalagan ohang ila ta'kidlab, – Garri Potter «dsmi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» ustidan qozongan g'alabasini hech kimning esiga solmaydi...

– Voldemort ustidanmi? – o'ylab-netib o'tirmay valdirab qo'ydi Garri.

– Oh, ismini talaffuz etmang uni, ser! Talaffuz etmang! – chiyilladi elf, mitti kaftini ulkan qulog'iga bosib.

– Ma'zur tuting, – tez uzr so'radi Garri, – xabarim bor, bu ismni eshitish ko'pchilikka yoqmaydi. Mana, misol uchun do'stim Ron...

Garri yana jim qoldi. Ronni eslash ham og'ir kechdi...

Ko'zi yarqiragan Dobbi Garriga yaqinroq engashib pi-chirladi:

– Garri Potter atigi bir necha hafta oldin yovuz lord bilan takror to'qnash kelgani... Garri Potter yana omon qolganini Dobbi eshitdi.

Garri Dobbining gapini ma'qullab bosh irg'idi, elf esa ko'ziga yosh oldi.

– Oh, ser, – xo'rsindi u, egnidagi yag'iri chiqqan yosti-qild burchagi bilan yuzini artib, – Garri Potter jasur va mard kishi! U shuncha xavfni mardlarcha yengdi! Biroq Dobbi bugun Garri Potterni himoya qilgani kelgan. Qulog'ini duxovka eshigiga necha marta qisishga to'g'ri kelishidan qat'i nazar, uni asrab qolgani kelgan... Garri Potter «Xogvars»ga qaytmasligi kerak.

Mehmon bilan mezbon o'rtasiga sukunat cho'kdi. Pastki qavatdan pichoq va sanchqilarning likoplarga taqirtuqur urilayotgani va Vernon amakining dag'al ovozi eshitildi.

– N-nima? – birdan duduqlanib so'radi Garri. – Nimalar deyapsiz? Men maktabga borishim shart. Semestr birin-

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

eni sentabrdan boshlanadi. Maktab mening hayotim-ku, «Xogvars»siz xarob bo'lishim muqarrar. Bu yerda qanchalik qiynalayotganimni tasavvur ham qila olmaysiz. Men Dursllar oilasi uchun yot begonaman! Men o'z dunyomga – maktabga qaytishim shart.

– Yo'q, yo'q, yo'q, – dedi Dobbi, qulog'i lunjiga urilib-urilib ketgan darajada bosh chayqab, – Garri Potter xavfsiz joyda qolishi kerak. Agar Garri Potter «Xogvars»ga qaytsa, o'zini o'zi halokatga eltgan bo'ladi.

– Qanaqangi halokat? – hayron bo'ldi Garri.

– Fitna. ser. Shunday fitnaki, bu yil sehrgarlik va afsungarlik san'ati maktabi «Xogvars»da misli ko'rilmagan mudhish voqealar bo'ladi, – pichirladi Dobbi, butun tanasi kutilmaganda titray boshlab. – Dobbining bu fitnadan ko'pdan buyon xabari bor. Garri Potter tavakkal qilishga haqi yo'q, ser. U biz uchun juda katta ahamiyatga ega zot!

– Qanaqangi mudhish voqea? – darhol so'radi Garri.
– Kim uyushtirayotgan fitna?

G'alati bo'g'iq ovoz chiqargan Dobbi boshini devorga urdi.

Xo'p! Ayta olmaysizmi, mayli aytmang, – qichqirdi Garri, elfning qo'lidan tutib. – Ahvolingizni tushundim. Biroq aytmas ekansiz, nega boshladingiz?! – birdan uning xayoliga noxush o'y keldi. – Menga qarang! Bularning bari mabodo Volde... uzr, «O'zingiz-Bilasiz-Kim» bilan bog'liq emasmi? Bog'liqmi? – Dobbining boshi devorga nisbatan xavfli masofaga yaqin borayotganini ko'rgan Garri tez qo'shib qo'ydi: – bog'liq bo'lsa, boshingizni irg'ing, aks holda chayqab qo'ying.

Dobbi boshini juda sekin chayqadi.

– Yo'q, «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» emas, ser...

Dobbi ko'zini katta ochib, ovoz chiqarmay nimagadir shama qilmoqchi bo'lishga urinar, Garri esa ushbu shama

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

mazmunini tushuna olmas edi.

– Uning akasi yoki ukasi yo‘q-ku, shunday emasmi?

Dobbi boshi chayqab, ko‘zini yanada kattaroq ochdi.

– Unday bo‘lsa, «Xogvars»da juda mudhish voqealar bo‘lishiga yana kim sababchi bo‘lishini bilmadim, – dedi Garri, – U yerda Damblдор bor-ku, bu avvalambor... Damblдорning kimligini bilasiz-u, a?

Dobbi ehtirom ila bosh iring‘idi.

– Albus Damblдор – «Xogvars» tarixidagi eng buyuk direktor, ser. Dobbining bundan xabari bor. Damblдорning qudrati bir vaqtlar «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» ega bo‘lgan sehr qudratiga bas kela olishini ham Dobbi yaxshi biladi, ser. Ammo, ser...(Dobbining ovozi pasayib, qat‘iy ohang kasb etdi) Shunday kuchlar borki, ularga qarshi Damblдор... shunday kuchlar borki, biron-bir boadab sehrgar...

Sergakligini bir soniyaga yo‘qotgan Garri Dobbini tutib qolishga ulgurmadi. Elf karavotdan sakrab tushib, stol usti chirog‘ini qo‘liga oldi-da, boshiga ura ketdi.

Birinchi qavatdagi odamlarning ovozi tindi. Ikki soniya o‘tgach, qoni boshida shovqin solib tepayotgan Garri zinadan ko‘tarilib kelayotgan Vernon amakining qadam tovushi va yo‘l-yo‘lakay:

– Kichkintoyimiz yana televizorni o‘chirmay qoldirgan, chamasi! – degan ovozini eshitdi.

– Kiring, tez! – pichirladi Garri.

Garri uy elfi – Dobbini kiyim javoniga krigizdi va eshigini yopdi. Shu zahoti xona eshigining dastasi buralayotgan fursatda o‘zini karavotga tashlashga ulgurdi. Ichkariga kirgan Vernon amaki g‘azab ifodalangan basharasini Garrining yuziga yaqin keltirib, mahkam qisgan tishi orasidan asta vishilladi:

– Qanday jur‘at etyapsan?! Mehmonlarga aytiladigan golf klyushkasi haqidagi yapon latifasining beliga tepding-

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

ku, yaramas. Ovozining yana eshitiladigan bo'lsa bormi, bu dunyoga kelganingga ming marta pushaymon yeysan, bola, tushundingmi?

Zahrini ilonday to'kib-sochgan Vernon amaki fil singari og'ir qadam tashlab, xonani tark etdi. Hayajondan titrog'i to'xtamagan Garri javonga qamalgan jonsarak mehmonni chiqardi.

– Ko'rdingizmi, qay ahvolda yashashimni? – asta shikoyat qildi u. – Endi tushundingizmi nima uchun «Xogvars»ga qaytishni istashimni. Men uchun maktab – do'st orttirgan yagona qadrdon joy... Har qalay, men shunday deb o'ylayman...

– Ha, shunday do'st ortirgansiz-ki, ularning birortasi Garri Potterga ikki enli bo'lsa ham xat yo'llashni o'ziga ep ko'rmaydi, a? – dedi, ko'zini ayyorona qisgan elf.

– Menimcha, ular... To'xtang, siz qayerdan bilasiz do'stlarim menga xat yozmayotganini? – qoshini chimirdi Garri.

Ko'zini olib qochgan Dobbi tanachasining og'irligini dam u, dam bu oyog'iga soldi.

– Garri Potterni Dobbidan jahli chiqmasligi kerak. Dobbi shunday qilsa, yaxshiroq bo'ladi deb o'ylaydi...

– Demak menga kelgan xatlarni siz olgan ekansiz-da?

– Xatlarning bari Dobbining yonida.

Garrining qo'li yetmas masofada hadiksirab turgan elf qo'ynining allaqayeridan yo'g'on konvert¹ dastasini chiqardi. Garri konvertlardagi Germionaning batartib, Ronning aji-buji dastxatini, hatto «Xogvars» qorovuli Xagrid yozganiga shubha bo'lmagan kirdi-chiqdi «husnixat»ni tanidi.

Dobbi xijolat chekkancha, katta ko'zini pirpiratib, tu-

¹ Konvert (fransuzcha: convert) – ichiga xat, hujjat va shu kabilarni solib, biror joyga yuborish uchun ishlatiladigan, to'rtburchak shaklda yasalgan qog'oz paket; xatjild

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

shuntirdi.

– Garri Potterning Dobbidan jahli chiqmasin... Dobbi umid qilgan... do'stlari unutgan, Garri Potter... maktabga qaytishni istamaydi... ser...

Garri Dobbining poyintar-soyintar gapiga quloq ham solmadi. U xatlarni changallab olishga urindi-yu, elf orqaga sapchib, chekindi.

Agar Garri Potter «Xogvars»ga qaytmaslikka so'z bersa, Dobbi xatlarni beradi, ser. Tushuning, axir, ser, xatarli joyga borishingiz mumkin emas! Maktabga qaytmaslikka so'z bering, ser!

– Yo'q. – jahl qildi Garri, – xatlarimni bering.

– Unday bo'lsa, Dobbi so'nggi chora ko'rishga majbur bo'ladi, – dedi elf ma'yus ohangda. Chiqish eshigini shartta ochgan Dobbi birinchi qavat tomon yo'l oldi.

Mitti maxluqning harakati shu qadar tez kechdiki, bo-la qilt etishga ulgurmadi. Dobbining qilig'idan og'zi qurib, qorni uvushgan Garri ovoz chiqarmaslikka urinib, elfning ketidan quvdi. U zinaning so'nggi oltita pog'onasi ustidan sakrab, gilam ustiga mushuk singari tovush chiqarmay tushdi-da. Dobbini qidirib atrofga qaradi. Mehmonxonadan Vernon amakining ovozi eshitildi.

– Mister Meyson, Petuniyaga amerikalik ustalar haqidagi anavi qiziq voqeani aytib bersangiz, iltimos. O'sha kulgili hodisani rafigam juda eshitkisi kelyapti...

Garri dahliz orqali yugurib o'tib, oshxonadagi holatni ko'rgach, turgan joyida qotib, qorin sohasi bo'shliqqa aylanib borayotganini jismonan his etdi. Petuniya xolaning «shoh asari» bo'lmish puding oshxona shifti ostida muallaq osilib turibdi. Burchakdagi javon ustiga chiqib olgan Dobbi esa enkayib olgan.

– Yo'q. – ingradi Garri. – Iltimos, Dobbi, unday qilmang, axir, ular meni o'ldirib yuborishadi!

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

– Garri Potter maktabga qaytmalikka va'da bersin...

– Dobbi... iltimos...

– Ont iching, ser!

– Ilojim yo'q!

– Unday bo'lsa, – bolaga fojiali nigoh tashladi elf, – Dobbi, Garri Potterni manfaatini ko'zlab, shu ishni qilishga majburdir.

Puding stol ustiga chunonam gumburlab tushdiki, Garriining yuragi to'xtab qolay dedi. Likop chilparchin bo'lib, tuxum oqi oshxonaning devor-derazalariga sahradi. Dobbi esa qamchi urilganida chiqadigan tovush chiqargancha, g'o'yib bo'ldi.

Mehmonxonada o'tirganlar qo'rqqanidan qichqirib yuborishdi. Oshxonaga uchib kelgan Vernon amaki boshdan-oyoq pudingga belanib, serryib qotgan Garrini ko'rdi.

Vernon amaki hodisani bosdi-bosdi qilib yuborishga erishganday bo'ldi. Qo'rqqanidan tevarak-atrofga qochib ketgan tovuqlarni haydab kelganday hammani mehmonxonaga qaytadan to'pladi.

– Bu bizning jiyanimiz, – tushuntirish berdi u. – Uyda begonalarni ko'rsa, ana shunday asabiylashib qoladi. Shu bois mehmon kelganda uni yuqori xonada saqlaymiz. To'g'ri tushunasiz degan umiddaman.

So'ng Garrining yoniga kelib, mehmonlar ketgach, terisini shilib olishga va'da berdi-da, qo'lga polyuvgichni tutqazdi. Petuniya xola esa mehmonlarni puding o'miga muzqaymoq bilan siylashga majbur bo'ldi. Haligacha o'zini bosa olmagan Garri oshxona tozalashga kirishdi.

Agar navbatdagi hodisa ro'y bermaganida, Vernon amaki o'z shartnomasini imzolati olishga ulgurgan bo'lar edi.

Petuniya xola dasturxonga endigina yalpiz qand uzatgan ediki, juda ulkan boyqush xonaga vahima solgancha otilib kirib, missis Meysonning boshi ustiga allaqanday xat

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

tashladi-da, uchib ketdi.

– Jinnixona bu! Jinnixona! – yurakni muzlatib yuborguday chiyilladi ayol, uydan qochib chiqib.

Mister Meyson esa Dursllarga xotini har qanday o'lchamli va har qanday turga mansub qushdan o'larcha qo'r-qishini ma'lum qilish, ko'rsatilgan ushbu bema'ni va ahmoqona tomosha mezbonlarning o'ziga kulgili tuyulgan-tuyulmaganini bilish uchungina biroz ushlanib, chiqib ketdi.

Mayda ko'zida iblisona uchqun yarqiragan Vernon amaki boyqush keltirgan xatni siltagancha asta yurib, yiqilib tushmaslik uchun oshxona o'rtasida polyuvgichga suyanib olgan Garrining yoniga keldi.

– O'qi! Ol, o'qi! – dedi u, qahr-g'azab to'lgan ovozda.

Tug'ilgan kuni bilan tabriklab yo'llangan noma emasligiga shubha qilmagan Garri, xatni qo'lga oldi.

Hurmatli mister Potter!

Bugun, kechki soat to'qqizdan o'n ikki daqiqa o'tganda Siz istiqomat qilayotgan manzilda sehr-jodu amali bajarilgani haqida xabar keldi.

Balog'atga yetmagan sehrgarlarga, ular tahsil ko'rayotgan ta'lim muassasasidan tashqarida har qanday turdagi va har qanday xususiyatga ega sehr-jodu qo'llash man etilgani o'zingizga ma'lum. Siz tomondan kelgusida takrorlanadigan o'xshash faoliyat, yuqorida tilga olingan ta'lim muassasasida tahsil ko'rayotgan o'quvchilar ro'yxatidan chetlashtirilishingiz bilan yukun topishi mumkin (1875-yili qabul qilingan «Balog'atga yetmaganlar orasida sehrgarlik faoliyatini oqilona cheklash to'g'risidagi dekret»ning «S» bandi).

Sehrgar bo'lmagan jamiyat a'zolari (mag'llar) tomondan fosh etilish xavfiga olib keladigan har qanday turdagi afsungarlik faoliyati Butun Jahon Sehr-jodu Konfederat-

II BOB. Xavf haqida Dobbinning xabar berishi

siyasining «Maxfiylik Maqomi», xususan, ushbu hujjatning 13-ho'limida bayon etilgan talablar jiddiy ravishda huzilishi sifatida tasniflanishini sizga takror eslatib o'tish lozim deb topildi.

Ta'tilni dilkashlik-la o'tkazishingizni tilayman!

Ehtirom ila, Majalda Xopkirk. Sehrgarlik vazirligi. Sehrgarlik va afsungarlik faoliyati ustidan nazorat bo'limi

Garri boshini xatdan ko'tarib, g'ayriixtiyoriy yutindi.

– Maktab tashqarisida sehrgarlik bilan shug'ullanish taqiqlangani haqida bizga aytmagan eding, – nihoyat ovoz berdi Vernon amaki.

Uning ko'z qorachig'i aqldan ozgan kishi ko'zining qorachig'iday xiralashdi.

– Yodingdan ko'tarilgan, chamasi, unutilib qo'ygandir-san...

U tishini yalang'ochlab, bahaybat buldog singari bola ustida turib oldi.

– Nima ham der edim, bolakay, senga aytadigan yangiligim bor... Hozir seni xonangga qamayman... Maktabingga esa hech qachon bormaysan... Hech qachon... Anavi sehrli qiliqlaring bilan qochib qolishga urinsang – maktabdan quvib solishadi! – dedi-da, xuddi savdoyi kabi qahqahlab Garri-ni itni tortganday, yuqoriga sudrab ketdi.

Vernon amaki o'z tahdidlarini hayotga nihoyatda aniq tatbiq etdi. Ertasiga u usta chaqirib, xona derazasiga panjara o'rnatdi. Kirish eshigi ostiga esa mushuk kirib-chiqishi uchun ochiladigan tuynuk ochdi. Ushbu tuynuk orqali kuniga uch mahal oz-ozdan ovqat kiritildi. Bola hojat chiqarishi uchun kuniga ikki mahal, ertalab va kechqurun chiqarildi. Qolgan vaqt esa ustidan qulflab qo'yildi.

Oradan uch kun o'tgan bo'lsa ham-ki, joriy etilgan qat'iy tartib o'zgarishsiz, vaziyatdan chiqish yo'li esa Garri

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

uchun qorong'i bo'lgancha qoldi. Qornini yerga berib, kun botishini panjara orqali tomosha qilar ekan, taqdiri nima bo'lishini o'ylab yotdi.

Agar «Xogvars»dan haydab yuborishadigan bo'lsa, sehr qo'llashdan endi nima naf? «Odamovilar» xiyobonida yashashning ham ma'nosi qolmadi. Negaki Dursllar endi biror kun ertalab sichqon yoki qurbaqa sifatida uyg'onishdan qo'rqishmagani bois ularga qarshi qo'llanilgan tahdid endi batamom barham topdi. Ehtimol, haqiqatan ham Dobi Garrini go'yo «Xogvars»da ro'y beradigan o'sha noma'lum mudhish voqealardan asrab qolishga erishgandir, biroq nima qilgan taqdirda ham ahvol shu tarzda qoladigan bo'lsa, ochdan o'lishi muqarrar.

Eshikdagi tuynuk qopqog'i ochilib, Petuniya xolaning konservalardan tayyorlangan sho'rvani ichkariga tutgan qo'li ko'rindi. Ochlikdan qorni umurtqasiga yopishgan Garri iring'ib turib, kosaga tashlandi. Sho'rva muzday bo'lishiga qaramay kosani bir ko'tarib, yarmini tamomladi so'ng Xedvigning yoniga kelib, qafasidagi ovqat qutichasiga nam lat-ta bo'laklariga o'xshash sabzavot soldi. Yemni ko'rgan boyqush patini hurpaytirib, sohibiga jirkanch qiyofa ila qarab qo'ydi-da, teskari o'girildi.

– Nega tumshug'ingni teskari qilasan, tentakvoy, boriga shukur qil, – dedi Garri qat'iy ovozda.

Bo'shagan kosani yerga, tuynuk yaqiniga qo'yib, qorni battar ochqaganini his etgancha, yana karavotiga yotdi.

– Faraz qilaylik, to'rt hafta o'tib men hamon tirik bo'lsam-u, «Xogvars»ga qaytmasam, nima bo'ladi? – o'yladi Garri. – Menga nima qilganini bilish uchun biror kishini yuborishadimi? Meni qamoqdan ozod qilishga Dursllarni majbur eta olishadimi?

Tashqarida qosh qorayib, xona qorong'ilashdi. Behuda xayollar, javobsiz savollar va qorni g'uldirashidan ezilgan

II BOB. Xavf haqida Dobbining xabar berishi

Garri notinch uyquga ketdi.

Tushida u go'yo hayvonot bog'idagi qafasga qamal-gan. Qafasning chap tomonidagi yuqori burchagiga «**Balo-g'atga yetmagan sehrgar**» so'zlari bitilgan yortliq mah-kamlangan. O'tgan-ketgan odamlar panjara orqali Garrini tomosha qilishmoqda. Garri esa qorni ochligidan holsizlan-gan holatda, burchakka to'shalgan poxol ustida yotibdi. Bir payt tomoshabinlar orasida Dobbi ko'rindi. Garri yordam so'rab, unga iltijo qildi. Dobbi esa bolaning o'tinchiga ja-voban: «Garri Potterga shu yer xavfsizroq, ser!», – deya qichqirgancha, g'oyib bo'ldi. Birozdan so'ng Dursilar pay-do bo'ldi. Dudli qafas chiviqlarini tortib, Garrini mazax qildi.

– Bas qil. – g'udrandi Garri, miyadan chiqmayotgan taqir-tuqurdan xalos bo'lishga urinib, – meni tinch qo'y... ket... uyqum kelyapti...

Garri uyg'onib, ko'zini ochdi. Oy nuri deraza panjarasi orasidan ichkariga singib o'tgan, chiviqlar ortida esa chin-dan ham sepkil yuzli, malla sochli, burni uzun odam Gar-riga qarab turibdi.

Ron Uesli-ku bu!

III BOB. «BOSHPANA»

– Ron! – bazoʻr ovoz chiqara oldi Garri.

U panjara orqali gaplasha olishlari uchun deraza romini yuqoriga koʻtardi.

– Ron, qalaysan? Qayerdan...

Biroq manzarani koʻrgan Garrining jagʻi tushib, gapirish qobiliyati yoʻqolgancha, ogʻzi lang ochildi. Aql bovar qilmaydigan holatni asta-sekin idrok eta boshladi. Ron boshini havoda muallaq osilgan moviy rangli, eskirib, shalogʻi chiqqan mashinaning orqa eshigidan chiqarib olgan. Mashinaning oldingi oʻrindiqlarida esa uning egizak akalari Fred bilan Jorj irshaygancha bosh iringʻib, salom berib oʻtirishibdi.

– Ishlar qalay, Garri? – soʻradi Jorj.

– Senga nima qildi? – soʻradi Ron. – Nega xatlarimga javob yozmading? Kam deganda oʻn ikkita taklifnoma yoʻlladim! Keyin dadam magllarning koʻz oʻngida sehrgarlik qilganing uchun ogohlantirilganliging haqida xabar keltirib qoldi...

– Sehrgarlikni men qilganim yoʻq... Dadang qayerdan bila qoldi?

– Axir, u vazirlikda ishlaydi-yu, – tushuntirdi Ron, – «Xogvars»dan tashqarida sehrgarlik bilan shugʻullanish taqiqlanganini bilar eding-ku?!

– Kim gapirsa ham sen indamaganing maʼqul, – vaysadi Garri havoda toʻxtatilgan mashinaga maʼnoli imo qilib.

– Bu sehrgarlikka kirmaydi, – dedi Ron, Garrining nimaga ishora qilganiga javoban. – Uni biz sehrlaganimiz yoʻq. Mashina dadamniki. Vaqtincha olib turibmiz. Hayratdan qotib qolgan magllarning koʻz oʻngida esa...

– Aytdim-kusenga, sehrgarlikni men qilganim yoʻq deb. Buni uzoq tushuntirishga toʻgʻri keladi... Gapimga quloq soling. «Xogvars»ga borib, Dursilar meni qamab qoʻyish-

III BOB. «Boshpana»

gani, maktabga borishga to'sqinlik qilishayotgani, sehrgarlik qo'llash yo'li bilan ularning tutqunidan qutula olmasligini, negaki vazirlik meni uch kun ichida ikkinchi marta afsungarlikka yo'l qo'ygan deb e'tirof etib, yanada qat'iy chora ko'rishi mumkinligini...

– To'xta, bir pas fig'on-u oh-voh qilmay tur, – gapni bo'ldi Ron. – Biz seni olib ketgani keldik.

– Qanaqasiga, olib ketgani. Axir, sizlarga ham sehr qo'llash taqiqlangan-u...

– Bizga sehr qo'llashga hojat yo'q. – kulimsiradi Ron, – o'zim bilan kimlarni olib kelganimni ko'rmayapsanmi?

– Mana buni panjara chiviqclariga o'ra, – dedi Fred, Garriga arqonning bir uchini tashlab.

– Agar Dursllar uyg'onib qolsa borini, meni murda deb hisoblashlaring mumkin, – dedi Garri, arqonni chiviqqa mahkam bog'lab.

– Tashvish tortma, – dedi Fred, motorni ishga solib, – chetrog qoch.

Garri xona ichkarisiga chekinib, Xedvigning yoniga bordi. Qush ham fursatning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini idrok etgan, chamasi, ko'z o'ngida ro'y bera-yotgan jarayonni jim kuzatmoqda.

Motor borgan sari baland gurillab, nihoyat panjara deraza romidan qarsillagancha ko'chib chiqdi. Avtomobil esa keskin yuqoriga ko'tarildi. Garri derazaga yaqin kelib, panjara-ni y e r y u z i d a n b i r n e c h a m e t r y u q o r i d a o s i l i b t u r g a n i, Ron uni kuchanib mashinaga tortayotganini ko'rdi.

Garri diqqat-e'tiboriga zo'r berib, ichkariga quloq tutdi. Dursllar yotoqxonasidan ovoz chiqmadi.

Nihoyat panjara avtomobilning orqa o'rindig'iga, Ron yoniga joylashtirilgach, Fred mashinani orqaga, imkon qadar derazaga yaqin keltirdi.

– Chiq, – dedi Ron.

III BOB. «Boshpana»

– Meni... maktab buyumlarim... tayoqcha... supurgi...

– Qayerda ular?

– Zina ostidagi bufetda, qulflab quyilgan, men xonadan chiqqa olmayman.

– Bu muammo emas, – dedi Jorj beparvo ohangda, – qani, Garri, nari tur-chi.

Fred bilan Jorj xuddi bir juft mushuk singari derazadan xonaga kirishdi. Jorj cho'ntagidan sochto'g'nog'ich chiqardi-da, qulf teshigiga tiqib, aylantira ketdi.

– Vaqti behuda ketishini istamagan aksariyat sehrgarlar magllarning har xil ko'zboylog'ichliklarini nazar-pisand qilishmaydi, – dedi Fred. Biz esa, aksincha, ulardan ko'p narsalarni o'rganish kerak deb bilamiz. Afsun singari tez kechmasa-da, ularning ayrim ko'zboylog'ichliklarini qo'l-lasa bo'ladi.

Qulfning astagina shiq etgan tovushi eshitilib, eshik ochildi.

– Demak, gap bunday. Biz sandig'ingni ko'tarib kelaymiz, sen esa mana bu xonadagi lash-lushlaringni yig'ishtirib, Ronga uzat, – buyurdi Jorj.

– Zinaning so'nggi pog'onasida ehtiyot bo'ling, g'ichir-laydi, – tayinladi Garri.

Garri xonada zir yurib, narsalarini Ronga uzata boshladi. Sandiqni ko'tarib kelayotgan Fred bilan Jorjga yordamga chiqdi. Shu fursatda Vernon amakining yo'talgani eshitildi.

Ular hansiragancha, ikkinchi qavatga yetib, sandiqni ochiq deraza yoniga tokchasiga qo'yishdi. Fred mashinaga chiqib, Ronga yordam berdi, Garri esa Jorj bilan xonada turib turtishdi.

Vernon amakining yo'tali eshitildi.

– Yana ozgina, – kuchandi Fred, – yana biroz turtib

III BOB. «Boshpana»

Garri bilan Jorj yelkalarini ishga solishdi va nihoyat sandiq deraza tokchasida sirpanib, mashinaning orqa o'rindig'iga joylandi.

Bo'ldi, ketdik, – pichirladi Jorj.

Garri endigina deraza tokchasiga chiqqan ediki, boyqushning norozi chinqirig'i, ketidan esa Vernon amakining:

– JIN URSIN BU QUSHNI! – degan o'kirishi eshitildi.

– Xedvigni unutibman-u!

Garri qush tomon uchdi. Bu vaqtda zina yonidagi chiroqyoqqichning shiq etgan tovushi eshitildi. Bola qafasni mahkam ushlab, deraza tomon o'qday o'tdi-da, boyqushni Ronga uzatib, javon ustiga chiqdi. Shu fursatda Vernon amaki mushti bilan kuchli taqillatgan eshik qarsillab ochildi. Amaki eshik kesakisini ushlagancha, bir necha soniya angrayib qoldi, so'ng xuddi quturgan novvos kabi bo'g'iq na'ra tortdi-da, boshini oldinga solib, Garriga tashlangancha, bolaning to'pig'idan ushlab olishga utgurdi.

Garrining qo'lidan mahkam ushlab olgan aka-uka Ueslilar bolani jon-jahd ila mashinaga tortishdi.

– Petuniya! – ayyuhannos soldi Vernon amaki. – Qochyapti! QOCHYAPTI!

Baravariga zo'r bergan Ron, Fred va Jorj Garrining oyog'ini Vernon amakining qo'lidan chiqarib olishga muvaffaq bo'lishdi. Garri mashinaga kirib, eshikni yopdi.

– Gazni bos, Fred! – qichqirdi Ron.

Mashina go'yo kamon o'qi kabi shiddat-la Oy tomon ko'tarildi.

Garri hamon baxtiga ishonmayapti: nahotki u qafasda uzoq qamalib, nihoyat erkinlikka chiqqan qush kabi uchib ketayotgan bo'lsa! Boshini mashina oynasidan chiqargan ediki, sho'x esayotgan shabada sochini o'ynatdi. «Odamlar» xiyohonidagi uy tomlari asta-sekin kichraymoqda. Garrining xonasidagi derazadan tanasini chiqarib olgan

III BOB. «Boshpana»

Vernon amaki, Petuniya xola va Dudli o'z ko'ziga ishonmay, osmon-u falakka tikilgancha, serrayib qolishgan.

– Kelasi yozda ko'rishguncha. – qichqirdi ularga Garri.

Bolalar qotib-qotib kulishdi. O'rindiqning kursisiga suyanib olgan Garrining og'zi qulog'ida.

– Ilmos, Xedvigni qo'yib yubor, – dedi u Ronga, – uning qanot yozmaganiga ming yil bo'ldi. Maza qilib uchsini.

Jorj Ronga soch-to'g'nog'ichni uzatdi. Ozodlikka chiqqan darhol Xedvig hamisoli arvoh kabi mashina bilan tepa-teng havoda sirpanib bordi.

– Xo'sh, nima bo'ldi? – sabrsizlik-la so'roqqa tutdi Ron – Senga nima qildi?

Garri bo'lib o'tgan voqealarning hammasini: Dobbi haqida ham uning ogohlantirishi haqida ham shakar binatsha bilan bezatilgan puding mehmonlarga nasib qilmagani haqida ham aytib berdi. Hikoyasi yakuniga yetgach, o'rtaga uzoq davom etgan iztirobli sukunat cho'kdi.

– Bu yerda qandaydir firibgartik borga o'xshaydi, – xulosa chiqardi nihoyat Fred.

– Haq gap, nimadir shubha tug'diryapti, – deya uning fgapiga qo'shildi Jorj. – Qanday fitna ekani-yu, uning ishtirokchilari haqida hech narsa demadimi o'sha Dobbi?

– Aytmoqchi bo'ldi-yu, jur'at eta olmadi, nazarimda. Og'zidan gap chiqishiga bir baxya qolganda boshini devorga qarsillatib ura ketadi.

Fred bilan Jorj bir-biriga qarab qo'yishdi.

– Nima? Dobbi meni laqillatgan, deb o'ylaysizmi?

– Nima desam ekan, – dedi Fred. – Uy elfi chindan ham sehr-jodu qo'llay oladi. Faqat u o'z sahibining ijozatisiz sehr qo'llamaydi. Fikrimcha qariya Dobbini huzuringga «Xogvars»ga qaytmasliging uchun atayin yo'llashgan. Kimdir hazillashgan ko'rinadi. Nima deb o'ylaysan, senga nis-

III BOB. «Boshpana»

batan kek saqlab, adovat ruhida yurganlar bormi?

– Bor, – baralla javob qaytarishdi Ron bilan Garri.

– Drako Malfoy, – tushuntirish berdi Garri. – uning meni ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q.

– Drako Malfoy? – so'radi Jorj, orqaga o'girilib. – Mabodo u, Lyutsius Malfoyning o'g'li emasmi?

– Ehtimol. Bunday familiya keng tarqalgan emas-ku, – dedi Garri. – Nima qildi?

– Dadam u haqda gapirayotganini eshitib qolgan edim, – tushuntirdi Jorj. – U bir vaqtlar «O'zing-Bilasan-Kim»ga to'la-to'kis xizmat qilgan ekan.

– «O'zing-Bilasan-Kim» g'oyib bo'lgach, – qo'shimcha qildi Fred, Garriga qarash uchun boshini orqaga burib, – Lyutsius Malfoy oramizga qaytib, biron-bir nojo'ya ish qilmagani va aybdor emasligini ma'lum qildi. Biroq uning hamma gapi yolg'on. «O'zing-Bilasan-Kim»ning eng yaqin hamtovoqlaridan biri bo'lganiga dadamning ishonchi komil.

Garri hayron bo'lmadi. Malfoylar oilasi haqidagi o'xshash gaplarni u oldin ham eshitgan. Dudli Drakoga nisbatan ancha aql-farosatli, ko'ngilchan va nozik tabiatli boladay ko'rinadi.

– Malfoylar xonadonida uy elfi bor-yo'qligini bilmadim... – o'ylanib qoldi Garri.

– Kimning elfi bo'lishidan qat'i nazar, o'sha oila juda qadimiy va boy sehrgarlar sulolasiga mansubdir, – dedi Fred.

– Ha. Onam doimo kiyim dazmollaydigan uy elfi bo'lishini orzu qiladi, – qo'shimcha qildi Jorj. – Bizda esa chordoqda yashaydigan yaramas qari ko'rshapalak bilan

III BOB. «Boshpana»

bog'imizda to'lib-toshgan gnomlardan¹ boshqa hech balo yo'q. Uy elflari dang'illama hovlilar, qasrlar va shunga o'xshash koshonalarda yashaydi. Bizning uyimizda esa bunday maxluqlar bo'lmaydi...

Garri indamadi. Drakoda doimo eng sara narsalar bo'lishi inobatga olinsa, Malfoylar oilasini tillası to'lib-toshgan sehrgarlar sulolasi ekanini tasavvur qilish qiyin emas. Garri «Xogvars»ga qaytmasligi uchun o'z xizmatkor elfini yuborishi – dang'illama hovlida o'sayotgan Drakoning tabiatiga xos hazıllardan biridir. Qanday qilib Dobbining gapini chinga olib, laqqa tushish mumkin?

– Nima qilganda ham seni olib ketgani kelganimizdan juda xursandman, – dedi Ron. – Xatlarimga javob qaytarmaganing uchun chinakamiga tashvishga tusha boshlagan edim. Dastlab Erroldan ko'rdim...

– Errol deganing kim?

– Oilamiz ukkisi. Juda qarib qolgan qush. Pochta tashib, ko'p qulab tushgan. Germesni ham yo'llamoqchi bo'ldim...

– Kimni?

– Sinfboshi etib tayinlangani uchun ota-onam Persiga sovg'a qilgan boyqush, – tushuntirdi mashinani boshqarib ketayotgan Fred.

– Lekin Persi boyqushini bermadi, – davom etdi Ron, – o'zimga kerak deb turib oldi.

– Persi yoz bo'yi o'zini g'alati tutdi, – dedi Jorj, qovoq solib. – U chindan ham xonasiga qamalib olib, juda ko'p xat yozadi. «SINFBOSH!» ko'krak nishoniga o'n kun, xo'p yigirma kun jilo berish mumkindir... Fred, g'arb tomon ko'p burib yubording, – dedi u, asboblar panelidagi kom-

¹ Gnom – G'arbiy Yevropa xalqlari mifologiyasiga ko'ra, yer osti xazinalarni qo'riqlovchi maxluq. Bu yerda ko'chma ma'noda kelgan.

III BOB. «Boshpana»

pasni chertib.

Fred rulni burib, parvoz yo'nalishini to'g'riladi.

– Dadangiz biladimi mashinani olganingizni? – qiziqdi Garri, garchi qanday javob olishini oldindan bilsa-da.

– Nima desak ekan. Yo'q. Bugun kechqurun u ishga ketishiga to'g'ri keldi. Agar omadimiz chopsa, mashinani garajga kiritishga ulguramiz. Oyim ham sezmaydi olib chiqqanimizni.

– Dadangiz vazirlikda nima ish qiladi?

– Jonga tegadigan, zerikarli ish qiladi. Magllarning ro'zg'or buyumlaridan noto'g'ri foydalanish bo'limida ishlaydi.

– Qanaqangi bo'limda?

– Bu ish magllar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, keyinchalik sehrlangan buyumlar bilan bog'liq faoliyat. Gapimni tushunyapsanmi? Agar bunday buyumlar yana magllarning do'koni yoki biron-birining uyiga qaytib keladigan bo'lsa, dadamga ish topiladi. Mana misol uchun, o'tgan yili bir kekxa afsungar ayol vafot etdi. Uning choy servizini antiqiy mollar do'konidan xarid qilgan bir magl ayol uyiga olib kelgach, dugonakari-yu, o'rtoqlarini choyga taklif qilibdi. Dahshatli hodisa ro'y beribdi. Dadam o'shanda bir necha hafta davomida uyga juda kech keldi.

– Nima bo'libdi?

– Choynak quturib ketib, har tomon qaynoq suv sepa boshlagan. Burnini oq qand maydalaydigan qisqich tishlab olgan bir magl amaki esa kasalxonaga yotqizilgan. Dadam holdan toydi. Uning bo'limida o'zidan boshqa kekxa sehrgar Pyorkins ishlaydi, xolos. Ikkalasi ushbu hodisani bosdi-bosdi qilib yuborish uchun voqea ishtirokchilari-yu, shohidlari bo'lmish magilarga Unuttirish afsuni va shunga o'xshash boshqa afsunlar qo'llab yurishga majbur bo'lishdi.

– Unday bo'lsa, dadangiz qilayotgan ish... va... mana

bu mashina...

Fred kulib yubordi:

– Dadam magllarga daxldor buyumlardan zavqlanadi. Saroyimizda odamning jonidan boshqa, hamma narsa bor. U magllarning buyumini qismlarga ajratib, sehrlaydi-da, qaytadan yig'adi. Agar u o'z uyimizda rasman tintuv o'tkazadigan bo'lsa, o'zini o'zi hibsga olishi kerak. Oyim esa dadamning qilgan ishlarini ko'rib, aqldan ozish darajasiga yetadi...

– Biz asosiy yo'lga yetdik, – gapni bo'ldi Jorj. – O'n daqiqadan so'ng manzilga yaqinlashamiz... Yaxshi... Tong otishiga ham oz qoldi...

Sharq tomondagi ufq chizig'ida pushti dog' ko'rindi.

Fred mashinani biroz pastlatgach, ishlov berilgan ekin maydonining qavilgan qora ko'rpassi va daraxt guruhlarini ko'rindi.

– Hozir Kolgotteri Sent-Inspektort qishlog'i ko'rinadi, – dedi Jorj.

Mashina asta-sekin pastlab bordi. Daraxtlar ortida Quyoshning la'l qizil gardishi yaqqol ko'rina boshladi.

Mashina g'ildiragi yerga yengilgina «gum!» etib tegdi.

– Qo'ndik! – xitob ohangida e'lon qildi Fred.

Ular kichik hovlidagi yarim xaroba garaj yonida qo'nishdi. Garri mashina oynasidan Ueshilar oilasiga tegishli uyni ko'rdi.

Bu uy, vaqti-vaqti bilan dam u yoni, dam bu yoniga kichik imoratlar betartib qo'shib borilgan, ustiga, asosiy devori bukilib, bir necha qavat qo'shimcha xonalar ko'tarilgan va faqat allaqanday mo'jizagina qulab ketishdan saqlayotgan og'ilga o'xshaydi. Uning qizil tomida kam deganda besh-oltita mo'ri ko'rinmoqda. Kirish eshigi yoniga suqilgan, deyarli po'kakka aylangan egri yog'ochga esa «BOSH-PANA» yozuvi bitilgan taxtacha qiyshiq qoqilgan.

III BOB. «Boshpana»

Ostona atrofiga esa bir dunyo rezina etik sochilib yotibdi va nima uchundir devorning ko'cha tomoniga zang bosgan qozon suyab qo'yilgan. Besh-oltita do'mboqqina jigarrang jo'jalar hovli ichida u yoq-bu yoqqa zir yugurgancha, bir nimalar cho'qib yuribdi.

– Aytarli biror-bir o'ziga xos xususiyati bo'lmagan, oddiy bir uy, – dedi Ron, soxta beparvolik ohangida.

– Unday dema. Uylaring zo'r ekan, – dedi Garri, «Odamovilar» xiyobonidagi 4-uy bilan xayolan taqqoslab.

To'rtovlon mashinadan chiqdi.

– Quloq soling. Yuqori qavatga shovqin solmay, juda ehtiyotlik bilan ko'tarilishimiz kerak! – ko'rsatma berdi Fred. – Keyin esa oyimning nonushtaga chaqirishini kutamiz. Shunda sen, Ron:

– «Oyi, qarang kechasi kim keldi uyimizga!» – deya qichqirgancha, pastga tushasan.

Oyim Garrini ko'rib xursand bo'lganidan, mashinani olganimizni xayoliga ham keltirmaydi.

– To'g'ri, – rozi bo'ldi Ron. – Ketdik Garri, senga o'z xonamni ko'rsataman. U eng...

Birdan Ronning rangi yashil tus kasb etib, ko'zi muzlatkich muzxonasidan endigina olingan baliq ko'ziga o'xshab qoldi. Qolganlar ham Ron tikilib qolgan tomonga o'girilib qarashdi.

Jismonan girdig'um, lo'ppigina, ko'ngli ochiq missis Uesli hovlida yurgan jo'jalarni hurkitgancha chiqib keldi.

– Voy, – dedi Fred.

– Oyi, – qo'shib qo'ydi Jorj.

Ibtidoiy zamonda yashab o'tgan nayza tishli yo'lbarsni eslatayotgan missis Uesli bolalar qarshisida taqqa to'xtab, ikkala qo'lini biqinlariga tirab oldi-da, nigohini bir gunohkor bola yuzidan boshqasiga olib o'tdi. Egniga kissasidan sehrli tayoqcha chiqib turgan gulli fartuk tashlab olgan.

III BOB. «Boshpana»

– Xo'sh? – dedi u.

– Xayrli tong, oyi, – salomlashdi Jorj, aftidan, ovozi zo'riqmay, betashvish eshitilganiga amin bo'lib.

– Qanchalik xavotir olganimni tasavvur qila olasizmi? – dahshatli ohangda pichirladi missis Uesli.

– Uzi, oyi. Tushunyapsizmi, biz...

Missis Ueslining darg'azab vajohati oldida onasidan ancha novcha uchala o'g'il kichkinagina bo'lib qolishgan-day go'yo.

– O'rinlar bo'sh! Bir enli bo'lsa ham xat yo'q! Garajda turgan mashina ko'rinmaydi! Pachoq bo'lib ketishdimi, yo'qmi: bilmayman! Oyilaring xavotir olib, aqldan ozib qolishi bilan ishlaring yo'q! Sizlar bunga osongina tupurgansiz-qo'ygansiz! Dadalaring kelsin, ta'ziringizni berdirmay qo'ymayman. Bill ham, Charli ham, Persi ham bunday qilmagan...

– Qusursiz Persi, – to'ng'illadi Fred.

– IBRAT OLSANG ARZIYDI! – dod-voy qildi missis Uesli, ko'rsatkich barmog'ini Fredning ko'kragiga taqab. – Halok bo'lishingiz, odamlar sizlarni ko'rib qolishi, otangizni ishdan quvib yuborishlari mumkin edi...

Chamasi, bu jarayon bir necha soat cho'ziladigan ko'rinadi. Dod-voy qilgan missis Uesli Garriga yuzlanishidan oldin ovozi bo'g'ilib, xirillab qolishga ulgurdi. Ko'zi missis Ueslining ko'ziga tushgan Garri beixtiyor orqaga tisarildi.

– Kelganingdan juda xursandman, Garri, – dedi missis Uesli. shashtdan tushib. – Xush kelibsan. Yur ichkariga, biror narsa yeb ol.

Ayol o'girilib, uyga ravona bo'ldi. Qo'rqib ketgan Garri Ronga qaradi. Ronning dalda beruvchi imosini ko'rgach, missis Ueslining ketidan ergashdi.

Tor oshxona juda eskirgan. O'rtaga yo'nilgan stol va

III BOB. «Boshpana»

razm soldi. Schrgarlar uyida u hali hech qachon bo'lmagan.

Ro'parasidagi devorda bitta milli, raqam o'miga «Choy qo'yish vaqti bo'ldi», «Yana kech qolding», «Jo'jalarga yem ber» kabi yozuvlar yozilgan soat osilgan. Kamin tokchasida esa «Har bir xo'randa uchun sehrli taom», «Afsonaviy non yopish», «Bir daqiqada tayyorlanadigan ziyofat – mo'jiza!»ga kabi kitoblar uch qator terilgan. Garrining qulog'iga oshxona chanog'i ustidagi radio karnayidan ikki daqiqadan so'ng maftunkor qo'shiqchi Chelestina Uorbek taklif qilingan «Afsungar soati» radioeshittirishi boshlanishi e'lon qilingani eshitildi.

Missis Uesli atrofda yelib-yugurib, biroz qo'pol bo'lsa-da, chaqqon xatti-harakatlar bilan, tovaga bitta-bittadan sosiska tashlar ekan har safar: qayering bilan o'ylaysan senlar yoki aytishsa, ishonmas etini, degancha vaysab, nonushta tayyorlashga kirishib ketdi.

– Seni, qadrdonim, men hech narsada ayblayotganim yo'q, – dedi u Garriga, uning likopiga sakkiz-to'qqiz dona sosiska solib, – ola qol bolaginam, osh bo'lsin. Artur ikkalamiz sendan xavotirlanib ko'p esladik. Kechagina u bilan, agar Ron sendan juma kungacha javob xatini olmasa, seni o'zimiz olib kelishga ahd qilib qo'ygan edik. Biroq butun mamlakat uzra transportning taqiqlangan turida uchib o'tish! Bu, chindan ham, ahmoqlik, – dedi missis Uesli Garrining likopiga yana uchta qovurilgan tuxum solib. – Nigohini osmonga qaratishga erinmagan har qanday magl sizlarni ko'rib qolishi mumkin edi.

Missis Uesli gap orasida sehrli tayoqchasini oshxona chanog'idagi likoplarga asta urib qo'ydi. Likoplar shu zahoti jiringlab-shildirab o'zidan o'zi yuvila boshladi.

– Havo bulutli edi, oyi. Magllarning ko'ziga ko'rinmas edik, – dedi Fred, sabri chidamay.

– Ovqat yeriman – kar va gungman! – g'azab-la o'shqir-

di missis Uesli.

– Oyi, ular Garriga ovqat berishmabdi! – dedi Jorj.

– Sen ham jim o'tir!

Jorjning gapidan so'ng missis Uesli asta-sekin jahlidan tushib, qiyofasi o'zgara boshladi. Garriga non kesib, sariyog' surtib berdi.

Birdan hammaning diqqat-e'tiborini muhokama mavzusidan chalg'itgan holat ro'y berdi. Egniga kechasi kiyiladigan ichki ko'ylak kiygan yarqiroq boshli jajji qizaloq ko'rindi. U mehmonni ko'rib past ovozda chiyillab qo'ydi-da, nari qochdi.

– Jinna, – dedi Ron, Garriga asta murojaat qilib. – Singlim. Yoz bo'yi faqat sen haqingda gapirib yurdi.

– Ha-da, Garri, dastxat bersang, singlimiz o'zini eng baxtiyor qiz deb biladi, – gap qistirdi Fred ishshayib, biroq onasining nigohini ko'riboq, e'tiborini likopiga qaratdi.

To'rtta likop bo'shaguncha boshqa hech kim churq etmadi. Buning uchun ko'p vaqt kerak bo'lmadi.

– O'larcha charchadim, – esnadi Fred, nihoyat qo'lida-gi sanchqi bilan pichoqni qo'yib, – borib, biroz mizg'ib olay...

– Uyqu to'g'risida hech qanday gap bo'lishi mumkin emas, – dedi missis Uesli uning gapiga javoban. – Uyquga to'ymagan bo'lsang, ayb o'zingda. Sening muammong meni qiziqdirmaydi. Hoziroq bog'ni gnomidan tozalash ishlari-ni boshla. Haddan oshib ketishyapti ular yana...

– Oyi, axir...

– Siz ikkalangiz esa Jorjga sherik bo'lasiz, – dedi missis Uesli Ron bilan Fredga chaqchayib.

So'ng muloyim tabassum-la Garriga yuzlandi.

– Yoqimtoyginam, sen esa dam ol. Anavi ahmoqona mashinada borishgani uchun sen aybdor emassan...

Kayfiyati chog', qorni to'q, ko'ngli ochilib ketgan va

III BOB. «Boshpana»

ninoyatda baxtiyor Garri o'zini toliqqan sezmad.

– Ijzat bersangiz, men Ronga yordam bersam. Men hech qachon bog'ni gnomdan tozalaganim yo'q, – dedi u.

– O'rtog'ingga yordam qo'lini uzatganing yaxshi, albatta. Biroq azizginam, bu juda zerikarli ish, – dedi missis Uesli. – Hozir bir qarab ko'raychi, Charuald bu haqda nima degan ekan...

Missis Uesli kamin ustidagi kitob dastasi ichidan qalin kitob chiqardi. Buni ko'rgan Jorj ingrab qo'ydi.

– Oyi, nahotki bog'ni gnomdan tozalashni bilmasak.

Garri kitobga e'tibor qildi. Uning muqovasida zarhal harflar bilan ko'ndalangiga «*Sverkarol Charuald. Tomorqa xo'jaligida uchraydigan zararkunandalar. Ma'lumotnoma mazmunidagi qo'llanma*» yozuvini o'qib, oq-sariq jingalak sochli, ko'zi moviy, istarasi issiq afsungar kishining rasmini ko'rdi. Sehgarglar olami fotosuratlarida bo'lganday, afsungar surati xonada o'tirganlarga kulib boqib, ko'z qisdi. Garrining fahmlashicha, suratdagi kishi, ushbu qo'llanma muallifi Sverkarol Charuald. Missis Uesli javob tariqasida afsungarga kulib qo'ydi.

– U biram jozibadorki, dedi missis Uesli, – tomorqa xo'jaligi zararkunandalari haqida hamma narsani biladi, juda foydali kitob...

– Oyim uni sevib qolgan, – baland ovozda pichirladi Fred.

– Bema'ni gapni qo'y, Fred, – o'g'lining gapini bo'ldi, lunji biroz pushtirang kasb etgan missis Uesli. – Yaxshi, agar o'zingizni Charualddan ham aqlli deb bilsangiz, jo'nang boqqa. Ammo aytib qo'yay, agar ko'zinga birorta gnom ko'ringuday bo'lsa...

Garri esnagancha, nimalardir haqida vaysab, bog' tomon ravona bo'lgan aka-ukalar ketidan ergashdi. Bog'ning kattaligini ko'rgan Garrining xayoliga haqiqiy bog' ayni

shunday bo'lishi lozim degan o'y keldi. Agar Dursliar ushbu bog'ning ahvolini ko'rsa, aqldan ozib qolishlari muqarrar. Hamma yoqni yovvoyi o't bosgan, bog'dorchilik qoidalarini inobatga olinadigan bo'lsa, maysani allaqachon o'rish kerak edi. Devor yaqinidagi maydonni qandaydir sershox, serbutoq daraxtlar, gul egatlarini esa noma'lum o't-o'lanlar qoplagan. Baqato'n¹ bosib, qurbaqaga to'lib-toshgan hovuz bog' o'rtasida yam-yashil bo'lib ko'rinmoqda.

– Agar bilsang, magllarda ham bog' gnomlari bo'ladi, – dedi Garri maysa ustida borar ekan.

– Ha, ko'rganman. Magllar ularni gnom deb o'ylashadi, – javob berdi Ron, sallagul² butasi ustida egilib. – Mana bunga o'xshagan ilmoqli fisq-fasod Santa-Klauslar...

Bir narsa lip etib ko'rinib, sallagul butasi titrab ketgach, Ron gavdasini tiklab oldi.

– Mana buni gnom desa bo'ladi, – g'udrandi Ron mayus ohangda.

– Meni tinch qo'y! Meni tinch qo'y! – chiyilladi gnom.

Gnomning Santa-Klausga hech qanday o'xshash joyi yo'qligi shubhasiz. Jussasi mittigina, teri qoplamasi qalin, kal kallasi g'adir-budur gnom quyib qo'yganday kartoshkaga o'xshaydi. Uzatilgan qo'l masofasida tutib turilgan bog' zararkunandasi o'zining kaltagina, lekin o'tkir pixli oyog'i bilan tipirchilamoqda. Nihoyat Ron uni to'pig'idan ushlab, hoshini pastga qilib osiltirdi.

– Mana nima qilish kerak bularni, – tushuntirdi Ron.

U «Meni tinch qo'y!», – deb qichqirishini qo'ymagan gnomni boshi uzra ko'tarib, kamand aylantirayotgan kabi aylantirdi va Garrining bunday shafqatsizlikdan serrayib

¹ Baqato'n – suv betini to'da-to'da bo'lib qoplaydigan bir turli suvo'ti.

² Sallagul, pion (*Paeonia*) – sallaguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simliklar, ba'zan chala buta va butalar turkumi, ekma gul. Yevropa, Yevrosiyo va Shimoliy Amerikada 40 ga yaqin, O'zbekistonda 2 turi ma'lum.

III BOB. «Boshpana»

qolgan qiyofasini ko'rib:

– Xavotir olma, uning joni og'rimaydi. Faqat boshi aylanib, ortga qaytish yo'lini topa olmasligi uchungina shunday qilish kerak, – deya qo'shimcha qildi.

U boshi uzra gir aylantirayotgan gnomni uloqtirdi. Zararkunanda havoda o'n metrcha nari uchib, devor ortidagi dalaga shalp etib tushdi.

– Nimjon ekansan, – dedi Fred. – Garov bog'laysanmi, men uloqtiradigan gnomi ho' anavi ustundan nari borib tushadi.

Birozdan so'ng Garri ham gnomlarga rahm qilmay qo'ydi. Qo'liga kirgan dastlabki gnomni u ehtiyot qilib bog' devoridan tashqariga chiqarib qo'ymoqchi bo'ldi-yu, Garri-ning bo'sh, rahmdilligini ko'rgan nonko'r gnom ustarakdek o'tkir tishini bolaning bannog'iga sanchidi. Garri joni og'rib, qo'lini siltab qoldi va nihoyat:

– Yasha. Garri, kam deganda yigirma metr nari borib tushdi, – degan maqto'vni eshitdi.

Birozdan so'ng bog'dan dalaga qarata uloqtirilayotgan gnomlardan osmon qorong'ilashdi.

– Gnomlarning fahmi juda kalta bo'ladi, – tushuntira ketdi bir quloch gnomni ushlab olgan Jorj. kimdir bog'ni gnomdan tozalashga ahd qilganidan xabar topishsa bas, turgan joyida pisib qolish o'miga, aksincha, tashqarida nima bo'layotganini ko'rish uchun hammasi yuqoriga intiladi.

Ko'p o'tmay devor ortidagi dalada notekis saf tortgan gnomlar ma'yus holatda, bog'dan nariga asta odimlab ketishayotgani ko'rindi.

– Ko'p o'tmay, qaytishadi ular, – dedi Ron, dalaning narigi tomonidagi to'siq ortiga o'tib ketayotgan gnomlarga qarab, – ularga bog'imiz juda yoqadi.. Dadam haddan ortiq rahmdil. Gnomlar uning ko'ziga juda alomat ko'rinadi...

Kirish sahifasi qaytariladi.

III BOB. «Boshpana»

– Keldi! – qichqirdi Jorj. – Dadam keldi!

Bolalar uy tomon oshiqishdi.

Egniga chang bosgan eski kiyimini kiygan, ozg'in, sochi to'kilib, siyqalashgan, boshida qolgan tuklar rangi xuddi o'z bolalarining sochiga o'xshash malla rang mister Uesli o'zini oshxonadagi stulga tashlab, ko'zoynagini yechdi-da, ko'zini chirt yumdi.

– Shunaqa ham tun bo'ladimi? – g'udrandi u, choynak qidirgancha stol ustini paypaslab. – To'qqiz marta chiqib-miz-a! To'qqiz marta! Buning ustiga, orqa o'girsam bas, qariya Mundugnus Fletcher meni sehlashga urinadi...

Mister Uesli choynakdan xo'rillatib choy tortdi-da, og'ir xo'rsindi. Bolalari uning atrofida parvona.

– Biron narsa topdingizmi, dada? – so'radi Fred, zavq bilan.

– Aytarli hech narsa. Bir juft kichrayadigan kalit bilan qopag'on choynak, – esnab javob berdi mister Uesli. – Ha, bizning departamentimizga daxli bo'lmagan yana bir qabohat topildi. Jonsiz Morrisni olib ketishdi. Unda juda shubhali qo'ng'izlar topildi. Xayriyatki, bu ish sehrgarlik xavfsizligi qo'mitasiga taalluqli.

– Kim shu daraja bekorchilik ekanki, kichrayadigan kalit yasasa? – hayron bo'ldi Jorj.

– Bu shunchaki magillarni maskara qilib, tahqirlash maqsadi ko'zlangan tuzoq. – xo'rsindi mister Uesli. – Tasavvur qiling: eshik kaliti o'zidan o'zi kichrayib, kichrayib boraveradi-da, rosa zarur bo'lgan fursatda ko'rinmas darajagacha borib yetadi... Albatta, bunday holatda biror-bir narsani isbotlash qiyin. Kaliti kichrayib yo'q bo'lib ketayotganiga birorta magl hayotda iqror bo'lmaydi, kalitini yo'qotib qo'ygani borasida arz qilishni afzal ko'radi. Bechoralar har narsaga tayyor, faqat ko'z o'ngida ro'y berayotgan bo'lsa ham afsunni sezishmasa bo'ldi. Sehrgar elatimiz nima-

III BOB. «Boshpana»

larni sehrlab yuborishlarini tasavvur ham qila olmaysiz.

– Misol uchun, MASHINANIMI?

Uzun kosovni qilich singari ushlab olgan missis Uesli paydo bo'ldi. Uyqusi qochgan mister Uesli aybdor ko'zi bilan xotiniga baqraydi.

– M-mashinani? Molli, azizam?

– Ha, Artur, mashinani, – tasdiqladi ko'zi yarqirayotgan missis Uesli. – Tasavvur qil: bir sehrgar eskirib, zang bosgan mashinani xarid qilib olibdi-da, xotiniga, ushbu shaloq aravani qismlarga ajratib, uning qay tarzda ishlashini tushunib yetmoqchi bo'lganini aytibdi. Aslida esa mashinani shunday sehrlabdiki, u osmon-u falakka ko'tarilib, uchar mashinaga aylanibdi.

Mister Ueslining ko'zi pipirab qoldi.

– Bilasanmi, azizam. nazarimda, fikringa qo'shilishing kerak. O'sha sehrgarning xatti-harakatlari qonun doirasidan chiqib ketmagan. To'g'ri, u... xotinini aldamay, rost gapirganda... afzalroq bo'lar edi, albatta. Agar qonun hujjatlarini o'rganib chiqsang, ularda... ayrim raxnalar borligini o'zing payqaysan... Binobarin, o'sha sehrgar mashinada uchish harakatlarini o'z oldiga maqsad sifatida qo'ymagan, xususan mashinaning ucha olish qobiliyati g'ayriqonuniy sanalmaydi.

– Artur, boshimni qotirma. Magllarning lash-lushlarini saroyingda xotirjamgina titib o'tirish uchun o'zingga o'zing imkon yaratish maqsadida o'sha qonun hujjatlarida o'xshash raxnalar bo'lishiga shaxsan o'zing hissa qo'shgansan. Bunga zig'irday bo'lsa-da, shubha qilmayman! – qichqirdi missis Uesli. – Garri, e'tiboring uchun, bugun ertalab, uchish harakatlarini o'z oldiga maqsad sifatida qo'ymagan o'sha mashinada uchib keldi!

– Garri? – hayajonlanib so'radi mister Uesli. – Qaysi Garri?

U atrofga razm solib chiqdi-da, Garrini ko'rib, irg'ib

turdi.

– Ajabo! Garri Potter! Juda xursandman! Kamina Artur Uesli. Ron sen haqingda ko'p gapirib bergan...

– Bugun tunda o'g'lonlaring o'sha mudhish mashinada Littl Uinging shaharchasiga uchib borib, Garrini olishdi-da, ortga qaytishdi! Bunga nima deysan-a?! – gumburladi missis Uesli.

– Rostdanmi? – xitob qildi mister Uesli. – Xo'sh, parvoz qalay o'tdi? – missis Ueslining ko'zida yargiragan yashin taftini sezgach, ohangini o'zgartirdi. – Ya... ya'ni keti o'ylanmagan ish tutibsizlar, ketini o'ylamay...

Oyisi qurbaqaday shishib ketayotganini ko'rgan Ron Garrining qulog'iga pichirladi:

– Ketdik bu yerdan. Xonamni ko'rsataman.

Ikkovlon oshxonani asta tark etib, torgina yo'lakdan qayoqqadir yuqoriga ketgan ilon izi zinaga yetdi. Zina bo'y-lab ko'tarilgan uchinchi qavatdagi eshik ochiq. Garri ichkari-ridan qarab turgan jigarrang ko'zni endigina sezgan ediki, eshik yopildi.

– Jinna, – dedi Ron Garrining taajjubinga javoban. – Tabiatan shaddod singlinning uyalayotgani qanchalik taajjubli ekanini tasavvur ham qila olmaysan. U hech qachon eshigini yopmas edi...

Yana ikki oraliq yuqoriga tirmashib chiqishgach, «RONNING XONASI» yozuvli kichkina taxtacha osib qo'yilgan, bo'yog'i ko'chgan eshikka yetib kelishdi.

Xonaning qiya shiftiga boshi tegar-tegmas bo'lib ichkariga kirgan Garrining ko'zi pirpirab ketdi. U o'zini xuddi pechka ichiga kirib olganday his etdi. Xonadagi narsalarning deyarli hammasi to'q sariq: karavot ustidagi o'rin yopinchig'i, devor, hatto shift ham to'q sariq. Do'sti xona devoridagi rangi o'chgan gulqog'ozni yetti nafar afsungardan iborat kvidish jamoasining turli ko'rinishda tasvirlangan

III BOB. «Boshpana»

plakatlari bilan yopib qo'yganini bir qarashda payqamadi. Supurgi ushlagan o'yinchilarning hammasi yarqiragan sariq kiyim kiygan bo'lib, xonaga kirganlarga zavq-la qo'l siltashmoqda.

– Sen yoqtiradigan kvidish jamoasimi? – so'radi Garri.

– «Otar zambaraklar», – tasdiqladi Ron, qora rangli yirik «OZ» harflari va otilgan zambarak o'qining tasviri tikilgan to'q sariq o'rin yopinchig'ini ko'rsatib. – Ligada to'q-qizinchii o'rinda.

Xona burchagida «Tentak magl Martin Miggs sarguzashtlari» turkumidagi hajviy komikslar¹ turkumi bilan Ronning maktab darsliklari aralashib yotibdi. Sehrli tayoqcha esa tokchada, do'stining quyoshida toblangancha uxlayotgan Qasmoq laqabli kalamushi yonidagi, baqa uvuldirig'iga to'lgan akvarium ustida yotibdi.

Garri yerda yotgan o'zi chiylanadigan kartalar dastasi ustidan hatlab o'tib, deraza yoniga bordi. Tashqarida, dala tomondan asta-sekin yaqinlashib, Ueslilar hovlisiga qaytib kirishni ko'zlayotgan gnomlar to'dasi ko'rindi. So'ngra o'rtog'ining hukmini hayajon-la kutayotgan Ron tomon yuzlandi.

– Bu yer sal torroq, – tez gapira ketdi Ron, – sen ko'nikkan magllar uyiga o'xshamaydi, albatta. Boz ustiga, ustimizda katta ko'rshapalak yashaydigan chordoq bor. U qonxo'r kechasi bilan ingrab, quvurlarni urib chiqadi...

Og'zi qulog'iga yetib kulayotgan Garri o'rtog'ining gapini bo'ldi:

– Bu uy, ushbu yorug' dunyodagi eng zo'r uy ekan!

Ko'ngli taskin topgan Ronning qulog'i pushtirang holatga kirdi.

¹ Komiks – grafika shaklida hikoya qilish janri. mantiqan bog'langan qissa his qiladigan, qisqa matnlar bilan birgalikda aks ettirilgan rasmlar seriyasi yoki kulgi, hay va yumonga boy rasmlar (karikatura).

IV BOB. «NAQSHLI YOZUV VA SIYOH DOG'I»
DO'KONIDA

Ueslilarning Boshpanasidagi hayot «Odamovilar» ko'chasi-
dagi uyda o'tgan hayotdan batamom farq qilmoqda. Dursllar o'z uylarida hamma narsa batartib bo'lishi, barcha jarayonlar belgilangan izchilikda kechishini yoqtirsa, Ueslilar xonadonida, aksincha, qandaydir g'alati va umuman kutilmagan hodisalar muntazam ro'y berib boradi. Garri kamin tokchasi ustidagi ko'zguga birinchi marta qaragan paytda ko'zgu unga: «Ko'ylagingni to'g'rilab ol, isqirt!», – deya baqirib berganini eshitib, jon-poni chiqib ketishiga sal qoldi. Chordoqda yashaydigan katta ko'rshapalak mungli ingrab, uyda sukunat qaror topishi bilan har xil temir-tersak yiqitadi. Egizaklar xonasida tez-tez yangrab turadigan portlashlarga esa deyarli e'tibor qilinmas ekan. Garrini ko'proq ko'zguning gapirishiga o'xshash narsalar emas, balki hamma uni yaxshi ko'rishi hayron qoldiradi.

Misol uchun, missis Uesli Garrining o'z vaqtida paypoq almashtirib borishiga jon kuydirib, har safar ovqat vaqtida kam deganda to'rt porsiya¹ «qo'shimcha» yedirishga urinsa, mister Uesli tanovul chog'ida Garrini yoniga o'tqizib, mag'llar to'g'risida turli-tuman, aytaylik, elektr rozetkasining² tuzilishi yoki pochta xizmatining faoliyati qanday tashkil etilgani haqida savol-javoblar o'tkazadi.

– Ajoyib, – deydi u, Garrining misol uchun, telefon aloqasidan foydalanishga o'xshash hikoyasini tinglab bo'lgach, – Mag'llar sehr-jodusiz yashashning qanchadan qancha usullarini o'ylab topishgani kishini hayron qoldiradi.

¹ Porsiya (*lotincha*: portio) – har bir odamga tegishli ulush, hissa. 1) biror narsaning kim-gadir, nimagadir mo'ljallangan o'lchovli bo'laga, miqdori; 2) restoran yoki oshxonada bir xonadonga mo'ljallangan ma'lum miqdordagi yegulik.

² Rozetka (*fransuzcha*. rozette) – kichkina, mayda gul. Turli elektr asboblarni elektr ta'mog'iga ulash uchun xizmat qiladigan ikki teshikli moslama.

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

Garri Boshpanaga kelgan kundan taxminan bir hafta o'tgach, quyoshli tonglardan birida «Xogvars»dan xat oldi. Ron ikkalasi nonushta vaqtida pastga tushishganida er-xotin Uesli va kichikintoy Jinna dasturxon atrofiga to'planishgan. Garrini ko'rgan qizaloq sul'i bo'tqa solingan likopini yerga tushirib yubordi. So'nggi vaqtda Jinnaning xatti-harakatlarida buyum ag'darishga moyillik kuzatilmoqda. Har qalay, Garri Jinna o'tirgan xonaga kirgan paytda bunday holat ro'y bermagan kun hali bo'lmagan. Hozir u likopni olish uchun stol ostiga sho'ng'idi-da, kun oxirida botayotgan quyoshday yonayotgan yuzi bilan chiqdi. Garri hech narsa sezmaganday kursiga o'tirib, missis Uesli uzatgan buterbrodni oldi.

– Maktabdan kelgan xatlar, – e'lon qildi mister Uesli va Garri bilan Ronga sarg'ish pergamentdan¹ tayyorlangan, manzili yashil siyoh bilan bitilgan ikkita bir xil konvert uzatdi. – Sen biznikiga ko'chib o'tganingdan Dambldor allaqachon xabardor ekan, Garri, qara-ya, ul zotdan hech narsani bekitib bo'lmaydi. Siz ikkalangiz ham xatlaringni olinglar, – dedi u, uyqusirab, qoqilib, pijamaning shimiga ilashib chiqqan egizaklarga murojaat qilib.

Bolalar xat o'qib o'tirgan bir necha daqiqa davomida xonada jimlik hukin surdi. Xatni o'qigan Garri birinchi sentabr kuni Kings-Kross vokzaliga yetib borishi va odatdagiday «Xogvars-Ekspress» poyezdiga chiqishi lozimligini tushundi. Shuningdek, xatga ikkinchi sinf o'quvchisiga zarur bo'ladigan kitoblar ro'yxati ilova qilingan.

Ikkinchi yil tahsil ko'radigan o'quvchilar quyidagi kitoblarga ega bo'lishlari zarur:

¹ Pergament (miloddan avvalgi II asrda xat yozish uchun xizmat qiladigan material tayyorlana boshlangan Pergam shahri nomidan olingan) 1) maxsus ishlov berilgan mol va cho'chqa terisidan doira, do'mbira, baraban va ha'zi mashina detallari uchun ishlatilgan; 2) sulfat kislotasi bilan ishlov berilgan qog'oz; shaffof, yog' va suvni o'tkazmaydi

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dag'i» do'konida

Miranda Goshok «Afsunlar to'plami» (ikkinchi qism);

Sverkarol Charuald «Narigi dunyodan vakil bo'lib kelgan ayol bilan suhbatlar»;

Sverkarol Charuald «Qonxo'rlar bilan o'tgan kechki ovqat»;

Sverkarol Charuald «Sehrgar ayollar bilan birgalikda o'tkazilgan ta'til»;

Sverkarol Charuald «Trollar bilan sayohat»;

Sverkarol Charuald «Qonxo'r bilan o'tkazilgan xizmat safari»;

Sverkarol Charuald «Boshqa tusga kirgan odamlar bilan muloqot»;

Sverkarol Charuald «Qor odam bilan ittifoq».

O'z xatini o'qib bo'lgan Fred Garrining yelkasi uzra qarab, bola xatiga e'tibor qildi.

– Sizlar ham Charualdning kitoblarini xarid qilishlaring kerak ekanmi! – xitob qildi u. – Yovuz kuchdan himoya fanining yangi o'qituvchisi Charualdning muxlisi, aniqroq aytiladigan bo'lsa, garov bog'lashim mumkin, muxlisasi bo'lsa, ajab emas.

Fred onasining nigohini payqagach, bankadagi murabboni o'rganishga kirishib ketdi.

– Ta'kidlab o'tmoq joizki, bularning bari arzonga tushmaydi, – dedi Jorj ota-onasi tomon qarab. – Charualdning kitoblari ancha qimmat turadi...

– Amallaymiz, – dedi missis Uesli, tashvishga tushganini yashira olmay. – Umid qilamanki, tutilgan buyumlar do'konidan Jinna uchun ko'proq narsa xarid qila olamiz.

– Iye, sen ham bu yil «Xogvars»ga borasanmi? – so'radi Garri.

Qizaloq bosh irg'idi-da, olovrang sochini uchigacha qip-qizarib ketgancha, tirsagini moy idishga bexos tirab oldi. Xayriyatki, buni Garridan boshqa hech kim sezmedi.

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

Negaki hammaning nigohi ayni damda oshxonaga kirib kelgan Ronning akasi Persiga qaratilgan. U to'la-to'kis kiyinib olgan bo'lib, nimchasiga «SINFBOSH!» ko'krak nishonini taqib olgan.

– Hammaga salom, – ko'rishdi Persi, bardam ohangda.
– Kun ajoyib bo'libdi, shunday emasmi?

Sinfboshi bo'sh turgan yagona kursiga viqor-la joylashdi-da, shu zahoti irg'ib turdi. U kursidan o'ngib ketgan patdan bog'langan kulrang supurgiga o'xshash narsa oldi. Har qalay, Persining qo'lidagi buyum Garrining ko'ziga chang yelpish supurgisiga o'xshab ko'rindi. Iekin supurgi... nafas olyapti, chog'i...

– Errol! – qichqirdi Ron, Persining qo'lidan harakatsiz ukkini tortib olib. – Germionaning javobini yetkazib kelibdi, – dedi u, qushning qanoti ostidan xat chiqarib. – Seni Dursllar zulmidan xalos etishga urinib ko'rishimiz haqida yozgan edim unga.

U Errolni orqa eshik yonida. atayin ukki uchun tayyorlangan qo'noqqa o'tqizishga urindi. Biroq kekxa qushning o'tirgani majoli yetmay, yonboshlab qolgani bois oshxona chig'anog'ining yoniga yotqizib, «bechora» degancha, konvertni ochdi-da, Germionadan kelgan xatni ovoz chiqarib o'qishga kirishdi:

Qadrdon do'stim Ron va azizim Garri(agar sen ham shu manzilda bo'lsang, albatta)!

Umid qilamanki, tadbir muvaffaqiyatli o'ldi. Ishonchim komilki, Garrining ishlari joyida va sen, Ron, Garrini xalos etish uchun biror-bir g'ayriqonuniy ish tutmagansan. Aks holda ikkalangizning ishingiz pachavaga bo'lishi muqarrar. Men juda xavotirdaman. Shu bois xatimni olishingiz bilan Garrining ishlari haqida meni xabardor qiling. Faqat, Ron, iltimos, bu safar boshqa boyqush yo'lla. Ne-

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

gaki yana bir bor o'sha ukking orqali xat yo'llaydigan bo'l-sang, nazarimda, bu uning uzundan uzoq hayotidagi so'ngi xat bo'ladi.

Tabiiyki, men juda ko'p dars qilyapman.

– Hozir ta'til-u, qayerdan ola qoldi «juda ko'p dars»ni,
– achchiqlanib vaysadi Ron va xatning davomini o'qiy boshladi:

Kelgusi chorshanba kuni esa darslik xarid qilish uchun Londonga boramiz. «Diagon xiyoboni»da uchrashishga nima to'sqinlik qilishi mumkin?

Ishlar joyida ekani haqida tez xabar yo'llang.

Ehtirom ila, Germiona.

– Ha. Bu bizga ham juda ma'qul keladi. Chorshanba kuni bozorlik qilib kelishimiz mumkin, – dedi missis Uesli, dasturxon yig'ishtirishga kirishib. – Bugun nima bilan shug'ullanmoqchisizlar?

Garri, Ron, Fred va Jorj tog'ga, Ueslilarga tegishli kichik yer maydoniga, ko'tarilishni rejalashtirishgan. O'sha joy daraxtlar bilan to'silgan bo'lib, pastdagi qishloq aholisi-ning ko'ziga ko'rinmaydi. Shunday ekan, supurgi egariagan bolalar ko'p yuqoriga ko'tarilmay, kvidish o'ynashlari mumkin. Tabiiyki, ularning haqiqiy kvidish to'plarini o'ynash imkoniyati yo'q. Negaki ozodlikka erishgan to'plarining qishloq uzra uchib yurganini mahalliy aholiga uzoq tushuntirishga to'g'ri keladi. Bolalar bir-biriga to'p o'rni-ga olma uloqtirib, Garrining «Nimbus-2000» rusumli supurgisida navbat bilan uchishdi. Axir, bu kam sonli jamoalaridagi eng zo'r supurgi-ku. Ronning «Uchar yulduz» rusumli supurgisini esa ba'zan kapalak ham quvib o'tadi.

Nonushta tugab, besh daqiqa o'tgach, yelkasiga supurgi tashlab olgan bolalar toqqa ko'tarila boshlashdi. Ular Persini ham taklif qilishdi. Biroq u bandligini ro'kach qilib,

• IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

taklifni rad etdi. Bu xonadonga kelgan kundan buyon Garri o'z xonasidan deyarli chiqmay o'tiradigan Persini faqat ovqat mahalida ko'radi, xolos.

– Nima bilan band ekan u, juda bilgim kelyapti, – dedi va qovog'ini uyib o'ylanib qoldi Fred. – Negadir u so'nggi vaqtda juda o'zgarib ketdi. Topshirgan imtihonining natijalarini sen kelmasdan bir kun oldin olgan edik. O'n ikkinchi MOSDga ega bo'ldi, xursand bo'lmaydimi!

– Mutlaqo oddiy sehrgarlik darajasi, – dedi va tushuntirdi Jorj Garrining MOSD qisqartmasini tushunmay, boshi qotgan qiyofasini ko'rib. – Bill ham o'n ikkinchi darajaga erishgan edi. Agar hushyor bo'lmasak, oilamizda maktabning yana bir eng ibratli o'quvchisi paydo bo'ladi. Shaxsan men bunday sharmandalikka dosh bera olmayman!

Bill Ueslilar xonadonida to'ng'ich farzand. U va undan keyin tug'ilgan ukasi Charli ham «Xogvars»ni tamomlashgan. Garri ular bilan shaxsan tanish bo'lmasa-da, Charli Ruminiyada, ajdar zotlarini tadqiq qilib yurganini, Bill esa «Gringotts» bankining Misrda ishlaydigan xodimi ekanini biladi.

– Ota-onamiz bu yil maktab lash-lushlarini qanday qilib xarid qilishlarini tasavvur eta olmayman, – dedi Jorj biroz o'ylanib. – Charualdning beshta to'plamini-ya! Jinnaga esa kiyim ham sehrli tayoqcha ham boshqa mayda-chuyda narsalar ham xarid qilish kerak...

Garri, Jorjning tashvishli gapiga javob qaytarmadi. U ota-onasidan qolgan, Londonning yeroosti omborida saqlanayotgan katta merosga ega. Garri sehrgarlar olamidagina boy sanaladi, albatta. Magllar do'konlarida galleon, sklat, nut deb nomlanadigan sehrgarlar puli vositasida oldi-berdi qilinmaydi. Qolaversa u, bank muassasasida o'z hisob varaqasi borligi, unda qayd etilgan pul miqdori haqida Dursllarga aytmagan. Chunki, Dursllarning har qanday sehrli

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dag'i» do'konida

narsa oldida dahshatga tushish odatlari, oltin tangalarning katta uyumiga daxl qilmasligiga bo'la shubha qilmas edi.

Ertasiga ertalab missis Uesli hammani barvaqt uyg'otdi. Bolalar tezroq tamaddi qilib olishlari uchun har biriga olti donadan, dudlangan go'shtdan tayyorlangan buterbrod tarqatib chiqdi. Bolalar nimcha kiyishayotgan paytda esa kamin tokchasida turgan gultuvakni olib, ichiga qaradi.

– Deyarli tugabdi. Artur, – xo'rsinib qo'ydi u, eriga qarab, – bugun yana xarid qilishga to'g'ri keladi... Xo'p, mayli, hozir buning ahamiyati yo'q. Shunday qilib, birinchi bo'lib mehmon boshlab beradi! Marhamat, qadrdonim Garri! – dedi-da, tuvakni Garriga uzatdi.

Hech narsani tushunmagan Garri atrofdagilarga baqrayib, hayron bo'lib qaradi.

– N-nimadir qilishim kerakmi m-men? – deya duduqlanib gapirdi u.

– Esim qursin! Axir, u hali hech qachon «Sayohat» vositasida safarga chiqmagan-u! – esladi Ron. – Kechir Garri, yodimdan ko'tarilibdi!

– Hech qachon?! – hayron bo'lib so'radi mister Uesli. – O'tgan yili qanday bording «Diagon xiyoboni»ga?

– Metroda...

– Rostdanmi? – xitob qildi mister Uesli. – Bu, haligi, eskalatorlar¹ bor joymi? Qanday ishlaydi...

– Hozir emas, Artur, – erining gapini bo'ldi missis Uesli, – Sayohat uni kerakli manzilga ancha tez yetkazadi, yoqimtoyginam. YO TAVBA, endi nimla qilamiz...

– Hammasi yaxshi bo'ladi, oyi, – tinchlantirdi Fred. – Garri, biz boshlab beramiz, sen esa diqqat bilan qarab.

¹Eskalator (inglizcha: escalator – harakatlanuvchi zinapoya, lotincha: scala – narvon, zinapoya) – metro, kulta magazin va shu kabilarida odamlarni yuqoriga chiqarish va pastga tushirish uchun xizmat qiladigan, uzluksiz harakatlanuvchi pog'onalardan iborat qiya zina.

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

o'rgan.

U gultuvak ichidagi yarqiroq undan bir chimdim o'ldida, kamin ichiga kirib, cho'g'ga septi.

Guvillagan gulxan zumrad rangga kirib, Fredning bo'yidan ham baland ko'tarildi. Olov ichidagi Fred «Diagon xiyoboni!» deya qichqirgancha, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shundan so'ng Jorj qo'lini tuvak ichiga soldi.

– Yodingda bo'lsin, azizim. Manzilni aniq va ravon talaffuz etmoq darkor, – uqtirdi missis Uesli Garriga. – Kerakli o'choqdan chiqishni ham kuzatib bormoq lozim.

– Kerakli nimadan? – so'radi Garri asabiylashib.

Bu payt bo'yi yana baland ko'tarilgan olov Jorjni o'z domiga tortib ketdi.

– U yerda har xil kaminlar bor, Garri. Agar sen manzilni aniq va ravshan talaffuz etsangina...

– Xavotir olma, Molli, Garriga hech narsa qilmaydi, – tinchlantirdi mister Uesli bir chimdim un olib.

– Sen shunday deysan-u, azizim, agar bola yo'qolib qolsa, amakisi bilan xolasiga nima deymiz?

– Ularga farqi yo'q, – ishontirdi Garri. – Agar Dudli pechka quvuri orqali uchib chiqib, pachog'im chiqib ketganini eshitsa, xursand bo'ladi, xolos...

– Xo'p... mayli, Arturning ketidan bor, – qaror qildi missis Uesli. – Olov qamrab olgach, qayoqqa borishing kerakligini baland ovozda aniq ayt...

– Qo'lingni tanangga bos, – yo'riq berdi Ron.

– Ko'zingni ham yumib ol, – tez qo'shimcha qildi missis Uesli. – Qorakuya...

– Dovdirama, – dedi Ron, – aks holda birovning o'chog'iga tushasan...

– Sarosimaga ham tushma, aks holda juda erta chiqib qolasan. Yaxshisi, Fred bilan Jorj ko'ringuncha chiqmay tur.

Garri berilgan yo'l-yo'riqlarning hammasini eslab qo-

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

lishga uringancha, gultuvak ichidagi sayohat unidan ozgina oldi-da, kaminga yaqinlashdi. Chuqur nafas olgach, cho'g'-ga un sepib, qadam bosdi. Yengil garnsel¹ esganday bo'ldi go'yo. Og'iz juftlamochchi bo'lgan bolaning o'pkasi tutunga to'lib, yo'tal orasida:

– D-d-digar xiyobon, – deya oldi.

Garrining tanasi xuddi girdob tortganday, katta tezlik bilan aylanib, quloqni kar qilguday gumburlagan tovush eshitildi. Ko'z ochishga urindi-yu, yashil olovning uyurma harakatidan ko'ngli aynib, yana yumdi. Nimadir tirsagiga qattiq urilgach, qo'lini aylanishdan to'xtamagan tanasiga mahkam siqdi. Kimdir uning yuziga muzday kafti bilan bir necha bor tarsaki solganday ham bo'ldi. Qisib olgan ko'zini biroz ochgach, ko'zoynagi orqali har xil kaminlar oqimi va ular ortidagi xonalarni ko'rdi. Qornida esa hozirgina yegan buterbrod beto'xtov aylanayotganini his etdi. Bularning bari tezroq o'tib ketishini istagan bola ko'zini chirt yumib oldi...

Garri tosh yerga yuzi bilan chunonam tushdiki, zarb kuchidan ko'zoynagining bandi sindi.

Boshi aylanayotgan, hanima joyi ko'karib, qorakuyaga belangan, singan ko'zoynagi burni ustida bazo'r ilinib qolgan bola o'midan bazo'r turdi. U allaqanday xonada yolg'iz bo'lib, qayerga kelib qolganini tasavvur qila olmaydi. Garri xira yoritilgan, sehrarlar do'koniga o'xshash keng xonaning marmar kamini yonida turgani, bu yerda sotiladigan mollar esa «Xogvars»dan yo'llangan ro'yxatga kirmasligini tushundi, xolos.

Garriga yaqinroq joyda shisha vitrina turibdi. Uning ichidagi yostiqlik ustida ajin bosgan qo'l, qonga belangan

¹ Garnsel (*forscha*) – issiq mamlakatlar, o'lkalar. Yozda bo'ladigan issiq yoqimsiz zararli shamol.

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

bir dasta qarta va baqrayib turgan shisha ko'z yotibdi. Devorga yovuzlikni ifoda etayotgan niqoblar osilgan, tokchalarga esa odam suyaklarining ulkan kolleksiyasi terilgan. Zang qoplagan, tig'i o'tkir asboblarni shiftga osilgan. Eng yomon, chang bosgan derazadan qorayib ko'ringan tor ko'cha «Diagon xiyoboni» emasligi aniq.

Yerga urilgan burni og'riyotgan bola astagina eshik tomon yo'l oldi. Do'kondan qancha tez chiqib ketsa, shuncha yaxshi. Bir necha qadam qo'ygan ediki ko'chada, do'kon tomon odimlab kelayotgan ikki kishini ko'rdi. Ulardan biri Garriga juda yaxshi tanish: ushbu yorug' olamda o'zining isqirt ahvoli-yu, siniq ko'zoynagi bilan dovdirayotgan holda uchratishni istamagan Drako Malfoy.

Shoshib qolgan Garri atrofga qaradi. Chap tomonda katta qora javon turibdi. Bola o'sha javon ichiga tez kirib oldi-da, do'konga kirganlarni kuzatib turish uchun eshikni qiya yopdi. Bir necha soniya o'tar-o'tmas, kirish eshigining ustidagi qo'ng'iroq chalinib, ichkariga Malfoy kirib keldi.

U bilan birga kirgan kishi Drakoning otasi ekaniga shubha yo'q. Yuzi xuddi Drakoning yuzi kabi cho'ziq, rangpar, istarasi ham o'g'lining yuzi kabi sovuq. Mister Malfoy do'konni aylanib, vitrinalarga qo'yilgan mollarni erinchoqlik-la ko'zdan kechirib chiqdi-da, peshtaxtadagi qo'ng'iroqni qo'liga olib chaldi.

Malfoy shisha ko'zga qo'l uzatdi.

– Hech narsaga tegma, Drako.

– Menga biron-bir sovg'a tanlaymiz deb o'ylagan edim, – dedi Drako norozi ohangda.

– Aytdim-ku, poyga supurgisini olib beraman deb, – o'ychan javob berdi otasi, peshtaxtani barmoqlari bilan chertib.

– Meni fakultet jamoasiga qabul qilishmas ekan, supurgini nima qilaman? – dedi Malfoy, qovog'ini osiltirib. –

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

Garri Potterga o'tgan yili «Nimbus-2000» rusumli supurgi sovg'a qilishdi. «Griffindor» jamoasi tarkibida o'ynashi uchun unga Dambldorning maxsus ruxsati berildi. Potterni zo'r o'yinchi deb bo'lmasa ham bunday imtiyozlarga peshanasidagi anavi ahmoqona chandig'i-yu dongdorligi tufayli erishdi...

Drako tokchadagi bosh suyaklarini yaqindan ko'rish uchun egildi.

– Hamma uni aqlli deb biladi. Qarang-a: ham tirtiqli, ham aqlli, ham atoqli va ham supurgili super Potter...

– Bu gapni kam deganda yuzinchi bor aytishing, – o'g'lining gapini bo'ldi mister Malfoy, zardasi qaynab, – Potterga nisbatan bu qadar kuchli nafratni ochiq namoyon etib, juda ehtiyotsiz ish tutyapsan. Yodingda bo'lsin, u sehrargalar olamining qahramoni sanaladi. Ayni shu Potter tufayli Yovuz Lord g'oyib bo'lgan... O! Mister Borjin.

Peshtaxta yoniga bukchaygan, yurgan yo'lida yog'li sochini silab kelgan kishi yaqinlashdi.

Mister Malfoy! Yana yuz ko'rishganimizdan bag'oyat xursandman, – dedi mister Borjin xuddi sochi kabi yog'li ohangda. – Juda xursandman. O! Yosh mister Malfoy ham tashrif buyuribdilar-da! Favqulodda mamnunman. Kamina xizimatingizga muntazir. Keltirilgan so'nggi mollarni sizlarga ko'rsatishni o'z burchim deb bilaman. Narxi ham mo'tadil...

– Bugun men xarid qilgani emas, mister Borjin, sotgani keldim, – gapni bo'ldi mister Malfoy.

– Sotgani? – mister Borjinning yuzidagi tabassurning o'ngi ketgani sezildi.

Mister Malfoy ichki kissasidan pergament o'ramini chiqardi-da, do'kon sohibiga ko'rinadigan tarzda yozdi.

– Vazirlik tintuv ishlarini yana boshlab yuborganini eshitgansiz, albatta, – dedi uo – Uyimda bir nechta... m-m-

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

m... buyumlar bo'lib, basharti vazirlik xodimlari xonadoniga tashrif buyursalar-u, o'sha buyumlardan xabar topsalar, biroz xijolat tortadilar degan xayoldaman.

Qiyofasi jiddiy tus olgan mister Borjin tajribali tadbirkor kishilardek o'z pensnesini¹ burni ustiga o'rnashtirib, ro'yxatni o'rganishga kirishdi.

– Nahotki vazirlik xodimlari sizni bezovta qilishga jur'at eta olishsa, ser?

Mister Malfoy istehzoli kulib qo'ydi.

– Hozircha yo'q. «Malfoy» familiyasiga hanuzgacha izzat-ikrom ko'rsatib kelinmoqda. Biroq vazirlik faoliyati tohora jonga tegib bormoqda. Magillarni himoya qilish to'g'risidagi yangi qonun loyihasi haqida har xil mish-mish gap tarqalgan. Shubha yo'qki, bunday gaplar ortida boshini kuya yegan anavi maglparvar ahmoq Artur Uesli turibdi.

Bu gapni eshitgan Garrining turgan joyida g'azabi qaynadi.

– ... ko'rib turganingizday, ushbu zaharlarning ayrim turlari vazirlik xodimlarini beixtiyor har xil xayolga ...

– Albatta, ser, albatta. Men bor gapni tushunib turibman. – ishontirdi mister Borjin. – O'ylab ko'rishga fursat bering ...

Menga mana buni olib berishingizni istayman! – gapga aralashdi Drako, barmog'ini yostiqcha ustidagi ajin bosgan qo'lga o'qtab.

– O! Nurafshon qo'l! – xitob qildi mister Borjin. qo'g'ozni qo'ygancha, Drakoning yoniga kelib. – Agar unga sham tutqazib qo'yilsa, u faqat o'z sohibining yo'lini yoritadi. Sham ham qo'l ham uni tutib olgan kishi ham atrofdagi odamlarga ko'rinmaydi. Nurafshon qo'l o'g'ri va qaroqchilarning eng yaqin yordamchisi! O'g'lingizning didi chakki

¹Pensne (fransuzcha *pince-nez*) – burun ustiga qo'yish orqali ko'riladigan ko'zoynak

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

emas, ser.

– Umid qilamanki, o'g'lim o'g'ri yoki qaroqchidan ko'ra tuzukroq odam bo'lib yetishadi, – quruqqina javob berdi mister Malfoy.

– Yomon fikrdan yiroqman, ser, – gapini to'g'rilashga shoshildi Borjin.

– Garchand, – davom etdi mister Malfoy, sovuq ohangda, – u o'z baholarini tuzatib olmas ekan, o'sha faoliyat, uning qo'lidan keladigan yagona ish bo'lib qolishi ham ajab emas...

– Menda ayb yo'q. Har bir o'qituvchining yaxshi ko'radigan o'z o'quvchisi bor. Masalan anavi tentak Germiona Grenjer...

– Agar sehrgarlar avlodiga mansub bo'lmagan allaqanday qiz barcha fanlar bo'yicha mendan o'zib ketsa, uyalgan bo'lar edim, – dedi mister Malfoy darg'azab ohangda.

– Ajab bo'lsin! – eshitilar-eshitilmas pichirladi Garri, Drakoning yuzi kasb etgan dilsiyohlig-u, sarosima qiyofasini payqab.

– Hamma joyda shu ahvol, – dedi mister Borjin yarash-tirish ohangida, – aslzoda sehrgarlarga e'tibor tobora sustla-shib bormoqda...

– Meni istisnoman! Siz aytgan kaslar toifasiga kirmay-man! – dedi mister Malfoy, uzun burnining kataklarini shi-shirgancha, nafratini deyarli yashirmay.

– Albatta, ser. Men ham undaylarga mansub emasman, – chuqur ta'zim aylab, fikrini tasdiqladi mister Borjin.

– Unday bo'lsa, ro'yxat muhokamasiga qaytsak, – g'i-jinib g'uldiradi mister Malfoy, – Men biroz shoshib turib-man, Borjin, bugun ish yuzasidan o'ta muhim uchrashuvim bor.

Ular savdolasha boshlashdi. Vitrinalarni tomosha qila-yotgan Drakoning tubora qajig'ida kelib chiqarilgan Garri sarosima

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

na boshladi. Drako odam osiladigan dorning halqa shaklida o'ralgan arqoni qarshisida biroz to'xtalib qoldi. Shundan so'ng opal mineralining chiroyli shodasi yonidagi *«Ehtiyot bo'ling, qo'l tekkizmang. Qarg'ish qo'llanilgan. Bugungi kungacha o'zining o'n ikki nafar mag'l sohibini o'ldirgan»* yozuvini mamnun tabassum ila o'qidi.

Drako burilib, eshigi qiya ochiq javon ro'parasiga kelib qoldi. U yana bir qadam bosib, javon eshigiga qo'l uzatgan ediki...

– Bo'ldi, – dedi peshtaxta oldidagi otasi, – ketdik, Drako.

Drako otasiga yuzlandi, javon ichida qolgan Garri esa terlagan peshanasini yengiga artib oldi.

– Xayr, mister Borjin. Sizni ertaga uyimda kutaman. Molni o'sha yerda olasiz.

Xaridorlar ortidan eshik yopilishi bilan mister Borjin o'zining xushomadgo'y sulukatini yig'ishtirdi-da, vishilladi:

– Seni ham tegishli joyga olib borish kerak, o'zi, mister Malfoy. Mish-mish gaplar chin bo'lsa, uyingda yashirilgan narsalarning yarmini ham sotmading-ku menga...

U darg'azab vaysaganicha do'konining ko'makchi xonasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Biroz kutgan Garri javon ichidan asta chiqib, shisha vitrinalar yonidan sezdirmay o'tdi-da, do'konni tark etdi.

Singan ko'zoynagini yuziga bosgan Garri atrofga nazar soldi. Allaqanday shubhali, yovuz kuchlarga mansub buyumlar sotiladigan, hozirgina o'zi chiqib kelgan, aftidan, eng yirik «Borjin va D'Avilo» do'koniga o'xshash mayda do'kon va rastalarga to'lib-toshgan ko'cha. Ro'paradagi do'kon derazasining kir oynasi ortida, hamma ko'rishi uchun qo'yilgan bir juft quritilgan odam kallasi joylangan qafas, undan ikki qafas narida esa juda ko'p yirik qora o'rgim-

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

chaklar qamalgan yana bir qafas ko'rindi. Qandaydir muassasa bo'sag'asida tashqi qiyofalari shubha tug'diradigan ikki nafar schrgar, allanima haqida xunuk vaysashib, Garri-ning harakatini kuzatishmoqda. Bola ko'chada dag'-dag' titragancha, alanglab yurdi. U ko'zoynagini to'g'ri tutib borishga urinib, bu yerlarni imkon qadar tezroq tark etishga umid qildi.

Zaharli shamlar do'koni ustida «Digar xiyobon» yozuvi bitilgan eski yog'och taxtachaga ko'zi tushdi. Bu nom unga hech narsani anglatmadi. Garri bunday joy haqida muqaddam eshitmagan. Chamasi, uning o'pkasi tutunga to'lib qolgach, «Diagon xiyoboni» so'zlarini aniq talaffuz eta olmay «Digar xiyobon» deb yuborgan. Garri imkon qadar o'zini qo'lga olib, endi qanday ish tutish kerakligini o'yladi.

– Yo'qolib qoldingmi, qadrdonim? – yangradi notanish ovoz Garrining qulog'i ustida.

Bola seskanib ketdi. Uning qarshisida qo'lga odam tirnog'iga o'xshab ketadigan jirkanch narsa uyumi solingan patnis tutgan qari jodugar ayol turibdi. U mog'or bosgan tishini yalang'ochlagancha, og'zini katta ochib irshaydi.

– Yo'q, yo'q, – dedi Garri. – Hammasi joyida.

– GARRI! Bu yerlarda nima qilib yuribsan, sandiroqlab?

Garrining yuragi quvonchdan sapchib tushdi. Jodugar esa gumburlab eshutilgan ovozdan seskanib ketdi. «Xogvars» qorovulining bahaybat gavdasi shiddat-la yaqinlashayotganini ko'rgan kampir qo'rqqanidan titrab, qo'lidagi tirnoqlarni sharshara kabi oyoq ostiga to'kiib yubordi. So'ng vishillagancha, Xagridni qarg'ay ketdi. Davangirning bir juft qo'ng'izga o'xshash ko'zi, har tomon hilpirab turgan soqoli ustida yattirab ko'rindi.

– Xagrid! – hayajondan deyarli qichqirib yubordi Garri.
– Yo'qolib qoldim, sayohat uni...

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dagʻi» doʻkonida

Xagrid yaqin kelib bolaning yoqasidan tutib oldi-da, jodugardan nari tortdi va dagʻal harakat-la kampirning qoʻlidagi patnisni urib tushirdi. Ikkovlon, ushbu qingʻir-qiyy-shiq «Digar» xiyobonni tark etib, serquyosh joyga chiqib ketguncha, izzati-nafsi olingan jodugarning dod-voy solib, koʻchani boshiga koʻtargan ovozi eshitildi. Garri koʻzni qamashtirgan «Gringotts» bankining binosini uzoqda koʻrgach, Xagrid uni toʻppa-toʻgʻri «Diagon xiyoboni»ga olib chiqqanini fahmladi.

– Ahvolingga qara, kimlarga oʻxshab qolding?! – koyib berdi jahli chiqqan Xagrid.

U Garrining egnidagi qorakuyani nazarida astagina qoqishga kirishdi. Bunday «ehtiyotkorlik»dan esa bola bechora dorixona eshigi yonidagi ajdar goʻngi toʻla bochku ichiga kirib ketishiga sal qoldi.

– Xayriyatki, hech kim koʻrmadi seni u yerda. «Digar xiyobon» da nima qilib yuribsan?... Juda shubhali joy u yer.

– Buni oʻzim ham anglab yetdim, – dedi bola, qorakuya qoqishga urinayotgan Xagridning bahaybat kaftiga chap berib. – Aytyapman-ku, yoʻqolib qoldim deb. Oʻzing-chi, oʻzing nima qilib yuribsan u yerda?

Men-ku etxoʻr shilliqqurtlarga qarshi qoʻllaniladigan vosita axtarib kirgan edim. – javob berdi Xagrid. – Yaramas sudraluvchilar karamimga kun berishmayapti! Sen-chi, bir aylanib kelay, debsan-da?

– Umuman aytganda, men Ueslilar xonadonining mehmoniman. Lekin hozir yoʻqolib qoldim, – takror tushuntirdi Garri. – Ularni tez topishim kerak...

Ikkovlon Ueslilarni qidirib, xiyobon boʻylab ketdi.

– Men hech oʻylab, oʻyimga yeta olmayman. Garri. Ni-ma uchun sen biror marta boʻlsin, menga xat yoʻllamading? – xafa boʻlib soʻradi Xagrid yonida loʻkillab kelayotgan Garridan.

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

Davangirning crinchoqlik-la bosgan bitta qisqa qadami Garrining uchta qadamiga teng keladi.

Bolaning Dobbi bilan Dursllar oilasining qilmishi haqidagi qisqa hikoyasini eshitgan Xagrid xulosa chiqardi:

– Jirkanch magllar! Agar bilganimda edi...

– Hoy! Garri! Garri!

Garri o'girilib, «Gringotts»ning oppoq zinasidan tushib kelayotgan Germiona Grenjerni ko'rdi. Yugurib kelayotgan qizning qizg'ish-qo'ng'irangli qalin sochi tovlanib hilpiramoqda.

– Ko'zoynagingga nima qildi? Salom Xagrid. Sizlarni yana ko'rganimdan juda xursandman. «Gringotts»ga kirasanmi, Garri?

– Ueslilarni topishim bilan, – javob berdi Garri.

– Unday bo'lsa, uzoq kutishga to'g'ri kelmaydi, – dedi kulib Xagrid.

Garri bilan Germiona Xagrid qarab turgan tomon yuzlanib, gavjum ko'chada yugurib kelishayotgan Ron, Fred, Jorj, Persi va mister Ueslini ko'rishdi.

– Garri, – harsilladi mister Uesli. – O'zimiz ham bir o'choq nari ketib qolgan bo'lsang kerak degan xayolga bordik... shunga umid qildik, – u terlab, yaltirayotgan kal peshanasini artib oldi. – Molli nihoyatda qo'rqib ketgan... U hozir yetib keladi...

– Qayerga borib qolding? – so'radi Ron.

– «Digar xiyobon»ga, – javob berdi Garri, qovog'ini solib.

– Rostdanmi! – baralla qichqirishdi egizaklar.

– Eh, bizga ruxsat berishmaydi-da, o'sha yerga kirib chiqqani, – dedi Ron hasad ohangida.

Qarang-a istaklarini, – vaysadi Xagrid.

Uzoqdan bir qo'lida sumka, ikkinchisida onasining ketidan yugurib ulgurmayotgan Jinna osilib olgan missis Ue-

• IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

sh yelib kelayotgani ko'rindi.

– Oh, Garri... qadrdonginam. Axir, sen... Xudo biladi, qayerlarga ketib qolishing mumkin edi...

Garrining qiyofasini ko'rgan missis Uesli og'zi bilan havo yutgancha, sumkasidan kiyim cho'tkasini olib, bolaning kiyimini Xagrid tozalamay qoldirgan qorakuyalardan tozalashga kirishdi. Mister Uesli esa Garrining ko'zoynagini qo'lga oldi. Sehrli tayoqchasi bilan sal tegib, ko'zoynakni yangiday qilib qo'ydi.

– Xo'p, men bora qolay endi, – dedi Xagrid.

Minnatdor missis Uesli uning qo'lini siqib sikab, uzib olishiga sal qoldi.

– «Digar xiyobon!» Qarang-a tushgan joyini. Sen bo'lmaganingda holi ne kechar edi bola bechoraning.

– «Xogvars»da uchrashguncha! – dedi Xagrid.

Uning boshi va yelkalari odamlar orasida ancha vaqtgacha ko'rinib turdi.

– Bilasizlarmi. «Borjin va D'Avilo» do'konida kimni ko'rdim? – dedi Garri Ron bilan Germionaga, «Gringotts» zinasidan ko'tarilishar ekan. – Otasi bilan birga kelgan Malfoy!

– Lyutsius biror narsa xarid qildimi? – shubhalanib so'radi ortda kelayotgan mister Uesli.

– Yo'q, u nimalarnidir soldi.

– Demak, sarosimaga tushib qolibdi-da, – dedi mister Uesli, ma'yus mamnuniyat ohangida. – Eh, biror-bir ish ustida tutib olsam edi uni...

– Ehtiyot bo'l, Artur, – dedi xavotirlangan missis Uesli. – O'sha oila dastidan ko'ngilsiz holatga tushib qolishing mumkin. Yutib yuborishga ko'zing yetmaydigan narsani tishlab uzishga urinma...

Eshik yonidagi darbon goblin chuqur ta'zim qilgancha, mijozlarni ichkariga kiritdi.

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

– Demak, fikringcha, men Lyutsius Malfoidan qo'rqib yashashim kerak ekan-da, shundaymi? – achchiqlandi mister Uesli.

Biroq u, Germionaning ota-onasini ko'rib, fikridan chalg'idi. Grenjerlar marmar zalning boshidan oxirigacha cho'zilgan uzun marmar peshtaxtaga suyanib olib, qizlari tanishtirib qo'yishini kutib turishgan ekan.

– Iye, sizlar magl ekansiz-da! – xitob qildi mister Uesli, – Biz albatta qayerdadir o'tirib, suhbat qurishimiz kerak! Mana bu nima? Ha, tushunarli. Magllarning pulini sehrgarlar puliga almashtiryapsizmi. Molli! Mana bu pulni qara! – u o'zini yo'qotib qo'yadigan darajada zavqlanib, xotiniga mister Grenjerning qo'lidagi o'n funtli banknotni ko'rsatdi.

– Bizni shu yerda kutib turing, – dedi Ron Germionaga.

Garri va Ueslilar yer ostidagi pul saqlash omboriga, bank xodimi-goblin hamrohligida yo'l olishdi.

Yerosti pul saqlash seyflariga tunnellar bo'ylab yotqizilgan ingichka rels ustida yuradigan, odatda, goblin boshqaradigan kichik aravada yetib borish mumkin, xolos. Ueslilar oilasiga qarashli seyf tomon yurish mobaynida Garri harakat tezligidan rosa zavqlandi. Ammo bo'lma eshigi ochilganida o'zini «Digar xiyobon»dagidan ham yomon his etdi. Negaki u, ushbu seyfda kumush sklatlarning kichkina uyumi va yakka yaguna tilla galleonni ko'rdi, xolos. Missis Uesli bo'lma burchaklarini titkilab chiqqach, kumush tangalarni hamyoniga joyladi. Bola o'z seyfiga yetib borganida esa battar xijolat tortdi. U bo'lmani beli bilan to'sib, pulning zaruriy miqdorini siqimlagancha, charm hamyoniga tez joyladi.

Bank muassasasining marmar zinasiga chiqqach, hamma har tomon tarqaldi. Persi o'ziga yangi pat-qalam qidirishi haqida allanarsa vaysab nari ketdi. Fred bilan Jorj odamlar orasida o'zlarining maktabdosh do'stlari Li Jordanni

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

ko'rib qolishdi. Missis Uesli bilan Jinna tutilgan kiyimlar do'koni tomon yo'l olishdi. Mister Uesli er-xotin Grenjerlarni «Teshik qozon»ga taklif qildi.

– Bir soatdan so'ng «Jimjimador va siyoh dog'i» do'konida uchrashib, o'sha yerda darslik xarid qilamiz, – dedi Jinna bilan birgalikda odamlar orasiga kirib ketayotgan missis Uesli. – «Digar xiyobon»ni xayolingizga ham keltirmang. Yodingizda bo'lsin, u tomon bir qadam ham qo'ymang! – qichqirgancha tayinladi u egizaklar ortidan.

Onaning ko'zi bolalarining beliga qarab ham sho'xlik alomatini sezar ekan.

Yengillik va ozodlikni his etishgan Garri, Ron va Germiona ilon izi tosh ko'cha bo'ylab ketishdi. Tilla, kumush va bronza tangalar Garrining kissasida jiringlaydi. Ularni sarilash istagi bolaning hol-joniga qo'ymaydi. Garri birinchi bo'lib qulupnay-yong'oqli uchta katta-katta muzqaymoq oldi. Muzqaymoq asta-sekin sirtidan erib, bolalar uni maza qilib yalagancha, tevarak-atrofdagi ajoyib, o'ziga tortadigan vitrinalarni tomosha qilib borishdi. Ron «Kvidish uchun eng sara buyumlar» sport mollari do'koni vitrinasiga qo'yilgan «Otar zambaraklar» jamoasi kiyadigan sport kiyimining to'liq to'planiga uzoq termilib qoldi. Bunday tomoshadan zerikkan Germiona bolalarni pergament va siyoh xarid qilish uchun qo'shni rastaga tortdi. Ular «Ichak uzdi hazillar» afsungarlikka oid hazil-huzul mollar do'konida o'z kissalarini doktor Filibusterning suvdan olovsiz otiladigan fantastik mushaklari bilan to'ldirayotgan Fred, Jorj va Li Jordanga duch kelishdi. Eski-tuski narsalar, jumladan, singan sehrli tayoqchalar, qiyshaygan tarozilar, o't-alaf yopishib, ямалрах kiyimlar kabi buyumlar sotiladigan kichkinagina do'konda esa «Hokimiyatga erishgan sinfboshilar» deb nomlangan, zerikarli ckani yaqqol ko'rinib turgan kichkinagina kitobchani mutolaa qilib turgan Persiga duch

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida kelishdi.

– «Xogvars»ning barcha sinfboshilari va ularning kelgusida erishgan mavqelariga doir tadqiqotlar, – ovoz chiqarib o'qidi Ron muqovadagi yozuvni. – Eshitilishi yomon emas...

– Bor, toshingni ter, – baqirdi Persi.

– Bizning Persimiz o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish borasida shu qadar sobitqadamki, qo'yaverasiz. Nazarimda, u o'z kelajagini batafsil qism, bob, band va kichik bandlarga bo'lib, rejalashtirib chiqqan... U sehrgarlik vaziri bo'lishi muqarrar... – dedi Ron pichirlab, Persidan sal uzoqlashgach.

Bolalar, ularga tayinlangandek bir soat o'tgach «Jimjimador va siyoh dog'i» do'koniga hozir bo'lishdi. Do'konga yaqinlashgan do'stlar eshik yaqinida turgan ko'p sonli xaloyiqni ko'rishdi. Odamlar bir-birini turtishgancha, ichkariga kirishga oshiqmoqda. Vitrina oynasiga tortilgan plakatga e'tibor qilgach, bunday ahvolning sababini tushunib yetishdi.

SVERKAROL CHARUALD . O'z tarjimai holini siz uchun shaxsan imzolab beradi. SEHRLI MEN. Bugun soat 12.30 dan 16.30 gacha

– Uni ko'rishimiz mumkin ekan! – xitob qildi Germiona, – aytmoqchimanki, bu yil bizga faqat uning darsliklari tayinlangan, deyarli hammasi Charuald yozgan kitoblar!

Diqqat bilan razm solgan bolalar, eshik yonida to'planagan xaloyiq asosan yoshi missis Uesli bilan teng afsungar ayollardan tashkil topganini ko'rishdi. Dahshatga tushgan do'kon sohibi esa eshik yaqinida turib, esankiragancha, bir gapni takrorlagani takrorlagan:

– Tinchlaning xonimlar, iltimos, tinchlaning... Ehtiyot bo'lsangiz-chi... turtinmang... kitoblar!...

Bolalarayollar orasiga suqulib, ichkariga kirishdi. Uzun-

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

dan uzoq navbat do'konning ichki burchagigacha cho'zilgan. U yerda esa Sverkarol Charuald astoydil joylashib, uzatilgan kitoblarga dastxat qo'yib o'tiribdi. Bolalar Miranda Goshokning bittadan «Afsuntar to'plami (ikkinchi qism)»ni olishdi-da, ichkariga, navbat boshiga yaqinroq suqilib kirishdi. Bu yerda Ueslilar oilasi to'la tarkibda va er-xotin Grenjerlar turgan ekan.

– Keldingizmi, xayriyat, – dedi missis Uesli xayoli qochib.

Qo'ti soch turmagini tuzatishdan bo'shamayotgan ushbu ayolning sevinganidan nafasi ichiga tushib ketgani sezilib turibdi.

– Bir daqiqadan so'ng ko'ramiz, uni...

Chindan ham oldinda turgan ayollar do'konni tark etishgan sari juda ko'p plakat osilgan yozuv stoli ortidagi Sverkarol Charualdning qorasi ko'rindi. Plakatlarda tasvirlangan Charualdning yuzlari yarqiramoqda, hammaga ko'z qisib, oppoq tishini ko'rsatgancha, ko'z qamashtirguday irshaymoqda. Haqiqiy Charuald ko'zining rangiga mos tushgan bo'tako'zrangli ajoyib rido kiyib olgan. Sehrgarlarning jingalak sochli boshidagi cho'qqidor shlapasi, unga yanada maftunkor ko'rinish bergancha, allaqanday burchak hosil qilgan.

Qo'lga katta fotoapparat ushlagan, tanasi yirik, had-jahl qiyofali kishi Charualdning atrofida girdi-kapalak bo'lib, uni har xil holatda suratga o'lmoqda. Fotoapparat har gal, ko'zni qamashtiradigan darajada chaq nab ketgach, pag'a-pag'a qirmizi dud chiqaradi.

– Oyoq ostida o'ralashma, – baqirdi u Ronga. – Men «Bashorat-u, karomat gazetasi»danman ...

– Buni qarang-a, bildik, – dedi xafa bo'lgan Ron, foto-muxbir bosib olgan poyafzalini artib.

Sverkarol Charuald Ronning gapini eshitib, boshini

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

ko'tardi, dastlab Ronga, so'ng Garriga qaradi. Bolaga biroz tikilib, birdaniga o'rnidan turdi-da, qichqirdi:

– Ajabmi-ye! Nahotki, Garri Potter?

Odamlar orani ochib, Charualdga yo'l berish barobari-da allanima haqida to'liqlanib shivirlashdi. Charuald odamlar orasidan o'tib, Garriga yaqin keldi-da, uni qo'lidan ushlab, hamмага ko'rinadigan joyga tortdi. Muxlislar qarsak urishdi. Garri qizarib ketdi. Charuald kamera qarshisida har xil vaziyatlarda turgancha, bolaning qo'lini atayin uzoq vaqt siqib turdi. Fotomuxbir apparatini shiqillata boshlagach, Ueslilar oilasi qalin tutun ortida ko'rinmay qoldi.

– Kulib tur, Garri, kulib tur, – dedi Charuald tishining oqini ko'rsatib. – Ikkalamiz gazetaning bosh sahifasiga yarrashsak kerak. a?

Nihoyat Charuald, bolaning qo'lini qo'yib yubordi. Garri qo'li uvushganidan barmoqlarini his etmay qoldi. U endigina Ueslilar tomon odimlagan ediki, Charuald uni yana o'ziga tortib, yelkasidan quchdi.

– Muhtaram xonimlar va janoblar, – dedi u baland ovozda va qo'l imosi ila jimlik saqlanishini so'radi: – ajoyib bir fursat yetdi. Anchadan buyon sizning e'tiboringizga kichik bir e'lonni havola etmoqchi edim. Mana nihoyat mavridi keldi! Bugun, mana shu «Jimjimador va siyoh dog'i» do'koniga mening tarjimai holimni xarid qilish niyatida kirgan, hozircha yosh Garri Potterga men o'z kitoblarimni bajonidil, bepul sovg'a qilaman.

Muxlislar oh-voh qilib, boz qarsak urishdi.

– U yaqin orada «Sehrgar men» kitobimdan ham muhimroq narsaga ega bo'lishini tasavvur qila olmaydi, – davom etdi Charuald va Garrini chunonam do'stona siltadiki, bolaning ko'zoynagi burnining uchida bazo'r ilinib qoldi. – Bu bola o'z maktabdosh do'stlari bilan birga chindan ham menday sehrgarni o'z ustoz sifatida qabul qiladi. Ha, ha,

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

aziz xonimlar va janoblar, aytmogqchimanki, joriy yilning sentabr oyida men, «Xogvars», sehrgarlik va afsungarlik san'ati maktabidagi o'qituvchilik lavozimini qabul qilib olishimni sizlarga e'lon qilib, bu bilan g'ururlanishimni ma'lum qilmoqchiman. U yerda yoshlarimizga yovuz kuchdan himoya fanidan dars o'taman!

Odamlarning gulduros qarsaklari, tabriklari yangradi. Garri esankiragancha, Charualdning to'la to'plamini qabul qilib oldi. Kitoblarning vazminligidan chayqalgan bola, proyektor nuridan bir amallab nari ketgach, do'konning uzoq burchagida, hozirgina xarid qilingan qozon bilan turgan Jinaning yoniga keldi.

– Bu senga, – g'udrandi Garri, kitoblarni qozon ichiga to'kib, – Men o'zingma o'zim xarid qilib olaman...

– Garov bog'lashim mumkinki, Potter, bu tomosha senga juda manzur tushdi, shundaymi?

Bu ovozni hech kimning ovozi bilan adashtirib bo'lmaydi. Qaddini rostlagan Garri Drako Malfoy va uning jirkanch tabassumiga duch keldi.

– Mashhur Garri Potter! – davom etdi Malfoy. – Shu qadar mashhurki, oddiy do'kondan biron-bir gazetaning bosh sahifasiga tushmay, chiqmaydi.

– Uni tinch qo'y, atayin qilgani yo'q-ku! – ovoz ko'tardi Jinna.

Qizaloq Garrining yonida ilk bor gapirib yuborishi. Uning ko'zi nafratdan yarqiradi.

– Potter, qo'ysang-chi, nahotki o'zingga dugona orttirib olgan bo'lsang?! – haqoratomuz ohangda so'radi Malfoy.

Bu gapni eshitgan Jinna qizarib ketdi. Charualdning kitoblarini quchoqlab olishgan Ron bilan Germiona ham yaqin kelishdi.

– Ha, bu, anavimi? – so'radi Ron, Malfoyga poyafzalga yopishib qolgan iflos narsaga qaraganday qarab. – Garov

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

bog'lashim mumkinki, Garrini bu yerda uchratishni umuman kutmagan eding, shunday emasmi?

– Do'konda seni uchratishdan ko'proq taajjubdaman. Uesli, – dedi Malfoy. – Ota-onang mana bularni xarid qilish uchun bir oy och-nahor o'tirishgan bo'lsa kerak.

Jinnaday qizarib ketgan Ron qo'lidagi kitoblarni qozon ichiga to'kib, Malfoyga tashlandi. Biroq uni Garri bilan Germiona nimchasidan ushlab, tutib qolishdi.

– Ron! – eshitildi mister Ueslining ovozi.

U tirsaklar vositasida odamlar orasidan yo'l ochib, Fred va Jorj bilan birga bazo'r chiqib oldi.

– Nima qilyapsiz shuncha odam ichida? Yuringlar, ko'chaga chiqamiz.

– Shunday qilib, Artur Uesli deng? – eshitildi boshqa ovoz.

O'g'liga yaqin kelgan mister Malfoy qo'lini Drakoning yelkasiga qo'ydi. Ikkalasining quyib qo'yganday bir xil basharasi jirkanch qiyofa kasb etgan.

– Lyutsius, – sovuqqina bosh irg'idi mister Uesli.

– Mish-mish gaplarga qaraganda, vazirlik tashvishlari oshib-toshib ketibdi emish? – soxta qiziqish bildirdi mister Malfoy. – Har xil tintuvlar... Asosiy ish vaqtidan tashqari amalga oshirilgan xizmat faoliyati uchun qo'shimcha haq to'lashadimi?

U qo'lini Jinnaning qozoni ichiga suqib, Charualdning ko'p sonli yangi kitoblari ostidan Emerik Svitchning titilib ketgan «Boshqa narsaga aylanish va aylantirish usullari. O'rganuvchilar uchun qo'llanma»sini chiqardi.

– O'zim ham shunday deb o'ylagan edim. To'lashmaydi, – dedi mister Malfoy, o'z savoliga o'zi javob topib. – O'ylab ko'ring, shuncha jirkanch ishlar me'yoriy hayot tarzini ta'minlamas ekan, sehrGAR degan ulug' nom sha'niga dog' tushirish kerakmi? Arziydimi?

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

Mister Uesli o'z bolalaridan ham battar qizarib ketdi.

– Sehrgar nomiga dog' tushirish borasidagi qarashlari-miz atidan, keskin farq qiladi, chamasi, – vazminlik-la javob berdi u.

– Albatta, – pinagini buzmay rozi bo'ldi mister Malfoy, rangpar yuzini Germionaning ota-onasi tomon burib, Kimlar bilan ilashib yuribsan, Uesli. Sen va oila a'zolaring yuz tutgan tubanlikdan battar tubanlik bo'lmasa kerak deb o'ylagan edim. Adashibman chog'i...

Daf'atan Jinnaning qozoni nari uchib, metallning taraqq-turuq tovushi yangradi. Mister Uesli Lyutsius Malfoyga tashlandi. Malfoy beli bilan tokchaga urilib, o'nlab og'ir kitoblar yoqalashayotganlar ustiga to'kildi.

– Soling, dada! Och biqiniga soling! – qichqirishdi Fred bilan Jorj.

– Bas qil, Artur! Hoziroq bas qil dedim senga! – egi-zaklarga qo'shilib baqirdi Missis Uesli.

Har tomon chekinayotgan xaloyiq ham tokchadagi kitoblarning anchasini to'kib yubordi.

– Jentlmenlar!... Jentlmenlar... Iltimos! – eshitildi do'kon sohibining o'tinchlari.

– Qani bas qiling-chi! Nima qildi o'zi sizlarga! – baland yangradi tanish ovoz.

Kitoblar orasidan o'tgan Xagrid, ko'z ochib yumguncha, urishqoqlarni ikki tomon ajratib yubordi. Mister Ueslining labi yorilgan, Emerik Svitchning qo'llanmasini qo'lidan chiqarmagan mister Malfoy esa ko'ziga «Zaharli zamburug'lar ensiklopediyasi»dan zarb yegan.

– Kitobingni ol qizaloq, – dedi u, qo'lidagi kitobni Jinnaning qozoniga solib, – bundan yaxshiroq narsa olib berishga otangning qurbi yetmaydi.

Xagridning qo'lidan xalos bo'lgan mister Malfoy Drakoga imo qildi.

IV BOB. «Naqshli yozuv va siyoh dog'i» do'konida

Ota bola zudlik bilan do'konni tark etishdi.

– Bu nima qilganing, Artur? Nega qiziqonliging tutib qoldi? – koyish ohangida so'radi Xagrid.

U inister Ueslini yerdan ko'tarib, kiyimini to'g'rilash uchun yaxshigina siltab qo'ydi.

– Malfoylarni bilmaysanmi? Butun sulolasining ich-qatini fasod bog'lagan-u... Nega teng bo'lasan o'shalar bilan? Bir so'z bilan aytganda badahloq zot u... Qani, ketdik bu yerdan.

Do'kon sohibi ularni ushlab qolmoqchi bo'lganday qarab turdi-yu, bo'yi Xagridning belidan past bo'lgani uchun, indamay qo'ya qoldi. Hamma ko'chaga chiqdi. Missis Uesli jahli chiqqanidan, Grenjerlar esa qo'rqqanidan, dag-dag titrashmoqda.

– Odamlarning ko'z o'ngida mushtlashib... juda yaxshi ibrat ko'rsatding... bolalarga... Sverkarol Charuald qanday xayolga boradi endi?

– U qoyil qoldi, oyi, – dedi Fred. – Do'kondan chiqayotganimizda aytgan gapini eshitmadingizmi? «Bashorat-u, karomat gazetasi»danman degan anavi amakidan: «Fotoreportaj materiallariga mushtlashuv sahnasini ham kiritisa bo'ladimi, zo'r reklama bo'lar edi?» – dedi.

Kayfiyati buzigan guruh «Teshik qozon» tomon yo'l oldi. Ueslilar oilasi, xarid qilib olingan buyumlar va Garri sayohat uni vositasida «Teshik qozon» kamini orqali uyga qaytishlari darkor. Bar orqali magllarning ko'chasiga chiqib ketayotgan Grenjerlar bilan hamma iliq xayrlashdi. Mister Uesli ulardan avtobus bekati qanday tuzilganini so'rab bilmoqchi bo'ldi-yu, xotinining yuzidagi vajohatni ko'rib, fikridan qaytdi.

Garri ko'zoynagini yechib, ehtiyot qilish uchun kis-sasiga solgach, sayohat unidan bir chimdini oldi. Bir yerdan boshqa yerga ko'chishning ushbu turi unga yoqmadi.

V BOB. URISHQOQ TOL

Garrining nazarida, ta'til juda tez o'tdi. U «Xogvars»ga oshiqadi, albatta. Ammo Boshpanada o'tgan bir oy bolaning yosh hayoti davomidagi eng baxtli oy bo'ldi. Ronga havas qilmay bo'lmaydi. Ayniqsa Dursllar yodga tushib, kelgusi ta'tilda «Odamovilar» ko'chasida kutilayotgan qabul haqida o'ylab ko'rilsa, chindan ham havas qilmaslikning iloji yo'q.

Missis Uesli ta'tilning so'nggi kechasida biroz afsun qo'llagan holda Garri xush ko'radigan taomlardan iborat ajoyib dasturxon tuzadi. Ko'z tushishi bilan ishtahani qitqaydigan quyuq shinnili puding desert sifatida dasturxonga tortildi. Kecha nihoyasida esa Fred bilan Jorj doktor Filibusterning olovsiz otiladigan mushaklari vositasida tomoshabinlar ko'nglini chog' qilishdi. Oshxonaning poli bilan shifti orasi koptok singari kam deganda yarim soat sakragan qizil va ko'k yulduzchalarga to'ldi. Bir chashkadan issiq shokolad ichilgach, hamma uyquga yotdi.

Ertasiga ertalab yo'lga taraddud ko'rishga bir olam vaqt ketdi. Hamma tong otar mahalda uyg'onganiga qaramay, hech kim o'z ishini oxirigacha yetkazishga ulgurmayapti. Missis Uesli bo'g'ilib dam paypoq qidiradi, dam patqalam. Kiyimlarini oxirigacha kiymay, yurgan yo'lida butterbrod kavshagan bolalar bir-biri bilan zinada to'qnash kelgani-kelgan. Jinnaning mashinaga ortiladigan sandig'ini ko'tarib ketayotgan mister Uesli esa oyoq ostida o'ralashib yurgan jo'jaga qoqilib, bo'ynini sindirib olishiga bir baxya qoldi.

Katta-kichik sakkiz nafar odam, oltita katta-katta sandiq, ikkita boyqush va bitta kalamush «Fort Angliya» rusumli kichkinagina mashinaga qanday qilib joylashayotganini Garri hech xayoliga sig'dira olmaydi. Mashinaning

V BOB. Urishqoq tol

texnik xususiyatlariga mister Uesli tomonidan kiritilgan «qo'shimcha qobiliyat»lar bo'lsa kerak, hoynahoy. Busiz bo'lmaydi, albatta.

Mashinaning yuk bo'lmasini ochar ekan mister Uesli Garrining qulog'iga pichirladi:

– Yuk ortilgan sari yuk bo'lmasi bilinar-bilinmas kengayib boraveradi. Faqat Molliga ayta ko'rma buni.

Hamma mashinaga joylashgach, Jinna bilan birga bog' kursisini eslatadigan old o'rindiqqa o'tirayotgan missis Uesli orqa bo'lmada bemalol o'tirishgan Garri, Ron, Fred, Jorj va Persi tomon qarab qo'yib, fikr bildirdi:

– Magllar biz o'ylagan darajada ovsar emas, yaxshi narsa ham yarata bilishadi. Darhaqiqat, tashqaridan qaragan kishi, ushbu shaldiroq aravaning ichi bu qadar keng bo'ladi deb o'ylamaydi, a?

Mister Uesli motorni ishga tushirib, mashinani asta ko'chaga olib chiqdi. Garri uyga so'nggi bor qarab qo'yish uchun orqaga o'girildi. Bu ajoyib uyni qayta ko'rish unga yana qachon nasib etishi haqidagi o'yga borgan ediki, ortga qaytishga to'g'ri keldi. Jorj mushaklar qutisini yodidan chiqaribdi. Hovli takror tark etilgach, besh daqiqadan so'ng mashina yana to'xtadi. Fred sehrli tayoqchasini yodidan chiqaribdi. Boshpana tark etilib, katta yo'lga yetay deganda, Jinna chiyillab qoldi. U kundaligini yodidan chiqarib qoldiribdi. Qizaloq ivirsib, mashinaga qaytib chiqqanida, vaqt o'tib kechikayotganini o'ylagan oila asabiylasha boshladi.

Mister Uesli dastlab soatiga, so'ng xotiniga qaradi.

– Molli, azizam...

– Aslo yo'q, Artur...

– Hech kim hech narsani payqamaydi... Mana bu mitti tugmacha bosilsa ko'rinmaslik mexanizmini ishga tushib, mashina ko'zga ko'rinmas bo'lib qoladi. Biz yuqoriga ko'tarilib, bulutlar uzra parvoz etamiz. Qarabsanki, o'n daqiqa

o'tar-o'tmas manzilga yetib boramiz. Biror zot hech narsani payqamaydi...

– Yo'q dedim-ku. Artur, yo'q. Ayniqsa hozir – kuppa-kunduz kuni-ya... Yo'q.

Ular Kings-Kross temir yo'l vokzaliga soat o'ndan qirq besh daqiqa o'tganida arang yetib kelishdi. «Xogvars-Ekspress» esa odatdagiday, soat roppa-rosa o'n birda jo'naydi.

O'tgan yili Garri, maktabga «Xogvars-Ekspress»da borgan. Ushbu poyezdga chiqish uchun esa kishi bir sirli yo'l-ni, u ham bo'lsa, mag'llar dunyosida ko'rinmaydigan to'q-qiz butun to'rtidan uchinchi platformaga o'tib olish usulini bilish kerak. Bu platformaga to'qqizinchi va o'ninchi platformalarni ajratib turgan to'siq orqali singib o'tiladi. Singib o'tish jarayoni qo'rqinchli kechmaydi. Biroq bunda, kishi o'zidan o'zi g'oyib bo'lganini mag'llarga sezdirmasligi shart.

– Persi, boshla, – dedi missis Uesli tepaga osib qo'yilgan soatga asabiy qarab.

Soat millari oila a'zolarining navbat bilan to'siq ortiga o'tib, gum bo'lishlari uchun atigi besh daqiqa qolganini ko'rsatmoqda.

Persi odatdagiday, o'zining oqsuyaklarga xos qomati ila olg'a bosib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uning ortidan mister Uesli, so'ngra egizaklar Fred va Jorj o'tishdi.

Shoshayotgan missis Uesli Jinnaning qo'lidan mahkam ushlab olgancha, olg'a intilar ekan, Ron bilan Garriga tayinladi:

Men Jinnani olib o'taman, ikkalangiz orqamizdan tez yetib oling.

Ona-bola ham ko'z ochib yumguncha g'oyib bo'ldi.

– Ixtiyorimizda atigi bir daqiqa qoldi, ketdik, birga o'tamiz, – taklif qildi Ron.

Garri sandig'i ustidagi Xedvig qamalgan qafasni to'g'riladi-da, har qalay ushbu harakat makon bo'ylab allaqan-

V BOB. Urishqoq tol

day sayohat uni vositasida ko'chib yurish jarayoni bo'lmagani uchun ham to'siq tomon komil ishonch-la harakat boshladi.

Bolalar boshlarini o'zlari itarib borishayotgan arava dastalaridan ham pastroq tushirib, harakat tezligini oshirishdi. To'siqqa yaqinlashgan sari, qadam yanada tezlatildi va...

QA-A-ARS-S!

To'siqqa qattiq urilgan ikkala arava ortga tisarilib, Ronning sandig'i taraqturuq qilgancha, yerga tushdi. Garri qoqilib, yiqildi. Qafasi yerda yumalayotgan Xedvig vahimaga tushib, ayyuhannos solgancha, vokzalni boshiga ko'tardi. Bolalarga e'tibor qilmagan odam qolmadi.

– Nima qilyapsan, so'qir! – baqirdi vokzal xodimi.

– Boshqaruvni eplay olmadim, – bazo'r javob berdi Garri, o'midan turishga urinar ekan. qovurg'asini bexos ushlab olib.

Ron yugurib borib Xedvigning qafasini yerdan ko'tardi. Uning xalti-harakati atrofda odamlar orasida jonivor bilan bunday shafqatsiz muomala qilib bo'lmaslikka doir ko'plab tanbehlar eshutilishiga sabab bo'ldi.

– Nega o'ta olmadik? – vishilladi joni og'rikan Garri.

– Hech narsani tushunmayapman...

Ron atrofga telbanamo boqdi. Uni kam deganda yigirmatacha odam hamon sinchkovlik-la kuzatib turibdi.

– Poyezdga kechikamiz, chamasi, – pichirladi Ron, – O'tish yo'li nima uchun yopilib qolganiga hech aqlim yetmayпти...

Sarosimaga tushgan Garri qorin sohasi uvushib qolayotganini his etib, vokzalning katta soatiga tikilib qoldi. O'n soniya... to'qqiz soniya...

Asta surib to'siqqa taqagan aravasini kuchi boricha itarib ko'rdi. Metall to'siq hamon qattiq.

Uch soniya... ikki... bir...

– Tamom, – dedi hang-mang bo'lgan Ron. – poyezd ketdi. Oyim bilan dadam qaytib chiqa olishmasa nima qilamiz? Yoningda magllarning puli bormi?

Garri g'amgin kulib qo'ydi.

– Dursllar menga kam deganda olti yildan buyon cho'n-tak puli berishmaydi.

Ron qulog'ini muzday to'siqqa bosdi.

– Hech qanday tovush eshitilmaydi, – dedi zo'riqib, – Endi nima qildik? Ota-onam qachon qaytib chiqishlarini bilmayman.

Bolalar atrofga qarashdi. Xedvig baqir-chaqirini qo'y-magani uchun, ular hamon odamlar e'tiborida.

– Fikrimcha mashinaga qaytib, ota-onangni o'sha yer-da kutish kerak, – dedi Garri, – aks holda biz o'zimizga haddan ortiq e'tibor...

– Garri! – xitob qildi Ron. ko'zi yarqirab. – Mashina!

– Mashinaga nima qilibdi?

– Biz «Xogvars»ga mashinada uchib borishimiz mum-kin!

– Biroq o'ylashimcha...

– Hozir biz chorasiz, favqulodda holatda qolganmiz, shundaymi? Shunday. Maktabga yetib borishimiz shart, shundaymi? Shunday. Voyaga yetmagan sehrgarlarga mak-tabdan tashqari har qanday joyda afsun bilan shug'ullanish taqiqlangan, shundaymi? Shunday. Ammo, aynan o'sha Balog'atga yetmaganlar orasida allaqanday cheklashlar to'g'risidagi dekretning, chamasi o'n beshinchi bandida, voyaga yetmagan sehrgar favqulodda holatlardagina sehr qo'llashi mumkin deyilgan, shundaymi? Albatta shunday.

– Ota-onang... uyga qanday yetib olishadi? – dedi Garri, aravasini yana bir bor to'siqqa, zora yo'l bersa degan umid-la urib ko'rib.

– Uyga yetib olib uchmo ilajga mashina mo'ljali ko-

rak emas! – betoqat qichqirdi Ron. – Buning uchun ular havoda daf bo'lib, kerakli manzilda paydo bo'lish qobiliyatiga ega! Mashina yoki sayohat uniga o'xshash har xil bema'ni narsalardan esa ular faqat biz tufayligina foydalanishga majbur, tushunyapsanmi? Biz balog'at yoshiga yetmaganimiz bois ular kabi daf bo'lib, kerakli joyda havoda paydo bo'lish taqiqlangan bizga.

Bu gapni eshitgach, Garrining ko'nglida kechayotgan vahima kutilmaganda quvonchli zavqqa almashdi qoldi.

– Mashina boshqarishni bilasanmi?

– Muammo bo'lishi mumkin emas, – javob berdi Ron, soxta vazmin ohangda, – ketdik, tezroq harakat qilsak, «Xogvars-Ekspress» ketidan ergashib boramiz, – dedi u, aravasini chiqish tomon itarib.

Bolalar pinaklarini ham buzmay, qiziqsinib qarayotgan magllar orasidan dastlab vokzaldan chiqish eshigi, u yerdan «Fort Angliya» turgan xilvat ko'cha tomon odimlashdi.

Ron sehrli tayoqcha tekizish amallarining murakkab izchilligini bajarib mashinaning yuk bo'lmasini ochdi. Sandiqlarini bir amallab yuk bo'lmasiga ortishgan bolalar Xedvigning qafasini orqa o'rindiqqa joylab, o'zlari old o'rindiqqa o'tirishdi.

– Katta ko'chada transport harakati serqatnov, biz turgan xilvat ko'cha esa bo'm-bo'sh, – deya ma'lumot berdi Garri, boshini mashina oynasidan chiqarib.

– Juda soz.

Ron asboblari panelidagi mittigina kumush tugmani bosdi. Shu zahoti mashina ham bolalar ham ko'rinmas bo'lib qoldi. Garri o'rindiqning titrayotgani, tizzasida turgan qo'lini, burni ustidagi ko'zoynagini his etib, motorning shovqini eshitayotgan bo'lsa-da, avtomobilga to'lib-toshgan ko'-

cha uzra bir necha fut¹ balandlikda uchib borayotgan bir juft ko'z soqqasiga aylanib qolganday bo'ldi.

– Ketdik, – eshitildi o'ng tomonda Ronning ovozi.

Mashina yuqoriga ko'tarilgan sari yer ham ko'chaning ikki tomonidagi kir binolar ham pastda qolib, ko'zdan g'o'yib bo'la boshladi. Bir necha soniyadan so'ng bolalar ostida ba'zi joylarini tutun qoplagan, ayrim joylari yaltirayotgan butun London kaftday ochildi.

Shu fursatda shisha og'zidan otilib chiqqan tiqin tovu-shi eshitildi va Garri ham Ron ham avtomobil ham ko'rindigan bo'lib qoldi.

– Voy, – dedi Ron, kumush tugmachani bosib, – ko'-rinmaslik mexanizmi ishlamay qoldi...

Ikkovlon tugmani mushtlay ketdi. Mashina yana ko'-rinmas bo'lib qoldi. Birozdan so'ng mashina go'yo chiroq kabi o'chib yondi-da, yana paydo bo'lib qoldi.

– Mahkam ushla! – qichqirdi Ron, gaz pedalini oxirigacha bosib.

Avtomobil shuv etib, to'lishgan paxta bulutlar orasiga kirgach, atrof kulrang tus olib, xiralashdi.

– Xo'sh, endi nima qilamiz? – so'radi Garri, ko'zini qisib olgancha, hamma yoqdan singib kirgan zich bug' orasidan Ronga qarab.

– Qaysi yo'nalish tomon uchish kerakligini bilish uchun poyezdni ko'rish kerak.

– Bir soniyaga pastga sho'ng'i.

Ular bulut ostiga tushib, diqqat bilan pastga alanglab qarashgancha, o'rindiqlik ustida pitirlay boshlashdi.

– Ko'ryapman! – baqirdi Garri. – Ro'paramizda, xo'-o'-o' ana!...

¹ Fut – 1) rus o'lchovlar tizimidagi uzunlik birligi. 1 fut = 1/7 sarjin = 12 dyuym = 0,3048 metr; 1918-yilda bekor qilingan; 2) ingliz o'lchovlar tizimida uzunlik birligi. 1 fut = 1/3 yard = 12 dyuym = 0,3048 metr.

«Xogvars-Ekspres» yerda oʻrmalayotgan toʻq qizil ilonni eslatdi.

– Demak, parvoz yoʻnalishi shimol, – dedi Ron, bilarmon kishiday asboblari panelidagi kompasga qarab. – Tushunarli, endi taxminan har yarim soatda tekshirib borishimiz kerak. Mahkam ushla!

Ular yana bulutlar ustiga koʻtarilishdi. Daqiqa oʻtgach, ularni quyosh nuri yoritdi.

Bu yer batamom oʻzga olam. Mashina gʻildiraklari oxiri koʻrinmas yorqin moviy osmon va koʻzni qamashtirayotgan oppoq quyosh ostidagi bulutlarning momiq dengizini koʻpirtirib ketmoqda.

– Muhimi – birorta samolyot bilan toʻqnash kelmaslik, – fikr bildirdi Ron.

Bir-biriga qarab qoʻygan bolalar qahqahlashib, oʻzlarini kulgidan uzoq vaqt toʻxtata olishmadi.

Ikkovlon ajoyib tushga oʻtib olganday, goʻyo. Ha, haqiqatan ham shunday. Qorday oppoq bulutlar uyurmasi ichra, quyoshning iliq nuriga toʻlgan, qoʻlqop solinadigan boʻlmasiga bir xalta shirinlik solingan mashinada, «Xogvars» qasri oldidagi qiyalikka qoʻngach, Fred bilan Jorjning yuzlaridagi hasad olovini koʻrish ishtiyogʻida kechayotgan sayohat – chindan ham roʻyobga chiqadigan tushdir, oʻyladi Garri.

Shimol yoʻnalishidagi parvoz davomida ular vaqti-vaqti bilan bulut ostiga shoʻngʻib, poyezd harakatini kuzatishar va har safar yangi manzara koʻrib borishar edi. London uzoqda qolib ketgach, dastlab yam-yashil oʻtloq koʻrindi. sal oʻtib, qizgʻish botqoqliklar uzra uchishdi, shundan soʻng koʻchalari chumoli singari koʻrinayotgan avtomobillarga toʻlib-toshgan allaqanday shahar, undan keyin esa cherkovlari oʻyinchoqday koʻringan qishloqlar ustidan uchib oʻtishdi.

V BOB. Urishqoq tol

Biroq hodisalarga boy bo'lmagan bir necha soat o'tgach, Garri parvoz zerikarli kechayotganiga iqrar bo'lishga majbur bo'ldi. Ichgani suv yo'q, shirinlik esa og'iz bo'shlig'ini yopishqoq qilib qo'ygan. Ular allaqachon svitirlarini¹ yechib qo'yishgan bo'lsa ham Garrining futbolikasi² o'rindiq suyanchig'iga yopishib, ko'zoynagi terlagan burnining uchiga tushib qolgani-qolgan. Bulutlarning antiqa shakllaridan hayratlanish ham jonga tegdi. U ma'yus tortib, vagonma-vagon har xil yegulik olib yuradigan lo'ppigina, lunji chuqurchali kulimsiragan chiroyli ayol aravasidagi muzday oshqovoq sharbatini reislar bo'ylab sudralgancha olib ketayotgan poyezd haqida o'ylay boshladi. Nima uchun ular to'qqiz butun to'rtidan uchinchi platformaga o'ta olishmadi?

Yana bir necha soat o'tib, tevarak-atrofni pushti dog' bilan ahyon-ahyon bezagan quyosh, bulutlar ufqiga cho'ka boshladi.

– Oz qolganga o'xshaydi, a? – quruqshab qolgan ovozda taxmin qildi Ron. – Tayyorlan, poyezdga yana bir bor qarab qo'yishimiz kerak!

Poyezd hamon mashina ostida, cho'qqilarini qor bosgan tog' yonidan sudralib ketmoqda. Bulut pardasi to'sib qo'ygan yer yuqoriga nisbatan ancha qorong'i ko'rindi.

Ron gaz pedalini bosib, mashinani yuqoriga yo'llagan ediki, motor uvillay boshladi.

Ikkovlon bir-biriga tashvishli qarab qo'ydi.

– Toliqqanga o'xshaydi, – dedi Ron. – U hali uyimizdan bu qadar uzoq yo'lga chiqmagan...

Ular o'zlarini motorning uvillagan tovushi tobora kuchayib borayotganini, osmon esa tobora qora tus kasb etayotganini go'yo payqamagan ko'yga solib borishdi. Tez

¹Sviter (inglizcha: sweater – terlamoq, ter chiqarmoq) – jun ipdan to'qilgan, tugmasiz kalta issiq kiyim.

²Futbolka – yengil kalta tikilgan, yengil sport ko'ylagi.

orada avtosayyohlarni qurshab olgan qorongʻilik sitoralar bilan yasanib oldi. Garri sviterini kiyib, xuddi eʼtiroz bildirayotgan kabi old oyna qarshisida kuchsiz tebranayotgan oynatozalagichlar harakatiga eʼtibor qilmaslikka urindi.

– Yaqin qoldi, – dedi Ron, qaltiroq qoʻli bilan dalda berganday asboblarni paneliga urib-urib qoʻyib, – ha demay yetib boramiz.

Uning gapi Garriga emas, koʻproq mashinaga qaratilgan.

Vaqt oʻtib, bulutlar ostiga yana shoʻngʻishganda, koʻzlarini qisib olishib, yerdagi moʻljallarini uzoq qidirishlariga toʻgʻri keldi.

Ana u! Roʻparamizda!

Garri shu qadar baland qichqirdiki, Ron bilan Xedvig ikkalasi seskanib tushishdi.

Koʻl oʻrtasida qad koʻtargan qoya ustidagi «Xogvars» qasrining koʻp sonli katta-kichik minoralari qorongʻi ufq ortidan koʻrinish bermoqda.

Oʻchakishganday, shu fursatda avtomobil kuchli titrab, tezligi pasaya boshladi.

– Boʻlsang-chi endi, qistovga oldi mashinani Ron, rulni siltab, – deyarli yetib keldik, oxirigacha chidab ber...

Motor qattiq uvilladi. Kapot ostidan ingichka tutun oqimi chiqayotgani koʻrindi. Koʻlga yaqin qolganda, Garri, kursini kuchi boricha mahkam ushlab olganiga eʼtibor qildi. Qandaydir xunuk zoʻrayish mashinani siltadi. Garri taxminan bir milya¹ pastdagi suv havzasining yaltirayotgan silliq yuzasini koʻrdi.

Ronning qora ruldagi barmoqlari oqargan. Mashina

¹ Milya (lotincha: milia, mille passuum – mingta qoʻsh qadam) – qadimdan qoʻllab kelingan, turli davlatlarda har xil qiymatlarga ega boʻlgan uzunlik oʻlchovi birligi (masalan, dengiz milyasi 1852 m, geografik milyasi 7420 metrga teng, ayrim davlatlar esa suvda 1 milya 1,8 kilometrga, quruqlikda esa 1 mil 1,6 kilometrga teng).

yana siltandi.

– Bo‘l endi, oz qoldi, – g‘udrandi Ron.

Ular ko‘l ustida. Qasrga oz qoldi. Ron gaz pedalini qattiq bosdi.

Baland jaranglagan allaqanday tovush yangradi, soniya o‘tgach, chirs-chirs eshitilib, nihoyat motor o‘chdi.

Daf‘atan cho‘mgan sukunat orasida Ronning:

– Oyijon, – degan ovozi baland yangradi.

Avtomobilning old tomoni pastga og‘a boshladi. Ular tezlik olib, qasrning tosh devori tomon pastlay boshlashdi.

– Y-o‘-o‘-o‘q! – qichqirdi Ron, mashina rulini keskin aylantirib.

Mashina yoysimon burilib, devordan atigi ikki santimetr narida, qorong‘i issiqxonalar, ekinzorlar, qora maysazor uzra pastlab uchdi.

Ron rulni qo‘yib yuborib, orqa cho‘ntagidan sehrli tayuqchasini chiqardi...

– To‘xta! TO‘XTA! – o‘kira boshladi u, tayuqchasi bilan mashinaning asboblari paneli va old oynasini savalab.

Biroq bu amal kor bermadi. Ular ajal keltiradigan tezlik bilan pastga qarab borishar, yer esa xuddi shunday tezlik bilan ular tomon yaqinlashar edi.

– Ehtiyot bo‘l, DARAXT! – qichqirdi Garri, o‘zini rulga tashlab.

Kech bo‘ldi...

QA-A-ARS-S!

Metallning yog‘ochga quloqni kar qilguday darajada urilgan tovushi yangradi. Daraxtning yo‘g‘on tanasiga yopishib qolgan mashina yerga gumburlab tushdi. Mijg‘aloq bo‘lib ketgan kapot ostidan pag‘a-pag‘a tutun chiqdi. Xedvig yana kishi yuragini ezadigan faryodini boshladi. Garining boshida, old oynaga urilgan joyida kattaligi golf koptogiday keladigan g‘urra o‘sayotganini his etdi. O‘ng

V BOB. Urishqoq tol

tomonda esa Ronning uzoq ingragani eshitildi.

– Senga nima qildi? – so‘radi qo‘rqib ketgan Garri.

– Tayoqcham, sehrli tayoqcham... – dedi Ron, ovozi titrab. – Tayoqchamning ahvoliga qara...

Sal kam ikki bo‘linguday yorilgan sehrli tayoqchaning uchi bir nechta payraha tolasida jonsiz osilib qolgan.

Garri, o‘rtog‘ini tinchlantirish uchun maktabga kirishsa, tayoqchasini kimdir tuzatib berishiga shubha qilmasligini aytmoqchi bo‘lib, og‘iz juftlagan ediki, nimadir u o‘tirgan tomonga quturgan qo‘tos suzganday urilib, yonboshi bilan uchgan Garrini o‘rtog‘iga yopishtirib qo‘ydi. Yana nimadir mashina tomiga kelib tushdi.

– Anavi nima? – pichirladi Ron, tusnunarsiz nigohi ila old tomon qarab.

Garri Ron qarayotgan tomon o‘girildi. Yo‘g‘on ilonday keladigan daraxt shoxi shamol to‘shish oynasiga kelib urildi. Mashina urilgan daraxt endi bolalarga hamla qila boshladi. Daraxt tanasi deyarli ikki bukilib olgancha, mashinani hurpaygan shoxi bilan savalay boshladi.

Quturib ketgan daraxtning navbatdagi zarbasidan mashina eshigi ichkariga ezilib kirganini ko‘rgan Ron qo‘rqib, dod-voy soldi.

– Voy dod, OYIJON! – haqirdi u.

Odam barmog‘iday keladigan novdalarning duv-duv zarbalaridan old oyna titramoqda. To‘qmoqday keladigan shoxlardan biri esa avtomobilni urib, yapaloq qilishni niyat qilgan ko‘rinadi, mashinaning tomini shiddat-la do‘pposlashni qo‘ymayapti. Tom chindan ham egila boshladi...

– Qochdik bu yerdan! – qichqirdi Ron, kuchi boricha eshik ochishga urinib.

Biroq pastdan berilgan navbatdagi zarba Ronni Garri-ning tizzasiga uloqtirdi.

– Kunimiz bitdi. – o‘kirdi Ron, ezilib, pastlayotgan

tomga qarab.

Kutilmaganda, mashinaning poli titrab, motor o'zidan o'zi ishga tushib ketgani sezildi.

– Mashina, orqaga tisan! – qichqirgancha buyruq berdi Garri.

Mashina chindan ham keskin tisarildi. Daraxtning mushtlashish shiddati hech sustlashmas, aksincha, qocha-yotgan mashina izidan quvib yetmoqchi bo'lganday, yer qa'ridagi ildizlarining g'ichirlashi eshitildi.

– O'tib ketishimizga sa'l qoldi-ya, – og'ir xo'rsindi Ron, biroz tinchlangach, – xayriyat, omon qoldik. Yasha mashina!

Ammo, mashinaning sabr kosasi to'lgan ko'rinadi. Kutilmaganda uning eshiklari qars-qurs etgancha, lang ochildi. Garri, dastlab ostidagi kursi sekin-asta ko'tarilib, burilayotganini, navbatdagi fursatda esa zax yerda, oyoq-qo'li har tomon tarvaqaylab yotganini his etdi. Og'ir narsalarning gumburlab yerga tushayotgan tovushini eshitgach, mashina o'z ichidagi jamiki yukni har tomon uloqtirib yuborayotganini angladi. Yuqoriga uloqtirib tashlangan qafasning eshigi havoda ochilib ketgach, bechora Xedvig nihoyat ozodlikka chiqib, norozi ohangda qichqirgancha, orqasiga qaramay qasr tomon uchib ketdi. Urilib, ezilib, a'zoyi-badani timdalanib, tutab ketgan mashina orqa chirog'ini yarqiratgancha, zulmat qa'riga kirib ketdi.

– Qayt! Qayt dedim senga! – baqirdi Ron, mashina izidan tayoqcha siltab. – Dadam meni o'ldiradi!

Lekin mashina, ishlangan gazlarni chiqarish quvuri bilan pishqirib qo'ygancha, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Omadimiz hech chopmadi chopmadi-da, – dedi Ron, qayg'u va hasrat-la yerga egilib, Qasmoqni qo'lga olar ekan. – O'rmon to'la daraxt turib, mushtga musht qaytara-

dan yerga ketib tashlaganini qara sa'l

U yelkasi uzra o'girilib, novdalari bilan hamon tahdid solib turgan qadimiy daraxt tomon qarab qo'ydi.

– Yur, – dedi holdan toygan Garri, – qasrga boraylik...

Maktabga yetib kelish. tasavvur qilinganday, tantanali kechmadi. Hamma joyi ko'kargan, sovqotgan, oyoq-qo'li bazo'r itoat qilayotgan bolalar maysa qoplagan nishablik ustida sandiqlarining bir tomonidagi dastasidan tutgancha tortib, katta eman darvoza tomon yo'l olishdi.

– Bayram dasturxoni boshlangan bo'lsa kerak, – dedi Ron, sandig'ini zina yaqinida qoldirib.

U yorishib turgan deraza yoniga asta yaqinlashdi.

– Hoy, Garri, qara! Taqsimlash taomili-ku!

Garri yugurib kelib, Ron bilan birgalikda Katta Zalda o'tayotgan an'anaviy taomilni tomosha qildi.

Uzun, qop-qora stollar ustida muallaq osilgancha yonayotgan son-sanoqsiz shamlar olovining aksi bayram dasturxonida terilgan oltin idishlarda yorqin tovlanib, o'ynamoqda. Yuqorida, haqiqiy samoni eslatadigan, yulduzlar sochib yuborilganday ko'rinib turgan sehrli shiftda esa yulduzlar yaraqlab turibdi.

Garri «Xogvars» o'quvchilarining tumonat cho'qqidor shlapalari orasida Katta Zalga kiritilayotgan, aftidan, arvohlarni ko'rib, o'larcha qo'rqib ketgan birinchi sinf o'quvchilarining safiga qaradi. Ular orasida Ueslilar oilasiga mansub olovrang sochi bilan hammadan ajrab turgan Jinnani tanib olish qiyin emas. Sochini turmaklab olgan, kvadrat shaklidagi ko'zoynak taqqan, yuzi jiddiy qiyofa kasb etgan afsungar ayol – professor Makgonagall o'rta qo'yilgan kursi ustiga mashhur taqsimlovchi Shlapani joyladi.

Haddan tashqari kir, a'zoyi badani yamoq bo'lib, rosa eskirib ketgan ushbu cho'qqidor shlapa yangi kelgan bolachalarni har yili maktabning «Griffindor», «Xufflpuff», «Ravenklo» va «Slizerin» deb nomlanadigan to'rtta fakul-

tetiga tanlab, taqsimladi. Bir yil oldin o'sha shlapani kiygancha, haykalday qotib, uning qarorini kutib o'tirganini Garri yaxshi eslaydi. Bir necha dahshatli soniyalar ichida taqsimlovchi Shlapa uni ko'plab yovuz sehrgar va afsungarlar tamomlagan «Slizerin» fakultetiga yo'llashini istamay, qo'rqib o'tirgan edi. Oxir-pirovardida u Ron va Germiona bilan birgalikda, Ueslilar tamomlagan va ayni vaqtda tahsil ko'rayotgan «Griffindor» fakultetiga qabul qilindi. So'nggi semestrda Garri o'z do'stlari bilan birga qadrdon fakultetiga maktab kubogini qo'lga kiritishga yordam berdi. Natijada «Griffindor» o'tgan yetti yil davomida birinchi marta «Slizerin»dan ustun keldi.

Kulrang sochli jajjigina bolacha oldinga chiqarildi. Unga shlapa kiydirildi. Garrining nigohi ushbu bolakaydan nariga, taqsimlash taomilini kuzatib o'tirgan maktab direktori professor Dambldor o'tirgan «Mo'tabar Stol»ga tushdi. Direktorning kumushrang uzun soqoli va yarim oy shaklidagi shisha ko'zoynagi shamlar shu'lasida yaltirab ko'rinoqda. Undan bir necha kishi narida akvamarin¹ rangli serhasham rido kiyib olgan Sverkarol Charuald o'tiribdi. Stol boshida boshini orqaga tashlab olgancha, qadahdagi mayni uzoq simirib o'tirgan sermo'y va bahaybat Xagrid ko'rindi.

– Qara, Ron, – pichirladi Garri, – «Mo'tabar Stol» yonidagi kursilardan biri bo'sh turibdi... Snegg qani?

Professor Severus Snegg Garri yomon ko'radigan o'qituvchi. Garri esa o'z navbatida, Snegg yomon ko'radigan o'quvchilardan biri. Snegg qattiqqo'l, istehzoli, o'zi mudirlik qiladigan «Slizerin» fakulteti o'quvchilaridan boshqa biron-bir fakultet o'quvchilari yoqtirmaydigan, sehrli damlamalar tayyorlash fani o'qituvchisi.

– Kasal bo'lib qolgandir? – umid-la taxmin qildi Ron.

¹Akvamarin – yashil havorang qimmatbaho tosh.

V BOB. Urishqoq tol

– Ehtimol, o'zi orzu qilib yurgan yovuz kuchdan hi-moya fani o'qituvchisi lavozimidan yana quruq qolgani uchun ishdan bo'shab ketgandir, – dedi Garri.

– Balkim, uni ishdan bo'shatib, quvib yuborishgandir. – davom etdi ruhi ko'tarilib ketgan Ron, – axir, uni hamma yomon ko'radi-yu...

– Ehtimol, u, – yangradi bolalar orqasida muzday eshi-tilgan ovoz, – nima uchun el qatori poyezdda kelmagani-ngiz sababini tushuntirib berishlaringni kutayotgandir.

Garri bizbizak¹ singari ortga o'girildi. Uning qarshisi-da qop-qora kiyimi tungi shamolda hilpirayotgan, teri qoplamasining rangi siniqqan, qiyg'irburun, yog'li sochi yelkasiga tushgan Severus Snegg turibdi. Manzara o'zi no-xush, buning ustiga Sneggning biron-bir yaxshilikdan da-lolat bermaydigan holatda irshayib turgani g'alati ko'rindi.

– Ortimdan yuring, – buyurdi Snegg.

Bir-biriga qarashga botina olmayotgan bolalar Snegg ortidan sudralgancha, zina bo'ylab yuqoriga ko'tarilib, odamlar ovozinig aks sadosi eshitilayotgan, mash'alalar yoritgan vestibulga² kirishdi. Katta Zaldan mazali taomlar hidi gupillab chiqyapti. Biroq Sneggbolalarni ilqlik va saranjom-sarishtalikdan nariga, tor tosh zina bo'ylab past-ga, yetakladi.

Yerto'la yo'lining yarmiga yetgach, yo'lakda ko'rin-gan eshikni ochgan o'qituvchi bolalarga buyurdi:

– Ichkariga kiring!

Bolalar ham sovuqdan, ham qo'rquvdan junjikib, Sneggning xizmat xonasiga kirishdi. Qorong'ilikda bazo'r

¹ Bizbizak – aylana shakldagi charrm yoki tugunmcha (eshiklardan ip o'tkazib yasalgan va ipini chiyratib, ikki uchidan tortganda, tez aylanib, «biz-biz» ovoz chiqaradigan o'yunchiq.

² Vestibul (lotincha: vestibulum – uyga kiraverishdagi maydoncha, dahliz) – kino, teatr, metro va shu kabilar boshqa jamoat inshootlarning ichkan qismiga kirish joyidagi katta, keng xona.

ko'rinadigan devorga tokchalar mahkamlangan, ularga esa turli tuman shisha idishlar terilgan. Ushbu idishlar ichida esa Garri bilmaydigan, umuman aytganda, bilishni ham istamaydigan har xil qabohat suzib yuribdi.

– Shunday qilib, – gap boshladi Snegg, – «Xogvars-Ekspress» poyezdi mashhur Garri Potter va uning sadoqatli qurolbardori¹ Uesli uchun yaxshi transport emas, shundaymi? U o'z tashrifi ila iinkon qadar balandroq shov-shuv ko'tarishi shart. Men yanglishmadimmi, jentlmenlar?

– Yo'q, ser. Biz Kings-Krossdagi to'siq orqali o'ta olmadik, u...

– Jim! – loqayd ohangda baqirdi Snegg, – Mashinani nima qildingiz?

Ron beixtiyor yutunib qo'ydi. Snegg kishi xayolini o'qish qobiliyatiga ega ekaniga Garri yana bir bor amin bo'ldi. Biroq fursat o'tib, masala oydinlashdi. Negaki Snegg «Bashorat-u, karomat gazetasi»ning so'nggi sonini ko'rsatib, «Uchar «Ford Angliya» yaratilganidan magllar hayratda» sarlavhasini bolalarning burniga taqadi.

– Sizlarni nechta magl ko'rganini, bilasizmi? – vishil-ladi u va maqolani ovoz chiqarib, chala-yarim o'qishga kirishib ketdi. – Londonlik ikki nafar magl pochta minorasi uzra uchib o'tgan eski mashinani aniq ko'rishganini ishon-tirib aytmoqdaki... Choshgohda dorga choyshab ilayotgan norfolklik missis Xetti Beyliss... piblik mister Angus Flit-ning politsiyaga bergan xabariga ko'ra... Jami olti yoki yetti nafar magl. Bilishimcha, otang magllarning ro'zg'or bu-yumlaridan noto'g'ri foydalanish bo'limida ishlaydi, shun-daymi? – yarim tasdiq ohangida so'radi u, Ronga istehzoli basharasi yasab, jirkanch irshaygancha. – Qarang-a... o'zi-

¹Qurolhardor – o'rta asrlarda lashkarboshining yoki ritsaming qumillarini ko'tarib yu-ruechi jangchi; umuman, qurol ko'targan, qurollangan jangchi. Bu yerda ko'chma ma'noda, ya'ni kishini o'ziga qarshi qo'ygan kishidir.

ning o'g'li...

Garri anavi urishqoq daraxtning eng yo'g'on va eng quturgan shoxi qorin sohasiga urganday his etdi o'zini. Agar birov mashinani mister Ueslining o'zi sehlaganini bilib qolsa bormi... bu haqda o'ylamabdi-ku...

– Bog'ni ko'zdan kechirib chiqib, nihoyatda qimmatli Urishqoq tolga katta shikast yetkazilganini ko'rdim. – davom etdi Snegg.

– Tolga emas, bizga ko'proq shikast yetdi. – gap qaytardi Ron.

– O'chir ovozingni! – boz o'shqirdi Snegg. – Ming afsuski, mening fakultetimda tahsil ko'rmaysizlar va ikkalangizni o'qishdan chetlatish yuzasidan qaror chiqarish huquqi menga berilmagan. Bunday baxtli imtiyoz havola etilgan kishilarni taklif qilib kelishimga to'g'ri keladi. Sizlar esa shu yerda kuting.

Garri bilan Ron bir-biriga umidsiz qarab qo'yishdi. Ikkalasining yuzidan qon qochgan. Garrining ko'ngli behuzur bo'lib, na ochlikni, na hoshqa biron nimani his etyapti. U Sneggning yozuv stoli ortidagi tokcha ustiga qo'yilgan idishdagi yashil suyuqlik ichida suzib yurgan, sirtini shilimshiq qoplagan allaqanday jonzodga qaramaslikka urindi. Agar Snegg «Griffindor» mudiri professor Makgonagallni chaqirib kelgani ketgan bo'lsa, ko'ngli taskin tortmaydi. Professor Makgonagall Severusga nisbatan adolatliroq bo'lgani bilan, qattiqqo'llik borasida zig'irday bo'lsin qolishmaydi.

O'n daqiqa o'tib Snegg o'z xonasiga qaytdi. U bilan birga esa haqiqatan ham professor Makgonagall kirib keldi. Garri professorning jahli chiqqan holatini muqaddam ko'rgan, albatta. Biroq u jahl qilganida labini mahkam qimtib olishini Garri yodidan chiqarib qo'ygan, chamasi, yoki bunday holatda professor u qadar serjahl bo'lmagan. Professor ostonadan hatlab o'tishi bilan o'zining sehrli tayoqchasini

baland ko'tardi. Buni ko'rib qo'rqib ketgan Garri bilan Ron ko'zlarini mahkam yumib olishdi. Ammo fakultet mudiri o'z tayogchasini bo'm-bo'sh kamin tomon yo'naltirdi. Shu zahoti kamin ichida raqsga tushayotgan gulxan ko'rindi.

– O'tiring, – dedi u.

Bolalar hadiksiragancha asta orqaga tisarilib, kamin yonidagi kreslolarga o'tirib olishdi.

– Xulqingiz sababini tushuntirib bering, – buyurdi u, ko'zoynagida gulxan aksi dahshatli yarqirilib.

Ron vokzaldagi to'siq yo'l bermaganidan boshlab, bor gapni aytib berdi.

– ... shunday qilib, professor, biz chorasiz, favqulodda holatda qoldik. Poyezdga o'ta olmadik.

– Nima uchun boyqush orqali xat yo'llamadingiz. Bili-shimcha, sening boyqushing bor, shundaymi? – sovuq ovoz-la murojaat qildi professor Garriga.

Garrining og'zi ochilib qoldi. Mana endigina, professor shu savolni bergandagina. Garri tushundi. Axir, ayni shun-day ish tutish kerak edi-ku.

– Men bu haqda... men o'ylamabman.

– O'ylamaganing ko'rinib turibdi, – dedi professor Makgonagall.

Shu payt eshik taqilladi. Quvonchdan yorilib ketishiga sal qolgani sezilib turgan Snegg eshikni ochdi. Ostona-da direktor Damblдор ko'rindi.

Garri Damblдорning o'zgacha jiddiy qiyofasini ko'rib, eti junjikib ketdi. Direktor ilmoqsimon qayrilma burni usti-dagi ko'zoynagi uzra gunohkorlarga sinchkovlik-la tikilib turdi. Undan ko'ra anavi nihoyatda qimmatli Urishqoq tol haligacha savalagani ma'qul edi, o'yladi Garri.

Xonaga uzoq davom etgan sukunat cho'kdi.

– Ayting-chi, nima uchun aynan shunday ish tutdingiz? – deya tilga kirdi Damblдор biroz sukut saqlab turgach.

Direktor qichqirib, so'kkani yaxshi edi. Damblarning ovozidagi ixlossizlik ohangiga bardosh berish Garriga qiyin kechmoqda. Negadir u direktorning ko'ziga tik boqishga botina olmay, tizzasiga qarab gapirdi. U ham bor gapni aytib berdi. Faqat sehlangan mashina sohibi mister Uesli ekani aytmadi. Natijada hikoyasining mazmuniga ko'ra, Ron bilan ikkalasi temir yo'l vokzalini tark etishgan-da, yaqin orada turgan uchar mashinaga bexos duch kelib qolishgan bo'lib chiqdi. Damblдор yolg'on gapning ma'nosini uqib olishini tushunib turibdi, albatta. Biroq direktor mashina haqida biron og'iz savol bermadi. Garri hikoyasini tamomladi. Damblдор esa hamon ko'zoynagi orqali sinchkovlik-la qarab turibdi.

– Xo'sh, biz borib lash-lushlarimizni yig'ishtiraylik bo'lmasa, – dedi umidsizlik ohang bilan Ron.

– Bu nima deganing, Uesli? – baqirdi professor Makgonagall.

– O'qishdan chetlashtirasiz-ku, shundaymi?

Garri umid-la Damblдорga qaradi.

– Bugun emas, mister Uesli, – dedi Damblдор, – ammo, xatti-harakatingiz juda ham qaltis bo'lgan. Bu haqda otanangizga xat yo'llashga majburman. Shuningdek, ogohlantirib qo'yishim kerakki, o'xshash xatti-harakatga takror qo'l uradigan bo'lsangiz, chindan ham maktab o'quvchilari ro'yxatidan chetlatishdan boshqa chora qoldirmaysiz.

Snegg, xuddi Rojdestvo¹ bayrami umuman bekor qilingan bo'lib, endi hech qachon nishonlanmasligini hozirgina eshitgan holatga tushib qoldi. U tomog'ini qirib oldi-da:

– Professor Damblдор, mana bu ikkalasi balog'atga

¹ Rojdestvo (ruscha: Рождество – tug'ilish) – Iso alayhissalomning tug'ilgan kuni munosabati bilan joriy etilgan bayram. Xristian dinining asosiy bayramlaridan biri. Iso tug'ilgan kun sharafiga cherkov joriy etgan. 25-dekabrda (ayrim mamlakatlarda Yuliy kalendar bo'yicha, boshqalarida Grigoriy taqvim bo'yicha) nishonlanadi.

yetmaganlar orasida sehrgarlik faoliyatini oqilona cheklash to'g'risidagi dekret talablarini nihoyatda qo'pol ravishda buzdi, shuningdek, juda qadimiy va nihoyatda qimmatli o'simlikka jiddiy shikast yetkazdi, shubha yo'qki, bunday qilmish...

– Ularga jazo tayinlash huquqini professor Makgonagallga havola etsak, Severus. Chunki ushbu o'quvchilar professor Makgonagall tasarrufidagi fakultetda tahsil ko'rishadi va uning vasiyligidagi shaxslar sanaladi, – xotirjam javob berdi Dambldor – dedi va professor Makgonagallga yuzlanib: – Men bayramga qaytib, ayrim e'lonlarni ma'lum qilishim kerak, Minerva, Yuring Severus, dasturxonda ajoyib tort ko'rdim, tatib ko'rishga ulgursak, yomon bo'lmas edi...

Snegg o'z xizmat xonasini tark etishga majbur bo'ldi. Lekin xonadan chiqib ketishdan oldin Garri bilan Ronga ochiqdan ochiq nafratga to'lgan nigoh tashlab qo'ydi. Bolalar quturgan burgut qiyofasini kasb etgan professor Makgonagall bilan yuzma-yuz qolishdi.

– Shifokorga uchrab qo'ysang yomon bo'lmas edi, Uesli. Yarang haligacha qonayapti.

– Og'riyotgani yo'q, – dedi Ron, yengi bilan qoshini artib, – Professor, taqsimlash taomilini ko'rmoqchi edim. U yerda mening singlim...

– Taqsimlash taomili nihoyasiga yetdi, – dedi professor, – Singling «Griffindor»ga qabul qilindi.

– Qanday yaxshi! – quvonib ketdi Ron.

– Ha, aytganday, – keskin ovoz-la gap boshladi professor Makgonagall, – «Griffindor» masalasi...

– Professor, – deya o'qituvchining gapini bo'ldi Garri va davom etdi: – biz mashinani semestr boshlanmasidan oldin oldik, shu bois... «Griffindor» ball yo'qotmasligi kerak, shundaymi? – professorning yuziga zavotir-lu tikildi

gapini tugatdi u.

Professor Makgonagall yeb yuborguday qarayotgan bo'lsa-da, uning nigohida allaqanday tabassum borligini Garri sezdi. O'qituvchining labi ham kuchli qimtinmay qolgan.

– «Griffindor»dan ball ayirmayman, – dedi fakultet mudiri, – biroq ikkalangizga nisbatan jazo chorasi qo'llaniladi.

Garrining ko'ngli ancha taskin topdi. Ishlar joyida. Qarindoshlarga yuboriladigan xatga kelsak, bu chora u qadar dahshatli emas. Uning yaqinlari o'sha Urishqoq tol Potterni kotlet qiymasiga aylantirib qo'ymaganidan afsus qilishadi, xolos. Garri bunga oz bo'lsa-da, shubha qilmaydi.

Professor Makgonagall yana sehrli tayoqchasini ko'tarib, uchini stolga o'qtadi. Bazo'r eshitilgan «pxxx» etgan tovush bilan bir vaqtda stol ustida bir lagan buterbrod, ikkita kumush qadah va muzday oshqovoq sharbati to'ldirilgan ko'za paydo bo'ldi.

– Shu yerda ovqatlanib, to'g'ri fakultet mehmonxonasiga boring, – buyurdi u. – Men ham bayram tantanasiga qaytishim darkor.

Professor ketidan eshik yopilgach, Ron past tovushli uzoq hushtak chalib yubordi.

– Tamom bo'lganimizga shubha qilmagan edim, – dedi u, buterbrodlardan birini changallab.

– Men ham, – fikrni tasdiqladi Garri. qo'liga buterbrod olib.

– Omadimiz «chopgani»ni ko'rmaysanmi? – to'ng'illadi Ron, tovuq va dudlangan go'sht chaynar ekan. – Fred bilan Jorj ushbu mashinada kam deganda besh-olti marta uchishgan bo'lishiga qaramay, ularni birorta bo'lsin mag'l ko'rmagan, – dedi u chaynayotgan luqmani yutishi bilan og'zini yana to'ldirib. – Menga qara, nima deb o'ylaysan.

nima uchun ikkalamiz to'siq orqali o'ta olmadik?

Og'zi ovqatga to'la Garri yelkasini qisib qo'ydi.

– Bundan buyon nihoyatda ehtiyot bo'lishimiz kerak, – dedi u oshqovoq sharbatidan huzur qilib xo'plab olgach, – Esiz, bayram ziyofatiga borish mumkin emasligi yomon bo'ldi...

– Kechirilganimizni hamma ko'rishini professor istamadi, – taxmin qildi Ron. – Hamma maktabga mashinada uchib kelish zo'r ish ekan deb o'ylamasligini xohlagan...

Lagan bo'shagan sari vaqti-vaqti bilan yangi buterbrodlarga o'zidan o'zi to'lib qolmoqda. Bo'lib qolguday ovqatlangach, ikkovlon o'midan turib, tanish yo'ldan «Griffindor» minorasi tomon yo'l oldi. Qasrda qaror topgan sukunatga qaraganda bayram tantanasi tamom bo'lganga o'xshaydi. Bolalar o'zi bilan o'zi gaplashib turgan portretlar va ritsarlarning o'zidan o'zi g'ijirlab turgan kiyimboshlari yonidan o'tib, tosh zinalarining tor pog'onalariga tinmashib chiqishdi va nihoyat pushti shoyi ko'ylak kiyib olgan to'ladan kelgan ayolning eskirib ketgan portreti orqasiga bekitib qo'yilgan «Griffindor» minorasining yashirin kirish yo'liga yetib kelishdi.

– Parol? – so'radi «Semiz Xola»ning surati yaqinlashib kelayotgan bolalardan.

– E-e-c... – tutildi Garri.

Ular «Griffindor» fakultetining sinfboshisi bilan hali uchrashishmaganliklari bois ushbu o'quv yili uchun joriy etilgan yangi paroldan bexabar. Biroq yordam o'zidan o'zi kelib qoldi. O'rtda kimdir shoshib kelayotgani eshitildi. Germiona.

– Bu yoqda ekansizlar-da! Qayoqqa yo'qolib qoldingiz. Allaqanday uchar mashinani pachoq qilib yuborgangiz uchun ikkalangizni maktabdan haydab yuborishgani haqida har xil bema'ni mish-mish gaplar yuribdi...

V BOB. Urishqoq tol

– Haydashga-yu, haydab yuborishmadi, – dedi Garri.

– Qolgan gaplar rost, chindan ham mashinada uchib keldik demoqchi emasmisan, mabodo? – xitob qildi Germiona professor Makgonagallning ohangiga taqlid qilib.

– Tanbeh bermagan sen qolding! Yaxshisi parolni ayt, – dedi Ron.

– Parol «Kurka», – dedi Germiona, – biroq gap bunda emas...

Lekin Germiona fikrini oxiriga yetkaza olmadi. Parol talaffuz etilgach, «Semiz Xola»ning portreti birdan yuqoriga ko'tarilib, boshi bilan pastga aylangach, ichkaridan gulduros qarsaklar yangradi. «Griffindor» hali uxlamagan, jamiki o'quvchilar fakultetning dumaloq mehmonxonasida to'planib olishgan, ayrimlar esa kun qahramonlarini yaxshiroq ko'rish uchun bir tomonga qiyshaygan stollar va ezilib ketgan kreslolar ustiga chiqib olishgan. Portret ortida ochilgan yo'lakdan kimlarningdir qo'llari chiqib, Garri bilan Ronni ichkariga tortib olishdi. Germionaga esa ichkariga mustaqil ravishda tirmashib kirishga to'g'ri keldi.

– A-jo-yib! – qichqirdi Li Jordan. – Misli ko'rilmagan mahorat! Kun bo'yi davom etgan parvoz! Va nihoyat, boshqa joyga o't ketganday Urishqoq tol ustiga qo'nish! Buni kelajak avlod eslab yuradi!

Yasha azamat! – dedi beshinchi sinfda o'qiydigan qandaydir bola Garriga.

Garri u bilan hali hech qachon muloqot qilmagan. Yana kimdir manzur ko'rib, Garrining beliga turtib qo'ydi.

– Nima uchun mashinada uchib kelish bizning xayolimizga kelmadi? – baralla hayqirishdi olomon ichra bazo'r yaqin kelgan Fred bilan Jorj.

Ronning yuzi to'q qizilrang kasb etib, xijolat tortgan-cha, kulib turibdi. Ammo Garrining ortida hammaning quvonchiga sherik bo'lishni mutlaqo istamagan kishi turibdi.

V BOB. Urishqoq tol

Persi to'lg'inlanib turgan birinchi sinf o'quvchilari uzra ko'rinib, Ron bilan Garrini yaxshilab koyib bermoqchi bo'lganday turibdi. Garri Ronning biqiniga turtib, Persi tomon imo qildi. Ron darhol vaziyatni anglab:

– Yuqoriga chiqaylik, juda charchaganmiz, – dedi.

Ikkala qahramon xaloyiq ichra aylana zinaga olib chiqadigan yon eshik tomon harakat boshlashdi.

– Uchrashguncha! – dedi Garri, qiyofasi Persining qiyofasidan qolishmay, gina ila qarab turgan Germionaga.

Belga turtishlar davom etishiga qaramay, ikkovlon yon eshikka yetib borishga muvaffaq bo'lib, zina ustidagina tinch qoldi. Ular yuqoriga oshiqib, o'tgan yilni o'tkazishgan yotoqxonalariga chiqishdi. Faqat endi eshik ustida «IKKINCHI SINIF» yozuvi bitilgan taxtachga osib qo'yilgan. Nihoyat ular to'q qizil rangli baxmaldan tayyorlangan guldor chodirlar ostiga beshta karavot o'rnatilgan, ensiz baland derazali tanish xonaga kirib kelishdi. Sandiqlari allaqachon xonaga olib chiqilib, karavotlarining oyoq tomoniga qo'yib qo'yilgan ekan.

Ron gunohkorona kulib qo'ydi.

– Qilgan ishimizdan faxrlanishimiz kerak emasligini bilaman...

Birdan yotoqxonaning eshigi keng ochilib, ichkariga «Griffindor»ning yana uch nafar ikkinchi sinf o'quvchisi Simus Finnigan, Din Tomas va Nevill Longbottom kirib kelishdi.

– Bo'lishi mumkin emas! – irshaydi Simus.

– Aql bovar qilmaydi! – dedi Din.

– Yashanglar! – izzat-ikrom ohangida pichirladi Nevill.

Garri o'zini tiya olmadi. Yuziga Ronning yuziga yurganday, kulgi yugurdi.

VI BOB. SVERKAROL CHARUALD

Biroq ertasi kuni Garri kulgan bo'lsa, ko'pi bilan ikki marta kulib qo'ygandir. Bu kun Katta Zalda o'tgan ertalabki nonushtadan boshlab, deyarli noxush o'tdi desa ham bo'ladi. Sehrlangan shifti bugun qandaydir kulrang ko'ringan Katta Zalga maktab fakultetlarining soniga ko'ra o'rnatilgan to'rtta uzun stolga nonushta tuzalgan. Har doim bo'lganidek ertalabki dasturxonga og'zi katta ko'zalarga solingan sulib bo'tqa, dudlangan baliqdan tayyorlangan har xil taomlar, buterbrod uyumi, katta likoplarda esa qovurilgan go'sht bilan tuxum tortilgan. Garri bilan Ron Sverkarol Charuaidning «Qonxo'r bilan o'tkazilgan xizmat safari» kitobini sut to'ldirilgan ko'zaga tirab o'qib o'tirgan Germionaning yoniga o'tirishdi. Qizning faqat odob yuzasidangina bazo'r bergan «salom»ining ohangidan ularning maktabga yetib kelish usulini ma'qul topmagani va ushbu his bilan haligacha kurashayotgani bilinib turibdi. Longbottom Nevill esa o'z navbatida, bolalarni samimiy quvonch-la qarshi oldi. Nevill kulchayuz bola bo'lib, ahmoqona holatlarga tushib qolish borasida unga bas keladigan odam hozircha yo'q. Buning ustiga u xotirasining favqulodda yomonligi bilan boshqalardan keskin ajrab turadi.

– Tez orada pochta keladi. Umid qilamanki, unutib qoldirgan narsalarimni buvim jo'natib yuboradi, – dedi Nevill.

Garri endigina sulib bo'tqaga qo'l uzatgan ediki, bosh uzra qush qanotining hamma kutib o'tirgan shitir-shitiri eshitildi. Katta Zalga barcha derazalar orqali yuzlab boy-qushlarning shiddatli oqimi kirib keldi. Qushlar shift ostida gir aylanib, quvnoq suhbat qurib o'tirishgan bolalar ustiga, har biriga tegishli xat va sovg'alar tashlab chiqishdi. Biror-bir shaklga ega bo'lmagan allaqanday tugun Nevillning boshiga kelib tushdi. Yana bir soniya o'tgach, Germionaning

kitobiga tirgak vazifasini o'tayotgan ko'za ichiga allaqanday kulrang narsa shalop etib tushib, ko'za atrofida o'tirganlarga pat aralash sut sachradi.

– Errol! – qichqirdi Ron, ko'za ichidan qari ukkisini chiqarib.

Holdan toygan qush hushidan ketib, tumshug'iga nam tortgan qizil konvertni mahkam siqib olgancha, stol ustiga oyog'i osmondan kelgancha yotib oldi.

– Yo'q, istamayman... – pichirladi Ron, rangi oqarib.

– Xavotir olma, ukking tirik, – tinchlantirdi uni Germiona, qush panjasini qo'l uchida ushlab, siltab ko'rgach.

– Gap unda emas, mana bunda, – dedi Ron, ko'rsatkich barmog'ini qizil konvertga o'qtab.

Garri konvertda biror-bir yomonlik alomatini ko'rma-di. Ron bilan Nevill esa konvertga, hozir u portlab ketadiganday, dahshat-la baqrayib qolishdi.

– Nima bo'ldi o'zi, tinchlikmi? – so'radi Garri.

– Oyim... «Qichqiriqnoma» yo'llabdi, – bazo'r javob berdi Ron.

– Ochganing ma'qul, Ron, – maslahat berdi Nevill, xijolatli pichirlab. – Hozir ochmasang keyin battar bo'ladi. Men ham buvimdan «Qichqiriqnoma» olib, ochmagan edim, – dedi Nevill esiga tushgan voqeadan qo'rqqancha, yutinib qo'yib, – shunday dahshatli narsa yuz berdiki...

Garri nigohini o'rtoqlarining toshday qotgan yuzlaridan qizil konvertga olib o'tdi.

«Qichqiriqnoma» degani nima o'zi? – so'radi u.

Biroq hozir Ronning «Qichqiriqnoma» nima ekanini tushuntirishga vaqti ham holi ham yo'q. Uning jamiki diqqat-e'tibori chetlaridan asta-sekin tutun burqib chiqayotgan xatga qaratilgan.

– Och, qo'rqma, – qattiq turib oldi Nevill. – Bir necha daqiqa davom etadi-da, o'tib ketadi.

Ron qaltirayotgan qo'lini uzatib, konvertni Errolning tumshug'idan sug'urib oldi va biroz o'ylanib turgach, shartta yirtdi. Nevill esa ko'rsatkich barmoqlarini qulog'iga tiqdi. U nima uchun bunday qilganini Garri soniya o'tar-o'tmas juda yaxshi tushundi. Qo'rqqanidan o'tirgan joyida bir sapchib tushgan Garri dastlab xat chindan ham portladi, degan xayolga bordi. Chunki Katta Zal chunonam gumburladiki, shiftidan chang to'kildi:

– *MASHINA O'G'IRLASH! MAKTAB RAHBARIYATINING O'RNIDA BO'LGANIMDA SENI SHAXSAN O'ZIM QUVIB SOLGAN BO'LAR EDIM. QARAB TUR, SENING ADABINGNI BERIB QO'YARMAN HALI. OTANG IKKALAMIZ MASHINANING YO'QLIGINI KO'RIB, NIMA AHVOLGA TUSHGANIMIZ, QANDAY XAYOLLARGA BORGANIMIZNI HECH O'YLAB KO'RDINGMI?..*

Missis Ueslining yuz karra kuchaytirilgan o'kirishidan dasturxondagi likoplar-u, qoshiqlar titradi. Qichqiriq Katta Zalning tosh devoridan quloqni kar qilguday darajada aks etib qaytmoqda. Jamiki xaloyiq kim «Qichqiriqnoma» olganini bilish uchun o'girilib qaradi. Ron kursida shu qadar bukchayib olganki, faqat peshanasigina stol ostidan chiqib turibdi.

– *KECHIQURUN DAMBLDORDAN XAT OLDIK. OTANG IZZA BO'LGANIDAN OMONATINI TOPSHIRIB QO'YADI DEB QO'RQDIM. SENG SHUNAQA TARBIIYA BERGAN EDIKMI BIZ?! GARRI IKKALANG HALOK BO'LISHLARING MUMKIN EDI-KU?..*

Ana, menga ham navbat yetdi, o'yladi Garri. U quloq pardalarini og'ritayotgan ovozga quloq solmaslikka harakat qildi.

– *ENG DAHSHATLISI SHUNDAKI, ENDI OTANGNING ISHXONASIDA XIZMAT SURISHTIRUVI O'TKAZILADI! BARI SENI KASRINGDAN. YANA BIRON-BIR*

VI BOB. Sverkarol Charuaid

O'XSHASH QILIQ KO RSATAR EKANSAN, SENI MAK-TABDAN O'ZIMIZ OLIB KETAMIZ, TUSHUNDINGMI?..

Shundan so'ng Katta Zalda quloqni shang'illatayotgan sukunat qaror topdi. Ronning qo'lidan allaqachon tushib ketgan qizil konvertni yorqin olov qamrab, tez orada kulga aylandi. Ron bilan Garri xuddi kutilmaganda ko'tarilgan dengiz to'lqini ikkalasining ustiga kelib solganday hang-mang bo'lgancha, qotib qolishgan. Kimdir kuldi, kimdir hirlinglab qo'ydi va tez orada dasturxon atrofidagi odatiy suhbat yangitdan davom etdi.

Germiona «Qonxo'r bilan o'tkazilgan xizmat safari»ni yopdi-da, stol ostidan bazo'r chiqib turgan Ronning boshiga qarab:

– Sen nima kutganingni bilmadim-u...

– Faqat qilmishingga yarasha olding dema... – jerkib berdi Ron.

Garri bo'tqani nari surdi. Uning ichini aybdortlik hissi yemirmoqda. Mister Ueslini xizmat surishtiruvi kutyapti. Ana, xolos, mister va missis Ueslilarning Garriga qilgan yaxshiligiga yarasha qaytarilgan javob shu bo'ldimi?!

Biroq bu mavzu yuzasidan fikr yuritib ko'rishga hozir vaqt yo'q. Professor Makgonagall «Griffindor» stoliga yaqin kelib, yangi tuzilgan mashg'ulotlar jadvalini tarqatishga kirishdi. Garri varaqni olib, dastlabki ikki soat «Xufflpuff» fakultetining birinchi sinf o'quvchilari bilan birgalikda gerbologiya fanidan dars o'tkazilishini tushundi.

Garri, Ron va Germiona qasrdan birgalikda chiqib, ekin ekilgan yerlar orqali sehrli o'simliklar yetishtiriladigan issiqxonalar tomon yo'l olishdi. Har yomonning bir yaxshiligi bo'ladi. «Qichqiriqnoma»ning yaxshi tomoni shundan iboratki, bolalar o'z qilmishlariga yarasha jazo olishdi deya xulosa chiqargan Germionaning bolalar bilan oldingi do'stona munosabati qayta tiklandi.

Issiqxonaga yaqinlashgan bolalar, jamiki sinf eshik yonida o'qituvchini kutib turganini ko'rishdi. Garri, Ron va Germiona o'z sinfdoshlariga qo'shilishlariga ulgurmey, sal narida professor Sarsabil xonim ko'rindi. U maysazor orqali Sverkarol Charuald hamrohligida shiddat-la odimlab kelmoqda. Professor Sarsabil xonim qo'liga bir to'p bint ushlab olgan. Ayrim shoxlari taxtakachlab qo'yilgan Urishqoq tolni uzoqdan ko'rgan Garrini yana vijdon azobi qiynadi.

Professor Sarsabil xonim – past bo'yli, miqtigina afsungar ayol. Har tomon hilpirayotgan sochini yamoq solingan shlapasi bilan bosib olgan. Kiyimi loyga belangan bo'lib, tirnog'ining osti tuproqqa to'lgan. Agar uning ahvolini Petuniya xola ko'rsa bormi, hushini yo'qotishi muqarrar. Sverkarol Charuald esa aksincha, orasta hilpirayotgan moviy kiyimi va boshidagi zar jiyakli moviy shlapasi ostida yarqirab turgan tillarang sochi bilan bequsur qiyofa kasb etgan.

– O, salom bolalar! – shodiyona qichqirdi Charuald issiqxona yaqinida to'planganlarga nurafshon kulib. – Men professor Sarsabil xonimga Urishqoq tollarni qanday davolash kerakligini ko'rsatib qo'ydim. Faqat sizda professor Charuald gerbologiya fanini professor Sarsabil xonimdan ham yaxshi bilar ekan degan tasavvur shakllanishini istamas edim. Gap shundaki, ajoyib sayohatlarim davomida bir nechta o'xshash daraxtlarga duch kelganman.

– Bugungi dars uchinchi issiqxonada o'tkaziladi, – dedi Sarsabil xonim odatdagidan baland ovozda.

Doimo quvnoq, ko'nglida kiri yo'q afsungar ayolning jahli chiqib turgani yaqqol bilinib turibdi.

O'qituvchining e'lonini eshitib, qiziqib qolgan o'quvchilar orasida pichir-pichir boshlandi. Bolalar bugungi kungacha faqat birinchi issiqxonada ishlab kelishgan, uchinchi

issiqxonada esa juda qiziq va ayni vaqtda nihoyatda o'simliklar yetishtiriladi. Professor Sarsabil xonim beliga osib olgan kalitlardan birini olib uchinchi issiqxona eshigini ochdi. Garri shiftga osilgan, kattaligi soyabonday keladigan ulkan gullarning muattar hidi bilan zax tuproq va o'g'itlar hidi aralashgan noxush hidni his etdi. Garri ichkariga Ron bilan Germionaning ortidan ergashgan ediki, uni Charuald ushlab oldi.

– Garri! Senga bir og'iz gapini bor. U ikki daqiqaga ushlanib qolishiga qarshilik ko'rsatmaysiz-u, shunday emasmi qadrli Sarsabil xonim?

Domangir qiyofa kasb etgan yuziga qaraganda professor Sarsabil xonim qarshi, biroq Charuald:

– Ana, juda soz, – dedi-da, eshikni tashqaridan shartta yopib qo'ydi.

– Garri, – dedi tishining oqini quyosh nurida yarqiratgan Charuald boshini chayqab. – Garri, Garri, Garri...

Uning nima demoqchi ekanini tushunishni ham istamagan Garri biror og'iz so'z aytmadi.

– Xabardor bo'lgach... Nima ham derdim, bularning bari to'la-to'kis mening aybim. O'zimni o'zim tepib yuborishga tayyorman...

O'qituvchi nimalar haqida gapirayotganini Garri oz bo'lsa ham tasavvur eta olmadi. U endigina bunga iqror bo'lmoqchi ediki, Charuald gapini davom etdi:

– Oxirgi marta qachon bu qadar hayajonga tushganimni eslay olmayman. «Xogvars»ga mashinada uchib kelish! Nima uchun bunday ish tutganingni, tabiiyki, men darhol anglab yetdim. Sababi ayon. Garri, Garri, Garri.

Qiziq, qanday qilib u, o'z tishini, hatto gapirmay turganda ham har birini bu qadar namoyon eta olar ekan.

– Shuhratparastlik tabiatiningda men tufayli shakllandi, chamasi, shundaymi? – dedi Charuald. – Seni bunday ka-

VI BOB. Sverkarol Charuald

sallikka men chalintirib qo'ydim, shekilli. Gazetaning bosh sahifasiga men tufayli tushib qolgach, yana istab qolibsanda.

– Yo'q, albatta, professor, shunchaki...

– Garri, Garri, Garri, – gapni bo'ldi Charuald, bolaning yelkasini changallab. – Men juda yaxshi tushunaman. Kishi mashhurlikning mazasini bir bor totib ko'rgach, ko'ngli yana va yana qo'msayveradi. Ibora ila aytganda, senga mashhurlikning atigi bir tishlamini totib ko'rishga imkon berganim uchun ham o'zimni haligacha aybdor deb bilaman. Shon-shuhrat miyanga o'mashib qolibdi, bolakay. Yaxshi bilasanki, mashinada, hech kimga sezdirmay uchib kelishning iloji yo'q. Bu esa o'z navbatida dongdorlik sari bosilgan yana bir qadam. Tinchlan bola, o'zingga kelib ol, tushundingmi? Shuhrat qozonish uchun oldinda hali ko'p vaqt bor. Ichingda nimalar kechayotgani, «Charualdga gapirish oson, u dunyoga mashhur sehrgar bo'lib bo'lgan», deb o'ylayotganingni ham sezib turibman. Biroq o'n ikki yoshimda men xuddi sen kabi hech kim emas edim, nomim ham taniqli bo'lmagan. Mendan farqli o'laroq, sen haqingda, anavi «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» bilan bog'liq ishlar to'g'risida kimdir nimadir eshitgan, albatta. – dedi u Garrining peshanasidagi yashin shakliga o'xshash chandiqa qarab qo'yib. – Tushunaman, bu eng jozibador tabassum uchun «Avsunpoliten» jurnali mukofotiga xuddi men kabi uzluksiz besh marta sazovor bo'lish bilan barobar emas, albatta. Biroq bu boshlanishi, Garri, boshlanishi.

Charuald makkorona ko'z qisib qo'ydi-da, bashang yurib, nari ketdi. Garri turgan joyiga mixlab qo'yilganday, bir necha soniya turib qoldi. Darsga kirish kerakligi esiga tushib, issiqxonaga kirdi.

Professor Sarsabil xonim issiqxona o'rtasida, ustiga taxminan yigirma juft momiq quloqchin terilgan chorpova-

lar o'zini turibdi. Garri Ron bilan Germiona o'rtasiga kelib turganini ko'rgach, amaliy mashg'ulot mavzusini e'lon qildi:

– Bugun biz tagliklarga sepilgan urug'dan unib chiqqan mandragora nihollarini ko'chirib, gul tuvakka o'tqazamiz. Ushbu o'simlikning o'ziga xos xususiyatlarini kim aytib bera oladi menga?

Birinchi bo'lib Germionaning qo'li ko'tarilganiga hech kim hayron bo'lmadi. Qo'yilgan savolga javob berishga izn olgan Germiona xuddi butun boshli darslikni yutib olgandek javob berdi.

– Mandragora bu, kishini asl holatiga qaytaradigan nihoyatda kuchli vosita sanaladi. Ushbu o'simlikdan tayyorlangan damlama vositasida biron-bir narsaga aylantirib qo'yilgan yoki afsun ta'siriga duchor bo'lgan odamlarni me'yoriy holatga qaytarish mumkin.

– A'lo! «Griffindor»ga o'n ball, – maqtadi professor Sarsabil xonim. – Mandragora aksariyat ziddi-zahar dori-darmonlarning ajralmas tarkibiy qismidir. Biroq o'zining ijobiy xususiyatlaridan tashqari, nihoyatda xavfli o'simliklar turkumiga kiradi. Kim aytadi, nima uchun?

Germionaning bu gal ko'tarilgan qo'li Garrining ko'zoynagini uchirib yuborishiga sal qoldi.

– Mandragoraning yig'isini eshitgan har qanday kishi ajal yoqasiga kelib qoladi.

– Juda to'g'ri, «Griffindor»ga yana o'n ball. Endi mandragoralarga e'tibor qiling. Ular hali juda yosh, – dedi professor Sarsabil xonim tagliklar qatoriga imo qilib.

O'quvchilar yaqinroq borib, dikkayib o'sgan yuzlab qizg'ish-yashil nihollarni tomosha qilishdi. Germiona «mandragoraning yig'isi» deb nimani nazarda tutganini Garri u qadar tushunib yetmadi-yu, ushbu nihollarda diqqatga sazovor bo'ladigan biron-bir alomat sezmedi.

– Endi hamma o'ziga bittadan quloqchin olsin, – buyurdi professor Sarsabil xonim.

Chorpoyalar yonida tiqilinch hosil bo'ldi. O'g'il bolalar imkon qadar pushti bo'lmagan quloqchin olishga oshiqishdi.

– Men quloqchinlar taqilsin deyishim bilan quloqchinni¹ taqib, qulog'ingizni to'liq va zich yopganiga ishonch hosil qiling. Uni yechish mumkin bo'lganda ikkita barmog'imni mana bunday qilib ko'rsataman. Xo'sh, unday bo'lsa, ishga kirishdik. Quloqchinlar taqilsin, – dedi professor Sarsabil xonim.

Garri quloqchisini qulog'iga mahkam bosgach, hech narsa eshitmay qoldi. Professor Sarsabil xonim o'zining pushtirang paxmoq quloqchisini taqdi-da, kiyimining yengini shimargancha, dikkaygan nihollardan birini mahkam ushlab, uni tuproqdan kuch bilan sug'urib oldi.

Ko'z o'ngida paydo bo'lgan narsani ko'rgan Garri beixtiyor qiehqirib yubordi. Tabiiyki, uni hech kim eshitmadi.

Ildiz o'rniga jajjigina, iflos va nihoyatda xunuk chaqaloq ko'rindi. Poya uning boshidan o'sib chiqqan. Chaqaloqning och yashil teri qoplamasi ola-bula bo'lib, burishgan afi-yu, lang ochiq og'ziga qaraganda, shubha yo'qki, kuchi boricha chinqiryapti.

Professor Sarsabil xonim stol ostidan kattagina gultuvak chiqardi-da, mandragorachani, qop-qora nam kompostga² faqat boshidan o'sib chiqqan po'pakcha ko'rinib turadigan tarzda ko'mib yubordi. O'qituvchi qo'lini qoqib tozalagach, ikkita bosh barmog'ini yuqoriga ko'tarib

¹ Quloqchin - tushirib qo'yiladigan qalpuqlari bor issiq tepuk.

² Kompost (inglizcha: compost; lotincha: compositus - yaxshi ko'rinishli; tarkibli) - o't, po'choq, axlat kabi chiqindilar bilan tuproq yoki torf aralashmasini chiritib tayyorlangan organik o'g'il.

ko'rsatdi-da, quloqchinini yechdi.

– Modomiki, bizning mandragorachalarimiz hali juda yosh nihol ekan, ularning yig'isi hech kimni o'ldira olmaydi, albatta – dedi u, xuddi biron-bir hayron qoladigan ish qilmagan, atigi begoniyaga¹ suv quygan kabi oddiy ish qilganday vazmin ohangda. – Shunday bo'lsa-da, uning hozirgi ovozi eshitganingizda, bir necha soat hushsiz yotgan bo'lar edingiz. Binobarin, birinchi o'quv kunini o'tkazib yuborishni istamas ekansiz, ish boshlashdan oldin ham ish davomida ham quloqchiningiz mahkam taqilganiga komil ishonch hosil qilib boring. Dars oxirlab qolganini imo qilib ko'rsataman. Har bir taglikka to'rt kishilashib turing. Mana bu yerda gultuvakning katta zaxirasi terib qo'yilgan. Kompostni esa anavi yerda turgan qoplardan olasiz. Ha, aytganday, Zaharli mo'ylovdan ehtiyot bo'ling, chaqadi.

Ushbu gapni aytgan professor Sarsabil xonim to'q qizilrang o'simlikning orqa tomondan o'g'rincha o'rmlab kelayotgan paypaslagichini bir urdi. Zarb yegan paypaslagich ortga tislanganча chekindi.

Garri, Ron va Germionaning davrasiga sochi qo'zi-choqning yungiga o'xshash jingalak xufflpuffchi bola kelib qo'shildi. Garri uni muqaddam ko'rgan-u, hali suhbatlashmagan.

– Jastin Finch-Fletchi, – o'zini dadil tanishtirdi u Garriining qo'lini siqib. – Seni taniyman, albatta. Mashhur Garri Potter. Sen esa Germiona Grenjer, barcha fanlardan a'lo o'qiydigan o'quvchi qiz va Ron Uesli. Uchar mashina seniki edi, shundaymi?

Germionaning chehrasi ochilib, yashnab ketdi. Ronning negadir kulgisi kelmadi. Chamasi «Qichqiriqnoma»

¹ Begoniya (begonia) – begoniyadoshlar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'simliklar turkumi. 800 ga yaqin turi, asosan, issiq mamlakatlarda (Avstraliyadan shqari) manzarali o'simlik sifatida bog'larda, bizda xonalarda o'stiriladi.

hali esidan chiqmagan ko'rinadi.

– Anavi Charuald ajoyib kishi ekan, shunday emasmi? – quvonch-la davom etdi Jastin, hamma bilan birga gultuvakka ajdar go'ngidan tayyorlangan kompost solishga kirishar ekan. – Rosa mard kishiga o'xshaydi. Kitoblarini o'qidingizmi? Afsun bilan boshqa tusga kirgan odam bilan bitta telefon budkasiga kirib qolganimda men yo siyib qo'yar edim, yo o'takam yorilib, o'lib qolar edim. U esa o'zini vazmin tutgancha, voh! Fantastikaning o'zginasi-ya! Tasavvur qiling meni Itonga¹ yozib qo'yishgan edi! O'sha fakultet o'niuga «Xogvars»ga kelganimdan juda xursandman! To'g'risini aytsam, oyim boshida biroz dilsiyoh bo'ldi. Lekin iltimosimga binoan Charualdning kitoblarini o'qib chiqqach, oilada ma'lumotli sehrigar bo'lgani naqadar yaxshi bo'lishini tushunib yetdi...

Shundan so'ng laqillab o'tirishga vaqt bo'lmadi. Ular quloqchinarini taqib, diqqat-e'tiborlarini mandragorachalarga qaratdi. Professor Sarsabil xonim mandragorachalar bilan qanday muomala qilishni ko'rsatganida, ish go'yo osonday tuyulgan edi. Aslida esa unday emas ekan. Mandragorachalar tuproqdan chiqishni istamas, chiqqach esa tuvakdagi tuproqqa ko'milishni xohlashmas edi. Ular to'lg'anib, mittigina, o'tkir mushkchalarini siltab, tishi bilan tahdid solgancha, qaysarlik qilishmoqda. Garri semizgina mandragorachalarning birini tuvak ichiga ekib qo'yish uchun sal kam o'n daqiqa sarfladi.

Dars nihoyasiga yetguncha, Garri, qolgan bolalar kabi boshdan-oyoq loyga belanib, tanasi og'rib, jiqqa terga botdi. Shundan so'ng qasrga bazo'r sudralib borgan bolalar yu-

¹ Iton fakulteti Buyuk Britaniyadagi, taqat o'g'il bolalar o'qiydigan xususiy maktab. Fakultetga 1440-yili qiroli Genrix VI tomonidan asos solingan. Ushbu maktabni Buyuk Britaniyaning 19 nafar Bosh vaziri tamomlagan. Iton fakulteti Londondan g'arbda, 30 km

vinib olishgach, griffindorchilar, bir narsani boshqa narsaga aylantirish darsiga yo'l olishdi.

Professor Makgonagalning darslari hech qachon oson o'tmagan. Bugun esa o'zgacha qiyin o'tdi. Garrining o'tgan o'quv yilida olgan nazariy bilimlari yoz davomida miyasidan chiqib ketganday, amaliy ko'nikmalari esa batamom barham topganday edi go'yo. Bugun undan qo'ng'izni tugmaga aylantirish talab etildi, xolos. Biroz yassilangan qo'ng'iz o'chakishganday, stol sirtida yugurgancha, Garrining sehrli tayoqchasiga chap berib qochdi.

Ronning ahvoli bundan-da battar. U sehrgarlar tasma-sini kimdandir qarz olib, o'z tayoqchasining singan joyini o'rab qo'ygan bo'lsa-da, tayoqcha qayta tiklanmas darajada ishdan chiqqan ko'rinadi. Sehrli tayoqchasi juda noqulay paytda g'ichirlar, uchqun sachratar, Ron har gal qo'ng'iz sehrlashga uringanida atrofga palag'da tuxum hidini bostirgancha, pag'a-pag'a kulrang tutun purkar edi. Tutun parda ortida hech narsa ko'ra olmay qolgan Ron tirsagi bilan bexosdan ezib, qo'ng'izni o'ldirib qo'ydi. Boshqa qo'ng'iz so'rashga majbur bo'lib, professor Makgonagalldan gap eshitib oldi.

Tushlikka chaqirgan qo'ng'iroq zarbini eshitgan Garri biroz yengil tortdi. Uning miyasi o'z kosasiga suvi siqib tashlangan gubka singari yopishib qolganday go'yo. Sint xonasini Garri bilan Rondan tashqari hamma tark etib bo'ldi. Ron quturib ketganday, haligacha tayoqchasini stolga urib o'tiribdi.

– Ahmoqona, befoyda, keraksiz tayoq...

Garrining qulog'i otishmalar zalpidan kar bo'lib qolishiga sal qolgach, o'rtog'iga taklif kiritishga majbur bo'ldi:

– Ota-onangga xat yozib, ulardan boshqa tayoqcha yuborishlarini iltimos qil.

– Ha, albatta. Faqat sehrli tayoqcha o'rniga yana bitta

VI BOB. Sverkarol Charuald

«Qichqiriqnoma» olaman. – to'ng'illadi Ron, pishillagan ovoz chiqarayotgan tayoqchani yuk xaltachasiga solib, – «Iye, tayoqchang sinib qoldimi? Ajab bo'lsin, o'zing aybdorsan. Battar bo'li!» – degan gapdan boshqa javob olmayman.

Ular tushlik qilgani yo'l olishdi. Germiona bir gala qo'ng'izni bir siqim bequsur tugmaga aylantirib yuborganini ko'rsatganida esa Ronning kayfiyati battar ezilsa ezildiki, mutlaqo ko'tarilmadi.

– Tushlikdan so'ng qaysi darsga boramiz? – qiziqib so'ragan bo'ldi Garri, mavzuni tezroq almashtirish maqsadida.

– Yovuz kuchdan himoya, – darhol javob berdi Germiona.

– Nima uchun Charuald o'tadigan darslar jadvalida yurakchalar chizib chiqding? – talab ohangida so'radi Ron, Germionaning qo'lidan mashg'ulotlar jadvali aks ettirilgan varaqni olib.

Germiona qizarib, varaqni tortib oldi.

Tushlikdan so'ng hovliga chiqishdi. Bugun havoning avzoi buzuk ko'rinadi. Germiona tosh zinaga o'tirib, vaqtni behuda o'tkazmaslik uchun Sverkarol Charualdning «Qon-xo'r bilan o'tkazilgan xizmat safari»ni ochdi. Garri bilan Ron esa kvidish haqida gap boshlashdi. Vaqt o'tgach Garri, ularni kimdir diqqat bilan kuzatib turganini payqab qoldi. Atrofga nazar solib, kechagi Taqsimlash marosimida ko'rgan kulrang sochli jajjigina bolachani ko'rdi. Bolakay shaydo bo'lib qolganday Garriga tikilib turibdi. Qo'lida xuddi magllarning oddiy fotoapparatiga o'xshash narsani mah-kam ushlab olgan. Nigohini Garri payqab qolganini angla-gach, uyalganidan qizarib ketdi.

– Ishlar qalay, Garri? Men... meni ismim Kolin Krivi, – g'o'ldiradi u, oldinga asta qadam tashlab, – men ham

«Griffindor»da tahsil ko'raman. Mumkinmi men... menga... agar seni suratga olsam? – so'radi u, fotoapparatini sal ko'targancha, jur'atsiz qiyofa bilan.

– Suratga olasan? – talmovsiradi Garri.

– Sen bilan chindan ham uchrashganimga dalil keltirish uchun, – sal dadilroq ovozda tushuntirish berdi Kolin, yanada yaqinroq kelib. – Men sen haqida hamma narsani bilaman, hamma, hamma narsani. Menga bor gapni bitta qo'ymay aytib berishdi. «O'zing-Bilasan-Kim» seni o'ldirishga uringanida omon qolganing haqida ham u sen tufayli sirli ravishda g'oyib bo'lgani haqida ham qolgan gaplarni ham yashin shaklidagi chandig'ing haqida ham gapirib berishdi.

Bola Garrining peshanasiga diqqat bilan nazar soldi.

– Sinfimizdagi bir bola esa allaqanday sehrli suyuqlik borligini, agar eskizga o'sha suyuqlik vositasida ishlov berilsa, suratdagi kishi harakatlanib turishini ham tushuntirib berdi!

Kolin nafasini tez rostlab oldi-da, hayajonlanib, gapida davom etdi:

– Bu yer juda zo'r joy ekan, a? «Xogvars»dan xat kelguncha, mening har xil g'alati qiliqlarim sehrgarlik ekaniga hech kimning aqli yetmagan ekan. Dadam sut sotuvchisi. U haligacha ishonmaydi. Shu bois unga ko'proq rasm yuborib turish uchun doim suratga olib yuraman. Agar menda sening surating bo'lsa, zo'r ish bo'lar edi-da.

Bolaning nigohida o'tinch ko'rindi.

– Ehtimol, do'sting ikkalamizni suratga olib qo'yar, a? Rasm chiqqanidan so'ng esa dastxat qo'yib berasan, maylimi?

Shu payt to'satdan kelib qolgan Malfoyning ovzoi eshitildi:

– Dastxat qo'yib berasan? Halitdan dastxat tarqatyapsanmi, Potter?

VI BOB. Sverkarol Charuuld

Malfoyning baland yangragan zaharli gapi butun hovliga eshitildi. Drako o'zining yo'lto'sar bezori qiyofasidagi do'stlari Krabbe va Goyl himoyasida Kolinning orqasida turgan ekan.

– Saflaning! – qichqirdi Malfoy. – Garri Potter ham-maga dastxat qo'yib beradi.

– Bo'lmagan gap, – achchiqlandi Garri, beixtiyor musht siqib. – O'chir ovozingni Malfoy.

– Hasad qilyapsanmi? – chiyilladi Kolin.

Bolachaning tanasi Krabbening bo'ynidan yo'g'on emas.

– Hasad qilyapman?

Endi Malfoy baqirishi shart emas. Negaki hovlida sayr qilib yurgan odamlarning aksariyati uning qichqirig'iga eshitib, endi suhbatga katta qiziqish-la quloq tutib turibdi.

– Nega endi men hasad qilishim kerak? Menga anavi-ni-ning jirkanch chandig'i kabi tirtiqlik kerak emas, rahmat! Bosh suyagi yorib yuborilgani uchun g'ayrioddiy bo'lib qo-lish mumkin, deb hisoblamayman.

Krabbe bilan Goyl ahmoqona hiringlab qo'yishdi.

– Shilliqurt yeb, tiqilib o'l! – vajohat-la qichqirdi Ron.

Kulishni bas qilgan Krabbe barmoq suyaklarini tahdid solgancha qirsillatib qo'ydi.

– Ehtiyot bo'l, Uesli, – nafrat to'la ko'zini qisdi Mal-foy, – xulqing namunali bo'lishi shart, yo'qsa oyijoning maktabdan olib ketib qoladi, – dedi-da, missis Uesli yu-borgan «Qichqiriqnoma»dagi so'zlarni chinqirgancha tak-rorladi: «Yana biron-bir o'xshash qiliq ko'rsatar ekan-san...»

Hovlida to'planib o'tirgan «Slizerin» fakultetining be-shinchi sinf o'quvchilari miriqib qahqahlashdi.

– Ha, aytganday. Potterni dastxati qo'yilgan surat-lardan bittasini Uesliga sovg'a qil, – maslahat berdi Malfoy

Kolinga. – O'sha surat ularning ayanchli uyidan ham qimmat turadi...

Ron sehrli tayoqqhasidan tasmani shartta yulib, Drako tomon qadam tashlagan ediki, Germiona qo'lidagi «Qon-xo'r bilan o'tkazilgan xizmat safari»ni qattiq yopgancha, qichqirdi:

– Bas qilinglar!

Daf'atan moviy kiyimi shabadada hilpirayotgan Sverkarol Charuald ko'rindi.

– Nima bo'ldi, nima gap? Kim dastxat tarqatyapti? – tergab qoldi u.

Garri darg'azab ovoz chiqardi-yu, jim bo'lishga majbur bo'ldi.

– Buning fahmiga yetishim kerak edi! – dedi bolaning yelkasidan homiylarcha quchgan Charuald tiyrak ohangda.

– O, Garri! Do'stim! Mana, yana diydor ko'rishishdik!

O'qituvchining biqiniga yopishib qolgan, kamsitilayotganidan vujudi yonayotgan Garri miyig'ida kulib qo'ygan Drako xaloyiq ichiga kirib ketganini ko'rdi.

– Xo'sh, mister Krivi, – dedi Charuald nurafshon kulgancha, Kolinga murojaat qilib. – Qo'sh portret. Bundan ham yaxshiroq bo'lishi mumkinmi! Ikkalamiz ham dastxat qo'yib beramiz.

Bir pas ivirsigach Kolin suratga oldi. Qo'ng'iroq zarbi yangrab, tushlikdan keyingi mashg'ulotlarning boshlanish vaqti yetganidan xabar berdi.

– Tezlashinglar, sinf xonalariga boringlar, – tezlatdi o'qituvchi hovlidagi o'quvchilarni.

Garri yo'qolib qolish afsunini bilmaganidan afsus qildi. Charuald bolani mahkam ushlagancha, qasr tomon tortdi.

– Senga dono bir gap aytmoqchiman, – dedi Charuald, ikkovlon qasrning yon eshigi tomon yo'l olar ekan, – Kolin

bilan bog'liq anavi mashmashadan seni xalos etdim. Modomiki, u, ikkimizni suratga olgan ekan, o'rtoqlaring manmanlikda ayblay olishmaydi endi seni...

Garrining tutilib, duduqlanib bergan tushuntirishlariga e'tibor qilmagan Charuald marmar zina bo'ylab ko'tarilgancha, bolani, qiziqish-la kuzatayotgan xaloyiq orasidan yuqoriga tortib bordi.

– Mavqeingning bugungi pallasida dastxatli fotosurat tarqatib, oqilona ish tutmayotganing haqida ogohlantirmoqchiman, Garri. Xafa bo'lmagin-u, to'g'risini aytadigan bo'lsam, bunday holatda sen o'ziga bino qo'ygan go'dakka o'xshab qolasan. Shoshilma, vaqti kelib, xuddi men kabi dastxat qo'yilgan fotosuratlarning tayyor dastalariga ega bo'lishing kerak bo'ladi. Biroq o'ylashimcha, – kulib boqdi Charuald, – bunday fursat sen uchun hali yetmagan.

Sinf xonasiga yetgandagina bola o'qituvchining chagalidan xalos bo'ldi. Garri kiyimini tuzatib, eng oxirgi qatorga o'tirdi-da, atrofiga Charualdning kitoblarini, tirigi ko'rinmaydigan qilib terib chiqdi. Sinfdoshlari yurgan yo'lida vaysab, birma-bir xonaga kirib kelishdi. Ron bilan Germiona Garrining ikki yoniga o'tirishdi.

– Basharang tuxum qovuradigan holatga kelib qolibdi, – hiringladi Ron, – Xudodan Krivi bilan Jinna do'stlashib qolishmasligini iltijo qil, aks holda ikkalasi tez orada Garri Potterni muxlislari klubini ta'sis etishadi.

– Jim bo'l, – jerkib berdi Garri. – Anavi tentak Charualdning qulog'iga chalinishi kamlik qilayotgan edi «Garri Potterni muxlislari klubi» degan gaping.

Hamma o'z o'rmini egallagach, Charuald tomoq qirdi. Shu zahoti xonaga sukunat cho'kdi. Charuald qo'l uzatib, Nevillning stolidagi «Trollar bilan sayohat» kitobini oldida, muqovadagi ko'z qisib turgan suratini hamma ko'rishi uchun boshi uzra baland ko'tardi.

VI BOB. Sverkarol Charuald

– Bu men, – dedi u, barmog‘ini suratga o‘qtab va chundan ham bu uning surati ekaniga ishontirish uchun bo‘lsa kerak, o‘zi ham ko‘z qisdi. – «Uchinchi darajali Merlin» ordeni sohibi. Yovuz kuchdan himoya ittifoqining faxriy a‘zosi, «Avsunpoliten» jurnali tomonidan ta‘sis etilgan «Eng jozibador tabassum uchun» mukofotining uzluksiz besh karra sohibi Sverkarol Charuald. Biroq so‘nggi mukofotni eslamaslikni afzal ko‘raman. Negaki narigi dunyodan vakil bo‘lib kelgan ayol Bendon ustidan o‘z tabassumim ila g‘olib chiqqanim yo‘q!

O‘quvchilar kulib olishlari uchun u biroz tanaffus qildi. Ba‘zilar istehzoli irshaydi.

– Asarlarim to‘plami hamunada borligini ko‘rib turibman. Bu juda yaxshi. O‘ylaymanki, bugungi darsni qisqagina nazorat ishidan boshlaymiz. Tashvish qilmang. Bu bilan mening asarlarimni qanchalik diqqat-e‘tibor bilan o‘qiganingiz, nimalarni o‘zlashtirib olganingizni shunchaki tekshirib ko‘ramiz, xolos.

Charuald test savollari bitilgan varaqlarni tarqatib chiqdi.

– Ixtiyoringizga o‘ttiz daqiqa havola etiladi, – dedi u, o‘z joyiga qaytar ekan, – Marhamat, ishga kirishing! – dedi.

Garri test savollarini o‘qib chiqdi:

1. Sverkarol Charuald qaysi rangni yoqtiradi?
2. Sverkarol Charualdning dil orzusi?
3. Fikringizcha, bugungi kunga kelib Sverkarol Charuald qanday buyuk yutuqlarga erishdi?

Va shunga o‘xshash turli tuman bema‘ni, beta‘sir savollar. Eng so‘nggisi:

54. Sverkarol Charualdning tug‘ilgan kuni va qanday sovg‘a unga manzur bo‘lishi mumkin?

Yarim soat o‘tgach, Charuald test savollariga berilgan javoblarni yig‘ib olib, o‘quvchilar oldida tez ko‘z yugurtirib

chiqdi.

– Ana, xolos, nafarmon¹ rangni yoqtirishimni hech kim eslab qoimabdi-da. Bu haqda men «Qor odam bilan ittifoq» asarida yozganman. Shuningdek, ayrimlarga «Boshqa tusga kirgan odamlar bilan muloqot» asarini yana bir bor diqqat bilan o'qib chiqishni tavsiya etaman. O'sha asarning o'n ikkinchi bobida sehrgar va sehrgar bo'lmagan jamiyatlar orasidagi hamohang munosabatlar tug'ilgan kunimga manzur tushadigan sovg'a bo'lishini garchi, Ogden Oldning kuydiradigan viskisidan ham voz kechmasligimni aytib o'tgan edim. – dedi-da, sinfga yana bir ayyorona iljayish hadya etdi.

Tuturiqsiz gapirayotgan Charualddan anchadan buyon ko'z uza olmayotgan Ron, o'z qulog'i-yu, ko'ziga ishonmayapti. Birinchi qatorda ovoz chiqarmay, yelkalari titrab qahqahlayotgan Simus Finnigan bilan Din Tomas o'zlarini idora qila olmayapti. Germiona esa, aksincha, Charualdning har bir so'zini berilib, ehtirom ila tinglab o'tiribdi. Ismi tilga olinganida esa bechora qiz seskanib ketdi.

– ... miss Grenjer esa mening dil orzuimni, xususan dunyoni yovuzlikdan butunlay xalos etgach, yagona istagim, o'zim kashf etgan soch parvarishlash vositalari to'plamini jahon bozoriga olib chiqish ekanini yaxshi bilar ekan. Juda soz, qizaloq! Chindan ham u qo'yilgan barcha savollarga to'g'ri javob yozibdi. Qani miss Germiona Grenjer?

Germiona titrayotgan qo'lini bazo'r ko'tardi.

– A'lo! Juda soz! «Griffindor» o'n balga sazovor bo'ldi! Qani, endi ishga kirishamiz!

U chuqur engashib, ustiga allaqanday mato tashlangan qafasni stol ostidan chiqardi-da, hammaga ko'rinadigan joyga qo'ydi.

¹ Nafarmon (*forscha*) – och binafsha, qizg'ish binafsha rangli

VI BOB. Sverkarol Charuald

– Avvalambor, shuni ta’kidlab o’tishim joizki, oldimda turgan eng asosiy vazifa – barchangizni, sehrgarlar olamiga ma’lum bo’lgan har qanday jirkanch maxluqqa qarshi qurollantirishdir! Ushbu xonada sizlarni larzaga soladigan xavf-u xatarlarga duch kelasiz. Biroq bilingki, yoningizda ekanman, sizlarga hech narsa tahdid solmaydi. Yagona iltimosim, tinchlikni saqlang.

Garri, g’ayriixtiyoriy ravishda o’zi tergan kitoblar taxi uzra qafasga qaradi. Charuald qo’lini mato ustiga qo’yishi bilan Din bilan Simus hirlinglashdan to’xtashdi. Birinchi qatorda o’tirgan Nevill esa kursini mahkam ushlab oldi.

– Faqat qichqirang, – past ovozda davom etdi Charuald, – aks holda ularning xuruji tutib qolishi mumkin. Marhamat, qarshi oling! Endigina tutib keltirilgan Kornual¹ elfchalari, – teatr aktyoriga xos qiliq-la e’lon qildi u.

Simus Finnigan yana o’zini tuta olmadi. U shunday xurillab kuldiki, hatto Charuald ham uning kulgisini yolg’ondan bo’lsa-da, dahshatga tushgan kishining xitobi sifatida qabul qila olmadi.

– Ha, nima bo’ldi? – dedi u, Simusga kulib qarab.

– Axir, ular... ular... u qadar xavfli emas-ku?! – dedi Simus, kulgidan tiqilishga sal qolib.

– Men esa bunchalik komil ishonch bildirnagan bo’lar edim, yigitcha! – dedi jahli chiqqan Charuald ko’rsatkich barmog’ini Simusning burni ro’parasida tebratib. – Bu mitti yaramaslar iblis kabi makkordir!

Basharalari uchli, ovozi chiyildoq elfchalar ko’kimtir kulrang bo’lib, har birining bo’yi taxminan sakkiz dyum² ke-ladi. Ularning mato ostidagi o’zaro muloqoti bir gala

¹ Kornual (Cornouaille) – Fransiyaning shimoliy-g’arbida, Britaniyaning janubiy-g’arbida joylashgan tarixiy mintaq. Yirik shahar – Kemper. Mintaqaning ushbu nomi Britaniya orollardagi Kornuoll gersogligining fransuzcha nomi bilan mos tushadi.

² Dyum – 25,4 millimetr yoki 2,54 santimetrga teng bo’lgan uzunlik o’lchovi birligi.

VI BOB. Sverkarol Charuald

jinga-lak to'tining baland bahsiday tuyuldi. Qafas ustidagi mato olinishi bilan chug'ur-chug'ur qilib, o'zlarini qafas ichida u yoq bu yoq urgancha, chiviqlarni siltab, basharalarini mas-xaraomuz burishtira boshlashdi.

– Juda soz! – e'lon qildi Charuald baland ovozda. – Qani, ko'ramiz, qanday jilovlar ekansiz, ularni, – dedi-da, qafas eshigini ochib yubordi.

Shundan so'ng haqiqiy do'zax qiynog'i boshlandi. Xonaning har tomoniga raketa singari uchib chiqqan elfchalar-dan ikkitasi Nevillning qulog'idan tutib, yuqoriga ko'tarishdi. Bir nechitasi o'zini derazaga urlari oqibatida orqa qatorda o'tirgan o'quvchilar ustiga shisha parchalari sachradi. Qolgan elfchalar esa go'yo sinf xonasiga quturgan karkidon kirganday, ko'zga ko'ringan narsani vayron-tolqon qilishga kirishdi. Ular siyohdonlarni yuqoriga ko'tarib, «yomg'ir» hosil qilishdi, kitob va qog'ozlarni titkilab, yirtishdi, devorga osilgan rasmlarni uzib otishdi, chiqindi savatlarini ag'darishdi, o'quvchilarning yuk xaltalarini olib qochib, ichidagi narsalarni oynasi singan derazadan pastga to'kishdi. O'quvchilarning aksariyati stol ostiga kirib, jon saqladi. Nevill esa shiftdagi temir qandilga osib qo'yilgancha, dod-voy soldi.

– Xo'sh, jilovlang ularni, qamang qafasga. Axir, ular u qadar xavfli emas-ku, bor-yo'q elfchalar, xolos-ku! – qichqirdi Charuald.

U yengini shimarib, sehrli tayog'chasini siltadi-da:

– Peskipiksi Pesternomi! – deya qichqirdi.

Biroq uning afsuni kor bermadi. Elfchalardan biri Charualdning qo'lidagi sehrli tayog'chani shartta yulib oldi-da, qolgan narsalar bilan birgalikda derazadan hovliga uloqtirdi. Sarosimaga tushgan Charuald qo'rqqanidan yutinib qo'ydi-da, stol ostiga tezgina yashirinishga urinib, qandildan uzilib tushgan Nevill bilan to'qnashib ketishiga sal qoldi.

Qo'ng'iroq zarbasi yangrab, chiqish eshigi yonida qiyomat arosat boshlandi. Shundan so'ng oraga biroz sukunat cho'kdi. Charuald stol ostidan viqor-la chiqib, ustini qoqdi. Sinf xonasini oxirgi bo'lib tark etayotgan Garri, Ron va Germionani ko'rib qolgach:

– Sizdan iltimos, anavi sohibjamollarni qafasga qamang, – dedi-da, xonadan o'qday uchib chiqib, eshikni tashqaridan mahkam yopib qo'ydi.

– Xo'sh, mana bu qilig'ini qanday sharhlash mumkin? – irilladi Ron elfchalardan biri qulog'ini og'ritib ketgach.

– Amaliy ko'nikmamiz yanada takomillashishini istagan, – gapga to'n kiydirdi Germiona.

Muzlatish afsunini o'qigan Germiona harakatsizlantirilgan ikkita elfchani qafasga uloqtirdi.

– Amaliy ko'nikmalarimiz yanada takomillashishini? – so'radi Garri ishonmay, – Germiona, axir, u mana bularni nima qilish kerakligi o'zi bilmasligi ayon ko'rinib turibdi-ku, – dedi u tilini chiqargancha, masxara qilib, raqs tushayotgan elfchani tarsillatib urishga urinib.

– Bo'lmagan gap, – gapni kesdi Germiona. – Kitoblarni o'qigansan-u, uning jasoratlarini esga ol...

– Jasorat ko'rsatganman, deb yozgan, xolos... – vaysadi Ron.

VII BOB. MAGLVACHCHA VA SHIVIR-SHIVIR GAPLAR

Garri keyingi bir necha kunni Charualddan, yo'lakda ko'rinib qoladimi yoki umuman inson ko'zining ko'rish maydonida paydo bo'ladimi, farqi yo'q, yashirinib o'tkazdi. Kolin Krivi bilan uchrashmaslikning iloji bo'lmay, undan qutulish ancha qiyin kechdi. Tinib-tinchimagan bolakay Garrining mashg'ulotlar jadvalini yodlab olgan ko'rinadi, deyarli soyaday ergashib yurdi. Kuniga kam deganda besh-olti marta «Ishlar joyidami, Garri?» – deya qichqirib o'tish, Garridan «Salom, Kolin» degan javob olish bola uchun nihoyatda katta baxtga aylandi.

Mashinada o'tgan omadsiz sayohat uchun Xedvig Garridan haligacha xafa. Ronning sehrli tayoqchasi esa ilgarigiday yomon ishlab, shunday hunar ko'rsatdiki, qo'yaverasiz. Juma kuni ertalab afsun o'qish fani darsida sehrli tayoqcha Ronning qo'lidan kutilmaganda uchib chiqib, professor Eli-tvikning ikki ko'zi orasiga borib urildi. Bechoraning kuygan joyida shu zahoti urib turgan xunuk yashil rangli katta pufak shishib chiqdi. Bir so'z bilan aytganda, hafta davomida katta-kichik ko'ngilsiz hodisalar uzluksiz davom etdi. Shunga qaramay Garri, dam olish kunlariga eson-omon yetib borgani uchun ham Xudoga ming shukurlar qildi. Garri, Ron va Germiona shanba kuni ertalab Xagridning kulbasiga tashrif buyurishni rejalashtirishdi. Ammo shanba kuni Garri, o'zi ko'zlagan vaqtdan ham bir necha soat oldin uyg'otishga majbur bo'ldi. Aniqliq aytiladigan bo'lsa, uni «Grif-fidor» fakultetining kvidish o'yini jamoasi sardori Oliver Drev uyg'otdi.

– N-nima bo'ldi, t-tinchlikmi? – so'radi Garri mast kishiga o'xshab.

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

– Kvidish mashqlari! – eʼlon qildi Drev. – Ketdik!

Garri ochilishni istamagan koʻzini derazaga qaratdi. Pushti tilla ufq tuman pardasi bilan toʻsilgan. Bir amallab uygʻongan Garri mukkasidan ketib sayrayotgan qushlarning bunday baland qiy-chuvida qanday uxlaganini tushunmadi.

– Oliver, tong otmabdi-yu hali, – ingradi Garri.

Oltinchi sinfda oʻqiydigan, baland boʻyli, baquvvatligidan pishillayotgan Drevning koʻzi hozir haddan ortiq rahmsizlikdan yarqirab koʻrindi.

– Toʻppa-toʻgʻri. Ayni shu vaziyat mashqlarimizning yangi dasturiga kiritilgan. Boʻl, supurgingni ol-da, ketdik, – dedi u, Garrining imillagan harakatini dadil ovozi ila tezlatib. – Boshqa jamoalar hali mashq boshlashgani yoʻq. Bu oʻquv yilida biz birinchi boʻlib boshlab beramiz...

Koʻrpasidan esnab, mushshaygancha chiqqan Garri uyqusirab, hech narsani tushunmay kvidish kiyimini qidirishga kirishdi.

– Juda ziyrak bolasan-da, – maqtagan boʻldi Drev. – Oʻn besh daqiqadan soʻng seni oʻyin maydonida kutaman, imillama.

Nihoyat, sport kiyimini kiyib, issiqroq boʻlishi uchun ridoga oʻranib olgan Garri Ron uchun shosha-pisha xat yozib qoldirdi-da, yelkasiga oʻzining «Nimbus-2000»ni tashlagancha, aylana zinadan umumiy mehmonxonaga tushdi. «Serniz Xola» portreti toʻsgan tuynukka hali yetib bormay, orqada qandaydir ivirsigan tovush eshitdi. Bu zinaga tirmashib, uni quvib yetishga urinayotgan, boʻyniga oʻzining fotoapparatini osib olib, qoʻliga allanima ushlab olgan Kolin Krivi ekan.

– Kimdir ismingni talaffuz etganini eshitib qoldim, Garri! Qara, nima bor menda! Suratni chiqarib, senga koʻr-

satmoqchi edim...

Hayratlangan Garri burni ostida o'ynatilayotgan fotosuratga qaradi.

Oq-qora tusli Charuald kimningdir qarshilik ko'rsatayotgan qo'lini ushlab olgancha, tortqilab ketyapti. Garri o'zining qo'lini tanidi. Suratdagi aksi fotoapparat obyektivida ko'rinmaslikka harakat qiyayotganini ko'rib, xursand bo'ldi. Garri fotosuratni tomosha qilar ekan, holdan toygan Charuald hansirab, tasvirning oq hoshiyasiga suyanib oldi.

– Dastxat qo'yib berasanmi? – umid-la so'radi Kolin.

– Yo'q, – rad etdi Garri va mehmonxonaga o'g'rincha razm solib chiqdi.

Xayriyatki, mehmonxonada hech kim yo'q.

– UZR Kolin, shoshib turibman. Kvidish mashqiga bori-shim kerak, – dedi-da, portret to'sgan tuynukni ochib, tashqariga yo'l oldi.

– Rosttanmi! Zo'r-u! Shoshma, men ham sen bilan boraman! Kvidish qanday o'ynalishini hali hech ko'rganim yo'q!

Kolin ham tuynuk tomon oshiqdi.

– Bu juda zerikarli tomosha, – ogohlantirdi Garri.

Biroq yuzida zo'r ishtiyoq yonayotgan bolacha Garri-ning gapiga e'tibor qilmadi.

– Axir, sen so'nggi yuz yil ichida eng yosh o'yinchisan, shundaymi, Garri? To'g'rimi? – bidir-bidir qila bordi Kolin, Garriga yetib yurishga harakat qilib. – Zo'r o'ynasang kerak-da! Men esa hali biron marta uchganim yo'q supurgi-da. Uchish qiyinmi? Mana bu o'zingnikimi? Eng zo'r supurgi shumi?

Garri nima qilishni bilmay, boshi qotdi. Xuddi haddan ortiq ko'p gapiradigan soyasi paydo bo'lib qolganday his etdi o'zini.

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

– Kvidishning nima ekanini hech tushunmayman, – dedi batamom hansirab qolgan bolacha. – bir emas, ikki emas to'rtta to'p o'ynalishi rostmi? Ulardan ikkitasi o'zi uchib, o'yinchilarni supurgilardan urib tushirishi ham rostmi?

– Rost, – ilojisiz tushuntira ketdi Garri, – ular «Tajovuzkor» to'plar deb ataladi. Har bir jamoada ikki nafar «Urib qaytaruvchi» bo'ladi. Ular maxsus klyushkalar bilan quroqlangan bo'lib, «Tajovuzkor»larni raqib jamoasining o'yinchilari tomon quvib solishadi. «Griffindor» jamoasining «Urib qaytaruvchi»lari Fred va Jorj Ueslilar bo'ladi.

– Qolgan to'plar nima uchun kerak? – so'radi Kolin.

Bolacha biror soniyaga bo'lsin, ko'zini Garridan uzmay borgani oqibatida to'voni zinaning so'nggi ikki pog'onasidan sirpanib, qoqilib tushdi.

– «Kvaffl» deb ataladigan kattagina qizil to'p – asosiy to'p sanaladi. O'sha to'p vositasida raqib jamoasining halqalariga gol uriladi. Har bir jamoada uch nafar «Ovchi» bor. Ular «Kvaffl»ni bir-biriga uzatib borgancha, raqib halqasiga kiritishga harakat qilishadi. O'yin maydonining ikkala tomoniga o'rnatilgan halqalar uzun xodalarga biriktirilgan.

– To'rtinchi to'p-chi?

– To'rtinchi koptokning nomi «Tilla chaqqon», – dedi Garri. – U juda kichik bo'lib, nihoyatda tez uchadi. Shu bois ham uni tutish qiyin kechadi. «Tilla chaqqon»ni tutib vazifasi «Sayyod» zimmasiga yuklangan. Umuman aytganda, «Tilla chaqqon» tutilmas ekan, kvidish o'yini tugamaydi. Qaysi jamoaning «Sayyod»i «Tilla chaqqon»ni tutsa, o'sha jamoa qo'shimcha yuz ellik ochkoni qo'lga kiritadi.

– Sen «Griffindor» jamoasining «Sayyod»imisan? – pichirlab so'radi Kolin.

– Ha, shunday.

Bu vaqtga kelib, ikkovlon qasrdan chiqib, nam may-

sani tepalab ketdi.

– Bundan tashqari, jamoalarning «Qoʻriqchi»lari ham bor. Ular oʻz jamoasining halqalarini himoya qilishadi. Bor gap shu.

Biroq jagʻi tolmas bolacha. kvidish maydoniga olib tushadigan qiyalikka yetguncha savol-ketidan savol yogʻdirib boraverdi. Faqat kiyinish xonasi eshigi yonidagina Garri oʻzining xira hamrohidan xalos boʻldi.

– Borib, eng yaxshi joyni egallay, – qichqirdi Kolin. boʻm-boʻsh namoyishgoh tomon yugurar ekan.

Jamoa yigʻilib boʻlgan. Ular orasida faqat Oliver Drevgina uyqusiramagan koʻrinadi. Sochi taralmagan, koʻzi shishgan Fred bilan Jorj toʻrtinchi sinf oʻquvchisi Alisiya Spinnetning ikki yonida oʻtirishibdi. Qiz ham mudragancha, asta sekin devorga suyanib bormoqda. Qolgan ovchilar Ketti Bell bilan Angelina Jonson esa bir-birining pinjiga kirib, esnashmoqda.

– E, xayriyat-ye, Garri, keldingmi? Namuncha uzoq yurding? – qichqirdi betoqat Drev. – Boshladik. Maydonga chiqishdan oldin ikki ogʻiz soʻz aytmoqchiman. Butun yoz boʻyi yangi mashq tizimini ishlab chiqish ustida bosh qoʻtirdim. Ishonchim komilki, ushbu tizim baʼzi narsalarni tubdan oʻzgartiradi...

Drev stol ustiga kvidish maydonining rangli chiziqlar, millar va turti-tuman belgilar bilan toʻlib-toshgan katta xaritasini yozdi. U sehrli tayloqchasini chiqarib, xaritaga tekizgan ediki, millar kapalak qurti kabi harakatlana boshladi. Drev yangi taktikaning oʻziga xos xususiyati toʻgʻrisida gap boshlashi bilan Fred boshini Alisiyaning yelkasiga qoʻyib, xurrak ota ketdi.

Birinchi chizma bayoniga taxminan yigirma daqiqa ketdi. Hali yana ikkita chizma oʻz navbatini kutib turibdi.

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

Garri hech narsani idrok etmayapti. Drevning gapi esa hali tugamaydigan ko'rinadi.

– Shunday qilib, hammaga hamma narsa tushunarli bo'ldimi? Kimda savol bor? – eshitildi Drevning yakun yasovchi gapi.

Mizg'ib o'tirgan Garri o'ziga keldi. U qisqagina tushida, qasrdagi nonushtada yeb o'tiradigan taomlarni aniq ko'rgan ekan.

– Menda bir savol tug'ildi, Oliver, – yangradi seskanib uyg'ongan Jorjning ovozi. – Nima uchun sen shu gapiingni kecha kunduzi, hali uyqumiz kelmagan mahalda aytib bermading?

Savol Drevga yoqmadi.

– Quloq soling do'stlarim, – dedi u, ko'zi tahdidli yarqirab. – Biz kubokni o'tgan yili qo'lga kiritishimiz kerak edi. Umuman aytganda, biz eng yaxshi jamoamiz. Afsuski, falakning biz ta'sir o'tkaza olmaydigan gardishi ila...

Garri shu zahoti o'zini aybdor his etib, tipirchilab qoldi. O'tgan yilgi final o'yini vaqtida u kasalxonada hushsiz yotgan bo'lib, o'yinchisidan mahrum bo'lgan «Griffindor» jamoasi so'nggi uch yuz yil davomida misli ko'rilmagan sharmandali hisob bilan tor-mor keltirilgan edi.

Hayajonini jilovlab olish uchun Drev gapini bir daqiqaga to'xtatishga majbur bo'ldi. O'sha so'nggi mag'lubiyat haqidagi xotira-yu, xayollar haligacha unga azob beradi, chamasi.

– O'ng qulog'ingiz-u, chap qulog'ingiz bilan eshitib qo'yingki, muqaddam o'tgan barcha mashqlarimizga nisbatan bu yil zo'r berib mashq qilamiz... Bo'ldi, ortiqcha gap-so'zni yig'ishtiring. Yuringlar, yaxshisi nazariyani amaliyotda qo'llaylik! – qichqirdi Drev va supurgisini mahkam ushlagancha, kiyinish xonasidan tashqariga chiqdi.

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

Jamoa a'zolari esnagancha, uvushib qolgan oyoqlarini bazo'r bosib, sardor ketidan ergashdi.

Ular kiyinish xonasida anchagina o'tirishgan ko'rinadi. Quyosh ancha baland ko'tarilgan, yarmi tarqagan tuman esa hamon maysa ustida osilib turibdi. Maydonga chiqqan Garri namoyishgohda o'tirgan Ron bilan Germionani ko'rdi.

– Hali tugatmadilaringmi? – hayron bo'ldi Ron.

Hali boshlaganimiz yo'q, – javob berdi Garri, do'stining qo'lidagi Katta Zaldan olib chiqilgan qovurilgan non bilan jemga¹ hasad-la qarab, – Drev bizni yangi harakatlarga o'rgatdi.

U supurgisini egarladi-da, yerdan itarilib, osmonga ko'tarildi. Tongning muzday havosi Drevning jo'shqin davatlaridan ko'ra durustroq tetiklashtirdi. Kvidish maydoni uzra uchish juda yoqimli kechdi. Garri egizaklar ortidan katta tezlik bilan uchib, o'yingohni gir aylanib chiqdi.

– Qandaydir g'alati shiqir-shiqir eshitdim. shekilli? – qichqirdi Fred burilishda.

Garri namoyishgoh tomon qaradi. Eng yuqori kursilardan birida fotoapparatini baland ko'tarib olgan Kolin uzluksiz shiqillatmoqda. U kadr ketidan kadr olar, shiqitilgan tovush esa juda kuchayib, bo'm-bo'sh namoyishgoh uzra baland yangramoqda edi.

– Men tomonga qara, Garri! Men tomonga! – ovozi bo-richa chinqirdi Kolin.

– Kim bo'ldi bu? – qiziqdi Fred.

– Bilmayman, – yolg'on gapirdi Garri, Kolindan yiroqlashish uchun tezlikni oshirib.

– Nima gap? – qovog'ini uydi Drev, yaqin kelib. – Nima uchun anavi churvaqa bizni suratga olyapti? Negadir bu menga yoqmayapti. Ehtimol, u «Slizerin» jamoasining jo-

¹ Jem (inglizcha: jam – murabbo) – quyuc shuni; meva qiyomi.

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

susidir? Yangi dasturimiz haqida xabardor bo'lishgan ko'rinadi.

– Yo'q u «Griffindor»lik, – shosha-pisha ishontirdi Garri.

– Slizerinchilarga josus kerak emas, Oliver, – dedi Jorj.

– Nega endi kerak emas ekan? – labini qimtididi Drev.

– Chunki ularning o'zlari shu yerda, – dedi Jorj imo qilib.

Maydonda qo'lga supurgi ushlagan, yashil kiyimli bir necha kishi ko'rindi.

– Muttahamlikning o'zginasi-yu, bu! Maydonga buyurtma berib, bir kunga band qilganman, men axir! – dedi Drev vajohati qaynab. Hozir quvib solamiz, ularni!

– Flint! – qichqirdi Drev «Slizerin» jamoasi sardoriga.

– Hozir biz mashq qilamiz! Men maxsus ruxsat olganman! Keting bu yerdan!

Markus Flintning tanasi Drevning tanasidan yirik.

– Drev, bu yerda hammaga joy yetadi, – javob berdi u, trollarga xos ayyor bashara yasab.

Angelina, Alisiya va Ketti ham yaqin kelishdi. «Slizerin» jamoasida qizlar yo'q. Slizerinchilar yelkama-yelka turib, griffindorchilarga tahdid solgancha, ko'zlarini qisib olishdi.

– Maydonga buyurtma berib, uni bir kunga band qilganman! – gapida turib oldi Drev, g'azab-la so'lak sachratib. – Band qilganman!

– Shunday degin, – cho'ziq javob berdi Flint. – Menda esa professor Snegging maxsus ruxsatnomasi bor, mana:

«Ushbu bilan men, professor S. Snegg, yangi «Say-yod»ni jamoa safiga kiritish zarurati tufayli «Slizerin» jamoasiga shu bugun kvidish maydonida mashq qilishga ijo-



– Jamoangizda yangi «Sayyod»? Kim ekan u, bilsak bo'ladimi? – mavzudan chalg'ib so'radi Drev.

Olti nafar bo'ydor bola ortidan murdor kulgisi cho'ziq yuzida keng yoyilgan, bo'yi nisbatan past yettinchi o'yinchi – Drako Malfoy chiqib keldi.

– Sen Lyutsius Malfoyning o'g'limisan? – so'radi Fred, Malfoyga ijirg'anib qarab.

– Qiziq, nega Drakoning otasini yodga olding, Fred? – so'radi Flint.

Uning savolidan slizerinchilar yanada keng irshayishdi.

– Qara, qanday qimmatli sovg'a yubordi u bizga.

Yettovlon slizerinchi bequsur sayqal berilgan sopining gir aylanasi bitilgan «Nimbus-2001» so'zining zarhal harflari tonggi quyosh nurida yaltiragan yap-yangi supurgilarini oldinga chiqardi.

– O'tgan oyda tayyorlangan eng so'nggi model, – sovuq ohangda ma'lum qildi Flint, supurgisidagi changni puf-lagan bo'lib. Bilishimcha, o'zining aksariyat ko'rsatkich-lari bo'yicha 2000-seriyadan ancha ustun keladi. «Sof g'a-laba» rusumli supurgiga kelsak, – dedi u, o'sha modelga mansub supurgi ushlagan Fred bilan Jorj tomon jirkanch irshayib. – Unday supurgilar bilan hovli supursa arziydi... sof tozalab!

Griffindorchilarning birortasi achchiq gapga yarasha achchiq javob qaytara olmadi. Malfoy ko'zi qisilib qolgu-day keng irshaydi.

– Qaranglar, kimdir maydonga bostirib kiribdi, – dedi Flint.

Nima bo'layotganini bilish uchun Ron bilan Germiona

yaqin kelishdi.

– Nima gap? – soʻradi Garridan Ron, Malfoyning kvidish kiyimida turganini idrok etishga kuchi yetmay. – Nima uchun oʻynamayapsiz? Bu yerda nima qilib yuribdi mana bu nusxa?

– «Slizerin» jamoasining yangi «Sayyod» iman men, Uesli. – sulohlik-la dedi Malfoy. – Oʻynamayotganlarining sodda bir sababi bor. Ular bizning jamoamizga dadam hadya etgan supurgilarni tomosha qilishmoqda.

Ron ogʻzi ochilgancha, bir qator terilib turgan supurgilarga baqrayib qoldi.

– Zoʻr, a? – soxta yoqimli ohangda soʻradi Malfoy. – Ehtimol, «Griffindor»ning ham omadi yurishib, tilla toʻplab olarsizlar. Shundan soʻng beshinchi modelga mansub «Sof gʻalaba» rusumli supurgilaringni kim oshdi savdosiga qoʻyasizlar. Ularni sotib oladigan birorta muzey albatta topiladi.

Slizerinchilar qotib-qotib kulishdi.

Biroq shuni ham taʼkidlab oʻtmoq joizki, griffindorchilarning birortasi ham jamoa tarkibida oʻynash huquqini sotib olmagan. – dedi Germiona. – Ularning har biri jamoaga, oʻz mahorati-yu. qobiliyati tufayli qabul qilingan.

Malfoyning basharasidagi manmanlik qiyofasi soʻldi.

– Sening fikringni. – tupurib yuborganday javob berdi Drako, – hech kim soʻragani yoʻq, jirkanch maglvachcha!

Malfoy qandaydir juda qoʻpol soʻz aytganini Garri darhol tushundi. Negaki uning gapidan hamma dahshatli hayajonga tushdi. Flint himoya qilish uchun Drakoni musht koʻtargan egizaklardan toʻsishga majbur boʻldi.

– Qanday jurʼat etding?! – qichqirdi Alisiya.

– Bu gapiing uchun javob berasan, Malfoy! – baqirdi Ron.

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

U kiyimining qatidan siniq sehrli tayoqchasini chiqarib, Flintning qo'li ostidan Malfoyning basharasiga yo'l-ladi.

O'yingohda momaqaldiraq yangradi. Sehrli tayoqchadan yorqin yashil zalp otildi. Taassufki, bu zalp tayoqchani teskari uchidan chiqdi va qorin sohasiga zarb yegan Ron ortga tislaniib, beli bilan maysaga quladi.

– Ron! Ron! Senga nima qildi? Lat yemadingmi?

Ron gapirish uchun og'iz juftilagan ediki, qattiq kekirdi. Og'zidan esa bir nechta shilliqqurt otilib chiqib, ko'kragiga tushdi.

«Slizerin» jamoasi qahqahlamoqdan falaj bo'ldi. Ikki bukilib qolgan Flint qulab tushmaslik uchun supurgisiga suyanib olgan. Malfoy emaklagancha yer mushtlamoqda. Griffindorchilar o'rab olishgan Ron yirik, yaltiroq shilliqqurtlar oqimini qayt etib yotibdi. Jamoa Ronga yordam bermoqchi-yu, lekin hech kim unga qo'l tekkizishga oshiqmayapti.

– Xagridning kulbasiga olib boraylik, yaqinroq, – dedi Garri Germionaga.

Qiz mardlarcha bosh irg'igach, ikkovlashib Ronni qo'l-tig'idan tutishdi-da, maydondan nari sudrab ketishdi.

Namoyishgohdan tushib, tez yetib kelgan Kolin bolalarning atrofida gir aylandi, oyoq ostida o'ralashib, Ronni tashishga xalaqit berar ekan, savol ketidan tinmay savol yog'dirishni qo'ymadi.

– Tinchlikmi Garri? Nima bo'ldi? O'rtog'ingning tobi qochib qoldimi? Sen uni tuzatib qo'yasan-u, to'g'rimi, Garri?

Yana kuchangan Ron shilliqqurtlarning navbatdagi galasini to'kdi.

– O-o-o! – zavq-la xitob qildi Kolin. – Uni sal tikroq

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

tuta olasanmi Garri? – dedi u fotoapparatini ko'tarib.

– Qoch bu yerdan Kolin! – jahl qildi Garri.

Germiona ikkovlon Ronni hovli bo'ylab, o'rmon chetiga tortib ketdi. Tez orada Xagridning kulbasi ko'rindi.

– Deyarli yetib keldik. Ron, – tinchlantirgan bo'ldi Germiona. – Hozir yordam ko'rsatishadi senga... Oz qoldi... biroz sabr qil...

Xagridning kulbasiga yigirma metrcha qolganda eshik ochilib, ostonada odam ko'rindi. Faqat u Xagrid emas balki, negadir kulbaga nafis pushti-nafarmon kiyimda kelgan Sverkarol Charuald edi.

– Yashirinamiz, tez! – pichirladi Garri, Ronni yaqin oradagi buta ortiga tortib.

Germiona ham istar-istamas bolalar ketidan ergashdi.

– Bu juda oson ish, agar uddasidan chiqa olsang, albatta! – eshitildi Charualdning baland ovozi. – Agar senga yordam kerak bo'lsa, Xagrid, meni qayerdan topishni bilasan! Senga kitobimni hadya etaman. Hayronman, nega senda haligacha o'sha kitobim yo'q. Kechqurun dastxat qo'yib, berib yuboraman. Xo'p, mayli, uchrashguncha!

Charuald artistlarga xos tarzda yurib, kulbadan nari ketdi.

O'qituvchi ko'zdan g'oyib bo'lishini kutgan Garri butalar ostida holsiz yotgan Ronni tortib chiqarib, kulba yoniga sudrab keldi-da, eshikni qattiq taqillatdi.

Eshik shu zahoti ochilib, Xagridning norozilik kasb etgan yuzi ko'rindi, biroq kim tashrif buyurganini ko'rgach, qosh-qovog'i keskin ochildi.

– Qachon mening issiq-sovug'imdan xabar olishar ekan deya, kutgan sari kutib o'tiribman. Qani ichkariga kiringlar-chi. Iye, ha?!... obbo... kiringlar... voybo'... ichkariga... obbo... Anavi hezimkash qaytib keldimi, debman.



Ostonaga qoqilmasligi uchun Garri bilan Germiona Ronni qo'ltig'idan tutishgan. Ular yakka yagona xonadan iborat kulbaga kirishdi. Xonaning bir burchagida misli ko'rilmagan katta karavot, boshqa burchagida esa o'ti o'ynab yonayotgan kamin bor. Ronni kresloga o'tqizishguncha, unga nima qilgani haqida tez aytib berilgan ma'lumotlar Xagridga kuchli ta'sir o'tkazmadi.

– Ichkarida qolganidan tashqariga chiqqani yaxshi, – xulosa qildi Xagrid, Ronga katta mis tog'ora uzatib, – Xo'sh, Ron, davom et, tortinma.

– Nazarimda, boshqa chora yo'q. Hammasi chiqib, tugaguncha sabr qilishga to'g'ri keladi, – fikr bildirdi Germiona xavotirlanib. – Hatto soz sehrli tayoqcha bilan ham amalga oshirilishi qiyin afsun edi u, singan tayoqcha bilan esa...

Ron o'tirgan joyida boshini tog'ora ustida osib oldi.

Xagrid dasturxon tuzashga kirishdi. Mezbonning Garri ni ko'rib suyungan So'yloqtish laqabli nemis dogi esa bolani boshdan oyoq yalab, so'lakladi.

– Charualdga nima kerak ekan bu yerda? – so'radi Garri, So'yloqtishning qulog'ini qashlab.

– Qudug'imdagi suv alvastisini qanday haydab chiqarish kerakligini o'rgatishga urindi, – vaysay ketdi stol ustidagi pati chala yulingan xo'rozni olgan Xagrid, choynakni stolga qo'yib. – Go'yo o'zim bilmayman, nima qilish kerakligini. Narigi dunyodan vakil bo'lib kelgan ayolni qayerdandir quvib chiqargani haqidagi quruq safsatasidan biron og'iz so'zi rost bo'lsa, mana bu choynagimni g'ajib tashlayman!

«Xogvars» o'qituvchilarini tanqid qilish Xagrid tabiatiga zid bo'lsa bordir-u, xos emas. Shu bois ham Garri unga hayron bo'lib qaradi.



VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

– Fikrimcha gaping biroz adolatsiz, – odatdagidan ko'ra balandroq ovozda javob berdi Germiona. – Axir, Dambl-dorning o'zi Charualdni ushbu lavozimga munosib nomzod deb topgan...

– Boshqa nomzod topa olmagach, ilojisiz, yagona nomzod sifatida topgan, deb aytsang, to'g'riroq bo'ladi, – dedi Xagrid, dasturxonga bir likop quyuq shinnidan tayyorlangan iris qand tortib – Ha, yagona nomzod. Falokat-la yakun topadigan bo'lmag'ur ish bo'lganidan keyin, bunday lavozimga nomzod topishning o'zi bo'ladimi? Ushbu lavozim sehrlangan degan fikr ham yo'q emas. Chindan ham agar jo'yaliroq mulohaza yuritiladigan bo'lsa, kim ayta oladi, o'sha lavozimda bir yildan ortiq ishlagan o'qituvchining ismini? Ana shunaga. Yaxshisi aytinglar-chi, kimga qarshi afsun qo'llashga urindi manavi mohir sehrgar? – dedi Xagrid Ron tomon imo qilib.

– Malfoy Germionani qandaydir yomon so'z bilan haqorat qildi, shekilli, eshitganlarning hammasi baravariga quturib ketganday baqir-chaqir qilishdi...

– Bu haqiqatan ham juda yomon haqorat, – xirilladi Ron, oqarib, terga botgan yuzini stol ostidan chiqarib, – Malfoy uni maglvachcha deb atadi, Xagrid...

Ron yana stol ostiga kirib, shilliqqurtlarning navbatdagi qismini chiqardi. Uning gapini eshitgan Xagridning jon-poni chiqib ketdi.

– Qanday jur'at etdi! – qichqirdi u, Germionaga boqib.

– Jur'at etdi, – dedi Germiona. – Bu gapning ma'nosini bilmasam-da, yomon so'z ekanini angladim...

– Sehrgarlar olamida aqlga sig'maydigan darajada haqoratli sanaladigan nihoyatda yomon so'z, – bor kuchini to'plab tushuntirdi Ron, tashqarida paydo bo'lib. – Maglvachcha iborasi sehrgarlarning nasl-nasabiga mansub bo'l-

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

magan, ota-onasi magl, ya'ni sehrgar bo'lmagan afsungarni tahqirlab, izzat-nafsoniyatiga tegish uchun tarbiyasiz kishilar tomonidan qo'llaniladigan haqoratli so'z. Malfoylar turiga mansub shunday toifa borki, o'zini hammadan ustun ko'rib, aslzoda sehrgarlar deb biladi, – Ron yo'talib, kavgiga kichkinagina shilliqqurt chiqardi-da, stol ostidagi tog'oraga tashlab, fikrini davom etdi. – Aytmoqchimanki, boadab sehrgarlarga ahamiyati yo'q, kimning nasli qanaqayu, kim kimdan kelib chiqqani. Mana misol uchun, Nevillni olaylik. U shunday sehrgarlar sulolasidan kelib chiqqanki, ta'rirlashga so'z ojiz. Biroq biroz nazoratsiz qoldirib, o'ziga qo'yib qo'ysang, qozonni ontarib qaynatishga, ovqatni esa qoshiqning sopi bilan yeyishga urinishi muqarrar.

– Buning ustiga, bizning Germionamiz uddalay olmaydigan afsun hali ixtiro qilingani yo'q, – faxr-la qo'shimcha qildi Xagrid.

Xagridning gapidan qizning ikki yuzi qip-qizil bo'ldi.

– Birovni bunday so'z bilan haqorat qilish juda yomon ish, – dedi Ron, qoshiga to'plangan terni qaltirayotgan qo'li bilan artib. – Aslzoda emas emish, qarang-a! Kulgili! Nima qilganda ham bizning davrimizda aksariyat sehrgarlar chala zot sanaladi. Agar magllar bilan nikoh qilmaganimizda, allaqachon bitta qolmay qirilib ketgan bo'lar edik.

Uning xuruji qaytalanib, yana stol ostiga kirib ketdi.

– Seni hech narsada ayblamayman. Sening o'mingda bo'lganimda xuddi shunday qilgan bo'lar edim, – atayin baland gapirdi Xagrid, shilliqqurtning tog'ora devoriga urilib, taqillatganini eshittirmaslik uchun. – Tayoqchang pand bergani bir tomondan yaxshi bo'libdi. Agar o'g'ilchasiga bunday afsun qo'llanilganini Lyutsius bilib qolsa, nima bo'lishini tasavvur qilyapsanmi? Har qalay, boshingga ortiqcha tashvish tushmaydigan bo'libdi-ku.

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

Garri gapga aralashib, mister Malfoyning nafrati oldida ichingdan shilliqqurt to'kilayotgani yomonroq demoqchi bo'ldi-yu, iris qand jag'ini sementlab qo'ygani bois gapira olmadi.

– Garri, – dedi Xagrid, to'satdan esiga bir narsa tushganday bo'lib, – sendan juda xafaman. Aytishlaricha, sen hammaga dastxat tarqatayotgan ekansan, meni esa yodingdan chiqaribsan...

G'azabi qaynagan Garrining jag'i ochilib ketdi.

– Hech qanday dastxat tarqatganim yo'q! – qizishdi u.

– Agar Charuald shu alfozda davom etar ekan...

Ana shundagina u Xagridning kulayotganini ko'rdi.

– E, hazillashdim-ye, – dedi Xagrid Garrining beliga muloyim turtib.

Bunday muloyimlikdan bolaning burni stolga urildi.

– Bilaman tarqatmaganligingni, Charualdga ham shunday dedim. Mashhurlik borasida sening changingda qolib ketadi-yu u. Garriga bunday narsalar ortiqcha, dedim unga.

– Garov bog'lashim mumkinki, bu gap unga yoqmagan.

– Turgan gap. Men unga kitoblarini qo'limga ham olmaganimni aytgan edim, xafa bo'lib, ketish taraddudiga tushib qolsa bo'ladimi. Ron, iris qand ketadimi?

– Yo'q, rahmat. Tavakkal qilmagan ma'qul.

– Yuringlar, nima yetishtirganimni ko'rsataman, – dedi Xagrid, Germiona bilan Garri choy ichib bo'lishgach.

Kulba ortidagi polizchada kattaligi yirik tog' toshiday keladigan o'ndan ortiq oshqovoq o'sibdi.

– Zo'rmi? – quvonch-la maqtandi Xagrid. – Xellouinga ataganman... o'sha vaqtga kelib qiyomiga yetadi.

– Qanday qilib bu darajaga yetkazding ularni, Xagrid? – so'radi Garri.

Davangir yaqin orada birov bor-yo'qligini bilish uchun

alanglab qo'ydi.

– Men ularga... nima desam ekan... biroz yordam berib yubordim.

Garri ko'z qiri bilan kulbaning orqa devoriga suyalgan pushti soyabonni ko'rdi. Garri ilgari ham bir qarashda oddiy ko'ringan ushbu soyabon u qadar oddiy emasligi, ichida Xagridning bir vaqtlar ikki bo'lib yuborilgan sehrli tayoqchasi borligiga shubha qilmagan. Umuman aytganda, Xagridga sehr qo'llash mumkin emas. U uchinchi sinfda o'qib yurgan kezlari «Xogvars» o'quvchilari ro'yxatidan chetlatilgan. Sababini Garri bilmaydi-yu, ushbu mavzuni ochishi bilan Xagridning yo'tali tutib, qulog'i aql bovar qilmaydigan darajada kar bo'lib qolishini biladi.

– Shishirish afsuni bo'lsa kerak, a? – taxmin qildi Germiona. – Nima ham derdim, ancha mehnat qilganga o'xshaysan.

Uning ohangida piching ko'proqmi, tasannomi, tushunib bo'lmadi.

– Kecha singling kelgan edi, – dedi Xagrid Ronga, – U ham xuddi shu gapni aytdi. Bu yerlarda nima qilib yurgani bilan qiziqib bergan savolimga, tevarak-atrofni o'rganayotganini ma'lum qildi. Nazarimda, u kimnidir qidirib yurgan edi. – U Garriga ko'z qisib qo'ydi-da, – Ana o'sha qizga dastxat...

– Tinch qo'y meni! – jahl qildi Garri.

Kulib yuborgan Ronning og'zidan otilib chiqqan shil-liqqurtlar atrofga sachradi.

– Hoy, bu yerda emas! – baqirdi Xagrid, Ronni o'zining qimmatli oshqovoqlaridan nari tortib.

Tushlik vaqti bo'lib qoldi. Tong oiganidan buyon quyuk qiyomdan tayyorlangan bir dona qanddan tashqari, hech narsa yemagan Garri qasrga tezroq yetish payiga tush-

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

di. Bolalar Xagrid bilan xayrlashib, hovlisini tark etishdi. Ron yurgan yo'lida kekirib, bir-ikki donadan shilliqqurt tupurib bordi.

Salqin vestibulga kirishlari bilan professor Makgonagallning jarangli ovozi yangradi:

– Sizlar bu yerda ekansizlar-da, Potter, Uesli, – dedi professor, bolalarga yaqinlashib. – Bugun kechqurun jazo o'tashingiz lozim.

– Nima ish qilishimiz kerak, professor? – so'radi Ron. kekirigini arang qaytarib.

– Sen o'lja olingan qurol-aslaha xonasidagi kumush buyumlarni mister Filch bilan birga tozalaysan, – javob berdi professor Makgonagall. – Sen esa Potter, professor Charualdga, muxlisalaridan kelgan xatlarga javob yozishga ko'maklashasan.

– Qanday dahsh... Professor, men ham o'lja olingan qurol-aslaha xonasiga borsam maylimi? – o'tinch-la so'radi Garri.

– Yo'q, albatta, – shartta kesdi professor Makgonagall, qoshini chimirib, – Professor Charuald aynan sen kelishingni iltimos qildi. Kechki soat roppa-rosa sakkizda ish joyida bo'lishlaring shart, yodingizda bo'lsin.

Garri bilan Ron Katta Zal tomon qayg'u-hasrat ila yo'l olishdi. Ularning ketidan borayotgan Germionaning yuzi kasb etgan qiyofadan esa: «Nimani kutgan edingiz, qoida buzgansizlar, axir!» degan gapni uqib olish qiyin emas. Garrining kayfiyati shu qadar tushib ketdiki, hatto toblab pishirilgan go'shtli kartoshka ham kutilgan darajada mazali tuyulmadi. Xuddi Ron kabi unga belgilangan jazoni toqat qilib bo'lmaydigan jazo deb bildi.

– Butun oqshom Filch bilan o'tishini tasavvur qilyapsanmi? – hasrat qildi Ron. – Boz ustiga, hech qanday sehr

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

qo'llash mumkin emas emish! O'sha xonadagi kuboklarning o'zi yuz donadan ortiq! Men esa maglehasiga tozalashni bilmayman!

– Bajonidil o'rin almashgan bo'lar edim, – dedi ruhiy tushkunlikka yuz tutgan Garri, – Dursilarning sharofati ila bu borada boy tajriba to'plaganman. Charualdning muxlisalariga javob yozish esa... dahshat...

Shanbaning qolgan qismi ko'z ochib, yumganday o'tdi. Besh daqiqa kam sakkizda Garri ikkinchi qavat yo'lagida Charualdning xizmat xonasi tomon sudralib ketdi. U soxta irshaygancha taqillatgan eshik shu zahoti ochilib, ostonada tishining oqini ko'rsatayotgan Charuald ko'rindi.


– Ana, bizning to'polonchimiz ham yetib keldi! Kir, Garri, ichkariga kir... – o'ynoqi qarshi oldi u.

Charualdning xona devoriga osib qo'yilgan son-sanoqsiz suratlari sham nurida yaraqlab turibdi. Ularning ayrimlariga surat sohibi dastxat qo'ygan. Stolda ham Charualdning dasta-dasta fotosuratlari yotibdi.

Konvertga manzil yozib o'tirishing mumkin! – dedi Charuald, xuddi Garriga juda mazali shirinlik taklif qilgandek. – Birinchi navbatda ehtirosli muxlisam Gledis Prestofilning manzilini yoz...

Daqiqalar toqat qilib bo'lmas darajada cho'zildi. Garri Charualdning to'xtovsiz davom etgan vati-kuti gapini qandaydir tovushli shovqin sifatida ko'rib, ba'zan: «to'g'ri», «m-m-m», «ha», «hm» degan ovozlari chiqarib o'tirdi. Faqat onda-sonda uning qulog'iga Charualdning «Shon-shuhrat – ishonchli do'st emas, Garri!» yoki «Yodingda bo'lsin mening g'o'r do'stim, dongdor kishiga baho, uning gap-so'ziga emas, ko'rsatgan karomatiga qarab beriladi», degan gapi eshitilib qolar edi.

Eriyotgan shamning tebranayotgan yog'dusi Charuald-



VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

ning devordagi ko'p sonli Garrini kuzatayotgan yuzlarida raqs tushmoqda. Kam deganda mingta konvertga manzil yozgan bola toliqib zirqirayotgan qo'li bilan Veronika Smeshlining manzilini yozib, uxlaydigan vaqt bo'lgani haqida xayol surib o'tiribdi.

Bir vaqt uning qulog'iga oxirigacha yonib bitayotgan shamdan chiqayotgan tovush yoki professorning bir ma'romda vaysashidan farq qilayotgan qandaydir g'alati ovoz eshitildi.

Qahrga to'lib-toshgan shunday ovoz eshitildiki, butun vujudni qamrab, tomirdagi qonni sovitib yubordi.

– Kel... Bu yoqqa kel... Seni burda-burda qilib tashlashga imkon ber... tishimni tanangga sanchib olishga, seni o'ldirishga yo'l ber...

Garri o'rnidan sapchib turib, Veronika Smeshlining manzilini nafarmon siyoh bilan bulg'adi.

– Nima?! – qichqirdi Garri.

– Ha, shunday! – dedi Charuald baland ovozda. – Rop-pa-rosa yarim yil bozori chaqqon kitoblar ro'yxatida birinchi o'rinni egallab, jamiki rekordlarni orqada qoldirdim!

– Yo'q, uni so'raganim yo'q, – qo'l siltadi Garri, – Eshitilgan ovoz kimning ovozi edi?

– Qanaqa ovoz? – tushunmadi Charuald.

– Anavi... hozir aytdi-ku... Eshitmadingizmi?

Charuald hayron bo'lib, Garriga tikildi.

– Nimalar deyapsan? Mudrab qolgan bo'lsang kerak. Oh, Oliy himmat Skotti! Soatga qara, necha bo'lganini! To'rt soatdan buyon yozib o'tiribmiz-u! Vaqt o'tganini qara-ya!

Garri indamadi. U qulog'iga zo'r berib, hozirgina eshitilgan ovozni yana bir bor bo'lsa ham eshitishga urindi-yu. Charualdning jazo o'rni bugungi kechaday tuhfa har do-

VII BOB. Maglvachcha va shivir-shivir gaplar

im ham bo'lmashligi haqida tarbiyaviy mavzuga doir allaqanday gapni tinimsiz vaysashidan boshqa ovoz eshitmadi. Hushini yo'qotish holatiga kelgan Garri Charualdning xonasini tark etdi.

Kech bo'lib, «Griffindor» fakultetining umumiy mehmonxonasi deyarli bo'shagan. Garri yotoqxonaga kirib, Ron haligacha qaytmaganini ko'rdi. U kiyimini pijamaga alishtirdi-da, ko'rparasiga yonboshlab, do'stini kutib yotdi. Yarim soat o'tgach, xonaga o'ng qo'lini ko'kragiga bosgan Ron va sayqal berish moyining badbo'y hidi kirib keldi.

– Mushaklarim zirqirayapti, – nolidi Ron, o'zini ko'rpaga tashlab. – Kvidish kubogini o'n to'rt marta tozalashga majbur qildi, yaramas! Keyin esa ko'nglim aynib, «Maktab oldida ko'rsatilgan xizmatlar uchun maxsus sovrin» ustiga shilliqqurt qayt qilib yubordim. Uni ham yuz yil tozaladim.., Charuald qalay ekan bu masalada?

Nevill, Din va Simusni uyg'otib yubormaslik uchun ovozini pastlatgan Garri Ronga Charualdning xonasida bo'lib o'tgan hodisani aytib berdi.

Oy yorug'ida Ronning qosh chimirgani ko'rindi.

– Charuald-chi, hech narsa eshitmadimi? – so'radi u, – Aldadi, deb o'ylaysanmi? Hech narsani tushunmayapman, tanasi ko'rinmas odam ovozi bo'lgan taqdirda ham bari bir eshik ochishi kerak edi-ku.

– Chindan ham shunday bo'lishi kerak edi, – dedi Garri o'zini yostiqqga tashlagancha, boshi ustidagi pardani tomosha qilib. – O'zim ham hech narsa tushunmadim.

VIII BOB. O'LGAN KUN YUBILEYI

Oktabr oyi kirib, rutubatli kunlar boshlandi. Hovlida ham qasrda ham sovuq. O'quvchi va o'qituvchilar orasida haqiqiy shamollash epidemiyasi tarqalgani bois maktab shifokori Pomfri xonimning qo'li qo'liga tegmayapti. Bemorlarga beriladigan «Qalampir damlama» bir zumda ta'sir qiladi-yu, uni ichgan kishining qulog'idan bir necha soat davomida tutun chiqadi. Jinna Ueslining rangi so'nggi vaqtda bo'zarib borayotgani bois akasi Persi o'sha dorini ichishga majbur qildi. Jinnaning olovrang malla sochi ostidan chiqayotgan tutunni ko'rgan har qanday kishi qizaloqning boshiga o't tushibdi, degan fikrga borishi aniq.

Yomg'irning yirik tomchilari qasr derazalarini kecha-yu kunduz savalamoqda. Ko'l sathi ko'tarilib, sohil bo'yi-dagi gulzor batamom yuvilib ketdi. Xagridning oshqovoqlari esa, aksincha, yayrab, shishib, har birining o'lchami bog' uychasiga yetdi. Biroq qat'iyati bukilmas Oliver Drevni hech qanday tabiiy ofat to'xtata olmaydi. Osmondan tosh yog'sa ham jamoaning mashqlarini to'xtatmay, muntazam davom ettirishga ahd qilgan. Shu bois Garri shanba kuni, Xellouin bayramiga atigi bir necha kun qolganda jiqqa ho'l, afti-angori loyga belangan holda «Griffindor» minorasiga qaytmoqda.

Jala va nihoyatda kuchli esgan shamoldan tashqari, bugun o'tgan mashq ruhiga yana bir omil salbiy ta'sir o'tkazdi. «Slizerin» jamoasining xatti-harakatlarini josuslarday kuzatib yurgan Fred bilan Jorj «Nimbus-2001» rusumli supurgilar qanday tezlik olishini o'z ko'zi bilan ko'rib qaytishgan. Egizaklar tomonidan yetkazilgan josuslik ma'lumotlariga qaraganda, «Slizerin» jamoasi havoda shunchalik tez harakatlanmoqdaki, hatto egnidagi kiyim rangini ham ilg'ab bo'lmas emish.

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

Qasrning bo'm-bo'sh yo'lagi bo'ylab shaloplab bora-yotgan Garri xayol og'ushiga o'zidan ham battar berilib ketgan. «Griffindor» minorasida kun kechirib, odatda, chehrasi doimo ochilib yuradigan «Deyarli Boshsiz Nik»ka duch keldi. Arvoh bugun negadir darg'azab qiyofa kasb etib, derazaga qilt etmay tikilgancha, g'uldirayapti:

– Talabga javob bermas ekanman-a... Atigi yarim dyum... Qarang-a!

– Salom Nik, – ko'rishdi Garri.

– Salom, salom, – g'udrandi «Deyarli Boshsiz Nik», bolaga parishonxotir qarab.

Arvohning uzun jingalak sochi odamning og'zini ochirib qo'yadigan patli shlapasi ostidan chirmashib chiqqan. Yengsiz uzun kiyimi esa dabdalasi chiqqan bo'ynini beki-tayotgan yumaloq, qat-qat taxli oppoq yoqa vositasida bezalgan. Garri ko'kish shaffof Nik orqali momaqaldiroqli os-mon va shiddat-la yog'ayotgan yomg'irni ko'rib turibdi.

Nik qo'lidagi rangsiz xatni o'rab, kamzulining kissa-siga yashirar ekan:

– Seni nimadir tashvishga solgan ko'rinadi, yosh Pot-ter, – dedi ziyrak ohangda

– Sen ham mendan qolishmaysan, – javob berdi Garri.

– Qo'yaver, arzimagan gap... – dedi «Deyarli Boshsiz Nik», qo'lini orasta siltab. – Aslida o'sha jamoaga a'zo ham bo'lmoqchi emas edim... Balki, ariza yozgan bo'lar edim-u, aniqlanishicha, men ular qo'ygan «talabga javob bermas emishman»...

Gapining ohangi beparvo bo'lgani bilan arvohning ko'zida achchiq alam ko'rindi. Daf'atan u tutaqib, kissasiga endigina yashirgan xatni shartta chiqardi-da:

– O'zing o'ylab ko'r, Garri! O'tmas bolta bilan bo'yni-ga qirq beshta zarba berilgan odam Boshsizlar ahliga a'zo bo'lishga haqi bor-u axir, to'g'rimi?

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

– E-e-em... ha, albatta, – deya rozilik bildirar qoldi Garri, tasdiq javobi kutilayotganini payqab.

– Aytmoqchimanki, o'z vaqtida amalga oshirilgan o'sha mash'um ish sof va ravon o'tishidan birinchi navbatda shaxsan o'zim manfaatdor bo'lib, boshim ham binoyidek uzilib tushar edi. O'z navbatida, ortiqcha azob-uqubatdan xalos bo'lib, mana bunday bema'ni ahvolga tushmagan ham bo'lar edim. Biroq...

«Deyarli Boshsiz Nik» qo'lini siltadi-da, achchiqlanib, maktubni o'qidi:

Jamoamizga faqat boshi tanasidan to'lu-to'kis judo qilingan odam arvohlari qabul qilinadi. Aks holda jamoa a'zolari uzilgan boshlari bilan otida o'tirib Jonglyorlik¹ qila olishmas, chavgon o'ynini ham o'ynay olishmas edi. Buni rad etmaysiz, albatta. Shu bois dilsiyohlik-la ma'lum qilishga majburmanki. Siz jamoa a'zosi oldiga qo'yilgan talabga javob bera olmaysiz.

Ehtirom ila, Ser Patrik Deluno-Podmyor

G'azabdan tutayotgan «Deyarli Boshsiz Nik» xatni yana kissasiga bekitdi.

– Bo'ynimni atigi yarim dyumgina teri va arzimaz to'mirlar tutib turibdi, Garri! Meni ko'rgan odamlarning aksariyati boshsizligimni tan olishi muqarrar. Yo'q, anavi «Boshi Risoladay Uzilgan Podmyor» uchun esa bu yetarli emas emish.

«Deyarli Boshsiz Nik» bir necha bor chuqur nafas olib, vazmin ohangda so'radi:

– Xo'sh, Garri, seni nima tashvishga solyapti? Meni yordamim kerakmi?

– Yo'q, agar senda hech kim ishlatmay yotgan yettita

«Nimbus-2001» rusumli supurging bo'lmasa, albatta. «Slizerin» jamoasi bilan o'tadigan...

Qolgan so'zlarni pastdan eshitilgan kuchli miyovlash bosib yubordi. Garri pastga qarab, skeletday ozg'in, kulrang, yarqirab turgan sariq ko'zi fonus kabi yirik missis Norris laqabli mushukni ko'rdi. Bu jonivor maktab o'quvchilariga qarshi tinimsiz kurash olib boradigan nazoratchi Argus Filchning muxtor vakili sanaladi.

– Bu yerdan ketganing ma'qul. – dedi Nik, xavotirlanib. – Bugun Filchning kayfiyati chatoq. Shamollab qolgan. O'chakishganday, uchinchi sinf o'quvchilari beshinchi yerto'laning shiftiga qurbaqa miyasini sachratishibdi. U erta tongdan buyon o'sha shiftni tozalash bilan ovora. Agar hozir sendan sizib chiqayotgan loyni ko'rib qolsa bormi...

– Turgan gap-u, – dedi Garri, missis Norrisning nigohidan nari tisarilib.

Biroq yetarlicha tez tisarilmadi, chamasi, o'ng tomonda osilgan gobelen ortidan mushugi bilan go'yo ko'rinmas arqon vositasida bog'langan, og'ir hushtak chiqarib nafas olayotgan, ko'zi tartibbuzar qidirayotgan, boshiga katak gulli sharf o'ragan, burni g'ayrioddiy qizil tus kasb etgan Filch topilib keldi.

– Loy! – baqirdi Filch, ikkinchi bag'baqasi titrab.

Garrining sport kiyimidan tomib tushgan suyuq loyni ko'rsatar ekan nazoratchining ko'zi kosasidan chiqib ketgudek bo'lib qoldi.

– Hamma joy loy, iflos bo'ldi! Yetar, bas! Pichoq borib suyakka taqaldi! Ortimdan yur, Potter!

Garri «Deyarli Boshsiz Nik»ka ma'yus qo'l siltab, polni battar kir qilgancha, Filchning ketidan ergashdi.

U hali biror marta bo'lsin Filchning xizmat xonasiga kirmagan. Bu xonani hamma chetlab o'tishga harakat qiladi. Zulmat bosgan, birorta bo'lsin derazasi yo'q xonani

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

shiftga osib qo'yilgan yakka-yagona kerosin fonus xira yoritgan. Devor yoniga har bir tortmasiga tegishli varaqa yig'indisi jamlangan baland javonlar terilgan. Varaqa yig'indilariga yelimplangan yozuvlarga qaraganda, qachon bo'lishidan qat'i nazar, Filch tomonidan chora ko'rilgan o'quvchilarga oid hujjatlar to'plami yig'ilgan. Fred bilan Jorj uchun alohida tortma ajratilgan. Yozuv stolining ortida yaltiraguncha sayqal berilgan zanjirlar-u. qo'lkishanlar kolleksiyasi osilgan.

Filch aybli ish qilgan o'quvchilarni oyog'ini osmondan keltirib shiftga osishga ruxsat so'rab Dambldorga bir necha bor murojaat qilgani hammaga ma'lum.

Filch siyohdondagi pat-qalamni olib, toza pergament qidirgancha stol titkilay boshladi.

– Go'ng, – vaysay boshladi u, nafrat bilan, – Ajdarning jirkanch, yopishqoq najasi... qurbaqa miyalari... kalamush ichagi... toqatim toq bo'ldi... yaxshilab ko'rsatib qo'ymasam bo'lmaydi, shekilli... bianka qayerda edi... ha, mana...

U pergamentning katta o'ramini chiqarib, stol ustiga yozdi-da, pat-qalamni siyohga botirdi.

– Xo'sh... Ismi... *Garri Potter*. Sodir etgan jinoyati...

– Olamshumul jinoyat! Hamma joyga loy tomizib chiqdim. Qarang-a! – xitob qildi Garri.

– Sen uchun «Qarang-a!» bo'lsa, men uchun bir soatli ortiqcha mehnat! – dedi g'azabi qaynagan Filch, yo'g'on burnining uchidagi jirkanch tomchini titratib. – Demak... Sodir etgan jinoyati... *Qasrni bulg'ab, harom qildi...* Ko'riladigan joiz chora...

Nafas yutib, qanday jazo qo'llanilishini kutayotgan bolaga yoqimsiz bashara ila yuzlangan Filch burnining namini kir qo'li bilan artgancha, ko'z qisib qo'ydi.

Pat-qalam qog'ozga yaqinlashgan fursatda shift ustida quloqni kar qilguday qarsillash eshitilib, fonus titradi.

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

– DRYUZG! – qichqirdi Filch, qo'lidagi pat-qalamni uloqtirib. – Ha, shoshmay tur, ko'rsatib qo'yaman hozir senga!

Garrini unutgan Filch oyog'ini til kabi do'pillatgancha, xonadan uchib chiqdi. Ketidan esa uning «soyasi» missis Norris ergashdi.

Dryuzg, maktabda uchib yuradigan, darg'azab, doimo ishshayib yuradigan poltergeyst bo'lib, fikr-u xayoli yagona maqsadga, u ham bo'lsa, hamma joyda tartibsizlik va vayronagarchilikni qaror toptirishga qaratilgan. Garri Dryuzgni yoqtirmasa-da, hozir rosa mavridida paydo bo'lgani uchun undan minnatdor bo'ldi. Yagona umid Dryuzgning hozirgi qilmishi Filchning Garriga bo'lgan nafratini oz bo'lsa-da, susaytiradi. Binobarin, eshitilgan tovushga qaraganda, hozir u, qandaydir yirik o'lchamli buyumni chilparchin qilgan, chamasi.

Nima qilganda ham Filchning qaytib kelishini kutishga ahd qilgan Garri yozuv stoli yonidagi kuya yegan divanga o'tirdi. Stol ustida oxirigacha rasmiylashtirilmagan blankadan tashqari yana bir narsa, kattagina, yaltiroq, manzili kumushrangda yozilgan qirmizi konvert yotibdi. Filchning hali qaytib kelmaganligiga ishonch hosil qilish uchun eshik tomon tez qarab qo'ygan Garri stol ustidagi konvertni qo'lga olib, o'qidi:

«Tez tilsim. Endigina boshlovchilar uchun sehrgarlik. Kirishish kursi»

Qiziqsingan Garri konvertni ochdi-da, ichidagini chiqarib, chirmash yozilgan satrlarni o'qidi.

Bugungi afsun dunyosida o'zingizni noqulay his etyapsizmi? Oddiy afsundan foydalanmaslik uchun har qanday vaj-bahona qidirypsizmi? Atrofingizdagi odamlarning fikricha, sehrlı tayoqcha vositasida bajarayotgan ishlaringiz

dag'al kechmoqdam?

Siz boshdan kechirayotgan muammolar-u, g'am-tashvishning yechimi bor!

«Tez tilsim» – yutqiziqsiz, natijali, o'zlashtirilishi oson kechadigan yangi kurs! Yuzlab, minglab sehr-gar-u, afsungarlar ushbu kurs yordamida o'z tashvishlaridan xalos bo'lishdi!

Topshemlik Z. Yig'loqi xonim yozmoqda:

«Xotiram juda yamon. Biron-bir afsun formulasini eslab qola olmayman. Men tayyorlagan har qanday damlama yaqinlarimni kuldirib, ichagini uzar edi. Hozir-chi, «Tez tilsim» kursini o'zlashtirgach, barchaning diqqat-e'tibor markazidan joy olganman. Do'stlarim bunday muvaffaqiyatimning sir-asrorini so'rab, holi-jonimga qo'yishmaydi!»

Vogif D. Jey iqrar bo'lmoqda:

«Men qo'llagan sehr-joduni ko'rgan xotinim burnini jiyirib o'tar edi, xolos. Havola etilgan ushbu ajoyib kursda tahsil ko'rishga majbur bo'ldim. Atigi bir oy o'lgach, xotinimni mot qilib, o'zini kulgiga qo'ydim! «Tez tilsim»ga katta rahmat!».

Tetiklashib ketgan Garri qolgan xatlarni ham tez ko'rib chiqdi. Qiziq, Filchga «Tez tilsim» nimaga kerak bo'lib qoldi? Nima, u haqiqiy sehr-gar emasmi? Garri endigina «Birinchii dars: tayoqchani to'g'ri ushlash (foydali maslahatlar)»ni o'qishga kirishgan ediki, eshik ortida eshiktilgan qadam tovushi Filchning qaytib kelayotganidan dalolat berdi. U pergament varaqlarini konvert ichiga tez joylab, stol ustiga tashladi.

Eshik ochilib, turqidan muzaffariyat yog'ilib turgan Filch ko'rindi.

– O'zidan o'zi gum bo'ladigan o'sha javon juda qimmat edi! – zavqlanib gapirdi u missis Norrisga. – Bu safar

Dryuzg vaj-korson qila olmaydi qadrl...

Uning nigohi stol yonida o'tirgan Garri bilan «Tez til-sim» kursi joylangan konvertga tushdi. Bola shoshib qolganidan konvertni muqaddam yotgan joyidan uzoqroq tashlab qo'ygan ekan.

Filchning rangpar nusxasi shu zahoti pishgan g'isht tusini kasb etdi. Nafrat to'lqinini sezgan Garri vujudini g'uj qildi. Stolga tashlangan Filch konvertni changallab, yashik ichiga tashladi.

– O'qidingmi?...

– Yo'q, – aldadi Garri.

Filchning g'adir-budur barmoqlari bir-biriga asabiy o'raldi.

– Agar shaxsiy yozishmalarimni o'qishga jur'at etgan bo'lsang, garchi bu menga emas, o'rtog'imga yo'llangan bo'lsa-da... bir sabab bilan menga kelib qoldi... bari bir...

Garri unga xavotir-la qaradi. Filch hali bu qadar xijolat tortmagan. Uning yorilib ketishiga oz qolgan ko'zi kosasi-dan chiqib, osilgan lunjida asab tolasi titrar, hatto katak gulli sharf ham foydasiz ko'rinar edi.

– Yaxshi, bor. Birovga churq etma. Garchi o'qigan-o'qimaganingni ahamiyati bo'lmasa-da... Dryuzg ustidan ariza yozishim kerak. Bor!

Omadi yurishganiga ishonmagan Garri yo'lak bo'ylab yugurgancha nari ketdi. Filchning huzuridan jazoga tortil-may qutulib chiqish holatini o'ziga xos rekord deb bilsa bo'ladi.

– Garri! Garri! Xo'sh, qalay? Yordami tegdimi?

Devordan «Deyarli Boshsiz Nik» chiqib keldi. Chama-si, ancha katta balandlikdan qulab tushgan yirik o'lchamli qora javonning tilla suvi yuritilgan parchalari arvoHning ta-nasi orqali ko'rinib turibdi.

Filchning chiqishiga ushbu qilib, uning xosini yoki...

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

ridagi mana bu javonni ontarib tashlashga Dryuzgni ko'ndira oldim, – ilhomlanib gapirdi arvoh.

– Seni ishingmidi bu? – hayratlandi Garri. – Albatta, yordam berdi. Meni hatto jazoga ham tortmadi. Rahmat, Nik!

Ular yo'lak bo'ylab birga ketishdi. Arvoh haligacha ser Patrikdan olgan maktubni qo'lida aylantirib bormoqda.

– Afsus, Boshsizlar ahliga a'zo bo'lish borasida senga hech qanday yordam ko'rsata olmayman-da, – xayrixohlik bildirgan bo'ldi Garri.

«Deyarli Boshsiz Nik» xuddi oyog'i yerga ko'mib qo'yilganday havoda turib qoldi. Xayolga cho'mgan Garri esa uning tanasi orqali o'tib ketdi. Bu yoqimsiz his bo'lib, kishi xuddi muzday suv pardasi orqali o'tib ketganday bo'ladi.

– Mulohaza yuritib ko'radigan bo'lsak, chindan ham men uchun urinib ko'rishing mumkin, – quvonch-la xitob qildi Nik. – Garri, sendan bir narsani iltimos qilmoqchiman-u, ko'nmasang kerak, deb o'ylayman.

– Nimani?

– Bilasanmi? Xellouin bayrami bilan bir vaqtda o'lgan kunimning besh yuz yilligini nishonlamoqchiman, – dedi arvoh, viqor-la ko'krak kerib.

– O'lgan kuningni nishonlamoqchisan?

– Ha. Xuddi tug'ilgan kun kabi.

– Shunday degin? – dedi Garri, bunday hollarda tabriklash kerakmi, hamdardlik bildirish kerakmi, bilmay va: – Tushundim.

– Shu kun sharofatiga kengroq yerto'lalardan birida ziyofat bermoqchiman. Unga yurtimizning jamiki burchaklaridan do'stlarim tashrif buyurishadi. Sening tashrifing ham men uchun katta sharaf. Tabiiyki, mister Uesli bilan miss Grenjerni ham ko'rsam juda xursand bo'laman. Biroq

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

sizlarni maktabning bayram ziyofati ko'proq qiziqтира ke-
rak? – dedi Nik, Garining javobini intizorlik-la kutib.

– Qo'ysang-chi, – tez javob berdi Garri. – Men, albatta,
kelaman.

– Qadrdonim! Garri Potter – mening o'lgan kunim yu-
bileyida! Ha, yana bir narsa, – dedi, iltimos qilishga ikki-
langan arvoҳ. – Ser Patrik bilan o'tadigan suhbating davo-
mida meni nihoyatda dahshatli, mudhish ekanimni gap ora-
sida ta'kidlab o'ta olasanmi?

Alba... albatta, – g'o'ldiradi Garri.

«Deyarli Boshsiz Nik» yarqirab ketdi.

Garri nihoyat yuvinib, taranib, kiyimini almashtirib,
umumiy mehmonxonada o'tirgan Ron bilan Germionaga
kelib qo'shilgach, marosimga taklif qilinganini aytdi.

– O'lgan kun yubileyi? – xitob qildi Germiona. – Ont
ichamanki, tiriklar orasida bunday bayramga tashrif buyur-
ganlar topilmaydi! Axir, bu juda ajoyib-ku!

– Odam degan o'zining o'lgan kunini ham nishonlaydi-
mi? – vaysadi sehrli damlamalar tayyorlash fanidan beril-
gan uy vazifasini bajarib o'tirgani uchun ham kayfiyati yo-
monlashgan Ron. – Kishining ich-ichiga sitam o'tkazib yu-
boradi-ku. Nazarimda...

Jala hamon deraza savalab, kun battar qorong'ilashib
borsa-da, mehmonxonada yorug' va shinam muhit hukm
surmoqda. Kaminda yonayotgan gulxan griffindorchilar ki-
tob o'qib, suhbat qurib, uy vazifasini bajarib o'tirgan lo'p-
pigina kreslolarga olachalpoq shu'la tashlamoqda. Fred
bilan Jorj doktor Filibusterning suvdan olovsiz otiladigan
mushaklaridan birini salamandruga¹ yedirishga urinish-
moqda. Olovda yashaydigan, tanasi yarqirayotgan ushbu

¹ Salamandra (yunoncha: salamandra) – 1) suvda va quruqlikda yashovchilar turkumiga
kiruvchi, uzun dumli, kaltakesakka o'xshash jonivor. 2) Afsonaga ko'ra, o't ichida
tug'iladigan va o'tda yashaydigan maxluq (bu yerda chu ma'noda kelgan).

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

malla rang jonivorni Fred sehrli hayvonlarni parvarish qilish darsida o'tkaziladigan tajribadan «qutqarib» qoldi. Endi u bir guruh qiziquvchilar o'rab olgan stol ustida buruqsab yotibdi.

Garri do'stlari Ron va Germionaga Filch bilan «Tez til-sim» kursi haqida gapirib berish uchun endigina og'iz juftlagan ediki, kutilmaganda havoga shiddat-la ko'tarilgan salamandra xona ichida uchqun sachratib, portlab uchgancha, quturganday gir aylana boshladi. Persining ukalariga tomog'i xirillab qolguday qichqirayotgani, salamandraning og'zidan otilayotgan mandarin rangli yulduzchalar favvora-si, jonivorning kamin ichiga kirib, baland portlashi Garri-ning xayolidan kishini zeriktiradigan o'sha Filchni ham uning konvertini ham batamom chiqarib yubordi.

Xellouin bayramiga yaqin qolganida Garri «Deyarli Boshsiz Nik»ning o'lgan kun yubileyida ishtirok etishi borasida shosha-pisha va'da berib qo'yganidan afsus qildi. Hamma bo'lg'usi bayram ziyofatini o'ylab lazzatlanmoqda. Katta Zal har doimgidek tirik ko'rshapalaklar bilan yasatilgan. Xagrid yetishtirgan bahaybat oshqovoqlardan shunday fonuslar tayyorlanganki, har birining ichiga katta yoshdagi kishilarning uch nafari bemalol sig'adi. Buning ustiga, Dambldor, bayram tantanalariga raqqos skeletlar truppasini taklif qilibdi degan mish-mish gap tarqalgan.

– O'lgan kun yubileyiga kelaman deb va'da bergansan. Va'daga vafo qilmoq darkor, – dedi Germiona, nasihatomuz ohangda.

Kechki soat yettida Garri, Ron va Germiona odam to'lgan, oltin likoplar va kumush qandillar yaraqlab turgan Katta Zalning eshigi yonidan o'tib, yerto'la tomon yo'l olishdi.

«Deyarli Boshsiz Nik» sharofatiga imlama kecha o't-

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

kaziladigan xona tomon olib boradigan yo'lak shamlar vositasida yoritilgani bilan, bunday yorug'lik shodmonlikdan yiroq kayfiyat ulashmoqda. Uzun, ingichka, ko'mirdek qopqora mum shamlar yorqin ko'krang bergancha yonib, tirik kishining yuziga ham narigi dunyoning shaffof shu'lasini tashlaydi. O'sha xona tomon qo'yilgan har bir qadam sovuqlikka eltmoqda. Garrining eti junjikib, kiyimiga zichroq o'ranib oldi. Daf'atan katta sinf taxtasini go'yo mingta tirnoq timayotgan tovush eshitildi.

– Bu nima, ularning musiqasimi? – pichirladi Ron.

Bolalar muyulishga o'tib, qora baxmal bilan chiroyli to'sib qo'yilgan eshik o'mida turgan «Deyarli Boshsiz Nik»ni ko'rishdi.

– Qadrdon do'stlarim, – dedi u, bolalarni marhum ovozi ila qarshi olib, – Xush kelibsiz... Qadamingizga hasanot. Kelganingizdan juda mamnunman.

Arvoh boshidagi patli shlapani yechib, ta'zim qilgan-cha, ichkariga imo qildi.

Ichkarida kishi yodidan chiqmaydigan manzara. Yerto'la sadafdek oppoq, shaffof odamlarga to'lib-toshgan. Ularning aksariyati raqs maydonida, o'ttiztacha musiqa arsasining vahimali g'uvillagan sadosi ostida sirpanishmoqda. Orkestr xonaning qora baxmal bilan bezalgan eng baland joyiga joylashib olgan. Zal shiftiga osilgan yirik shamdondagi mingdan kam bo'lmagan qora shamlar tun yarmiga xos nur sochib turibdi. Nafaslari bug'lanib chiqayotganini ko'rgan bolalar muzlatish kamerasiga kirganday his etishdi o'zlarini.

– Yuringlar, atrofni tomosha qilaylik, – taklif qildi Garry, oyoq isitishni ko'zlab.

– Ehtiyot bo'l, birortasi orqali o'tib ketma tag'in, – xavotir-la ogohlantirdi Ron.

Bolalar raqs maydoni doirasining cheti bo'ylab yurish-

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

di. Ular ma'yus rohibalar guruhi, juldur kiyimli, zanjirband kishi, xufflpuffchilarning doimo quvnoq Semiz Rohibini ko'rishdi. Rohib peshanasiga kamon o'qi sanchilib qolgan qandaydir ritsar bilan jonli suhbat qurmoqda. Ko'z chanog'i bo'm-bo'sh, yuzi mudhish, egnidagi kiyimi kumush tusli qonga belangan slizerinchilarning dahshatli arvohi «Qon-xo'r Baron»ni barcha mehmonlar chetlab o'tayotganini ko'rgan Garri xursand bo'ldi.

– O, yo'q, – dedi Germiona, taqqa to'xtab, – boshqa tomonga buriylik. Men G'amgin Mirilga duch kelmoqchi emasman.

– Kim bilan? – so'radi Garri, shoshilinch ravishda nari ketishgach.

– U birinchi qavatdagi qizlar xonasiga unitaz¹ ichidan chiqib keladi, – tushuntirdi Germiona.

– Unitazdan chiqib keladi?

– Ha, unitazdan. Hojatxona o'tgan yili ham bu yil ham ishlamadi. Negaki Mirtning doimo xuruji tutib, muntazam suv bostirib boradi. Men u yerga, istisno hollardan tashqari, umuman kirmayman. Boshing uzra kimdir uvillab turishini toqat qilib bo'lmaydi...

– Qaranglar, yegulik! – dedi Ron.

Zalning ikkala tomoniga uzun stollar qo'yilgan bo'lib, ustiga qora baxmal yozilgan. Bolalar ishtiyoq bilan yaqin borishdi-yu, shu zahoti orqaga tisarilishdi. Dasturxonga tortilgan taomlardan badbo'y hid urmoqda. Kumush likoplarda sasigan baliq, patnislarda kuygan pirog uyumi yotibdi. Dasturxonga asosan qo'y qorni va ichagidan tayyorlangan qurtlagan taom (xaggis), shuningdek, yashil mag'or bosgan qalin pishloqlar tortilgan. O'rta esa o'lchamli katta qabr toshi shaklida tayyorlangan kulrang tort qo'yilgan bo'lib,

¹ Unitaz - hojatxonada axlatlar oqib ketadigan maxsus qurilma.

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

unga qora shakar-qiyom bilan qabr yozuvi yuritilgan:

Ser Nikolas de Mimsi-Porpinyon

1492-yil 31-oktabr kuni vafot etgan

To'ladan kelgan bir arvoh stol yoniga kelib, cho'k-kaladi-da, og'zini katta ochgancha, yarim egib olgan oyoq-da yurib, go'shti qizil sassiq baliqdan (lososdan) tayyorlangan taom orqali o'tdi. Buni ko'rgan Garri hang-mang bo'ldi.

– Taom orqali o'tsangiz, uni yeganday bo'lasizmi? – so'radi Garri o'sha arvohdan.

– Shunday desa ham bo'ladi. – javob berdi arvoh, nari uchib.

– Nazarimda, ta'mi va hidi o'tkirroq bo'lgani uchun ham ularga sasigan, aynigan taomlar ko'proq yoqadi, – ni-manidir anglab yetganday fikr bildirdi Germiona, irigan xaggisni tuzukroq ko'rish uchun burnini mahkam yopib, egilgancha.

– Ehtimol, nari ketarniz, yo'qsa ko'nglim aynib, qayt qilib yuboraman, – dedi Ron.

Ular endigina buriilishgan ediki, stol ostidan kichkina-gina odanacha uchib chiqib, bolalarning ro'parasida mual-laq osilib qoldi.

– Salom, Dryuzg, – xavfsirab salomlashdi Garri.

Arvohlardan farqli o'laroq, poltergeyst¹ oqish shaffof emas. U o'zining qiyshiq kiyib olgan yorqin malla rangli qog'oz shlapasi, jirkanch rangli kapalak nusxa galstugi va darg'azab ishshayishi bilan rangli dog' ko'rinish berib, qol-ganlardan ajrab turadi.

– Xo'sh, biron narsa yeb ko'ramizmi? – taklif qildi

¹ Poltergeyst – rivoyatlarga qaraganda, shovqin-suron, idish-tovoqlarni sindirish bilan o'zining kelganligini bildiradigan sirli arvoh. Arvohning bu tun odatda nohaq o'ldirilgan odanining ruhi ko'rinishida bo'ladi.

Dryuzg, xush eshitiladigan ohangda.

U qo'liga mog'or bosgan yer yong'oq solingan likop ushlab olgan.

– Yo'q, rahmat, osh bo'lsin, – rad etdi Germiona.

– G'amgin Mirtl haqida bildirgan fikringni eshitib qoldim, – dedi ko'zida makkorlik uchquni ko'ringan Dryuzg.

– Bechora qiz to'g'risida shu qadar qo'pol gap aytildiki...

U chuqur nafas oldi-da, ovozi boricha qichqirdi.

– HOY! MIRTL!

– Keragi yo'q, Dryuzg, gapimni aytma unga, xafa bo'ladi, – umidsiz shivirladi Germiona. – Men u haqda biron-bir yomon fikrda emasman. umuman men u haqda gapirganim yo'q. O, salom Mirtl.

Bolalar oldiga bo'yi past, yelkasi keng qizning arvohi sirpanib keldi. Uning yozilgan sochi va shishasi qalin ko'zoynagi ortidagi yuzi Garri ko'rgan boshqa arvohlarning yuziga nisbatan g'amgin.

– Nima deysan? – dedi u, qovog'ini solib.

– Yaxshi yashayapsanmi, Mirtl? – so'radi Germiona, soxta tetik ohangda. – Hojatxonadagi uchrashuvlarimiz menga yoqadi.

Mirtl istehzoli kulib qo'ydi.

– Yaxshi «yashayapman».

– Missis Grenjer hozirgina seni eslab o'tdi, – dedi Dryuzg va tilyog'lamalik bilan Mirtlning qulog'iga nimalardir pichirladi.

– Men faqat... men... bugun Mirtlning ko'rinishi chakki emas dedim, xolos, – dedi Germiona Dryuzg tomon o'qrayib qarab.

Mirtl Germionaga shubha ila boshdan oyoq qarab chiqdi.

– Sizlar mening ustimdan kulyapsiz, – dedi u ko'zi yoshga to'lib.

– Yo'q, men bugun Mirtning ko'rinishi chakki emas dedim. Shunday dedimmi? – dedi Germiona Garri bilan Ronning biqiniga niqtab.

– Ha, ha, albatta.

– Ha, shunday dedi.

– Yolg'on gapirmang, – pichirladi Mirtl, ko'zidan shashqator yosh oqib.

Dryuzg esa uning ortiga o'tib olib, quvnoq hiringlagancha, havoda osilib turdi.

– Orqamdan nimalar deyishingizni bilmaydi, deb o'ylaysizmi? Semiz Mirtl! Badbashara Mirtl! Mishig'ini eplay olmaydigan yig'loqi, ayanchli Mirtl!

– «Yuzini husnbuzar bosgan Mirtl»ni ham unutma, – eslatdi Dryuzg, orqada turib.

Yuzi alamdiyda qiyofa kasb etgan G'amgin Mirtl burnini tortgancha, yerto'lani tark etdi. O'z qilmishidan quvongan Dryuzg uning izidan uchib, «Husnbuzar bosgan Mirtl!», «Husnbuzar bosgan Mirtl!» deya qichqirgancha, orqasiga yer yong'oq uloqtirib bordi.

– Qanday dahshat, – dedi Germiona ma'yus ohangda.

«Deyarli Boshsiz Nik» xaloyiq orasidan bolalar oldiga yaqinlashdi.

– Zerikmadingizmi? Xursandchilik qityapsizmi? – so'radi u.

– Ha, albatta, – yolg'on gapirishdi bolalar.

– Kecha yomon o'tmayapti, – g'urur-la ma'lum qildi Nik, – Qaynatilgan Beva, tasavvur qiling, Kentdan yetib kelibdi! Xo'sh, so'zga chiqadigan vaqt bo'ldi. Borib orkestrni ogohlantiray...

Biroq «Deyarli Boshsiz Nik»ning gapi tugamasidan orkestr shundoq ham kuy chalishdan to'xtadi. Ov burg'usining tovushini eshitgan bolalar, ushbu kechaga tashrif buyurgan boshqa mehmonlar katta jiri bo'lib, qiziqib an-

rofga alanglashdi.

– Yetib kelishdi, – ma'yus pichirladi «Deyarli Boshsiz Nik».

Yerto'laga, o'n ikkita ot arvohi devordan o'tib, bostirib kirdi. Har birini bittadan boshsiz chavandoz viqor-la egarlab olgan. Yig'ilgan mehmonlar chavandozlarni gulduros qarsaklar bilan qarshi olishdi. Garri ham qarsak urdi-yu, Nikning qiyofasiga e'tibor qilib, bas qildi.

Otlar yugurgancha, raqs maydoni doirasining qoq markaziga kirib borishdi-da, old tuyoqlariga kuch bilan tayanib, orqa oyoqlarini biroz egib, keskin to'xtashdi. Ov burg'usini chalayotgan uzun soqolli boshni qo'ltiqlab olgan zabardast arvoh otliqlar guruhini boshqarmoqda. U otdan sakrab tushib, hammani kuldirgancha, atrofni ko'rib chiqish uchun qo'lidagi boshni baland ko'tardi, so'ng uni yelkasiga joylab, tikka «Deyarli Boshsiz Nik» tomon yo'l oldi.

– Nik! – gumburlagan ovoz-la xitob qildi mehmon, – Ishlar qalay? Boshing hali uzilib tushmadimi?

Qahhaha otib kulgan chavandozlar sardori «Deyarli Boshsiz Nik»ning yelkasiga urib qo'ydi.

– Xush kelibsan, Patrik, – zo'riqib salomlashdi Nik.

– TIRIKLAR! – to'satdan qichqirdi ser Patrik, barmog'ini Garri, Ron va Germiona tomon o'qtagancha, soxta qo'rquv-la ortga baland sapchib.

U atayin shunday qildiki, yelkasidagi boshi boz uzilib tushdi. Ser Patrikning qilig'ini ko'rgan xaloyiq kulaverib, yumalab qoldi.

– Juda kulgili, – ma'yus izohladi «Deyarli Boshsiz Nik».

– Nikka e'tibor qilmang, – qichqirdi ser Patrikning yerda yotgan boshi, – U, Boshsizlar ahliga qabul qilishmayotgani uchun ham xafa bo'lib yuribdi! Biroq meni to'g'ri tushunishlaringni istar edim. Agar unga diqqat bilan razm solinsa...

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

– Nazarimda, – tez gapga aralashdi Garri, Nikning purma'no nigohiga e'tibor qilgach, – Nik juda... dahshatli... va m-m-m...

– Ha! – chiyilladi ser Patrikning boshi, – Garov o'ynashim mumkinki, bu gapni aytishingni Nikning o'zi iltimos qilgan sendan!

– Janoblar, diqqat! So'zga chiqish vaqti keldi, – baland ovoz-la e'lon qildi «Deyarli Boshsiz Nik», ko'k proyektorning sovuq nuri bilan yoritilayotgan davra o'rtasidagi supa ustiga chiqib.

– Hurmatli marhumlar! Xonimlar va janoblar! Chuqur qayg'u ila...

Biroq hech kim hech narsa eshitayotgani yo'q. Ser Patrik o'z sheriklari bilan bosh tepib, futbol o'ynashga kirishgach, mehmonlarning hammasi beixtiyor ularga yuzlandi. «Deyarli Boshsiz Nik» harchand urinmasin, hech kimning e'tiborini o'ziga jalb eta olmadi. Ser Patrikning boshi qu-log'i yonidan uchib o'tib, hamma hayratdan xitob qilgach, natijasiz urinishini bas qilgan Nik qo'lini siltadi.

Bu vaqtga kelib, Garri, ochlikdan tashqari, qattiq sovgotganini ham sezdi.

Orkestr yana o'z musiqasini boshlab, arvohtar raqs maydoniga qaytishdi.

– Ortiq bardosh bera olmayman, – g'o'ldiradi Ron, tishi tishiga tegmay.

Ular asta-sekin chiqish eshigi tomon chekinib, e'tibor qilgan har bir arvohta bosh egishgancha, irshayib borishdi. Bir daqiqa o'tar-o'tmas bolalar qora shamlar yoritib turgan yo'lak bo'ylab tez odimlab, yuqoriga chiqishdi.

– Ehtimol, pudingni hali oxirigacha yeb bitirishgan yo'qdir-a, – dedi hammadan oldinda borayotgan Ron umid bilan.

Ular zinadan vestibulga ko'tarila boshlagan ediki, bir-

dan Garrining qulog'iga:

– ... sanchib olay... burda-burda qilib... o'ldirishga...-
so'zlari eshitildi.

Bu Charualdning xonasida qahr to'la ohangda eshitilgan, vujudni qamrab olib, tomirdagi qonni sovitadigan o'sha ovoz...

Garri orqaga tislaniib, to'xtadi. Devorni ushlab, qulog'iga zo'r bergancha, ko'zini qisib oldi-da, atrofga, g'irashira yoritilgan yo'laklarga razm solib, alangladi.

– Garri, senga nima qildi?

– Yana o'sha ovoz. Bir pas jim turinglar...

– ... och qoldim... uzoq vaqtdan buyon...

– Quloq soling! – zo'riqib buyurdi Garri.

Ron bilan Germiona unga tikilishgancha, turgan joylarida qotishdi.

– ... o'ldirmoq... o'ldirmoq vaqti yetdi...

Ovoz tobora bo'g'iq eshitilib, yuqoriga ko'tarilgancha, nari ketayotganiga Garri shubha qilmadi. Uning vujudida dahshat bilan hayojon uyg'unlashib ketdi. Bola qorong'i shiftga qarab, ovoz qay tarzda yuqoriga ko'tarilishi mumkinligi haqida o'ylanib qoldi. Ehtimol, bu, toshdan tayyorlangan shift to'siq bo'la olmaydigan xayolot ovozidir?

– Anavi tomon yuramiz! – baqirdi Garri, zinadan ko'tarilgancha, vestibul tomon yugurgancha.

Katta Zaldan eshitilayotgan shovqin tufayli boshqa bi-ron-bir ovozni ilg'ab olish amri mahol. U marmar zina bo'ylab zing'illagancha birinchi qavatga chiqdi. Ron bilan Germiona Garrining ketidan tentirab borishdi.

– Garri, qayoqqa ketyapmiz...

SHSHSH!

Garri yana qulog'iga zo'r berdi. Eng yuqori qavatdan, har soniya o'tgan sari sustlashib borayotgan bo'g'iq ovoz

eshitilmayotgan...

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

– ... qon hidini his etyapman... qon hidini...

Garrining qorin sohasida nimadir burishib ketganday bo'ldi.

– Kimnidir o'ldirmoqchi u! – qiehqirdi u, hang-mang bo'lib qolgan do'stlariga e'tibor qilmay.

Garri zinaning uchtadan pog'onasini oshib o'tgancha, yana yugurdi. O'z qadami chiqarayotgan gumbur-gumbur tovush orasida o'sha ovozni farqlab olishga urindi...

U ikkinchi qavat bo'ylab g'izilladi. Hansirab qolishgan Ron bilan Germiona esa Garrining izidan to'xtamay yugurishdi. Nihoyat so'nggi muyulishga burilib, xilvat yo'lakka yetib kelishdi.

– Garri, tushuntirib bersang-chi, nima bo'lyapti o'zi? – so'radi holdan toygan Ron, ter bosgan yuzini artib. Men hech narsa eshitmadim...

Daf'atan oh urgan Germiona qo'lini uzatib, yo'lakning narigi boshiga o'qtadi.

– Anavi tomonga qarang!

Devorda nimadir yiltiradi. Bolalar qorong'ilikka sinchiklab qarab, yaqin borishdi. Ikki deraza o'rtasidagi devorda har birining bo'yi qariyb bir metrdan keladigan harflar bilan naridan-beri yozilgan, yonayotgan mash'alalar nuridan xira yarqirab ko'rinayotgan so'zlar ko'rindi:

MAXFIY XONA YANA OCHILDI.

YORIS AG'YORLARI, EHTIYOT BO'LING.

– Anavi... osilib turgan narsa... nima ekan? – so'radi Ron, titragan ovozda.

Ular mayda qadam tashlab, osib qo'yilgan jismdan ko'z uzmay, yozuv tomon yaqin borishdi. Polni suv bosgan. Garri sirpanib, Ron bilan Germiona tutib qolishmaganida shalabbo bo'lishiga bir baxya qoldi. Osilib turgan narsa nima ekanini uchovlon birdan anglab, suvni shapillatgan-

VIII BOB. O'lgan kun yubileyi

cha, baravariga ortga tislandi.

Yog'ochday qotib, katta ochilgan ko'zi allaqayerga qarab qolgan missis Norris mash'ala tutqichiga dumidan osib qo'yilgan.

Bir necha soniya davomida uchala boladan birortasi qilt eta olmadi. Nihoyat Ron tilga kirdi.

– Bu yerdan tez juftak rostlashimiz kerak.

– Ehtimol, mushukka yordam... – dedi Garri, xijolat tortib.

Ishon menga, – gapni kesdi Ron. – Agar bizni shu yerda ko'rishsa, o'zimizga yomon bo'ladi.

Biroq kech bo'ldi. Uzoqda, momaqaldiraq kabi gumburlab yangragan tovush bayram tadbirlarining nihoyasiga yetganini anglatdi. Bolalar turgan yo'lakning ikkala tomonida zinalardan ko'tarilayotgan yuzlab qadam tovushlari, mazali taomlarga to'yib olishgan baxtli ovozlari eshitilib, xayol o'tmay atrof o'quvchilarga to'ldi.

Vati-vuti, kulgi, to'polon birdaniga tindi. Hammaning nigohi osilib turgan mushukka qaragan. Yo'lakning o'rtasidagi Garri, Ron va Germiona go'yo yakkalatib qo'yilgan, ko'zga ko'rinmas doira o'rtasida turib qolishganday. Ushbu doira chetiga yaqin kelganlarni esa nima bo'lganini bilishga qiziqayotgan orqadagi odamlar turtishmoqda.

Daf'atan kimdir baqirib, jimlikni buzdi:

– Voris ag'yorlari, ehtiyot bo'ling! Maglvachchalar, navbat sizlarga yetdi!

Bu Drako Malfoyning ovozi. Odatda, rangpar yuziga hozir qon yugurib oldinga turtinib chiqqan Malfoy ot tumshug'iga o'xshash cho'ziq basharasiga jirkanch kulgisini yoyib, qilt etmayotgan mushukka olazarak ko'zi bilan murdor tikilib qoldi.

IX BOB. DEVORDAGI QO'RQINCHILI YOZUV

– Nima bo'ldi? Tinchlikmi?

E'tiborini Malfoyning qichqirig'i jalb etganiga shubha qilmasa ham bo'laveradigan Argus Filch o'quvchilar orasidan o'tib kelib, missis Norrisning holatini ko'rdi-yu, o'zini tashlab yubordi. Orqada turgan bolalar uni bazo'r tutib qolishdi.

– Mushugim! Mening mushukkinam! – hushiga kelib, chiyillay ketdi u, – Missis Norrisga nima qildi?

Uning telba nigohi Garrida to'xtadi.

– Sen! Sen o'ldirgansan mushugimni! Sen o'ldirding! – jazavasi tutib, baqirdi Filch, – endi men seni o'ldiraman! Men...

– Argus!

Jinoyat joyiga boshqa o'qituvchilar bilan birga yetib kelgan professor Damblдор Garri, Ron va Germionani tez aylanib o'tib, mash'ala tutqichiga osilgan missis Norrisni yechib oldi.

– Men bilan yuring Argus, – dedi u Filchga. – Sizlar ham mister Potter, mister Uesli va miss Grenjer.

– Mening xizmat xonam yaqinroq, – shaylik-la oldinga chiqdi Charuald, – Zinadan ko'tarilsangiz bas. Bajonidil havola...

– Rahmat, Sverkarol, – minnatdorlik bildirdi Damblдор.

Ovoz chiqarmay turgan xaloyiq yo'l berib, ularni o'tkazib yubordi. Vujudi viqor-u, g'urur bo'lib ketgan Charuald professor Damblдорning izidan ergashdi. Uning ortidan esa professor Makgonagall bilan Snegg odimladi.

Ular qorong'i xonaga kirishganda devorda behalovat yugur-yugur harakat sezildi. Garri fotosuratlarning ortiga

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

yashiringan, jingalak ko'rinishi uchun sochini soch naylariga o'ragan bir nechta Charualdlarni ko'rdi. Haqiqiy Charuald esa ish stolidagi shamlarni yoqib, nari chekindi. Dambldor missis Norrisni stolning sayqal berilgan silliq yuzasiga yotqizib, diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi. Gari, Ron va Germiona bir-biriga jiddiy qarab qo'yib, qorong'i burchakda turgan kreslolarga joylashib o'tirishdi-da, xonada amalga oshirilayotgan ishni jimgina kuzatib o'tirishdi.

Dambldorning ilmoqsimon qayrilma burni mushuk yungiga deyarli tegmoqda. Direktor o'zining yarim oy shaklidagi shisha ko'zoynagi ortidan missis Norrisni sinchkovlikla o'rganib, uzun barmoqlari bilan mushukning harakatsiz tanasini ehtiyotkorona paypasladi. Ko'zini qisib olib, past egilgan professor Makgonagall ham tanasining yarmi qorong'ilikda qolgan Snegg ham mushukni ko'zdan kechirdi. Snegning yuzi, go'yo istehzoli kulgisini bazo'r yashirayotgan kabi g'alati ifoda kasb etdi. Charuald esa professorlar atrofida gir aylanganicha, bo'lib o'tgan hodisaga doir turli xil, kurakda turmas, bema'ni fikrlar bildirishdan jag'i tinmadi.

– Mushukni Asab qaqshatish qiynog'i o'ldirgani aniq. Men bunday afsunga ko'p marta duch kelganman. Afsus, o'sha paytda hodisa joyida bo'lmagan ekanman-da... Aynan o'sha afsunga qarshi afsundan boxabarman. Mushukning hayotini ham saqlab qolgan bo'larmidim...

Charuald o'z nutqini Filchning dard-hasratli, bo'g'iq hiqillashiga hamohang singdirib bordi. Maktab nazoratchisi nochor ahvolda, missis Norris tomon qiyo boqishga yuragi betlamay, yuzini kafti bilan to'sib, kresloga yotib olgan. U Gartining ko'ziga juda qabih kishiday ko'rinayotgan bo'lsa-da, bolaning qalbi Filchga hamdard bo'lmay qolmadi. To'g'risini aytganda, o'ziga nisbatan ham achinish hissini

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

sezmoqda. Negaki hozir Damblдор Filchning tuhmatiga ishonadigan bo'lsa, maktabdan haydalishi muqarrar.

Damblдор allaqanday g'alati so'zlarni o'zicha g'o'ldirab, sehrli tayoqchasini missis Norrisning tanasiga tekkizib ko'rdi. Biroq bu ish biror-bir naf bermadi. Mushuk haligacha, xuddi yangi yasalgan tulumday yotibdi.

– ... esimda, Kvagaduguda o'xshash holatga duch bo'lgan edim, – sayrashini qo'ymadi Charuald. – Bir savdo o'yi o'sha yerda jinoiy qilmish qilib yurgan ekan. Bu haqda tarjimai holimda juda batafsil yozganman. Bir qator jinoyatlar... O'sha jinoyatlar oqibatining deyarli hammasini bartaraf etishga erishdim. Dastlab, kichik shaharcha aholisiga har xil tumor tarqatdim...

Charualdning fotosuratdagi akslari uning gapini ma'qullab, bosh iring'ishmoqda. Ulardan biri boshidagi soch to'rini yechib qo'yishni unutgan.

– Mushuk o'lgani yo'q, Argus, – muloyim ovoz-la ma'lum qildi nihoyat Damblдор, qaddini rostlab.

Oldini olishga erishgan jinoyatlarning yarmini ham sanab o'tishga ulgurmagan Charuald unini o'chirdi.

– O'lgani yo'q? – nafasi tiqilib so'radi Filch, barmoqlarini asta ochib missis Norris tomon qiyo boqar ekan. – Nega unda... qandaydir harakatsiz, sovib qolganday yotibdi?

– Uni toshga aylantirib qo'yishgan. – tushuntirdi Damblдор. – U dong qotgan.

– Ha-a! Men ham shu xayolga borgan edim, – gapga aralashdi Charuald.

– Biroq bu ish qanday qilib, qay yo'sinda qilinganini hozircha ayta olmayman... – gapini davom etdi Damblдор Charualdga e'tibor qilmay.

– Buni anavidan so'rang, o'sha aytadi! – faryod

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

ko'tardi Filch, Garriga yuzlanib.

– Bunday ish ikkinchi sinf o'quvchisining qo'lidan kelmaydi, – ishonch-la dedi Dambldor. – Dong qotirish uchun yuqori malakali yovuz sehrgarlik qobiliyati talab etiladi...

– O'zingiz ko'rdingiz-ku, devorga nima deb yozganini, – qichqirishini qo'ymadi shishgan yuzi qizargan Filch. – U qilgan, u! Xonamda... xullas... u biladi, meni... men... – azob tortayotgan nazoratchining yuzi burishdi, – Men shvax ekanimni biladi, – bazo'r yakunladi u.

– Missis Norrisga tekkanim yo'q! – dedi Garri baland ovozda.

Garri hammaning, hatto devordagi barcha Charualdlarning nigohi unga qaratilganidan o'zini juda noqulay sezdi.

– Shvax so'zi nimani anglatishini ham bilmayman, – qo'shib qo'ydi u.

– Yolg'on! «Tez tilsim» kursi solingan xatimni o'qigansan!

– Ijzat bersangiz, fikr bildirsam, – eshitildi qorong'i burchakda turgan Sneggning ovozi.

Uning har bir gapi Garrini qoralashga qaratilgani bois bolaning falokat haqidagi o'yi yanada zo'raydi.

– Potter va uning do'stlari noto'g'ri joyga, bemavrid kelib qolgan, – dedi Snegg, o'zining gapi to'g'ri ekaniga o'zi shubha qilganday, lab burishtirib, – biroq ushbu baxtsiz hodisa bir qator savollar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Qanday qilib Potter, hodisa ro'y bergan vaqtda yuqori qavatdagi yo'lakka kelib qoldi? Nima uchun u Xello-uin bayrami ziyofatida ishtirok etmadi?

Garri, Ron va Germiona shu zahoti o'lgan kun yubileyiga tashrif burishganlari va ularning gapini o'sha tadbir-da ishtirok etgan yuzlab arvohlar tasdiqlashi mumkinligini tushuntirishga urinishdi.

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

– Xo'p, unday bo'lsa nima uchun o'lgan kun yubileyidan chiqib, Xellouin ziyofatiga kelmadingiz? – so'radi sham nuri ko'zida yovuz yaltiragan Snegg. – Nima uchun yuqoriga ko'tarildingiz?

Ron bilan Germiona Garriga yuzlandi.

– Chunki... chunki...- to'ng'illay boshladi Garri.

Uning yuragi ko'krak qafasi chida gumburlay boshladi. Nimadir unga, o'zidan boshqa hech kim eshitmagan o'sha ovoz kimning ovozi ekani noma'lum-u, ketidan borganligiga iqrar bo'lsa, haddan tashqari gap bo'lishini aytib turibdi.

– Chunki biz charchadik, yotib uxlamogchi bo'ldik, – nihoyat javobini yakunladi u.

– Ovqatlanmasdan-a? – dedi Snegg, so'lg'in yuzida g'olibona kulgi ko'rinib. – Arvohlar ziyofatida tiriklar yeydigan taom topilganiga shubha qilaman.

– Biz och emas edik, – dedi Ron, och qorning g'o'ldi-rayotgani eshitilmasligi uchun baland ovozda.

Snegging yuzidagi murdor tabassum yanada kengaydi.

– O'ylashimcha, direktor, Potter bizga ro'y-rost gapirmayapti, – xulosa qildi u. – Bor gapni aytib bermas ekan, uni ayrim iniyozlardan marhum qilmoq darkor degan fikrdaman. To'g'ri so'z bo'lishni o'rganib olguncha, uni «Grifindor»ning kvidish jamoasidan chetlatmoq lozim.

– Marhamatliroq bo'ling, Severus, – gapga aralashdi professor Makgonagall. – Bolani kvidish o'yinidan mahrum qilishga biron-bir asos ko'rmayapman. Har qalay, mushukning boshiga supurgi bilan tushirishgani yo'q. Buning ustiga, Potterga qarshi umuman hech qanday dalilingiz yo'q.

Dambldor moviy ko'zini pirpiratmay mushohada ila

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

Garriga qaradi. Garri esa o'zini rentgen¹ nuri ostida turgan-day his etdi.

– Aybsizlik prezumpsiyasi², Severus, – yodga soldi Dambldor.

Sneggning ham Filchning ham g'azabi qaynadi.

– Mushugimni toshga aylantirishdi! – qichqirdi ko'zi chaqchaygan Filch. – Kimnidir jazolashni talab qilaman!

– Uni davolashimiz mumkin, Argus, – dedi Dambldor, vazmin ohangda. – Professor Sarsabil xonim mandragora nihollarini topishga muvaffaq bo'lgan. Ular yetilishi bilan missis Norrisni hayotga qaytaradigan darmon-dori tayyorlashni buyuraman.

– O'zim tayyorlayman, – gapga aralashdi Charuald. – Bu ishni yuz marta qilganman. «Mandragora darmon-dorisi»ni uyquda yotgan joyimda...

– Ma'zur tuting-u, – dedi Snegg, sovuq ohangda, – menimcha, ushbu muassasada damlamalar mening vakolatimga kiradi.

O'rtada noqulay sukunat qaror topdi.

– Sizlar borishingiz mumkin, – ijozat berdi Dambldor bolalarga.

Garri, Ron va Germiona xonadan otilib chiqishdan bazo'r tiyilgancha, asta qo'zg'alishdi. Charualdning xonasidan bir qavat yuqoriga ko'tarilgach, bo'sh sinf xonasiga kirib, eshikni yopib olishdi. Garri ko'zini qisib olgancha, do'stlaridan so'radi:

¹ **Rentgen** (nemis tizigi Rentgen (Rontgen) nomidan) – rentgen nurlari bilan yoritib ko'rish, rentgen apparatida tekshirish. **Rentgen nurlari** – zaryadlangan zarralar yoki fotonlarning muhitni tashkil etuvchi atomlari bilan o'zaro ta'sirlashishlari natijasida vujudga keluvchi elektromagnit nurlanish.

² **Aybsizlik prezumpsiyasi** – aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

Ovoz haqida aytishim kerakmidi?

– Yo'q, – dedi Ron hech ikkilanmay, – kishining hech kim eshitmayotgan ovozni eshitishi, hatto sehrgarlar olamida ham juda yomon alomat sanaladi.

– Sen menga ishonasan-u, shundaymi?

– Albatta, – tez ishontirdi Ron, – ammo... bu... juda g'alati ekaniga o'zing ham amin bo'lgandirsan?

– Ha, – rozi bo'ldi Garri, – bu hodisaning o'zi g'alati. Nima deb yozilgan edi devorda? «Maxfiy xona yana ochildi»... Nimani anglatishi mumkin u?

– Esimga tushganday bo'ldi, shekilli, – dedi Ron sekin, – menga kimdir «Xogvars»dagi allaqanday Maxfiy xona haqida aytib bergan edi. Bill edimi-yey...

– Shvax degani nima? – so'radi Garri.

Ronning masxaraomuz kulgidan bazo'r tiyilganini ko'rgan Garri biroz hayron bo'ldi.

– Aslida bu qayg'uli holat bo'lsa-da, gap Filch to'g'risida borar ekan, chindan ham kulgili eshitiladi, – gapi qovushmay tushuntira boshladi Ron. – Shvax so'zi sehrgarlar oilasida tug'ilgan bo'lsa-da, oz bo'lsa ham sehrgarlik qobiliyatiga ega bo'lnagan odamni anglatadi. Ya'ni magllar oilasida tug'ilgan afsungarlarning aksi. Faqat shvaxlar favqulodda kam uchraydi. Filch sehrgarlikni «Tez tilsim» bo'yicha o'rganayotgan ekan, demak u chindan ham shvax. Bilasizmi, nima uchun u o'quvchilardan nafratlanadi? – Ron huzur-la irshaydi. – Chunki u bolalarga hasad qiladi!

Qayerdandir soat bongi eshitildi.

– Tun yarimlab qoldi. – dedi Garri, – borib yotganimiz ma'qul. Aks holda Snegg tutib olib, yana nimadadir ayblay boshlaydi.

Keyingi bir necha kun davomida maktabda faqat missis Norrisga nisbatan qoʻllanilgan hamla muhokama qilindi. Ayniqsa, mushugi jabr koʻrgan joyda tez-tez koʻrinish berib borgan Filch, ushbu mavzuning unutilishini qiyinlashtirdi. Kim biladi, ehtimol, u, jinoyatchining jinoyat joyiga yana qaytishiga umid qilayotgandir. Nazoratchi devordagi yozuvni «Missis Shvabersning rasvogarchilikni oʻchirish universal vosilasi» bilan kuchanib ishqalagancha, yuvib ketkazishga uringani, biroq yozuv yanada ravshan koʻrinib, harakati behuda kechayotganini Garri bir necha bor koʻrdi. Filch jinoyat joyida oʻtkazilgan tekshiruvchilik xizmatidan boʻsh fursatlarda yigʻlayverib shishib ketgan koʻzi bilan qasr yoʻlaklarida sandiroqlagancha, aybsiz oʻquvchilarga oʻshqirib, ularni «qabih kulgisi» yoki «haddan ortiq qattiq nafas olgani» uchun javobgarlikka tortib yurdi.

Jinna Uesli missis Norris bilan bogʻliq hodisadan qattiq taʼsirlandi. Ronning gapiga qaraganda u mushuklarni juda yoqtirar emish.

– Axir, sen missis Norrisni yaxshi bilmas eding-ku, – yupatar edi singlisini Ron. – Chin soʻzim, oʻsha hayvonsiz hayotimiz ancha yengillashdi.

Akasining ushbu gapidan Jinnaning labi battar titradi.

– Xoʻp, mayli, – gapini tuzatishga urindi Ron. Bunday hodisalar «Xogvars»da kanidan kam boʻladi. Maktab maʼmuriyati ushbu ishga qoʻl urgan oʻsha savdoyini, albat, tutib, oʻqishdan quvib soladi. Faqat umid qilamanki, qoʻlga tushguncha Filchni ham toshga aylantirishga ulguradi. E, hazillashdim-ye! – tez qoʻshib qoʻydi Ron. singlisining rangi oqarganini koʻrib.

Mushuk bilan bogʻliq hodisadan Germiona ham taʼsirlandi. Kitob varaqlab oʻtirish uning odatiy ishi ekani maʼ-

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

lum, biroq endi u, kitob mutolaasidan boshqa hech narsa bilan shug'ullanmay qo'ydi. Keyingi chorshanba kunigacha uni qanday ma'lumotlar qiziqtirayotganligi, kitob sahifalarida nimalarni qidirib yurganini bilishning iloji bo'lmadi.

Garri sehrli damlamalar tayyorlash darsidan so'ng ushlanib qoldi. Professor Snegg unga darsdan so'ng qolib, stollarni naysimon chuvalchang qoldiqlaridan tozalashni buyurdi. Keyin, shosha-pisha tushlik qilgach, Ron bilan uchrashishga kelishilgan kutubxona tomon oshiqdi. U yerda gerbologiya darsida hamsuhbat bo'lgan xufflpuffchi Jastin Finch-Fletchini uchratdi. Garri salomlashish uchun endigina og'iz juftlagan ediki, uni ko'rgan Jastin keskin orqa o'girdi-da, nari ketdi.

Ron kutubxonaning oxirida, sehrgartlik tarixi fanidan uyga berilgan vazifa ijrosini o'lchab o'tiribdi. Professor Binnz «Yevropa sehrgarlarining o'rta asr assambleyasi» mavzusida yozilgan inshoning uzunligi uch futdan qisqa bo'lmasligini tayinlagan.

– Shuncha yozgan bo'lsam ham sakkiz dyum yetmayapti, jin ursin... – dedi jahli chiqqan Ron, pergamentni nari uloqtirib. – Germiona esa mayda yozuv bilan to'rt fut-u, yetti dyum yozib tashladi.

– Qani u? – so'radi Garri, jazvalni qo'liga olgancha, o'z inshosining uzunligini o'lchashga kirishib

– Qayerdadir, ho' anavi yerda, – kitob tokchalari tomon imo qildi Ron, – navbatdagi kitobni qidirib yuribdi. Aftidan, Rojdestvo bayramigacha butun kutubxonani o'qib chiqishga ahd qilgan ko'rinadi.

Garri Ronga Jastin Finch-Fletchi teskari qarab ketib qolganini aytdi.

– Senga nima? Uni doim tentak sifatida ko'rib kelganman. – dedi Ron, beparvo ohangda, insho matnini atayin

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

yirik yozuv bilan yozishni davom etib. – Charuald jinnisi ekan, undan nimani ham kutish mumkin...

Germiona kitob tokchalari orasidan chiqib keldi. Jahli chiqqani bilinib tursa-da, nihoyat bolalar bilan gaplashishga lutf qildi.

– Tasavvur qiling, birorta ham «Xogvars» tarixi» yo'q, hammasi qo'lma-qo'l bo'lib ketibdi, – arz qildi u. bolalar yoniga o'tirib. – Kitob buyurtmachilari ro'yxatiga ikki hafta oldin yozilib qo'yish kerak emish. Esiz, o'zimning kitobimni uyda qoldirib kelibman! Charualdning kitoblari dastidan sandig'imga sig'magan edi...

– Nimaga kerak bo'lib qoldi senga o'sha kitob? – so'radi Garri.

– Qolganlarga nima uchun kerak bo'lib qolgan bo'lsa, menga ham shuning uchun kerak bo'lib qoldi, – javob berdi Germiona. – Maxfiy xona haqidagi rivoyatni o'qimoqchi edim.

– Qanaqa rivoyat ekan u? – so'radi Garri, ko'zini katta ochib.

– Hamma balo shunda-da, esimda yo'q, – dedi Germiona, labini tishlab, – boshqa manbalardan ham topa olmayapman...

– Germiona, inshongni berib tur, o'qib olay, – ilojisiz ingradi Ron, soatga qarab.

– Bermayman, – shartta kesdi Germiona, kutilmaganda g'azabi qaynab, – ixtiyoringda o'n kun bor edi...

– Qo'ysang-chi, atigi ikki dyum qoldi...

Qo'ng'iroq ovozi yangradi. Ron bilan Germiona gap talashgancha, sehrgarlik tarixi darsiga yo'l olishdi.

Maktabda o'qitiladigan fanlar orasida bolalar uchun eng zerikarli fan, ustozlar ichida yagona arvoh o'qituvchi o'tadigan sehrgarlik tarixidir. Professor Binnzning darsida

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

kechadigan yagona qiziq narsa. o'qituvchining xonaga sinf taxtasidan chiqib kelishi bo'ladi, xolos. Munkillab qolgan professor Binnz ajin bosib, juda burishib ketgan o'qituvchidir. Aytishlaricha, o'tib qolganini o'zi ham idrok etmagan emish. Kunlardan bir kun o'qituvchilar xonasida kamin qarshisidagi kresloda o'tirgan joyida kuni bitib, omonatini topshirib qo'ygach, shartta o'rmondan turibdi-da, darsga kiribdi. Tanasi esa kresloda o'tirganicha qolaveribdi. Biroq bu hodisa uning faoliyati bir maromda kechishiga hech qanday ta'sir o'tkazmagan ekan.

Bugungi dars ham odatdagiday zerikarli o'tmoqda. Professor Binnz daftarini ochdi-da, changyutkich kabi bir tekis g'o'ng'illagan ovoz-la mavzuni hayon etishga kirishdi. O'quvchilar esa o'tirgan holatida asta-sekin jim qotib, faqat onda-sondagina xayollarini yig'ishar, tarixiy sanalarni yozib qo'yib, yana o'chib qolishar edi. Professor yarim soatdan buyon shu tarzda ma'ruza o'qib borar ekan, tarixda bo'lmagan bir holat yuz berdi. Germiona qo'l ko'tardi.

Professor Binnz o'zining kishi diqqatini oshirib yuboradigan nutqi bilan 1289-yilgi Butunjahon sehrgarlar konvensiyasi haqida so'zlagancha, sinfga nigoh tashlar ekan. Germionaning ko'tarilgan qo'lini ko'rib, taajjublandi.

– Miss... e-e-e...

– Grenjer, professor. Iltimos, «Xogvars»ning Maxfiy xonasi haqida gapirib hersangiz, – sof talaffuz-la so'radi Germiona.

Tomdan tarasha tushganday kutilmagan savolni eshitib, shuncha vaqtdan buyon derazaga qaragancha, og'zi lang ochilib o'tirgan Din Tomas bir siltanib oldi-da, serraygan holatdan chiqdi. Lavanda Braunning jag'i savatchaday yig'ib olgan kaftlari ustidan ko'tarildi. Nevill Longbottomning tirsagi esa parta chetidan sirpanib ketdi.

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

Professor Binnz biroz ko'zini pirpiratgancha, turib qoldi.

– Men sehrgarlik tarixi fanidan dars beraman, – jiringlab eshitiladigan quruq ovoz bilan eslatdi u. – Afsona-yu, rivoyatlar bilan emas, dalillar vositasida ish tutaman.

U singan bo'r chiqaradigan tovushga o'xshash ovoz chiqarib, tomog'ini qirib oldi-da, gapini davom etdi.

– ... ayni o'sha yilning sentabr oyida, Italiya yaqinidagi Sardiniya orolida ta'sis etilgan Oqillar qo'mitasi bo'linmalaridan biri...

U tutilib, jim bo'lib qoldi. Germiona yana qo'l siltay boshladi.

– Miss Grant?

– Grenjer. Har qanday rivoyat muayyan dalillar zaminida vujudga keladi, shunday emasmi, professor?

Professor Binnz Germionaga shunday taajjub bilan qaradiki, hayot davrida ham o'lib, arvoonga aylangan hozirgi holatida ham hech kim unga dars mahalida savol bermaganini Garri aniq tushunib yetdi.

– Buni biroz munozarali masala deb bilaman, – dedi Binnz, Germionaga, go'yo o'quvchi qizni hayotida birin marta ko'rib turganday tikilib. – Biroq siz tilga olgan rivoyat hayratda qoldiradigan va nihoyatda g'alati tarixga ega.

O'quvchilarning hammasi nafas chiqarmay, professorning har bir so'ziga diqqat bilan quloq tutib o'tirishdi. Bolalarning bu qadar e'tibor qilganini ko'rgan o'qituvchi hayratlandi.

– Xo'sh, Maxfiy xona deng... Biroz xotirlashga to'g'ri keladi... – cho'zib gapirdi professor. – Demak, barchangizga ma'lumki, «Xogvars»ga taxminan ming yil muqaddam, aniq sana noma'lum, to'rt nafar buyuk shaxs xususan, ikki nafar sehrgar erkak va ikki nafar afsungar ayol tomonidan

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

asos solingan. Ularning mo'tabar ismlarini bilasiz, albatta. Godrik Griffindor, Xelga Xufflpuff, Roven Ravenklo va Salazar Slizerin. Ular birgalikda harakat qilib, magllarning haddan ortiq qiziquvchan nigohlaridan olisda ushbu qasmi barpo etishdi. Binobarin, o'sha zamonlarda oddiy odamlar sehriga ishonmas, sehrgar va afsungarlar esa ta'qib qilinar edi.

Professor biroz to'xtab, sinfga ko'z yugurtirib chiqqida, gapini davom etdi:

– Sehrgarlik qobiliyatiga ega bolalarni mamlakat bo'y-lab qidirib yurgan maktab asoschilarining barcha fikr-mulohazalari muayyan vaqt yakdil bo'lib, xatti-harakatlari uyg'un kechgan. Bunday bolalar qasrga keltirilib, ularga talab darajasida ta'lim-tarbiya berilgan. Biroq sal o'tib, asoschilar o'rtasida ixtilof yuzaga keldi. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, ixtilof Slizerin bilan qolgan uch nafar asoschi o'rtasida tug'ildi. Salazar «Xogvars»da tahsil ko'radigan o'quvchilarni tanlab olish masalasiga yangicha yondashish, sehrgarlik ta'limotini faqat azaldan sehrgar sanalib, avloddan-avlodga sehr-jodu bilan mashg'ul bo'lgan sulola, ya'ni aslzoda sehrgarlarning farzandlariga berish kerak degan fikr bildirgan. Maktabga magllar oilasidan chiqqan sehrgar bolalar qabul qilinayotgani unga yoqmagan. Bunday bolalarga ishonch bildirib bo'lmashligini u takror va takror ta'kidlab kelgan. Oxir-pirovardida asoschilar o'rtasidagi ixtilof zo'rayib, o'rtada murosasizlik muhiti qaror topgach, Salazar Slizerin maktabni tark etgan.

Professor boz to'xtab, labini qimtib olgach, yuzi afti burishgan qari toshbaqa qiyofasidan farq qilmay qoldi.

– Ishonch bildirsa bo'ladigan manbalardan hozirgina bayon etilgan ma'lumotlarni bilib olsa bo'ladi, – dedi u. – Lekin ushbu dalillar kichik bir rivoyat, u ham bo'lsa, ayni

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

shu Maxfiy xona haqidagi afsona tufayli shubha pardasi ila yopilgan. Xo'sh... aytilishlaricha, Salazar Slizerin qasrda, maktabning qolgan asoschilaridan sir tutgan tarzda, allaqanday yashirin xona qurgan.

Professor yana biroz to'xtab qoldi-da, gapini davom etdi:

– O'sha rivoyatda aytilishicha, Salazar Maxfiy xonani shunday muhrlaganki, toki maktabga uning haqiqiy vorisi kelmagunicha unga hech kim kira olmas, faqat vorisgina muhri ochishi, xonaga qamalgan dahshatni tutqinlikdan xalos etib, maktabni nomunosiblardan tozalash uchun qo'llash qobiliyatiga ega bo'lar emish.

O'qituvchi hikoyani nihoyasiga yetkazgach, sinf xonasiga sukunat cho'kdi. Biroq bu, professor Binnz darsida qaror topib kelgan odatiy emas balki, nimanidir kutilgan, qandaydir zo'riqish sukunati bo'ldi. O'qituvchining biroz jahli chiqqani bilindi.

– Tabiiyki, bularning bari safsata, – yakun yasadi u, – Maktab binosi eng tajribali sehrgar va afsungarlar tomonidan ko'p marta ko'zdan kechirib chiqilgan. Maxfiy xona yo'q. Bu ertak laqmalarni qo'rqitish uchungina o'ylab topilgan.

Gernionaning qo'li yana ko'tarildi.

– Ser, «xonaga qamalgan dahshat» deganingizni qanday tushunish kerak?

– E'tirof etilishicha, xonada allaqanday maxluq qamalgan bo'lib, uni faqat Slizerinning vorisi idora qila olar emish, – javob berdi professor Binnz quruq, ingichka ovozda.

O'quvchilar qo'rqib, bir-biriga qarab qo'yishdi.

– Takror aytaman, bunday xona yo'q, – dedi professor, yozuvlarini titib, – maxfiy xona ham voris ham yo'q.

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

– Biroq ser, – gapga aralashdi Simus Finnigan, – Modomiki, xonaning muhri faqat haqiqiy voris tomonidagina ochiladigan bo'lsa, demak boshqa birov uni ochish nari tursin, topa olmaydi ham, shunday emasmi?

– Bema'ni gap, O'Flaerti, – shartta kesdi Binnz, o'zining odatiy mijg'ov ohangi ila. – «Xogvars»ning ko'plab direktorlari topa olmagan ekan...

– Professor, – chiyildoq ovoz chiqardi Parvatti Patil, – ehtimol, xonani ochish uchun, yovuz kuchlar sehrini qo'llash talab etilar...

– Aksariyat sehrgarlar yovuz kuchlar sehrini qo'llashmaydi. Biroq bu ular bunday sehrdan foydalanishni bilmaydi degani emas, miss Pennifizer, – yana gapni kesdi professor Binnz. – Takror aytamanki, agar Damblordga o'xshash odamlar...

– Balki. Maxfiy xonani ocha oladigan kishi Slizeringa qarindosh bo'lishi kerakdir, – dedi Din Tomas professorning gapini bo'lib, – shu bois ham Damblord...

Biroq professor Binnz, noo'rin ochilgan mavzuni yopishga ahd qildi.

– Bo'ldi bas, – dedi u, qat'iy ohangda. – Bularning bari uydirma! Hech qanday Maxfiy xona yo'q! Hech qanday tarixiy shohidlik yo'q! Salazar Slizerin maktabda hech qanday, hatto supurgi saqlash xonasi bo'lsin, qo'shimcha xona qurmagan! Bu ahmoqona gapni aytib berganim uchun afsus qilmoqdaman! Endi, marhamat qilib, haqiqiy tarixga, ishonchli, real, tekshirib ko'rilgan tarixiy voqealarga qaytamiz!

Besh daqiqa o'tar-o'tmas, o'quvchilar yana o'tirgan holatda jim qotib, faqat onda-sondagina o'zlariga kelishadigan, tarixiy sanalarni yozib qo'yib, yana o'chib qolishadigan holatga qaytishdi.

Darsdan so'ng Garri, Ron va Germiona o'quvchilar bi-

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

lan to'lib-toshgan yo'lakdan «Griffindor» minorasi tomon kechki ovqatdan oldin yuk xaltalarini tashlab chiqish uchun yo'l olishdi.

– Salazar Slizerin zo'r vasvasaga berilgan bo'lganiga hech shubha qilmaganman, – dedi Ron, – Aslzoda sehrgarlar haqidagi g'ovg'ani ayni o'zi boshlab qo'yishiga aqli yetmagan bo'lishi ajab emas. Yuz million berishsa ham uning fakultetida tahsil ko'rishga rozilik bermagan bo'lar edim. Chin so'zim, agar taqsimlovchi Shlapa meni «Slizerin»ga yo'llashga urinib ko'rganida, qochib ketardim! Poyezdga o'tirar edim-da, uyga jilardim.

Germiona bosh iringib, ma'qulladi, Garri esa indamadi. Faqat oshqozonini noxush sezdi.

Taqsimlovchi Shlapa unga «Slizerin»ni jiddiy taklif etganini Ron bilan Germionaga hech qachon aytib bermagan. Garri xuddi kechagi kuni bo'lib o'tganday, o'tgan yilgi taqsimlash taomilini juda yaxshi eslaydi. U shlapani boshiga endigina kiygan ediki, past eshitilgan ovoz uning qulog'iga: *«Sen u yerda buyuk sehrgar bo'lib yetishishing mumkin. Buning uchun tabiattingda zaruriy qobiliyat bor. «Slizerin» seni shuhrat cho'qqisiga olib chiqadi. Bunga zig'irday bo'lsin, shubha yo'q»* degan edi.

Biroq Garri, o'sha vaqtga kelib, «Slizerin» fakultetining yomon nufuzi, uni ko'plab yovuz sehrgarlar tamomlagani haqida ko'p eshitgani bois kursi chetini mahkam ushlab olganicha *«Faqat «Slizerin»ga emas, «Slizerin»ga emas»* deb, ichida iltijo qilgan edi. Shunda shlapa: *«Hoj qancha, ishonching shu qadar komil ekan, boradigan joying – «GRIFFINDOR!»»* – deya e'lon qilgan.

Xaloyiq orasidan bir amallab o'tib borishar ekan, Kolin Kriviga duch kelishdi.

– Hoy, Garri!

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

– Salom, Kolin! – odatga ko'ra javob berdi Garri.

– Garri! Garri! Sinfimizdagi bir bolaning aytishicha, sen...

Biroq qarshilik ko'rsatishga qurbi yetmagan mittigina Kolinni xaloyiq oqimi tortib ketdi.

– Uchrashguncha, Garri! – qichqirdi Kolin, Katta Za! tomon suzib.

– Qiziq, uning sinfidagi bola sen haqingda nima degan ekan? – qiziqdi Germiona.

– Slizerinning vorisi ekanimni aytgan bo'lsa kerak-da, – xo'rsindi Garri.

Uni ko'rib nari qochgan Jastin Finch-Fletchini eslab, qorin sohasini yanada battar yomon his etdi.

– Qanaqangi xalq bu, a?! Har qanaqa gapga laqqa tushaveradi-ya! – jahl qildi Ron.

Xaloyiq soni kamayib, navbatdagi zinadan nisbatan erkin o'tishdi.

– Nima deb o'ylaysan, Germiona? – so'radi Ron, – Maxfiy xona chindan ham bormikan?

– Bilmadim, – qosh chimirdi Germiona, – missis Norrisga qo'llanilgan afsunga barham berishga Dambldorning qurbi yetmadi. Bu esa o'z navbatida, mushukka hamla qilgan... nima desam ekan... odam emasligini anglatadi.

Shu fursatda ular muyulish ortiga o'tib, mushukka jabr qilingan joyga kelib qolishdi. Uchovlon to'xtab, atrofga qaradi. Yog'ochday qotirilib, mash'ala tutqichiga dumidan osib qo'yilgan mushukning yo'qligi inobatga olinmasa, vaziyat o'sha kechada bo'lganicha, o'zgarmas qolgan. «Maxfiy xona yana ochildi» so'zlari bitilgan devor yonida kursi turibdi.

– Filchning kuzatuv posti, – g'udrandi Ron.

Bolalar yana bir bor atrofga alanglashdi. Yo'lakda hech

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

zog' yo'q.

– Bu yerni biroz tadqiq qilib chiqsak, ayb bo'lmas, – dedi Garri.

U yuk xaltasini yerga tashladi-da, dastlab cho'kkalab, so'ng kaftini ham yerga qo'ygancha emaklab, jinoyat belgisini qidira boshladi.

– Qorakuya! – dedi u, baland ovozda. – Mana!... mana yana... anavi yerda ham bor...

– Sen oldin mana bunga qara! – chaqirdi Germiona, – Juda g'alati...

Garri o'rmidan turib, yozuv yonidagi derazaga yaqin keldi. Germiona eng tepadagi oynani ko'rsatdi. U yerda yigirmatacha o'rgimchak, kichkinagina tirqishdan birinchi bo'lib chiqish huquqiga ega bo'lish uchun kurashmoqda. Ular tashqariga chiqib ketishga oshiqqancha, tirmashib chiqayotgan uzun kumushrang o'rgimchak uyining tolasi pastga osilib tushgan.

– O'rgimchaklarning bunday xulqini hech ko'rganmisan? – hayron bo'ldi Germiona.

– Yo'q, – javob berdi Garri, – sen-chi, Ron? Ron?

U yelka uzra ortga qaradi, Ron ancha nariga borib, qochishga shay turganga o'xshaydi.

– Senga nima qildi? – xavotirlandi Garri.

– Men... Men... o'rgimchaklarni yoqtirmayman, – ba-zo'r javob berdi Ron.

– Bilmagan ekanman, – dedi Germiona, – axir, sen sehrli damlamalar tayyorlash mashg'ulotlarida ular bilan ko'p muomalada bo'lgansan-u...

– O'lik bo'lsa, boshqa gap, – dedi Ron, nigohini imkon qadar deraza oynasidan olib qochib, – o'rmalab yurishgani-ni esa yoqtirmayman...

Germiona hirlinglab qo'ydi.

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

– Hech ham kulgili emas-da, – achchiq qildi Ron, – agar bilsang, uch yoshligimda Fred, uning o'yinchoq supurgisini sindirib qo'yganim uchun mening o'yinchoq ayiqchamni kattakon jirkanch o'rgimchakka aylantirib qo'ygan. Sen ham yomon ko'rib qolgan bo'lar eding, agar daf'atan ayiqchang tanasidan o'shancha oyoqlar-u...

U o'z gapidan o'zi seskanib, jim bo'ldi. Germiona xandon otib yuborishdan o'zini bazo'r tiydi.

– Eslaringdami, o'sha kecha polni rosa suv bosgan edi? – dedi mavzuni almashtirish kerakligini his etgan Garri. – Qayerdan sizib chiqishi mumkin? Kimdir hamma yoqni artib, tozalabdi.

– Suv ko'tarilib, mana bu yergacha, mana bu eshikka-cha yetgan edi, – dedi o'zini idora qilib Filchning kursisini aylanib o'tgan Ron.

U eshikning mis dastasiga endigina uzatgan qo'lini xuddi qizib turgan dazmoldan tortganday tortib oldi.

– Yana nima qildi? – so'radi Garri.

– Ichkariga kirmayman. Bu ayollar hojatxonasi.

– Qo'ysang-chi, Ron, u yerda hech kim yo'q, – dedi Germiona, yaqinroq kelib. – Bu yer G'angin Mirtning makoni. Yuringlar, kirib ko'raylik-chi.

Germiona «ISHLAMAYDI» so'zi bitilgan kattagina taxtacha osib qo'yilganini pisand qilmay, xona eshigini ochib ichkariga kirdi.

Ushbu hojatxona Garri hayotida ko'rgan xonalar orasida kishining qalbini zulmat qamraydigan eng qorong'i hojatxona bo'lsa kerak. Devorga mahkamlangan uzun, darz ketgan, iflos ko'zgu ostida cheti singan qo'l yuvish chig'anoqlari bir qator o'rnatilgan. Pol zax bo'lib, unda shamdonlardan qiyshayib chiqib qolgan bir nechta sham nuri aks etmoqda. Bo'lmalarning yog'och eshiklaridagi bo'yoq ko'-

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

chib tushgan bo'lib, ulardan biri tepasidagi bittagina oshiq-moshig'ida bazo'r ilinib turibdi.

Germiona ko'rsatkich barmog'ini labiga bosib, eng oxirgi bo'lmaga yaqin bordi.

– Hoy, Mirtl! Salom! Shu yerdamisan? – so'radi u, bo'lma qarshisiga kelib.

Garri bilan Ron yaqinroq kelib qarashdi. G'amgin Mirtl unitaz ustida muallaq osilib, jag'idagi husnbuzarni ezib o'tiribdi.

– Bu hojatxona qizlarniki, – dedi u, bolalarga shubha ila tikilib, – mana bular esa qiz emas.

– To'g'ri, o'g'il bolalar, – rozi bo'ldi Germiona. – Bu yer... juda qiziq joy ekanini ko'rishlari uchun ularni o'zim ergashtirib kirdim.

Germiona qo'lini aylantirib, zax pol va kir bo'lib ketgan eski ko'zguni ko'rsatdi.

– U biror nimani ko'rgan-ko'rmaganini so'ra-chi, – dedi Garri, eshitilar-eshitilmas pichirlab.

– Nima deb shivirlashyapsiz? – talab ohangida so'radi Mirtl Garriga tikilib.

– Hech nima, – shosha-pisha ishonitirdi Garri, – biz sendan bir nimani so'rab bilmoqchi edik...

– Odamlar ortimdan shivirlashishni qachon bas qilishar ekan-a?! – ho'nragancha baqirdi Mirtl, jazavasi tutib, – Bilsangiz agar, o'zim o'lik bo'lsam-da, ayrim hissiyotlar menda ham bor...

– Mirtl, seni hech kim xafa qilmoqchi emas, – ovuntirishga urindi Germiona. – Garri bor-yo'q...

– Meni hech kim xafa qilmoqchi emas! – uvilladi Mirtl, – Naqadar xush eshitiladi bu gap! Biroq maktabdagi jonli hayotim butkul rasvo kechdi. Endi esa sizlar mening o'lik hayotimni ham rasvo qilmoqchisiz!

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

– So'nggi vaqtda biror-bir g'ayrioddiy narsani ko'rgan-ko'rmaganingni so'rab bilmoqchi edik, xolos, – tez gapirdi Germiona. – Negaki Xellouin bayrami kuni mana bu eshik ortida, sening yonginangda mushukka hujum uyushtirilgan.

O'sha kuni kechqurun shu yaqin orada hech kimni ko'rmadingni? – so'radi Garri.

– E'tibor berganim yo'q, – qichqirdi Mirtl, fojia to'la ohangda. – O'sha oqshom Dryuzg meni shu qadar xafa qilgan ediki, bu yerga uchib kelgach, o'z jonimga qasd qilmoqchi bo'ldim. Sal o'tib, hushimni yig'ib olgach, tushunib yetdimki, shundoq ham... men...

Qiyinalayotgan qizga fikrini oxirigacha yetkazib, bayon etishga samimiy yordam bermoqchi bo'lgan Ron:

– O'lik ekansan, – deb yubordi.

Buni eshitgan Mirtl ho'nragancha yuqoriga ko'tarilib, bir aylanib oldi-da, qaldirg'och singari pastga sho'ng'idi va bolalarning egnini shalabbo qilib, unitaz ichiga kirib ketdi. Garchi uning bo'g'i, uzoqlashmagan yig'isi, allaqaysi quvurning egik joyidan eshitilayotgan bo'lsa-da, u ko'zdan g'oyib bo'lib, qaytib chiqmadi.

Garri bilan Ron og'zilarini ochgancha, qotib qolishdi.

– Mirtl uchun bu quvnoq suhbatday gap... Ketdik bu yerdan, – dedi Germiona toliqqan kishiday yelka qisib.

Garri endigina eshikni yopib, yig'i ovozi eshitilmay qolgan ediki, uchalasini qo'rqqanidan bir sakrab tushishga majbur qilgan ovoz yangradi.

– RON!

Ko'kragida «SINFBOSHI» nishoni yaltirayotgan, oyo-g'i yerga ko'milganday zina maydonchasida qotib turgan Persi Ueslining yuzi serrayib qolgan kishining qiyofasini kasb etgan.

– Bu xona qizlar uchun! – dedi u, ovozi deyarli eshi-

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

tilmay. – Sizlar nima qilyapsiz u yerda?...

– Qarab chiqmoqchi edik, – yelka qisdi Ron. – Jinoyat belgilari, tushunyapsanmi...

Jahli chiqib, isha boshlagan Persi missis Ueslini eslatdi. U yaqinroq kelib, o'g'il bolalarni hojatxona eshigidan nari turti.

– Tez, yo'qoling bu yerdan, tez, – dedi u, g'azabi qaynab. – Sizlar haqingizda qanday xayolga borishlarini o'ylab ko'rmadingizmi? Hamma ovqatlanayotgan paytda kelib olgan joyingizni qarang-a!

– Nega endi biz bu yerga kelishimiz mumkin emas ekan? – bahslasha boshladi Ron, oyog'ini tiragancha, Persi-ga jahl qilib. – Quloq sol, Persi, biz anavi mushukka qo'l tekkizganimiz yo'q, tushundingmi!

– Aynan shuni Jinnaga ko'p tushuntirishga to'g'ri keldi, – xitob qildi Persi, battar achchiqlanib. – Biroq u bari bir sizlarni maktabdan haydab yuborishlaridan qo'rqyapti. Yig'layverib, ko'zida yosh qolmadi. Singlingni o'ylasangchi, shundoq ham birinchi sinf o'quvchilari o'sha voqeadan so'ng qo'rqib yurishibdi...

– Jinnani gapirmay qo'yaver, – dedi Ron, qulog'i qizarib. – Sen unga tupurgansan. Mavqeingga putur yetkazishimdan, men tufayli eng ibratli o'quvchi nomiga erisha o'maslikdan qo'rqasan...

– Minus besh ball! – dedi Persi, qat'iy ohangda, ko'krigidagi «SINFBOSHI» ko'krak nishonini barmog'i bilan ko'rsatib. – Umid qilamanki, bu sizlarga saboq bo'ladi! Boshqa hech qanday izquvarlik bo'lmasin, aks holda hammasini oyimga yozib yuboraman!...

Persi o'girilib, viqor-la nari ketdi. Uning bo'yni Ronning qulog'i kabi qizarib ketgani ko'zga tashlanmoqda.

Kechqurun Garri, Ron va Germiona umumiy mehmon-

IX BOB. Devordagi qoʻrqinchili yozuv

xonada, Persidan imkon qadar uzoqroq joyga oʻtirishdi. Ronning kayfiyati haligacha yomon boʻlgani bois afsun oʻqish fanidan berilgan vazifaga siyoh tomizib, dogʻ qilib qoʻydi. Dogʻni ketkazish uchun parishonxotirlik-la qoʻliga tayoqchasini oldi-yu, lekin tayoqcha pergamentni kuydirib, teshib qoʻydi. Jahli chiqqan Ron uy vazifasidan battar tutab, Miranda Goshokning «Afsunlar toʻplami (ikkinchi qismi)» ni kuch bilan yopdi. Germiona ham Garrini hayratda qoldirib, xuddi shu ishni qildi.

– Kim boʻlishi mumkin ekan oʻsha, a? – oʻychan savol berdi Germiona, xuddi uzoq suhbatni davom etayotgan kabi – Magllar oilasidan chiqqan sehrgarlar-u, shvaxlarni qoʻrqitish, «Xogvars»ni tark etishlariga urinish kimga kerak boʻlib qoldi?

– Keling, mulohaza yuritib koʻraylik, – dedi Ron, masxarabozga oʻxshab, basharasida soxta tahayyur qiyofa kasb etgancha. – Magllar oilasidan chiqqan sehrgarlarni kim yoqtirmasligidan xabarimiz yoʻqmi, mabodo?

U koʻz qiri bilan Germionaga, qiz esa shubha ila Ronga qaradi.

– Agar sen Malfoyni nazarda tutayotgan boʻlsang...

Yana kimni nazarda tutishim mumkin! – dedi Ron. – «*Maghvachchalar, navbat sizlarga yetdi*» deb qichqirganini oʻzing eshitding-ku. Bu ish ayni Drakoning qilmishi ekani-ni tushunib yetish uchun uning jirkanch, kalamushsimon basharasiga qiyo boqishning oʻzi kifoya emasmi?

– Malfoy? Slizerinning vorisi? – dedi Germiona, shubha ohangida.

– Ha, nima? Oilasini esla, – gappa aralashdi Garri, kitobini yopib. – Butun sulolasi «Slizerin»ni tamomlagan. U hamisha bu bilan gʻururlanib yuradi. Ular Salazar avlodi boʻlishi mumkin. Malfoyning otasi ham har qanday jir-

kanch qilmishga qodir.

– Maxfiy xonaning kaliti ularning xonadonida asrlar osha saqlanishi, otadan bolaga meros qolib kelgan boʻlishi mumkin! – xitob qildi Ron...

– Nima ham derdim. – oʻylanib qoldi Germiona. – Inkor etmayman, boʻlishi mumkin...

– Ha, faqat buni isbotlash kerak. Biroq savol tugʻiladi: qanday qilib? – qoshini chimirdi Garri.

– Yoʻli, nazarimda, bor, – dedi sekin Germiona va Persi tomon sezdirmay qarab qoʻydi-da, ovozi yanada pasaytirib. – Faqat bu ish juda qiyin kechadi. Boz ustiga xavfli, juda xavfli ish. Men nazarda tutayotgan ishni amalga oshirish uchun esa maktabda joriy etilgan qoidalarning kam deganda elliktasini buzishga toʻgʻri keladi.

– Agar qachondir, aytaylik biror oy oʻtib, oʻz fikringni bizga ochiqroq tushuntirishga ahd qilsang, aytarsan, xoʻpmi? – dedi Ron, jahl qilib.

– Xoʻp, – dedi Germiona, sovuq ohangda. – Biz «Sli-zerin» fakultetining umumiy mehmonxonasiga kirib, Malfoyga bir-ikki savol berishimiz kerak. Faqat u bizni biz ekanimizni bilmasligi lozim.

– Buning iloji yoʻq, – dedi Garri.

Ron esa kulib yubordi.

– Iloji bor, – eʼtiroz bildirdi Germiona. – Buning uchun bizga bor-yoʻq Barcha qiyofalar damlamasi kerak boʻladi, xolos.

– Nimaning damlamasi? – deyarli baralla soʻrashdi Garri bilan Ron.

– Barcha qiyofalar damlamasi. Ikki hafta oldin Snegg aytgan edi-yu...

– Sehrli damlamalar tayyorlash darsida Snegging gapini eshitib oʻtirishdan boshqa qiladigan ishimiz yoʻqmi? –

IX BOB. Devordagi qo'rqinchili yozuv

vaysadi Ron.

– Barcha qiyofalar damlamasi odamni har qanday kishi qiyofasiga kiritadi. Mundoq mulohaza yuritsalaring-chi! Uchalamiz slizerinchilarga aylanib olishimiz mumkin. Biz aslida biz emasligimiz esa hech kimning xayoliga ham kelmaydi. Shunda Malfoy bizga bor gapni aytib berishi mumkin. Ehtimol, ayni paytda u o'z fakultetining umumiy mehmonxonasida bu haqda maqtanib o'tirgandir. Biz ham o'sha yerga kirib, uning otashin nutqini eshitib o'tirganimizda zo'r ish bo'lar edi!

– Negadir Barcha qiyofalar damlamasi bilan bog'liq g'oyang menga yoqmayapti, – qosh chimirdi Ron. – Bir umrga slizerinchi bo'lgancha qolib ketsak-chi, unda nima bo'ladi?

– Damlamaning kuchi asta-sekin barham topadi, – qo'l siltadi Germiona. – Tayyorlash usulini topish qiyin. Snegning gapiga qaraganda, uni «Har narsaga qodir damlamalar» kitobida topish mumkin. Faqat o'sha kitob kutubxona-ning maxfiy bo'limida saqlanishi muqarrar. Maxfiy bo'limda saqlanadigan kitoblarni olib, mutolaa qilishning faqat bir yo'li bor, u ham bo'lsa, kutubxona xodimiga tegishli o'qituvchi tomonidan yozma ravishda rasmiylashtirilgan ruxsatnomani taqdim etish kerak.

– Ushbu kitob bizga nima uchun kerakligini asoslaydigan biror-bir vaj topish qiyin, – dedi Ron. – Qandaydir shubhali damlama tayyorlashni rejalashtirganimiz darhol ayon bo'ladi-qoladi.

– Fikrimcha – cho'zib gapirdi Germiona, – nazariy jihatdan qiziqayotganimizni aytsak, ehtimol...

– Qo'ysang-chi, hech qaysi o'qituvchi bunday cho'pchakka ishonmaydi. – Buning uchun u, g'irt ahmoq bo'lishi kerak-ku...

X BOB. TELBA TAJOVUZKOR

Kornual elfchalari bilan muvaffaqiyatsiz o'tgan darsdan so'ng professor Charuald sinfga biror bir jonzod keltirmay qo'ydi. Buning o'miga u o'z kitoblarini ovoz chiqarib o'qib berar, kuchli taassurot qoldiradigan ayrim hodisalarni o'quvchilar ishtirokida sahnalashtirar, salbiy qahramonlar sifatida esa, aksariyat hollarda, Garrini tanlar edi. Shu bugungacha Garri: Charuald tomonidan Vaysaqilik qarg'ishidan xalos etilgan transilvaniyalik kishi; kuchli shamollab qolgan qor odam; Charualdga duch kelgach, og'ziga gazakdan boshqa narsa olmay qo'ygan qonxo'r maxluq rolini ijro etishga ulgurdi.

Yovuz kuchdan himoya fanidan yaqinda o'tgan darsda Garri boz sinf taxtasi yoniga, bu safar endi afsun bilan boshqa tusga kirgan maxluq sifatida chiqarildi. O'chakishganday Garri, aynan shu kunlari Charualdga xushomadgo'ylik qilib, pinjiga kirishga majbur, aks holda ushbu rol ijrosini rad etgan bo'lar edi.

– Qani, yaxshilab uvilla-chi, Garri. Ana shunday, juda soz. Shunda men, tasavvur qiling, mana bunday qilib, unga tashlandim-da, mana bunday qilib yerga bosib oldim! Bir qo'lim bilan uni bosib, ikkinchi qo'lindagi sehrli tayoqchamni maxluqning bo'g'ziga taqadim. Shundan so'ng qolgan kuchimni qahramonlarcha yig'ib olib, favqulodda qiyin kechadigan Odamga aylantirish afsunini qo'lladim. Maxluq mungli ohangda ingradi. Bo'lsang-chi, Garri, ingra, mungliroq ingra, yanada mungliroq, ana shunday, Garri, juda soz, mana endi o'xshadi. Keyin maxluqning tanasidagi qalin tuk asta-sekin yo'qolib, tishi qisqara boshladi va oxir-oqihatda odamga aylanib qoldi. Amalga oshirgan bunday ishim bir qarashda sodda ko'ringani bilan, samarasi juda zo'r bo'ldi. Yana bir qishloq aholisi maxluqning har oylik hamlalaridan

xalos bo'lgani uchun, qahramonga bir umr shukrona aytib yuradigan bo'ldi.

Qo'ng'iroq zarbasi yangrab, Charuald poldan turdi.

– Uyga vazifa. Vagga-Vagga laqabli afsun bilan boshqa tusga kirgan maxluq ustidan g'olib chiqqanim haqida poema yozib keling! Eng zo'r asar muallifiga sovrin sifatida dastxatim qo'yilgan «Sehrgar men» asarimning bir nusxasi hadya etiladi!

O'quvchilar sinf xonasini asta-sekin tark etishdi. Garri xonaning Ron bilan Germiona kutib turgan tomoniga o'tdi.

– Xo'sh, tayyormisiz? – so'radi Garri, past ovozda.

– Hamma chiqib ketsin, – dedi asabiylashayotgan Germiona. – Ana endi bo'ldi, ketdim!

Qiz qo'liga bir varaq qog'oz ushlagancha. Charuald o'tirgan stolga yaqin keldi. Uning ortida Garri bilan Ron tentirab turishdi.

– E-e-e... professor Charuald? – duduqlandi Germiona. – Men... kutubxonadan qo'shimcha adabiyot sifatida bir kitob olib o'qimoqchi edim, – u titrayotgan qo'lidagi qog'ozni uzatdi. – Biroq u kitob kutubxonaning maxfiy bo'limida saqlanar va shu bois o'qituvchilardan birortasi mana bu yerga imzo chekib berishi kerak ekan... Ishonchim komilki, o'sha kitob sizning «Qonxo'rlar bilan o'tgan kechki ovqat» asaringizda tilga olingan sekin ta'sir qiluvchi zaharlarni batafsilroq o'rganib olishimga yordam beradi.

– A-a-a! «Qonxo'rlar bilan o'tgan kechki ovqat»ni! – xayolchan xitob qildi Charuald, fusunkor irshaygancha. Germionaning qo'lidagi qog'ozni olib. – O'zim yaxshi ko'radigan kitoblarimdan biri-yu... Senga yoqdimi?

– Albatta! – zavqla javob berdi Germiona. – Juda zo'r kitob ekan. Ayniqsa, eng oxirgi qonxo'rni choy suzadigan to'r vositasida tuzoqqa tushirganingiz...

– Ikkinchi sinf o'quvchilari orasida eng ibratli o'quvchi

qizni qo'llab-quvvatlasam, o'ylaymanki, hech kim menga e'tiroz bildirmaydi. dedi Charuald, samimiy ohangda to'vush dumidan tayyorlangan uzun pat-qalamini qo'liga olib. – Chiroyli qalam, a? – so'radi u ko'zini qisib, Ronning yuzidagi g'azabli jirkanish qiyofasini noto'g'ri talqin qilgan-cha. – Ushbu pat-qalam bilan, odatda, kitobimni xarid qilgan muxlislarimga dastxat qo'yib beraman.

Charuald qog'ozga ohangjama imzo chekib, Germiona-ga qaytardi.

– Xo'sh, Garri. -- dedi Charuald, Germiona ruxsatnomani titrayotgan harmoqlari bilan o'rab, yuk xaltasiga solar ekan. – bilishimcha, ertaga kvidish mavsumining birinchi o'yini bo'lib, «Griffindor» «Slizerin»ga qarshi chiqar ekan, shundaymi? Aytishlaricha, sen durust o'ynar emishsan. Men ham bir vaqtlar «Sayyod» bo'lganman. Hatto mamlakat terma jamoasi tarkibiga ham taklif qilishgan. Biroq men o'z hayotimni yovuz kuchlarga barham berishga ahd qildim. Mabodo jamoadan alohida mashq qilishni istasang, tortinmasdan murojaat qilaver. Tajribasiz o'yinchilarga saboq berishga doimo tayyorman...

Garri allanima deb g'udrandi-da, Ron bilan Germiona-ning ortidan ergashdi.

– Aql bovar qilmaydi, – dedi u hayron bo'lib, do'stlari bilan Charualdning imzosini tomosha qilar ekan, – Kutubxonadan qaysi kitobni olishimiz borasida qiziqib ham ko'r-madi-ya.

– Chunki u miyasi yo'q kallavaram. – dedi Ron. – Farqi nima, muhimi, maqsadga erishdik-ku...

Ular shu zahoti kutubxona tomon ushiqishdi.

– Charuald sen aytgan darajada miyasiz kallavaram emas, – jarangdor ovoz-la e'tiroz bildirdi Germiona.

– Albatta, axir, u seni ikkinchi sinf o'quvchilari orasida eng ibratli o'quvchi qiz dedi-ku...

X BOB. Telba tajovuzkor

Deyarli jįmjįtlik hukm surayotgan kutubxonaga yetib kelgan bolalar, ovozlari pasaytirishga majbur bo'lishdi. Kutubxonaning oriqlari, badjahl xodimi Ships xonim o'z vajo-hati ila rosa ochqagan jo'rchi qushni eslatadi.

– «Har narsaga qodir damlamalar»? – shubha ila xitob qildi u. Germionaning qo'lidagi ruxsatnomani tortib olishga urinib.

Biroq qiz qog'ozni mahkam ushlab olgan bo'lib, undan mahrum qilishlariga yo'l qo'ymadi.

– Men buni esdalik uchun o'zimga olib qolmoqchiman, – g'oldiradi u, past ovozda.

– Qo'ysang-chi, – dedi Ron, qog'ozni Germionaning mushtchasidan sug'urib olib, Ships xonimga uzatar ekan. – Biz senga o'sha Charualdning boshqa dastxatini olib bera-miz. Bu qiyin emas. Besh soniya qilt etmay turadigan har qanday narsaga dastxat qo'yib beraveradi u.

Ships xonim ruxsatnomani, undagi imzo qalbaki emas-ligiga ishonch hosil qilish uchun yorug'likka qaratib, diqqat-la o'rganib chiqqach, kitob tokchalari ortiga o'tib, bir necha daqiqadan so'ng qo'lida pix bog'lagan katta kitobni ushlagancha, paydo bo'ldi. Germiona kitobni avaylab, yuk xaltasiga soldi. Bolalar kutubxonadan asta-sekin, aybdor qi-yofa kasb etmaslikka urinib, nari ketishdi.

Besh daqiqa o'tar-o'tmas, uchovlon hech kim kirmay-digan xonaga, G'amgin Mirtl makoniga bekinib oldi. Ger-miona, o'sha joyga qaytib kirishdan voz kechib, o'jarlik qilgancha turib olgan Ronni: «Ishlamaydigan hojatxona – sog'lom fikrli inson kirishi mumkin bo'lgan eng so'nggi joy sanaladi, shu bois ham bu yerda yakkalanib olish kafolat-langan»ligini aytib, bazo'r ko'ndirdi. G'amgin Mirtl o'z bo'lmasiga kirib olib, ovozi boricha uvvos soldi, bolalar unga, Mirtl esa bolalarga e'tibor qilmadi.

Germiona o'z har narsaga qodir damlamalarini chiqar-

la ochgach, uchovlon pix dog'i bosgan antiqiy sahifalar ustiga engashdi. Bu kitob nima uchun maxfiy bo'limda saqlanishi shu zahoti ayon bo'ldi. Ayrim damlamalarning ta'siri shu qadar kuchli ekanki, bu haqda o'ylagan har qanday kishining yuragi orqaga tortib ketadi. Kitob sahifalarida nihoyatda dahshatli rasmlar tasvirlangan: ichi tashqarisiga shimarib tashlangan odammi-yey, boshida bir necha juft qo'l o'sib chiqqan afsungar ayol deysizmi...

– Mana u, – xursand bo'ldi Germiona. «Barcha qiyofalar damlamasi» sarlavhasini topib.

Sahifada boshqa odamga aylanayotgan odamning oraliq bosqichlarda kasb etgan qiyofalari tasvirlangan. Ushbu qiyofalarda ifodalangan og'riq azobi esa rassomning boy tasavvuri tufayli paydo bo'lganiga umid qilishdan boshqa chora yo'q.

– Bu men ko'rgan damlamalar orasida tayyorlanishi juda qiyin kechadigan damlama ekan, – dedi Germiona, damlama tayyorlash usuliga ko'z yugurtirib. – Ipak qanotli pashsha, zuluk, suv ko'tarilganda o'rildigan suv o'ti, margumush¹... – g'udrandi u, barmog'ini ro'yxat ustida yuritib, – Xo'sh, bular qancha kerak bo'lsa, bor, o'quvchilar javonidan olsa bo'ladi... Voy-bu, ikki shoxlining tuyilgan shohi kerak ekan, uni qayerdan olamiz, tasavvur ham qila olmayman, bumsleng² terisi ham muammo va tabiiyki, kishi kimning qiyofasiga kirnoqchi bo'lsa, o'sha odamning ki-chik parchasi.

– Nima?! – keskin so'radi Ron. – Odam parchasi dega-

¹ *Margimush (forscha)* - sichqon o'limi; sichqon o'ldiruvchi) - 1) Mendeleyev elementlar davriy sistemasining V guruhiga mansub kimyoviy element; to'q kulrang kristall, ba'zan amorf holdagi mo'rt, qattiq metall. 2) shu moddadan tayyorlangan preparat (bu yerda shu ma'noda kelgan).

² *Bumslang (lotincha: Bumslang - daraxt ilon)* - Dispholidus oilasining zaharli iloni. Bumslang Dispholidus jinsining yashab qolgan yagona turi hisoblanadi. Uzunligi 2 metr gacha bo'ladi.

X BOB. Telba tajovuzkor

ning nima bo'ldi? Boshidan aytib qo'yay, Krabbening tinog'iga o'xshash narsa qo'shilgan biron narsa ichmayman!

Germiona go'yo Ronning xavotirini eshitmaganday, g'udullashni davom etdi.

– Bundan tashvish tortmasa ham bo'ladi, eng oxirida qo'shilar ekan.

Achchiqlanib tildan qolgan Ron qoshini ko'tarib Garriga yuzlandi. Biroq Garrini boshqa narsa tashvishga solgan.

– Germiona, qancha narsa o'g'irlashimiz kerakligini fahm qilyapsanmi? Bums leng terisi! Axir, bunaqa teri o'quvchilar javonida bo'lmaydi. Sneggnings omborini buzib kirmasmiz, har qalay? Fikrimcha bu g'oya yaxshiga o'xshamaydi...

Germiona kitobni kuchli yopib yubordi. Uning yuzida alvon dog'lar yonib, ko'zi yarqiradi.

– Qo'rqib ketdingizmi, juda soz, – dedi u. – Maktabda joriy etilgan qoidalar buzilishiga nisbatan munosabatimni juda yaxshi bilasiz. Ammo mag'llar oilasida tug'ilgan odamlarga tahdid solish o'ta murakkab damlama tayyorlashdan-da ko'ra jiddiyoq jinoyat bo'lsa kerak deb o'ylayman. Modomiki, bu bilan kim shug'ullanayotganini, Malfoym yoki boshqa birovni oydinlashtirib olishni istamas ekansiz, men hoziroq borib, kitobni kutubxonaga topshiraman...

– Germiona bizni jinoyatga undaydigan kunga yetmasam kerak, deb o'ylar edim. – dedi Ron. – Xo'p, mayli, rozi-miz. Faqat tirnoq, oyoq tirmog'i bo'lmasin, xo'pini?

– Jami qancha vaqt ketadi? – qiziqib so'radi Garri Ronning gapidan quvonib, kitobni qaytadan ochgan Germionadan.

– Suv o'ti oy to'lganda o'rilishi, pashsha qanoti yigirma bir kun damlanishi... Qisqasi, damlamani bir oyda tayyorlasa bo'ladi, agar tarkibiy qismlarining hammasini top-sak, albatta.

X BOB. Telba tajovuzkor

– Bir oy? Bu vaqt ichida Malfoy maktabdagi magl qonlilarning yarmini qirib tashlaydi-yu! – dedi Ron, biroq Germionaning tahdidli qisilgan ko'zini ko'rgach, tez qo'shib qo'ydi: – Modomiki, boshqa yo'l yo'q ekan, iloj qancha, olg'a!

Germiona tashqarida birov bor-yo'qligini bilish uchun eshik ochib, yo'lakka qaragan paytda Ron Garriga pichirladi:

– Ertaga Malfoyni supurgisidan tasodifan urib yiqitsang, ishimiz osonroq bitarmidi.

Shanba kuni Garri tong sahar uyg'onib, bo'lg'usi kvish o'yini haqida o'ylanib yotdi. Dunyoda eng tez uchar supurgilar bilan ta'minlangan jamoa bilan o'ynash kerakligi, griffindorchilar yutqazsa, Drev nimalar deb baqirishini o'ylab asabiylashdi. «Slizerin» ustidan g'alaba qozonishni hali bu qadar kuchli istamagan. O'y surib yarim soat yotgach, o'zini ichagi tugilib qolganday his etdi. O'rnidan turib, kiyindi-da, yuz-qo'lini yuvib, hali erta bo'lsa-da nushtaga, Katta Zalga tushdi. Erta bo'lishiga qaramay, hurpayib olgan «Griffindor» jamoasi bezovta qiyofa kasb etgancha, uzun stol atrofida churq etmay to'la tarkibda o'tiribdi.

Soat o'n birga yaqin maktab o'quvchilari o'yingoh tomon yo'l olishdi. Ob-havo pilchillagan, jala yog'ish ehtimoli ham yo'q emas. Garri kiyinish xonasiga kirayotganida, Ron bilan Germiona yugurib kelib, omad tilashdi. Jamoa a'zolari to'q qizil kiyimlarini kiyib, har safar o'yin oldidan Drev o'qiydigan «bardam qilgich» nutqni tinglashga hozirlanib, o'tirdi.

– Supurgilarni qiyoslaydigan bo'lsak, «Slizerin» jamoasining supurgilari bizning supurgilarimizdan zo'r. Buni hech kim inkor etmaydi. Biroq odamlarni qiyoslaydigan bo'lsak, bizning supurgilarimizdagi odamlar zo'r. Biz ko'p

mashq qildik, har qanday ob-havo sharoitida, tosh yog'dimi, balo yog'dimi, uchaverdik...

– E, nimasini aytasan, – g'udrandi Jorj Uesli. – Avgust oyidan buyon kiyimim qurigani yo'q.

– Ularni, anavi o'jiz chuvalchang Malfoy, jamoada o'ziga o'r'in sotib olgan kunga la'natlar o'qib, ming pushaymon bo'lishga majbur qilamiz.

Drevning ko'krak qafasi vujudini qamrab olgan hishayajondan ko'tarilib ketdi.

– Garri, sen haqiqiy «Sayyod» uchun puldor otali bo'lishning o'zi kifoya emasligini ko'rsatib qo'yishing kerak bo'ladi ularga. Gapimga quloq sol, Garri, sen yo «Tilla chaqqon»ni Malfoydan oldin tutib ol, yo o'lib ket. Chunki biz g'alaba qozonishimiz kerak, shart va bunga majburiy.

– Tazyiq o'tkazilayotgani yo'q, Garri, – dedi Fred. istehzoli ko'z qisib.

Ular tomoshabinlar hayqirig'i ostida maydonga chiqishdi. Bunda, «Ravenklo» va «Xufflpuff» fakultetlari «Griffindor»ga tarafdor bo'lib, kuyindi. Biroq slizerinchilarning hushtagi-yu, vishillashlari ham yetarlicha aniq eshiltimoqda. Kvidish hakami Rolanda Tryuk xonim Flint bilan Drevga qo'l siqishishni buyurdi. Ular bir-biriga qo'l berar ekan, tahdid soluvchi nigoh-la qarab, kaftlarini talab darajasidan ortiq siqishdi.

– Mening hushtagimga binoan, – dedi Rolanda Tryuk xonim. – Uch... ikki... bir!

Xaloyiqning dalda beruvchi ayyuhannosi ostida o'n to'rt nafar o'yinchi qoramtir osmonga o'qday uchib ko'tarildi. Garri hammadan baland ko'tarilib, ko'zini qisib olgan-cha, «Tilla chaqqon»ni qidirishga kirishdi.

– Ishlar qalay, tirtiq peshana? – pastdan baqirib o'tdi Malfoy, ko'zga ko'rinar-ko'rinmas uchib.

U supurgisining qanday tezlik olishini ko'rsatib, maq-

tandi.

Javob qaytarishga vaqt yo'q. Shu fursatda og'ir qora «Tajovuzkor» tahdidli shiddat-la to'g'ri Garriga qarab uchdi. Bola bazo'r chap berishga ulgurib qoldi. To'p hosil qilgan havo oqimi uning sochini to'zg'itib yubordi.

– Bir baxya qoldi-ya, Garri... – dedi to'p ortidan quvib ketgan Jorj.

U «Tajovuzkor»ni har qanday fursatda slizerinchilar tomon urib qaytarishga shay bo'lgancha, qo'lidagi klyushkani mahkam ushlab olgan. Jorj to'pni urib, Adrian Pusey tomon yo'llaganini Garri aniq ko'rdi. Biroq «Tajovuzkor» yarim yo'lda keskin burilib, parvoz yo'nalishini yana Garri tomon o'zgartirgancha, shiddat-la yaqinlasha boshladi.

Garri keskin pastga sho'ng'idi, Jorj esa to'pni urib Malfoy tomon yo'lladi. «Tajovuzkor» bumerang singari qaytib, pastga, Garrining boshiga qarab uchdi.

Ahvolni idrok etgan Garri «gazni bosib», maydonning narigi tomoniga uchdi. Ortida «Tajovuzkor»ning hushtak chalgancha, ta'qib qilayotganini his etdi. Nima gap? «Tajovuzkor» hali hech qachon muayyan bir o'yinchinigina ta'qib etinagan. Bunday to'plarning vazifasi qaysi jamoa a'zosi bo'lmasin, imkon qadar ko'p o'yinchilarni, urib tushirish...

Maydonning bu tomonida «Tajovuzkor»ni Fred Uesli qarshi oldi. Garri boshini xam qilishi bilan Fred to'pni kuchi boricha urib, yo'nalishini o'zgartirdi.

– Mana senga! – quvnoq qichqirdi Fred.

Lekin magnit tortgan kabi to'p yana Garri tomon yo'l oldi. Bolaga to'pdan qochib yurishdan boshqa chora qolmadi.

Yomg'ir boshlandi. Yirik tomchilar Garrining yuziga urib, ko'zoynagini xiralashtirdi. Sharhlovchi Li Jordanning:

– «Slizerin» jamoasi oltmish – nol ochko bilan peshqadamlik qilmoqda. – degan ovozi eshitguncha, Garri, o‘yin qay tarzda borayotganini haqida tasavvurga ega emas edi.

Slizerinchilarning supurgilari o‘z ishini ko‘rsatmoqda. Quturgan «Tajovuzkor» esa Garrini urib yiqitishga urinishini qo‘ymayapti. Bunday ahvolda u nafaqat «Tilla chaqon»ni tuta olmaydi, ko‘ra olmaydi ham.

– Kimdir... anavi... «Tajovuzkor»ni o‘qib qo‘ygan ko‘rinadi, – dedi hansirab qolgan Fred, navbatdagi hujumni bartaraf etish uchun klyushkasi bilan qulochkashlab.

– Taym-aut olish kerak, – dedi Jorj, ham Drevga signal berish, ham Garrining burni pachoq bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilib.

Drev, aftidan, shundoq ham ahvolni tushungan ko‘rinadi, Tryuk xonimning hushtagi yangradi. Garri egizaklar himoyasi ostida, quturib ketgan to‘pga chap bergancha, yerga qo‘ndi.

– Nima gap? – baqirdi Drev, jamoa a‘zolari uni o‘rab olishi bilan.

«Slizerin» tarafdorlari kuchangancha xitob qilishmoqda.

– Rasvo bo‘lyapmiz. Fred, Jorj, qayoqqa gum bo‘lib qoldingiz. «Tajovuzkor» Angelinaga gol urishga to‘sqinlik qildi! – baqirishini qo‘ymadi Drev.

– Biz Angelinadan yigirma fut yuqorida, boshqa «Tajovuzkor» Garrini majruh qilib qo‘yishiga yo‘l qo‘ymay yuribmiz. Oliver, – tushuntirdi Jorj achchiqlanib. – Kimdir to‘pni o‘qib qo‘ygan ko‘rinadi, Garrini holi-joniga qo‘ymayapti. Butun o‘yin davomida faqat Garrining ketidan ta‘qib qilib yuribdi. Slizerinchilar bir narsa qilishganga o‘xshaydi.

– So‘nggi mashqimizdan buyon «Tajovuzkor»lar Tryuk xonimning xonasida saqlangan edi-yu. Mashq davomida esa bunday hunar ko‘rsatishmagan, – dedi hayron bo‘lgan

Drev.

Rolanda Tryuk xonim jamoaga yaqin keldi. Uning ustida griffindorchilarga barmoq o'qtagancha, quvnoq sapchi-yotgan slizerinchilar ko'rindi.

– Quloq soling, dedi Garri, – atrofida bunday o'ralashar ekansiz, «Tilla chaqqon»ning o'zi qo'linga kirib qolmaguncha, uni tuta olmayman. Jamoa bilan o'ynayvering. Anavi quturgan to'pni o'zim bir yoqli qilaman.

– Toming ketganmi sening? – dedi Fred. – Abjag'ingni chiqarib tashlaydi.

Drev nigobini dam Garriga, dam egizaklarga va yana Garriga olib o'tmoqda.

– Oliver, bu telbalik, – e'tiroz bildirdi Alisiya Spinnet. – Garrini o'qib qo'yilgan narsa bilan yakkama-yakka olishishiga yo'l qo'yishga haqing yo'q. Surishtiruv o'tkazishsin...

– Agar o'yinni to'xtatadigan bo'lsak, biz mag'lub bo'lgan sanalamiz! baqirdi qizishib ketgan Garri. – Allaqanday ahmoq to'pni deb «Slizerin»ga yutqazib qo'yishga yo'l qo'yib bo'lmaydi! Bas, Oliver, ayt ularga, meni tinch qo'yishsin!

– Hammasiga o'zing aybdorsan, – baqirdi Jorj Drevga qarab. – Topgan gapingni qara afsungar, «yo tutib ol, yo o'lib ket» emish-a!

Tryuk xonim yetib keldi.

– O'yinni davom etishga tayyormisiz? – so'radi u, Drevdan.

Drev Garriga diqqat-la nazar soldi.

– Tayyormiz, – qaror qildi u. – Fred, Jorj, Garrining gapini eshitdingiz. Uni yolg'iz qoldiring. «Tajovuzkor»ni o'ziga qo'yib bering.

Yomg'ir kuchaydi. Rolanda Tryuk xonimning hushtagiga binoan Garri kuch bilan yerdan tepinib, havoga ko'ta-

rildi va shu zahoti uni quvib kelayotgan «Tajovuzkor»ning «vizzz» etgan tovushini eshitdi. Garri tobora yuqoriga ko'tarildi, ilang-bilang aylandi, ko'tarildi, pastga sho'ng'idi, spiral, zigzag shakllar hosil qildi, o'z o'qi atrofida aylandi. Boshi aylanib ketganiga qaramay, ko'zini ochiq tutdi. Yomg'ir tomchilari ko'zoynagini batamom xiralashtirib yubordi, ta'qibdan qochib boshini pastga osiltirganda esa burniga suv kirdi. Namoyishgohdagi odamlar xandon otishayotganini eshitib, ahmoqona holatga tushganini tushundi. Daydi «Tajovuzkor» vazminligi tufayli, Garriga o'xshab chaqqon harakatlana olmadi. Shu bois ham bola o'yingoh bo'ylab piruet¹ aylantirishni davom etdi. Ayni paytda «Griffindor» halqalari yaqinida nima bo'layotganini ham kuzatib bordi. Bu paytda Adrian Pusey Drevni aylanib o'tishga urinayotgan edi...

Nimadir qulog'ining yonginasidan uchib o'tdi. «Tajovuzkor» yana nishonga tegmadi. Garri boshi orqali aylanib, teskari yo'nalishda uchdi.

Yana bir bor ahmoqona aylangan ediki, Malfoyning qichqirig'ini eshitdi:

– Balet maktabiga o'qishga kirishga umid qilyapsanmi deyman, Potter?

«Tajovuzkor»ga chap berar ekan, nafrat-la Malfoy tomon o'girilib, Drakoning chap qulog'i ustida muallaq osilgan «Tilla chaqqon»ni ko'rib qoldi. Garrini mazax qilish bilan ovora bo'lgan tentak Malfoy koptokchani ko'rmaypti.

Bir fursatgina Garri havoda tek turib o'ylanib qoldi. Agar hozir oldinga tashlanadigan bo'lsa, Malfoy yuqoriga qarab, «Tilla chaqqon»ni ko'rib qolishi mumkin.

TARS.

¹Piruet – bir oyoqning uchida to'la aylanish.

X BOB. Telba tajovuzkor

Ayni shu fursatning o'zi yetarli bo'ldi. Nihoyat «Tajovuzkor» nishonga yetib, kuch bilan Garrining tirsagiga kelib soldi. Bola qo'li singanini aniq his etdi. Og'riq aqldan ozdirib yubordi. Garri supurgidan sirpanib, bukib olgan yagona tizzasida osilib qoldi. O'ng qo'l jonsiz uzatilgan. «Tajovuzkor» esa ikkinchi zarbaga, bu safar to'g'ri Garrining yuziga kelib urilishga hozirlanmoqda. Bola chap berdi. Uning miyasida yagona xayol — Malfoy tomon tashlanish.

Og'riq azobi va yomg'irdan ko'zi pardalandi. U bor kuchini yig'ib, pastga, manfur, yaltirayotgan, ishshayib turgan bashara tomon tashlanib, dahshatdan katta ochilgan bir juft ko'z ko'rdi. Malfoy Garrining hamlasini ko'rib, jon-poni chiqib ketdi. Garrining yo'lidan qochar ekan:

— Nima qil...? — deyishga ulgurdi, xolos.

Garri sog' qo'lini sopdan olib, kuchi boricha oldinga tashlandi va barmoqlari muzday «Tilla chaqqon»ni ushlab olganini his etdi. Hozir u supurgini faqat oyog'i bilangina tutib olgan. Hushidan ketmaslikka urinib, yer tomon uchar ekan, tomoshabinlarning baqir-chaqir, qiy-chuvini eshitdi.

U loyga kuch bilan urilib, supurgidan sirpanib tushdi. Singan qo'li g'alati burchak hosil qilganicha, jonsiz uzaldi. Og'riqdan gangiganidan tomoshabinlarning hushtak, shovqin va qichqiriqlari unga juda uzoqda eshitildi.

— Ha, — shivirladi u, hushidan ketishdan oldin, — biz yutdik.

O'ziga kelganida yomg'ir yuziga urilayotganini his etib, hanuzgacha o'yin maydonida yotganini idrok etdi. Uning ustida kimdir engashib, tishining oqini yarqiratganini ko'rdi.

— O, yo'q, faqat u emas, — ingradi Garri.

— Nima deganini o'zi bilmayapti, — dedi Charuald

hushidan ketishdan oldin, — biz yutdik.

vishlanayotgan ommasiga qarab. – G'am yema, Garri, hozir qo'lingni tuzatib qo'yaman.

– Yo'q! – qichqirdi Garri. Shundayligicha qolaversin, rahmat...

U turib, yotgan joyida o'tirib olishga urindi, biroq chidab bo'lmas og'riq vujudini teshib yuborganday bo'ldi. Qayerdadir, yaqin o'rtada tanish shaqirlash eshitildi.

– Kolin shu ahvolimda suratga olishini istamayman, – qichqirdi Garri.

– Biroz tinch yot, – erkalab ko'ndirishga urindi Charuald. – Bu oddiy afsun, uni ming marta qo'llaganman...

– Nima uchun kasalxonaga olib bormayapsizlar? – so'radi Garri, mahkam qisib olgan tishi orasidan.

– Chindan ham professor, – ma'qulladi afti-basharasi loyga belangan Drev.

U jamoasining «Sayyod»i jabrlangan bo'lishiga qaramay, baxtiyor tabassumini yashira olmadi.

– Zo'r tashlanding, Garri, hayratda qoldiradigan tomosha bo'ldi, bu safar sen, kutilgandan ham a'lo mahorat ko'rsatding.

Garri o'rab olgan odam oyoqlari orasidan quturib ketganday qarshilik ko'rsatayotgan «Tajovuzkor»ni egizak Ueshilar yashik ichiga joylash uchun katta kuch ishlata-yotganini ko'rdi.

– Nari turing, – dedi Charuald, yashil rangli kiyimining yengini shimarib.

– Yo'q, keragi yo'q, – dedi Garri.

Biroq darmonsizlangan bola qarshilik ko'rsatishga zaiflik qildi. Charuald sehrli tayoqchasini biroz aylantirgach, Garrining pachaqlangan qo'liga o'qtadi.

Garri yelkasidan boshlangan g'alati, yoqimsiz his barmoq uchigacha borib yetganini sezdi. Nazarida, qo'lining dami chiqib ketganday bo'ldi. Garri nima bo'layotganini

bilish uchun qo'liga qiyo boqishga jur'at etmadi. U ko'zini chirt yumib, teskari o'girildi. Tez orada uning eng yomon xayoli o'z tasdig'ini topdi. Yig'ilganlar hiringlashdi, fotoapparat zatvori esa tinimsiz shaqillay boshladi.

– Voy, – dedi Charuald, – nima ham derdim, shunaqasi ham bo'lib turadi. Eng asosiysi, suyak endi sinmagan. Shunisi muhim. Mana endi, Garri, kasalxonaga borishing mumkin. Mister Uesli, miss Grenjer, uni kuzatib qo'yaysizmi? Pomfri xonim seni... biroz... tartibga keltirib qo'yadi.

Garri oyoqqa turdi-yu, yon tomonga og'ib ketganday bo'ldi. U chuqur nafas oldi-da, o'ng qo'liga qarab, boz hushidan ketishiga sal qoldi.

Yengidan rezinaga o'xshash tanarangli qalin narsa chiqib turibdi. Garri barmoqlarini qimirlatishga urinib ko'rdi. Natija yo'q.

Charuald suyak davolamabdi. U, shunchaki, qo'l suyagini yo'q qilibdi, xolos.

Garrining ahvolini ko'rgan Pomfri xonim mamnun bo'lmadi.

– To'g'ri mening huzurimga kelish kerak edi! – jahl qildi u, barmog'i bilan atigi yarim soat oldin soppa-sog', tuppa-tuzuk ishlayotgan qo'ldan qolgan jonsiz, baxtsiz xotirani ko'tarib. – Singan suyaklarni yarim soniyaga qolmay tuzataman-u, ularni qaytadan o'stirishga kelsak...

– Siz uddalay olasiz, to'g'rimi? – umidsiz so'radi Garri.

– Uddalayman, albatta. Faqat bu jarayon og'riqli kechadi, – dedi Garriga pijama uzatayotgan Pomfri xonim ma'yus ohangda. – Tunni shu yerda o'tkazishga to'g'ri keladi.

Germiona Garriga ajratilgan karavotni to'sgan parda ortida qoldi. Ron esa do'stiga kiyim almashtirishga, ya'ni

suyakdan mahrum bo'lgan rezina qo'lni pijama¹ yengiga bir iloj qilib suqib kiritishga ko'maklashdi. So'ng qo'lning jonsiz barmoqlarini suyaksiz, rezina kabi qo'lidan tortib chiqardi.

– Charuald to'g'risida fikring o'zgarmadimi, Germiona? – so'radi u, parda ortidan. – Garri suyaksiz qolishni bir umr orzu qilganiga shubha qilaman.

– Hammamiz ham xom sut emgan bandamiz, hech qaysi birimiz xatolardan xoli emasmiz, – shartta kesdi Germiona, – Qolaversa, qo'ling og'rimay qoldi-yu, to'g'rimi Garri?

– Og'rimayapti. Biroq boshqa hech narsa sezmayapti ham bajarmayapti ham-da.

U yostiqqa tashlangach, yerga urilgan rezina buyum qanday sapchishi kerak bo'lsa, qo'li ham shunday sapchib qo'ydi.

Germiona Garrining yoniga, «Suyak o'stir» yozuvi bitilgan kattagina shisha idish ushlab olgan Pomfri xonim bilan birga o'tdi.

– Seni mashaqqatli tun kutmoqda, – dedi shifokor ayol, tutayotgan suyuqlikni stakanga quyib, Garriga uzatar ekan, – Suyaklarning qaytadan o'sishi u qadar yoqimli kechmaydi.

Og'iz-tomoq bo'shlig'ini kuydirib o'tgan «Suyak o'stir» dorisini ichish ham yoqimli bo'lmadi. Garri yo'talib, tiqildi. Tilini e'tiroz-la taqillatib qo'ygan Pomfri xonim, sportning xavfli turlari-yu, o'qituvchilarning mas'uliyatsizliklari haqida allanarsa vaysagancha nari ketdi. Ron bilan Germiona Garrining yonida qolib, unga suv uzatishdi.

Nima qilgan taqdirda ham biz yutdik. – esga oldi Ron, kulib yuborib. – Shunday tutib oldingki!... Malfoyning

¹ Pijama (inglizcha: pyjamas (forscha + hindcha) – oyoq + kiyim) – yumshoq matodan tikilgan, shim va keng kalta xolatdan iborat, uy ichida kiyiladigan yengil kiyim.

basharasini ko'rish kerak edi. U seni o'ldirmoqchi bo'ldi!

– Anavi «Tajovuzkor»ni qanday qilib sehrlab qo'yganini bilmoqchiman. – jahl qildi Germiona.

– Bu savolni Barcha qiyofalar damlamasini ichib, unga beriladigan savollar ro'yxatiga kiritib qo'yish kerak. – dedi Garri, yostiqa bosh qo'yar ekan. – Umid qilamanki, damlamanning ta'mi mana bu dorining ta'miday, jirkanch bo'lmaydi.

– Hazillashma. Anavi turqi xunuk slizerinchilarning parchalari aralashtirilganidan keyin, mazali bo'larmidi?

Ushbu fursatda eshik ochilib, «Griffindor» jamoasi-ning boshdan-oyoq shalabbo, kir a'zolari shovqin-suron solgancha kirib kelishdi.

– Mana buni parvoz desa bo'ladi, Garri, – dedi Jorj. – Quturib ketgan Markus Flint: «Ayrımlarning hatto o'z boshi ustidagi «Tilla chaqqon»ni ko'rishga ham qobiliyati yo'q» – deya baqirib yurganini eshitib qoldim. To'g'risini aytganda, Malfoyning basharasi quvnoq qiyofa kasb etganini sezmadim.

Ular o'zi bilan oshqovoq sharbati, turli pishiriq va shirinliklar keltirib, g'alaba ziyofatini uyushtirish uchun Garri-ning karavoti atrofida endigina joylashib o'tirishgan ediki, xonaga Pomfri xonim kirib keldi.

– Hoy, nima qilyapsiz bu yerda?! Bolani tinch qo'ying! O'ttiz uchta suyak o'stirishi kerak u! Oson kechadi deb o'ylaysizmi! Qani, daf bo'ling-chi, bu yerdan! Tez keting!

Garri yolg'iz qolib, endi uni tobora kuchayib borayot o'gan og'riqdan hech kim va hech narsa chalg'itmay qo'y o'di.

Bir necha soat o'tgach, Garri, tim qorong'ilikda uyg'o o'nib, qo'liga bir dunyo zirapcha kirganday his etdi. Dastlab u, ayni shu og'riqdan uyg'onib ketgan deb o'yladi. Keyin esa kimdir uning terlab ketgan peshanasini gubka bilan

artayotganini vahima ila idrok etdi.

– Keting bu yerdan, – dedi u, – DOBBI!

Kattaligi tennis koptogiday keladigan bir juft ko'z qorong'ida nurlangancha, Garriga termilib turibdi. Uy elfining uzun burnida ko'z yoshining tanho qatrasi ko'rindi.

– Garri Potter maktabga qaytdi, – shivirladi uy elfi, ma'yus ohangda. – Dobbi Garri Potterni ko'p marta ogohlantirdi. Eh, ser, nima uchun Dobbining gapiga quloq solmadingiz? Nima uchun poyezdga kech qolgan Garri Potter uyga qaytmadi?

Garri bazo'r o'tirib olib, peshanasidagi sochiqni uloqtirib yubordi.

– Nima qilyapsan bu yerda? – baqirdi u. – Poyezdga kech qolganimni qayerdan bilasan?

Dobbining labi titrayotganini ko'rgan Garrining xayolini shubha qamray boshladi.

– Ax, maraz, sening ishingmidi u?! – asta so'radi Garri. – Biz o'tishimizga to'sqinlik qilish uchun devorni sen sehladingmi?!

– Ha, ser, men, – tan oldi Dobbi, qulog'ini lunjiga shajolatgancha bosh irtg'ib, – Dobbi Garri Potterni yashirincha kuzatib, to'siqni mahkam muhrladi. O'z qilmishi uchun Dobbi qo'lini dazmol bilan kuydirdi, – dedi elf, Garriga bint o'ralgan o'nta barmog'ini ko'rsatib. – Dobbi shunday qilsagina Garri Potter xavfsiz bo'ladi deb hisobladi. Biroq Dobbining miyasiga Garri Potter maktabga boshqa yo'l bilan kelishi haqidagi o'y kelmadi!

U badbashara boshini orqa-olga silkitgancha, gapirmoqda.

– Garri Potter «Xogvars»ga qaytganini eshitgan Dobbi hayratdan serrayib qoldi! U hatto sohibi uchun tayyorlayotgan tushlikni kuydirib qo'yganini ham sezmay qoldi! O'xshash qilmishi uchun Dobbi hali bunday tayoq yemaga

edi, ser...

Garri darmonsiz holatda yostiqqa bosh qo'ydi.

– Seni dastingdan, Ron bilan meni maktabdan quvib solishlariga sal qoldi, – nafrat-la, vishilladi u. – Yaxshisi, suyagim o'sib chiqmasdan oldin ket bu yerdan, aks holda bo'g'ib o'ldiraman.

Dobbi ma'yus kulib qo'ydi.

– Dobbi o'lim tahdidiga odatlanib qolgan, ser. Dobbi bunday tahdidlarni kuniga kam deganda besh marta eshitadi, ser.

Elf egnidagi yag'iri chiqqan, unga kiyim sifatida xizmat qiladigan yostiq jildning bir uchiga burun qoqdi. Uning aft-angori shu qadar ayanchli ediki, bolaning elfga nisbatan nafrati g'ayriixtiyoriy ravishda barham topdi.

– Nima uchun anavi uvadani kiyib yurasan. Dobbi? – qiziqsinib so'radi Garri.

– Mana bunimi, ser? – so'radi Dobbi, egnidagi jildni chimdib ko'rsatib. – Uy elfi uchun bu qullik ramzidir, ser. Dobbining sohibi haqiqiy kiyim tortiq qilgandagina Dobbi hurriyatga erishishi mumkin. Biroq, ser, xonadon a'zolari o'zlarini hushyor tutib, Dobbining qo'liga biron-bir kiyim, hatto paypoq bo'lsin, uzatmaydilar. Agar bunday holat yuz beradigan bo'lsa, Dobbi o'zini ozod bilib, o'sha xonadonni abadiy tark etishi mumkin, ser.

Dobbi do'laygan ko'ziga yosh olib, kutilmaganda xitob qildi: – Garri Potter uyga qaytishi kerak! Dobbi Garri Potter uyiga qaytib ketishi uchun «Tajovuzkor»ning o'zi yetarli bo'ladi deb o'ylagan edi...

– «Tajovuzkor»ning o'zi yetarli bo'lar edi? – so'radi nafrati qaytadan jo'sh urgan Garri. – Bu nima deganing? «Tajovuzkor»ni ham sehlagan sen edingmi? Meni o'ldirishini istadingmi?

– O'ldirishini? Hech qachon, ser! – chinqirdi uyalgan

elf, – Dobbi Garri Potterni hayotini saqlab qolmoqchi! Bu yerda qolgandan ko'ra, jiddiy jarohat olib, uyga qaytganingiz ma'qul, ser! Garri Potter uyga yo'l olishiga jiddiy asos bo'lishi uchun biroz azob tortishini istadi, xolos!

– Nahotki? Shugina, xolosmi? – zardali ohangda so'radi Garri. – Nima sababdan meni bo'laklarga bo'lingan holatda uyga jo'natishlarini sharhlab bermoqchi emassan, fahmimcha, shundaymi?

– Eh, ser! Garri Potter bilganda edi! – ingradi Dobbi, ko'z yoshining navbatdagi oqimini egnidagi yirtiq jildga oqizib – Past tabaqali bizday qullar, sehrgarlik dunyosining tubanlikka yuz tutgan bizday elati uchun Garri Potter qanday ahamiyatga ega ekanini bilganida edi! «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» hokimiyat cho'qqisida bo'lgan davrda ahvolimiz qanday ayanchli bo'lganini Dobbi juda yaxshi eslaydi! O'sha davrda uy elflariga chuvalchanglar bilan muomala qilinganday noshoyon muomala qilingan, ser! Dobbiga nisbatan esa, tabiiyki, bunday munosabat o'zgarishsiz qolgan, – iqror bo'ldi elf, yuzini jildga artib. – Biroq xalqimning aksariyat qismi kechirayotgan hayot tarzida «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» ustidan qozongan g'ala-bangizdan so'ng ko'p ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi, ser. Garri Potter omon qoldi. Yovuz Lord mag'lub bo'lib, osmonga yangi quyosh chiqdi, Qora kunlar hech qachon ado bo'lmaydi deb yurgan bizday qo'rqqoqlar uchun Garri Potter yo'lchi yulduz kabi yaraqladi... Endi-chi!... Tez orada «Xogvars»da dahshatli hodisalar bo'ladi. Ehtimol, boshlangandir ham. Shunday ekan, Dobbi Garri Potterni bu yerda qolishiga yo'l qo'ya olmaydi! Ayniqsa, hozir, mash'um tarix boz qaytalanishi mumkin bo'lgan, Maxfiy xona takror ochilgan kunlarda...

Dobbi chaqmoq urganday birdan unini o'chirib, karavot yonidagi javoncha ustida turgan suv ko'zani qo'lga ol-

di-da, boshiga qarata bir soldi. Zarb kuchidan pastga sirpanib tushib, bir soniyaga ko'zdan g'oyib bo'ldi. So'ng ikki ko'zi qanshariga kelib qolgancha, yana ko'rpa chetiga chiqib: – Yaramas Dobbi, razil Dobbi, – deya g'udrandi.

– Bundan chiqdi, Maxfiy xona chindan ham bor ekan-da? – shivirladi Garri. – Gapingga qaraganda, demak, u, ilgari ham ochilgan? Aytib ber, Dobbi!

U sog' qo'li bilan Dobbining ko'zaga uzatilgan cho'p-ustuxon bilagini ushlab qolishga ulgurdi.

– Men magllar oilasida tug'ilmagan bo'lsam, o'sha xona tufayli menga nisbatan qanday xavf tug'ilishi mumkin?

– Oh, ser, so'ramang, sho'rlik Dobbidan boshqa hech narsa so'ramang, iltimos, – ming'irladi elf, qorong'ilikda ko'zi yaraqlab. – Hozir bu yerda yovuz niyat shakllanmoqda. Ammo xavf ochiq yuz bergan pallada Garri Potter bu yerdan uzoqda bo'lishi lozim. Uyga keting, uyga, Garri Potter bunday noxush hodisaga aralashib qolishi mumkin emas, bu juda xavfli...

Garri, ko'za changallab, o'z boshini o'zi savalashiga yo'l qo'ymaslik uchun Dobbining qo'lini mahkam ushlab oldi.

– Kim, Dobbi? Xonani hozir kim ochdi-yu, o'tgan safar kim ochgan? – qattiq turib oldi Garri.

– Dobbi ayta olmaydi, ser, ayta olmaydi, – chiyilladi elf. – Dobbi aytishga haqli emas! Uyingizga keting, Garri Potter, uyingizga!

– Hech qayoqqa ketmayman! – darg'azab bo'lib baqirdi Garri. – Eng yaqin do'stlarimdan biri magllar oilasidan chiqqan. Agar xona chindan xam ochilgan bo'lsa, uni birinchi navbatda gurn qilishadi...

– Garri Potter do'stlar uchun jonini fido qilishga ham tayyormi?! – qandaydir umidsiz lazzat-la ingradi Dobbi. – Misli ko'rilmagan olijanoblik! Qahramonlik! Biroq u, o'zi-

ni o'ylashi kerak, o'zini qutqarishi kerak, Garri Potter...

Dobbi kutilmaganda yana unini o'chirdi. Uning ko'r-shapalaknikiga o'xshaydigan katta qulog'i titray boshladi. Garri ham eshik ortidagi qadam tovushini eshitdi.

– Dobbi ketishi kerak! – dedi qo'rqib ketgan elf.

Baland chertki ovozi eshilib, Garrining qo'li elf bilagi o'miga have ushlagancha, qoldi. Bola darmonsiz, eshikka diqqat bilan qarab yotdi. Qadam tovushi yaqinlashdi.

Ko'p o'tmay xonaga egniga paxmoq matodan tayyorlangan xalat, boshiga tungi qalpoq kiygan Dambldor orqasi bilan kirib keldi. Uning qo'lida uzun haykalning boshiga o'xshash narsa ko'rindi. Sal o'tib, haykalning professor Makgonagall ushlagan oyog'i ham paydo bo'ldi. Ikkovlon zo'r berib, haykalni karavotga yotqizdi.

– Pomfri xonimni chaqiring, – shivirladi Dambldor.

Professor Makgonagall Garri yotgan karavotning oyoq tomonidan o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bola o'zini uxlayotgan ko'yga solib, atrofdagi hayajonli ovozlarni eshitgancha, jim yotdi. Yana professor Makgonagallning shoshib yurgan qomati, ortidan esa tungi ko'ylak ustidan kofta tashlab, tez kelayotgan Pomfri xonim ko'rindi.

– Nima bo'ldi? – so'radi Pomfri xonim, karavotda qilt etmay yotgan haykal ustida engashib.

– Yana bir tajovuz, – javob berdi Dambldor. – Minerva uni zinada topib oldi.

– Yonida bir shingil uzum ham bor edi, – dedi professor Makgonagall. – O'ylashimizcha u hech kimga bildirmay, Potterni holidan xabar olgani kelayotgan bo'lgan.

Garrining ko'krak qafasi ichida nimadir siqilganday bo'ldi. U haykalning yuziga qarash uchun asta-sekin, ehtiyotkorona bosh ko'tardi. Oy nuri haykalning yuziga tushib, ochiq, harakatsiz ko'zida aks etdi.

Kolin Krivining hech narsa ko'rmayotgan ko'zi yuqo-

riga qaragan, qo'li oldinga uzatilgan bo'lib, fotoapparatni mahkam ushlab olgan.

– Dong qotganmi? – shivirladi Pomfri xonim.

– Ha, – tasdiqladi professor Makgonagall, – agar Albus pastga, issiq shokolad olib kelgani tushmaganda... Kim biladi, nima bo'lishi mumkin edi. O'ylasam yuragim orqaga tortib ketadi... Uchovlon Kolin ustiga engashdi. Damblдор qo'lini uza-tib, mahkam siqib turgan mushtchadan fotoapparatni chiqa-rib oldi.

– Hujum qilganni suratga olishga ulgurib qolgandir? – umid-la so'radi professor Makgonagall.

Damblдор indamay, fotoapparatning orqa qopqog'ini ochdi.

– O, Marhamatli falak! – xitob qildi Pomfri xonim.

Fotoapparat vishillab, ichidan pag'a-pag'a tutun chiqdi. Uchta karavot narida yotgan Garri kuygan plastmassaning badbo'y hidini his etdi.

– Erib ketibdi, – dedi ko'ziga ishonmagan Pomfri xonim, – Erib ketibdi-ya...

– Nimani anglatadi bularning hari, Albus? – talab ohangida so'radi professor Makgonagall.

– Shuni anglatadiki, – javob berdi Damblдор. – Maxfiy xona chindan ham yana ochilibdi.

Pomfri xonim kaftini labiga bosdi, Professor Makgonagall esa indamay Damblдорga baqrayib qoldi.

– Biroq Albus... Meni ma'zur sanaysiz-u... Kim bo'lishi mumkin?

– Masala kimligida emas, – g'udrandi o'ylanib qolgan Damblдор, – masala qanday tarzda ekanida...

Professor Makgonagallning yuzi kasb etgan qiyofani ko'rgan Garri, direktor o'rinbosari, «Griffindor» fakultetining mudiri ushbu hodisa ma'nosini tushunmaganini uqib oldi.

XI BOB. DUELCHILAR KLUBI

Ertasiga, yakshanba kuni ertalab uyg'ongan Garri, xonani yorqin qish quyoshi yoritgani, qo'li uvushib qolgan bo'lsa-da, yana suyakli bo'lib qolganini ko'rdi. U karavotiga o'tirib, Kolin yotgan tomon yuzlandi. Biroq Krivining karavoti kecha Garri ortiga o'tib, kiyim almashtirgan parda bilan to'sib qo'yilibdi. Bemorning uyg'onganini ko'rgan Pomfri xonim patnisda nonushta olib kirib, Garrining qo'li va barmoqlarini bukib, rostlash, uqalashga kirishdi.

– Ishlar joyida, – dedi u, Garri chap qo'l vositasida suli bo'tqa bilan o'ng'aysiz ovora bo'layotganini ko'rib, – Ovqatingni yeb, ketishing mumkin.

Garri kiyimini imkon qadar tez almashtirib, Ron bilan Germionaga Dobbi va Kolin haqida gapirib berishga oshiq-qancha, «Griffindor» minorasi tomon yugurdi. Biroq u do'stларini fakultetning umumiy mehmonxonasida topa olmadi. Uning hol-ahvoli bilan qiziqmagan bunday o'rtoqlardan biroz xafa bo'lib, qayoqqa ketishlari mumkinligini o'ylab qoldi.

Kulubxona oldida Garri o'tgan uchrashuvga nisbatan ancha ko'tarinki kayfiyatda, eshikdan mag'rurona chiqayotgan Persi Uesliga duch keldi.

– O, salom, Garri! – dedi u, ochiq chehra bilan. – Kecha zo'r uchding, barakalla. Endi «Griffindor» maktab kubogiga da'vo qilishi mumkin. Sen fakultetga ellik ball keltirding!

– Mabodo Ron yoki Germionani ko'rmadingmi? – so'radi Garri.

– Yo'q, ko'rganim yo'q, – dedi Persi, yuzidagi tabassum so'nib. – Umid qilamanki, Ron yana ayollar hojatxonasiga kirib olmagan...

Garri javoban kulib qo'yganday bo'ldi-da, Persi ko'z-

dan g'oyib bo'lishini kutib, to'g'ri G'amgin Mirl hojatxonasi tomon yo'l oldi. Garchi do'stlariga o'sha yerda hozir nima kerak bo'lishini tasavvur qila olmasa ham yaqin o'rtada Filch yoki sinfboshilardan birortasi yo'qligiga ishonch hosil qilgach, hojatxonaga kirib, ichkaridan yopilgan bo'lmalardan biri ichidan chiqayotgan tanish ovozni eshitdi.

– Bu men, – dedi u, kirish eshigini yopib.

Bo'lma ichidan jaranglagan, shapillagan tovushlar-u, bo'g'iq xitob eshitilib, kalit teshigida Germionaning hushyor ko'zi ko'rindi.

Garri! – xitob qildi u. – Qo'rqitib yubording-u! Kir... Qo'ling qalay?

– Joyida, – javob berdi Garri, bo'lmaga suqilib kirib.

Ustiga eski qozon o'rnatilgan unitaz gardishi ostida olov yonyapti. Nam ta'sir qilmaydigan, ixcham, olib yuriladigan gulxan yaratish Germionaning yaxshi bilgan narsalaridan biri.

– Dastlab seni olib chiqqani bormoqchi edik. Keyin Barcha qiyofalar damlamasini tayyorlashga qancha erta kirishsak, shuncha yaxshi bo'ladi degan qarorga keldik, – tushuntirdi Ron, Garri bir iloj qilib bo'lma eshigini yopgach. – Shu yerni eng xavfsiz joy deb topdik.

Garri Kolin Krivi haqida endigina gap boshlagan ediki, Germiona gapini bo'ldi.

– Xabarimiz bor. Ertalab professor Makgonagall professor Flitvikka aytib berayotganini eshitib qoldik. Shu sababdan ishni ertaroq boshlashga ahd qildik.

– Malfoyning iqrorini imkon qadar tezroq sug'urib olishimiz kerak, – dedi Ron, jangovar ohangda. – Bilasanmi, qanday xayolga bordim? O'yinda sharmandalarcha yutqazgan Malfoy alamini Kolindan olgan.

– Yana bir narsa haqida aytib bermoqchiman, – dedi Garri, Germionaning margumush bog'ini buzib, qaynatma-

XI BOB. Duelchilar klubi

ga tashlayotganini kuzatar ekan. – Tunda holimdan xabar olgani Dobbi keldi.

Germiona bilan Ron hayron bo'lib, bosh ko'tarishdi. Garri do'stlariga Dobbining gapini oqizmay-tomizmay aytib berdi. Dobbi aytmagan ba'zi narsalardan ham boxabar qildi.

– Maxfiy xona muqaddam ochilgan ekanmi? – so'radi Germiona.

– Ana endi hammasi tushunarli, – dedi Ron, tantanavor ohangda. – Aftidan, o'sha xonani Lyutsius Malfoyning o'zi maktabda o'qib yurgan kezlari ochgan, endi esa xona sirini arzandasi Drakoga aytib bergan. Mana, hamma gap ayon bo'ldi-qoldi. Dobbi Maxfiy xonaga qanaqangi maxluq yashirib qo'yilganini aytmagani chatoq bo'libdi-da, esiz. Nima uchun o'sha maxluqni bugungi kungacha hech kim ko'rmagani qiziq menga.

– Ehtimol, u ko'zga ko'rinmaslik qobiliyatiga egadir, – taxmin qildi Germiona, zuluklarni qozon ichiga yo'llab. – Balki, niqoblanishni bilar. Aytaylik, ritsarlar aslahasi yoki shunga o'xshash biror narsaga aylana olar. Qonxo'r buqalamunlar¹ haqida ham o'qiganman...

– Haddan ortiq ko'p o'qiysan-da, Germiona, – dedi Ron, zulukdan keyin ipak qanotli o'lik pashshalarni qozonga tashlab.

Pashshalardan bo'shagan qog'oz xaltani ezib, nari uloqtirar ekan, Garriga qaradi.

– Demak, poyezdga o'tirishimizga to'sqinlik qilgan ham qo'lingni sindirgan ham Dobbi ekan-da, – dedi Ron, bosh siltab. – Bilasanmi nima, Garri? Agar u, hayotingni saqlash ishlarini bas qilmas ekan. seni o'zi o'ldirib qo'yishi

¹ Buqalamun (*arabcha*: tovlanuvchan: xameleon) – Janubiy Osiyoda tarqalgan, daraxtda yashovchi, kudralib yuruvchi, sharoitga qarab rangini o'zgartirib turuvchi kaltakesaksimon jonivor; xameleon.

turgan gap.

Kolin Kriviga tajovuz qilingani va hozir u kasalxonada, o'likdan deyarli farq qilmay yotgani haqidagi xabar dushanba kuni ertalab hammaga ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga har xil bo'lar-bo'lmas mish-mish gap-u, asossiz uydir-malar ham tarqadi. Birinchi sinf o'quvchilari qasr ichida yolg'iz yurishdan qo'rqib, kichik-kichik g'uj galalar tarkibida yuradigan bo'lib qolishdi.

Afsun o'qish darsida Kolin Krivi bilan yonma-yon o'tirgan Jinna Uesli dili xufton bo'lib qoldi. Garrining fikricha, singilning ko'nglini ochish uchun har xil bema'ni qiliq ko'rsatishayotgan Fred bilan Jorj o'zlarini noto'g'ri tutishmoqda. Goh allaqanday hayvon terisiga o'ranib, Goh o'zlarini kuygan kishi holatiga solib, qasr yo'lagidagi haykal ortidan Jinaning yo'liga bexos chiqishar yoki shunga o'xshash boshqa qiliq qilishar edi. Persi egizak ukalariga tutqanoq bo'lgiday darajada baqirib, ikkalasining kasridan Jinna qorong'ilikdan qo'rqadigan bo'lib qolgani haqida missis Uesliga yozib yuborishini tahdid qilganidan so'ngina, bunday qilmishlarni bas qilishdi.

Ayni vaqtda, o'qituvchilardan bekitiqcha, tumor va unga o'xshash muhofaza buyumlarining yashirin bozori maktabda rosa gurkuradi. Nevill Longbottom o'ziga bir bosh sassiq piyoz, nayza qirrali qirmizi kristall va tritonning¹ hidlanib ketgan dumini sotib oldi.

– Modomiki Longbottomlar oilasi aslzoda sehrgarlar sulolasiga mansub ekan, senga hech qanday tajovuz xavf solmaydi, – deya Nevillni tinchlantirishga urinishdi griffin-

¹ Tritonlar (triturus) – salamandrasimonlar oilasiga mansub dumli kaltakesak. Fanga 9 tuni ma'lum Tanasining uzunligi 18 santimetrgacha. Yevropada, Osiyoning Yevropa qismida, Osiyoning janubiy va shimida, Shimoliy Amerikada yashaydi.

dorchilari.

– Birinchi bo‘lib Filchga hujum uyushtirildi. Men esa o‘sha Filch kabi deyarli shvax ekanim hammaga ma‘lum, – e‘tiroz bildirdi Nevill.

Dekabrning ikkinchi haftasida professor Makgonagall har yilgiday, qishki ta‘tilni o‘tkazish uchun uyga ketmay, Rojdestvo bayramini qasrda nishonlash istagini bildirganlar ro‘yxatini tuzdi. Garri, Ron va Germiona ham yozilib qo‘yishdi. Ular Malfoy Rojdestvoga qolayotgani haqida xabar topishgach, shubhalari yanada oshdi. Har yomonning bir yaxshiligi bo‘ladi. Do‘stlar ayni shu ta‘tilni Barcha qiyofalar damlamasini amalda sinab ko‘rish va Malfoydan iqrorini tezroq sug‘urib olish uchun qulay fursat deb topishdi.

Ming afsuski, damlamaning yarmigagina tayyor bo‘lgan. xolos. Ikki shoxlining tuyilgan shohi bilan bumsileng terisi hanuzgacha yetishmayapti. Ushbu tarkibiy qismlarni esa yagona bir joy – Snegning xizmat xonasidagi xususiy omboridagina olish mumkin. Bu masalada Garri shaxsiy mulohazaga, u ham bo‘lsa: Snegning xizmat xonasiga o‘g‘irlikka kirib, o‘sha murdorning qo‘liga tushgandan ko‘ra, Salazar Slizerinning afsonaviy maxluga bilan yuzma-yuz to‘qnash kelgan afzal degan fikrga ega.

Sehrli damlamalar tayyorlash darsi, mashg‘ulotlar jadvaliga muvofiq, payshanba kunining ikkinchi yarmida o‘tishi kerak bo‘lib, o‘sha noxush onlarga qolgan vaqt shiddatla yaqinlashmoqda.

– Biz Sneggni biroz chalg‘itishimiz kerak, xolos, – dedi Germiona, betashvish ohangda. – Shunda uchovimizdan birimiz uning xizmat xonasiga yashirincha kirib, kerakli narsani olib chiqamiz.

Garri bilan Ron Germionaga cho‘chib qarab qo‘yishdi.

Fikrimcha – davom etdi Germiona, vazmin ohangda,

XI BOB. Duelchilar klubi

– O'g'irlikka men kirganim ma'qul. Agar sizlar yana biron-bir nojo'ya xatti-harakat bilan qo'lga tushadigan bo'lsangiz, maktabdan quvib solishlari muqarrar. Men esa bu masalada hali ogohlantirilganim yo'q. Shunday ekan, sizlardan yagona bir narsa – to'polon ko'tarish talab qilinadi. Lekin to'polon shunday ko'tarilishi kerakki, Snegg, kam deganda besh daqiqa band bo'lib qolsin.

Garri ishonqiramay kulib qo'ydi. Sneggning darsida to'polon ko'tarish – uxtab yotgan ajdarning ko'ziga cho'p suqish bilan barobardir.

Sehrli damlamalar tayyorlash darsi yerto'ladagi keng xonalardan birida o'tadi. Payshanba kelib, barcha ishlar risoladagiday kechmoqda. Damlama tayyorlash uchun ishlatiladigan turli tarkibiy qismlar bilan mis tarozilar terilgan yog'och stollar orasida yigirmata qozon qaynayapti. Snegg pag'a-pag'a bug' orasida, griffindorchilarga achchiq tanbehlar berib yuribdi. Fakultet mudirining masxaraomuz gapini eshitgan slizerinchilar esa kulib qo'yishmoqda. Sneggning erka o'quvchisi Drako Malfoy Ron bilan Garri tomon Itbaliq¹ ko'zini otish bilan o'vora. Ammo shu narsa aniqki, javoban ish ko'riladigan bo'lsa, «adolatsizlik» so'zini aytishga imkoni bo'lmaydigan Ron ham Garri ham jazoga tortiladi.

Garri tayyorlagan Shishirish eritmasi talab darajasida bo'lmay, qandaydir suyuq chiqdi. Lekin bu Garrini tashvishga solmadi. Uning xayolini yanada muhimroq boshqa narsalar bilan band. Hozir u Germionaning imosini kutib, tayyorlagan damlamasi sersuv bo'lgani borasida professor Sneggning mazax gapiga e'tibor qilgani ham yo'q. Nihoyat

¹ Itbaliq — dumsiz amfibiyalar lichinkasi. Uvildiriqdan rivojlanadi. Suvda yashaydi. Tashiqi jabrasi, harakatlanishga yordam beruvchi uzun dumli, sov osu jismlariga yopishuvchi organi va yon organlari bor. Oyoqlari bo'lmaydi. O'simliklar bilan uziqtanadi. Metamorfoz yo'li bilan rivojlanadi.

Snegg uni o'z holiga qo'yib, navbatdagi qurboni – Nevill tomon yo'l olganda, Germionaning ma'noli imosini payqadi.

Garri qozon orqasiga tez o'tib, kissasidan doktor Filibusterning suvdan olovsiz otiladigan fantastik mushagini chiqardi-da, sehrli tayoqchasi bilan sal turtib qo'ydi. Mushak jiringlagan ovoz chiqarib, ishga tushgach, qo'lga oldi. Ixtiyorida atigi bir necha soniya borligini bilgan Garri qaddini rostlab, nishonni ko'zladi-da, mushakni yuqoriga uloqtirdi. Mushak to'g'ri nishonga – Goylning qozoniga borib tushdi.

Bir qozon damlama portlab, qatralari butun xonaga sachradi. Shishirish eritmasining tomchilari tekkan bolalar qichqira boshlashdi. Eritma Malfoyning basharasini shalabbo qilgan, shekilli, burni havo shariday isha boshladi. Goyl esa kaftini ko'ziga bosgancha, sakramoqda. Uning kattalashayotgan ko'zi tushlik likopini eslatdi. Snegg bu vaqtda osoyishtalikni tiklash va nima yuz berganini oydinlashtirishga urindi. Ommaviy parokandalikdan foydalangan Germiona esa birovga bildirmay Sneggning xizmat xonasiga asta kirib ketdi.

Jim! JIMLIK SAQLANSIN! – qichqirdi Snegg. – Kimga eritma tekkan bo'lsa, yonimga kelsin. Bu ishni kim qilganini bilganimdan so'ng jarohatni tuzatadigan Kichraytirish dorisini olsin.

Garri o'zini kulgidan bazo'r tiydi. Qovunday keladigan burnini polda sudrab yurgan Malfoy o'qituvchining yoniga birinchi bo'lib bordi. Tez orada stol oldiga sinfning yarmi to'plandi. Ayrimlar xaskashday bo'lib ketgan qo'lini ko'tara olmasa, boshqa birlari labi shishganidan gapira olmaydi. Bu orada xonaga ko'ylagining old tomoni biroz ko'tarilgan Germiona qaytib kirdi.

Ehtiyoj sezganlar o'qituvchi bergan ziddi-zaharni qa-

XI BOB. Duelchilar klubi

bul qilib, tanasining shishgan joyi o'z holiga qayta boshlagach, Snegg Goylning qozoniga yaqin borib, mushakning eshilib ketgan qora parchalarini chiqardi. Xonaga sukunat cho'kdi.

– Agar qachon bo'lishidan qat'i nazar, bu ishni kim qilganini bilib qolsam, o'sha kishini maktabdan quvib solishguncha tinch qo'ymayman, – va'da qildi u.

Garri zudlik bilan hayronlik qiyofasini yasab oldi. Snegg faqat Garrini kuzatdi. O'n daqiqa o'tib qo'ng'iroq zarbasi yangradi.

– Bu ishni men qilganimni fahmadi, – dedi Garri, Ron bilan Germiona uchovlon G'amgin Mirtl makoni tomon yo'l olar ekan. – Mendan gumonsirayotganini darhol payqadim.

Germiona qaynatmaning qo'lga kiritilgan yangi tarkibiy qismlarini qozonga tashlab, jadal aralashtira ketdi.

– Ikki hafta o'tib, tayyor bo'ladi, – quvonch-la e'lon qildi u.

– Bu ishni sen qilganingni Snegg isbotlay olmaydi, – tinchlantirdi Ron. – Qo'lidan nima keladi?

– Biron-bir dahshatli ish keladi, Sneggni bilaman-u, – hukm qilingandek xo'rsindi Garri.

Qaynatma pishqirib, ko'piklana boshladi.

Bir hafta o'tgach, vestibul orqali o'tayotgan Garri, Ron va Germiona e'lonlar taxtasiga endigina mahkamlangan pergament varag'i qarshisida to'planib, e'lon matnini o'qiyotgan bolalar guruhini ko'rishdi. Ularni ko'rgan Simus Finnigan bilan Din Tomas hayajonli qiyofa ila imlashdi.

– Duelchilar klubi ta'sis etilibdi! – dedi Simus, – Birinchi mashg'ulot bugun kechqurun o'tar ekan! Duel darslariga, ayniqsa, bugungi kunda asqatib qolishi mumkin bo'lgan bunday saboqlarga, hech e'tirozim yo'q.

Nahotki Slizerin qoldirib ketgan maxluq duelga chi-

XI BOB. Duelchilar klubi

qib urishadi deb o'ylasang? – maskaraomuz so'radi Ron, e'lonni qiziqsinib o'qir ekan.

Uchovlon Katta Zal tomon kechki ovqatga yo'l oldi.

– Umuman aytganda, bunday mashg'ulotlar foydadan xoli emas, – dedi Ron, – Yozilib qo'yamizmi?

Garri bilan Germiona mayl bildirishdi. Kechki soat sakkizda uchovlon shosha-pisha Katta Zalga qaytdi. Uzun stollar g'oyib bo'lib, devor yonida, havoda muallaq osilgan minglab shamlar yoritib turgan tilla tusli sahna paydo bo'libdi. Qora baxmalday qop-qora shift ostida maktabning, qo'liga sehrli tayoqcha ushlagan deyarli barcha o'quvchilari to'plangan. Hamma quvonch-la zavqlanmoqda.

Uchala o'rtoq jonli suhbatlashayotgan o'quvchilar davrasiga qo'shildi.

– Qiziq, kim o'rgatar ekan? – so'radi Germiona. – Kimdir menga professor Flitvik yoshligida duelchilar g'olibi bo'lgan degan edi. Ehtimol, shu kishi o'rgatar jang qilishni?

– Ishqilib... – degancha og'iz juftlagan Garri kutilmaganida ingrab yubordi.

Sahnaga qora olxo'rirangli kiyim kiygan barmo Sverkarol Charuald chiqdi. Uning yonida odatdagiday qora kiyimga burkangan Snegg ko'rindi.

Charuald jimlik saqlanishini so'rab qo'lini ko'tardi.

– Yaqinroq keling, yaqinroq! Men hammaga ko'rin-yapmanmi? Meni hamma eshityaptimi? – so'radi Charuald. – Juda soz! Unday bo'lsa, boshlaymiz! Yuzlab, minglab marta o'zimni himoya qilishga majbur bo'lganman. Barcha tafsilotlar asarlarimda bayon etilgan. Sizlar ham o'zingizni o'zingiz men kabi himoya qila olishingiz darkor. Shuning uchun professor Dambldor, ushbu kichik duelchilar klubini ta'sis etishga ijozat berdi. Tanishing, mening yordamchim, professor Snegg. – davom etdi Charuald, tishining oqini ko'rsatib: duel jangidan biroz xabari borligini ma'lum qi-

lib, sizlar bilan mashq qilishga kirishishimizdan oldin ayrim usullarni namoyish eta olishim uchun o'rtoqlarcha yordam ko'rsatishga rozilik bildirdi. Ha, aytganday, sizlarni boshidan tinchlantirib qo'ymoqchimanki, namoyish yakuniga yetgach, sehrli damlarnalar tayyorlash fani o'qituvchingizni to'rt muchasi sog' holatda qaytarib beraman, qo'rqmang!

Ikkalasi bir-birini o'ldirib yuborishsa, juda zo'r ish bo'lar edi, to'g'rimi? – g'udrandi Ron, Garrining qulog'iga.

Snegg lab cheti ila istehzoli kulib turdi. Agar Snegg unga shunday kulib qo'yganda bormi, allaqachon bu yerdan justakni rostlagan bo'lar edi. Qanday qilib Charuald haligacha kula olayotganini Garri hech tushunmadi.

Ikkala professor bir-biriga yuzlanib, ta'zim qilishdi. Har qalay Charuald qo'l kattlari bilan g'alati qiliq qilgan-cha, ta'zim qildi. Snegg esa jahl-la bosh irg'ib qo'ydi. Shundan so'ng ular sehrli tayoqchalarini shamshir ko'targan kabi ko'tarishdi.

– Ko'rib turganingizday, biz sehrli tayoqchalarimizni urf-odatga ko'ra jangovar holatga keltirib, tutdik, – tushuntirish berdi Charuald, jim bo'lgan tomoshabinlarga. – Uch deganda biz birinchi afsunni qo'llashimiz kerak. Tabiiyki, hozirgi vaziyatda hech qaysi birimizda raqib o'ldirish fikri yo'q.

– Buni men u qadar ishonch-la aytmagan bo'lar edim, – g'udrandi Garri, irshayib turgan Sneggning vajohatini ko'rib.

– Bir, ikki, uch...

Ikkovi tayoqchalarini bosh uzra ko'targancha, bir-biriga o'qtadi.

– Ekspelliarmus! – qichqirdi Snegg.

To'q qizil yog'du ko'rinib, bechora Charuald sahna-ning narigi tomoniga uchgancha, devorga zarb-la urilib, sirpanib verga tushdi.

XI BOB. Duelchilar klubi

Malfoy bilan ayrim slizerinchilar zavq-la xitob qilishdi. Germiona esa qo'rqqanidan sapchib tushib, oyog'ining uchiga turib oldi-da, og'ziga bosib olingan barmoqlari aro past ovozda baqirdi:

– Unga hech nima qilmadimikan, nima deb o'ylaysiz?

– Bizga nima? – deyarli baralla javob berishdi Ron bilan Garri.

Potila sochi tikka bo'lib ketgan Charuald bazo'r oyoqqa turdi.

– Xo'sh... mana marhamat! – dedi u, yo'rtib yurgancha, taxtasupaga qaytib chiqib. – Ko'rib turganingizday, qo'limdagi tayoqchamni yo'qotib qo'ydim. Demak, sizga Qurolsizlantirish afsuni namoyish etildi. Aha rahmat, miss Braun. Mazkur afsunni klubimiz a'zolariga namoyish etib, juda yaxshi qildingiz, qadrlri Severus. Ijozatingiz bilan aytishim mumkinki, qanday ish tutmoqchi bo'lganingiz menga mutlaqo ayon bo'lgan edi. Bolalarga ushbu usul ta'sirini amalda ko'rsatishga ahd qilganim uchun ham qarshilik ko'rsatmadim. Chunki, hech qanday qiyinchilik sezmagani bo'lar edim...

Snegning qiyofasi nimasi bilandir qotillikka qo'l urishni ko'zlayotgan jinoyatchiga o'xshab ketdi.

– Mashg'ulotimizning namoyish qilish qismi tugadi! – e'lon qildi buni payqagan Charuald. – Endi men sizlarni juftlarga bo'lib chiqmoqchiman. Professor Snegg, istasangiz, yordam berishni davom etishingiz mumkin...

Ular bolalar yoniga tushib, har biriga mos keladigan raqib tanlab berishga kirishdi. Charuald Jastin Finch-Fletchini Nevillga qarshi qo'ydi, Snegg esa Garri bilan Ronga yaqinlashdi.

– Bequsur jamoangizni parchalash vaqti yetdi deb o'ylayman, shunday emasmi? – zaharxanda qildi u. – Uesli, sening raqibing Finnigan bo'ladi. Potter...

Garri darhol Germiona tomon qadam tashladi.

– Yo‘q aslo bunday bo‘lmaydi, – dedi Snegg, sovuq irshayib. – Mister Malfoy, yaqinroq keling. Qani ko‘raylikchi, bizning dongdor do‘stimizni qanday ahvolga solib qo‘ya olasiz. Siz esa miss Grenjer, miss Bichesheyderga qarshi chiqasiz.

Malfoy viqor-la ishshayib, betakaliuflarcha yaqin keldi. Uning izidan tanasi yirik, bichimi kvadrat shaklini eslatadigan, pastki jag‘i oldinga tajovuzkorona chiqib turgan, «Sehrgar ayollar bilan birgalikda o‘tkazilgan ta‘til» asari sahifalarida tasvirlangan ayolga o‘xshaydigan slizerinchi qiz ergashdi. Germiona uni tabassum-la qarshi oldi-yu, javoban iliq munosabat olmadi.

– Raqibga yuzlanib turing! – ko‘rsatmalar bera boshladi sahnaga chiqqan Charuald. – Xo‘sh, ana endi bir-birinigizga ta‘zim bajo aylang!

Garri bilan Malfoy bir-biridan ko‘z uzmay, sezilar-sezilmas bosh irg‘ib qo‘yishdi.

– Sehrli tayoqchalar jangovar holatga keltirilsin! – qichqirdi Charuald. – Uchgacha sanab bo‘lganimdan so‘ng raqibni qurolsizlantirish afsunini qo‘llang. Eshitdingizmi, faqat qurolsizlantirish afsunini. Bizga hech qanday baxtsiz hodisa-yu, ko‘ngilsizliklar kerak emas, Bir... ikki... uch!

Garri tayoqchani bosh uzra ko‘tardi, biroq Malfoy g‘irromlik qilib, o‘z hamlasini Charuald sanagan «ikki» hisobida amalga oshirdi. Drakoning afsuni Garriga, go‘yo boshiga kattagina cho‘yan tova kelib tushganday, qattiq urildi. U turgan joyida gandirakladi-yu, lekin yiqilmadi. Vaqt yo‘qotmay, sehrli tayoqchasini Malfoyga o‘qtab, qichqirdi:

– Riktusempra!

– Men faqat qurolsizlantirish afsuni qo‘llanilsin dedimku! – baqirdi Charuald o‘quvchilar uzra.

Garri Qitiqlash tilimni qo‘llagimni bosa Malfoy polga

XI BOB. Duelchilar klubi

asta o'tirib, o'zini kulgiday to'xtata olmay, bilanglagancha, oyog'ida tura olmay qoldi. Polda yotgan Drakoni oxirigacha ursa diyonatsizlik qilgan bo'lishini o'ylagan Garri beg'amlik qilib qo'ydi. Og'zi bilan havo yutayotgan Malfoy tayoqchasini Garrining tizzasiga taqab, ezilgancha qichqirdi:

– Tarantallegra!

Shu zahoti Garrining oyog'i o'ziga itoat qilmay, kvikstep¹ raqsidagi kabi titray boshladi.

– To'xtang! Bas qiling! – chiyilladi Charuald.

Shu payt Snegg vaziyatni o'z nazoratiga oldi.

– Finite Inkantatem! – bo'kirdi u.

Garrining oyog'i qizg'in harakatini bas qildi. Malfoy ham kulgidan to'xtadi va shundan so'nggina ikkalasi yuqoriga qaray oldi.

Sahna uzra yashil tuman burqiramoqda, Nevill bilan Justin yerda hansirab yotibdi. Ron yuzi kulrang kasb etgan Simusga yerdan ko'tarilishga yordam berib, siniq tayoqchasining qilmishi uchun uzr so'rayapti. Germiona bilan Millisent Bichesheyder hanuzgacha kurashmoqda. Millisent og'riqdan ingrayotgan Germionaning boshini mahkam ushlab olgan. Ikkalasining sehrli tayoqchasi yerda yotibdi. Garri bir sakrab keldi-da, Millisentni Germionadan nari tortdi. Bichesheyder Garriga nisbatan ancha yirik bo'lgani bois bu ish oson kechmadi.

– Qadrdonlarim, bu nima qilganingiz, a?! – xitob qildi Charuald, duelchilar orasida zir yugurib, musobaqa oqibatlari qarangancha, – Tur o'rningdan Makmillian... Ehtiyot bo'ling, miss Fossett... Mahkamroq siqib olsang, But, bir necha soniya o'tib, qon oqishi to'xtaydi.

Bolalarning hunchalik urishib ketishini kutmagan Cha-

¹Kvikstep – fokstrota o'xshash, faqat yanada jadal kechadigan raqs turi.

XI BOB. Duelchilar klubi

ruald Katta Zal o'rtasida qaqqayib, Severusga qaradi. Snegning yaraqlayotgan qop-qora ko'zini ko'rib, nigohini olib qochdi.

– Alovatli afsunlarni boshqarish uslubini qilishni o'rgatganim ma'qulga o'xshaydi. Buning uchun ko'ngillilar jufti kerak bo'ladi. Longbottom va Finch-Fletchi, ishtirok etasizmi?

– Fikringizga qo'shila olmayman, professor Charuald, – dedi Snegg, sirg'anma harakat ila yirik, yovuz ko'rshapalakka o'xshab yaqinlashar ekan, – Longbottom oddiy afsun vositasida atrofda bor narsani vayron qilib tashlashga qodir. Bunday jangdan so'ng Finch-Fletchidan qolgan parchalarni kasalxonaga gugurt qutisiga solib eltishga to'g'ri keladi. Menda boshqa taklif bor, Malfoy va Potter juftligini jalb etsak, nima deysiz? – dedi Snegg, qiyshiq irshayib.

– Ajoyib fikr! – quvondi Charuald, Garri bilan Malfoyni Katta Zal o'rtasiga imlab.

Bolalar yo'l ochib, ortga tisarildi.

– Qara, Garri, – dedi Charuald. – Drako tayoqchasini o'qtagan fursatda mana bunday qilasan.

U boshi uzra ko'tarib olgan sehrli tayoqchasi bilan allaqanday tamtaroqli harakat qildi-yu, tayoqchasini qo'lidan chiqib ketdi. Buni ko'rgan Snegg basharasini nafrat-la burishtirdi.

– Ana, xolos! Tayoqcham haddan ortiq zo'riqqanga o'xshaydi, – dedi Charuald, sehrli tayoqchasini yerdan tez ko'tarib.

Snegg Malfoyga yaqin borib, qulog'iga allanima deb pichirlagach, Malfoy irshayib qo'ydi. Nima bo'layotganini yaxshi anglamay, biroz cho'chigan Garri Charualdga qaradi.

– Professor, hozirgina ko'rsatgan boshqarish uslubi-
ngizni yana bir bor takrorlasangiz, – iltimos qildi u.

– Qoʻrqib ketdingmi? – dedi Malfoy, Charualdga eshit-tirmay.

– Tuya hammomni orzu qilibdi, – vishilladi Garri.

Charuald Garriga dalda berib: «Men koʻrsatganday ish tutsang, hammasi joyida boʻladi!», – deganday, yelkasiga urib qoʻydi.

– Nima qilay? Tayoqchani yiqitib yuborishim kerak-mi?

Charuald uning savolini eshitmadi.

– Uch, ikki, bir, boshladik! – qichqirdi u.

Malfoy shu zahoti tayoqchasini siltab, qichqirdi:

– Serpensorsiya!

Garri Malfoyning tayoqchasi zarb bergani, undan uzun qora ilon otilib chiqib, duelchilar orasidagi polga tushgani va chaqishga shay holatda bosh koʻtarib turganini gung dahshat-la koʻrdi. Dod-voy koʻtargan xaloyiq yashin tezligiday ortga chekingach, Garri bilan Malfoyning atrofida boʻsh maydon hosil boʻldi. Snegg ilonga yuzma-yuz boʻlgan bolaning qoʻrqib ketganidan lazzatlandi.

– Qimirlama, Potter, – dedi u, erinchoq ovozda. – Uni oʻzim yoʻqotaman...

– Ijzatingiz bilan! – qichqirdi Charuald.

U ilon qarshisiga kelib, tayoqchasini bir siltagan ediki, «gum» etgan tovush yangradi. Ilon koʻzdan gʻoyib boʻlish oʻrniga oʻn metrcha yuqoriga sakrab, shaloplagancha polga tushdi. Tabiiyki, jahli chiqqan gazanda vishillab, shiddat-la oʻrmlagancha, Jastin Finch-Fletchining qarshisida toʻxtab, tish yalangʻochladi-da, hamlaga shaylandi.

Keyingi harakatini bajarishga nima majbur qilganini Garrining oʻzi angʻlay olmadi. Qarorini obdon oʻylab koʻrishga ulgurmay, oyogʻi, xuddi gʻildirakehali konki kiyilganday oʻzidan oʻzi olgʻa sirpanib, ilon qarshisiga keltirib qoʻydi:

XI BOB. Duelchilar klubi

– Tinch qo'y uni! – baqirdi u, ovozi boricha.

Mo'jiza! Tushunib bo'lmaydi-yu, biroq shashtidan qaytgan qop-qora ilon bolaga shu onda itoat etib, bog' shlangi¹ kabi uzun cho'zilgancha, oyog'i ostiga yotdi-da, mitti ko'zi ila Garriga baqraydi. Qo'rqinch hissi bolani tark etdi. Qayerdan ma'lum ekanini tushuntira olmaydi, ammo ilon endi hech kimga hamla qilmasligini Garri aniq biladi.

Tinchlangan yoki hayratda qolgan yoxud minnatdorlik izhor etayotgan Jastinning yuzini ko'rishga umid qilgan Garri kulgancha orqaga o'girildi-yu, aksincha, Finch-Fletchining qo'rquv va dahshat aks etgan qiyofasiga duch keldi.

– Yana nimani boshlamoqchisan? – qichqirdi Jastin va Garri juftlashga ulgurmay, Katta Zaldan o'qday uchib chiqdi.

Snegg oldinga chiqib, tayoqchasini siltadi. Ilon shu zahoti g'oyib bo'ldi. U ham boshqalar kabi Garriga hushyor, qosh chimirgancha, o'tkir qarab, nimanidir anglab olmoqchi bo'lganday g'alati tikildi. Uning nigohi Garriga yoqmadidi. Qo'rqib ketgan bolalarning har tomondan vahimali shivir-shivirini eshitdi. Kimdir uning kiyimini orqada turib tortdi.

– Ketdik, – shivirladi Ron, Garrining qulog'iga. – Bu yerni tez tark etgan ma'qul...

Ron hech narsani tushunmayotgan Garrini tortib, Katta Zaldan olib chiqdi. Germiona ham do'stlari ortidan ergashdi. Eshik oldidagi xaloyiq xuddi yuqumli kasallikka yo'liq-qan bemordan qochganday yo'l berishdi. Garri hech narsani tushunmayapti. Ron ham Germiona ham «Griffindor» fakultetining bo'm-bo'sh mehmonxonasiga yetib borguncha sukut saqlashdi. Umumiy mehmonxonaga yetgach, Ron

¹ Shlang (nemtscha: Schlange – ilon; schlingen – o'rtaqlamoq, chirmalmoq) – rezina yoki yiv o'tkazmaydigan materiallardan yasalgan egiluvchan truba

Garrini kresloga o'tqizib, hech qanday kinoyasiz so'rab qoldi:

– Ilonzabon ekansan-da sen, a! Nega bu haqda bizga indamading?

– Kim ekanman men? – so'radi Garri.

– Ilonzabon! – baqirdi Ron. – Ilon tilida gapira olar ekansan!

– A-a, shunday demaysanmi. Ya'ni aytmoqchimanki, bunga o'xshash ishni hayotimda ikkinchi bor qilishim. Kunlardan bir kun hayvonot bog'ida bexosdan boa-konstriktorni¹ xolavachcham Dudlining ketidan qo'ygan edim. Buning tarixi uzoq, lekin o'sha boa-konstriktor menga Braziliyada hech qachon bo'lmaganini aytgan edi. O'shanda men, sehrgar ekanimni mutlaqo bilmagan holda, ilonni beixtiyor ozod qilib yuborganman.

– Boa-konstriktor senga Braziliyada hech qachon bo'lmaganini aytgan? – takrorladi Ron, past ovozda.

– Xo'sh, aytgan bo'lsa nima qilibdi? – dedi Garri. be-parvo, – Ishonchim komilki, «Xogvars»dagilarning yarmi bunday qobiliyatga ega.

– O, yo'q, qattiq adashasan, – dedi Ron. – Bunday qobiliyat tez-tez uchrab turadigan qobiliyatlar jumlasiga kirmaydi. Bu juda yomon qobiliyat.

Nimasi yomon? – tushunmadi jahli chiqa boshlagan Garri. – Nima bo'lyapti sizlarga o'zi, a? Quloq soling, agar men ilonga Jastinni tinch qo'yishni buyurmaganimda...

– Ax, sen shunday dedingmi, ilonga?

¹ Boa - constrictor (oddiy bo'g'ma ilon) – bo'g'ma ilonlar oilasiga mansub zaharsiz ilon. Uzunligi 2-5,5 metr oralig'ida bo'ladi. Tensining rangi chiroyli naqshindor yaraqlagan. Amerikaning asosan tropik o'rmonlari, tog'li hududlarida (imperator bo'g'ma iloni – constrictor imperator kenja turi) va quruq ochiq landshaftlarda (Argentina bo'g'ma iloni – constrictor occidentalis kenja turi) tarqalgan. Ko'pincha yerda, daryo va soylar qirg'og'ida, daraxtlarda yashaydi. Odamlar yashaydigan joylar yaqinida ham uchraydi. Kemiruvchilar, kaktakesaklar va qushlar bilan oziqlanadi.

– O‘zing ham o‘sha yerda eding-ku... o‘zing eshitding-ku...

– Men seni serpentargo, ya‘ni ilon tilida gapirayotganingni eshitdim, xolos, – dedi Ron. – Sen esa... ilon bilan o‘zing istagan narsalar haqida gaplashgan bo‘lishing mumkin. Jastinning qo‘rqib ketgani ham bejiz emas. Nutqing tomoshabinlarda shunday taassurot qoldirdiki, go‘yo ilon ikkalang yashirinchilik til biriktirgan bo‘lding. Juda qo‘rqinchli manzara bo‘ldi, tushunyapsanmi?

Garri Ronga baqrayib qoldi.

– Men boshqa tilda gapirdimmi? Ammo, qanday qilib boshqa tilda gapirsam-u, o‘sha tilda gapirayotganimni o‘zim bilmasam? Aqlim yetmayapti.

Ron Garriga qarab bosh siltadi. Germiona ikkalasining yuzi xuddi birov o‘lib qolganini eshitgan kishining yuziday qiyofa kasb etgan. Shunday bo‘lsa-da, bo‘lib o‘tgan ishning nimasi yomon, nimasi qo‘rqinchli ekanini Garri hech tushunmadi.

– Balki, mundaq, odamga o‘xshab tushuntirib berarsiz, ilonga Jastinning boshini tishlab, uzib olishiga yo‘l qo‘ymaganimning nimasi yomon bo‘lganini? – jahl qildi u. – Nima farqi bor, qanday yo‘l tutganimning, muhimi Finch-Fletchi, men tutgan ish natijasida, Boshsizlar ahliga hozircha a‘zo bo‘lmay, oramizda qoldi-ku?

Farqi katta, – dedi nihoyat Germiona, bo‘g‘iq va g‘am-hasratga to‘lgan ohangda gapirib. – Gap shundaki, serpentargo tilida so‘zlashish qobiliyati Salazar Slizerinining tabiatidagi o‘ziga xos shaxsiy sifatlardan biri bo‘lgan. «Slizerin» timsoli ilon ekanining boisi ham aynan shunda.

Garrining og‘zi lang ochilib qoldi.

– Ana shunaqa, – dedi Ron. – Endi butun maktab sen Slizeringa eva-eva-eva-eva bo‘lishing haqida gapirib yuradi.

XI BOB. Duelchilar klubi

– Axir, bunday bo‘lishi mumkin emas-u, – dedi Garri, vujudini tushunib bo‘lmas vahima qamrab.

– To‘g‘ri, faqat buni isbotlash sal qiyinroq kechadi, – dedi Germiona. – Chunki u taxminan ming yil muqaddam yashab o‘tgan va ayrim atomatlar inobatga olinadigan bo‘lsa, sen unga uzoq qarindosh bo‘lishing ehtimoldan xoli emas.

Garri tunni uyqusiz o‘tkazdi. Chodirning to‘q qizil rangli baxmaldan tayyorlangan guldor pardalari orasida hosil bo‘lgan tirqish orqali, minora derazasi ortida gir aylana-yotgan qor uchqunlarini tomosha qilib yotgancha o‘ylab, o‘yiga yeta olmadi.

Chindan ham u Salazar Slizerinning avlodi bo‘lishi mumkinmi? Tan olish kerakki, u o‘z otasining oilasi, ajdodlari haqida hech narsa bilmaydi. Dursllar esa sehrgar qarindoshlar haqida savol berishga ijozat berishmagan.

Garri past ovozda serpentargo tilida biron nima deyishga urinib ko‘rdi. Bo‘lmadi. Buning uchun ilon bilan yuzmayuz turish kerak, shekilli.

Biroq men «Griffindor»da tahsil ko‘rmoqdaman, o‘yladi Garri. Agar tomirimda Slizerin qoni oqqanida bormi, taqsimlovchi Shlapa meni ushbu fakultetga yaqin yo‘latmagan bo‘lar edi...

«Darvoqe... – past eshitildi miyasida boshqa bemaza ovoz, taqsimlovchi Shlapa seni «Slizerin»ga yo‘llamoqchi edi-yu, yodingdan ko‘tarildimi?»

Garri boshqa biqiniga yonboshladi. Ertaga, gerbologiya¹ darsida Jastinga uchrab, ilonni, anavi tentaklar o‘ylagan kabi unga gijgijlamqchi emas, aksincha, ortga

¹ Gerbologiya – u‘simleklarning turlarini o‘rganadigan fan. Odatda bu fanda shifobaxsh

qaytarmoqchi bo'lganini batafsil tushuntirib beraman, ahd qildi bola.

Aksiga olib, tunda ko'rinish bergan qor uchqunlari erta bilan haqiqiy bo'ronga aylanib ketgani bois ushbu semestr-dagi gerbologiya bo'yicha so'nggi dars bekor qilindi. Professor Sarsabil xonini mandragorachalarning har biriga paypoq kiydirib, sharf o'rab chiqishi kerak ekan. Bu yetarlicha murakkab muolaja bo'lib, professor bunday mas'uliyatli ishni boshqa birovga ishonib topshirmadi. Ayniqsa hozir, missis Norris bilan Kolin Krivining hayoti aynan shu o'simlikning talab darajasidagi rivojiga bog'liq bo'lganida, bu tadbir o'ta jiddiy ahamiyat kasb etib qoldi.

Jastin bilan uchrasha olmagan Garri qattiq tashvish chekdi. U «Griffindor»ning umumiy mehmonxonasidagi kamin qarshisida, kresloda o'tirib ozor chekar ekan, do'stlari Ron bilan Germiona kutilmagan bo'sh vaqtdan unumli foydalanib, sehrli shaxmat o'ynashmoqda.

– Xudo haqi, Garri, – dedi Germiona, uning ot egarlagan zobitini Ronning fili otdan tushirib olgancha, taxtadan nari tortib ketayotganini ko'rib biroz achchiqlangan ovozda. – Senga shu qadar muhim ekan, bor, o'zing top, o'sha Jastinni.

Nihoyat jazm etgan Garri, «Semiz Xola» portreti to'sgan tuynukdan, Jastin ayni paytda qayerda bo'lishi mumkinligi haqida o'ylagancha, tashqariga chiqdi.

Deraza ortidagi kulrang qor uyurmaları dastidan qasr ichi kuppa-kunduz kuni odatdagidan ancha qorong'i bo'lib qolgan. Sovuqdan biroz junjaygan Garri, mashg'ulot o'tayotgan xonalar yonidan o'tib, ichkaridagi gap-so'zlarni chala-yarim eshitib bordi. O'rtog'ini bo'rsiqqa aylantirib qo'ygan qaysidir o'quvchini professor Makgonagall cha-ngitib so'kmoqda. Bu ishni kim qilganini ko'rish istagini bazo'r tiygan Garri yo'lida davom etdi. Ancha to'planib

XI BOB. Duelchilar klubi

qolgan uy vazifalarini bajarish uchun bo'sh vaqtdan foydalanayotgan bo'lishi mumkin degan xayolga borgan Garri Jastinni dastlab kutubxonada qidirishga ahd qildi.

Ayni damda gerbologiya bilan shug'ullanishi kerak bo'lgan xufflpuffchilar chindan ham kutubxonaning eng oxirida to'planib olishgan ekan. Biroq ular na kitob mutolaa qilishyapti va na biron narsa yozib o'tirishibdi. Garri, baland kitob tokchalari orasidan bolalarning bir-biriga yaqin egilib olgan boshlarini ko'rdi. Xufflpuffchilar to'lg'inlanib, nimanidir muhokama qilishmoqda. Ular orasida Jastin boryo'qligi Garriga ko'rinmadi. U endi yaqin bormoqchi bo'lgan ediki, qulog'iga uzuq-yuluq gaplar eshitilib, kutubxonaning ko'rinmaslik bo'limida to'xtadi.

– Nima qilganda ham, – dedi tiqmachoqday bir bola, – Jastinga yotoqxonada bekinib o'tirishni buyurdim. Aytmoqchimanki, agar Potter uni o'zining navbaldagi qurboni sifatida ko'z ostiga olib qo'ygan bo'lsa, hozircha ko'rinish bermagani ma'qul. Jastin Potterga magllar oilasidan chiqqanini aytib qo'ygan kundan buyon biror-bir o'xshash hodisa ro'y berishini kutib yurgan, albatta. U hatto Itonga yozdirib qo'yilganini ham og'zidan gullab qo'ygan ekan. Bu esa magllar uchun shunday ma'lumotki, to'g'ri kelgan joyda jar solib bo'lmaydi. Ayniqsa, Slizerinning vorisi izg'ib yurgan ayni damlarda, shunday emasmi?

– Demak, Emi, voris aynan Potter ekaniga ishonching komil, shundaymi? – so'radi oq sariq sochini mayda o'rgan qizil yuzli qiz, tashvishli ovozda.

– Xanna, – dedi to'ladan kelgan bola, jiddiy ohangda, – U ilonzabon ekaniga o'zing shohid bo'lding. Bunday sifat esa yovuz sehrgar alomati ekani hanumaga yaxshi ma'lum. Ilon bilan gaplasha oladigan xushxulq odamlar haqida biror marta bo'lsin, eshitgansanmi? Yo'qmi? Darvoqe, Salazar Slizerinni serpentozaabon bo'lgan deyishadi.

XI BOB. Duelchilar klubi

Suhbatdoshlar orasida notinch shivir-shivir o'tdi. Shundan so'ng Erni o'zining jarangdor ovozi ila gapini davom etdi:

– Devordagi yozuvni eslaysizmi? «Voris ag'yorlari, ehtiyot bo'ling». Potter bilan Filch o'rtasida qandaydir muammo yuzaga kelgan. Shu zahoti – mana senga! Mushukka tajovuz. Sal o'tib, anavi birinchi sinf o'quvchisi Krivi, kvish o'yinidan so'ng loyga belanib yotgan Potterni suratga olaverib, joniga tekkan. Keyin nima bo'lganini bilamizmi? Bilamiz. Kriviga ham tajovuz qilingan.

– U doimo iltifotli bo'lib kelgan. – qat'iyatsiz e'tiroz bildirdi Xanna. – Axir, ayni o'sha tufayli... gapimni tushunib olgandirsiz, «O'zingiz-Bilasiz-Kim» g'oyib bo'lgan. Potter u qadar yomon odam bo'lishi mumkin emas, shundaymi?

Erni javoban sirli shiviray boshladi. Xufflpuffchilar yanada jipslashib olishdi. Garri esa Erning gapini eshitish uchun astagina ikki qadam oldinga tashladi.

– Potter «O'zingiz-Bilasiz-Kim»ning hamlasidan qanday omon qolganini hech kim bilmaydi. Aytmoqchimanki, o'shanda u chaquloq bo'lib, aslida unga qarshi qo'llanilgan ajal keltiruvchi afsun ta'siridan mayda-mayda parchalarga bo'lingancha, burda-burda bo'lib ketishi kerak edi. Fikrimcha faqat o'ta qudratli yovuz sehgargina bunday dahshatli afsunga dosh bera oladi, – u ovozini yanada pastlatdi, – Ayni shu sababli ham «O'zingiz-Bilasiz-Kim» uni o'ldirmoqchi bo'lgan. Ikkinchi Yovuz Lord raqobat qilishini istamagan, tushundingizmi? Potter yana qanday yashirin qobiliyatlarini bekitib yurganini juda bilmoqchiman.

Garri bunday bema'nilikka ortiq chidamadi. U qattiq yo'talib, tokcha ortidan ko'rinish berdi. Agar jahli chiqmaganida, qarshisida ochilgan manzara juda kulgili ko'ringan bo'lar edi. Uni kutilmaganda ko'rgan xufflpuffchilar dong

XI BOB. Duelehilar klubi

qotib qolishganday, og'zilarini lang ochib, qilt eta olmay qolishdi. Erning yuzidan esa qon qocha boshladi.

– Salom, dedi Garri. – Men Justin Finch-Fletchini qidirib yuribman.

Xufflpuffchilarning eng dahshatli xavotiri o'z tasdig'ini topdi-qo'ydi.

– Unda nima ishing bor? – so'radi Erni, titroq ovozda.

– Duelehilar klubida ilonga aslida nima bo'lganini tushuntirib bermoqchiman, – javob berdi Garri.

Erni oqarib ketgan labini tishlab, chuqur nafas oldi-da, fikrini aytishga qaror qildi.

– Biz hammamiz klubda bo'lganmiz. U yerda nima yuz berganini ham o'z ko'zimiz bilan ko'rdik.

– Unday bo'lsa, men ilon bilan gaplashganimdan so'ng u, Jastinni tinch qo'yganiga ham e'tibor qilgan bo'lsangiz kerak? – so'radi Garri.

– Serpentargo tilida gaplashib, ilonni Jastinga qarshi gijgijlaganing, – terslik qilganicha turib oldi Erni, garchi vujudidagi titroqni idora eta olmasa-da. – Shaxsan men idrok etgan, o'zim ko'rgan narsa bo'ldi.

– Ilonni gijgijlaganim yo'q! – ovoz ko'tardi Garri. – U Jastinga hatto tegmadi ham!

– Tegishiga sal qoldi! – dedi Erni, taslim bo'lmay. – Basharti senga qiziq bo'lib, bilmoqchi bo'lsang, – tez qo'shib qo'ydi u, – Mening oilam muqaddam o'tgan aslzoda sehrgar va afsungarlarning to'qqizdan ortiq ajdodidan kelib chiqqan bo'lib, qonim, qolgan aslzoda sehrgarlar qoni kabi.

– Zotingga ham qoningga ham tupurdim! – qichqirdi Garri. – Nega endi men magllar oilalaridan chiqqanlarga tajovuz qilishim kerak ekan?

– Aytishlariga qaraganda, sen bilan birga yashaydigan magllardan qattiq nafratlanar ekansan, – tez javob berdi Erni.

XI BOB. Duelchilar klubi

– Dursllar bilan yashab, ulardan nafratlanmaslikning iloji yo‘q, – dedi Garri, achchiq ohangda. – Mening o‘rnimda bo‘lganida holingni tomosha qilgan bo‘lar edim.

U shartta o‘girildi-da, ayni vaqtda katta afsunlar kitoibining tilla suvi yuritilgan muqovasini artib turgan Ships xonimning salbiy nigohiga «sazovor» bo‘lgancha, shiddatla kutubxonani tark etdi.

G‘azabdan jaholat otiga mingan Garri, qayoqqa ketayotganiga parvo qilmay, yo‘lak bo‘ylab yurib, oqibatda, uni oyoqdan qoldirib, yerga qulatgan nihoyatda katta va qattiq narsaga urilib ketdi.

– A, salom, Xagrid, – dedi Garri, yuqoriga qarab.

Garchi Xagridning yuzini to‘qilgan, qor bosgan dubulg‘a bekitib turgan bo‘lsa-da, uni hech qachon, hech kim bilan adashtirib bo‘lmaydi. Krot¹ po‘stin kiyib olgan davangirning ulkan tanasi qasr yo‘lagini butkul to‘siq qo‘ygan bo‘lib, o‘lchami misli ko‘rilmagan darajada katta, boshmaldoqli qo‘lqopidan esa xo‘roz jasadi osilib turibdi.

– Ishlar qalay, Garri? – so‘radi Xagrid, gapira olishi uchun shlyomni yechar ekanu – Nima uchun darsda emas-san?

– Bekor qilishdi, – qisqa qildi Garri, oyoqqa turar ekan.
– O‘zing nima qilib yuribsan bu yerda?

Xagrid qo‘lidagi jonsiz parranda tanasini ko‘rsatdi.

– O‘tayotgan semestr davomida mana bunisi bilan ikkinchi xo‘rozim o‘lishi, – dardini ocha ketdi u. – Bu yo tulkining, yo qon so‘radigan ayiqning qilgan ishi. Tovuqxonamni o‘qitib qo‘yish uchun esa direktorning ruxsati kerak. – dedi u va qor bosgan qalin qoshini chimirib, Garriga diqqat-la qaradi. – Ahvoling yaxshimi ishqilib, churvaqa? Turqingga qara, qandaydir terlab ketgan, badjahl...

¹Krot – yer ostida yashovchi, hasharotxo‘r sutemizuvchi hayvon.

XI BOB. Duelchilar klubi

Garri Erni va boshqa xufflpuffchilarning aytgan gaplari haqida Xagridga soʻzlab berishni istamadi.

– Hech qisi yoʻq, – qoʻl siltadi u. – Xagrid, men bora qolay. Hozir bir narsani boshqa narsaga aylantirish darsi boshlanadi. Men esa darsliklarimni olishga ulgurishim kerak...

Erning: *«Jastin Potterga magllar oilasidan chiqqani ni aytib qoʻygan kundan buyon biror-bir oʻxshash hodisa roʻy berishini kutib yurgan...»*, – degan gapini miyasidan chiqara olmagan Garri yoʻlini davom etdi.

U zinadan yuqoriga koʻtarilib, muyulish ortiga oʻtgach, hali bu qadar qorongʻi boʻlmagan tor oraliq boʻylab bordi. Deraza romidagi tirqishlar orqali kuchli esgan muzday yelvizak devordagi mashʼalalarni oʻchirib yuborgan. Oraliq oʻrtasiga kelib qolgan Garri nimagadir qoqilib, boz yiqildi.

U boshini ortga burgancha, nimaga qoqilganini bilmoqchi boʻlib, koʻzini qisib oldi. Koʻrgach esa borki ichki aʼzolari uni tark etganday his etdi oʻzini.

Yuzi dahshat qiyofasini kasb etgancha qotgan Jastin Finch-Fletchi yerda uzala yotibdi. Uning shiftga baqraygan koʻzi qilt etmaydi. Bu hali hammasi emas. Jastinning yonida yana allaqanday tana, Garri hali biron marta boʻlsin, koʻrmagan manzara hosil qilgancha yotibdi.

Bu, odatda, sadafdek oq, yarim shaffof koʻrinadigan emas, aksincha, kuyib qorayib ketgan «Deyarli Boshsiz Nik»ning tanasi. Old tomoni yuqoriga qaragan boʻlib, taxtaday toʻgʻrilanib qolgan Nik poldan olti dyum tepada, havoda muallaq osilib turibdi. Boshi oshiq-moshiqda ilinib qolganday boʻynidan ajralib, yuzi xuddi Jastinning yuzi singari dahshat qiyofasini kasb etgan.

Nafasi tezlashgan Garri sakrab oyoqqa turdi. Yuragi koʻkrak qafasining ichida nogʻora kabi doʻpir-doʻpir urayotganini his etdi. Hamma yoqqa alanglab qarab, uzun-

XI BOB. Duelchilar klubi

uzun oyoqlari bilan tez qadam tashlagancha, qotgan tanalaridan nari qochayotgan o'rgimchaklar qatorini ko'rdi. Atrof jim-jit. Faqat yaqin o'rtadagi sinf xonalaridan dars o'tayotgan o'qituvchilarning bo'g'iq ovozlari eshitilmoqda.

U qochib ketishi mumkin. Bu yerda bo'lganini esa hech kim va hech qachon bila olmaydi. Lekin jabrlanganlarni shu holatda tashlab ketib bo'lmaydi-yu, axir... Yordam chaqirish kerak... Ammo uning aybsiz ekaniga birov ishonarmikan?

Vujudini vahima qamrab turar ekan, yonidagi eshik taraqlagancha ochilib, misoli raketa kabi poltergeyst Dryuzg uchib chiqdi.

– Voy-bo'y! Terlab sasigan Potter-u! – hiringladi Dryuzg.

U Garrining yonida tebranib, qansharidagi ko'zoy-nagini turtdi.

– Xo'sh, nima bilan bandmiz? Nima izlab izg'ib yuribmiz?...

Murakkab salto bajarayotgan Dryuzg, kutilmaganda harakat o'rtasida to'xtab qoldi. Oyog'i osmondan bo'lib qolgan poltergeyst ovoz chiqarmay Jastin bilan «Deyarli Boshsiz Nik»ka baqrayib qoldi. So'ng to'g'ri holatga burilib, o'pkasini havoga to'ldirgan bo'ldi-da, Garri uni to'xtatishga ulgurmay, baqira ketdi:

– TAJOVUZ! TAJOVUZ! NA TIRIKKA, NA O'LIKKA KUN BOR BU YERDA! QO'LIDAN KELGAN QOCHIB QUTULSIN! YANA BITTA TAJOVUZ! TAJOOOVUUUZ!

Eshiklar qars-qurs ochilib, yo'lak odamga to'ldi. Uzoq kechgan bir necha daqiqa davomida shunday sarosima bo'ldiki, Jastinni bosib yuborishlariga sal qoldi. «Deyarli Boshsiz Nik»ning ichida esa kimlardir ivirsib o'tib yurdi. Garri

lik saqlashga da'vat etish bilan ovora. Professor Makgonagall, ketidan esa hozir uning darsida o'tirgan o'quvchilar yugurib kelishdi. Ulardan birining sochi bo'rsiqning¹ mo'y-nasiga o'xshab, oq-qora yo'lliligicha qolgan. Professor Makgonagall sehrli tayoqcha vositasida kaft bilan stolga urilgan tovush chiqarib, jimlik qaror toptirdi va hamma o'z sinf xonasiga tarqalishini buyurdi. Jinoyat sodir etilgan joy biroz bo'lsa-da, bo'shatilishiga ulgurmay, halloslagan xuff-puffchi Erni yugurib keldi.

– Jinoyat ustida qo'lga tushibdi-da! – xitob qildi u. Qordan ham battar oqargan yuzi ila Garriga qo'l o'qtab.

– Jim, Makmillan! – keskin ovoz berdi professor Makgonagall.

O'qituvchilar Jastin bilan «Deyarli Boshsiz Nik» ustida engashib, tanalarini ko'zdan kechirar ekan, alg'ov-dalg'ov va tartibsizlikni nihoyatda xush ko'radigan, xusumat ila irshaygancha, shuncha vaqtdan buyon shift ostida tipirchilagan Dryuzg quvnoq qo'shiqcha to'qib, xirgoyi qila boshladi:

*Eh, Potter-kirnotter, nimalar qilding,
O'quvchilarni o'ldirib, qabih o'ynashding.*

– Bas qil, Dryuzg! – o'shqirdi professor Makgonagall.

Dryuzg tilini chiqarib, Garrini mazax qilgancha, orqaga tisarilgancha, nari uchib ketdi.

Professor Flitvik bilan astronomiya bo'linmasida faoliyat yuritadigan professor Zlovestra Jastinni kasalxonaga olib ketishdi, «Deyarli Boshsiz Nik»ni esa qanday tashish kerakligini hech kim bilmadi. Oxiri professor Makgonagall havodan kattagina ventilator yasab, Erniga ushlatdi va Nikning tanasini yuqoriga zina bo'ylab qay yo'sinda uchirib

¹Bo'rsiq – sutemizuvchilar turkumining suvsarsimonlar oilasiga mansub yirtqich

XI BOB. Duelchilar klubi

borish borasida yo'l-yo'riq berdi. Erni ventilator hosil qilgan havo oqimini Nikning tanasiga yo'llashi bilan arvoq, tovushsiz qora havo shari kabi havoda suza ketdi. Hamma tarqagach, Garri professor Makgonagall bilan yolg'iz qoldi.

– O'rtimdan, Potter, – buyurdi o'qituvchi.

– Professor, ont ichib aytamanki...

– Bu masala mening vakolatim doirasiga kirmaydi, Potter, – shartta kesdi professor Makgonagall.

Ular bir so'z demay muyulish ortiga o'tib, biroz yurishgach, katta va nihoyatda xunuk ajdar fusli tosh ilon qarshisi da to'xtashdi.

– Limonli obakidandon!¹ – dedi professor.

Bu parol bo'lsa kerak, tosh ilon birdan jonlanib, chetga qochdi, ortidagi devor esa ikki tomonga surilib ochildi. Garri, uni noma'lum dahshat kutayotgan bo'lishiga qaramay, hayron bo'lmay qolmadi. Devor ortida xuddi eskalator kabi yuqoriga harakatlanayotgan aylanma zina ko'rindi. Professor Makgonagall ikkalasi zinaga chiqishlari bilan devor qarsillab yopildi. Zina buralib-buralib, ikkalasini yuqoriga ko'tarib ketdi. Boshi biroz aylangan Garri, nihoyat ro'parasida, grifon gavdasi ko'rinishida yasalgan eshik bolg'asiga ega, sayqal berilgan katta eman eshikni ko'rdi.

Qayoqqa olib kelishganini bola fahmlaganday bo'ldi. Aftidan, Damblorning makoni aynan shu yer bo'lsa kerak.

¹ Obakidandon (forscha: suyuq, suvli-tish) – shakar qiyomidan tayyorlangan shirinlik tur.

XII BOB. BARCHA QIYOFALAR DAMLAMASI

Tosh eskalatordan tushgan professor Makgonagall eshik taqillatdi. Eman eshik shovqinsiz ochilib, ichkariga kirishgach, professor Garriga kutib turishni buyurib, o'zi keyingi xonaga kirdi.

Bola atrofga diqqat-la razm soldi. Aytish joizki, o'quv yili davomida o'qituvchilarning Garri kirgan xizmat xonalari orasida eng qiziqarlisi Dambldorning xizmat xonasi ekan. Bir necha daqiqadan so'ng maktabdan haydalish xavfi tahdid solib turmaganida, bu yerdagi barcha narsalarni bajonidil tomosha qilib, o'rganib chiqqan bo'lar edi.

Doira shaklidagi ushbu xona ancha keng bo'lib, hamma yoqdan qandaydir sirli shitir-shitir tovush eshitilmoqda. Ingichka oyoqli baland stolchalar ustiga terilgan turli-tuman kumush asboblarning bug' chiqarib aylanmoqda. Devorga sobiq direktorlarning rasmlari osilgan. Ular hozir o'z kreslolarida mizg'ib o'tirishibdi. Oyog'i allaqanday hayvon oyog'iga o'xshatib yasalgan katta yozuv stoli turibdi. Stol ustidagi tokchada esa haddan tashqari kir, a'zoyi badani yamoq bo'lib, rosa eskirib ketgan o'sha mashhur cho'qqidor taqsimlovchi Shlapa savlat to'kkancha, joylashib olgan.

Garri biroz hardamxayol bo'lib, tinch uxlayotgan sehgarlarning suratlariga ko'z yugurtirib chiqdi. Agar hozir u, taqsimlovchi Shlapani yana bir bor kiyib ko'rsa, biron-bir nojo'ya kor-hol to'y bermaydi-ku? Shunchaki tekshirib... bir yil muqaddam shlapa uni fakultetga to'g'ri yo'llagan-yo'l-tamaganiga yana bir bor ishonch hosil qilib ko'radi, xolos...

Bola shoshmasdan, stol atrofini shovqinsiz aylanib o'tib, tokchadagi shlapani asta qo'lga oldi-da, boshiga kiydi. Shlapa unga katta bo'lib, o'tgan safargiday ko'zini

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

yopdi. Garri qora astarga tikilgancha, nima bo'lishini kutdi. Nihoyat qulog'iga past ovoz eshitildi:

– Ichingni biron nima tatalayaptimi, deyman, a, Garri?

– M-m-m, ha, – g'udrandi Garri, – E-e-e..., ovora qilganim uchun ma'zur sanang... bir narsani so'rab bilmoqchi edim...

– Fakultetingga to'g'ri yo'llaganimni bilmoqchidirsanda, – gapni bo'ldi fahmli shlapa, – Nimasini aytasan... masalang nihoyatda qiyin kechgan. Biroq men gapimga javob berib, haligacha o'z fikrimda turaman. Sen chindan ham «Slizerin»da ko'p narsalarga erishgan bo'lar eding...

Garrining yuragi qorin bo'shlig'iga dumalab tushib, ichida nimadir siqilganday bo'ldi. U o'ngib, yag'iri chiqib ketgan shlapaning cho'qqisidan shartta changalladi-da, boshidan yechib, tokchadagi joyiga tiqib yubordi. Ko'ngli behuzur bo'lganini his etdi.

– Yo'q, adashasiz, – baland ovozda dedi u, harakatsiz jim qolgan shlapaga.

Shlapa bolaning gapiga hech qanday munosabat bildir-madi. Garri ko'zini shlapadan uzmay ortga chekindi va o'tkir g'alati tovushni eshitib, keskin orqaga burildi.

Bitishicha, u, Damblдор qabulxonasida yolg'iz emas ekan. Eshik yoniga o'rnatilgan tilla qo'noqda qartayib, kuch quvvatdan qolgan, xuddi pati oxirigacha yulib olinmagan kurkaga o'xshash qandaydir qush o'tiribdi. Garri qushga baqrayib qoldi. Qush ham bolaga ma'yus qarab, va-na bir bor o'tkir ovoz chiqardi. Garrining nazarida, nigohi juda g'amgin ushbu qush nihoyatda kuchli kasallikka chalingan. Bola qarab turar ekan, qushning dunidan bir nechta pat to'kilib tushdi.

Garrining miyasiga noxush bir xayol keldi: «Ishqilib, maktab direktori Damblдорning sharti ketib, parti qolgan mana bu qushi omonatini hozir, aynan men bilan yakka qol-

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

gan fursatda topshirib qo'ymasa go'rga edi. Shunisi yetmay turibdi...».

Yaxshi niyatga ham, yomon niyatga ham farishtalar omin qilishadi, deb bejiz aytmaydilar. Garrining fikri hali oxirigacha yetmay, qush o'zidan o'zi yonib ketdi. Dahshatga tushgan Garri dod solib, stol tomon tisarildi. U atrof-ga olazarak qarab, suv topa olmadi. Olov shariga aylanib, qattiq qichqirgan qushdan bir necha soniya ichida, agar polga to'kilgan bir siqim kul inobatga olinmasa, asar ham qolmadi. Shu payt qo'shni xona eshigi ochilib, ostonada yuzi jiddiy qiyofa kash etgan Damblдор ko'rindi.

– Professor, – g'udullay boshladi Garri, – qushingiz... men hech narsa qila olmadim. Shartta oldida, yondi-ketdi...

Damblдор esa bolani hayron qoldirib kulib qo'ydi.

– Topgan vaqtini qarang buni, – dedi Damblдор. – Anchadan buyon mazasi bo'lmay yurgan edi. Necha marta unga shama qilgan edim-a, shoshilmoq darkor deb.

Damblдор hang-mang bo'lib qolgan bolaning aftini ko'rib xandon otdi.

– Bu qaqnus¹, Garri. Laqabi Yangus. Qaqnus ajali yetgan mahalda o't olib o'ladi va kul ichidan qayta tirilib chiqadi. Ana, qara...

¹ **Qaqnus** (latincha yoki yunoncha: Phoenix - sehrli qush) - afsonaviy sehrli qush. Afsonalarga ko'ra olovda tug'ilib, yana olovda o'ladigan qush, boshqa bir afsonaga qaraganda kulda tug'ilib, olovda o'ladigan qush, ya'ni uning oxirida u turli xushbo'y o'tinlar bilan o'z uychasini yondirib va uning kulidan yangi qaqnus paydo bo'ladi. Misrliklarning tasavvuri bo'yicha, u o'tlarning xushbo'y hididan o'ladi, so'ng esa quyoshda yonib va uning tanasidan Qaqnus bola chiqadi... Uning ko'rinishi burgutsimon va rangi qizil til-lasimon yoxud olovrangda deb tasavvur qilingan. Qaqnusning afsonasi haqidagi ilk yozma afsonalar miloddan avvalgi V asrda yashab ijod etgan tarixchi - Gierodot asarlarida uchraydi. U bu qushning kelib chiqishi Arabistonga borib taqalishini aytgan. Qaqnus ota-onasi bilan 500 yil yashayotganini va ota-onasi o'lib qolganda ularning jasadini Misming Geliopol shahridagi chomga ko'madi. Gierodot Qaqnusning o'z-o'zini olovlanib o'lishi va yana olovda tug'ilishi haqidagi afsonani asossiz deya ta'riflaydi. Qaqnus qushi Navoiy asarlarida tug'ilgan shunday deyilgan: «Qaqnus - mavhum bir qush, afsonaga ko'ra turmush-g'ida juda ko'p teshiklar bo'lib, bu teshiklardan chiqqan ovozlardan go'yo musiqa o'ylab chiqarilar emish». Qaqnus badiiy adabiyotda abadiy barhayotlik ramzi hisoblanadi.

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

Garri pastga qaradi. Mittigina, teri qoplamasi burishgan, yangi ochilgan jo'ja kul ichidan bosh chiqardi. Jo'ja xuddi hozirgina yonib bitgan qush kabi nihoyatda xunuk.

– Attang, u bilan aynan yonish kuni uchrashding, – dedi Damblдор stol yonidagi kresloga joylashar ekan, – Qaq-nus, odatda, alomat go'zal bo'ladi. Pat qoplamasi nihoyatda ziynatli, alvon va tillarang ko'rinadi. Qoyil-maqom qushda bu, qaqnuslar. Ular og'ir yuk ko'tarishga qodir bo'lib, ko'z yoshi shifobaxsh sanaladi. Bundan tashqari, juda sadoqatli uy jonivoridir.

Yangus yonganda, Garri bu yerga nima uchun kelgani-ni esidan chiqargan edi. Biroq yozuv stoli ortidagi kreslo-siga shohona o'tirib olgan Damblдорni ko'rib, xotirasi tiklandi. Direktorning och-moviy ko'zi teshib yuborguday darajada Garriga tikilib turibdi.

Lekin Damblдор hali bir og'iz so'z aytmay, xona eshigilang ochilib, ostonada yuzi telbanamo qiyofa kasb etgan, paxmoq boshiga shlyom bosib kiygan, haligacha xo'rozning o'ligini qo'lidan qo'ymagan Xagrid ko'rindi.

– Garrining ishi emas bu, professor Damblдор! – ho'ngradi u – Men u bilan endigina suhbatlashib bo'lgan edim ham-ki, xayol o'tmay, anavi yigitchaga tajovuz qilingan! U ulgurmagan bo'lar edi. Umuman Garri bunday ish qila oladimi? Ser...

Damblдор allanima deyishga urinar, Xagrid esa nafasi tiqilib, qo'lida siltayotgan jonsiz parrandaning patini to'kib, tinimsiz gapirar edi.

– ... u qilmagan. Kerak bo'lsa, Sehrgarlik vazirligida is-talgan narsani o'rtaga qo'yib, ont ichaman...

– Xagrid, men...

– ... haqiqiy jinoyatchi chetda qolib, boshqa odamni tu-tib olgansiz. Men bilaman-u, Garri hayotda bu ishga qo'l...

Xagrid! – qichqirdi nihoyat Damblдор. – Men Garri-

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

dan gumonsiraganim yo'q.

Oraga o'ng'aysiz sukunat cho'kdi.

– Xayriyat, juda soz, – dedi xo'rozning o'ligini nihoyat tek qo'yib, osiltirgan Xagrid. – Unday bo'lsa, men tashqarida kutaman, – dedi-da, xijolat tortib chiqib ketdi.

– Siz mendan gumonsiraganingiz yo'qmi, professor? – so'radi qalbida umid uchquni uyg'ongan Garri.

– Yo'q, Garri, gumonsiraganim yo'q, – dedi stol ustini xo'roz patidan tozalayotgan Damblдор, – biroq men, nima qilganda ham sen bilan gaplashib olmoqchiman.

Damblдорning yuzi yana jiddiy qiyofa kasb etdi. Garri hayajon-la direktorning gapini kutdi. U esa uzun barmoqlarining uchlarini bir-biriga taqab, Garriga jimgina tikilib o'tiribdi.

– Garri, menga aytadigan biron gaping bormi? – asta so'radi Damblдор. – Gap nima to'g'risida ekanining ahamiyati yo'q. Qanday mavzuda bo'lishidan qat'i nazar, bormi aytar gaping?

Nimani aytib berish kerakligiga Garrining boshi qotdi. U darhol Malfoyning: *«Maglvuchchalar, navbat sizlarga yetdi!»* degan qichqirig'ini esga oldi. Unitaz ustida miltillab qaynayotgan Barcha qiyofalar damlamasi, ikki marta egasi yo'q ovoz eshitgani haqida o'ylab ko'rdi. Keyin Ron aytgan: *«Kishining hech kim eshitmayotgan ovozni eshitishi, hatto sehrgarlar olamida ham juda yomon alomat sanaladi»* deganini xotirladi. O'zi haqidagi mish-mish gaplar hamda Salazar Slizerin bilan qandaydir qarindoshlik rishtasi bo'lishi mumkinligidan xavotirlanayotganini ham esga oldi...

– Yo'q, professor, – dedi nihoyat Garri, – aytar gapim yo'q...

XII BOB. Barcha qiyofalar damlanasi

Ketma-ket bo'lgan ikki jinoyat tufayli yuzaga kelgan, «Xogvars»da yaqindagina qaror topgan mujmal xavotirning haqiqiy vahimaga aylanib ketishiga sabab bo'ldi. Shunisi qiziqki, «Deyarli Boshsiz Nik» taqdiri eng kuchli ta'sirga ega bo'ldi.

– Arvozni bunday holatga nima keltirishi mumkin? – so'rashar edi odamlar bir-biridan. – U qanday kuchki, shundoq ham o'lik kishiga bunchalik qattiq ta'sir o'tkazsa?

Deyarli ommaviy ko'chish boshlandi. Xaloyiq oldindan «Xogvars-Ekspress»da joy band qila boshladi. O'quvchilar Rojdestvo bayramini nishonlash uchun uyga oshiqishdi.

– Ahvol shu tarzda davom etadigan bo'lsa, – dedi Ron, do'stlari Garri bilan Germionaga, – qasrda siz-u biz hamda Malfoy, Krabbe va Goyl qolamiz. Zo'r Rojdestvo bo'ladi-da.

Malfoy o'zini tomdan tashlasa, tomdan tashlaydigan Krabbe bilan Goyl ham qasrda qolayotganlar ro'yxatiga yozilgan. Umuman aytganda, maktabda Rojdestvo bayramini o'tkazadigan odamlar deyarli qolmaganidan Garri sevindi. To'g'risini aytganda, go'yo har qanday fursatda uning so'yloq tishi o'sib chiqishi yoki atrofga zahar tupura boshlashi mumkinday, bolalar uni chetlab o'tishlaridan ham orqasida eshitiladigan shivir-shivir gaplar-u, barmoq o'qalishlardan ham qayerda bo'lmasin uni ta'qib qilayotgan vishillash-g'udranishlardan ham nihoyatda charchagan.

Fred bilan Jorj esa qaror topgan bunday vaziyatdan ma'za qilishyapti. Egizaklar kutilganidan ham a'lo ish tutishdi. Ular qasr yo'laklari bo'ylab Garrining oldida borishgancha:

– Po'sht! Po'sht! Yo'l bering! Slizerinning vorisi kelmoqdalar! U qurollangan va o'ta xavfli, – deya jar solishar edi.

Ukalarining bunday xulqi Persiga yoqmadi.

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

– Hech ham kulgili emas, – dedi u.

– Ey, Persi, yo'ldan qoch, Garri shoshib turibdi, – dedi Fred, akasining tanbehiga javoban.

– To'ppa-to'g'ri, – dedi Jorj, kulgidan tiqilib, – Garri hoziroq Maxfiy xonaga kirib, o'zining sadoqatli, o'tkir tishli xizmatkori bilan bir piyoladan choy ichib chiqishi kerak. Tushundingmi, Persi? Shunday ekan, yo'l bo'shat.

Jinnaga akalarining hazili yoqmay, xafa bo'ldi. Har safar Fred butun mehmonxona orqali qichqirgancha, Garridan kelasi safar kimga tajovuz qilmoqchi ekanini so'raganda yoki Garriga duch kelgan Jorj uni sarimsoq piyoz bog'i bilan cho'chitishga uringanida Jinna:

– Unday qilma, – degancha chiyillar edi.

Garri egizaklarning bunday hazillariga e'tiroz bildir-madi. Loqaq Fred bilan Jorj uning Slizerin vorisi bo'lishi mumkinligi haqidagi gap-so'zlarni kulgi bilan qarshi olganliklaridan o'zini yengil his etdi. Drako Malfoyga esa egizaklarning bunday qiliqlari yoqmas va har safar ko'rganida battar jahli chiqar edi.

– Malfoy, aslida voris o'zi ekanini hammaga e'lon qilishdan bazo'r tiyilib yuribdi, – dedi Ron, xuddi aniq biladigan kishiday. – Agar kimdir undan o'zib ketsa, yoqtirmasligini bilasizlar. Mana hozirgi vaziyatni oling, qora ishni u qilsa-yu, shon-shuhrat Garriga buyurilayotgan bo'lsa, Malfoyga yoqadimi?!

– Oz qoldi, – dedi Germiona, ma'noli ibora ila, – barcha qiyofalar damlamasi deyarli tayyor bo'lib qoldi. Ha demay iqrorini sug'urib olamiz.

Nihoyat semestr yakuniga yetib, qasrda, qor bosgan hovlidagi kabi chuqur jim-jitlik qaror topdi. Ushbu sukunat Garriga osoyishta tuyulib, hech qanday tashvishsiz, o'zi, Germiona va aka-uka Ueslilar bilan birgalikda tanho hukmronlik qilishayotganidan lazzatlandi. Ular, hech kimni be-

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

zovta qilmay poqildoq portlatishib, duel jangini mashq qilgancha, bunday xatti-harakatlar ijrosini me'yoriga yetkazish bilan mashg'ul bo'lishdi. Ota-onalari mister va missis Ueslilar Misrga, akalari Billning holidan xabar olgani jo'nab ketishgani uchun Jinna bilan egizaklar Rojdestvo bayramini maktabda qolib nishonlashga ahd qilishgan. Yengiltaklikni hech qachon oqlamagan Persi umumiy mehmonxonada ko'p vaqt o'tkazmaydi. U yuzaga kelgan murakkab vaziyatda sinfboshi sifatida, o'qituvchilar tarkibiga yaqindan yordam berish niyatidagina Rojdestvo bayramini maktabda qolib nishonlashga ahd qilganini viqor-la ma'tum qildi.

Oppoq, muzday Rojdestvo tongi otdi. Yotoqxonada yolg'iz o'zlari qolgan Garri bilan Ron juda erta uyg'onishdi. To'g'risini aytganda, ularni to'liq kiyinib, qo'lida sovg'a-salom ushlab olgan Germiona uyg'otdi.

– Uyg'oning, – baqirdi qiz, deraza pardasini ochib.

– Germiona, – dedi Ron, ko'zini to'sib, – senga bu yoqqa kirish mumkin emas, esingni yeb qo'ydingmi, uyat bo'ladi...

– Seni ham Rojdestvo bilan, – jahl qildi Germiona, Ronga atalgan sovg'asini uloqtirib. – Meni uyg'onganimga bir soatdan oshdi. Hatto qaynatmamizga yana biroz ipak qanotli pashshadan qo'shib kelishga ham ulgurdim. Damlama tayyor.

Garri xuddi uxlamaganday ko'rpasiga o'tirdi.

– Ishonching komilmi?

– Mutlaqo, – dedi Germiona, Ronning Qasmoq laqabli kalamushini nari surib, karavotning oyoq tomoniga o'tirar ekan. – Modomiki, damlamadan foydalanish niyatimiz bor ekan, bu ishni aynan shu bugun bajarishimiz kerak.

Shu payt tumshug'iga kichkinagina xalta qisib olgan Xedvig uchib kirdi.

– Salom, – dedi boyqushini ko'rib quvongan Garri, –

mendan achchiqlanmay qo'ydingmi?

Xedvig erkalanib, sohibining qulog'ini cho'qidi. Bu esa Dursllardan keltirgan sovg'asidan ham a'lo sovg'adir. Xaltacha ichidan bitta tishkavlagich bilan qisqagina xat chiqdi. Xatda yozgi ta'tilni ham «Xogvars»da o'tkazish imkoni bor-yo'qligini aniqlash talab etilgan.

Boshqa sovg'alar quvunch keltirdi. Xagrid quyuq shinidan tayyorlangan iris qandlarni hajmi katta bankaga solib yuboribdi. Og'ziga solishdan oldin, Garri ularni olovda qizdiradigan bo'ldi. Ron ««Zambaraklar» bilan parvozlar» deb nomlangan, o'zi yoqtirgan kvdish janioasi haqidagi qiziq voqealar to'plamini sovg'a qildi. Germiona Garri uchun burgutning gurkirab o'sgan patidan tayyorlangan zo'r patqalam xarid qildi. Missis Uesli yuborgan so'nggi tuguncha ichidan esa navbatdagi to'qima sviter va kattakon olxo'ri pirogi chiqdi. Missis Ueslining xushmuomala yozilgan otkritkasini o'qir ekan, mister Ueslining Urishqoq tol ustiga qulab tushgandan buyon hech kim ko'rmagan mashinasi va Ron ikkalasi ko'zlab qo'ygan turli tuman qoidabuzarliklarning navbatdagi turkumini o'ylab, aybdorlik hissi ichini battar kemirdi.

Har qanday tirik jon, hatto Barcha qiyofalar damlamasini bugun ichishi kerakligini o'ylab o'tirgan odam ham «Xogvars»dagi Rojdestvo ziyofatidan huzur qilmay qolmaydi.

Bayram sharofatiga Katta Zal boz o'zining g'aroyib ko'rkamligi ila gavdalandi. Har yillik an'anaga ko'ra Katta Zalga qirov qoplagan o'n ikkita archa o'matilgan bo'lib, ustiga omela va nayzabargdan tayyorlangan baroq marjonlar bir-biriga chiroyli chalishtirilgancha osib qo'yilgan. Shiftidan esa sehrlangan iliq, quruq qor uchqunlari to'kilmoqda. Maktab direktori professor Damblodoming odatdagiday boshchiligida jamiki bayram ishtirokchilari jo'r bo'lib, Roj-

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

destvo mavzusidagi yaxshi ko'rishgan qo'shiqlarini baralla aytishdi. Maktab qorovuli Xagridning ovozi har bir ko'tarilgan navbatdagi egnog qadahi, ya'ni gogol-mogol¹ bilan rom² aralashmasidan tayyorlangan ichimlik dozasidan so'ng tobora baland ko'tarilib boraverdi. Ko'krak nishonidagi «SINFBOSHI» yozuvini ukasi Fred «SINF TOSHI» ko'rinishida sehlrab qo'yganini sezmagan bechora Persi hammadan va har bir alohida odamdan nima uchun kufishayotganini so'rab yurdi. Garrining bahr-dili shu qadar ochilganki, hatto egnidagi yangi sviter borasida Malfoyning slizerinchilar stoli tomonidan baland eshitilayotgan zaharli kinoyalari-ga ham e'tibor qilmadi. Omad chopsa, ikki soatdan so'ng Malfoy o'z qilmishiga yarasha javob beradi.

Garri bilan Ron Rojdestvo pudingining uchinchi porsi-yasini endigina bir yoqli qilishga ulgurishgan ediki, Germiona, xatti-harakatlar rejasini so'nggi bor muhokama qilish uchun Katta Zaldan chiqishga majbur qildi.

– Axir, har birimiz kimning qiyofasiga aylanmoqchi bo'lsak, o'sha odamning parchasini qo'lga kiritishimiz kerak-ku, – dedi osoyishta ohangda Germiona, go'yo bolalar supermarketga, kir yuvish kukunini olib kelish uchun borib kelishlari kerakday. – Yaxshisi, Krabbe bilan Goyl parchalari bo'lgani ma'qul. Har qalay ular o'zini Malfoyning do'stlari deb hisoblashadi. Malfoy esa o'z navbatida, ular bilan sirlashsa kerak. Bundan tashqari, toki biz Malfoyni so'roq qilar ekanimiz, haqiqiy Krabbe bilan Goyl bizga xalal bermasliklari kafolatlangan bo'lishi shart.

Qiz Garri bilan Ron ikkalasining yuzlari tuzalishga umid yo'q aqli pastlik qiyofasini kasb etganini butkul pisand qilmagan holda, qo'lidagi ikkita yo'g'on shokoladli tort bo'-

¹ Gogol-mogol – shakarga qorilgan tuxum sarig'i.

² Rom (inglizcha rum) – shakarqamishning achitilgan shirasi yoki qiyomidan haydash yo'li bilan tayyorlanadigan kuchli spirtli ichimlik.

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

laklarini bolalarga uzatib, gapini tekis ovozda davom etdi.

– Men hammasini o‘ylab qo‘ydim. Mana bu tort bo‘laklariga oddiy Uyqu damlamasi bilan ishlov berganman. Oldingizda turgan vazifa shundan iboratki, Krabbe bilan Goyl, ushbu bo‘laklarni topib, paqqos tushirishsin. Ikkalasining yeb to‘ymas ochko‘zligini bilasiz. Qorni to‘q bo‘lsa ham yeb turib ma‘rashadi. Uxlab qolishlari bilan bir juftidan soch tuklarini yulib olasiz-da, o‘zlarini polyuvgich saqlash javoniga yashirib qo‘yasiz.

Garri bilan Ron bir-biriga asabiy qarab qo‘yishdi.

– Germiona, fikrimcha...

– Ehtimol, kutilmagan tasodif ro‘y berib...

Biroq Germionaning ko‘zi ba‘zan professor Makgonagallning ko‘zida kuzatilganday, po‘lat tusda tovlandi.

– Krabbe bilan Goylning sochisiz biz tayyorlagan damlamadan naf yo‘q, – dedi qiz qat‘iy ohangda. – Malfoyni so‘roq qilish niyatingiz bormi o‘zi?

– Bo‘pti, bo‘pti, – dedi Garri. – O‘zing-chi, kimga tashlanib, sochini yulasan?

– Yulib bo‘lganman! – quvonch-la xitob qildi Germiona.

U cho‘ntagidan shisha idishcha chiqarib, ichidagi bir tola sochni ko‘rsatdi.

– Duelehilar klubida Millisent Bichesheyder bilan olishganimni eslaysizmi? Meni bo‘g‘ib o‘ldirishga uringan paytda mana bu tolasi kiyimimga ilashib qolgan ekan! U Rojdestvo bayramini o‘tkazgani uyiga ketgan. Shu bois sli-zerinchilarning ko‘z o‘ngida go‘yo qaytib kelishga ahd qilganday bo‘laman.

Germiona Barcha qiyofalar damlamasini so‘nggi bor tekshirishga yugurdi. Ron Garriga mahkum qilinganday yuzlandi.

– Rejalashtirilgan tadbirlardan bir dunyosi ko‘zlangan

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

darajada kechmay amalga oshirilgan reja haqida hech eshitganmiding?

Ammo, bolalarni hayron qoldirgan narsa – tadbirning birinchi bosqichi Germiona rejalashtirganday silliq kechgani bo'ldi. Choyxo'rlik o'tgach, ular lip etib kimsasiz vestibulga o'tib, og'zilarini ortib qolgan biskvit¹ va pirojniyga² to'ldirib o'tirgancha Katta Zalda yolg'iz qolgan Krabbe bilan Goylni kutishdi. Garri shokoladli tort bo'laklarini zina panjarasining burilib yumaloqlangan joyiga o'rnatdi. Katta Zaldan chiqayotgan Krabbe bilan Goylni ko'rgach, ikkovlon, katta eshik yonidagi ritsarlar aslahasi ortiga bekindi.

Tort bo'laklarini ko'rgan Krabbe yayrab ketgani, ularni Goylga ko'rsatgani, ikkalasi hech bir ma'nosiz irshaygancha bittadan bo'lak changallab, butunicha og'zilariga tiqib yuborgani, jag'larini ishga tushirishar ekan, befahm basharalarida tantana aks etgani va aynan o'sha qiyofada yerga qulab tushishganini kuzatib turgan Ron qoyil qolib, xulosa chiqardi:

– Odam degan shunchalik ochofat, befarosat, ahmoq bo'ladimi?!

Yeb to'ymas Krabbe bilan Goylni polyuvgich saqlash javoniga joylash ancha qiyin kechdi. Harakatsiz holatdagi ikkita tana chelaklar-u, polyuvgichlar orasiga kiritilganidan so'ng Garri Goylning peshanasidan, Ron esa Krabbening boshidan har biri bir nechtadan tuk yulib olishdi. Ularning poyafzallarini ham yechib olishga to'g'ri keldi. Negaki Garri bilan Ronning poyafzallari Drako Malfoyning yonidan jilmaydigan qurolbardorlarning yirik tuyoqlariga ki-

¹ Biskvit (*fransuzcha* - biscuit) 1) qandolatchilik mahsuloti; un, yog', shakar, tuxum, sut va boshqa masalliqlardan tayyorlanadigan pishiriq turi. Maxsus shakllardagi qolip idishlarda pishiriladi.

² Pirojniy (*ruscha*) - yog', sut, tuxum va shakar aralashirib qorilgan xamirdan turli shaklda tayyorlangan, ba'zan yuziga kremdan gullar solingan qandolat mahsuloti.

chiklik qiladi. Qilingan ishdan hayratlangan Garri bilan Ron G'arngin Mirtl makoni tomon oshiqishdi.

Germiona qaynatma aralashtirayotgan bo'lmadan burqib chiqayotgan qora tutun dastidan hojatxonaga kirgan kishi dimiqib qolishi hech gap emas. Burunlarini kiyimlari bilan bekitgan Garri bilan Ron bo'lma eshigini asta taqillatdi.

– Germiona?

Qulfnig g'ijirlashi yangrab, Germionaning hayajondan yarqirayotgan, biroq tashvishli qiyofa kasb etgan yuzi ko'rindi. Uning ortida ko'piklanayotgan yelinishak suyuqlikning bo'g'iq varaq-varaqlar qaynash tovushi eshitilmoqda. Allaqachon tayyorlab qo'yilgan uchta stakan unitaz ustida turibdi.

– Xo'sh, ish bitdimi? – hansirab so'radi Germiona.

Garri unga Goylning soch tolasini ko'rsatdi.

– Juda soz. Men esa kir yuvish xonasidan kiyim o'g'irlab keldim, – maqtandi Germiona, burchakda turgan qopchani ko'rsatib. – Sizlarga katta o'lchamli kiyim kerak bo'ladi-ku.

Uchovlon qozonga tikildi. Yaqinroq qaraganda damlama quyuq, qoramtir loyga o'xshab, yuzasi o'ydim-cho'nqir shilliq pardani eslatmoqda.

– Amallar to'g'ri bajarilganiga ishonchim komil, – dedi Germiona, «Har narsaga qodir damlamalar» kitobining damlama sachrab, dog'-dug' bo'lgan sahifalarini asabiy varaqla-gancha, boshqatdan o'qib. – Kitobda qanday yozilgan bo'lsa, shunday ko'rinyapti. Uni ichganimizdan so'ng ixtiyorimizda roppa-rosa bir soat bo'ladi. So'ng yana o'z qiyofamizga qaytamiz.

– Xo'p, endi nima qilishimiz kerak? – shivirladi Ron.

– Stakanlarga quyib, soch tolalarini solamiz.

Germiona damlamani stakanlarga suzdi. So'ngra, titroq qo'li bilan Millisent Bichesheyderming soch tolasini

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

shisha idishchadan qoqib chiqarib, birinchi stakanga tashladi. Damlama vishillab, bug' chiqardi-da, bir soniya o'tar-o'tmas kishi ko'nglini behuzur qiladigan sariqrang oldi.

– Eq, bichesheyder millisirka, – dedi Ron, jirkanib. – Garov o'ynayman, ta'mi o'lguday bemaza.

– Bo'linglar, solinglar, – tezlatdi Germiona.

Garri Goylning sochini o'rtadagi stakanga, Ron esa Krabbening sochini so'nggi stakanga tashladi. Ikkala stakan vishillab, bug' chiqardi. Goylning sochi solingan damlama o'ziga xos moshrang. Krabbeniki esa – to'q jigarrang kasb etdi.

Ron bilan Germiona stakanlarga endigina qo'l uzatishgan ediki:

– To'xtang, – dedi Garri, – Uchalamiz bitta bo'lmada ichmaganimiz ma'qul... Biz Krabbe bilan Goylga aylanganimizda, ushbu bo'lmaga sig'may qolamiz. Millisent ham mitti qiz emas.

– To'g'ri aytasan, – dedi Ron, eshik ochib, – bo'lmalarga tarqalamiz.

Barcha qiyofalar damlamasining birorta tomchisini to'kib yubormaslik uchun Garri o'rta bo'lmaga asta o'tib oldi.

– Tayyormisiz? – qichqirdi u.

– Tayyormiz, – javob qaytarishdi do'stlar.

– Bir, ikki, uch!

Burnini barmog'i bilan qisib olgan Garri ikki ho'plab stakanni bo'shatdi. Damlama me'yoridan ortiq qaynatilgan karam ta'mini eslatdi.

Shu zahoti, xuddi tirik ilonlarning butun boshli o'ramini yutib yuborganday, ichida bor narsa eshila boshladi. U ikki bukilib, qayt qilishini kutdi. Achitish hissi qornidan butun tanasiga tarqalib, barmoqlarining uchigacha borib yetdi.

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

Tanasi xuddi erib ketayotganday, teri qoplamaşi qaynayotgan mumday ko'pikladi. Nafasi qaytib, tizza va kaftlari bilan yerga quladi. Ko'z o'ngida qo'li o'sib, barmoqlari kat-talashib, timog'i kengayib, barmoq bo'g'inlarining har biri boltday bo'lib, yelkalari kengayib ketdi. Goylga aylanish jarayoni qattiq og'riq bilan kechdi. Peshanasi achishgani-dan sochi qoshigacha o'sib chiqayotganini his etdi. Ko'kra-gi xuddi chambaragi kutilmaganda darz ketgan yog'och bochkaday kengayib, egnidagi kiyimi yirtildi, to'rt o'lcham kichik poyafzal kiyib olgan oyog'i botinkasiga siqilib og'ridi...

Ushbu tuyg'ular qanday boshlangan bo'lsa, xuddi shun-day kutilmaganda to'xtadi. Garri yuzini polga berib yotga-nini anglab, Mirtning oxirgi unitaz ichida g'amgin qulqul-layotganini eshitdi. Botinkasini bazo'r yechib, o'rmdan tur-di. Demak, Goyl bo'lish shunaqa ekan-da? Titrayotgan yi-rik qo'li bilan tizzasigacha ko'tarilib ketgan kiyimni yechib, kir yuvish xonasidan Germiona o'g'irlab kelgan kiyimlar-dan birini tanlab kiydi-da, Goylning, har biri qayiqdek ke-ladigan boshmoqlarini oyog'iga ilashtirib, ipini bog'ladi. Qaddini rostlab, odatiga ko'ra peshana sochini yon tomon tashlamoqchi bo'ldi-yu, qo'li qoshigacha tushgan tikandek dag'al sochga tegdi. Ko'zoynak taqib olgani uchun ko'zi ravshan ko'rmayotganini angladi. Ko'zoynakni yechib, Goylning past, xirildoq ovozi bilan qichqirdi:

– Qalaysizlar, ishlar joyidami?

O'ng tomonda Krabbening g'uvullagan na'rasi eshi-tildi.

– Joyida.

Garri eshikni ochib, darz ketgan ko'zgu qarshisiga kel-di. Ko'zguda ko'zi ichkariga botgan Goylning aksi Garriga qarab turibdi. Garri qulog'ini qashlab ko'rdi. Ko'zgudagi Goyl ham quloq qashladi.

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

Ron kirgan bo'lmadan Krabbe chiqib, ikkovlon bir-biriga baqrayib qoldi. Rangi oqarib, qo'rqqan qiyofasiga e'tibor qilinmasa, Ron, gorillaning qo'ldek keladigan qo'li-yu, ontarilgan nuv akka o'xshaydigan uzun sochi bilan Krabbedan mutlaqo farq qilmaydi.

– Ajoyib, – shivirladi Ron. ko'zgu qarshisida yalpoq burniga barmoq tekkizar ekan, – juda ajoyib.

– Tezroq bo'laylik, – dedi Garri, Goylning semiz bilagiga kirib ketgan soatining tasma-sini bo'shatib. – Biz hali «Slizerin» fakultetining umumiy mehmonxonasini topishimiz kerak. Umid qilamanki, orqasidan ergashib boradigan birorta slizerinchi topiladi.

Garri gapirayotganda hayron bo'lib qarab turgan Ron:

– Goylning fikr yurita bilishini ko'rish juda g'alati bo'lar ekan, – dedi-da. – Germionaning bo'lmasini taqillatdi, – Hoy, vaqt bo'ldi, ketdik.

Bo'lmadan ingichka ovoz eshitildi:

– Men... balki... sizlar boraveringlar, men bormayman.

– Germiona, Millisentning turqi xunukligini juda yaxshi bilamiz. Uyalmay chiqaver. Bu sen ekaningni hech kim bilmaydi-yu.

– Yo'q... Rost aytyapman. Men bora olmayman. Sizlar boraveringlar. Vaqt ketyapti.

Hech narsani tushunmagan Garri Ronga baqraydi.

– Mana endi Goylga o'xshading. Har safar o'qituvchining savolini eshitganda basharasi aynan mana shunday qiyofa kasb etadi.

– Germiona, senga nima qildi? – so'radi Garri.

– Ishlar joyida, sizlar boraveringlar dedim-u...

Garri soatga qaradi. Qimmatli daqiqalarning beshtasi o'tib ketibdi.

– Unday bo'lsa, sening oldingga qaytamiz, xo'pmi?

Belalar eshikni asta ochib, yo'lulala hech kim yo'qti.

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

giga ishonch hosil qilgach, hojatxonani tark etishdi.

– Qo'lingni bunchalik qattiq silkitma, – pichirladi Garri Ronga.

– Nima qilibdi?

– Krabbe qo'lini xuddi muzlab, osilib qolganday yuradi

– Mana bunday qilibmi?

– Ha, shunga o'xshashroq.

Ular marmar zina bo'ylab pastga tushishdi. Endi slizerinchilarning umumiy mehmonxonasini topish uchun biror-bir slizerinchiga duch kelish qoldi, xolos. O'chakishganday, birortasi ham ko'rinmaydi.

– Biror fikr bormi? – g'udrandi Garri.

– Slizerinchilar nonushtaga anavi tomondan kelishadi, – dedi Ron, yerto'la tomon ko'rsatib.

U endigina gapini tugatgan ediki, yerto'la tomondan fatila sochi uzun qiz ko'rindi.

– Ma'zur tuting, – dedi Ron, qiz yoniga tez borib. – Mehmonxonamizga olib boradigan yo'lni unutib qo'yibmiz. Ko'rsatib yubormaysizmi?

– Mehmonxonamizga? Kechirib qo'yasiz. Men «Ravenklo»danman.

Ortiga shubha ila qarab-qarab qo'ygan qizaloq nari ketdi.

Garri bilan Ron shoshgancha tosh zinadan pastga tushib, Krabbe bilan Goylning bahaybat oyog'i tosh ustida urilganday, dukillatib borishdi. Oxiri baxayr bo'lsin degan xayol ikkalasining miyasiga o'mashib qolgan yagona o'y bo'ldi.

O'tish yo'llarining murakkab labirintlari kimsasiz bo'lib, chuqurga, borgan sari qasr qa'riga olib ketmoqda. Ik-kovlon soatga qarab, qancha vaqt qolayotganini kuzatib bormoqda. O'n besh daqiqa o'tib, umidsizlanib qolishgan

halsizlik oldinda qandaydir harakat eshitildi.

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

– Ha! – qichqirdi Ron, xursand bo‘lib. – Ana, ulardan qaysidir biri yuribdi!

Yon eshikdan kimdir chiqdi. Ikkovlon yurak hovuchlagancha, tez yaqin bordi. Biroq bu, slizerinchi emas, Persi.

– Sen nima qilib yuribsan bu yerda? – hayron bo‘lib so‘radi Ron.

Persining jahli chiqdi.

– Ishing bo‘lmasin, – quruq javob berdi Persi. – Isming Krabbe edi, shekilli, a?

– Nima-nima... A, ha-ya! – dedi Ron.

– Unday bo‘lsa, o‘z fakultetingizning umumiy mehmonxonasiga boring, – buyurdi Persi, qat‘iy ohangda. – Bugungi vaziyatda qorong‘i yo‘laklarda sandiroqlab yurish xavflidir.

– O‘zing sandiroqlab yuribsan-u, – dedi Ron.

– Men sinfboshiman, – viqor-la e‘lon qildi Persi, ko‘k-rak kerib, – menga hech narsa tajovuz qilmaydi.

Ron bilan Garrining orqasida birovning ovozi eshitildi. Drako Malfoy ular tomon shiddat-la yaqinlashmoqda. Garri hayotida ilk bor raqibini ko‘rib, yengil tortdi.

– Bu yoqda ekansiz-da. Yana cho‘chqaday mechkaylik qildingizmi? Sizlarni qidirib yuribman. Qiziq narsa ko‘rsatmoqchiman, yuringlar.

U Persiga yeb yuborgudek qarab qo‘ydi.

– Nima narsangni unutib qo‘yding bu yerda, Uesli? – g‘uldiradi u.

Persi quturib ketganday bo‘ldi.

– Maktab sinfboshisi bilan muomala qilish tartibini takror o‘rganib chiq! Munosabating menga yoqmayapti!

Malfoy istehzoli kulib, Garri bilan Ronga imo vositasi-da ortidan yurishni buyurdi. Persidan uzr so‘ramoqchi bo‘lgan Garri aqlini o‘z vaqtida yig‘ib oldi. Ron ikkisi Malfoyning ketidan ergashdi. Navbatdagi zina oralig‘idan o‘tar

ekan, Malfoy gap boshlab qoldi:

– Anavi Peter Uesli...

– Persi, – to'g'rilab qo'ydi Ron.

– E, farqi nima, – qo'l siltadi Malfoy. – Bu tomonlarga tez-tez tushib turadigan bo'lib qoldi. Slizerinning vorisini yakka o'zi, mustaqil ravishda, osongina qo'lga olmoqchi ko'rinadi, – qisqagina, masxaraomuz kulib qo'ydi u.

Garri bilan Ron bir-biriga umid-la qarab qo'yishdi. Malfoy taqir devor qarshisiga kelib to'xtadi.

– Yangi parol nima edi? – so'radi u Garridan.

– E-e-e...

– Ha-ya, Toza qon! – esladi Malfoy, Garrining javobini kutmay.

Tosh devor chetga surilgach, Malfoy ichkariga kirdi. Ron bilan Garri ham ko'p o'tylanmay, uning ketidan ergashdi.

«Slizerin» fakultetining umumiy mehmonxonasi dag'al toshdan ko'tarilgan devor, zanjirlarga ilingan dumaloq yashil shamdonlar osilgan past shiftdan iborat yerto'la ko'rinishiga ega ekan. Jimjimador naqsh o'yilgan kamin taxtasi ortida gulxan yonmoqda. Shu'la dog'ida kamin yaqinidagi baland suyanchiqli kreslolarda o'tirgan bir necha nafar slizerinchilar qomati ko'rindi.

– Shu yerda kuting, – buyurdi Malfoy, Garri bilan Ronga, olovdan uzoqda turgan kursilarni ko'rsatib. – Hozir olib kelaman. Dadam yaqinda yuboribdi...

O'zlarini erkin tutishga uringan Garri bilan Ron Malfoy nima ko'rsatishi mumkinligini o'ylab, kursiga o'tirishdi.

Xayol o'tmay, qo'lga gazeta parchasini ushlagan Malfoy qaytib, Ronning yuziga yaqin keltirdi.

– Mana, miriqib kulasiz, – dedi u.

Garri serrayib qolgan Ronning ko'zi kattalashib keta-

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

yotganini ko'rdi. Ron maqolani tez o'qib, uzoq kulgancha, Garriga uzatdi. «Bashorat-u, karomat gazetasi»da yozilgan maqola:

SEHRGARLIK VAZIRLIGIDA XIZMAT SURISHTIRUVI

• Magllar avtomobilini sehrlagani uchun Magllarning ro'zg'or buyumlaridan noto'g'ri foydalanish bo'limi boshlig'i Artur Uesliga bugun ellik galleon jarima solindi.

Ushbu mashina halokatga uchragan «Xogvars» sehrgarlik va afsungarlik san'ati maktabini boshqarish ma'muriyatining a'zosi mister Lyutsius Malfoy shu yili, mulohaza yuritilayotgan voqeadan ancha oldin, mister Ueslini iste'foga chiqarish kerakligi to'g'risida o'z fikrini bildirib o'tgan edi.

«Uesli vazirlik nufuziga putur yetkazmoqda», – dedi mister Malfoy muxbirimizga, – «Unda qonun hujjatlarini ishlab chiqish masalasiga mas'uliyat-la yondashish yetishmaydi. Aynan Uesli tomonidan ishlab chiqilib, taqdim etilgan Magllarni himoya qilish to'g'risidagi qonunni esa zudlik bilan bekor qilmoq darkor».

Voqeaga izoh berishini so'rab borgan muxbirlarimiz mister Ueslining yoniga yo'llay olishmadi. Uning rafiqasi esa muxbirlarimizga tuyoqlarini shiqillatib qolishlarini buyurib, aks holda orqalaridan xonaki ko'rshapalak solishi bilan do'q-po'pisa qildi.

– Xo'sh? – dedi toqati-toq bo'lgan Malfoy Garri uzatgan gazeta parchasini qaytarib olib. – Kulgili emasmi?

– Xa, xa, – soxta kulib qo'ydi Garri.

– Artur Uesli magllarni nihoyatda yaxshi ko'radi. Sehrli tayoqchasini sindirib, o'shalar orasida yashagani ma'qul, – haqoratomuz dedi Malfoy. – Xulq-atvorlarini ko'rib, Ues-

liarni aslzoda sehrgarlar deyish qiyin.

Ronning, aniqrog'i, Krabbening yuzi g'azabdan buri-shib ketdi.

– Krabbe, senga nima bo'lyapti? – keskin so'radi Mal-fof.

– Qornim og'riyapti, – g'udrandi Ron.

– Unday bo'lsa, kasalxonaga bor. Bir yo'la o'sha yerda yotgan maglvachchalarni mening nomimdan tepib kel, – hiringladi Malfof. – Men bir narsaga hayron qolyapman. Nima uchun haligacha «Bashorat-u, karomat gazetasi»da maktabda bo'lib o'tgan tajovuzlar haqida yozishmayapti, – davom etdi u, o'ylanib. – Ehtimol, Dambldor ushbu voqea-larni sir tutishga urinayotgandir. Agar tajovuzlarga tez ora-da barham berilmas ekan, uni ishdan haydab yuborishlari aniq. Dadamning gapiga qaraganda, Dambldorning «Xog-vars»ga rahbarlik qilishining o'zi – maktab tarixidagi eng yomon hodisa sanalar ekan. Negaki u, magllardan chiqqan sehrgarlarni juda yaxshi ko'radi. Bama'ni direktor bo'lga-nida Kriviga o'xshash har xil palidlarni maktabga yaqin keltirmas edi.

Malfof faraziy fotoapparatni qo'liga olib, Kolinning xatti-harakatlarini tahqirli ravishda, lekin aniq aks etgancha:

– «O, Potter, seni suratga olsam maylimi? Dastxat qo'yib ber, Potter! Botinkangni yalab qo'yay, Potter, iltimos, yo'q demagin!» – deya qiliq qildi.

U qo'lini tushirib, Garri bilan Ronga razm soldi.

– Hoy, sizlarga nima bo'lyapti?

Hechdan ko'ra kech bo'lsa ham Garri bilan Ron o'z-larini kulgan ko'yga solishdi. Malfof qanoatlandi, aftidan u, Krabbe bilan Goylga gap ma'nosi yetib borganday kech yetishiga ko'nikib qolgan ko'rinadi.

– Maglvachchalar homiysi muqaddas Potter, – gap boshladi asta Malfof, – sehrgarlik g'urunga ega bo'lmagan

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

yana bir shaxs. G'ururi bo'lganda, anavi maqtanchiq Magljenjer bilan ilashib yurmas edi. Yana hamma uni Slizerin-ning vorisi deb biladi-ya!

Garri bilan Ron nafas chiqarmay qolishdi. Mana hozir Malfoy Voris aslida o'zi ekaniga iqror bo'ladi. Biroq...

– Kim ekan o'sha voris, juda bilgim kelyapti, – achchiqlangancha iqror bo'ldi Malfoy. – Bilganimda edi, unga shaxsan o'zim yordam berar edim.

Ronning og'zi shu qadar lang ochilib ketdiki, Krabbe odatdagidan ham battar befahimga aylanib qoldi. Xayriyatki, Malfoy bunga e'tibor qilmadi. Garri darhol uni so'roqqa tutdi.

– Gumoning kimda? Biron-bir taxmining yo'qmi?

– Yo'qligini bilasan-ku, Goyl, necha marta aytishim kerak? – jahl qildi Malfoy. – Dadam ham Maxfiy xonaning o'tgan safar ochilgani haqida menga hech narsa aytib bermayapti. O'sha voqea ellik yil muqaddam, dadamgacha bo'lib o'tgan, albatta. Biroq u hamma gapdan xabardor. Uning aytishicha, bo'lib o'tgan hodisalar qat'iy sir tutilgani uchun ham ko'p narsalardan voqif bo'lishim atrofda odamlar orasida shubha tug'dirar ekan. Bir narsani aniq bilaman. Maxfiy xona o'tgan safar ochilganda maglvachchalardan biri o'lgan. Shunday ekan, hamma narsani vaqt ko'rsatadi. Hozirgi maglvachchalardan birortasi o'lguncha sabr qilamiz. Umid qilamanki, bu Grenjer bo'ladi, – qo'shib qo'ydi u, o'z orzusidan o'zi lazzatlanib.

Ron-Krabbe yirik mushtini mahkam siqdi. Agar hozir Ron Malfoyning basharasiga qo'yib yuborsa, barcha harakatlar barbod bilishini tushunib turgan Garri Ron tomon ogohlantiruvchi nigoh tashlab, so'rog'ini davom etdi:

– Mabodo o'tgan safar xonani kim ochgani, uni qo'lga olishgan-olishmaganini bilmaysanmi?

– Ha, albatta... kim ochganini bilmayman-u, biroq uni

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

maktabdan haydashganini aniq bitaman. – javob berdi Malfoy. – Haligacha Azkabanda o'tirgan bo'lsa kerak.

– Azkabanda? – tushunmadi Garri.

– Ha, Azkabanda – jinoyatchi sehrgarlar qamaladigan qamoqxonada. – dedi Malfoy, Goylning misli ko'rilmagan befahmligidan taajjublanayotganini yaqqol namoyon etib. – Haqiqatan ham, Goyl, agar shu ahvolda qoladigan bo'lsang, maktabdan quvib solishlari muqarrar.

U kresloda o'tirgan joyida darg'azab tipirchiladi.

– Dadamning aytishicha, Slizerinning vorisi biz qilishimiz kerak bo'lgan ishini yakuniga yetkazguncha kutishimiz va ayni vaqtda o'zimiz beayb qolishimiz kerak ekan. Uning gapiga qaraganda «Xogvars»dan har xil chiqindilar-u, maglvachchalarni supurib tashlash vaqti allaqachon yetgan. Uning tashvishi boshidan oshib yotibdi hozir. O'tgan hafta uyimizni tintuv qilishibdi. tasavvur qilyapsizmi?

Garri Goylning befahm basharasidan imkon qadar tashvishga tushgan qiyofa yasashga urindi.

– Ana shunaqa... – dedi Malfoy. – Xayriyatki, ular hech narsa topa olishmadi. Dadamda yovuz kuchlar sehriga taalluqli ayrim qimmatbaho narsalar bor. Xayriyatki, uyimiz mehmonxonasi ostida o'zimizning maxfiy xonamiz bor...

– Uh! – deb yubordi Ron, g'ayriixtiyoriy ravishda.

Malfoy ham Garri ham Ron tomon yuzlandi. Ronning burni cho'zilib, yuzi, hatto sochi ham qizarib ketgan. Bir soat o'tdi va tabiiyki, Ron o'z qiyofasiga qayta boshladi. Uning basharasidagi vahimani ko'rgan Garri o'zi ham o'z qiyofasiga qaytayotganini idrok etdi.

– Qornim og'riyapti. Biron-bir dori ichib olmasam bo'lmaydi, – baqirdi Ron.

Ular zudlik bilan slizerinchilarning umumiy mehmonxonasini tark etib, Malfoy hech narsani payqamaganiga umid qilishgancha, tez yugurishdi. Garri Goylning ulkan

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

poyafzali ichida oyog'i kichrayib borayotganini his etib, bo'yi shiddat-la pasayib ketganidan kiyimning etagini ko'tarib olishga majbur bo'ldi. Zinaning bir nechtdan pog'onalarini hatlab o'tgancha yugurib, nihoyat qorong'i vestibulga yetib borishdi. Haqiqiy Krabbe bilan Goyl qamab qo'yilgan javon ichidan bir maromda urilayotgan bo'g'iq dukur-dukur tovushlar eshitildi. Bolalar vaqtincha olingan poyafzalni javon eshigi yaqiniga qo'yib, marmar zina bo'ylab paypoqda G'amgin Mirtl makoni tomon oshiqishdi.

– Nima ham derdim, vaqtni behuda o'tkazmadik, – hansiradi Ron, hojatxona eshigini ichkaridan yopar ekan. – Yovuz ishlarni kun qilayotganini bila olmadik, ammo Malfoy-lar xonadoni mehmonxonasining yerto'lasini astoydil tintuv qilish kerakligini dadamga, albatta, yozib yuboraman.

Darz ketgan ko'zguda Garri yuzini tadqiq etdi. U o'z qiyofasiga to'la-to'kis qaytganiga ishonch hosil qilib, ko'zoynagini taqdi. Ron esa Germiona bekinib olgan bo'lmani taqillatdi.

– Germiona, chiq. Biz senga shunday qiziq narsalarni aytib beramizki!...

– Ketinglar bu yerdan! – chiyilladi Germiona.

Garri bilan Ron bir-biriga qarab qo'ydi.

– Nima qildi senga, Germiona? Vaqt o'tdi, sen axir, o'z qiyofangga qaytishing kerak edi. Biz...

Shu payt kutilmaganda bo'lma eshigi taxtasidan G'amgin Mirtl chiqib keldi. Garri ushbu arvohni hali bu qadar ko'tarinki kayfiyatda ko'rmagan.

– O-o-o, hozir ko'rasizlar! – xitob qildi arvoh. – Biram dahshatli manzaraki, qo'yaverasiz!...

Eshik zulfining sirpangani eshitilib, ichkarida boshiga etagini tashlab hiqillayotgan Germiona ko'rindi.

– Nima gap o'zi? – ikkilanib so'radi Ron. – Millisening burni qolib ketdimi? Yoki boshqa biror gap bo'ldimi?

XII BOB. Barcha qiyofalar damlamasi

Germiona etagini tushirdi. Uning yuzini ko'rib, qo'rqib ketgan Ron orqaga tisarilib, chig'anoqqa o'tirib qoldi.

Qizning betini quyuq tuk qoplagan. Sap-sariq ko'zi yarqirab ko'rinib, qalin sochi orasidan uzun, uchi uchli quloqchalar chiqib turibdi.

– M-mushuk tuki ekan, – ho'ngrab yubordi Germiona,
– M-millisent Bichisheydarning mushugi borga o'xshaydi!
Barcha qiyofalar damlamasi esa, afsuski, hayvonga aylanish uchun mo'ljallanmagan!

– Voy, oyijon, – xitob qilib yubordi Ron.

– Endi senga qandaydir mudhish laqab qo'yishadi! – etxo'rday lazzatlandi Mirtl.

– Xavotir olma, Germiona, – dedi Garri. – Biz seni kasalxonaga eltamiz. Pomfri xonim hech qachon ortiqcha savol bermaydi...

Germionani hojatxonadan chiqishga ko'ndirish uchun bir olam vaqt kerak bo'ldi. Nihoyat bunga erishilganda, ularni eshikkacha kuzatib qo'ygan Mirtl ich-ichidan zavqlangancha kulib:

– Agar odamlar uning dumi ham borligini bilishsa, nima bo'lishini ko'rasizlar, – degancha qoldi.



XIII BOB. SIRLI KUCH YASHIRINGAN KUNDALIK

Germiona kasalxonada bir necha hafta davolandi. Ta'til nihoyasiga yetib, o'quvchilar maktabga qaytishgach, Germionaning ko'zga ko'rinmay qolgani haqida har xil mish-mish gap tarqaldi. Tabiiyki, unga ham tajovuz uyushtirilgan degan fikr ilgari surilib, aslida nima qilganini bilish uchun kasalxona bo'linmasi atrofida o'ralashib yurganlar soni ortib ketdi. Shu bois ham Pomfri xonim qizning sertuk yuzini gustoh ko'zlardan bekitish maqsadida Germiona yotgan karavotni parda bilan to'sib qo'ydi.

Garri bilan Ron har kuni Germionaning holidan xabar olib, semestr boshlanishi bilan qizni uyga berilgan vazifalar bilan ta'minlab borishdi.

– Agar mening ham basharamda mushuk mo'ylovi o'sib chiqqanida, paytdan foydalanib, hech narsa qilmay maza qilib yotgan bo'lar edim, – dedi Ron, karavot oldidagi stol ustiga taxlangan kitob uyumini ko'rsatib.

– Esingni yeb qo'ydingmi, hammadan orqada qolib ketaman-u! Bunday qila olmayman! – javob berdi Germiona.

Yuzidagi mo'y yo'qolib, sarg'aygan ko'zi o'zining jigarrang tusini asta kasb etayotgani bois ham so'nggi vaqtda qizning kayfiyati ancha ko'tarilgan.

– Aytganday, ishlar qalay? Yangi taxminlar paydo bo'lmadimi? – so'radi Germiona, Pomfri xonim eshitib qolmasligi uchun past ovozda.

– Yo'q, – javob berdi Garri qovoq uyib.

– Malfoy ekaniga ishonchim komil edi, – dedi Ron, yuzinchi marta.

Garri yostiq ostidan chiqib turgan tillarang narsaga barmoq o'qtab so'radi:

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

– Anavi nima?

– Bumi?... Sog'ayib ketish tilaklari bitilgan otkritka, javob berdi ko'zini olib qochgan Germiona, otkritkani ichkariroq turtib qo'yish uchun qo'l uzatib.

Biroq Ron chaqqonlik qilib, otkritkani changallab oldida, ovoz chiqarib o'qidi:

«Tashvishga tushib, sog'lik tilab qolayotgan kishi, «Uchinchi darajali Merlin» ordeni sohibi, Yovuz kuchdan himoya ittifoqining faxriy a'zosi, «Avsunpolitén» jurnali tomonidan ta'sis etilgan «Eng jozibador tabassum uchun» mukofotining uzluksiz besh karra sovrindori Sverkarol Charualddan dilrabo missis Grenjerga»

Ron ijirg'anib Germionaga qaraði.

– Sen buni yostig'ing ostiga qo'yib yotibsanmi?

Xayriyatki, dori olib kelgan Pomfri xonim Germionani, ushbu savolga javob berishdan xalos etdi.

– Charualdday shilqimni kunduz kuni chiroq yoqib topish qiyin bo'lsa kerak-a? – dedi Ron. Garri ikkalasi kasalxonadan chiqib, «Griffindor» minorasi tomon yo'l olar ekan.

Snegg uyga shu qadar ko'p vazifa berdiki, ufarning hammasi bajarilgan vaqtga kelib oltinchi sinfga o'tilsa kerak. Soch hurpaytirish damlamasini tayyorlash uchun qaynatmaga nechta kalamush dumi solinishini Germionadan so'rab olmagan Ron o'zini o'zi koyib o'tirdi. Aynan shu vaqtda yuqori qavatda kimningdir darg'azab o'kirgani eshitildi.

– Filchning ovozi, – g'udrandi Garri.

Ikkalasi yuqoriga ko'tarilgach, bir chetda to'xtab, quloq tutishdi.

– Navbatdagi tajovuz bo'lmasa kerak, nima deb o'ylaysan? – zo'riqib so'radi Ron.

Ular nafas chiqarmay, jazavasi tutib qolgan Filchning

ovozi eshitilayotgan tomon bosh uzatib turishdi.

– ... yana tozalash! Axir, buni tuni bilan tozalash kerakku, meni boshqa qiladigan ishim yo'qmi! Bas, pichoq suyakka taqaldi, borib Dambldorga arz qilmasam bo'lmaydi...

Ikkovlon o'rtoq ko'rinmas yo'lak bo'ylab nari ketgan Filchning qadam tovushi so'nib, uzoqdagi eshiklardan birining qattiq yopilgani eshitildi.

Bolalar astagina Filch baqirgan yo'lakka bosh suqib, yana aynan missis Norrisga tajovuz qilingan, Filch o'zi uchun post sifatida tanlagan joyga kelib qolishganini anglashdi. Nazoratchining nima uchun dod-voy solgani darhol ayon bo'ldi. Yo'lakning yarmini suv bosgan bo'lib, G'amgin Mirtl hojatxonasining eshigi ostidan haligacha sizib chiqmoqda. Filchning ovozi tingach, hojatxona ichidan arvoh Mirtlning yig'isi eshitildi.

– Yana nimaga hiqillayapti ekan u? – achchiqlandi Ron.

– Yur, borib ko'ramiz, – taklif qildi Garri.

Ikkovlon kiyimining etagini tizzasigacha ko'tarib, ko'l-mak kechgancha, har doimgiday xona eshigini, undagi «ISHLAMAYDI» so'zi bitilgan kattagina taxtachani pisand qilmay ochib, ichkariga kirdi.

G'amgin Mirtl kuchi boricha zo'riqib, uvvos solmoqda. Odatiga ko'ra, o'zi yoqtirgan unitazga kirib olganga o'xshaydi. Shamlar o'chib, hojatxonani zulmat qamragan. Suv oqimi kuchli bo'lgani uchun xona poli va devori nam tortgan.

– Nima gap, Mirtl, nima bo'ldi? – so'radi Garri.

– Kim u? – manqalandi Mirtl. – Yana menga nimadir uloqtirgani keldingizmi?

Garri suv kechib, Mirtlning bo'lmasi yoniga bordi.

– Nega endi senga nimadir uloqtirishim kerak?

Unitaz ichidan suv sachratib chiqqan Mirtl battar uvil-

lay boshladi.

– Men qayerdan bilay? Hech kimga ziyonim yetmay, shu yerda tek o'tirsam-u, kimdir kelib o'zining yon daftari-ni menga uloqtirsa! Kimga yoqadi?!

– Senga nima, axir, bari bir joning og'rimaydi-yu, – mulohaza yuritdi Garri. – Aytmoqchimanki, daftar tanang-dan o'tib uchdi, shundaymi?

Ayni shu mulohazani eshittirib aytish shart emas edi. Mirtl chuqurtoq nafas olib, kuchi boricha chinqirdi:

– Xo'sh, modomiki, Mirtlning joni og'rimas ekan, ke-linglar bo'lmasa, unga daftar uloqtirish o'ynaymiz! Kim qorniga tegsa, o'n ochko, boshiga tekkiza olganga ellik och-ko! U bari bir hech narsani sezmaydi-yu, a?! Qarang-a, xa-xa-xa, rosa qiziq o'yin bo'lar ekan! Nega shu vaqtgacha xayolingizga kelmagan ekan, a?

– Kim ekan o'sha, senga yon daftar uloqtirgan? – qi-ziqdi Garri.

– Men qayerdan bilay... Unitaz quvurining bukilgan jo-yiga kirib, o'lim haqida mulohaza yuritib o'tirgan edim. Te-padan boshim uzra nimadir oqib o'tdi, – javob berdi Mirtl, bolalarga teshib yuborguday qarab. – Ana u qayta qalqib chiqib, polda yotibdi...

Garri bilan Ron unitaz ostiga, Mirtl ko'rsatgan bur-chakka qarashdi. U yerda eskirib ketgan, kichkinagina, ho-jatxonadagi qolgan narsalar kabi nam tortgan ingichka yon daftar yotibdi. Garri oldinga odimlab, yon daftarchani endi-gina olmoqchi ediki, Ron qo'lini uzatib, to'xtatdi.

– Nima? – so'radi Garri.

– Aqlingni yedingmi? Bu juda xavfli bo'lishi mumkin.

– Xavfli? – kulib yubordi Garri. – Qo'ysang-chi, yon daftarning nimasi xavfli bo'ladi?

– Aytsam, ishonmaysan, – dedi Ron, xavfsiragancha

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

daftar tomon ko'z qirini tashlab. Dadam aytib bergan edi Vazirlik tomonidan musodara etilgan ayrim kitoblar... Xulas, ulardan biri, kim ochib qarasa ko'zini kuydiradi. Yana biri... nomi nima edi... Ha, esladim, «Alkimyogar sonetlari» kitobi-chi... Uni o'qiganlarning hammasi so'nggi soatiga-cha faqat she'r vaznida gapiradigan bo'lib qolishgan. batlik¹ bir afsungar ayoldan esa shunday bir kitob tortib olishganki, uni o'qishni boshlasang, o'zingni hech to'xtata olmaysan! Qayerda bo'lmagin, kitobni ko'z oldingda tutib, ishlaringni faqat bir qo'llab bajaradigan bo'lib qolasan! Yana bir...

– Bo'ldi, bo'ldi, tushundim, – gapni bo'ldi Garri va poldagi diqqatga sazovor biror-bir alomati bo'lmagan, kichkinagina, nam tortgan yon daftarga bir pas qarab turdi-da. – Bari bir bu nima ekanini bilishning boshqa iloji yo'q, – degancha, chaqqon harakat bilan Ronni aylanib o'tib, daftarni qo'lga oldi.

Qora muqovadagi siyqalanib ketgan sanani ko'rgan Garri, ellik yil muqaddam tutilgan kundalik ekanini tushundidi. U daftarni varaqlab, ilk sahifasida siyohi biroz yoyilib ketgan «T. M. Reddl» yozuvini ko'rdi.

– To'xta, to'xta, – dedi asta yaqinlashgan Ron. Garri-ning yelkasi uzra yozuvni o'qib, – nazarimda, bu ismni qayerdadir ko'rganday bo'tyapman... Ha-da, T. M. Reddl ellik yil muqaddam «Maktab oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun maxsus sovrin» bilan mukofotlangan.

– Sen qayerdan bilasan? – hayron bo'ldi Garri.

– Anavi yerdan! O'sha sovrinni ellik marta tozalaganman. Jazo o'tashim uchun meni sal kam bir kechaga Filch ixtiyoriga topshirishganini eslaysanmi? – unutilmas dilsi-

¹ Bat inglizcha: Bath, latince: Aquae Sulis, Aquae Calidae, Bathonia) - Angliyaning Eyvon daryosi sohilida joylashgan eng go'zal shaharlaridan biri, Somerset grafligining asosiy shahri. Angliya yepiskopining qarorgohi.

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

yohlik ohangi ila eslatdi Ron. – O'shanda men aynan o'sha sovrin ustiga shilliqqurt qayt qilgan edim. Agar sen ham kimningdir ismi yozilgan buyum sirtidagi har xil iflosliklarni artib tozalasang, o'sha kishining ismini bir umrga eslab qolishing muqarrar.

Garri nam tortgan kundalikning yopishib qolgan betlarini ko'chirib, ajratdi. Sahifalar toza bo'lib, ularda: *«Meybel xolaning tug'ilgan kuni»* yoki *«Soat 14.30 da tish doktori qabuliga»* singari biron-bir yozuv ko'rmadi.

– U hech qanday yozuv yuritmagan ekan, – dedi hafsalasi pir bo'lgan Garri.

– Qiziq, nega bo'lmasa kimdir undan bu tariqa xalos bo'ldi ekan? – qiziqsindi Ron.

Garri muqovaning orqa tomonini o'girib, Londonning Voksxoll Roud ko'chasidagi yozuv qog'ozi sotiladigan universal do'kon nomini o'qidi.

– Modomiki, ushbu daftar Voksxoll Roud ko'chasida xarid qilingan ekan, – o'ylanib, mulohaza yuritdi Garri. – Demak, uning sobibi magllardan chiqqan...

– Xo'p, mayli, nafi yo'q ekan, tashla uni, – dedi Ron va ovozini pasaytirib qo'shib qo'ydi. – Agar Mirtning bur-niga tekkiza olsang, ellik ochko.

Biroq Garri daftarni cho'ntagiga soldi..

Germiona kasalxonadan fevral oyining boshida mo'ylovsiz, dumsiz, yungsiz chiqdi. «Griffindor» minorasida o'tkazgan birinchi oqshomning o'zida, qizga T. M. Reddning kundaligi ko'rsatilib, qay tarzda qo'lga kiritilgani haqida bildiruv berildi. Hikoyani eshitib, kundalikni qo'lga olib, o'rganib chiqqan Germiona ishtiyoq-la xulosa chiqardi:

– Buning zamirida qandaydir sirli kuch yashiringan bo'lishi mumkin.

– Shunday ham deylik. Biroq haddan ortiq tortinchoq-

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

ligidan o'sha sirli kuchini juda yaxshi bekitib olgan, – qo'l siltadi Ron. – Nima uchun uni unitazga tashlab yubormading Garri, hayronman.

Menga esa aksincha, nimaga uni aynan unitazga tashlab yuborishgani qiziq, – e'tiroz bildirdi Garri. – Umuman aytganda, Reddl qaysi xizmatlari uchun maxsus sovrin bilan taqdirlanganini bilmogchiman.

– Har qanday xizmati uchun, – dedi Ron, sovuqqon ohangda. – masalan MOSDning 30-darajasiga erishgani yoki ko'lda cho'milayotgan o'qituvchilardan biron-birini ba haybat kalmar og'zidan sug'urib olgani yoxud hammani xursand qilib, Mirtlni o'ldirgani uchun...

Germionaning qo'rqib ketgan qiyofasini ko'rgan Garri o'zining xayoliga kelgan o'y Germionaning miyasiga ham kelganini angladi.

– Ha, nima gap? – so'radi Ron, nigohini suhbatdoshlaridan birining yuzidan ikkinchisining yuziga olib o'tib.

– Tushunyapsanmi, Ron. Maxfiy xona o'tgan safar, Malfoyning gapiga qaraganda, ellik yil muqaddam ochilgan, – javob berdi Garri.

– Xo'-o'-o'sh.

– Mana bu kundalikning yoshi ham ellikda, – dedi Germiona, daftar muqovasini barmog'lari bilan hayajon-la chertib.

– Xo'-o'-o'sh?

– Ron, uyg'onsang-chi, – ovoz ko'tardi Germiona, – Maxfiy xonani ellik yil muqaddam ochgan kishi maktab o'quvchilari ro'yxatidan chetlashtirilgani bizga ma'lum. Yana shu narsa ma'lumki, T. M. Reddl ellik yil muqaddam «Maktab oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun maxsus sovrin» bilan mukofotlangan. Agar o'sha Reddl Slizerinning vorisini qo'lga olgani uchun mukofotlangan bo'lsa-chi?

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

Balkim, Maxfiy xona qayerda joylashgani, uni qanday ochish mumkinligi, unda qanday maxluq yashiringanini aynan mana shu kundalikdan bilib olarmiz? Fikrimcha bo'lib o'tgan barcha tajovuzlarni amalga oshirgan shaxs bunday dalildan xalos bo'lishni istab qolgan, shunday emasmi?

– Ajoyib taxmin, Germiona, – dedi Ron. – Faqat ushbu kundalikning bitta kichkinagina aybi bor-da, u ham bo'lsa, unda hech qanday yozuv yo'qligi!

Ammo osonlikcha taslim bo'lmaydigan Germiona yuk xaltasidan sehrli tayoqchasini chiqardi.

– Balkim, ko'rinmas siyoh bilan yozilgandir!

Qiz sehrli tayoqchasini daftar muqovasiga uch marta astagina urib, pichirladi:

– Aparetsium!

Hech nima ro'y bermadi. Sal bo'lsa ham esankirama-gan Germiona tayoqchasini yuk xaltasiga qayta joylab, qip-qizil o'chirgich chiqardi.

– Bu Fosh qilgich, – tushuntirish berdi u. – «Diagon xi-yoboni»da sotib olganman. Ko'rinmas yozuv ustidagi til-simga barham beradi.

Germiona birinchi yanvar sanasi uchun ajratilgan sahi-fani ishqaladi. Boz hech nima ro'y bermadi.

– Takror aytaman, – dedi Ron, – kundalikda hech qan-day sir yo'q. U bo'm-bo'sh. Reddl uni Rojdestvo bayramiga sovg'a sifatida olgan bo'lib, biron narsa yozishga botina ol-magan.

Reddlning kundaligini nima uchun tashlab yuborma-ganini Garri, loaqal, o'ziga o'zi bo'lsin, tushuntira olmadi. Unda hech nima yozilmagan bo'lsa-da, vaqti-vaqti bilan qo'liga olib, xuddi oxirigacha o'qib tugatishga uringanday, varaqlab bordi. Garchi Garri T. M. Reddl ismini muqaddam eshitmagan bo'lsa-da, go'yo bolaligidagi o'rtoqlaridan bi-

XIII BOB. Sirtli kuch yashiringan kundalik

rini eslashga uringanday o'tirdi. Biroq ushbu fikr ham bema'ni o'ylar sirasiga kiradi. Zotan xolavachchasi Dudli Garrining «Xogvars»gacha hech qanday o'rtog'i bo'lmasligi uchun yaxshigina harakat qilgan.

Shunday bo'lsa-da, Garri, Reddl haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga qat'iy ahd qilib, ertasi kuni tong sahar, maxsus sovrinni yaxshilab ko'rish uchun o'lja qilib olingan qurol-aslaha xonasi tomon yo'l oldi. Bunday ma'lumotlarga qiziqsinib qolgan Germiona bilan, aksincha, shubhali qarab, o'sha sovrinlarni bir umr esdan chiqmaydigan darajada tomosha qilib to'yganini ta'na qilgan Ron ham Garriga hamroh bo'lishdi.

Reddlning sayqal berilgan tilla sovrini burchakdagi javon ichiga yashirib qo'yilgan ekan. Undagi yozuvda qaysi xizmatlar uchun berilgani haqida biror-bir ma'lumot yo'q.

– Tafsilotlar bo'lmagani ham durust. Aks holda uni haligacha tozalab o'tirgan bo'lar edim, – dedi Ron.

Biroq bolalar «Sehrgarlik mahorati uchun» medali sohiblari ro'yxatida ham o'tgan yillarning eng ibratli o'quvchilari ro'yxatida ham Reddl ismiga duch kelishdi.

– U nimasi bilandir Persini eslatmoqda, – burun jiyirdi Ron. – Sinfboshi maktabning eng ibratli o'quvchisi, barcha fanlar a'lochisi ham bo'lgandir...

– Gapingning ohangiga qaraganda, allaqanday uyat narsalar haqida mulohaza yuritganday bo'lding, – dedi biroz xafa bo'lgan Germiona.

Quyoshning kuchsiz nuri «Xogvars» qasrining devorini asta isita boshladi. Umumiy kayfiyatda umid va ishonch tusi ko'proq namoyon bo'la boshladi. Jastin bilan «Deyarli Boshsiz Nik»ka uyushtirilgan tajovuzdan so'ng boshqa hech kim tajovuz qurboniga aylanmadi. Pomfri xonim mandragoralar biroz qosh chimirib, o'zini panaga oladigan bo'.

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

lib qolgani, bu esa o'z navbatida, ularning bolalik yosni o'tib, balog'atga yetish davri boshlaganidan dalolat ekanini quvonch-la e'lon qildi. Kunlardan bir kun Garri Pomfri xonimning Filchga xayrixohlik-la bergan tushuntirishini beixtiyor eshitib qoldi:

– Mandragoralar yuzida bo'jama ko'rinishi bilan ular qaytadan o'tqaziladi. Ko'p o'tmay shoxi qirqib olinib, damlama tayyorlanadi. Qarabsiz-ki, missis Norrisni sog'-salomat qabul qilib olasiz.

Balkim, jamiki maktab hushyor tortgani sababli ham Slizerinning vorisi o'z dadilligini yo'qotib, endi Maxfiy xonani ochish voris uchun xavfsiz bo'lmay qolgandir, o'yladi Garri. Balkim, o'sha xonadagi maxluq navbatdagi ellik yillik uyquga ketgandir...

Xufflpuffchi Erni Makmillanning kayfiyati esa bu qadar ko'tarinki emas. U Garrini Duelehilar klubida o'zini to'la-to'kis, ochiqdan ochiq namoyon etgan jinoyatchi deb bilishini hech qo'ymadi. Poltergeist Dryuzg o'zining ahmoqona «Eh, Potter-kimotter, nimalar qilding» qo'shig'i bilan paydo bo'lgancha, o'tga yog' quyar va har safar ahmoqona raqsga tushib yurar edi. Sverkarol Charuald esa o'zini o'zi jinoyatlar oqimini to'xtatgan kishi deb biladigan ko'rinadi. Griffindorchilar bir narsani boshqa narsaga aylantirish darsiga saf tortishayotganida Garri Charualdning professor Makgonagallga ma'lum qilayotgan fikrini eshitib qoldi.

– Biron-bir o'xshash muammo takroran yuzaga kelishi mumkin deb o'ylamayman, Minerva, – dedi u, ko'rsatkich barmog'i bilan o'z burnini urib qo'yib. – Maxfiy xona abadiy yopilganiga ishonchim komil. Negaki jinoyatchi qo'limga tushishi muqarrar ekanini anglab yetdi. Astoydil achchig'im chiqmasdan oldin u o'z jinoiy harakatini to'xtatib

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

oqilona ish tutdi. Fikrimcha, o'tgan semestrda bo'lib o'tgan noxush xotiralardan xalos bo'lish uchun, maktab, bugungi kunda ma'naviy rag'batga ehtiyoj sezmoqda. Hozircha biror gap aytmayman-u, ammo bu borada bir narsa o'ylab topganday bo'lyapman.

U burnini boz urib qo'ydi-da, viqor-la nari ketdi.

Charualdning ma'naviy rag'bat borasidagi tasavvuri o'n to'rtinchi fevral kungi nonushta vaqtida ayon bo'ldi. Bir kun oldin o'tgan kvridish mashqlarida charchab, yaxshi uxlamagan Garri nonushtaga oshiqib, Katta Zalga yetgach, xuddi boshqa xonaga kirib qolganday bo'ldi.

Zal devori g'ayritabiiy pushtirang gullarga burkangan bo'lib, uning och moviyrang berilgan shiftidan yurak shaklidagi konfettilar to'kilmoqda. Garri griffindorchilar stoli-ga, ko'ngli behuzur bo'lib, qayt qilib yuborguday qiyofa kasb etgan Ron bilan, ahmoqona hiringlayotgan Germiona yoniga borib o'tirdi.

– Nimalar bo'lyapti bu yerda? – so'radi Garri, bekon ustidagi konfettilarni nari uloqtirib.

G'azabi qaynab, so'z topa olmagan Ron o'qituvchilar stoli tomon imo qildi. Devor tusiga monand g'ayritabiiy pushti kiyingan Charuald qo'lini siltab, jimlik saqlanishini so'ramoqda. Uning ikki tomonida basharalarini toshday qotirib olgan o'qituvchilar o'tiribdi. Garri professor Makgonagalning yuzidagi asab tolalari o'ynayotganini, Snegg esa xuddi «Suyak-o'stir» dorisining bir cho'michini majbur yuttirilgan kishiday bo'lib qolganini ko'rdi.

– Barchangizni avliyo Valentin kuni¹ bilan muborak-

¹ Avliyo Valentin kuni yoki Sevisbganlar kuni – jahonda ko'plab odamlar tomonidan aynan 14-fevral kuni nishonlanadigan katoliklar bayrami. Ilk xristianlarning azob-uqubat chekkan ko'p sonli vakillariga mansub Valentin ismli ikki nafar jatokash nomi bilan atalgan bayram. Mazkur bayramga katolik va pravoslavniye cherkovlarning munosabati ma'nodosh emas. Islom dunyosida esa, ushbu bayramga salbiy qaratiladi.

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

bod etaman! – qichqirdi Charuald. – Menga otkritka yo‘l-laganlarga o‘zimning samimiy minnatdorligimni izhor etmoqchiman! Ushbu fursatga kelib, otkritkalar soni qirq olti donaga yetdi! Sizlarga ushbu arzimlas tuhfanini in‘om etishga jur‘at etdim... Biroq bu, hali hammasi emas.

Charuald kaftini ko‘tarib, qarsak urdi. Shu payt vestibul tomondagi eshik ochilib, Katta Zalga basharalari jiddiy qiyofa kasb etgan o‘n ikki nafar gnom kirib keldi. Gnomlarning qiyofasi ham g‘ayrioddiy. Charuald ularning barchasiga tillarang qanotcha taqib olish va qo‘ltig‘i ostiga bittadan arfa solib kelishga majbur qilibdi.

– Marhamat, qarshi oling, bizning dilrabo kupidonlarimiz¹! Bugun ular sizlarga valentinka² hadya etib yurishadi! Ammo bu ham hali hammasi emas! Ishonchim komilki, mening qadrdon kasbdoshlarim ham o‘zlari-ning munosib hissalarini ommaviy bayram kayfiyatiga aymay qo‘shadilar! Bugun Sevgi damlamasi tayyorlanishi-ning sir-asrorlari bilan o‘rtoqlashib, uni tayyorlash usullari-ni bizga ham o‘rgatishni professor Sneggdan iltimos qilib qolamiz! Mister Snegg bu ish bilan band bo‘lar ekan professor Flitvikni suhbatga chorlaymiz! Bu ayyor qari tulki kishini zavqlantiradigan Orombaxsh tilsim sirlari haqida siz-u bizga nisbatan ancha ko‘proq bilishi hammaga ayon!

Bechora professor Flitvik uyalib ketganidan ikki qo‘li bilan yuzini to‘sis oldi. Sneggning turqidan esa faqat bir gapni, u ham bo‘lsa: «Huzurimga Sevgi damlamasini so‘rab kelgan birinchi kishining bo‘g‘ziga zahar tiqaman!» – degan ma‘noni hech bir xatosiz uqib olsa bo‘ladi.

Bolalar Katta Zaldan chiqib, birinchi dars o‘tkazi-

¹ **Kupidon** – sevgi tangrisi (afsonaviy siymo).

² **Valentinka** – suyuqli kishilarga aynan avliyo Valentin kupi hadya etiladigan, sevgi va vafodan ramzi sifatida yodlaydigan, odatda, qizil yoki pushti tusli yurak shaklida tayyorlanadigan kichkina otkritka.

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

ladigan sinf xonasi tomon borishar ekan Ron xitob qildi:

– Germiona, sendan o'tinib so'rayman: o'sha qirq olti dona otkritka mualliflari orasida sen yo'q ekaningni ayt, iltimos!

Biroq shu fursatda qiz yuk xaltasi ichidan allaqanday narsa qidirishga kirishib, Ronning iltimosini javobsiz qoldirdi.

Gnomlar, o'qituvchilarning g'azabini qaynatgancha, shu kuni o'tkazilgan mashg'ulotlarga surbetlarcha yopirilib kirib, kuni bo'yi valentinka tarqatib yurishdi. Kunning ikkinchi yarmida griffindorchilar bir narsani boshqa narsaga aylantirish darsiga yo'l olishgan paytda esa gnomlardan biri Garriga xiralik qilib qoldi.

– Hoy, sen! G'ayri Potter! – qichqirdi badjahl gnom, Garrining oldiga yaqinlashish uchun xalal berayotgan bolalarni tirsaki bilan turtib.

Bir gala birinchi sinf o'quvchilari, shu jumladan, Jinna Ueslining ko'z o'ngida valentinkali bo'lish istiqbolini o'ylab, boshidan oyoq qizargan Garri qochib qolishga urindi. Biroq u hali ikki qadam bosishga ulgurnay, xaloyiq orasida, odamlarning taqiqlangan joylariga tepgancha, o'ziga yo'l ochib yugurgan gnom Garrining yo'lini kesib, yetib oldi.

– Men G'ayri Potterga atalgan musiqiy otkritkani shaxsan topshirishim darkor, – dedi gnom, qo'lidagi arfa bilan Garriga tahdid solgancha.

– Faqat bu yerda emas, – shivirladi Garri va juftak rostlashga yana bir bor urinib ko'rdi.

– To'xta, rostlan! – qichqirdi gnom va Garrining yelkasidagi yuk xaltaning tasmaidan tutib, orqaga tortdi.

– Qo'yib yubor! – xuddi it solib tutilgan o'ljaday iriladi Garri.

Uning yuk xaltasi g'arsillab yirtilib, ikki bo'lindi. Yuk xalta ichidagi kitoblar, sehrli tayoqcha, pat-qalam, pergament o'ramlari yerga to'kildi. Oxirgi bo'lib tushgan siyoh-don esa ushbu o'quv anjomlarini siyoh bilan bulg'adi.

Gnom o'z qo'shig'ini hangrashga kirishmay turib, zo'riqib timirskilangan Garri narsalarining hanumasini birdaniga yig'ishtirib olishga harakat qildi. Oqibatda yo'lakda tirbandlik yuzaga keldi.

– Nima bo'lyapti bu yerda?

Ushbu jirkanch ovozni eshitgan Garri battar titradi. Malfoy uning valentinkasini eshitib qolmasidan oldin narsalarini yig'ishtirib tez qochib qolishi kerak.

Voqea joyida tashvishli ko'rinish kasb etgan Persi paydo bo'ldi.

– Nega tartib buzildi? – so'radi u.

Gangib qolgan Garri yana bir bor qochishga urindi. Biroq gnom uning oyog'idan mahkam ushlab, polga yiqitdi.

– Xo'sh, – dedi u, polda yotgan Garrining to'piq suyagiga bor yuki bilan o'tirib olib. – Ana endi valentinkangizni qabul qilib oling:

*Ko'zi baqa tortiday yam-yashil,
Qaroqchi etigiday sochi qop-qora.
Yengilmas qahramon meniki bo'lsin,
O, Yovuz Lord o'ldira olmagan bola.*

Hozir Garri yer yoritib, kirib ketishi uchun «Gringotts»dagi bor oltinini berishga tayyor. Gnomning og'irligidan uvushgan oyog'iga turar ekan, qolganlar bilan barobar kulish uchun bor kuchini jalb etdi. Persi Uesli xaloyiqni tarqatish bilan ovora. Yo'lakdagi aksariyat bolalar kulaverib, qorinlarini ushlab qolishgan.

Tarqaling, darsga tarqaling, tarqaling! Qo'ng'iroq

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

zarbi eshitilganiga besh daqiqa bo'ldi. Tarqaling, – qichqirdi Persi, jo'jalarni to'zitgan singari kichkintoy o'quvchilarni haydab. – Senga ham taalluqli, Malfoy.

Garri Malfoyning yerdan nimadir ko'targani va topilgan narsani firibgar qiyofa ila Krabbe bilan Goylga ko'rsatayotganini bexos ko'rib qoldi. Shunda u Drakoning qo'lidagi narsa Reddning kundaligi ekanini angladi.

– Qaytarib ber, – dedi Garri, past ovozda.

– Qiziq, Potterimiz nimalar yozib yuribdi ekan? – qiziqsindi Malfoy.

Muqovadagi sanaga e'tibor qilmagan Malfoy, daftarni Garrining shaxsiy kundaligi deb o'yladi, chamasi. Yuzaga kelgan vaziyatni kuzatib turganlar jim bo'lib qolishdi. Dahshatga tushgan Jinna esa nigohini dam Garriga, dam kundalikka olib o'tib turdi.

– Menga ber uni, Malfoy, – dedi Persi, qat'iy ohangda.

– O'qib chiqqach, qaytarib beraman, albatta – javob berdi Malfoy, kundalikni Garrining burni qarshisida siltab.

– Maktab sinfboshisi sifatida... – gapini davom etdi Persi.

Garrining sabri chidamadi. U sehrli tayogchasini qo'liga oldi:

– Ekspelliarmus!

Snegg Charualdni qurolsizlantirgani kabi kundalik Malfoyning qo'lidan uchib chiqib, to'ppa-to'g'ri irshayib turgan Ronning qo'liga borib tushdi.

– Garri! – qichqirdi Persi, – Dars vaqtidan tashqari qasr yo'laktarida sehr-jodu bilan shug'ullanish mumkin emasligini unutdingmi. Bu haqda bildiruv berishga majburman!

Endi buning ahamiyati yo'q. Muhimi, Garri Malfoy bilan hisoblashib oldi va buning uchun griffindorning besh balini boy berishga ham rozi. Malfoy g'azabdan qaynab

ketib, yonidan o'tib ketayotgan Jinnaga qichqirdi:

– Sening valentinkang Garriga yoqmagan ko'rinadi!

Uyalib ketgan Jinna kafti bilan yuzini bekitib, yugurgancha sinfga kirib ketdi. Ronning jahli chiqib, tayoqchasini qo'liga oldi. Biroq Garri epchillik qilib, uni chetga tortishga ulgurib qoldi. Afsun o'qish darsida Ron boz shilliq-qurt qusib o'tirishini istamadi.

Dars davomidagina Garri g'alati bir holatni, jamiki narsalari to'q qizil siyohga bulg'angan bo'lishiga qaramay, Reddlning kundaligiga hech nima qilmaganini payqadi. Daftar asl holatida qolgan. Garri bu haqda Ronga aytnoqchi bo'ldi-yu, faqat o'rtog'ining sehrli tayoqchasidan yangi va yangi qirmizi pufakchalar chiqayotgani bois hozir u o'z xayolini boshqa muammoga jalb eta olmasligini tushunib, indamay qo'ya qoldi.

Shu oqshom Garri hammadan oldin yotoqxonasiga kirib ketdi. Bunga qisman «*Ko'zi baqa tortiday yam-yashil*»ni tinmay xirgoyi qilib, Garrini holi-joniga qo'ymagan Fred bilan Jorj sababchi bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, u, garchi Ron hanuzgacha ushbu ishni behuda vaqt sarflash deb ta'kidlayotgan bo'lsa ham kundalikni yana bir bor diqqat bilan o'rganib chiqishga ahd qildi.

Garri karavotiga o'tirib, bo'sh sahifalarni varaqlab chiqdi. Ularning birortasida ham siyoh dog'i ko'rinmadi. Shunda u javonchadan boshqa siyohdonini chiqarib, pat-qalamini botirdi-da, birinchi sahifaga atayin siyoh tomizib, dog' qildi.

Bir necha soniya yarqirab turgan dog' birdan g'oyib bo'ldi. Hayajonlanib ketgan Garri pat-qalamini yana siyohdonga botirib:

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

– «*Mening ismim Garri Potter*», – deb yozdi.

Ushbu soʻzlar ham bir necha soniya yarqirab turdi-da, koʻzdan gʻoyib boʻlib, nihoyat moʻjiza roʻy berdi. Sahifada Garri ishlatayotgan siyoh bilan yozilgan, lekin Garrining oʻzi yozmayotgan soʻzlar birin-ketin koʻrindi:

– «*Salom. Garri Potter. Mening ismim Tom Reddl. Kundaligimni qanday topib olding?*».

Bu soʻzlar ham yarqirab turib, Garri javob yozishga kirishishi bilan gʻoyib boʻldi.

– «*Uni kimdir unitazga tashlab yuborishga urinibdi*», – javob yozdi Garri.

U sabrsizlik bilan kundalikda javob soʻzlari paydo boʻlishini kutdi.

– «*Xayriyatki, oʻz yozuvlarimni siyohga nishatan koʻp-ga chidaydigan tarzda bitgan ekanman. Ushbu kundalik mazmuni hammaga maʼlum boʻlishini xohlamagan odamlar topilishi mumkin ekaniga hech qachon shubha qilmagan edim*».

– «*Nimani nazarda tutyapsan?*» – yozib soʻradi Garri.

– «*Kundalikda dahshatli voqealar haqidagi xotiralar borligini nazarda tutmoqdaman. «Xogvars» sehergarlik va afsungarlik sanʼati maktabida roʻy bergan oʻsha mudhish hodisalar sir tutilib, sukut saqlanadi*».

– «*Men aynan oʻsha yerda oʻtiribman*», – zudlik bilan javob yozdi Garri, – «*Men «Xogvars»daman va bu yerda yana dahshatli hodisalar roʻy bermogda. Maxfiy xona haqida biror-bir maʼlumot bera olasanmi?*»

Bolaning yuragi gumbur-gumbur ura boshladi. Reddl oʻz javobini uzoq choʻzmadi. Dastxat nisbatan tartibsizroq chiqib, goʻyo oʻziga maʼlum maʼlumotlar bilan tez oʻrtoqlashishga shoshilayotgan koʻrindi.

– «*Maxfiy xonadan xabarim bor, albatta. Men oʻqigan*

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

davrlarda Maxfiy xona haqidagi gaplarning bari uydirma sanalib, uning borligi tan olinmagan. Biroq bu yolg'on. Beshinchi sinfda o'qib yurgan kezarimda Maxfiy xona ochilib, unda yashiringan maxluq bir necha o'quvchiga hamla qilgan va oxiri ulardan birini halok qilgan. Men Maxfiy xonani ochgan kishini tutib berdim. Tabiiyki, u maktab o'quvchilari ro'yxatidan chetlatildi. Biroq maktab direktori professor Dippet «Xogvars»da bunday baxtsiz hodisa yuz berganidan andisha qilib, haqiqatni gapirishni menga butkul taqiqladi. Qiz mavhum baxtsiz hodisa tufayli halok bo'ldi degan gap tarqatildi. Ko'rsatgan xizmatlarim uchun esa chiroyli, nomim yozilgan maxsus sovrin bilan taqdirlandim. Ammo men bunday mudhish voqealar hoz takrorlanishi mumkinligini bilardim. Negaki maxluq tirik qoldi. Uni ozodlikka chiqarib yuborishi mumkin bo'lgan kishi esa qamalmadi».

Garri javob yozishga shoshilib, siyohdonni to'ntarib yuborishiga sal qoldi.

– «Sen hayon etgan hodisalar bugungi kunlarda ham ro'y hermoqda. Uch marta tajovuz uyushtirildi. Biroq bularning bari kimning qo'li ekani hanauzgacha noma'lum. Sen o'qigan davrga kim tajovuz qilgan?»

– «Istasang, ko'rsataman», – javob yozdi kundalik. – «Gapimga bovar qilish bilangina cheklanmaysan. Seni xotiralaringa o'zim yetaklab kiraman. Jinoyatchini qo'lga olganimni o'z ko'zing bilan ko'rishing, o'sha tunda yuz bergan hodisalar shohidi bo'lishing mumkin.»

Garri ikkilanib, pat-qalamini havoda to'xtatdi. Reddi bu bilan nima demoqchi? Kimnidir birovning xotirasiga yetaklab kirsa bo'ladimi? U uxlash xonasining eshigi tomon cho'chib qaradi. Qosh qoraya boshlagan. Nigohini kundalik sahifasiga qaratib, unda yangi yozuv shakllanayotganini

ko'rdi.

– «Ko'rsatishga ijozat ber.»

Garri bir necha soniya o'ylab turdi-da, atigi ikkita harf yozdi:

– «OK»

Shu payt kundalik sahifalari xuddi shamol esganday o'zidan o'zi varaqlanib, iyun oyida to'xtadi. Garri «13 iyun» sanasi yozilgan kichkinagina kvadrat mitti televizion ekranga aylanib qolayotganini og'zi lang ochilib qarab turdi. Qo'li titray boshlagan bola kundalikni ko'ziga yaqin keltirib, yuzini kichkinagina tuynukka deyarli taqab oldi. Bir vaqt tobora kattalashib borayotgan ekran hech narsani idrok etmagan bolaning tanasini o'z girdobiga torta boshladi. Garri karavotni tark etayotgani, yorqin rang va ko'lankalar uyurmasida boshi ila oldinga uchib, sahifadagi tuynukka kirib ketayotganini his etdi.

Nihoyat u yerga qo'nganini anglab, titrab oyoqqa turdi. Atrofdagi xira ko'lankalar esa aniq ifodalanib, o'z qiyofasini kasb etdi.

Qayerga kelib qolganini Garri darhol tushunib yetdi. Devoriga, o'z kreslolarida mizg'ib o'tirishgan sobiq direktorlarning rasmlari osib qo'yilgan doira shaklidagi xona. Damblorning xizmat xonasi-yu, bu! Faqat stol ortida professor Damblдор emas, yuzini ajin bosgan, bir tutam oqargan soch tukini hisobga olmaganda boshi toz allaqanday sehrigar chol sham yorug'ida xat o'qib o'tiribdi. Garri bu kishini muqaddam ko'rmagan.

– Ma'zur tuting, – g'udrandi Garri. – Huzuringizga bu tarzda yopirilib kirmoqchi emas edim...

Biroq qoshini chimirib olgan sehrigar ko'zini xatdan uzmay, mutolaa qilishni davom etdi. Garri cholg'a yaqinlashib, duduqlangancha ijozat so'radi:

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

– E-e-e... Men boray bo'lmasa, maylimi?

Bolaga e'tibor qilmagan qariyaning pinagi buzilmadi. U Garrining gapini eshitmadi, chamasi. Cholning qulog'i og'irroq, shekilli, o'yladi Garri va ovozinı balandroq ko'tarib:

– Sizga xalal berganim uchun uzr, men ketyapman. – dedi.

Xo'rsinib qo'ygan qariya maktubni o'radi-da, o'rnidan turib, bolaga qiyo ham boqmay, parda tortib uchun deraza yoniga bordi.

Derazadan ko'ringan kunbotar osmon la'l rangini kasb etgan. Qariya stol yoniga qaytib, kursiga o'tirdi-da, qo'lini chirmashtirib olgancha, kirish eshigidan ko'zini uzmay bosh barmog'ini aylantira boshladi.

Garri atrofga razm soldi. Yangus ham bug' chiqarib aylanadigan turli-tuman kumush asboblari ham xonada yo'q. Bola Reddl zamonidagi «Xogvars»ga kelib qolganini tushunib yetdi. Bu, o'z navbatida, ushbu notanish sehrgar chol o'sha davr direktori, Garri esa o'tmishdagi odamlar ko'ziga mutlaqo ko'rinmaydigan, ovozi eshitilmaydigan xayolot ekanligini anglatadi.

Eshik taqilladi.

– Kiring, – dedi chol, keksalarga xos titroq ovozda.

Xonaga boshidagi cho'qqidor shlapasini yechayotgan, ko'kragida sinfboshi ko'krak nishoni yaltirayotgan, Garridan novcharoq, qora sochli, yoshi o'n oltiga yetgan yigit kirib keldi.

– Ha, senmi, Reddl, – dedi direktor.

– Meni yo'qlagan ekansiz, professor Dippet? – so'radi hayajonli ko'ringan Reddl.

– O'tir. Menga yo'llagan maktubingni o'qib chiqdim.

– O-o.

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

Reddl kursiga o'tirib, kaftlarini mahkam chalishtirib oldi.

– Qadrdonim, – xayrixoh ohangda gap boshladi Dippet, – Senga yoz bo'yi maktabda qolishga ijozat bera olmayman. Axir, o'zing ham ta'til o'tkazish uchun uyingga bormoqchisan, shunday emasmi?

– Yo'q, – o'ylanib ham o'tirmay javob berdi Reddl, O'sha... o'sha... yerga qaytgandan ko'ra «Xogvars»da qolishni afzal ko'raman.

– Bilishimcha sen, har yilgi yozgi ta'tilni magllarning bolalar uyida o'tkazasan, shundaymi? – so'radi Dippet qiziqsinib.

– Ha, ser, – javob berdi Reddl qizarib.

– Magllar oilasida tug'ilgan afsungarmisan?

– Chala zot sehrgarman, ser. Otam magl, onam esa afsungar bo'lgan.

– Ota-onang ikkalasi ham?...

– Onam ko'zi yorilgach, vafot etgan. Bolalar uyida aytib berishlariga qaraganda, u menga otam sharafiga Tom va bobom sharafiga Mervolon ismini berishga ulgurgan, xolos.

Dippet achinganini ko'rsatib tili bilan chiqitlab qo'ydi.

– Tom, istisno tariqasida senga ijozat berishimiz mumkin edi-yu, biroq yuzaga kelgan vaziyatni inobatga olgan holda...

– Siz maktabda ro'y bergan tajovuzlarni nazarda tutyapsizmi, ser? – so'radi Reddl.

Garrining yuragi orqaga tortib ketdi. U biron-bir so'zni o'tkazib yubormaslik uchun yanada yaqinroq bordi.

– Juda to'g'ri, – dedi direktor, – hamma narsani o'zing fahmlab turibsan, qadrdonim. Semestr nihoyasiga yetgan bo'lsa-yu, senga maktabda qolishga ijozat bersam keti o'ylanmay qilingan ish bo'ladi. Ayniqsa, yaqinda bo'lib o'tgan

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

fojiani inobatga oladigan bo'lsak... Baxtsiz qizning halokati... Fikrimcha bugungi kunda sen yashagan o'sha bolalar uyi eng xavfsiz joy bo'lsa kerak. Sehrgarlik vazirligida ham maktabimizni yopish to'g'risida har xil gap-so'zlar yuribdi. Axir, biz jumboqning yechimini... m-m-m... bu ko'ngilsiz ishlarda kimning qo'li borligini hanuzgacha topganimiz yo'q...

Reddlning ko'zi katta ochildi.

– Ser, jinoyatchi qo'lga olinsa-chi? Agar o'sha tajovuzlarga barham berilsa-chi?...

– Fikringni tushunmadim. Bu bilan nima demoqchisan? – so'radi Dippet, sarosima ohangida. – Tajovuzlarga doir biron gapdan xabaring bor, Reddl?

– Yo'q, ser, – shoshib-pishib javob berdi yigit.

Garri ushbu javob ohangini yaqindagina maktab direktori xonasida Dambldorning o'xshash savoliga qaytargan «*Yo'q, professor*» ohangiga o'xshatdi.

Dippet hafsalasi pir bo'lib, o'zini suyanchiqqa tortdi.

– Bo'ldi, boraver, Tom...

Reddl kursidan sirpanib tushib, sal bukchaygancha, xonani tark etdi. Garri uning ketidan ergashdi.

Ular tosh eskalatorida pastga tushib, devorga yaqin turgan ajdar tusli tosh ilon yonidan, deyarli qorong'ilashib qolgan yo'lakka chiqishdi. Reddl qoshini chimirib, labini qimtib olgancha, nimanidir zo'r berib o'yladi.

Bir qarorga kelgan Reddl tez odimlay ketdi. Uning ketidan ergashgan Garrining qadami eshitilmaydi. Vestibulga yetib borishguncha ularga hech kim duch kelmadi. Vestibulga yetishgach, marmar zinada turgan novcha bo'yli, qizg'ish-qo'ng'ir tusli sochi va uzun soqoli to'zib ketgan allaqanday sehrgar Reddlning otini aytib chaqirdi.

– Qosh qorayganda nima qilib yuribsan bu yerda, Tom?

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

Garri ushbu sehgarga hayrat-la qarab qoldi. Uning qarshisida ellik yil oldingi Dambldor turibdi.

– Direktorning huzuriga kirib chiqdim, ser, – javob berdi Reddl.

– Unday bo'lsa, tez xonangga borib, yot, – dedi Dambldor, Reddlga rentgen nuri kabi nigoh tashlab. – Bugungi kunda qorong'i yo'laklarda yolg'iz yurmagan ma'qul, toki

U chuqur xo'rsinib qo'ydi-da, Reddlga xayrli tun tilab, nari ketdi. Reddl Dambldorni ko'zdan g'oyib bo'lguncha kuzatib turdi-da, yerosti yo'llariga kirish eshigi tomon shiddat-la yo'l oldi. Qiziqsinib qolgan Garri uning ketidan qolishmay, izma-iz quvib boraverdi.

Biroq Garrining hafsalasini pir qilgan Reddl, allaqanday yashirin o'tish joyi yoki maxfiy tunnelga emas, balki sehrli damlamalar tayyorlash mashg'ulotlari o'tkaziladigan yerto'lalar tomon yo'l oldi. Bu yerdagi devor mash'alalari o'chgan. Garri, tashqariga olib chiqadigan eshikni ochib, yo'lakni diqqat bilan kuzatgancha tek turgan Reddlning tanho o'zini ko'rib turdi, xolos.

Garrining taxminiga ko'ra, Reddl ikkalasi shu holatda kam deganda bir soat turishdi. Kuzatuvini biror daqiqaga bo'lsin to'xtatmagan Reddlning haykalday qotgan tanasi Garri ko'rgan yagona hodisa bo'ldi. Biror-bir vaziyat yuzaga kelishiga umid qilmay qo'ygan Garri ortga, o'z zamoniga qaytmoqchi bo'lib turgan fursatda eshik ortida allaqanday harakat eshitiildi.

Yo'lakda kimdir pisib yuribdi. U kim bo'lmasin, Reddl bilan Garri bekinib olgan yerto'la yonidan o'tib ketdi. Reddl joyidan qo'zg'alib, oyoq uchida yurgancha, xuddi ko'lanka kabi ko'zga ko'rinmagan kishini ta'qib qila ketdi. Qadam tovushi eshitilmas ekanini unutgan Garri ham xuddi shunday ish tutib, ikkalasining izidan ergashdi.

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

Ikkovlon qariyb besh daqiqa noma'lum kishi ortidan yurdi. Reddl kutilmaganda to'xtab, boshini uzatgancha, oldinda eshitilgan yangi tovushga quloq tutdi. Ochilayotgan eshikning g'irchillagan tovushi eshitildi. Garri kimningdir xirildoq va nihoyatda tanish ovozda pichirlab:

– Qani bolalar... bu yoqqa kelinglar... bu yoqqa... yashikchaga... ha, mana shunday... – degan gapini eshitdi.

Burchak ortida biqinib turgan Reddl daf'atan noma'lum kishi yoniga sakrab chiqdi. Garri ham uning ortidan chiqib, qaddi-qomati misli ko'rilmagan darajada yirik, qo'lida yashik ushlab olgancha, ochilgan eshik yonida egilib turgan yigitni ko'rdi.

– Salom, Rubeus, – salomlashgan bo'ldi Reddl, uzuq ohangda.

Yigit bir irg'ib, eshikni yopdi.

– Senga nima kerak bu yerda, Tom?

– O'yin tugadi, – dedi yaqinroq borgan Reddl. – Seni maktab rahbariyatiga tutib bermoqchiman. Rubeus. Tajovuzlar barham topmas ekan «Xogvars» yopiladi. Vazirlikdagilar shunday qaror qilishibdi.

– Nimalar deyapsan...

– Shaxsan o'zing birovni o'ldirmoq niyatini ko'zlaganingga ishonmayman, albatta. Biroq maxluqlarni qo'lga o'rgatilgan hayvon sifatida tarbiyalash mumkinligiga shubha ila qarayman. Nazarimda, sen oyoq chigilini yozib kelishi uchun ulardan birortasini qo'yib yuborgansan. Natijada...

– Ular hech kimning joniga qasd qilishmagan! – qichqirdi tanasi bilan eshikni to'sib olgan davangir.

U bekilib turgan eshik ortida yog'och timdalanayotgani va qandaydir g'alati shitirlagan tovushlar eshitildi.

– Bas qil, Rubeus, – dedi Reddl yigitga yaqinroq borib, – Ertaga halok bo'lgan qizning ota-onasi keladi. Uning jo-

XIII BOB. Sirli kuch yashiringan kundalik

niga qasd qilgan maxluqni yo'q qilish maktab tomonidan ko'rilgan arzimasi chora sanaladi...

– Qotillikni u qilmagan! – vahima ila qichqirdi yigit. – U qilmagan! U hayotda bunday ish qilmaydi!...

Uning qichqirig'i devordan aks-sado bo'lib qaytdi.

– Nari tur, – buyurdi Reddl, tayoqchasini qo'lga olib.

Yo'lak kutilmaganda Reddl qo'llagan afsundan yori-shib ketdi. Yigit ortidagi eshik shu qadar kuchli ochilib ketdiki, davangir qarshi devor tomon uchib tushdi. Eshik o'rnida paydo bo'lgan maxluqni ko'rgan Garri qichqirib yubordi. Tabiiyki, uning dodini hech kim eshitmadi.

Bir-biriga chigallashib ketgan qop-qora oyoqlar ustida past osilib turgan nihoyatda yirik tana, sakkizta ko'z va bir juft tig'day o'tkir changal dahshat solib turibdi. Reddl sehrli tayoqchasini boz ko'tardi-yu, kech bo'ldi. Maxluq uni yerga yiqitib, yo'lak bo'ylab yugurgancha, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Reddl bazo'r oyoqqa turib, maxluq qidirgancha atrofga alangladi. U endi tayoqchasini siltamoqchi bo'lgan ediki, davangir tayoqchani tortib olib, «YO'O'O'O'O'Q!» deya qichqirgancha, Reddlni turtib, polga yiqitdi.

Birdan atrof aylana boshlab, hech narsani ko'rib bo'lmaydigan timqorong'ilik tushdi. Garri qayoqqadir yiqilayotganini his etdi va oyoq-qo'li har tomon uzala tushgancha, «Griffindor» yotoqxonasidagi karavotiga quladi. Reddlning kundaligi esa uning qorniga kelib tushdi.

U hali nafasini rostlashga ulgurmay, eshik ochib kirib kelgan Ronning ovozi eshitildi.

– Bu yoqda ekan-san-da.

Garri yotgan o'rniga o'tirib oldi.

– Xagrid, Ron. Elik yil muqaddam Maxfiy xonaning eshigini Xagrid ochgan ekan.

XIV BOB. KORNELIUS FUJ

Garri, Ron va Germiona Xagridning yagona bir gunohi, u ham bo'lsa, nihoyatda yirik va o'ta xavfli hayvonlarga nosog'lom mehr qo'yganidan xabardor, albatta. O'tgan yili Xagrid o'zining yog'och kulbasida ajdar boqishga uringani yoki uning Momiqvoy laqabli uch kallali bahaybat itini esga olishning o'zi kifoya. Xagridning tabiatidagi bunday sifatlar yoshlik yillarida ham bo'lgani, qasrda allaqanday sirli hayvon borligini eshitib, uni laqal bir marta bo'lsa ham ko'rishga uringani va buning uchun har narsaga tayyor bo'lganiga shubha qilmasa bo'laveradi. Shunday ekan, Xagridan o'sha zindonband maxluqqa shafqat qilgani, sonsiz oyoqlarining chigilini yozib olishi uchun hayvonga imkon berishini kutish mumkin. Garri bahaybat maxluqqa bo'yinbog' bog'lab yetaklab yurgan o'n uch yoshli Xagridni ko'z oldiga keltirib ko'rdi. Biroq Xagrid birovning joniga qasd qilish maqsadida biron-bir tarzda ish tutishni o'n uch yoshida ham hozir ham xayoliga keltirmagani aniq. Garrining bunga ishonchi komil.

Reddlning kundaligi bilan muloqot qilish usulini topganiga Garri afsus qila boshladi. Ron bilan Germiona ikkalasi Garridan Reddlning xotirasida ko'rgan narsalarini takror va takror aytib berishni so'rab, joniga tegishdi. Bitta hikoyani har kuni qayta boshdan gapirib berish va oxiri ko'rinmaydigan muhokamalarni eshitib o'tirish Garrining ko'nglini behuzur qilib yubordi.

– Reddl adashgan bo'lishi, umuman aytganda, odamlarga mutlaqo boshqa maxluq tajovuz qilgan bo'lishi mumkin, – dedi Germiona.

– Fikringcha, «Xogvars»da hayvonot bog'iga o'xshash maxluqlar bog'i bormi? – so'radi zerikib ketgan Ron.

– Xagridning maktab o'quvchilari ro'yxatidan chet-

lashtirilganligidan xabarimiz bor, – dedi Garri, achinarli ohangda. – Uni o‘qishdan haydab yuborishgach, tajovuzlar barham topgan. Aks holda Reddl taqdirlanmagan bo‘lar edi.

Ron mavzuni almashtirishga urinib ko‘rdi.

– Reddl chindan ham nimasi bilandir Persiga o‘xshab ketar ekan... Kim uni Xagridning ustidan chaqimchilik qilishga majbur qilibdi?

– Axir, maxluq odam o‘ldirgan-u, Ron, – eslatib o‘tdi Germiona.

– Reddl esa magllarning bolalar uyiga qaytishi kerak bo‘lgan, – qo‘shimcha qildi Garri. – Shaxsan men uning maktabda qolish yo‘lida qilgan sa’y-harakatining sababini juda yaxshi tushunib turibman...

– Garri, esingdami, Xagrid bilan «Digar xiyobon»da uchrashib qolgan eding?

– Etxo‘r shilliqqurtlarga qarshi qo‘llaniladigan vosita axtarib kirgan edi! – xitob qildi Garri.

Uchalasi jim bo‘lib qoldi. Uzoq tanaffusdan so‘ng Germiona hammani tashvishga solgan qaltis savol berdi:

– Balki, bu haqda Xagridning o‘zidan so‘rab bilamiz, nima deysiz?

– Ha, uning kulbasiga dilkash tashrif buyuramiz-da, – odatdagiday gap ila chaqa ketdi Ron, – «Salom Xagrid, marhamat qilib ayt-chi, bir zamonlar sen quturib ketgan paxmoq hayvonni ozodlikka, ya‘ni maktab hududiga chiqarib yuborganing yo‘qmi?» – deb so‘raymiz.

Oxir-pirovardida, agar boshqa tajovuz yuz bermasa, Xagridga hech nima aytmalik va hech nima so‘ramaslikka qaror qilindi. Kunlar ketidan tinch kunlar o‘tib, egasi yo‘q ovoz eshitilmay qolgani uchun ham bolalar maktab qorovulidan nima uchun o‘qishdan chetlatilganini so‘rashga ehtiyoj bo‘lmasligiga umid bog‘lashdi. Jastin bilan «Deyarli Boshsiz Nik» dong qotib qolishgan kundan e‘tiboran deyar-

li to'rt oy o'tdi. Hamla qilgan kas, u kim bo'lishidan qat'i nazar, abadiy ketgan degan umumiy fikr shakllana boshladi. Dryuzgga ham «*Eh, Potter-kirnotter, nimalar qilding*» qo'shig'i joniga tekkan ko'rinadi. Xufflpuffchi o'quvchi Erni Makmillan esa gerbologiya fani darsida Garridan, xushmuomalalik ila, irg'ivchi zamburug' to'ldirilgan chelakni uzatib yuborishni iltimos qildi. Mart oyi kunlaridan birida uchinchii issiqxonada yetishtirilayotgan mandragoralar shovqin-suron solib, chapanicha oqshom uyushtirishganidan professor Sarsabil xonim o'zida yo'q baxtiyor.

– Ular bir-birining tuvagiga mehmonga kira boshlashsa, demak voyaga yetishgan bo'ladi, – zavq-la ma'lum qildi u Garriga. – Ana shunda biz, bechora jabrlanganlarga yordam ko'rsata olishimiz mumkin.

Pasxa ta'tilida ikkinchi sinf o'quvchilari mulohaza yuritishlari uchun yangi mavzu topildi. Uchinchii sinfda o'zlashtiriladigan fanlarni tanlash vaqti yetibdi. Aksariyat o'quvchilardan farqli o'laroq, Germiona ushbu masalaga nihoyatda jiddiy yondashdi.

– Bu masala kelgusi hayotimizga o'z ta'sirini ko'rsatadi! – dedi u, jamiki fanlar ro'yxatini ko'rib chiqib, qarshisiga belgi qo'yayotgan Garri bilan Ronga.

– Yagona orzuim, sehrli damlamalar tayyorlash fanini o'qimaslik, – dedi Garri.

– Afsuski mumkin emas-da, – dedi Ron, ma'yus ohangda. – Muqaddam o'qitilgan barcha fanlar o'zlashtirishda davom etilishi shart. Men ham yovuz kuchdan himoya fanidan jon deb voz kechgan bo'lar edim.

– Axir, u nihoyatda muhim fan-u!

– To'g'ri, faqat Charualdga o'xshagan o'qituvchi bilan o'zlashtirilganda emas, – dedi Ron. – Shaxsan menga u, tutqunlikdagi elfchalarni qanday qilib qafasdan chiqarib yuborishni o'rgatdi xohar.

XIV BOB. Kornelius Fui

Nevill Longbottom qarindoshlardan ko'p maktub oldi. Ularning har biri fan tanlash borasida o'zi bilgancha maslahat berdi. Fikr-mulohazalari tamoman chalkashib, tashvishga tushib qolgan Nevill tilini osiltirgancha, ro'yxatni takror va takror o'rganib chiqib, atrofdagi odamlardan arifmantika qiyinroqmi yoki qadimiy runalarni¹ o'rganish fani qiyinroqmi, so'rab yurdi. Garri kabi magllar orasida o'sgan Din Tomas esa ushbu masalani soddaroq, maglcha usul qo'llab, hal qildi. U ko'zini shartta yumdi-da, sehrli tayoqchasining uchini fanlar ro'yxatiga navbat bilan taqab chiqdi va tayoqcha uchi qaysi fanlarni ko'rsatgan bo'lsa, o'shalarga yozilib qo'ydi. Germiona hech kimdan maslahat so'rab o'tirmadi. U ro'yxatda ko'rsatilgan barcha fanlarga yozildi-qo'ydi.

Sehrgarlik sohasidagi kelgusi faoliyati borasida Vernon amakisi bilan Petuniya xolasidan maslahat so'rayotganini o'ziga tasavvur qilib ko'rgan Garri miriqib kuldi. Ammo, maktabda Garrining nasihatgo'ylari yo'q deb ham bo'lmaydi, chunki Persi Uesli mamnuniyat ila o'z fikri va tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

— Muhimi, Garri, — boshladi u, — kelgusida nima bilan shug'ullanmoqchi ekaningni uzil-kesil hal etmog'ing darkor. Kelajak haqida fikr yuritishda «hali erta» tushunchasi bo'lmaydi. Shu bois ham senga bashorat fanini tavsiya etgan bo'lardim. Bundan tashqari, maglshunoslik fani to'g'risida noto'g'ri fikrlar shakllangan. Emishki, bu fan g'irt ahmoqlar uchun o'ylab topilgan. Biroq bu masalada men o'zgacha fikrdaman. Modomiki, magllar bilan bevosita aloqada ishlamoqchi ekansan, sehrgar bo'lmaganlar dunyosi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishing shart. Bu masalada dadamni misol tariqasida keltirishim mumkin. Endi akam

¹ Runalar — asosan qadimgi skandinav xalqlarining yozuvi

XIV BOB. Kornelius Fuj

Charlini olaylik. U bir umr tabiat qo'ynida yurishni yoqtirib kelgan. Shu bois ham u sehrli hayvonlarni parvarish qilish fanini tanlagan. Kishi o'zining kuchli tomonlarini bilishi va ularni hayotda mohirona qo'llay olishi lozim, Garri.

Lekin Garri kvidishdan boshqa sohalarida o'zini kuchli deb bilmadi. Oxir-pirovardida o'rtog'i Ron qaysi fanlarni tanlagan bo'lsa, u ham shu fanlarga yozilib qo'ydi. Bu masalada u quyidagicha fikr yuritdi: mabodo tanlangan fanlar bo'yicha batamom iste'dodsiz ekanim namoyon bo'lsa, har qalay yonimda yordam qo'lini uzatadigan odam bo'ladi.

Navbatdagi o'yinda «Griffindor» jamoasi «Xufflupuff» jamoasiga qarshi chiqishi kerak. Drev har kuni kechki ovqatdan so'ng mashq qilish shart deb turib oldi. Oqibatda Garrining kvidish bilan uy vazifalaridan tashqari, boshqa ishga vaqti yetmay qoldi. Xayriyatki mashqlar namgarchiliksiz o'tib, u qadar qiyin kechmadi. Shu bois ham Garri, shanba kungi o'yin arafasida, «Griffindor» jamoasining maktab kubogini qo'lga kiritish imkoniyati nihoyatda katta ekanidan zavqlangancha, supurgisini qo'yib qo'yish uchun yotoqxona tomon yo'l oldi.

Ammo ko'tarinki kayfiyat uzoqqa bormadi. Yotoqxona olib chiqadigan aylanma zina ustida ruhiy tushkunlik holatiga yetib qolgan Nevillga duch keldi.

— Garri... buni kim qilganini bilmayman... men hozirgina kirib keldim...

Garriga dahshat-la qarab turgan Nevill yotoqxona eshigini katta ochdi. Xonada Garrining narsalari sochilib yotibdi. Ridosi yirtilgan, karavotining choyshabi sug'urib olingan, javonining tortmalari chiqarilib, ichidagi narsalar karavot matراسi ustiga uloqtirilgan.

Og'zi lang ochilgan Garri «Trollar bilan sayohat» kitobining uzib tashlangan sahifalarini bosgancha, karavotiga yaqinlashdi. Nevill karavot choyshabini yozishga yordam-

lashib yubordi. Sal o'tib xonaga Ron, Din va Simus kirib kelishdi.

– Narsalaringni kim sochib tashlashi mumkin, a, Garri?
– so'radi Din changitib so'kinib olgach.

– Tasavvur ham qila olmayman, – javob berdi xafa bo'lgan Garri.

Ron atrofga uloqtirib tashlangan kiyimlarni ko'zdan kechirib chiqib, cho'ntaklarning hammasi teskari ag'darilganligiga e'tibor qildi.

– Kimdir nimadir qidirgan, – xulosa qildi u. – Qara-chi, nimang yo'qolibdi?

Garri narsalarini yig'ib, sandig'iga joylay boshladi. Charualdning kitoblarni joylab bo'lgandagina nima yo'qolganini fahmladi.

– Reddning kundaligi yo'q!

– Nima?!

Garri eshik tomon imo qilgach, Ron ikkalasi tashqariga chiqdi. Ular zudlik bilan pastga tushib, umumiy mehmonxonada «Soddalashtirilgan qadimiy runalar» kitobini o'qib o'tirgan Germionaning yoniga kelishdi.

Yangilikni eshitgan Germiona vahimaga tushdi.

– Axir... begona kishi mehmonxonaga kirish parolini bilmaydi, faqat griffindorchilardan birortasi o'g'irlashi mumkin, xolos...

– To'ppa-to'g'ri, – tasdiqladi Garri.

Ertasiga ertalab uyg'ongan bolalar quyosh ko'zni qamashtiradigan darajada yaraqlayotgani-yu, kuchligina shabada esayotganini ko'rishdi.

– Kvidish o'ynaydigan havo bo'libdi-da! – quvonch-la e'lon qildi Drev, jamoa a'zolarining likoplariga tuxum quy-moq to'ldirib. – Qani Garri, likopingni uzat-chi, sen yaxshilab to'yib olishing kerak.

Reddning kundaligini o'g'irlab, unga sohiblik qilayot-

gan kishini fosh etish maqsadida Garri dasturxon atrofida o'tirgan fakultetdoshlarga diqqat bilan razm solib chiqdi. Germiona o'g'irlik haqida xabar berish kerakligini maslahat qildi. Ammo Garriga bu fikr yoqmadi. Negaki o'g'irlik haqida xabar beradigan bo'lsa, kundalik haqida ham o'qituvchilarga batafsil ma'lumot berishiga to'g'ri keladi. Xagrid o'qishdan chetlashtirilganining asl sababini ulardan necha nafari bilishi noma'lum-u, o'sha qayg'uli hodisa boz muhokama qilinishini Garri istamadi.

Yotoqxonadagi kvidish kiyimini olish uchun do'stlari bilan birgalikda Katta Zaldan chiqqan Garrining tashvishlariga yana bir jiddiy tashvish qo'shildi. Marmar zinaning ilk pog'onasiga oyoq qo'yishi bilan qulog'iga egasi yo'q ovoz eshitildi:

– ... oldimga kel... sanchib olay... bu safar o'ldirishga imkon ber...

Garri qichqirib yubordi. Cho'chib ketgan Ron bilan Germiona nari sapchib tushishdi.

– Yana o'sha ovoz! – baqirdi Garri, yelkasi uzra ortga qarab, – Hozirgina eshitdim... Sizlar-chi?

Ko'zi yumaloq bo'lib ketgan Ron bosh chayqadi. Germiona esa kaftlarini boshiga qo'yib:

– Garri, nazarimda, tushunganday bo'ldim! Men hoziroq kutubxonaga borishim kerak! – dedi-da, zina bo'ylab yuqoriga yugurib ketdi.

– Yana nimani tushundi ekan u? – so'radi Rondan Garri, ovoz qayerdan eshivilishi mumkinligini oydinlashtirish uchun parishonxotirlik bilan atrofga qarab.

– Nimani tushunganini bilmadim-u, mendan ko'ra ko'proq narsalarni anglashini aniq bilaman, – javob berdi Ron, bosh chayqashini davom etib.

Garri taraddud bilan, egasi yo'q ovoz yana eshilib qolishini kutdi. Lekin xaloyiq Katta Zaldan qiy-chuv solib

chiqayotgani bois endi eshitilmasligi aniq bo'ldi. O'quvchilar o'yin tomosha qilgani o'yingoh tomon oshiqishdi.

– Shoshil, – dedi Ron, – soat o'n bir bo'lay deb qoldi. O'yin...

Garri «Griffindor» minorasiga yugurib, «Nimbus-2000»ni qo'lga oldi-da, o'yingoh tomon ketayotgan xaloyiqqa qo'shilib ketdi-yu, xayolan hamon qasr ichida, egasi yo'q ovoz yonida qoldi. Kvidish kiyimini kiyar ekan, hamma tashqarida, qasrda hech kim qolmaganini o'ylab, o'zini ovuntirgan bo'ldi.

Ikkala jamoa quloqni bitiradigan qarsaklar ostida maydonga chiqdi. Oliver Drev chigil yozish uchun halqalar atrofida gir aylanib uchib keldi. Rolanda Tryuk xonim to'plarni savatdan chiqardi. Sap-sariq kiyinib olishgan xufflpuffchilar esa bugungi o'yin taktikasini so'nggi bor muhokama qilish uchun to'garak bo'lib olishgan.

Qo'lga ovoz kuchaytiradigan binafsharang katta karnay ushlab olgancha dam yurib, dam yugurib kelgan professor Makgonagall o'yin maydonida paydo bo'lgan paytda Garri endigina supurgisini egarlamogchi bo'lib turgan edi.

Uning yuragi nimagadir shuv etib ketdi. Karnayni odam to'la namoyishgohga qaratgan professor Makgonagall e'lon qildi:

– O'yin qoldirildi!

Atrofda norozi xitoblar ko'tarildi. Tentak bo'lib qolishiga sal qolgan Oliver Drev yerga qo'nib, supurgidan tushmay professor Makgonagall tomon yugurdi.

– Axir, professor, – qichqirdi u, – biz o'ynashimiz kerak... kubok... «Griffindor»...

Professor Makgonagall unga e'tibor qilmay, karnay orqali baqirishini davom etdi:

– Barcha o'quvchilar o'z fakultetlarining umumiy mehmonxonasiga zudlik bilan yetib borishlari shart! O'sha

XIV BOB. Kornelius Fuj

yerda o'z mudirlaringizdan qo'shimcha axborot olasiz! Imkon qadar tez bo'ling, shoshiling!

Shundan so'ng u karnayni tushirib, Garrini imladi.

– Potter, sen men bilan yurasan...

Bu safar nima masalada gumon qilinayotganiga tushunmay, qasr tomon yo'l olgan Garri xaloyiq orasidan ajrab chiqayotgan Ronni ko'rib qoldi. Shunisi qiziqki, Ronning birga borishiga professor Makgonagall e'tiroz bildirmadi.

– Ha, Uesli, sen ham biz bilan yurganing ma'qul...

Ularning yonidan o'tayotgan ayrim o'quvchilar o'yin bekor qilinganidan norozi ohangda vaysab borishsa, ha'zilar sukut saqlab, nimadandir cho'chigani bilindi. Professor Makgonagallning ketidan ergashib, qasrga kirgan Garri bilan Ron zina bo'ylab yuqoriga ko'tarilar ekan, bu safar biron-bir o'qituvchining xizmat xonasiga emas, to'g'ri kasalxona tomon borishayotganini fahmlashdi.

– Hozir siz ko'radigan holat ikkalangiz uchun ruhiy larza bo'lishi mumkin, – ogohlantirdi professor Makgonagall, kutilmaganda muleyim gapirib. – Yana bir tajovuz... Ikki-langan jinoyat boz sodir etildi.

Garrining yuragi taka-puka bo'ldi. Professor Makgonagall eshikni ochgach, ikkovlon ichkariga kirdi.

Pomfri xonim fatila sochi uzun qiz ustida engashib turibdi. Garri «Ravenklo» fakultetining beshinchi sinfida tahsil ko'rayotgan ushbu qizni tanidi. Barcha qiyofalar damlamasini ichib olib, «Slizerin»ning umumiy mehmon-xonasiga olib boriladigan yo'lni ular aynan shu qizdan so'rashgan edi. Uning yonidagi karavotda esa...

– Germiona! – ingrab yubordi Ron.

Germiona shishaday bo'lib qolgan ko'zini shiftga tikkancha, qilt etmay yotibdi.

– Ikkalasi kutubxona yaqinida topildi, – ma'lum qildi professor Makgonagall. – Qizlar yotgan polda esa mana bu

buyum topildi... Chamasi, sizlar hech qanday tushuntirish bera olmaysiz, shundaymi?

Professor Makgonagall bolalarga kichkinagina, yuma-loq ko'zguni ko'rsatdi.

Garri bilan Ron iztirobli nigohlarini Germionadan uz-may bosh chayqadi.

– Sizlarni «Griffindor» minorasiga kuzatib qo'yaman, – dedi professor Makgonagall g'amgin ohangda. – Fakultet o'quvchilariga yetkaziladigan e'lon bor.

Umumiy mehmonxonani to'ldirib o'tirgan griffindor-chilar professor Makgonagallning gapini sukut saqlab eshi-tishdi.

– Jamiki o'quvchilar soat o'n sakkizdan kechikmay o'z fakultetining umumiy mehmonxonasiga kirishi shart. Shun-dan so'ng hech kim hech qayoqqa chiqmaydi. Mashg'ulot-lar davomida bir sinf xonasidan boshqasiga borayotgani-ngizda ham hattoki tanaffus vaqtida yozilish joyiga boradi-gan bo'lsangiz ham o'qituvchilar sizlarga hamroh bo'lisha-di. Kvidish mashqlari-yu, o'yinlari vaqtincha to'xtatiladi. Shuningdek, har qanday kechki tadbir o'tkazilishi man eti-ladi.

U e'lon matni yozilgan pergamentni o'rab, bo'g'iq ovoz-la fikrini davom etdi.

– Bunday tashvishli holatga kamdan kam tushishim borasida qo'shimcha qilishim shart bo'lmasa kerak. Ushbu tajovuzlarni amalga oshirayotgan jinoyatchi qo'lga olin-guncha maktab yopilishi ham ehtimoldan xoli emas. Shun-day ekan, bu masalada biron-bir ma'lumot bera oladigan kishi bir qadam oldinga chiqishini o'tinib so'rayman.

Professor portret ortidagi tuynukdan bir iloj qilib tash-qariga chiqib, ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan griffindorchilar bo'lib o'tgan hodisa muhokamasiga kirishishdi.

– Kelinglar, bo'lib o'tgan ishlarga yakun yasaymiz, –

taklif qildi egizaklarning o'rtog'i Li Jordan. – Agar «Griffindor» arvochini hisobga olmasak, ikki nafar griffindorechi jabrlandi. Shundaymi? Shunday. Plus «Ravenklo» fakultetining o'quvchi qizi va «Xuffpuff» fakultetida o'qiyotgan bolakay, – sanay ketdi u, barmoqlarini bukib, – Qiziq, nima uchun slizerinchilar omon yurishgani haqidagi xayol biron-bir o'qituvchining miyasiga kelmayapti? Axir, barcha yovuzliklar aynan «Slizerin» bitan bog'liq ekani ayon emasmi? Voris Slizerinniki bo'lsa, maxluq ham slizeringa qarashli! Janoblar, qichqirdi u. – O'sha fakultetni tugatish vaqti kelmadimikan?

Barcha griffindorchilar Li Jordanning fikrini ma'qulab, boshboshdoqlik-a qarsak ura ketishdi.

Rangi oqarib ketgan Persi Uesli bu safar o'z fikrini bayon etishga oshiqmay, Li ortidagi kresloda parishonxotir o'tiribdi

– Persi ruhan larzaga kelgan, – astagma pichirladi Jorj Garrining qulog'iga, – «Ravenklo» fakultetida tahsil ko'rayotgan o'sha qiz Penelopa Kristalluoter ham Persi kabi sinfboshi. Nazarimda, maxluqning maktab sinfboshisiga tajovuz qilishga jur'at etgani akam uchun kutilmagan holatday ko'rinadi.

Lekin Jorjning gapi Garrining qulog'iga deyarli kirmadi. Germionaning kasalxona karavotida haykalday qotib yotgan holati uning ko'z o'ngidan nari ketmayapti. Bundan tashqari, jinoyatchi qo'lga olinmas ekan, Dursllar xonadoniga qaytishga va u yerda noma'lum vaqt bo'lishga majbur bo'ladi. Magllarning bolalar uyiga qaytishni istamay, Xagrid ustidan chaqimchilik qilgan Tom Reddning ahvolini Garri yaxshi tushunadi.

– Nima qilsak ekan? – pichirladi Ron. – Ular Xagrid-

dan gumon qilishayotgani yo'qmikan ishqilib?

– Borib, suhbatini olish kerak, – qaror qildi Garri. – Bu safar Xagrid aybdor deb o'ylamayman, albatta. Modomiki, o'tgan safar maxluqni qo'yib yuborishga muvaffaq bo'lgan ekan, demak Maxfiy xonaga kirish yo'lini ham biladi. Bu esa har qalay yo'qdan ko'ra bor axborot.

– Lekin Makgonagall minorani tark etishni taqiqladiyu. Faqat mashg'ulot vaqtidagina...

– Nazarimda, dadamning plashini ishlatadigan vaqt yetgan ko'rinadi.

Garriga dadasidan yagona bir buyum: kumush tusli uzun ko'rinmas plash meros qolgan. Bu plash Garri bilan Ronga qasrdan chiqib, Xagridning kulbasiga borish imkonini beradi. Bolalar odatiy vaqtda o'z o'rinlariga borib yotishdi, Nevill, Din va Simus Maxfiy xona muhokamasini bas qilib, uxlab qolishini kutishdi. So'ng asta turib, kiyinishdi.

Ustlariga ko'rinmas plash tashlab olishgan bolalarning qorong'i qasr bo'ylab sayohati u qadar zavqli kechmadi. Ko'rinmas plashini kiyib «Griffindor» minorasidan ilgari ham chiqib yurgan Garri kechasi sandiroqlab yurgan odamlarning bunchalik ko'p soniga hali yo'liqmagan. O'qituvchilar, sinfboshilar va hatto arvohlar ham juft-juft bo'lib, atrofga alanglagancha, qasr yo'laklarida navbatchilik o'tashmoqda. Ko'rinmas plash odamni ko'zga ko'rinmas qilib qo'ygani bilan ovozi eshitilmaydigan qilib qo'ymaydi. Shu bois Garri bilan Ron bir necha noqulay fursatni boshdan kechirib yurishdi. Atigi bir necha metr naridagi postda turgan professor Snegg yaqinida oyog'ining bosh barmog'ini urib olgan Ron so'kinib yubordi. Xayriyatki Snegg ham shu fursatda aksirib, Ronning ovozini eshitmay qoldi. Hech kimga bildirmay eman eshikka qadar bir amallab yetib, hovliga chiqishga muvaffaq bo'lgan bolalar o'zlarini ancha

yengil tortishdi.

Kecha oydin, osmon yulduzli. Garri bilan Ron derazalari yoritilgan kulba tomon yugurib, ostonaga yetgandagina, plashni yechishdi.

Ular endigina taqillatishgan eshik lang ochilib, qo'liga arbalet ushlagan Xagridning o'qiga duch kelishdi. Sohibi-ning ortiga yashirinib olgan So'yloqtish akilladi.

– Iye, – dedi Xagrid, qurolini tushirgancha, hayratdan qotib. – Nimani unutib qoldiribsizlar bu yerda?

– Mana bu nima uchun kerak? – savolga savol-la javob berdi Garri, arbaletga imo qilib.

– Ha... buni... hech narsa uchun... shunchaki... – g'ud-randi Xagrid. – Qani, ichkariga kiringlar-chi. Mehmon kut-yapman... ahamiyati yo'q... o'tiringlar... choy damlayman...

Xagrid o'zini idora qilmayotgani ko'rinib turibdi. O'choqdagi olovga suv to'kib yuborib, o'chirib qo'yishiga sal qoldi. Qo'lining qo'pol harakati bilan stol ustidagi choy damlash choynagini yiqitib yubordi.

– Nima qildi senga, Xagrid? – so'radi Garri. – Gernio-na haqida eshitdingmi?

– Ha, xabarim bor, eshitdim. – javob berdi Xagrid, titragan ovozda.

Eshik tomon muntazam qarab-qarab borgan Xagrid krujkalarga choy xaltacha solishni unutib, bolalarga dog' suv quyib berdi. Mevali pirogning qotib qolgan bo'lagini endigina likoplarga qo'yimoqchi bo'lgan ediki, eshik qattiq taqilladi.

Xagrid qo'lidagi pirogni polga tushirib yubordi. Garri bilan Ron bir-biriga vahimali qarab qo'yishdi-da, ustlariga ko'rinmas plashni tashlab, kulba burchagiga biqinib olishdi. Bolalar ko'rinmay qolganiga ishonch hosil qilgan Xagrid eshikni ochdi.

– Salom, Xagrid.

Kulbaga jiddiy qiyofa kasb etgan Damblidor, uning ketidan esa oqargan sochi hurpaygan, yuzi tashvishli, tashqi qiyofasi qandaydir ko'rinayotgan g'alati kishi kirib keldi.

Notanish odam egniga bir-biriga mos kelmagan: yo'l-yo'l kostum, to'q qizil galstuk, uzun qora rido va tumshug'i ingichka qirmizi etikdan iborat kiyim kiygan. Qo'ltig'iga esa qora rangli qozon shlapachasini qistirib olgan.

Bu kishi dadamning boshlig'i! – pichirladi Ron, – Sehrgarlik vaziri Kornelius Fuj!

Garri, jim bo'lishi uchun Ronning biqiniga turtib qo'ydi.

Xagridning rangi oqarib, terga botdi. U o'zini kursiga tashlab, dastlab Damblidor, so'ng Kornelius Fujga qarab qoldi.

– Ishlar chatoq, Xagrid, – uzuq-yuluq gap boshladi Fuj. – Juda chatoq. Shaxsan o'zim kelishimga to'g'ri keldi. Magllar oilasida tug'ilgan to'rt nafar afsungarga tajovuz uyushtirildi. Bunday holat davom etishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Sehrgarlik vazirligi tegishli choralar ko'rishga majbur.

– Men hayotda bunday ish qilmaganman, – g'udrandi Xagrid. – Hayotda. Siz bilasiz-ku, professor Damblidor, ser. Hayotda...

– Sizga ma'lum bo'lsinki, Kornelius, men Xagridga to'la-to'kis ishonaman, – qosh chimirdi Damblidor Fujga yuzlanib.

– Quloq soling, Albus, – gapini davom etdi noqulay ahvolga tushgan Fuj. – Xagridning o'tmishi bugungi kuniga qarshi chiqmoqda. Vazirlik chora ko'rishga majbur. Maktabni boshqarish ma'muriyatining a'zolaridan har xil xabarlar kelib tushdi...

– Takror aytaman, Kornelius. Xagridning bartaraf etilishi biror-bir ijobiy natija bermaydi, – dedi Damblidor.

Uning ko'zida Garri muqaddam ko'rmagan olov cha-

raqladi.

– O‘zingizni mening o‘rnimga qo‘yib ko‘ring, – vaysa-di Fuj, qo‘lidagi qozon shlapachasini aylantirib. – Men kuchli tazyiq ostida qolganman. Chora ko‘rayotganimni odamlar ko‘rishi, bilishi darkor. Basharti Xagrid aybsiz ekani oydinlashsa, u maktabga qaytadi va bu masala qayta ko‘tarilmaydi, vassalom. Biroq hozir uni olib ketishim kerak. Shunga majburman. Agar o‘z xizmat majburiyatimni bajarishga majbur bo‘lmaganimda edi...

– Meni olib ketish? – so‘radi Xagrid. – Qayoqqa olib ketish?

– Uzoq vaqtga emas, – dedi Fuj, ko‘zini Xagriddan olib qochib. – Bu jazo emas, Xagrid, ehtiyot chorasi. Agar boshqa birov qo‘lga olinadigan bo‘lsa, tegishlicha uzr so‘ralib seni qo‘yib yuborishadi...

– Mabodo Azkabanga olib ketmoqchi emasmisiz? – xirildoq ovozda so‘radi Xagrid.

Fuj javob berishga ulgurmay eshik taqilladi. Eshikni bu safar Dambldor ochdi. Ostonada paydo bo‘lgan odamni ko‘rib, ingrab yuborgan Garri biqiniga yedi.

Egniga uzun, qora rangli safar ridosini tashlagan mister Lyutsius Malfoy kulba ostonasidan dadil hatlab, ichkariga kirdi. Uning yuzida sovuq va allanimadan qanoatlangan kulgi o‘ynamoqda. Mister Malfoyni ko‘rgan So‘yloqtish angillab yubordi.

– Yetib kelibsanda, Fuj, – ma‘qullab bosh iring‘idi mister Malfoy. – Barakalla, barakalla.

– Senga nima kerak bu yerda? – qichqirdi g‘azabi qaynagan Xagrid. – Yo‘qol uyimdan!

– Qadrdonim, ishoning, bu yerda bo‘lish menga zig‘ir-day bo‘lsin, zavq bag‘ishlamaydi. Siz... m-m-m... uy deb atadingizmi bu joyni? – dedi tor kulbani ijirg‘anib ko‘zdan kechirgan Lyutsius Malfoy. – Shunchaki, maktabga tashrif

buyurgan edim. Direktorni shu yerda topishim mumkinligini aytishdi. Mana keldim.

– Xo'sh, mendan nima istaysiz, Lyutsius? – so'radi ko'zidagi olov hamon so'nmagani Damblidor, muloyim ohangda.

– Mudhish xabar, Damblidor, – erinchoqlik-la cho'zib gapirdi Malfoy, qo'ynidan uzun pergament o'ramini chiqarib, – «Xogvars» sehirgarlik va afsungarlik san'ati maktabini boshqarish ma'muriyatining barcha a'zolari siz chetga chiqadigan vaqt yetdi deb hisoblashmoqda. Mana, lavozimdan chetlatilganingiz haqidagi buyruq. Ma'muriyatning jamiki o'n ikki nafar a'zolari imzo chekkan. Xavf sezish qobiliyatingizni yo'qotib qo'ygan ko'rinasiz, deb o'ylayman, professor. Bugungi kunga kelib nechta tajovuz ro'y berdi? Yana ikkitami? Ishlar bunday sur'atda kechadigan bo'lsa, «Xogvars»da magillar oilasida tug'ilgan afsungarlardan bi-rortasi ham qolmaydi-yu! Bu esa o'rni qoplanmaydigan talafot ekanini hammamiz tushunib turibmiz, shunday emasmi?

– Quloq soling, Lyutsius, – tashvishga tushdi Fuj, – Damblidorni chetlatish... Yo'q, yo'q. Axir, bu ish bugungi kunda ko'riladigan eng so'nggi chora-ku...

– Direktorni tayinlash yoki lavozimdan chetlatish doimo ma'muriyat vakolatiga kirib kelgan, Fuj, – dedi mister Malfoy ravon ovozda. – Modomiki, Damblidor o'sha savdoyini to'xtata olmas ekan...

– Ayting-chi, Malfoy, – dedi tepa labi terlagan Fuj qat'iy ohangda, – Damblidor to'xtata olmagan savdoyini to'xtatish kimning qo'lidan kelar ekan?

– Bu haqda biz qayg'uramiz, – jirkanch tabassumi-la javob berdi mister Malfoy. – Hozircha ma'muriyatning jamiki o'n ikki nafar a'zosi yakdillik bilan...

Shu port Xagrid o'midan birinchi tashvish boshladi.

sniftdagi o'rgimchak uyini supurib yubordi.

– Ovoz berishi uchun ulardan necha nafariga tahdid solganingni, do'q-po'pisa qilib tovlaganingni ham aytib o'tmaysanmi, a, Malfoy?

– Qadrdonim Xagrid, bunday tiyilmaydigan mijozingiz bir kun kelib boshingizni yeydi, deb o'ylayman, – dedi mister Malfoy, pinagini buzmay. – Har qalay, Azkaban qo'riqchilari bilan o'xshash ohangda muloqot qilishni maslahat bermagan bo'lar edim. Bunday erkaligingiz ularga mutlaqo xush kelmasligi aniq.

– Dambldorga tegib bo'lmaydi! – qichqirdi Xagrid.

Uning ovozidan o'z savatidan chiqmay yotgan So'yloqtish battar g'ujanak bo'lib oldi.

– Dambldorni olib ketsangiz bu maktabda bironta maglcha omon qolishi dargumon! Qotillik davom etaveradi!

– Tinchlan, Xagrid, – buyurdi Dambldor qat'iy ohangda va Malfoyga yuzlanib. – Modomiki, ma'muriyat shunday talab qo'ygan ekan, Lyutsius, tabiiyki, men chetga chiqaman...

– Am-m-mo... – duduqlandi Fuj.

– Yo'q! – ingradi Xagrid.

Dambldor nigohini Lyutsius Malfoyning po'latday sovuq ko'zidan uzmay, fikrini, hech kim hech narsani o'tkazib yubormasligi uchun shoshilmay, dona-dona qilib bayon etdi:

– Biroq men, ushbu maktabni, o'zimga sadoqatli odamlardan birortasi ham qolmagandagina tark etaman. Bundan tashqari, kimki «Xogvars» dargohida yordamga muhtoj bo'lsa, albatta yordam topajak.

Dambldor atayin bolalar turgan burchakka yashinday tez qarab qo'ydi. Garri bunga shubha qilmadi.

– Naqadar ta'sirli so'zlar, – kesatdi Malfoy, bosh egib.

– Kelgusida sizning o'zingiz xos ish yuritish uslubingiz haqida

XIV BOB. Kornelius Fuj

yetishmasligi muqarrar, Albus. Izdoshingiz har qanday, nima edi, ha-ya, qotillikka barham bera olishiga umid qilishimizdan boshqa chora yo'q.

U kulba eshigini ochdi-da, ta'zim qilib Damblidorni tashqariga kuzatdi. Haligacha noqulay holatda, qo'lidagi qozon shlapachasini o'ynatayotgan Fuj, qilt etmay turgan Xagridning chiqishini kutdi. Davangir chuqur nafas oldi-da, imkon qadar puxta bayon etish uchun bo'shliqqa qarata:

– Agar kimdir nimanidir oydinlashtirib olmoqchi bo'lsa, o'rgimchaklar ketidan borishi kerak bo'ladi. Ular kerakli joyga boshlab borishadi! Bor gapim shu.

Gap ma'nosini tushunmagan Fuj Xagridga baqraydi.

Bo'ldi, chiqyapman. – dedi Xagrid, egniga krot po'stinini tashlab.

Ostonaga yetganda boz to'xtadi-da, yana bo'shliqqa qarab gapirdi:

– Men qaytib kelgunimcha kimdir So'yloqtishni boqishi kerak bo'ladi.

Eshik qarsillab yopilgach, Ron splash ostidan chiqdi.

– Zo'r ahvolga tushib qoldik-ku, – xirildoq ovozda kesatdi u. – Damblidor endi yo'q. Maktab ham tez orada yopiladi. Mana ko'rasan, tajovuzlar ertadan davom etaveradi.

So'yloqtish angillagancha, eshik tirmab qoldi.

XV BOB. ARAGOG

Osmon bilan ko'l bo'rigul tusiga kiradigan, issiqxonada esa har biri karam boshiday keladigan gullar ochiladigan yoz mavsumi asta sekin kirib keldi. Derazadan ko'rinayotgan manzara qanchalik go'zal bo'lmasin, hovlida, o'zining ajralmas ko'lankasi So'yloqtish bilan turli tuman xo'jalik ishlarini bajarib, dam u yoq, dam bu yoq yuradigan Xagridsiz qiziq tuyulmadi. Qasr ichida qaror topgan vaziyat bunday manzaradan qolishmas, Garrining ishlari ham hech yurishmas edi.

Garri bilan Ron Germionaning holidan xabar olish uchun kasalxonaga kelishdi, afsuski u yerga hech kim kiritilmay qo'yilibdi.

– Bundan buyon tavakkal qila olmaymiz, – dedi qiya ochilgan eshik ortida turgan Pomfri xonim qat'iy ohangda, – Jinoyatchi palatalarga kirib kelib, mana bu bechoralarni nobud qilishidan qo'rqamiz, shu bois ham ma'zur tuting, endi sizlarni ham ichkariga kirita olmaymiz.

Dambldor ketishi bilan qaror topgan yurak muzlatuvchi muhit qasrda yashayotgan odamlar faoliyatini falajlab qo'ydi. Quyosh nuri maktab devorigacha yetib keladi-yu, allaqanday sababga ko'ra ichkariga singib kirmaydi go'yo. Maktab hududida xavotir yoki qo'rquvni his etmay yurgan biron-bir chehra ko'rinmaydi. Mabodo kulgi ovozi eshitilib qolganda ham u qandaydir g'ayritabiiy, kishi qalbini larzaga soladigan ohangda yangrab, uzoq cho'zilmaydi.

Dambldorning so'nggi: *«Men, ushbu maktabni, o'zinga sadoqatli odamlardan birortasi ham qolmagandagina tark etuman. Bundan tashqari, kimki «Xogvars» dargohida yordamga muhtoj bo'lsa, albatta yordam topajak»* degan gapi Garrining qulog'idan hech nari ketmaydi. Faqat bundan hozir nima nat? Modomiki, hamma o'larcha qo'rqib

yurar ekan, bu yerda kimdan najot kutish mumkin?

Xagridning o'rgimchaklar haqidagi luqmasi tushunarli, ammo gap shundaki, ketidan borishi kerak bo'lgan birorta ham o'rgimchak qasrda qolmagan ko'rinadi. Garri qayerda bo'lmasin, o'rgimchak qidirar, Ron esa istar-istamas bu masalada o'rtog'iga yordam berar edi. Qasr ichida ham maktab hududida ham mustaqil kezib yura olmaslik, boshqa griffindorchilarning ko'p sonli guruhi tarkibida yurishga majbur bo'lish bolalarga birorta bo'lsin o'rgimchak qidirib topishga to'sqinlik qilmoqda. O'quvchilar o'qituvchilar hamrohligidan xursand, biroq Garri bunday holatni o'ziga juda noqulay deb topdi.

«Xogvars»da umumiy qo'rquv va gumondorlik muhiti qaror topganidan ochiqdan ochiq lazzatlanayotgan odam ham yo'q emas. Bu, xuddi eng ibratli o'quvchi sifatida e'tirof etilganday viqor-la yurgan Drako Malfoy. Uning nima-dan mamnunligini Garri hech bila olmagan edi-yu, tasodifiy holat, ushbu masalaga oydinlik kiritdi. Damblдор bilan Xagridni olib ketishgan sanadan taxminan ikki hafta o'tib, kunlardan bir kun Garri Malfoyning sehrli damlamalar tayyorlash darsi davomida Krabbe bilan Goylga aytgan gapini, ularning ortida o'tirib beixtiyor eshitib qoldi.

– Maktabni Damblдorddan aynan mening dadam xalos etishini orzu qilib yurgan edim, – dedi ovozi oz bo'lsa ham pasaytirib gapirishni xayoliga keltirmagan Malfoy huzur qilib. – Esingizdami, Damblдорning «Xogvars»ga rahbarlik qilishining o'zi – maktab tarixidagi eng yomon hodi-sa sanaladi degan edim. Ehtimol, ana endi tuzukroq. Maxfiy xonaning yopilishini istamagan direktor tayinlansa, ajab emas. Aytganday, Makgonagall ham uzoqqa bormaydi. U shunchaki, direktor vazifasini vaqtincha bajarib turibdi. xo'los...

Snegg Garrining yonidan o'tar ekan Germionaning

yo'qligi borasida biror so'z demadi.

– Ser, maktabga o'zingiz direktor bo'lib qolmay sizmi?
– baland ovozda so'radi Drako.

– Qo'ysangiz-chi, Malfoy, – dedi ingichka labi mamnun kulgidan yoyilgan Snegg pand-nasihat ohangida. – Professor Dambldor maktab ma'muriyatining qarori bilan vaqtincha chetlashtirilgan, xolos. Ko'p vaqt o'tmay u o'z vazifasini davom etishga kirishadi, deb o'ylayman.

– Albatta, albatta, – dedi Malfoy istehzoli kulib. – Agar ushbu lavozimga o'z nomzodingizni ilgari sursangiz, dadam sizni qo'llab-quvvatlashiga shubha qilmayman. Men unga bu haqda o'z fikrimni bildirib, sizni maktabdagi eng ibratli o'qituvchi ekaningizni ta'kidlab o'taman, ser...

O'quvchining gapidan mamnun bo'lgan o'qituvchi sinf xonasi bo'ylab izg'ishni davom etgancha, Simus Finniganning go'yo ko'ngli behuzur bo'lib, qozon ichiga qayt qilib yuborgandek qilg'ini payqamadi.

– Nima uchun maglvachchalar haligacha tugun-tersagini yig'ishtirib maktabdan ketishmaganiga hayronman, – tiyilmadi Malfoy. – Ishonchim komilki, navbatdagi tajovuz qurboni, albatta, o'ladi. Shubha qilsangiz, besh galleondan bas bog'layman. Attang, o'sha qurbon Grenjer bo'lmaydida endi...

Aynan shu fursatda qo'ng'iroq zarbi yangrab, Malfoyning so'nggi gapini eshitishi bilan o'rnidan irg'ib turgancha, uning basharasiga musht solishga uringan, ammo Garri bilan Dinning iskanjasida qolgan Ronning harakati xayriyatki umumiy to'polonda payqalmay qoldi.

– Qo'yib yuboring, – o'shqirdi Ron. – Tupurdim baringa. Menga hatto sehrli tayoqcha ham kerak emas, uni mana shu qo'lim bilan bo'g'ib o'ldiraman...

Chaqqonroq harakat qilimg, – o'shqirdi Snegg o'quvchilarga. – Sizlarni gerbologiya darsi o'tkaziladigan issiq-

xonagacha kuzatib qo'yishim kerak.

Sinf saf tortib ekin maydoni orqali issiqxonalar tomon yo'l oldi. Garri bilan Din saf oxirida borib, qasrdan tashqariga chiqquncha Ronni mahkam ushlab olishdi.

Jastin bilan Germiona yo'qligi bois gerbologiya darsi dili xuftonlik ruhida o'tdi.

Professor Sarsabil xonim o'quvchilarga Efiopiya anjirini butash vazifasini berdi. Kesilgan shox bog'ini tashlash uchun kompost uyumi tomon yo'l olgan Garri xufflpuffchi Erni Makmillan bilan yuzma-yuz kelib qoldi. Erni chuqur nafas olib, rasmiy ohangda gap boshladi.

– Shuni bilib qo'yishing kerakki, Garri, sendan gumon-sirab, xato qilganimdan juda afsusdaman. Do'sting Germiona Grenjerga hech qachon ozor yetkazmasligingni ham yaxshi bilaman. Shunday ekan, sen haqingda aytgan bema'ni gapim uchun uzr so'rayman. Endi biz bir qayiqdamiz, muxtasar qilib aytganda...

Makmillan o'zining do'mboq qo'lini uzatdi. Garri Erning uzrini qabul qilib, qo'l siqishdi.

Erni va uning do'sti Xanna Garri bilan Ronga yaqin kelib, anjirni butashga yordamlashib yuborishdi.

– Anavi Drako degan nusxa, – gap boshladi Erni, quruq shoxlarni sindirar ekan, – bo'lib o'tayotgan hodisalardan huzur qilayotgan ko'rinadi. Bilasizmi, xayolimga qanday fikr keldi? Slizerinning vorisi, menimcha, o'sha bo'lsa kerak!

– Juda aqllisan-da, – dedi Ron kesatib.

Ron, Garridan farqli o'laroq, Ernini osonlikcha kechirishga tayyor emas, chamasi.

– Sen ham Malfoy to'g'risida shunday fikrdamisan, Garri? – so'radi Erni.

– Yo'q, – javob berdi Garri.

Uning javobida shunday qat'iy ishonch ohangi bor edi-

ki, Erni ham Xanna ham hayrat-la Garriga tikilib qoldi.

Shu paytda Garri bir narsani sezib qoldi.

Issiqxona oynasining narigi tomonidagi besh-oltita yirik o'rgimchak g'ayritabiiy ravishda bir chiziqqa saf tortgancha, yerga tushib ketishmoqda. Aftidan ular qisqa yo'l orqali faqat o'zlariga ma'lum manzilga imkon qadar tezroq yetib olishga hozirlangan ko'rinadi. Garri qo'lidagi gulqaychi bilan Ronning qo'liga tushirdi.

– Voy qo'lin! Nima deysan?...

Garri imo qilib, o'rgimchaklarni ko'rsatdi-da, ko'zini qisib olgancha o'rgimchaklar harakatini kuzatdi.

– Ha, – dedi Ron, soxta quvonch-la. – Lekin ularning ketidan hozir bora olmaymiz-u...

Qiziqsinib qolgan Erni bilan Xanna ikkala o'rtoqning suhbatiga quloq tutishdi.

O'rgimchaklar uzoqlashgan sari Garrining ko'zi ham qisilib boraverdi. Modomiki, ushbu hasharotlar o'zlari biladigan manzil tomon yo'l olishgan ekan, shubha yo'qki, ertami-kechmi yetib borishadi.

Aftidan, o'rgimchaklar ««Taqiqlangan o'rmon» tomon yo'l olishgan. Bu holat tabiiyki, Ronni battar tashvishga soldi.

Dars nihoyasiga yetgach, professor Sarsabil xonim o'quvchilarni yovuz kuchdan himoya darsi o'tkaziladigan sinf xonasigacha kuzatib qo'ydi. Garri bilan Ron xotirjam gaplashib olish uchun hammadan orqada borishdi.

– Ko'rinmas plashdan yana bir bor foydalanishga to'g'ri keladi, shekilli, – dedi Garri. – So'yloqtishni ham o'zimiz bilan olamiz. Har qalay u «Taqiqlangan o'rmon» da Xagrid bilan birga ko'p sayr qilgan. Nafi tegib qolishi mumkin...

– Ha, shunday qilganimiz ma'qul, – rozi bo'ldi Ron, qo'lidagi sehrli tayoqchasini aylantirib. – U yerda... ya'ni «Taqiqlangan o'rmon» da afsun bilan boshqa tusga kirgan

XV BOB. Aragog

maxluqlar bor, shekilli, a? – gap orasida so'ragan bo'ldi u, odatdagiday, Charuald darsida eng oxirgi partalardan biriga joylashib.

O'rtog'ining so'nggi savoliga javob bermaslikni afzal bilgan Garri gapni aylantirdi.

– O'rmonda yaxshi maxluqlar ham bor. Misol uchun, kentavrlar¹ yoki yakkashohlar.

Ron hali «Taqiqlangan o'rmon»ga kirmagan. Garri esa u yerga atigi bir marta kirgan bo'lib, qaytib kirmaslikka umid qilib yurgan edi.

Charuald betashvish qush kabi sinf xonasiga pir etib kirib keldi. Barcha o'qituvchilar kulgi nima ekanini allaqachon unutib bo'lishgan, mana bunisi esa hanuzgacha kuygan kalladek irshayib yurishini qo'ymaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'quvchilar unga hayron bo'lib qarab qolishdi.

– Hoy, xalq! – qichqirdi Charuald baxtiyor ohangda. – Nega yuzingizdan umidsizlik yog'ilmoqda?

Xalq bir-biriga asabiy qarab qo'ydi-da, churq etmadi.

– Bolalar, nahotki tushunmayotgan bo'lsangiz, – asta gap boshladi Charuald, aqlan zaiflarga dars o'tayotgan kabi bo'g'inma-bo'g'in gapirib. – Xavf-xatar bizni tark etdi! Aybdor shaxs qo'lga olindi...

– Kim aytdi? – so'radi Din Tomas baland ovozda.

– Yigitcha, sehrgarlik vaziri yuz foiz ishonch hosil qilmaganida uni hibsga olmagan bo'lar edi, – dedi Charuald, birga birni qo'shsa ikki bo'lishini tushuntirishga majbur bo'lgan kishi ohangida.

– Ha, albatta, – qichqirdi Ron Dindan ham baland ovozda.

¹ Kentavr – yunon afsonalarida yozilishicha, belidan pasti va oyoqlari ot tanasiga, belidan yuqori qismi odam shaklidagi afsonaviy hayvon. Bu hayvon, odatda, insonlarga yomonlik qilmaydi, aksincha insonlarni noma'lum xavf-u xatardan ogohlantiradi. Kentavrlar afsonalarda yunonlarning sharab ma'budasi Dionisga yo'l boshchilik qilishgan.

– Umid qilamanki, Xagridning hibsga olinishi haqida sizdan ko'ra sal ko'proq xabardorman, mister Uesli, – dedi Charuald mag'rurona.

Ron o'z shubhasini bildirmoqchi bo'lib, endigina gap boshlagan ediki, oyog'iga Garrining yaxshigina tepkisini yegach, jumlasini oxirigacha yetkazmay uzib qo'ydi.

Biz kulbada bo'lmaganniz, esingdan chiqdimi? – pichirladi Garri og'zining bir cheti bilan.

Biroq Charualdning jirkanch quvonchini, Xagridning tabiatida hech qachon biron-bir yaxshilik alomatini ko'rmani, doimo undan gumonsirab yurgani haqidagi shamali gapini, davangir hibsga olingach, maktabda yuz bergan barcha baxtsizliklarga chek qo'yilganiga komil ishonch bildirishini eshitayotgan Garri stol ustida yotgan «Qonxo'rlar bilan o'tgan kechki ovqat» kitobini Charualdning peshanasiga qarata uloqtirishdan o'zini bazo'r tiyib o'tirdi. Buning o'rniga u, Ronga: *«Shu bugun tunda borishni taklif qilaman»* so'zlarini yozib, qanoatlandi.

Garrining taklifini o'qigan Ron yutunib qo'ydi-da, yonidagi, odatda, Germiona o'tiradigan bo'sh kursiga qaradi. Bu manzara uning ruhini tetiklashtirdi, chamasi, rozilik bildirib, bosh iring'idi.

«Griffindor» fakultetining umumiy mehmonxonasi so'nggi vaqtda gavjum bo'lib qoldi. Negaki soat o'n sak-kizdan so'ng o'quvchilarga biror joyga chiqish mumkin emas. Bundan tashqari, muhokama qilinadigan bitmas-tuganmas mavzu bor. Shu bois hatto tun yarmida ham umumiy mehmonxonadan odam arimaydi.

Garri kechki ovqatdan qaytishi bilan sandig'idagi ko'rinnas plashini olib, mehmonxonaning bo'shashini kutgan-cha, butun oqshomni deyarli qilt etmay plash ustida o'tirib o'tkazdi. Egizaklar Garri bilan Ronni poqildoq o'ynashga majbur qildi, oxirgi vaqtda negadir jim yurgan Jinna esa

odatda, Germiona o'tiradigan kresloga joylashib, ularning sho'x qiliqlarini kuzatib o'tirdi. O'yin tezroq tugashi uchun Garri bilan Ron atayin boy berib borishdi. Shunday bo'lsa-da, egizaklar bilan Jinna o'z xonalariga kirib ketishganda tun yarmidan ancha o'tib qoldi.

Ikkita eshik yopilishi bilan ikkovlon o'rtoq plashni eg-nilariga tashlab oldi-da, «Semiz Xola» portreti to'sgan tuy-nuk orqali tashqariga chiqdi.

O'qituvchilar yonidan sezdirmay o'tish uchun qasr yo'laklaridagi tungi sayohat o'tgan safardek qiyin kechdi. Nihoyat ular vestibulga yetib, eman eshikning lo'kidonini¹ asta surishdi-da, uni g'ichirlatmay ochishga harakat qilib, oy nuri bilan yorishib turgan hovliga chiqib olishdi.

Qop-qora maysazor bo'ylab borishar ekan, Ron uzuq-yuluq gap boshladi.

– Biz o'rmonga yetib, u yerda o'rgimchaklar yo'qligi, ya'ni o'rmonga kirish shart emasligiga ishonch hosil qili-shimiz mumkin, albatta. Ehtimol, o'rgimchaklar o'rmon ichkarisiga kirmagandir demoqchiman. Ular qayoqqadir shu tomonga yurishganini men ham ko'rdim-u, balki...

Uning umid to'la gapi bo'linib qoldi.

Ikkovlon Xagridning qandaydir g'amgin, qorong'i, su-kunat hukm surayotgan kulbasiga yetib keldi. Garri kul-baning eshigini ochgach, bolalarni ko'rib, quvonib ketgan So'yloqtish aqldan ozganday sakray ketdi. Bochka ichidan chiqayotgan kabi guvillagan ovozi bilan qasrdagi odamlarni uyg'otib yuborishidan cho'chigan bolalar itni kamin tok-chasida turgan tunuka banka ichidagi iris qand bilan siy-lashdi. Tabiiyki, yelimshak qand itning jag'ini mahkamlab qo'ydi.

¹ Lo'kidon (*forscha*) - yog'och qulf. Eshikni berkitish, qulflash uchun ishlatiladigan juda sodda moslama.

Garri zim-ziyo «Taqiqlangan o'rmon» ichida kerak bo'lmaydigan ko'rinmas plashini kulbadagi stol ustiga tashlab chiqdi.

– Yur, So'yloqtish, yur, sayr qilib kelamiz, – dedi Garri o'z soniga urib-urib qo'yib.

Yanada quvonib ketgan So'yloqtish bolalarga ergashgancha, kulbadan sakrab chiqib, shiddat-la o'rmon chetiga cha yugurib bordi-da, katta chinor oldiga yetgach, orqa oyog'ini ko'tardi.

Garri sehrli tayoqchasini chiqarib g'udrandi:

– Lyumos!

Sehrli tayoqcha uchidan o'rmon so'qmog'ida o'rgimchak topish uchun yetarli bo'lgan yorug'lik nuri chiqdi.

– Zo'r narsa o'ylab topibsan, – ma'qulladi Romo – Men ham tayoqchamni yoqqan bo'lar edim-u, o'zing bilasan, portlab ketish yoki yanada battar ish ko'rsatishdan boshqa narsaga yaramaydi u.

Garri Ronning yelkasiga qo'lini qo'yib, oyoq ostidagi maysaga imo qildi. Yerdan ikkita yolg'iz o'rgimchak o'zlarini yorug'lik nuridan daraxt ortidagi qorong'ilikka olish uchun chekinishmoqda.

– Xo'p, mayli, – dedi Ron, go'yo fojiaga hozirlik ko'rganday chuqur xo'rsinibto – Men tayyorman. Ketdik.

Ular yo'lga tushishdi. So'yloqtish o'rmon ichida xazon-u daraxt ildizlarini hidlagancha, tevarak-atrofdan gir aylanib yurdi. bolalar esa Garrining sehrli tayoqchasi yoritgan, bir chetida o'rgimchaklarning keti ko'rinmas oqimi harakatlanayotgan so'qmoq bo'ylab yo'l olishdi. Ikkovlon o'rgimchaklarga ergashib, yigirma daqiqacha bir so'z demay, tevarak-atrofga diqqat bilan quloq tutgancha sukut saqlab bordi. Novdalarning qasr-qusuri-yu, barglarning shi-tirlashidan boshqa narsa eshitilmaydi. O'rmon bemalol yurib bo'lmas, osmondagi yulduzlar ko'rinmas, zulmat um-

monida faqat yorishayotgan tayoqchadan chiqayotgan nurgina ko'rinadigan darajada qalinlashib ketgach, yo'l boshlovchi o'rgimchak so'qmoqdan chetga chiqdi.

Garri o'rgimchaklar qay tomon yo'l olishganini fahmlash maqsadida to'xtadi. Sehrli tayoqcha nuri yetib bormayotgan joyni ko'z ilg'amayapti. Garri ushbu o'rmonga birinchi safar kirganida bu qadar ichkariga kirib bormagan. O'shanda uning davangir do'sti so'qmoqdan chetga chiqmaslikni qat'iy talab etgan. Endi esa Xagrid bu yerlardan yuzlab milya narida, ehtimol, Azkaban zindonlaridan birida azob chekib yotgan bo'lsa kerak... axir, u o'rgimchaklar ketidan borish kerakligini aniq tayinlab ketdi-ku...

Garri allaqanday nam narsaga qo'li tegib ketganidan seskanib ketib, ortga tisarilgancha Ronning oyog'ini bosib oldi. Nam narsa So'yloqtishning sovuq tumshug'i ekan.

– Qanday ish tutsak ekan, nima deb o'ylaysan? – so'radi u, qorong'ida tayoqcha nuri aks etayotgan ko'zi bazo'r ko'rinayotgan Rondan.

– Har qalay qasrga qaytmaymiz-u, – javob berdi Ron.

Bolalar zulmatning qorong'ilik ichra lip-lip otilgan qopqora chaqmoqlari tomon, o'rgimchaklar ketidan ergashgancha o'rmon qo'liga kirishdi. Tez yurishning iloji yo'q. Tevarak-atrofdan deyarli ko'zga ko'rinmaydigan ildizlar-u, to'nkalar to'lib-toshib yotibdi. Garri qo'li bilan So'yloqtishning issiq nafasini his etib ketyapti. O'rgimchaklarni ko'rish uchun yo'l davomida egilib, bir necha bor to'xtashga to'g'ri keldi.

Shu tarzda ikkovlon kam deganda yarim soat, kiyimlari bilan daraxt butog'i-yu, parmachak butasiga ilashib yurib, garchi daraxt zich o'sgan bo'lsa-da, allaqanday soylikka tushib borishayotganini fahmladi.

Daf'atan bolalarning yonginasida borayotgan So'yloqtish quloqni kar qilguday darajada qattiq akilladi. Uning ku-

tulmaganda yangragan ovozini eshitgan bolalar qo'rqib ketganidan o'z terilaridan chiqib ketishlariga sal qoldi.

– Nima bo'ldi? – so'radi Garrining tirsagini mahkam ushlab, qorong'ilikka tikilgan Ron.

– Anavi yerda nimadir yuribdi... – javob berdi Garri. bazo'r eshitilgan ovozda. – Quloq sol... Qandaydir yirik narsaga o'xshaydi...

Bolalar diqqat bilan quloq tutishdi. Muayyan masofa narida chindan ham qandaydir yirik narsa shox sindirib, o'ziga yo'l ochib borgancha, harakatlanmoqda.

– O, yo'q, – ingradi Ron. – O, yo'q, yo'q, o, yo'q, o...

– Jim bo'l, – vahimali shivirladi Garri. – Ovozingni eshitib qoladi.

– Ovozimmi? – so'radi Ron, g'ayritabiiy ingrab. – So'yloqtishning akillashini eshitib kelyapti desang, to'g'riroq bo'ladi!

Ikkovlon dahshatdan serrayib, jim qoldi. Zulmat ko'zni ezib yuborganday bo'lmoqda. Qandaydir guvillagan tovush yangradi-da, boz sukunat cho'kdi.

– Seningcha, nima qilyapti u? – so'radi Garri.

– Hamla qilishga hozirlik ko'rayotgan bo'lsa kerak, – javob berdi Ron.

Bolalar qilt etishga jur'at eta olmay, nima bo'lishini kutib turishdi.

– Ehtimol, ketgandir? – pichirladi Garri.

– Bilmadim...

Kutilmaganda o'ng tomonda kuchli yorug'lik nuri chabraqladi. Yorug'lik shu qadar kuchli ediki, ko'zi qamashgan bolalar qo'l ko'tarib, kafil bilan yuz to'sishdi. Ingrab yuborgan So'yloqtish nari qochdi-yu, tyorn¹ butalariga ilashib qolib, battar angilladi.

¹ Tyorn – mevasi mayda oltxo'riga o'xshagan buta o'simlik.

– Garri! – qichqirdi yengil tortgan Ron. – O‘zimizning mashinamiz-ku, bu!

– Nima?

– Bu yoqqa kel!

Garri qoqilib, Ronning ketidan yorug‘lik manbasi tomon tavakkal yugurdi. Fursat o‘tgach ular kichik sayhonlikka chiqishdi.

Yo‘g‘on daraxtlar orasida mister Ueslining qalin barglar panasiga yashirinib olgancha, faralari bilan ko‘zni qamashtirayotgan bo‘m-bo‘sh mashinasi ko‘rindi. Ron og‘zidan ochilib asta-sekin mashinaga yaqinlashdi. Mashina ham o‘z sohibini tanigan moviyrangli yirik it kabi Ron tomon harakatlandi.

– Qara-ya, shuncha vaqtdan buyon o‘rmonda yashab yurgan ekan! – hayrat-la xitob qildi Ron, avtomobilni aylanib o‘tib. – Yovvoyilashib ham ketibdi...

Mashinaning yonlari timdalanib, hamma joyi kir bo‘lib ketgan. Aftidan u chindan ham o‘rmondagi tanho hayot tarziga ko‘nikib qolganga o‘xshaydi. So‘yloqtish mashinaga shubha ila qarab, Garrining oyog‘iga qapishib oldi. Bola itining a‘zoyi-badani titrayotganini his etdi. Garri asta tinchlalib, ravon nafas ola boshlagach, sehrli tayoqchasini cho‘ntagiga soldi.

– Biz esa hamla qiladi deb qo‘rqib o‘tiribmiz! – dedi Ron, mashinaga suyangancha, uni mehr-la silab. – Qayoqqa yo‘qolib qoldi ekan deh o‘ylab yurgan edim.

Garri ko‘zini qisib olib, o‘rgimchak qidirgancha yerga qaradi. Faralar nuridan qochib ketishgan, chamasi, ularning birortasi ham ko‘rinmadi.

– O‘rgimchaklarni yo‘qotib qo‘ydik, – dedi u. – Yur, qidirib topaylik.

Ron javob ham qaytarmadi, o‘rmondan ham qo‘zg‘almadi. Uning nigohi Garrining ortiga, yerdan o‘n futcha yuqo-

riga qadalib qolgan. Vujudini vahima qamrab olgan Ronning yuzi ko'kimtir kulrang tus oldi.

Garri ortga burilib qarashga ham ulgurmadi. Daf'atan vizillagan tovush eshitilib, bolaning belini nimadir mahkam quchib oldi-da, baland ko'tardi. Garri yuzi yerga qaragancha, havoda muallaq osilib qoldi. U xalos bo'lishga urinib, vahima bosgancha pitirlar ekan yana bir vizillagan tovushni eshitib, Ronning oyog'i yerdan uzilganini ko'rdi. So'yloqtishning angillagan ovozi eshitildi. Sal o'tib uni ham nimadir daraxt ortiga tortib ketdi.

Yuzi yerga qaragancha osilgan Garri uni ushlab olgan maxluq oltita misli ko'rilmagan darajada uzun va serjun oyoqda odimlab ketayotgani, o'zi esa bir juft yaltirab ko'rinayotgan qora qisqich iskanjasiga olinganini fahmladi. Orqada yana bitta shunday maxluq kelayotgani eshitildi. Shubha yo'qki, u Ronni ko'tarib kelmoqda. Bundan tashqari, Garri, uchinchi maxluq qo'lidagi So'yloqtishning umidsiz angillab, iskanjadan xalos bo'lishga urinayotganini eshitdi. Bola ovozi go'yo mashina turgan sayhonlikda qolib ketganday miq eta olmadi.

Garri maxluqning qisqichida qancha vaqt bo'lganini tasavvur eta olmadi. Biroq zulmat kutilmaganda tarqab, osmondagi yulduzlar yoritgan, xazon qoplab, son-sanoqsiz o'rgimchaklar o'rmlab yurgan yerni ko'ra oldi. U bo'ynini egib, allaqanday katta jarlik yoqasiga olib kelishganini angladi. Bu yerda daraxt o'smagani bois yulduzlar batafsil yoritib turgan jirkanch manzarani ko'rdi.

Jarlikda tumonat o'rgimchak yuribdi. Faqat bu o'rgimchaklar, odatda, xazon orasida duch keladigan mittigina o'rgimchaklardan keskin farq qiladi. Negaki ularning har biri aravakash otday keladi. Hammasi birday yirik, sertuk va qop-qora bo'lib, har birining sakkiztadan ko'zi, sakkiztadan oyog'i yaqqol ko'rinib turibdi.

XV BOB. Aragog

Bunday hayvonlarning Garrini ko'tarib kelayotgan dahshatli vakili tik qiyalikdan pastga tushib, bolani jar o'rtasida jimillab ko'ringan gumbazsimon o'rgimchak ini yoniga olib bordi. Keltirilayotgan o'ljani ko'rgan o'rgimchak-maxluqlar esa quvonishganidan qisqichlarini shaqillatgancha, gumbaz atrofini o'rab olishdi.

O'rgimchak kutilmaganda Garrini qo'yib yubordi. Bo'yaqish bola tizza va kaftlari bilan yerga tushdi. Ron bilan So'yoqtish ham Garrining yoniga dumalashdi. Angillamay qo'ygan So'yoqtish yerga qapishib oldi. Ronning qiyofasi Garri his etayotgan dahshatni nihoyatda aniq aks etgan. Unsiz qichqirayotgan Ronning og'zi lang ochilgan bo'lib, ko'zi kosasidan chiqib ketishiga sal qolgan.

Garri uni olib kelgan o'rgimchak nimadir demoqchi bo'lganini fahmladi. Lekin maxluq har bir so'zini talaffuz etish bilan bir vaqtda qisqichini shiqillatayotgani bois gapini anglash juda qiyin.

– Aragog! Aragog!

Nihoyat jimillab turgan gumbazsimon in ostidan kattaligi filday keladigan o'rgimchak kishi tomiridagi qonni muzlatib qo'yadigan darajada imirsilab chiqdi. Uning tanasini qamrab olgan qop-qora tukning u yer, bu yeriga oq oralagan bo'lib, yuqori jag'dan iborat badburush boshidagi ko'zlarini sut rangidagi oq parda qoplagan. Bolalarning qarhisidagi kekxa o'rgimchak so'qir ekan.

– Nima gap? – so'radi u, tez shiqillab.

– Odamlar, – qisqa javob berdi Garrini ko'tarib kelgan o'rgimchak.

– Xagridmi? – so'radi Aragog so'qir ko'zlarini o'ynatib.

– Begonalar, – shiqilladi Ronni ko'tarib kelgan o'rgimchak.

– O'ldiring, – amr qildi behuda bezovta qilinganidan

achchiqlangan Aragog.

– Biz Xagridning do'stlarimiz, – qichqirdi Garri.

Bolaning yuragi ko'krak qafasini tark etib, bo'g'ziga kelib qolganday bo'ldi go'yo. Butun jar ichra o'rgimchak qisqichlarining shiqillagan tovushi eshitilmoqda.

Aragog biroz jim turdi.

– Xagrid bizning huzurimizga hech qachon hech kimni yo'llamagan, – dedi u nihoyat.

– Xagridning boshiga kulfat tushdi, – tushuntirdi nafasi tezlashgan Garri. – Shu bois o'zimiz keldik.

– Kulfat? – so'radi kekxa o'rgimchak.

Garri Aragogning ovozi tashvish ohangini payqadi.

– Xo'sh, sizlarni nima maqsadda jo'natdi? – so'radi Aragog.

Garri turmoqchi bo'ldi-yu, oyoqda tura olishiga ikkilangani bois fikridan qaytdi. U tizza va kaftlarida turgancha, imkon qadar vazmin ohangda gap boshladi.

– Ba'zi odamlar Xagridni maktab o'quvchilariga qarshi... e-e-e... nimanidir solganida aybiab, Azkabanga olib ketishdi.

Jahli chiqqan Aragog qisqichini shiqillatdi. Uning ushbu harakatini jarlik ichidagi jamiki o'rgimchaklar takrorladi. Hosil bo'lgan tovush tomoshabinlarning gulduros qarsaklarini eslatdi. Faqat tomoshabinlarning qarsaklari hech qachon Garrining ko'nglini aynitib, dahshatga solmagan.

– Axir, bu ish ko'p yillar oldin bo'lib o'tgan edi-yu, – dedi Aragog badjahol ohangda. – Juda ko'p yillar muqaddam bo'lib o'tgan. O'sha kunlarni yaxshi eslayman. Aynan shu sababli Xagridni maktabdan quvib solishgan. Ularning fikricha, Maxfiy xona deb ataladigan xonada yashaydigan maxluq men bo'lganman. Xagrid o'sha xonani ochib, undagi maxluqni, ya'ni meni ozodlikka chiqarib yuborgan deb o'ylashgan.

– Siz... siz Maxfiy xonadan chiqmadingizmi? – soʻradi Garri va oʻzining savolidan oʻzi terga botdi.

– Men! – gʻazab-la xitob qildi Aragog. – Men bu qasrda emas, juda olis yurtda dunyoga kelganman. Qandaydir say-yoh meni, hali tuxumdan yorib chiqmasdan oldin. Xagridga hadya etgan. Oʻsha davrlarda Xagrid hali yosh bola boʻlgan. Meni qasrdagi javonlardan birida asrab, qoʻlidan kel-gancha boqdi. Xagrid ishonchli doʻst va yaxshi kishi. Meni fosh etishib, allaqanday qizning oʻlimida ayblashganda Xagrid meni himoya qildi. Shundan soʻng oʻrmonda kun kechira boshladim. Xagrid esa mening holimdan xabar olib turdi. U hatto menga xotin ham topib berdi. Endi Mosag ikkalamizning katta oilamiz bor. Farzandlarimiz juda koʻp. Ular sizlarni qurshab turishibdi. Bularning bari Xagrid sha-rofati bilan...

Garri soʻnggi kuchini yigʻib soʻradi.

– Demak siz hech qachon va hech kimga tajovuz qil-magansiz?

– Hech qachon va hech kimga, – shiqilladi kekxa oʻr-gimchak. – Tajovuz mening tabiatimga xos xususiyat, al-batta. Biroq Xagridni hurmat qilganim bois odamlarga ozor yetkazmaganman. Halok boʻlgan qizning jasad hojatxona-dan topilgan. Men esa qasrdagi oʻzim oʻsgan oʻsha javon-dan tashqari, boshqa hech qayerda boʻlmaganman. Qavmi-miz sukunat va qorongʻilikni xush koʻradi...

– Unday boʻlsa... ehtimol, oʻsha qizni kim yoki nima oʻldirganini bilarsiz? – soʻradi Garri. – Tushuning, u qaytib keldi va odamlarga qarshi tajovuzkor harakatini boz bosh-ladi...

Garrining ushbu gapi qisqichlarning shiqillashi va uzun oyoqlarning shitirlashida choʻkib ketdi. Bahaybat qora koʻ-lankalar bir-biriga yaqin kelib, jipslasha boshladi.

Qasrda yashayotgan narsa, – javob berdi Aragog. –

Ninoyatda qadimiy maxluq bo'lib, biz o'rgimchaklar undan juda qo'rqamiz. O'sha maxluq qasr bo'ylab izg'ib yurgani-ni sezganimda Xagriddan meni qo'yib yuborishni iltimos qilgan edim.

– Nima u, qanday maxluq ekan o'zi? – so'radi tinib-tinchimagan Garri.

Shiqillashlar yanada baland yangrab, o'rgimchaklar safi battar jipslandi.

– Biz bu haqda hech qachon gapirmaymiz! – qichqirdi achchiqlangan Aragog. – Biz uning ismini ham tilga olmay-miz! Juda ko'p marta iltimos qilgan Xagridga ham ajal kel-tiruvchi o'sha maxluqning ismini aytmaganman.

Tevarak-atrofdan yaqinlashib kelayotgan o'rgimchak-larni ko'rgan Garri ortiq xiralik qilmadi. Aragog ham su-hbatdan toliqqan ko'rinadi. U asta-sekin gumbaz ichiga ti-sarildi, oila a'zolari esa aksincha, dyum ketidan dyum odimlab, bolalarga yaqinlashmoqda.

– Biz qaytaylik bo'lmasa, maylimi? – umidsiz qichqir-di Garri Aragogning ketidan.

U ortida xazon ezilayotganini butun vujudi bilan his etib turibdi.

– Qaytaylik? – sekin so'radi Aragog, – Bunga ishon-chim komil emas...

– Lekin... biroq...

– Mening o'g'il-qizlarim Xagridga mening amrimga binoan tegishmaydi. Ammo yangi go'sht iste'mol qilishni ularga man eta olmayman, ayniqsa u o'z oyog'i bilan kel-gan bo'lsa... Alvido, Xagridning do'sti.

Garri ortga keskin o'girildi. Undan ikki fut narida jag'-larini shaqillatib, son-sanoqsiz ko'zlarini yarqiratib turgan ulkan o'rgimchak devori hosil bo'lgan.

Tayoqchasini mahkam ushlagan Garri sehrli tayoqcha hozir hech qanday naf bermasligini yaxshi tushunib turibdi.

Shunday bo'lsa-da, tiz cho'kib o'lgandan ko'ra, jangda halok bo'lishni afzal ko'rdi. Shu fursatda baland va davomli signal tovushi yangrab, ko'zni qamashtirgan nur butun jarlikni yoritib yubordi.

Mister Ueslining qiyalikdan guldur-guldur tushayotgan mashinasi farasini yoqib olgancha, quloqni kar qilib yuborguday signal chalar, yo'lidagi yirik o'rgimchaklarni turtib, bolalar turgan joyga yaqinlashar edi. Yerga qulagan ba'zi o'rgimchaklar beliga yotib qolgancha, uzun oyoqlarini pitirlatmoqda. Mashina tormozini chiyillatib, bolalarning ro'parasida to'xtadi-da, eshiklarini lang ochdi.

– So'yoqtishni ol! – qichqirdi Garri mashinaning old o'rindig'i tomon sho'ng'ir ekan.

Ron nemis dogining belidan quchib shartta ko'tardi-da, orqa o'rindiqa uloqtirib, o'zi old tomonga kirdi. Bechora it angillab yubordi. Mashina o'z eshiklarini o'zi zich yopdi. Ron akseleratorni bosishga ulgurmasdi. Umuman aytganda, bunga ehtiyoj ham bo'lmadi. Negaki avtomobil o'z ishini mustaqil bajarmoqda. Motorini o'kirtirib, yo'ldagi o'rgimchaklarni turtib qulatgan mashina shiddat-la harakat boshladi. Ular qiyalik bo'ylab yuqoriga ko'tarilib, jarlikdan bir amallab chiqishdi-da, ko'p o'tmay o'rmon ichra zing'illab ketishdi. Daraxt shoxlari oynaga qattiq urilayotgan bo'lsa ham mashina o'z harakatini ishonch-la davom etdi. Aftidan u o'rmon so'qmoqlarini yaxshi o'rganib olgan ko'rinadi.

Garri ko'z qiri bilan Ronga qarab qo'ydi. O'rtog'ining og'zi hamon unsiz qichqiriqdan lang ochilgan bo'lsa-da, ko'zi kosasidan chiqib kelishga urinmay qo'yibdi.

– Ahvoling qalay, Ron?

Churq etishga madori qolmagan Ron nigohini oldinga tikib o'tiribdi.

Ular yosh daraxtlarni ezib, yeldek uchishmoqda. Orqa o'rindiqdagi So'yoqtish ovozi boricha uvillab yotibdi. Ma-

shina qadimiy eman yonidan siqilib o'tar ekan yon tomondagi ko'zgusi sinib ketdi. Guvillagan, siltab titratgan o'n daqiqa o'tgach, o'rmon sayozlashib, daraxtlar orasida yulduzli osmon ko'rindi.

O'rmon chetiga yetishganida mashina shu qadar keskin to'xtadiki, bolalar old oyna tomondan uchib chiqishlariga bir baxya qoldi. Tashqariga chiqishga oshiqayotgan So'yloqtish eshik oynasiga qapishib oldi. Garri eshikni ichkaridan ochishi bilan bechora it dumini oyoq orasiga qisib olgancha, qadrdon kulbasi tomon o'qday yeldi. Garri ham mashinadan chiqdi. Bir-ikki daqiqa o'tgach, Ron mashinadan chiqa oladigan darajada o'ziga keldi. Boshini hanuzgacha zo'riqib tutar ekan, nigohida biror-bir ma'no ko'rinmadi. Garri avtomobilga samimiy minnatdortlik bildirib, pachoq bo'lib ketgan kapotini silab qo'ydi. Shundan so'ng mashina orqaga yurib, o'rmon qa'riga kirib ketdi.

Garri ko'rinmas plashini olish uchun Xagridning kulbasiga kirib, o'z savatidagi adyol ostiga kirib ketgan So'yloqtishning dag'-dag' titrab yotganini, tashqariga chiqqanda esa Ronning oshqovoq egatiga qayt qilayotganini ko'rdi.

– «O'rgimchaklar ketidan boring» emish-a, – dedi og'zini yengiga artayotgan Ron, bazo'r chiqqan ovozda. – Bu ishi uchun Xagridni hech qachon kechirmayman. Tirik qolanimizning o'zi katta baxt.

– Ishonchim komilki, Xagrid «O'zimni yemagan Aragog do'stlarimni ham yemaydi» deb o'ylagan, – yupatgan bo'ldi Garri.

– Hamma balo aynan mana shunda, ya'ni Xagridning fikr-xayoli, kechirayotgan hayot tarzida! – dedi Ron, a'zo-yi-badani titragancha, kulba devorini mushtlab. – U doimo maxluqlar aslida beozor, ular haqida shakllangan salbiy fikr-mulohazalarni noto'g'ri deb biladi. Xo'sh, oqibati nima bo'ldi? Azkahanga zindonband bo'ldi! Nima uchun u bizni

o'sha yerga yo'lladi? Xo'sh, nimani bilib oldik, qani aytchi menga?

– Xagrid hech qachon Maxfiy xonani ochmaganini, u aybsiz ekanini bilib oldik, – dedi Garri, o'rtog'ini plashga o'rab, harakat boshlashi uchun turtar ekan.

Aragogni qasr javonida yashirib boqish u qadar aybsiz ish emasligiga ishongisi kelmagan Ron istehzoli kulib qo'ydi.

Qasrga yaqin kelishgach, Garri, oyoq ko'rinib qolmasligi uchun plashni yaxshilab to'g'riladi-da, kirish eshigini asta ochdi. Ikkovlon ehtiyotlik bilan vestibulga kirib, marmar zina bo'ylab yuqoriga ko'tarildi. So'ng sergak turgan soqchilar yonidan nafas olmay o'tib, nihoyat umumiy mehmonxonaga kirib olishdi. Kamin olovi yonib bitgan bo'lsa ham cho'g'i hali sovimagan. Bolalar plashni yechib, aylanma zina bo'ylab o'z yotoqxonalariga kirib ketishdi.

Ron ustki kiyimini yechmasdan o'zini karavotga tashladi. Uyqusi kelmagan Garri esa Aragog aytgan gapning mag'zini chaqib o'tirdi.

Qasr bo'ylab izg'ib yurgan maxluq nimasi bilandir Voldemortga o'xshaydigan ko'rinadi. Negaki boshqa maxluqlar uning ismini hatto tilga olishdan hayiqadi. Afsuski, Ron ikkalasi o'sha maxluq qanaqangi hayvon ekani-yu, qurbonlarini qay tarzda dong qotirishini oydinlashtirishga muvaffaq bo'lishmadi. Hatto Xagrid ham Maxfiy xonada qanday maxluq yashiringanini aniqlay olmagan ayon bo'ldi.

Garri oyog'ini ko'rpaga tashlab, yostiqaqa bosh qo'ydi-da, minora derazasi orqali yorishib ko'ringan oyni tomosha qilib yotdi.

Yana nima qilish kerak, qanday ish tutmoq lozimligini hech tushunmay boshi qotdi. Do'stlar boshi berk ko'chaga

ni tutib beribdi. Slizerinning vorisi qochib qutulgan ekan. Bu safar Maxfiy xonani kim ochdi ekan? O'tgan safar ochgan kishimi yoki boshqa odammi? Buni hech kim aniq ayta olmaydi. So'rab bilsa bo'ladigan odam ham yo'q. Garri yotgan joyida Aragog aytgan gapning mag'zini chaqishga urinmoqda.

U endigina uyquga ketar ekan xayoliga umid baxsh etadigan bir fikr keldi. Bola shartta o'rmdan turib, karavotiga o'tirib oldi.

– Ron, – pichirladi u, qorong'ilikka qarab. – Ron...

Ron xuddi So'yloqtish kabi angillab uyg'ondi-da, atrofga alanglab, Garrini ko'rgach, tinchlandi.

– Ron! Anavi halok bo'lgan qiz. Aragog o'sha qizning jasadi hojatxonadan topilgan deb o'tdi.

Qizishib ketgan Garri boshqa burchakda yotgan Nevillning qattiq pishillaganiga ham e'tibor qilmadi.

– Agar o'sha qiz hojatxonadan haligacha chiqmagan bo'lsa-chi? U hanuzgacha o'sha yerda bo'lsa-chi?

Ron basharasini oy nuridan bujmaytirib, ko'zini ishqaladi.

– Sen... har qalay... o'sha qiz G'amgin Mirtl bo'lgan demoqchi emassan-u, shundaymi?

XVI BOB. MAXFIY XONA

– Biz o'sha hojatxonaga necha marta kirgan edik-a, – qattiq qayg'urdi Ron, ertasiga ertalab, nonushta vaqtida. – Mirl esa har safar bizdan atigi uchta bo'lma narida o'tirar va har qanday fursatda hamma narsani undan so'rab bilishimiz mumkin edi. Endi-chi...

Bolalarga omad shundoq ham haddan ortiq ko'p kulib boqdi. O'rgimchaklar ketidan yurib o'tkazilgan o'rmon safari yoki qizlar hojatxonasida damlama tayyorlash ishlari bo'lsin, taajjubki, ular biron marta birorta ham o'qituvchining qo'liga tushishmadi. Biroq hozir ayniqsa maktabda yuzaga kelgan mudhish vaziyat inobatga olinadigan bo'lsa, birinchi jinoyat sodir etilgan joy yaqinidagi o'sha hojatxonaga yana bir bor kirib chiqishni xayolga ham keltirib bo'lmaydi.

Ammo, bir narsani boshqa narsaga aylantirish darsida shunday gap bo'ldiki, bolalar, Maxfiy xona bilan bog'liq muammolar yechimini ilk bor chetga yig'ishtirib qo'yishdi. Dars boshlangan fursatdan o'n daqiqa o'tar-o'tmas professor Makgonagall birinchi iyundan e'tiboran, ya'ni roppa-rosa bir haftadan so'ng imtihon mavsumi boshlanishini e'lon qildi.

– Imtihon mavsumi? – ingrab yubordi Simus Finnigan.
– Bekor qilingan edi, shekilli?

Garrining ortida nimadir qarsillab ketdi. Professor Makgonagallning e'lonini eshitgan Nevill Longbottom sehrli tayoqchasini tushirib yuboribdi. Polga tushayotgan tayoqcha stolga tegib, uning oyog'ini gum qilibdi. Natijada, mebel qarsillagancha polga tushibdi. Professor Makgonagall qo'lidagi tayoqchasi bilan nazokatli harakat bajarib stolni tuzatib qo'ydi-da, qoshini chimirib Simusga yuzlandi.

– Vaziyatning murakkabligiga qaramay siz o'qishni

davom etib, tegishli ma'lumot olishingiz uchun ham maktab yopilmadi, – dedi u qat'iy ohangda. – Binobarin, imtihon belgilangan tartibda o'tishi shart. Umid qilamanki, ushbu sinovlarga puxta tayyorgarlik ko'rishga kirishasiz.

Puxta tayyorgarlik ko'rish! Shunday vaziyatda imtihon qabul qilinishi mumkinligini Garri xayoliga ham keltirmagan! Sinfda isyonkor ruhdagi pichir-pichir boshlandi. Professor Makgonagall esa battar qovoq soldi.

– Professor Dambldor maktabdagi barcha jarayonlar imkon qadar o'z maromida, odatdagiday kechishini iltimos qilib ketdi, – davom etdi u. – Bu esa o'z navbatida... Ummun aytganda, nima uchun bunday oddiy narsalarni sizga tushuntirib o'tishim kerakligini hech aqlimga sig'dira olmayapman. Axir, o'quv yili davomida egallagan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalaringizni tekshirib ko'rishimiz kerak-ku.

Garri shippakka aylantirib qo'yishi kerak bo'lgan bir juft quyonchaga ma'yus qaradi. O'quv yili davomida u qanday bilimlarga ega bo'ldi? Imtihonda ko'rsatadigan, naf berishi mumkin bo'lgan biror-bir bilim yoxud karomat uning miyasiga kelmadi.

Ronning qiyofasi esa «Taqiqlangan o'rmon»ga bir umrga surgun qilinganidan hozirgina xabar topgan kishining qiyofasiga o'xshab qoldi. U sehrli tayoqchasini Garri-ning burni ostiga yaqin keltirdi.

– Qani ayt-chi, Garri qanday qilib mana bu matoh bilan imtihon topshiraman? Tasavvur qila olasanmi? – so'radi u, jahli chiqib.

O'chakishganday, uning sehrli tayoqchasi shu fursatda qattiq hushtak chalib yuhordi.

Birinchii imtihonga uch kun qolganda professor Makgonagall nonushtadan oldin o'quvchilar e'tiboriga yana bir e'lon yetkazdi.

XVI BOB. Maxfiy xona

– Sizlar uchun xushxabar bor, – dedi u.

Katta Zalda sukunat cho'kish o'miga qichqiriqlar eshitildi:

– Dambldor qaytyapti! – quvonch-la baqirishdi ayrimlar.

– Slizerinning vorisi qo'lga olindi! – chiyilladi «Ravenklo» stoli ortida o'tirgan jajji qizaloq.

– Kvidish o'yinlariga ruxsat berildi! – asabiy qichqirdi Drev.

Qiy-chuv tingach, professor Makgonagall gapini davom etdi:

– Professor Sarsabil xonimning menga yetkazgan xabaridan ma'lum bo'lishicha, mandragoralar nihoyat yetilib, ularni butash vaqti yetibdi. Shu bugun kechqurun dong qotganlarni jonlantiramiz. Ulardan biortasi tajovuz qilgan kishining ismini ma'lum qilishi yoki u qanday maxluq ekanini aytib berishi mumkinligini sizga eslatib o'tishni ortiqcha deb bilaman. Umid qilamanki, ushbu mudhish o'quv yili jinoyatchining qo'lga olinishi bilan yakun topadi.

Katta Zal devori quvonchli qichqiriqlardan titradi. Slizerinchilar stoli tomon qaragan Garri, Drako Malfoyning el qatori quvonmay o'tirganini ko'rib hayron bo'lmadi. Lekin o'rtog'i Ron o'zini baxtiyor his etib, cheksiz quvondi.

Demak endi, Mirtlni so'roq qilish-qilmasligimizning ahamiyati yo'q ekan-da! – dedi u Garriga, – Germiona uyg'onsa, barcha savollarga o'zi javob beradi! Biroq anchadan buyon kitob o'qimagan Germiona uch kundan keyin imtihon boshlanishini bilsa, yana hushidan ketishi muqarar! Aqldan ozib qolsa kerak! Yaxshisi, insonparvarlik nuqtai nazaridan, imtihon mavsumi yakuniga yetguncha uni dong qotgan holatda qoldirgan ma'qul.

Shu payt Jinna Uesli yaqin kelib, akasining yoniga o'tirdi. Uning qiyofasi qandaydir asabiy, zo'riqqan ko'rin-

XVI BOB. Maxfiy xona

di. O'zini bosiq tutishga uringancha, kaftini tizzasiga qo'yib o'tirgani bilan nimadandir g'am chekayotgani Garri ning nazaridan chetda qolmadi.

– Nima qildi? – so'radi Ron, o'zining likopiga sulib bo'tqa solayotib.

Jinna javob qaytarmay nigohini stoldagi bir buyumdan boshqasiga olib o'tirdi. Uning xatti-harakati va cho'chigan qiyofasi kimnidir eslatmoqda-yu, kimligini Garri tasavvur qila olmadi.

– Gapir, gapiraver, – dalda berdi Ron, singlisining ikkilanayotganini sezib.

Ana shu fursatda Jinna, maxfiy ma'lumotni oshkor etishga jur'ati yetmay kursi chetida tanasini orqa-oldinga tashlagancha tebranib o'tiradigan Dobbiga o'xshadi.

– Men sizlarga bir gapni aytib qo'yishim kerak, – mujmal gap boshladi Jinna, ko'zini Garridan olib qochib.

– Nima gap ekan? – so'radi Garri.

Jinna kerakli so'z topa olmayotgan kishiday taraddud ichida qoldi.

– Xo'sh? – deyarli o'shqirib berdi Ron.

Jinna og'iz juftlashga juftladi-yu, un chiqara olmadi. Garri unga engashib, Ron bilan Jinnagina eshita oladigan past ovozda so'radi:

Bu gap Maxfiy xona hilan bog'liq emasmi? Biron narsani ko'rib qoldingmi? Kimdir biron g'alati kor-hol qildimi?

Jinna chuqurroq nafas oldi-yu, ammo ayni shu paytda bolalar oldiga toliqqan, bemajol Persi kelib qoldi.

– Jinna, nonushta qilib bo'ldingmi? O'ringga o'tirib, biron narsa yeb olay, aks holda ochimdan o'tib qolaman. Tungi navbatchilikda edim.

Jinna xuddi o'tirgan kursisiga tok ulanganday o'rnidan

XVI BOB. Maxfiy xona

chib ketdi. Persi singlisining o'rniga o'tirib, stol o'rtasidagi patnis ustida turgan krujkani changalladi.

– Persi! – achchiq-la xitob qildi Ron. – Katta Zalning boshqa joylariga o't ketibdimi?! U bizga qandaydir muhim gap aytmoqchi bo'lib turgan edi!

Og'ziga choy to'ldirib olgan Persi tiqilib qoldi.

– Qanaqangi muhim gap ekan? – yo'tal orasida bir amallab so'radi Persi.

– G'ayrioddiy biror narsa ko'rganini so'rgan edim. U endigina javob bermoqchi bo'lib turgan edi...

– Ha, buni... U gapning Maxfiy xonaga hech qanday aloqasi yo'q, – darhol javob berdi Persi.

– Sen qayerdan bilasan? – so'radi qoshi ko'tarilib ketgan Ron.

– Xo'sh... m-m-m... Shunchalik bilishni istar ekansan, mayli aytay, m-m-m... bir kuni Jinna meni muayyan ish ustida ko'rib qoldi. Men... xo'sh... mayli buning ahamiyati yo'q. Muhimi, o'sha ishimni hech kimga aytmaslikni Jinna-dan iltimos qilgan edim. Ta'kidlab o'tishim joizki, Jinna o'z va'dasida turishiga ishonchim komil edi. Mayli, buning ahamiyati yo'q, rost, men...

Garri Persining bu qadar xijolat tortishini birinchi marta ko'rib turishi.

– Nima ish qilib turgan eding, Persi? – ayyorona irshayib qo'ydi Ron. – Bo'l tez, bo'yingga olib ochig'ini ayt, biz kulmaymiz.

Persi kulmadi.

– Garri, iltimos, ho' anavi kulchani uzatib yubor. Qor-nim juda och.

Jumboqli masala yechimi ertaga, Ron ikkalasining yor-damisiz ham topilishini bilsa-da, Garri G'aming Mirtlning suhbatini olish imkonini qo'ldan berishni istamadi. Sverkarol Charuald bolalarni sehrgarlik tarixi darsi o'tkaziladigan

sinf xonasiga kuzatib borayotganida bunday imkoniyat yuzaga kelib qoldi.

Barcha xavf-xatarlar barham topganiga hammani ishon- tirib kelgan va bunday safsatalari yolg'on ekani sharmanda- larcha isbot qilingan Charuald endi o'quvchilarni bir sinf xonasidan boshqasiga kuzatib borish shart emasligiga ko- mil ishonch bildirib yuribdi. Chamasi, to'rtinchi qavatda navbatchilik xizmatini o'tagan, shekilli, hozir uning sochi odatdagidek batartib emas.

– Esingizda bo'lsin, – dedi u, sinf o'quvchilari yo'lak muyulishi ortiga o'tganida. – «Bu ishni Xagrid qildi» degan so'zlar dong qotganlar uyg'onib aytadigan ilk so'zlar bo' ladi. Professor Makgonagallning mana bu kabi ehtiyot cho- ralarini zarur deb bilishi, rostini aytsam, meni taajjublan- tirmoqda.

– Fikringizga qo'shilaman, – ma'qulladi Garri.

O'rtog'ining gapini eshitgan Ron qo'lidagi kitoblarni tushirib yubordi.

– Rahmat, Garri, – minnatdorlik bildirdi Charuald.

Ularga ro'paradan kelayotgan xufflpuffchilar guruhini o'tkazib yuborishga to'g'ri keldi.

– Aytmoqchimanki, – fikrini davom etdi Charuald, – o'quvchilarni bir sinf xonasidan boshqasiga kuzatib qo' yish-u, tungi navbatchiliklardan tashqari o'qituvchilar zim- masidagi boshqa tashvishlar ham yetarlicha ortiq...

– To'g'ri, – dedi Ron, – ser, bizni shu yerdan qo'yib yubora qoling. Axir, atigi bitta yo'lak qoldi, xolos-ku...

– Bilasanmi, Uesli, men aynan shunday qilaman, – xur- sand bo'ldi Charuald. – Chindan ham borib, navbatdagi darsga hozirlik ko'ray.

Charuald shosha-pisha nari ketdi.

– Topgan gapini qarang, navbatdagi darsga hozirlik ko'ringlar, – jilvarib aytgan xonasi Charualdning orti-

dan qarab qolgan Ron. – Gajaklarimni jingalak qilib olay degin, ishonaylik...

Ular o'z sinfdoshlaridan ortda qolib, yon tomondagi yo'lakka o'qday uchib o'tishdi-da, G'amgin Mirtlning hojatxonasi tomon oshiqishdi. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan tadbir bilan bir-birini tabriklab turishgan fursatda...

– Potter! Uesli! Nima qilyapsiz bu yerda? – degan savol yangradi.

Professor Makgonagall labini nihoyatda qattiq qimtib olgancha, bolalarga tikilib turibdi.

– Biz... bizga... – tutilgancha gap boshladi Ron, – Biz borib...

– Germionaning holidan xabar olib kelmoqchi edik, – o'rtog'ining fikrini tugalladi Garri.

Ron ham professor Makgonagall ham Garriga hayratla tikilishdi.

– Uni ko'rmaganimizga yuz yil bo'ldi, professor, – tez gap boshladi Garri, Ronning oyog'ini bosib. – Hech kimga bildirmay, uning palatasiga kirib olmoqchi edik, tushunyapsizmi. Unga mandragoralar yetilganini, ko'p tashvish chekmay, yana biroz sabr qilishi kerakligini aytmoqchi edik...

Professor Makgonagall qilt etmay, biroz tikilib turdi. Bolalar professorning qichqirishini kutdi. Biroq qichqirish o'miga ushbu qattiqqo'l xonim qandaydir g'alati eshitilgan titroq ovozda vazmin javob berdi.

– Do'stining boshiga kulfat tushganlar qalbida qanday kechinmalar bo'lishini tushunaman, albatta, – dedi professor, qush ko'ziga o'xshash ko'zida bir tomchi yosh yaltiraganday bo'lib, – Ha, Potter, siz miss Grenjerning holidan xabar olishingiz mumkin. Professor Binnzga qayoqqa ketganingizni o'zim aytib qo'yaman. Ijozat berganimni Pomfri xonimga ma'lum qiling.

Ikkovlon jazodan qutulib qolganiga bazo'r ishonib nari

ketdi. Muyulish ortiga o'tganda professor Makgonagallning burun qoqqanini aniq eshitdi.

– Bugun sen nihoyatda zo'r kazzob bo'la olishingni ko'rsata bilding! – otashin ohangda dedi Ron.

Endi bolalarga Pomfri xonimning huzuriga borib, professor Makgonagall Germionaning holidan xabar olishga ijozat berganini aytishdan boshqa chora qolmadi.

Pomfri xonim ularni ichkariga istar-istamas kiritdi.

– Dong qotib yotgan odam bilan gaplashishdan biror-bir ma'no bormikan, – vaysadi u.

Germionaning yoniga o'tirishgan bolalar Pomfri xoninning fikriga qo'shilishdi. Qiz, yoniga odam kelganini sezmay yotibdi. Tashvish chekmasligi borasida Germionaga gapirding nima-yu, uning karavoti yonida turgan javonchaga gapirding nima, farqi yo'q.

– Kim tajovuz qilganini ko'rishga ulgurganmikan, a? – ma'yus so'radi Ron, Germionaning harakatsiz yuziga tikiilib o'tirib. – Agar jinoyatchi zimdan hamla qilgan bo'lsa, jabrlanganlardan biortasi ham uni ko'rmagan bo'lishi mumkin...

Garri Germionaning yuziga emas, adyol ustida yotgan o'ng qo'liga e'tibor qilib, mahkam siqib olingan mushtchasidan chiqib turgan qog'oz uchini ko'rib qoldi. Pomfri xonim yo'qligiga ishonch hosil qilgan o'rtog'ining ham e'tiborini qog'ozga qaratdi.

– Sug'urib chiqarishga urinib ko'r-chi, – dedi Ron. kursisini surib, Garrini Pomfri xonimning nigohidan to'sgancha.

– Aytishga oson, – g'udrandi Garri.

Germionaning mushtchasi mahkam siqilgan bo'lib, Garri qog'ozning yirtilib ketishidan cho'chidi. Ron qo'riqchilik qilib turdi, Garri esa qog'ozchani unday ham bunday

hali aytishgisi, o'zi shunga qiyomatga nihoyat mag'uldir

erishdi.

Bu kutubxonada saqlanayotgan qadimiy kitobchadan yulib olingan sahifa ekan. Garri varaqni zudlik bilan yozdida, Ron bilan birga o'qishga kirishdi.

Yurtimizda yashaydigan aksariyat maxluq va alvastilur orasida sirlilik va zahri qotillik horasida Vasiliskdan o'tib tushadigani topilmaydi. Bu maxluq ilonlar qiroli degan nomi bilan ham mashhurdir. Misli ko'rilmagan o'Ichamgacha o'sib, umri ko'p asrlar davom etadigan ushbu ilon cho'l-buqa bosib otheadigan xo'roz tuxumidan chiqadi. Bunday maxluq o'z qurbonini o'ldirish uchun ajablanarli usul qo'llaydi. Vasilisk zaharli tishlardan tashqari, ajal keltiruvchi nigohga ham egadir. Nigohi ushbu ilon ko'zidan taralayotgan nur ta'sirida qolgan har qanday jonzod borki, turgan joyida ajal topadi. O'rgimchaklar Vasiliskdan nihoyatda qattiq qo'rqib, imkon qadar unga duch kelmaslikka harakat qiladi. Vasiliskning o'zi esa uning kuni hitishiga sabab bo'ladigan xo'roz qichqirig'idangina qo'rqadi, xolos.

Ushbu matn ostida Germionaning dastxati bilan yozilgan yagona «Quvurlar» so'zi bor edi.

Garrining miyasida go'yo chiroq yonganday bo'ldi.

– Ron, – chuqur nafas chiqardi u, – hammasi tushunarli! Mana u! Mana jamiki jumboqli savollar javobi! Maxfiy xonaga bekitilgan maxluq – ulkan ilon, Vasilisk¹! Shuning

¹ Vasilisk (grek. βασιλίσκος – shoh, podsho) – boshi xo'roznikiga, tanasi va ko'zi cho'lbaqanikiga, dumi esa, ilon dumi ga o'xshash afsonaviy maxluq. Vasiliskning boshida, unga bunday nom berilishiga sabab bo'lib, tojni eslatadigan qizil po'pakcha mavjud. Biroq boshqa manbalarda («Tabiiy tarix»da) qayd etilishicha Vasiliskning boshida po'pakcha emas, «toj yoki tilla qoshga o'xshash oq dog'» bor. Vasilisklar Bibliyaning lotin tarjimasida («Vulgata»da) bir necha bor tilga olingan. O'rta asrlargacha vasilisk real yashaydigan hayvon turi sanalgan. Taxminlarga ko'ra, bunday maxluqlar zaharli tish, changal va nafasga ega bo'lishdan tashqari, Gorgona meduzasiga (qanotli maxluq-ayolga) o'xshab o'z nigohi ila o'ldirish qobiliyatiga ega. Vasilisk tasvir ko'plab shahar gerblarida aks ettirilgan.

XVI BOB. Maxfiy xona

uchun ham uning ovozi yolg'iz o'zim eshitib yurganman-u, boshqa hech kim eshitmagan. Axir, men, yodingda bo'lsa, o'zing aytganday ilonzabonman-ku!

Garri atrofda yotgan Vasilisk qurbonlariga qarab chiqdi.

Vasilisk. – tushuntira ketdi u. – Yo'lida duch kelgan qurbonni o'z nigohi bilan o'ldiradi. Biroq mana bularning birortasi ham o'lmagan. Nima uchun? Chunki, ularning birortasi ham ilonning ko'ziga bevosita qaramagan. Mana masalan, Kolinni olaylik. U ilonni fotoapparatining shisha tuynugi orqali ko'rgan. Esingdami, Vasilisk fotoapparatining eskizini kuydirib yuborgan edi. Kolin esa muqarrar o'limdan dong qotish bilan qutulib qoldi. Jastinga kelsak... Jastin ilonni «Deyarli Boshsiz Nik»ning tanasi orqali ko'rgan! Nik ajal nurining to'la porsiyasini olgan, albatta. Lekin u yana bir bor o'lmaydi-yu, shundaymi? Germiona bilan ravenklochi sinfboshi qizning yonida esa ko'zgu topilgan. Hech qanday shubha yo'qki, odamlarga tajovuz qilayotgan maxluq aynan Vasilisk ekanini Germiona fahmlagan. Ont ichib aytamanki, u o'z yo'lida duch kelgan birinchi odamni muyulishga o'tishdan oldin tegishli yo'lakni dastlab ko'zgu orqali ko'zdan kechirib chiqish lozimligi haqida ogohlantirgan! Sinfboshi qiz Germionaning nasihatiga quloq tutib, o'zining ko'zgusini chiqargan, oqibatda...

Ronning og'zi lang ochilib qoldi.

– Missis Norris-chi? – qiziqsinib so'radi u. – Axir, mushuk suratga ham olmaydi, yonida ko'zgu ham olib yurmaydi-ku!

Garri xotirasida Xellouin kuni ko'rgan manzarasini tiklashga urindi.

– Ko'lmak, – asta talaffuz etdi u. – G'amgin Mirti hojatxonasidan sizib chiqqan suv yo'lakda ko'lmak hosil qilgan. Ishonchim komilki, missis Norris ilonning suvdagi ak-

sini ko'rgan...

U yana bir bor qo'lidagi kitob sahifasini o'qib chiqdi. Qanchalik ko'p o'qir ekan, shunchalik ko'p ma'no topdi.

– «... kuni bitishiga sabab bo'ladigan xo'roz qichqirig'idangina qo'rqadi, xolos», – o'qidi u, ovoz chiqarib, – Xagridning xo'rozlarini kimdir asta sekin o'ldirib borgan! Slizerinning vorisi qasr yaqinida xo'roz bo'lishini istamagan! (*O'rgimchaklar Vasiliskdan nihoyatda qattiq qo'rqib, inkon qadar...*)» Hammasi to'g'ri, dalillar mos kelyapti!

– Vasilisk «misli ko'rilmagan o'lchamgacha» o'sar ekan qasr ichida qanday qilib harakatlanadi? Axir, shuncha yildan buyon uni kimdir ko'rgan bo'lishi kerak edi-ku...

Garri, ushbu savolga ham javob topdi. U kitob sahifasidagi matn ostida Germiona tomonidan yozilgan «*Quvurlar*» so'zini ko'rsatdi.

– Quvurlar, – qisqa qildi Garri, – Vasilisk kanalizatsiya¹ tarmog'ining quvurlari ichida o'tmalab yuradi. Ron! Men uning devor ichidan chiqayotgan ovozini eshitganman.

Ron kutilmaganda Garrining qo'lini ushladi.

– Maxfiy xonaga kirish yo'li! – xirillagancha gap boshladi u, – Kirish yo'li hojatxonada bo'lsa-chi? O'sha yo'l...

– G'amgin Mirtlning hojatxonasida! – fikrni yakunladi Garri.

Ushbu taxmin bolalarni shu qadar o'ziga jalb etdiki, joylarida chidab o'tirisha olishmadi.

– Muxtasar qilib aytganda, – dedi Garriko – Maktabimizda ilonzabon tanho o'zim emasman. Slizerinning Vorisi ham ilonzabon, chunki u Vasilisk harakatini ilon tili vositasida idora qiladi.

– Xo'sh, endi qanday ish tutamiz, – so'radi ko'zi cha-

¹ Kanalizatsiya – kornxonalar, jamoat va turar joy binolari hamda aholi yashaydigan joylardan chiqadigan oqova suvlarni va axlatlarni chiqarib tashlaydigan muhandislik inshootlari va jihozlari majmui.

raqlayotgan Ron. – To'g'ri Makgonagallning huzuriga boraveramiz-da, shunday emasmi?

– O'qituvchilar xonasiga boramiz, – dedi Garri, kursidan irg'ib turib. – O'n daqiqadan so'ng tanaffus. Professor Makgonagall o'sha xonaga keladi.

Ular zina bo'ylab pastga yugurib, yo'lakda hech kimga duch kelishni istamay, to'ppa-to'g'ri o'qituvchilar xonasiga yo'l olishdi. O'qituvchilarning panel bilan qoplangan keng xonasida hech kim yo'q. Garri bilan Ronni kuchli hayajon qamrab olgani bois tek o'tirisha olmay, ko'plab jigartang yog'och stollar bilan jihozlangan xonaning u burchagidan bu burchagiga yura boshlashdi.

Biroq qo'ng'iroq zarbi eshitilmadi.

Qo'ng'iroq o'rniqa professor Makgonagallning sehr qo'llanilib kuchaytirilgan ovozi yangradi.

– Barcha o'quvchilar o'z fakultetlarining umumiy mehmonxonasiga, o'qituvchilar esa o'qituvchilar xonasiga yig'ilsin. Zudlik bilan, o'tinib so'rayman.

Garri turgan joyida keskin aylanib, Ronga yuzlandi.

– Nahotki yana tajovuz qilingan bo'lsa?

– Nima qilamiz? – so'radi vujudini vahima qamrayotgan Ron. – Minoraga boramizmi?

Garri atrofga qarab, nigohini o'qituvchilar kiyimiga to'lib-toshgan eski javonda to'xtatdi.

– Yo'q, – qaror qildi Garri. – Kel, mana bu yerga bekinib, nima bo'lganini bilib olamiz-da, so'ng chiqib, bizga ma'lum ma'lumotlarni ularga aytib beramiz.

Ikkovlon yuqori qavatdagi qadam tovushlariga quloq tutgancha, javon ichiga kirib, namiqib ketgan kiyimlar orasiga yashirinib oldi. Eshik ochilib, xonaga birin-ketin o'qituvchilar kirib keldi. Ularning ayrimlari nimalar bo'layotganini tushunmay hayron bo'lsa, ba'zilarining yuzlarida qo'rquv aks etgan. Xayol o'tmay professor Makgonagall

ham kirib keldi.

– Mudhish hodisa ro‘y berdi. – e‘lon qildi u, jim bo‘lib qolgan yig‘ilish ishtirokchilariga. – Maxluq xonaga o‘zi bilan birga o‘quvchi qizlardan birini ham olib kirib ketibdi.

Professor Flitvik ingichka ovozda chiyillab yubordi, professor Sarsabil xonim kaftini og‘ziga bosdi. Snegg esa kursi suyanchig‘iga yopishib qolib, bazo‘r so‘ray oldi:

– Nega bunchalik komil ishonch-la aytyapsiz?

– Slizerinning vorisi, – javob berdi professor Makgonagall. – O‘tgan safar qoldirgan yozuvi ostida yana bir yozuv qoldirib ketibdi: *«O‘quvchi qizning suyaklari Maxfiy xonada mangu yotadi»*.

Professor Flitvik ho‘ngrab yubordi.

– Kimni olib ketibdi? – so‘radi oyog‘ida tura olmay, divanga o‘tirib qolgan Tryuk xonim. – Qaysi qizni?

– Jinna Ueslini, – javob berdi professor Makgonagall.

Garri orqada turgan Ronning ovoz chiqarmay javon devori bo‘ylab sirpanib tushganini sezdi.

– Ertaga jamiki o‘quvchilarni o‘z uylariga jo‘natib yuborishimiz kerak bo‘ladi, – dedi professor Makgonagall. – «Xogvars» tugatiladi. Damblдор doimo...

O‘qituvchilar xonasining eshigi boz ochildi. Garri xonaga Damblдор kirib keldi deb o‘yladi. Afsuski bu, jilvalanib, tovlanayotgan Charuald ekan.

– Ma‘zur tuting... mizg‘ib qolibman... biron-bir qiziq narsani o‘tkazib yubormadimmi?

Aftidan Charuald qolgan o‘qituvchilarning ochiqdan ochiq nafrat-la qarab turishganini sezmagani ko‘rinadi. Oldinga bir qadam tashlagan Snegg Charualdning savoliga javob berdi:

– Ha, o‘tkazib yubordingiz. Jinoyatchini o‘tkazib yubordingiz. Maxluq qizaloqni o‘g‘irlab, Maxfiy xonaga olib kirib ketibdi. Jasoratingizni namoyon etadigan vaqt yetdi.

Charuald.

Dahshatga tushgan Charualdning yuzidan qon qochdi.

– Ha, ha, Sverkarol, – ma'qulladi Sarsabil xonim. – Kechagina bizga Maxfiy xona qayerdaligini bilaman degan edingiz, esingizdami?

– Men?... Men faqat... – to'ng'illadi Charuald.

– Maxfiy xonaga qanday maxluq qamalganini aniq bilishingizni menga aytgan edingiz, a?

– Aytgan edim? Yodimdan ko'tarilibdi...

– Men esa Xagrid hibsga olinguncha aytgan gapingizni juda aniq eslayman, – dedi Snegg. – O'shanda siz maxluqni tutib olishingizga imkon berishmaganidan achingan edingiz. «Hamma o'ziga daxli bo'lmagan ishga aralashaverib, oxir-pirovardida ishning pachavasi chiqdi. Aslida esa ish boshida menga to'la erk berib, hammasini yolg'iz o'zingga qo'yib berish kerak edi» degan e'tiroz muallifi siz emasmi?

Hang-mang bo'lib qolgan Charuald hamkasblarning toshday qotgan yuzlariga birma-bir qarab chiqdi.

– Men... aslida... men biror marta ham... sizlar meni noto'g'ri tushungan ko'rinasiz...

– Xo'sh, unday bo'lsa, marhamat. Maxluqni tutish vazifasini to'la-to'kis sizgato'pshiramiz, – dedi professor Makgonagall qat'iy ohangda. – Mana sizga, o'zingizni namoyon etish uchun ajoyib imkoniyat. Maxluqni mustaqil ravishda tutib olishingiz mumkin. Va'da beramanki, sizning yo'lingizga hech qaysi birimiz to'g'anoq bo'lmaymiz. Sizga nihoyat to'la erk berilib, barcha ishlar yolg'iz o'zingizga qo'yib beriladi.

Atrofga alanglab chiqqan Charualdning yuzi umidsiz qiyofa kash etdi. Hech kim unga tarafdor bo'lmay, o'zining zohiriy jozibadorligini bir necha daqiqqa ichida yo'qotdiqo'ydi. Tishining oqini ko'rsata olmagan labi titrab, iroda-siz kishiga o'xshab qoldi.

J-j-juda s-soz, – g`udrandi nihoyat u, – Men... xizmat xonamga boray... hozirlik k-ko`rib olishim kerak... – dedi-da, o`qituvchilar xonasidan o`qday uchib chiqdi.

– Xo`sh, – dedi nafratdan burun kataklari shishgan professor Makgonagall. – Bir tuturiqsizdan xalos bo`ldik, deya umid qilaman. Oyoq ostida bir pas o`ralashmay turadi, har qalay. Endi fakultet mudirlari bo`lib o`tgan hodisa haqida o`z tasarrufidagi o`quvchilarga tegishli ma`lumot berib, «Xogvars-Ekspress» ertaga tong sahar yo`lga chiqishini ma`lum qilishlari lozim. Iltimos, ulardan hech qaysi biri o`z fakultetining umumiy mehmonxonasini tark etmasligini nazorat ostiga oling.

O`qituvchilar birin-ketin xonadan chiqib ketishdi.

Bu kun Garrining hayotidagi mash`um kunlardan biri, chtimol, eng mudhish kun bo`ldi. Garri, Ron, Fred va Jorj «Griffindor» fakultetining umumiy mehmonxonasidagi olis burchakka biqinib olib, bir so`z demay sukut saqlab o`tirishdi. Persi ularga qo`shilmadi. U ota-onasiga boyqush yo`llab qaytgach, yotoqxonasiga kirib ketdi.

Muqaddam o`tgan kunlardan birortasi bu qadar uzoq cho`zilmagan. «Griffindor» minorasi odamga to`lib-toshgan bo`lsa-da, unda bunday sukunat hech qachon hukm surmagan. Maqsadsiz o`tirishga ortiq bardosh bera olmagan egizaklar kun botar mahalda o`z yotoqxonalariga kirib ketishdi.

Ron esa o`qituvchilar xonasidagi kiyim javoniga kirgandan buyon ilk bor tilga kirdi.

– U nimanidir bilgan, Garri. Shu bois ham uni o`g`ir-lashgan. Jinna aslida Persi haqida emas, aftidan Maxfiy xona haqida nimadir aytmoqchi bo`lgan bizga. Aynan shuning uchun ham uni... – Ron g`azab ila ko`z yoshini artdi. – Tushunyapsanmi, Garri, u axir, aslzoda sehrgar. Uni olib ke-

lishlariga boshladi xalq yo`q.

XVI BOB. Maxfiy xona

Garri qonday qip-qizil quyosh ufq ortiga cho'kayotganini tomosha qilib o'tirdi. U hali hech qachon o'zini bunday jirkanch his etmagan. Qani endi qo'lidan biror ish kelsa. Oz bo'lsa ham biror chora ko'ra olsa.

– Garri, – so'radi Ron. – Nima deb o'ylaysan, zig'irday bo'lsa ham umid bormi uning.., o'zing tushunib turibsan-ku.

Garri nima deyishni bilmadi. Jinna tirik ekaniga u ishonmaydi.

– Bilasanmi, nima qilamiz? – birdan jonlandi Ron. – Fikrimcha borib Charuald bilan gaplashib ko'rishimiz kerak. Unga o'zimiz bilgan narsalarni aytib beramiz. Maxfiy xonaga kirishga urinib ko'rsin. O'sha xona joylashgan joy borasidagi fikr-mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashamiz. Vasilisk haqida ham uni xabardor qilamiz.

Miyasiga boshqa fikr kelmagani, qo'l qovushtirib o'tira olmasligini bilgan Garri rozi bo'ldi. Atrofda o'tirgan griffindorchilar shu qadar g'amgin, Ueslilarga shu qadar hamdard ediki, o'rnidan turib, mehmonxona o'rtasidan o'tib, «Semiz Xola» portreti to'sgan tuynuk orqali chiqib ketishgan Garri bilan Ronni to'xtatib qolishga ham yarashmadi.

Charualdning quyi qavatdagi xizmat xonasi tomon yurilgan sari zulmat qalinlashib bordi. Xona ichida allaqanday ish qaynab, tez-tez bosilayotgan qadam tovushi, nimalar-ningdir sharaqlagani-yu, shitirlagani eshitilmoqda.

Garri eshik taqillatdi. Ichkarida bezovta sukunat cho'kdi, sal o'tgach, eshik xiyol ochilib, Charualdning cho'chigan ko'zi ko'rindi.

– Oh, mister Potter, mister Uesli, – g'o'ldiradi u, Eshikni sal kattaroq ochib. – Men juda bandman, sizlarga ko'p vaqt ajrata olmayman...

– Professor, sizga aytadigan gapimiz bor, – dedi Garri.
Fikrimizcha, bu xona qo'l kelishi kerak.

XVI BOB. Maxfiy xona

Charualdning yuzida parokandalik alomati sezildi.

– E-e-e... xo'sh... bu unchalik... Aytmoqchimanki... xo'sh... xo'p, mayli...

U eshikni ochib, bolalarni ichkariga kiritdi.

Charualdning xizmat xonasi deyarli to'la-to'kis xarob holatga kelgan. Devor yalang'och. Polda qopqog'i ochiq ikkita sandiq turibdi. Ulardan biriga sutrang, yashil, nafarmon, tungi osmon rangidagi g'ijim kiyimlar, ikkinchisiga esa kitoblar uyumi tartibsiz joylangan. Ilgari devorni bezab turgan fotosuratlar esa yozuv stoli ustidagi yashiklarga suqib kiritilgan.

– Safarga otlangan ko'rinasiz? – so'radi hech narsani tushunmagan Garri.

– Umuman aytganda, shunday desa ham bo'ladi, – dedi Charuald, eshikning ichkari tomonidagi odam bo'yi barobar tasviri tushirilgan plakatini yulib, o'ray boshlar ekan, – Meni chaqirib qolishdi... Shoshilinch ish ekan... rad etib bo'lmaydi... borishim kerak...

– Singlim nima bo'ladi? – uzuq-yuluq so'radi Ron.

Bu masalaga kelsak... nima ham qila olardik... noxushlik, albatta... – g'udrandi stol tortmasidagi narsalarni qog'oz xaltaga tashlayotgan Charuald bolalardan ko'zini olib qochib. – Mendan ortiq kim ham afsus qilardi...

– Axir, siz yovuz kuchdan himoya fani o'qituvchisizku! – qichqirdi Garri. – Yovuzlik kuchlari tomonidan jinoiy qilmishlar amalga oshirilayotgan shunday mahalda maktabni tashlab ketishga qanday jur'at eta olasiz?!

– Ta'kidlab o'tish joizki... meni ishga taklif qilishganda... – gapni mujmal qildi Charuald, paypoq g'aramini ko'y-lak ustiga tashlar ekan. – Zimmamga yuklangan vazifalar tavsifida ayrim majburiyatlar ko'zda tutilmagan... men kutmagan...

– Juftakni rostlab ketyapman, demoqchisiz, shekilli? –

so'radi o'z qulog'tga hamon ishonmayotgan Garri. – Axir, kitoblaringizda jasoratlaringizni bayon etib...

– Kitoblar ba'zan hayotiy voqealikni to'liq aks etmaydi, – dedi Charuald xushmuomala ohangda.

– Biroq ularni o'zingiz yozgansiz-ku! – baqirdi Garri.

– Bolakay, – dedi qaddini rostlagan Charuald, Garriga ilk bor qosh chimirib. – Miyangni ishga solib, yaxshilab o'y-lab ko'r. O'sha kitoblarda tavsiflangan karomatlarni men o'zim ko'rsatmaganimni odamlar bilishsa, kitoblarimning xarid sur'ati hozirgi sotuv sur'atining yarmigacha ham yetib bormagan bo'lar edi. Afsun bilan boshqa tusga kirgan maxluqlardan yuzta qishloqni xalos etgan bo'lsa ham o'sha basharasi bujinayib ketgan qari armani jodugar haqida o'qish hech kimga qiziq emas. Uning surati kitob muqovasida qanday ko'rinishini o'zing tasavvur qilib ko'r! Narigi dunyodan vakil bo'lib kelgan ayol Bendonni quvib solgan afsungar ayolning esa labi tirtiq bo'lgan. Tushundingmi? Shunday ekan, qo'y bahslashmaylik...

– Ya'ni siz boshqalar ko'rsatgan jasoratlarni o'g'irlab, o'z karomatlaringiz sifatida yozgansiz, shundaymi? – xitob qildi Garri, eshitayotgan gaplarga hanuzgacha ishonmay.

– Garri, Garri, – bosh chayqadi Charuald. – Bu ish sen aytgancha oson kechmagan. Axir, men hazilakam mehnat qildimmi. Men o'sha odamlarni izladim, qidirib topdim, qaysi ishni qanday hajarganini batafsil surishtirib bildim. To'g'ri, ularga nisbatan Unuttirish afsunini qo'llash, xotiralarini yo'qotishga to'g'ri keldi, albatta. Shunday ekan, men anchagina mehnat qildim, Garri. Bu shunchaki, kitobga dastxat qo'yib berish yoki jurnal muqovalari uchun suratga tushish emas. Modomiki, shon-shuhrat qozonishni istar ekansan – og'ir va mashaqqatli mehnatga hozirlan!

U sandiq qopqog'ini yopib, qulfladi.

– Xo'sh, hech narsani unutmadim, shekilli. Faqat ki-

chik bir ish qoldi, xolos.

U sehrli tayoqchasini chiqardi-da, bolalarga yuzlandi.

– Meni ma’zur tuting-u, yigitchalar, biroq sizlarga nisbatan ham Unutirish afsunini qo’llashga to’g’ri keladi. Mayda sirlarim haqida jahonga jar solishingizga yo’l qo’ya olmasligimni o’zingiz tushunib turgan bo’lsangiz kerak. Aks holda birorta ham kitobimni sota olmay qolaman...

Ammo Garri chaqqonroq harakat qildi. Charuald tayoqchasini ko’tarishga ulgurmay turib, Garri bo’kirib yuborishga ulgurdi.

– Ekspelliarmus!

Ortga tisarilib ketgan Charuald sandiqqa qoqilgancha, oyog’i osmondan kelib quladi. Uning qo’lidan chiqib, havoga uchgan tayoqchasini esa Ron tutib olib, derazadan uloqtirdi.

– Professor Snegg bunday qiliq ijrosini bizga o’rgatishiga yo’l qo’ymaslik kerak edi, – darg’azab irilladi Garri, sandiqni tepib, chetga surar ekan.

Yana zaif, himoyaga muhtoj holatga tushgan Charuald polda yotgancha, Garriga baqrayib qoldi. Garri esa Charualdga tayoqcha o’qtab turibdi.

– Mendan nima istaysiz? – so’radi Charuald titroq ovoza. – Maxfiy xona qayerda ekanini bilmayman. Sizlarga hech qanday yordam bera olmayman.

– Omadingiz bor ekan, – dedi Garri, tayoqchasining uchi bilan Charualdni oyoqqa turishga majbur qilib, – Maxfiy xona qayerdaligini ham uning ichida qanday maxluq borligini ham biz yaxshi bilamiz. Turing, biz bilan yuring.

Bolalar Charualdni qorong’i yo’lakka chiqarib, devoriga mudhish so’zlar bitilgan G’amgin Mirtning hojatxonasi tomon yetaklab ketishdi.

Hojatxonaga birinchi bo’lib Charuald turtib kiritildi. Garri o’qituvchining dahshatdan titrayotganini ichiqoralik-

la payqadi.

G'amgin Mirtl hojatxonaning narigi boshidagi unitazning chetida o'tirgan ekan.

– Ha, yana senmi? – kulib boqdi Garrini ko'rgan Mirtl.
– Endi nima kerak bo'lib qoldi senga?

– Qanday o'lganingni bilmogchiman, – so'radi Garri, kinoya va shamasiz.

Garrining savolini eshitgan Mirtlning qiyofasi bir soniyada tanib bo'lmas darajada o'zgarib baxtiyor yuzi, tug'ilganidan buyon bunday yoqimli savolni eshitmagan qizning chehrasi kabi yorishib ketdi.

– O-o-o, bu juda dahsha-a-at-la kechdi, – huzur qilib gap boshladi Mirtl. – Jonim shu yerda chiqdi, mana bu bo'l-mada o'tirib o'ldim. Hammasi esimda. Ko'zoynak taqib yurganimni Oliviya Xornbi mazax qilgani uchun eshikni ichkaridan yopib, yig'ladim. Keyin kimdir kirib, qandaydir tushunarsiz so'zlarni talaffuz etganini eshitdim. Fikrimcha, u boshqa tilda gapirdi. Lekin meni hayron qoldirgan joyi – qizlar hojatxonasiga kirib olgan o'g'il bola gapirgani bo'ldi. Men unga bu yerga kirish mumkin emasligi, o'z hojatxonasiga borishi kerakligini aytmogchi bo'lib eshikni ochdim-u... – Mirtl ma'noli nafas chiqarib, yuzini yorishtirdi, – O'lib qoldim.

– Nimadan o'lding? – so'radi Garri.

– Bilmayman, – javob berdi Mirtl qo'rqinchli pichirlab.
– Men faqat bir juft sap-sariq, katta ko'z ko'rganimni eslayman, xolos. Badanim toshday qotib qoldi. O'ldim-da, nari uchdim... – u xayolchanlik ila Garriga qaradi. – Keyin boz qaytib keldim. Tushunyapsanmi, men Oliviya Xornbini taqib qilib yurishga qaror qildim. Ko'zoynak taqib yurganimni mazax qilgani uchun ko'p pushaymon bo'ldi.

– Qayerda ko'rindi o'sha bir juft ko'z? – so'radi Garri.

– Qayerdadir, anavi yerda, – noaniq ko'rsatdi Mirtl, o'zi

o'tirgan unitaz qarshisidagi chig'anoq tomon qo'l uzatib.

Garri bilan Ron Mirtl ko'rsatgan chig'anoq tomon otil-di. Yuzi o'larcha dahshatli qiyofa kasb etgan Charuald esa ortda turganicha serryib qoldi.

Bolalar chig'anoqning ichki tomonini ham tashqi tomonini ham hatto ostidagi quvurlarni ham dyumma-dyum ko'zdan kechirib chiqib, biron-bir g'ayrioddiy alomat topa olishmadi. Shunda Garri mis jo'mrakning bir tomoniga mittigina ilonchaning tasviri o'yib tushirilganligiga e'tibor qildi.

– Bu jo'mrak hech qachon ishlamagan, – quvonch-lanma'lum qildi Mirtl, jo'mrak ochishga uringan bolalarga.

– Garri, – pichirladi Ron, – biron nima de-chi. Serpentargo tilida gapir-chi.

– Ha, lekin...

Garri biroz o'ylanib qoldi. Serpentargo tilida ikki marta gapirganida ilon bilan yuzma-yuz turgan edi. U fikrini mitti o'yma tasvirga jamlab, uni haqiqiy ilon sifatida tasavvur qildi.

– Ochil, – dedi u va o'rtog'iga qaradi.

– Inglizcha, – dedi Ron, bosh chayqab.

Garri yana tasvirga qarab, o'ziga o'zi uni tirik ilon sifatida tasavvur qilishni buyurdi.

– Ochil, – dedi u.

Lekin u og'zidan «ochil» so'zi emas, qandaydir vishil-lagan tovush chiqqanini eshitdi. Daf'atan chig'anoq jo'mragi ko'zni qamashtiradigan darajada olmos tus kasb etib, aylanana boshladi. Shundan so'ng chig'anoqning o'zi harakatga keldi. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, u qayoqqadir g'oyib bo'lib, yerda, katta yoshli odam bermalol sig'adigan darajada keng quvur og'zini ochdi.

Garri Ronning joniqib nafas olayotganini eshitib, boshini ko'tardi-da, nima qilish kerakligini angladi.

– Men pastga kirib ketaman, – qat'iy dedi qildi u.

Asrlar osha ne-ne sehrgar va afsungarlar topa olmagan Maxfiy xonani endi topganda, zig'irday, deyarli umidsiz, arzimas bo'lsa ham Jinnani qutqarish imkonini tug'ilgan paytda to'xtab qolishni bola xayoliga ham keltirmadi.

– Men sen bilan boraman, – dedi Ron.

Kutilmagan tanaffus yuzaga keldi.

– Sizlarga foydam tegishiga shubha qilaman, – dedi yuziga ilgarigiday kulgi yugurgan Charuald beparvo ohangda, – Men bor-yo'q...

U qo'lini eshik dastasiga qo'ygan ediki, ikkala bola unga sehirli tayoqchalarini o'qtadi.

– Birinchi bo'lib siz tushasiz! – buyurdi Ron.

Tayoqchasiz, yuzi bo'rday oqarib ketgan Charuald quvur og'ziga yaqinlashdi.

– Bolalar, – pichirladi u, bazo'r eshitilgan ovozda, – bolalar, shu ishingizdan biron-bir naf chiqadi deb o'ylaysizmi?

Garri tayoqchasini o'qituvchining beliga taqadi. Charuald yerga o'tirib, oyog'ini quvur ichiga tushirdi.

– Rostini aytsam, – gap boshladi u.

Ronning tepkisini yegan Charuald pastga sirpanib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Garri ham quvur ichiga osta kirib, qo'lini bo'shatdi.

Zulmat ichra cheksiz sirpanish. Pastlab borayotgan bola boshqa yo'nalishda ajrab ketgan quvurlarni bazo'r ilg'ab bordi. Garri quvurning egilib burilgani va tobora qayoqqadir ichkariga, yer qa'riga kirgani, qasr yerto'lalaridan ancha pastga tushib ketayotgani, ortidan esa quvur burilgan joylarda tanasi qattiq urilib kelayotgan Ronning baqirib yaqinlashayotganini angladi.

Sirpanish jarayoni nihoyasiga yetganda nima bo'lishi mumkinligi haqida endigina tashvish cheka boshlagan Garri quvur og'zidan otilib chiqib, tikka turib olish uchun yetarlicha baland bo'lgan qop-qorong'i tosh tunnelning zax

yeriga gupillab tushdi. Shilimshiqdan ho'l bo'lib, arvoqday oqarib ketgan Charuald endigina oyoqqa turayotgan ekan. Garri quvur og'zidan nari qochgan ediki, undan Ron otilib chiqdi.

– Biz qasr ostiga, ko'plab milya chuqurlikka tushib ketdik, shekilli, – fikr bildirdi Garri.

Uning ovozi qorong'i tunnel ichida aks sado bo'lib yangradi.

– Ehtimol, ko'l ostiga tushgandirmiz, – qo'shimcha qildi Ron, shilimshiq qoplagan qora tusli tunnel devoriga diqqat-la nazar solib. *

Uchalasi ortga burilib, noma'lum tomon olib boradigan mudhish bo'shliqqa yuzlandi.

– Lyumos! – g'udrandi Garri sehrli tayoqchasiga.

Tayoqcha yorug'lik taratdi.

– Ketdik, – dedi Ron bilan Charualdga yuzlangan Garri, ho'l polni shalp-shulp qilgancha, yo'l boshlab.

Yo'l shu qadar qorong'iki, ikki qadam oldinda hech narsa ko'rinmaydi. Ularning sehrli tayoqchadan chiqayotgan yorug'lik nuridan hosil bo'lgan soyalari tunnelning zax devorida dahshatli maxluqlar aksiday ko'rinishda. Uchalasi asta-sekin odimlab ketdi.

– Yodingizda bo'lsin, – ogohlantirdi Garri pichirlab. – Sal bo'lsa ham shitirlagan tovush eshitishingiz bilan ko'zingizni chirt yumib oling.

Ammo tunnelda lahad ichidagidek o'lik jimjitlik hukm surmoqda. Birinchi kutilmagan tovush kalamushning bosh suyagini bosib olgan Ronning oyog'i ostidan chiqdi. Garri tayoqchasini pastroq tushirib, yerni turli tuman mayda hayvonlar suyagi qoplaganini ko'rdi. Ular qidirib kelgan Jinna qay holatda bo'lishi haqidagi o'yni miyasidan haydab chiqarishga uringan Garri quvurning keskin burilgan muyu-lishi ortiga asta o'tdi.

XVI BOB. Maxfiy xona

– Garri... anavi yerda nimadir bor... – xirilladi Ron, o'rtog'ining yelkasini ushlab olib.

Ular qilt etmay, nima bo'lishini kutishdi. Garri tunnel o'rtasida harakatsiz yotgan nihoyatda yirik jismning yaqqol ko'rinayotgan sirtqi shaklini farqlay oldi.

– Uxlayapti, shekilli, a? – so'radi u o'z hamrohlariga yuzlangancha, past ovozda.

Charuald kaftini ko'ziga mahkam bosib olgan. Garri yana o'sha jismga qaradi. Uning yuragi qattiq ura boshlaganidan ko'krak qafasi og'rib ketdi.

Garri sehrli tayyoqchasini baland ko'tarib, ko'zini imkon qadar tor qisib olgancha, jism tomon asta odimladi.

Tayyoqcha nuri tunnel polida jimjimador eshilib, bo'shab yotgan nihoyatda yirik, och yashilrangli ilon po'stini yoritdi. Bunday po'st tashlagan maxluqning uzunligi yigirma futdan qisqa emasligiga shubha yo'q.

– Dahshat, – pichirladi Ron.

Kutilmaganda orqa tomonda allaqanday harakat eshildi. Manzarani ko'rgan Sverkarol Charuald qaltirayotgan oyog'ida tura olmaydigan bo'lib, yerga qulab tushibdi.

– Tur o'zingdan! – keskin buyurdi Ron, tayyoqchasi bilan tahdid solib.

Charuald oyoqqa tura boshladi-da, daf'atan Ronga tashlanib, uni yerga bosib oldi.

Garri ikkalasi tomon tashlandi-yu, kech bo'ldi. Ronning sehrli tayyoqchasini qo'lga kiritib, mamnun tirjayayotgan Charuald hansirab oyoqqa turdi.

– Sarguzashtlar nihoyasiga yetdi, yigitchalar! – tantanavor ohangda qichqirdi u. – Men mana bu ilon po'stining bir bo'lagini maktabga olib chiqaman-da, qizaloqni qutqarishga kech qo'lganim, siz ikkalangiz esa uning abjag'i chiqib ketgan jasadini ko'rib xotirangizni yo'qotib qo'yganingizni ma'lum qilaman. Bo'ldi, bas! Xotirangiz bilan vido-

lashing!

U sehrgarlar tasmasi bilan o'ralgan siniq sehrli tayoqchani boshi uzra ko'tardi-da, ovozi boricha qichqirdi:

– Obliviatō!

Mayda bomba portlagan kabi portlash tovushi yangradi. Garri shiftidan tushayotgan katta xarsanglarga chap berib, boshini mahkam ushlab olgancha, ilon po'stiga qoqilib nari qochdi. Birozdan so'ng qulab tushgan toshlar uyumidan hosil bo'lgan devor qarshisida turgancha, yolg'iz qoldi.

– Ron! – qichqirdi Garri, – Omonmisan, Ron? Ron!

– Men shu yerdaman! – eshitildi Ronning uyum ortidagi bo'g'iq ovozi. – Men-ku, soppa-sog'man, mana bu ahmoq esa... xotirasini batamom yo'qotib qo'ygan ko'rinadi.

Tosh devor ortida «Voy jonim-yey!» degan ovoz chiqdi. Aftidan Ron Charualdning mumkin bo'lmagan joyiga jon-jahd ita tepgan ko'rinadi.

– Endi nima qilamiz? – eshitildi Ronning umidsiz savoli. – Biz o'ta olmaymiz. Bunga bir umr vaqt kerak bo'ladi...

Garri shiftga qarab, uning keng yorilgan joylarini ko'rdi. U sehr vositasida bunday qalin devorni hali buzib ko'rmagan. Hozir esa buni sinab ko'rish mavridi emas. Tunnel bosib qolishi mumkin.

Devor ortida yana bir zarba va yana bir bor «Voy jonim-yey!» so'zlari eshitildi. Vaqt ketyapti. Jinna Maxfiy xonaga olib kirib ketilgan fursatdan e'tiboran ko'p soat o'tdi... Garri uchun boshqa yo'l yo'q.

– Charuald ikkalangiz shu yerda kuting, – qichqirdi u Ronga. – Men yo'lni davom etaman... Agar bir soatdan so'ng qaytmasam...

Og'ir sukunat cho'kdi.

– Men esa sen chiqa olishing uchun mana bu tosh uyumida raxna ochishga urinib ko'raman, – dedi Ron, ovozi-ning titrayotganini sezdirmaslikka urinib. – Ha, yana bir

gap... Garri... Agar...

– Ko‘rishguncha, – dedi Garri, o‘voziga o‘z kuchiga ko‘mil ishonch ohangini berishga urinib.

Bola bo‘sh yotgan ilon po‘sti yonidan yurib, nari ketdi.

Tez orada Ronning tosh uyumida tuynuk ochish harakati eshitilmay qoldi. Tunnelning burilgan joylari juda ko‘p. Garrining taqim paylari qaltiragani qaltiragan. U tunnel bi-ron joyga olib borib, nihoyasiga yetishini istar va ayni vaqtda, o‘sha fursat yetishidan qo‘rqar edi. Nihoyat so‘nggi mu-yulish ortiga o‘tgach, Garri bir-biriga o‘ralashib ketgan bir juft ilon tasviri o‘yilgan devorni ko‘rdi. Ilonlar ko‘zida yirik zumradlar yarqirab turibdi.

Tomog‘i qurib qolgan Garri devorga yaqin bordi. Ko‘zi jonli ko‘ringan ushbu tosh ilonlar haqiqiy ekanini tasavvur qilishi shart emas.

Bola nima qilish kerakligini fahmlab, tomoq qirdi. Ilonlardan birining zumrad ko‘zi yumilib ochilganday bo‘ldi.

– Ochil, – dedi Garri bo‘g‘iq vishillab.

Ilonlar bir-biridan ajrab, o‘rtasidagi devor tars ikki bo‘lindi-da, tavaqalari har tomon tovushsiz surilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Vujudi titrayotgan Garri ostona hatlab, ichka-riga kirdi.

XVII BOB. SLIZERINNING VORISI

Garri xira yoritilgan uzun zalga kirib qoldi. Zalni qamrab olgan yashil tusli g'ayrioddiy nim qorong'ilikda bir-biriga o'ralashgan ilon jufti shakliga ega daroz tosh ustunlar kishi ko'zi ilg'amas shiftga ko'tarilib, polga cho'zinchoq ko'lanka tashlamoqda.

Yuragi quturib ketganday urayotganini his etayotgan Garri sovuq sukunatga quloq tutdi. Ehtimol, Vasilisk ho'v anavi qorong'i burchakka biqinib olgandir? Jinna qayerda bo'lishi mumkin?

U sehrli tayoqchasini qo'lga olib ikkita ilon-ustun orasidan odimladi. Garrining astagina bosgan har bir qadami qorong'i xona devoridan yangroq aks-sado bo'lib qaytmoqda. U ko'zini qisib yurishni esdan chiqarmay, sal shitirlagan ovo'z eshitilsa, chirt yumib olishga tayyor. Tosh ilonlarning bo'm-bo'sh ko'z kosalari Garrining har bir harakatini kuza'tib turganday go'yo. Bola ushbu xonada allaqanday harakat yuz berayotgani-yu, qorin bo'shlig'ida bir narsa uzilib ketayotganini sezganday bo'ldi.

So'nggi ustun juftligiga yaqin kelishi bilan, uning qarshisida zal bo'yi barobar haykal paydo bo'ldi.

Nihoyatda katta kulrang oyog'i bilan silliq polda mustahkam turgan qadimiy haykalning nimasi bilandir maymunning basharasini esga soladigan, ensiz soqoli sehrgarlar ridosining etagigacha tushgan bahaybat yuzini ko'rish uchun boshini ancha orqaga tashlashga to'g'ri keldi. Haykal oyog'ining orasida esa malla sochli, egniga qora kiyim kiygan odamcha yuzi yerga qaragan holatda yotibdi.

– Jinna! – pichirladi Garri.

U qizaloq yoniga yugurib borib, tiz cho'kdi.

– Jinna, o'lma, o'tinaman, o'lma.

Tayoqchasini chetga tashlagan Garri Jinnaning yelka-

XVII BOB. Slizerinning vorisi

sidan ushlab, beliga ag'dardi. Qizaloqning yuzi marmarday oqarib, muzday bo'lib qolgan bo'lsa ham ko'zi yumuq. Bu esa uning dong qotmaganligidan dalolat beradi. Demak Jinna...

– Jinna, iltimos, ko'zingni och, – yolvordi Garri, qizaloqning yelkasidan siltab.

Jinnaning jonsiz boshi u yoq bu yoq chayqaldi.

– U endi hushiga kelmaydi, – eshitildi kimningdir past ovozi.

Garri seskanib, tizzada o'tirgan joyida ovoz chiqqan tomonga o'girildi.

Novcha bo'yli qora sochli yigitcha yaqin oradagi ustunga suyanib olgancha, Garriga qarab turibdi. Yigitchaning qiyofasi, ayniqsa, tanasining chetlari xuddi terchilagan shisha orqali ko'ringan kabi kuchli yemirilgan. Shunday bo'lsa ham uni boshqa birov bilan adashtirish qiyin...

– Tom... Tom Reddl?

Reddl Garrining yuzidan ko'zini uzmay bosh irg'idi.

– Nima uchun hushiga kelmaydi deyapsan? – umidsiz so'radi Garri, – U...

– Yo'q, u hozircha tirik, – javob berdi Reddl, – ammo chalajon.

Garri yigitchaga tikildi. Tom Reddl «Xogvars»da ellik yil muqaddam tahsil ko'rgan. Shunday bo'lsa-da, mana u, endigina o'n olti yoshga kirgan yigitcha sifatida xayoliy sharpa singari tovlanib turibdi.

– Sen arvohmisan? – ikkilanib so'radi Garri.

– Xotiraman, – javob berdi Reddl, – ellik yil kundalik-da saqlangan xotiraman.

U polga imo qildi. Haykalning misli ko'rilmagan katta oyog'i yonida G'amgin Mirtlning hojatxonasidan topilgan kundalik ochilib yotibdi. Yon daftarcha bu yerga qanday qilib kelib qolgani haqida bir necha soniya o'ylanib qolgan

Garrining e'tiborini hozir kechga qoldirib bo'lmaydigan boshqa ishlar chalg'itdi.

– Menga yordam berishing kerak, Tom, – dedi Garri. Jinnaning boshini boz ko'tarib. – Uni zudlik bilan yuqoriga olib chiqishimiz kerak. Bu yerda Vasilisk bor... hozir qayerdaligini bilmayman-u, lekin har qanday fursatda paydo bo'lib qolishi mumkin... Iltimos... yordam ber...

Reddl joyidan qilt etmadi. Garri terga botgancha kuchanib qizaloqning tanasini yerdan biroz ko'tarib sehrli tayoqchasini olmoqchi bo'ldi-yu... Tayoqcha yo'q.

– Sehrli tayoqchamni ko'rmadingmi?... – so'radi u Reddlga qarab.

Garrini kuzatayotgan Reddl uzun barmoqlari bilan sehrli tayoqchani aylantirib turibdi.

– Rahmat, – dedi Garri tayoqchaga qo'l uzatib.

Garridan ko'zini uzmay, tayoqchani erinchoqlik-la aylantirayotgan Reddl kulib qo'ydi.

Quloq sol, – dedi Garri, Jinnaning tanasi og'irligidan tizzasi bukilib. – Biz ketishimiz kerak! Agar Vasilisk kelib qolsa...

– Birov chaqirmasa kelmaydi, – dedi Reddl, pinagini buzmay.

Madori qolmagan Garri Jinnani polga yotqizdi.

– Nimani nazarda tutyapsan? – so'radi u. – Reddl, tayoqchamni qaytarib ber. U menga kerak bo'lib qolishi mumkin...

Reddlning yuzidagi tabassum yanada kengaydi.

– Endi kerak bo'lmaydi, – ishonch-la javob berdi u.

Hech nimani tushunmagan Garri Reddlga baqraydi.

– Kerak bo'lmaydi? Nimani nazarda tutyap?...

– Mana shu fursatni, – gapni bo'ldi Reddl. – Sen bilan yuzma-yuz kelib, gaplashish fursatini uzoq kutdim. Garri Potter.

XVII BOB. Slizerinning vorisi

– Nazarimda, sen hech narsani tushunmagan ko'rinasan, – dedi sabr kosasi to'lgan Garri. – Biz Maxfiy xonadamiz. Gaplashish qochib ketmaydi. Bu yerdan chiqib olgandan so'ng istagancha gaplashaveramiz...

– Yo'q, shu yerda gaplashishga to'g'ri keladi, – dedi kulgisini qo'ymagan Reddl Garrining tayoqchasini cho'nta-giga solib.

Garri ko'zini katta ochgancha Reddlga qarab qoldi. Qandaydir g'alati holat...

– Nima uchun Jinna mana bunday ahvolda yotibdi? Unga nima qildi? – so'radi u shoshilmay.

– Juda yaxshi savol, – dedi Reddl mutoyim ovozda. – Biroq javobini uzoq eshitishga to'g'ri keladi. Fikrimcha Jinna o'zining qalb so'zlari, yurakda saqlangan sirlarini mutlaqo notanish kishiga ochib, o'z boshiga kulfat topdi. Mana nima qildi unga.

Nima haqida gapiryapsan sen o'zi? – tushunmadi Garri.

– Kundalik haqida. O'z kundaligim haqida gapiryapman. Kichkintoy Jinna ushbu kundalikni ko'p oy yuritib bordi. U o'zining arziyas tashvishlari-yu, xavotirlarini, akalari mazax qilayotgani, maktabga begona odamlar kiyib eskirtirishgan kiyimda, eski kitoblar bilan kelishga majbur bo'lganini va (gapning shu yeriga kelganda Reddlning ko'zi yarqirab ketdi) buyuk, mashhur va barmo yigitcha Garri Potter unga oz bo'lsa ham e'tibor ajratishiga umid qilmasligini kundaligimga to'kib sochdi...

Reddl gapirar ekan, qandaydir ochlik ifoda etgan nigohini Garridan uzmay turdi.

– O'n bir yoshli qizaloqning ahmoqona, arziyas muammolari bilan yashash juda zerikarli kechdi, – davom etdi Reddl. – Lekin men sabr-toqatli bo'ldim. U bilan gaplashdim, mehr ko'rsatdim, hamdardlik-la javob yozib boraver-

dim. Jinna meni yoqtirib qoldi. «Meni hech kim senchalik tushunmaydi, Tom... Sir-asrorlarim bilan o'rtoqlashadigan shunday kundaligim borligidan juda xursandman... Kissadagi do'stga ega bo'lishdek gap, bu» – der edi u.

Reddl xandon oldi. Qahqahasi sovuq, shafqatsiz eshitilib, yoshiga yarashmadi. Juda tanish qahqahani eshitgan Garrining sochi tikka bo'ldi.

– Kishi o'zi haqida shunday fikr bildirishi joiz bo'lsa, Garri, o'zinga kerak bo'lgan odamlarni mahliyo etishga hamisha muvaffaq bo'lib kelganman. Mana Jinna ham o'z yuragiga yo'l ochib berdi. Uning qalbi esa menga kerakli narsa bo'lib chiqdi... Qizaloqning sirli tashvishlari va hammadan sir tutgan fikr-mulohazalari bilan oziqlanar ekanman, menga kuch kira boshladi. Jajji miss Uesliga nisbatan yanada qudratli, hukmimni o'tkaza oladigan bo'lib, kuchga kira boshladim. Shu qadar kuchli bo'ldim-ki, sirlarimning ma'lum qismini Jinnaga ochib, ruhimni uning ruhiga o'tkaza bordim...

– Nimani nazarda tutyapsan? – so'radi tomog'i qurib qolgan Garri.

– Tushunib yetmadingmi hali, Potter? – tilyog'malikka so'radi Reddl, – Maxfiy xonani Jinna Uesli ochdi. Maktab xo'rozlarini bo'g'ib o'ldirgan, devorga tahdidli yozuv yozgan ham shu qizaloq bo'ladi. Magllar orasidan chiqqan to'rt nafar sehrgar va anavi shvaxning mushugiga Slizerinning ilonini solgan ham Jinna bo'ladi.

– Yolg'on, – pichirladi Garri.

– Yolg'on emas, rost, – loqayd ohangda e'tiroz bildirdi Reddl. – Tabiiyki, shuncha ishlarni aynan o'zi qilganini dastlab u tasavvur ham qilmagan. Bu ish juda maroqli kechar ekan. Ming afsuski, kundalikka yozgan iqrorlarini o'qiy olmaysan... Yozuvlari borgan sari qiziqarli bo'lib boraverdi.

Reddl Garrining yuzidagi o'zgarishlarni kuzatar ekan,

Jinnaning kundalikka kiritgan yozuvlaridan iqtibos keltirdi:

– «Qadrli Tom, nazarimda, xotiramni yo‘qotib bora-yotgandayman. Maktab kiyimimga xo‘roz pati qayerdan ilashib qolganini tasavvur eta olmayapman... Qadrli Tom Xellouin bayrami oqshomida nima bilan mashg‘ul bo‘lganimni eslay olmayapman. O‘sha kecha maktab mushuklaridan biriga tajovuz uyushtirilgan, kiyimning old tomoni esa bo‘yoqqa bulg‘anibdi... Qadrli Tom, akam Persi yuzimdan qon qochgani, o‘zimga o‘zim o‘xshamay qolayotganimni aytib, holi-jonimga qo‘ymayapti... Bugun yana bir tajovuz sodir etildi. O‘sha paytda qayerda bo‘lganimni buz eslay olmayapman. Tom, ayt, men nima qilay? Nazarimda, aqldan ozayotgandayman... Xuddi hammaga o‘zim tajovuz qilayotganday bo‘lyapman, Tom!»

Garri mushtini qattiq siqib olganidan tirnog‘i kaftiga botdi.

Tentakcha Jinna! O‘z kundaligiga ishonmay qo‘yishi uchun ko‘p vaqt kerak bo‘ldi, – davom etdi Reddl. – Niho-yat u kundalikdan shubhalanib, undan xalos bo‘lishga urindi. Ana shu paytga kelib, o‘yin sahnasida sen paydo bo‘lding, Garri. Kundalikni aynan sen topib olganingdan cheksiz quvondim. Axir, kundalikni har qanday boshqa odam topib olishi mumkin edi-ku. Baxtli tasodifni qarangki, kundalikni aynan men uchrashishim kerak bo‘lgan odam topdi...

– Nima uchun men bilan uchrashishing kerak edi?

Nafrat to‘lqinlari uning vujudini shunday qamrab olgan ediki, ovozi vazmin chiqishi uchun ancha kuch sarf etishiga to‘g‘ri keldi.

– Agar bilmoqchi bo‘lsang, Jinna sen haqingda deyarli bor gapni aytib berdi, – javob berdi Reddl, yanada ochqagan nigohini Garrining peshanasidagi chandiqa tikib. O‘zing bilan gaplashish, imkon bo‘lsa uchrashish kerakligini tushundim. Shu bois ishonchingni qozonish maqsadida senga

anavi randalanmay qolib ketgan yog'ochga o'xshaydigan kaltafahm Xagrid qo'lga olingan kunni ko'rsatishga ahd qildim...

– Xagrid mening do'stim bo'ladi, – dedi Garri titragan ovozda. – Sen uning ustidan chaqimchilik qilgansan, shundaymi? Seni yanglishgan deb yurgan edim, sen esa...

Reddl yana sovuq xandon otdi.

– Armando Dippetning nuqtai nazaridan kelib chiqadigan bo'lsak, mening ko'rsatmalarimga qarshi Xagridning ko'rsatmalari nima bo'lganini o'zing tasavvur qilib ko'rishing mumkin. Bir tomonda, Tom Reddl faqir, ammo iste'dodli, yetim, biroq mard bola, maktab sinfboshisi, eng ibratli o'quvchi... Ikkinchi tomonda, har xil noxushliklar manbai bo'linish dag'al Xagrid. U ahmoq yostig'i ostida har xil maxluqlarning bolalarini boqadimi-yey, «Taqiqlangan o'rmon»ga kirib trolar bilan mushtlashib chiqadimi-yey... Ni-ma qilganda ham mening rejam kor berganiga o'zim hayron qoldim. Anavi tentak Xagrid Slizerinning vorisi bo'lishi mumkin emasligiga biron-bir kishining aqli yetib qoladi deb o'ylagan edim. Maxfiy xona va unga olib kiradigan yashirin yo'l haqidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun menga besh yil kerak bo'ldi... Xagridning bunga aqli-yu, kuchi yetarmidi! Bir narsani boshqa narsaga aylantirish fani o'qituvchisi Dambldorgina Xagridning aybsizligiga ishon-di. U Xagridni maktabda qoldirib, qorovullik vazifasini topshirishga Dippetni ko'ndira bildi. O'ylaymanki, Dambldor bor gapning fahmiga yetgan. Barcha o'qituvchilar meni juda yoqtirsa, Dambldor meni xush ko'rmas edi...

– Ont ichib aytamanki, Dambldor ko'zingga qarab orqangni ko'rgan, – dedi Garri vishillab.

– To'ppa-to'g'ri, – dedi Reddl, Garrining ohangiga parvo ham qilmay. – Xagrid maktab o'quvchilari ro'yxatidan chetlashtirilgan kundan e'tiboran Dambldor meni sinch-

XVII BOB. Slizerinning vorisi

kovlik-la kuzata boshladi. Maktabda tahsil ko'rar ekanman. Maxfiy xonani takror ochishim men uchun xavfli ekanini bilar edim. Biroq uni izlab topishga sarf etgan vaqtimni izsiz, behuda yo'qotishni istamadim. O'zimdani keyin mening o'n olti yoshlik davrimni o'z sahifalarida saqlaydigan, omad yurishgan kunlardan birida Salazar Slizerin boshlagan olijanob ishini nihoyasiga yetkazish uchun boshqa birovni mening izimdani yetaklaydigan kundalik qoldirishga ahd qildim.

– Va sen bunga muvaffaq bo'la olmading! – qichqirdi Garri muzaffariyat ohangida. – Bu safar hech kim, hatto mushuk ham o'lmadi! Bir necha soatdan so'ng Mandragora darmon-dorisi tayyor bo'ladi va dong qotganlarning hammasi qayta jonlanadi...

– Iye, maglvachchalarni o'ldirish endi menga qiziq emasligini hali aytmadimmi senga? – so'radi Reddl ravon ohangda. – Ko'p oylardan buyon men uchun yagona nishon sen bo'lib qolgansan!

Boz hech narsani tushunmagan Garri Reddlga baqrayib qoldi.

– Kundaligimni sendan keyin yana Jinna ochganini ko'rib qanchalik jahlim chiqqanini faraz qilyapsanmi?! Seni kundalik bilan ko'rgan va agar sen ushbu kundalikdan foydalanish yo'lini bilib olsang-u, uning sirlarini senga oshkor qilib qo'yishimni, boz ustiga, xo'rozlarni kim bo'g'ib o'ldirayotganini senga aytib bersam nima bo'lishini o'ylagan Jinna sarosimaga tushib qoldi. Tentak qizcha vaqt poylab, yotog'ingga kirdi-da, kundalikni o'g'irlab chiqdi. Nima qilish kerakligini tushundim. Slizerin vorisining iziga tushganing menga ayon bo'ldi. Jinnaning sen haqingda aytgan gapidan shuni tushundimki, sen, Maxfiy xona sirini fosh etish uchun, ayniqsa, yaqin do'stlaringdan biriga tajovuz uyushtirilsa, hech narsadan tap tortmaysan. Bundan tashqari, serpentargo tilida so'zlasha bilishingni butun maktab

XVII BOB. Slizerinning vorisi

muhokama qilayotganini Jinna menga aytgan edi... Shundan so'ng bechora Jinnani devorga o'zi haqida yozuv qoldirishga majbur qildim-da, uni bu yerga yetaklab kirib, yashirinib oldim. U qarshilik ko'rsatdi, yig'ladi va o'lguday jonimga tegdi. Biroq bu vaqtga kelib, uning vujudidagi hayot alomati deyarli tugab bitgan edi... U kundalikka, ya'ni menga, uning sahifalarini tark etib chiqishim uchun yetarli bo'lgan haddan ortiq kuch sarf etdi. Jinna meni shu yerga olib kelgan fursatdan buyon kelishingni kutib o'tiribman. Umidimni puchga chiqarmading. Bir talay savollarim bor senga, Garri Potter.

– Masalan? – tupurib yuborganday so'radi Garri, hamon qo'lini musht qilib.

– Masalan, – cho'zib gapirdi Reddl muloyim tabassum qilib, – qanday qilib sen, biron-bir favqulodda sehrgarlik qobiliyatiga ega bo'lmagan oddiygina go'dak bo'la turib, barcha zamonlarning eng buyuk sehrgari ustidan g'alaba qozona olding? Lord Voldemortning sehr kuchi barham topgan bo'lsa-yu, qanday qilib sen atigi bittagina chandiq bilan qutulib, omon qolding?

Reddlning och ko'zida xira qizg'ish olov ko'rindi.

– Senga nima farqi bor? – shoshilmay so'radi Garri. – Voldemort sendan keyin paydo bo'lgan.

Reddl past, ammo aniq ovozda ta'kidladi:

– Voldemort – mening o'tmishim, bugungi kunim va kelajagim bo'ladi, Garri Potter...

U cho'ntagidan Garrining sehrli tayoqchasini chiqardi-da, havoda yarqirab ko'ringan so'zlarni yozdi:

TOM MERVOLON REDDL

Shundan so'ng u tayoqchani asta siltagan ediki, ismini tashkil etgan harflar aralashib, boshqacha tartibda terildi:



MEN LORD VOLDEMORT

– Tushundingmi? – pichirladi u. – Bu ismni o'zinga o'zim hali «Xogvars»da o'qib yurgan kezlarimda qo'yganman. Uni faqat eng yaqin do'stlarim bilishar edi, xolos. Seningcha, maraz otamning mag'icha ismi bilan umrbod qanoatlanib yurishga rozi bo'lishim kerak edimi? Men-a, tomirida ona urug'i tomonidan kimsan Salazar Slizerinning qoni oqayotgan sehrgar-a? Hali dunyoga kelmasimdan oldin, xotini afsungar ekanidan xabar topgani uchungina otam mendan yuz o'g'irgan. Shu darajadagi iflos mag'lning oddiy bir ismini saqlab qolishim kerakmidi? Yo'q, Garri, men o'zinga yangi ism berdim. Shunday ism berdimki, vaqti kelib, uni hatto boshqa sehrgarlar ham talaffuz etishga jur'at eta olishmasin, o'zim esa jahonning eng buyuk afsungari bo'lib yetishay! Bunga erishishimga esa o'sha davrlarning o'zida ishonchim komil bo'lgan.

Garrining miyasida hamma narsa chalkashib ketdi. U qachonlardir yetim o'sib, ulg'aygach. Garrining ota-onasi va ko'plab boshqa odamlarni o'ldirgan Reddlga baqrayib qoldi... Nihoyat u o'zini gapirishga majbur qildi.

– Yo'q. Sen – yo'q, – dedi u nafratga to'lgan, qat'iy ovozda.

– Nima yo'q? – o'kirdi Reddl.

– Jahonning eng buyuk afsungari sen emassan, – fikrini tushuntirdi Garri, nafasi tezlashib. – Hafsalangni pir qilishga to'g'ri keladi. Jahonning eng buyuk sehrgari Albus Dambldor bo'ladi. Buni hamma e'tirof etgan. Kuch-qudratga to'lgan kezlariningda ham «Xogvars»ni ishg'ol etishga jur'at eta olmagansan. Bu yerda tahsil ko'rar ekansan. Dambldorning nigohi sendan parron o'tib turgan. Hatto hozir ham qayerda yashirib yurmagin, undan o'larcha qo'rqasan...

Reddlning yuzidagi kulgi barham topib, noxush qiyofa

kasb etdi.

– Damblorning bu yerdan badarg'a qilinishi uchun men haqimdagi xotiraning o'zi kifoya bo'ldi! – vishilladi u.

– To'g'ri, badarg'a qilindi, lekin sen o'ylagancha uzoqqa emas! – gapni aylantirdi Garri.

Garri ushbu gapni Reddlni qo'rqitish maqsadida tavakkaliga, gapi rost ekaniga ishonganidan emas, balki shuni istaganidan aytdi.

Reddl qarshi fikr bildirish uchun og'iz juftlagan ediki, shu zahoti unini o'chirdi.

Qayerdandir musiqa ovozi yangradi. Reddi keskin o'g'irilib, xona bo'shlig'iga tikilib qaradi. Musiqa tovushi kuchayib bordi. Qandaydir mayin, ilohiy eshitilgan ohangdan Garrining badani seskanib, tepa sochi tikka bo'ldi. Yuragi kengayib, ikki chandon yiriklashib ketganday go'yo. Tovush misli ko'rilmagan darajada, xuddi ko'krak qafasi ichida titrayotganday balandlashgach, yaqin oradagi ustun uchidan alanga otildi.

Daf'atan gumbazsimon shift ostida oxirat kuyini hafsa-la ila chiqarayotgan, tovuş dumiga o'xshash uzun tillarang dumi tovlanayotgan, tanasi esa alvonrang kasb etib, kattaligi oqqushday keladigan qush paydo bo'ldi. U o'zining yaltirab ko'ringan tilla panjasiga allaqanday juldur tugunchani siqib olgan.

Qush to'g'ri Garriga qarab uchdi va panjasidagi tugunni oyog'i ostiga tashlab, o'zi bolaning yelkasiga qo'ndi-da, yirik qanotini yig'ib oldi. Garri boshini ko'tarib, qushning uzun o'tkir tumshug'i va yumaloq qora ko'zini ko'rdi.

Qush kuy chiqarishni bas qilib, Garrining yuzini isitgancha, Reddiga tik qarab, tek turib qoldi.

– Qaqnus-ku... – dedi hech narsani tushunmagan Reddl, qushga diqqat-la nazar solib.

– Yangus? – dedi, chuqur nafas chiqargan Garri.

XVII BOB. Slizerinning vorisi

Qush tilla panjasi bilan Garrining yelkasini do'stona siqib qo'ydi.

– Mana bu esa... – gapini davom etdi Reddl, polda yotgan juldur buyumni ko'zdan kechirib chiqib, – Maktabning qadimiy taqsimlovchi Shlapasi...

Chindan ham bu haddan tashqari kir, a'zoyi-badani yarmoq bo'lib, rosa eskirib ketgan cho'qqidor shlapa bo'lib. Garrining oyog'i ostida harakatsiz yotibdi.

Reddl yana xandon otdi. U shu qadar berilib kuldiki, nim qorong'i zalning devori xuddi bir emas o'n nafar Reddl kulayotganday titradi.

– Dambldor o'z himoyachisiga yuborgan narsasi shu bo'ldimi?! Sayroqi qush-u, eski shlapa! Xo'sh, Garri, o'zingni yanada mardroq va xavfsizroq his eta boshladingmi?

Garri Reddlning kinoyasiga javob qaytarmadi. U Yangus yoki taqsimlovchi Shlapa qanday yordam berishi mumkinligini hozircha tushunmay turibdi-ya, har qalay yolg'iz emasligini fahmladi. O'z kuchiga ishonch hosil qilganча, Reddlning kulgidan to'xtashini kutdi.

– Mavzuga qaytamiz, Garri, – dedi nihoyat Reddl, irshayishni qo'ymay. – Ikkalamiz ikki marta, ya'ni sening o'tmishing va mening kelajagimda uchrashganmiz. Va har ikki safar ham men seni o'ldirishga muvaffaq bo'la olmadim. Menga ayt-chi, qanday qilib omon qolasan? Gapiraver, qancha uzoq gapirsang, shuncha uzoq yashaysan.

Garri o'z imkoniyatlarini tez chamalab ko'rdi. Reddlning qo'lida sehrli tayoqча bo'lsa, o'zining ixtiyorida Yangus bilan taqsimlovchi Shlapa bor. Biroq unisi ham bunisi ham duelga yaramaydi. Ish pachava... Reddl bu yerda qancha ko'p tursa, Jinnaning vujudidagi hayot alomatları shuncha ko'p barham topadi... Reddl tobora aniqroq ko'rinib, o'z tanasiga ega bo'lib bormoqda. Modomiki, jangovar to'qnashuv muqarrar ekan, qancha tez boshlashsa, shuncha yaxshi.

– Meni o'ldirmoqchi bo'lganingda nima uchun o'z sehr-jodungdan mahrum bo'lganingni hech kim bilmaydi. – qisqa qildi Garri. – O'zini ham bilmayman. Lekin nima uchun meni o'ldira olmaganingni yaxshi bilaman. Chunki mening oddiy, magllar orasidan chiqqan afsungar oyim, – alohida urg'u berib o'tdi u, nafratdan titrab. – O'z hayotini men uchun qurbon qilgan. U meni o'ldirishingga yo'l qo'ymagan. O'tgan yili esa haqiqiy ahvolingni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Sen hech narsaga yaramaydigan chalajon majruh-san. Qudratli sehring o'zingni ayanchli holatga keltirib qo'ygan bo'lib, yashirinib yurishga majbur bo'lib qolgansan. Sen badbashara, jirkanch, inson hazar qiladigan bir jon-zodsan...

Reddning yuzi tirishib, o'zini mudhish tarzda kulishga majbur qildi.

– Shunaqa degin? Onang o'z hayotini sen uchun qurbon qilibdi-da. To'g'ri, bu chindan ham afsunga qarshi kuchli afsun. Endi tushunarli... Oxir-pirovardida tabiat-ing-da qandaydir favqulodda qobiliyat yo'qligi ayon bo'ldi-yu. har qalay. Bilasanmi, bir narsani hech tushuna olmayotgan edim: ikkalamizning o'rtamizda juda g'alati umumiylik bor. Buni o'zing ham fahmlagan bo'lsang kerak... Ikkalamiz ham chala zot sehrgarmiz, yetim o'sganmiz, magllar qo'lida ulg'ayganmiz. Ikkalamiz ham «Xogvars»da, buyuk Slizerindan so'ng bo'lsa kerak, ilonzabonmiz. Hatto tashqi qiyofamizda ham qandaydir o'xshashlik mavjud. Biroq hozir aniqlanishicha, sen bir baxtli tasodif tufayligina mendan qutulib qolgan ekansan. Men bilmoqchi bo'lgan narsa shu edi, xolos.

Garri Reddning tayoqcha siltashini kutib ich-ichdan g'ujanak bo'lib oldi. Ayni paytda Reddning yuzidagi murdor tabassum yanada kengaydi.

– Quloq sol, Garri. Senga bir saboq bermoqchiman.

XVII BOB. Slizerinning vorisi

Kel kuch sinashib ko'ramiz: Damblдор tomonidan qo'ldan kelgancha qurollantirilgan mashhur Garri Potterga qarshi Slizerinning Vorisi Lord Voldemort chiqadi...

U Yangus bilan taqsimlovchi Shlapaga hazar qilganday ko'z tashlab, nari ketdi. Qo'rquv hissi oyog'ini falaj qilib, butun badaniga tez tarqalayotganini sezayotgan Garri xuddi avralgan kabi Reddning harakatini kuzatgancha qoldi. Redd baland ustunlar o'rtasida to'xtab, boshini nim qorong'ilikka kirib ketgan Slizerinning tosh yuziga qaratdi va og'zini katta ochib, serpentargo tilida vishillay boshladi.

– Xogvars to'rtligi ichra eng buyuk sehrgar Slizerin, suhbatingni mendan darig' tutma...

Garri ham haykalga yuzlanish uchun tovonida turib aylandi. Yelkasida o'tirgan Yangus tebrandi.

Slizerinning bahaybat tosh yuzi harakatlana boshladi. Vujudini dahshat qamragan Garri haykalning ulkan og'zi tobora katta ochilib, yirik g'or og'ziga aylanib qolganini ko'rdi.

Hosil bo'lgan g'or ichida nimadir qimirlab, tashqariga chiqdi.

Garri beixtiyor orqaga tisarilib, xona devoriga urilib ketguncha chekindi-da, ko'zini chirt yumdi. Uning yelkasida o'tirgan Yangus qanoti bilan bolaning yuziga tegib havoga ko'tarildi. Garri «Meni tashlab ketma!» deb qichqirmoqchi bo'ldi-yu, oddiy bir qaqnus ilonlar qiroliga qarshi hech nima qila olmasligini o'ylab, fikridan qaytdi.

Xona poliga qandaydir g'ayritabiiy narsa gupillab tushdi. Ko'zi yumuq holatda turgan Garri nima bo'layotganini biladi. Uning tasavvurida Slizerin haykalining og'zidan o'zining mudhish tanasini sudrab chiqqan ilon gavdalandi. Sal o'tib Reddning vishillagani eshitildi:

– O'ldir uni.

Vasilisk Garriga tobora yaqin kelmoqda. Bola ilonning

XVII BOB. Slizerinning vorisi

og'ir tanasi polda sudralib kelayotganini eshitdi. Ko'zini ochmagan Garri yo'lni paypaslab borish uchun qo'lini tarvaqaylagancha harakat qilishga urindi. Manzarani tomosha qilayotgan Reddl miriqib qahqahladi.

Garri qoqilib, polga yiqildi va og'zida qon ta'mini his etib, atigi bir fut naridagi ilonning yaqinlashib kelayotganini eshitdi...

Yuqorida o'ng tomonda allaqanday tovush yangrab, qandaydir og'ir narsa Garrini turtgancha, devorga taqadi. Endi uning tanasiga zaharli tish sanchilishi kerak. Bola aql-dan ozdirib yuborgudek vishillashlar-u, ustunlarga nimadir qattiq urilayotganini eshitib yotibdi...

U atrofda nima bo'layotganini ko'rish uchun ilojsiz ko'zini ochdi.

Garri teskari qarab olgan bahaybat to'q yashilrangli ilon yirik eman daraxtiday keladigan yo'g'on tanasini baland ko'targan bo'lib, xunuk boshini ustunlar orasida siltayotganini ko'rdi. A'zoyi-badani titrayotgan Garri ilon o'g'irilishi bilan ko'zini chirt yumib olishga shay turibdi. Shunda Garri ilonni nima chalgitganini fahmlab qoldi.

Qaqnus ilon boshining atrofida aylanar, Vasilisk esa qilichday ingichka va o'tkir tishini yalang'ochlab qushga hamla qilar edi...

Yangus pastga sho'ng'idi. Uning uzun tillarang tumshug'i bir fursat ko'rinmay qoldi. Daf'atan xona poliga qopqora qon favvorasi sachradi. Ilonning nihoyatda baquvvat dumi tipirchilab, Garrini turtib yuborishiga bir baxya qoldi. U boshini shu qadar tez o'girdiki, Garri ko'zini yumib olishiga ulgurmay, Vasilisk bilan yuzma-yuz kelib qoldi. Ilonning ikkala ko'zini qaqnus cho'qib, o'yib tashlabdi. Ko'z chanoqlaridan qon sizib, polga sachrayotgan ilon jon talashmoqda.

Garrining qulog'iga Reddlning o'kirishi eshitildi.

XVII BOB. Slizerinning vorisi

– YO‘Q! QUSHNI TEK QO‘Y! TEK QO‘Y
QUSHNI! BOLA ORQANGDA! UNI ISKAB QIDIR!
BOLANI O‘LDIR!

So‘qir bo‘lib qolib, miyasi gangigan, biroq zahri saqlangan ilon tebrandi. G‘amgin kuyini qo‘ymagan qaqnus esa atrofda uchib yurib, ilonni chalg‘itar, onda-sonda pastga sho‘ng‘ib, Vasiliskning qonga to‘lgan burnini cho‘qir edi.

– Yordam bering, yordam bering, – aqldan ozganday g‘udrandi Garri, – Kim bor...

Ilonning dumini polga yana qarsillab urildi. Egilib olgan Garrining yuziga qandaydir yumshoq narsa kelib urildi. Dumini tipirchilatgan Vasilisk tasodifan bolaning qo‘liga sara-lovchi Shlapani uloqtirib yuboribdi. Garri shlapani qo‘liga oldi. Bu uning so‘nggi imkoniyati. U shlapani boshiga kiyib, o‘zini polga tashladi. Shu payt Vasilisk dumini boz tipirchilatdi.

– Yordam bering, yordam bering, – o‘yladi shlapa kiygan Garri, ko‘zini mahkam qisib, – Yordam bering, yordam bering...

Javob eshitilmadi. Ammo shlapa xuddi baquvvat qo‘l ushlab olganday Garrining boshini siqdi.

Bolaning boshiga allaqanday qattiq va og‘ir narsa kelib urildi. Zarba kuchidan Garrining ko‘zidan o‘t chiqib ketib, hushini yo‘qotib qo‘yishiga sal qoldi. U shlapani yechish uchun cho‘qqisidan ushlab tortmoqchi bo‘ldi-yu, ichida allaqanday uzun, qattiq narsa borligini his etdi.

Shlapa ichida dastasi tovuq tuxumiday keladigan yoqutlar bilan bezalgan kumush qilich miltillab ko‘rindi.

– BOLANI O‘LDIR! QUSHNI TEK QO‘Y! BOLA
ORQANGDA! HIDLA, TOPASAN!

Garri oyoqqa turib, hamlaga shaylandi. Qurbonini qidirishga kirishgan Vasiliskning boshi polga egilib, tanasi ustunlarga urilgancha to‘lg‘andi. Garri ilonning qonga belan-

gan yirik ko'z chanoqlari-yu, o'zi butunicha kirib ketadigan darajada katta ochilgan og'zini ko'rib turibdi. Ilonning og'zida ingichka, qilichday o'tkir, namligidan yaltirab ko'rinatgan, zaharli tishlar ikki qator o'sib chiqqan...

So'qir ilon Garri tomon tashlandi. Bola chap bergach, ilon devorga borib urildi. Battar gangigan maxluq boz hamla qilib, uning ayri tili Garrining yon tomoniga tegib o'tdi. Bola qilichini ikki qo'llab ko'tardi...

Vasilisk yana tashlandi va bu galgi hamla o'zini oqladi. Garri bor vujudi ila qilichga zo'r berib, uni ilonning tanglayiga suqib yubordi...

Ilonning iliq qoni qo'lga oqib tushar ekan, Garri tirsakdan biroz yuqori sohada jizillagan og'riq sezdi. Ajal keltiradigan tishlardan biri bolaning qo'lga chuqurroq sanchilib borib, ilon tipirchilagancha yon boshiga ag'anagach, sindi.

Garri devorga suyanib, pastga sirpandi va tanasiga zahar tarqatayotgan tishni mahkam ushlab, qo'lidan sug'urib chiqardi. Bola kechikkanini tushunib turibdi. Ko'z oldini oqartirib yuborayotgan g'oyat qattiq og'riq asta-sekin tana bo'ylab tarqalmoqda. U tishni chetga uloqtirib, kiyimi qonga belanayotganini ko'rdi. Xona uning ko'z o'ngida go'yo gir aylangancha, erib bormoqda.

Sal o'tib yonidan alvon dog' o'tganday bo'ldi. Garri yoniga qo'ngan qushning panjasi polga urilganini eshitdi.

– Yangus, – g'udrandi Garri, – barakalla, sen zo'r jang qilding, Yangus...

Qagnus o'zining chiroyli boshini ilonning tishi sanchilgan joyga qo'yganini bola sezib turibdi.

Aks-sado berib eshitilgan qadam tovushi eshitildi.

– Tamom bo'lding, Garri Potter, – dedi yuqoridan eshitilgan Reddning ovozi. – Kuning bitdi. Buni hatto Damblorning qushi ham sezib turibdi. Ko'ryapsanmi, u nima qi-

layotganini, Potter? Qara, qush yig'layapti.

Garri ko'zini pipiratdi. Yangusning boshi bolaning ko'ziga dam aniq ko'rinib, dam yana xiralashib qolmoqda. Qaqnusning injudek yirik ko'z yoshi yuzidagi yaltirayotgan patidan oqib tushmoqda.

– Men shu yerda o'tirib, o'layotganingni tomosha qilaman, Garri Potter. Shoshilma, vaqtim bisyor.

Garrining boshi aylandi. Uning atrofidagi buyumlar ham gir aylanayotganday go'yo.

– Shunday qilib, mashhur Garri Potter mana shu tarzda ayanchli o'lim topdi, – uzoqdan eshitildi Reddlning masxaraomuz ovozi, – Maxfiy xonada, barcha do'stlari tomonidan unutilib yuborilgan, ketini o'ylamay o'zi qarshi chiqqan Yovuz Lord tomonidan nihoyat mag'lub qilingan tarzda yolg'iz o'zi o'ldi-ketdi. Sen tez orada qadrlı maglvachcha onang bilan uchrashasan, Garri... u senga atigi o'n ikki yillik umr xarid qilib beribdi... Lord Voldemort bari bir yostig'ingni quritdi. Axir, qachonlardir shunday bo'lishi keraktigini o'zing ham bilar eding-ku, to'g'rimi...

Agar ajal shunday topiladigan bo'lsa, unchalik qo'r-qinchli emas ekan, o'yladi Garri. Hatto jon ham og'rimas ekan-a...

Ajalmi o'zi bu? Zulmat ichra yo'q bo'lib ketish o'rniga Maxfiy xona boz aniq ko'rinmoqda-yu. Garri boshini asta siltab, yarador qo'lga hanuzgacha bosh qo'yib turgan Yangusni ko'rdi. Ko'z yoshining yiltirayotgan injulari jarohat joyini qamrab olgan. Ammo... yaraning o'zi yo'q...

– Qoch bu yerdan, hoy qush, – kutilmaganda baqirib qoldi Reddl. – Qoch. Nima dedim senga, qoch...

Garri boshini ko'tarib, Reddlning qo'lidagi qaqnusga o'qtalغان sehrli tayoqchani ko'rdi. O'q ovozi yangragach, tilla va alvon ranglarga burkangan Yangus yuqoriga ko'tarildi.

XVII BOB. Slizerinning vorisi

– Qaqnusning ko‘z yoshi... – dedi Garrining qo‘liga tikilib qolgan Reddl vazmin ohangda. – Ha-ya, albatta-da... shifobaxsh kuch., xayolimga kelmabdi-yu...

U nigohini bolaning yuziga olib o‘tdi.

– Chindan ham farqi nima. Faqat sen va men, Garri Potter. Shunday bo‘lgani yaxshi. Sen va men. Yakkama-yakka...

U qo‘lidagi tayoqchani ko‘tardi...

Birdan, qanoti qattiq shitirlagan Yangus boz paydo bo‘lib, Garrining qo‘liga Reddlning kundaligini tashladi.

Garri ham tayoqcha ko‘targancha tek qolgan Reddl ham bir necha soniya davomida kundalikdan ko‘z uza olishmadi. Shundan so‘ng Garri, ko‘p o‘ylab o‘tirmay, go‘yo bu yerga kelgandan buyon aynan shu ishni qilmoqchi bo‘lganday, Vasiliskning singan tishini tez oldi-da, kundalikning naq miyonasiga sanchidi.

Maxfiy xonada uzoq davom etgan, mudhish va g‘oyat kuchli ayyuhannos yangradi. Daftari ichidan siyoh oqimi otilib chiqib, Garrining qo‘lini bulg‘agancha, polga oqdi. Joni og‘rigan Reddl to‘lg‘anib, tirishib tipirchilab, uvillab, ingradi va...

Nihoyat u ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Garrining sehrli tayoqchasi taqillagancha polga tushdi va Maxfiy xonaga, agar kundalikdan sizib chiqayotgan siyoh tomchilarining tovu-shi inobatga olinmasa, chuqur sukunat cho‘kdi. Vasilisk zahri yon daftarchani parron teshib, teshik chetini cho‘g‘ tushganday kuydirdi.

A‘zoyi-badani titrab qaqshagan Garri bazo‘r oyoqqa turdi. Boshi xuddi sayohat uni vositasida ko‘p milya uchganday aylandi. Polda yotgan sehrli tayoqchasi va sara-lovchi Shlapani asta qo‘liga oldi. Bor kuchini yig‘ib, Vasiliskning og‘ziga sanchilgan qilichni sug‘urib chiqardi.

Shu fursatda zalning narigi tomonidan ingragan ovoz

eshitildi. Polda yotgan Jinna asta harakatlanib, yotgan joyiga o'tirdi. Buni ko'rgan Garri qizaloq tomon oshiqdi. Hech narsani idrok eta olmayotgan Jinna bahaybat Vasiliskning jasad, kiyimi qonga belangan Garri va uning qo'lidagi kundalikka baqrayib, sal o'tgach, uvvos solib yig'lay boshladi.

– Garri, – dedi ko'z yoshini to'xtata olmagan Jinna. – Oh, Garri. Bugun nonushta vaqtida Ron ikkalangizga bor gapni aytmqochi edim-u, Persining oldida gapira olmadim. Men-men qilganman bu ishlarni. Lekin ont ichib aytaman ki, o'z xohishim bilan qilmadim. Meni ReddI majbur qildi. U mening vujudimga kirib oldi. Anavi maxluqni qanday qilib o'ldirding? ReddI qani? Xotiramda qolgan so'nggi narsa, uning kundalik ichidan chiqib kelishi bo'ldi...

– Tinchlan, Jinna, – dedi Garri, kundalikdagi cheti kuygan teshikni ko'rsatib, – ReddIning kuni bitdi. Mana qara! ReddI ham Vasilisk ham yo'q endi. Tur, Jinna, ketdik. Biz bu yerdan bir iloj qilib chiqib olishimiz kerak hali...

– Meni maktabdan quvib solishadi! – ho'ngradi Jinna, Garrining o'ng'aysiz yordami ila oyoqqa turib, – Bill maktabga borgan yildan buyon «Xogvars»da o'qishni orzu qilar edim. Ana endi uyga qaytishimga to'g'ri keladi. Oyim bilan dadam nima deyishadi endi?

Ularni kutayotgan Yangus chiqish yo'lagida uchib yuribdi. Garri Jinnani ortidan turtib bordi. Ikkalasi mudhish ilonning jonsiz halqalaridan harlab o'tib, aks-sadolar eshitilgan zulmat orqali tunnelga kirishdi. Garri orqada qolgan tosh devor vishillaganicha, asta yopilganini eshitdi.

Tunnel bo'ylab besh daqiqa yuqoriga ko'tarilgach, uzoqdan siljitilayotgan toshlarning bo'g'iq tovushi eshitildi.

– Ron! – qichqirdi Garri, – Jinna sog'-salomat! U men bilan!

Qiziqarliq qashqirg eshitildi. Tunnelning harbiatligi

muyulishiga o'tilgach, kattagina ochilgan tuynuk orqali Ronning baxtiyor yuzi ko'rindi.

– Jinna! – xitob qildi Ron, dastlab singlisini o'tkazish uchun qo'l uzatib. – Xayriyat, tirik ekansan! Qanday baxt! Nima bo'ldi? Iye, mana bu qanaqa qush, qayerdan paydo bo'ldi u?

– Bu Dambldorning qaquusi, – javob berdi tuynukdan oxirgi bo'lib o'tayotgan Garri.

– Iye, mana bu qilichni qayerdan olding? – so'radi hech narsani tushunmay qudratli qurolga baqrayib qolgan Ron.

– Chiqib olaylik, hammasini aytib beraman, – dedi Garri hanuzgacha yig'layotgan Jinnaga ko'z qirini tashlab.

– Ammo...

– Keyin dedim-ku, – gapni kesdi Garri.

Garri Maxfiy xonani kim ochganini Ron hozircha bilmagani ma'qul deb topdi. Umuman aytganda, u Jinnaning yonida bu haqda gapirish yaxshi emas degan fikrga bordi.

– Charuald qani?

– Orqada, – dedi hech narsani tushunmayotgan Ron, boshi bilan quvur tomon imo qilib. – Ahvoli chatoq uning. Yur o'zing ko'rasan.

Uchalasi alvon qanoti tilla tusli yorug'lik chiqarib, qorong'ilikni xira yoritib borayotgan Yangusning izidan yurib, quvur tomon yo'l olishdi. Quvur og'zida nimalarnidir ming'irlab o'tirgan Sverkarol Charuald o'tiribdi.

– Xotirasi batamom o'chgan, – tushuntirish berdi Ron. – Bizni chetlab o'tgan Unuttirish afsuni toshdan sapchib o'ziga kelib urildi. O'zi kimligi, qayerga kirib qolgani, biz kim ekanimizni tasavvur ham qila olmayapti. Shu yerda qilt etmay o'tirishni buyurdim. Hozir u o'zi uchun xavfli holatga kelib qolgan.

Charuald yaqin kelgan bolalarga muloyimi qaradi.

Salam, – dedi u. – Yaxshi mis ekansan, o' singlisiz oling...

da yashaysizmi?

– Yo‘q, – javob berdi Ron, qoshini ko‘targancha, Garri ga yuzlanib.

Garri uzun, qop-qorong‘i quvur ichiga engashib qaradi.

– Mabodo sen yuqoriga ko‘tarilish usulini o‘ylab topganing yo‘qmi? – so‘radi Rondon.

Ron bosh chayqadi. Shu payt Yangus oldinga o‘tib, Garrining qarshisida, yumaloq ko‘zini quvur ichida yaraq-latgancha, qanotini titratdi. Qush nimagadir da‘vat etib, uzun dumini siltadi. Garri ikkilanib qaradi.

– Nazarimda, u senga, dumimdan mahkam ushla demoqchi, shekilli, – taxmin qildi Ron, boshi qotib. – Bunday qushga og‘irlik qilasan-u, ko‘tara olmaydi u seni...

– Yangus oddiy qush emas, – dedi Garri sheriklariga yuzlanib. – Bir-birimizni mahkam ushlaymiz. Jinna Ronning qo‘lidan ushla. Professor Charuald...

– Siz professor Charualdsiz, – o‘shqirdi Ron.

– Jinnaning ikkinchi qo‘lidan mahkam ushlang...

Garri qilich bilan taqsimlovchi Shlapani beliga mahkamlatdi. Ron Garrining etagidan tutdi. Shundan so‘ng Garri qo‘lini uzatib, qaqnusning g‘alati issiq dumini mahkam ushladi.

Bolaning butun tanasi bo‘ylab ajib yengillik tarqaldi. Shundan so‘ng jamiki jamoa qush qanoti shovqini ostida quvur bo‘ylab yuqoriga ko‘tarila ketdi. Garrining qulog‘iga ortda lapanglayotgan Charualdning:

– Ajoyib, ajoyib. Sehrdan o‘zga narsa emas bu! – degani eshitildi.

Muzday havo bolaning sochini o‘ynatdi. Garri parvozdan endi lazzatlana boshlagan ediki, uchish jarayoni niho-yasiga yetdi. To‘rtovlon quvur ichidan G‘amgin Mirtlning zax hojatxonasiga chiqdi. Charuald qiyshayib qolgan shlapasini to‘g‘riladi. Quvur og‘zini to‘sgan chig‘anoq joyiga

qaytdi.

– Iye, o'lmadingmi? – dedi Mirtl ko'zini chaqchaytirib.

– Bu masalada hafsalang pir bo'lganini bunchalik ochiq namoyish etishing shart emas, – javob berdi Garri, ko'zoy-nagini qon va shilimshiq qatralaridan tozalab.

– Voy, men... o'ylabmanki... agar o'lib qolganingda unitazlarimdan birini senga bergan bo'lar edim, – g'udrandi Mirtl, kumush tus kasb etib.

– Voy-bo'y! – dedi Ron, hojatxonadan qorong'i yo'lakka chiqib. – Mirtl seni sevib qolganga o'xshaydi! Eshit-yapsanmi, Jinna, senga raqobatchi topildi.

Hamon unsiz yig'layotgan Jinna indamadi.

– Endi qayoqqa boramiz? – so'radi Ron, Jinnaga tashvishli qarab.

Qayoqqa borishni Garri ko'rsatdi.

Ular alvon qanoti tilla tusli yorug'lik chiqarib, qorong'i yo'lakni yoritib borayotgan Yangus izidan ergashib borishdi va professor Makgonagallning xizmat xonasi oldiga yetib, to'xtashdi.

Garri eshik taqillatdi.

XVIII BOB. DOBBINING QULLIKDAN OZOD BO'LISHI

Garri, Ron, Jinna va Charuald egnilari loy va shilim-shiqqa, Garrining kiyimi esa bundan tashqari, qonga belangan ahvolda ostonaga hatlashdi. Xonada muayyan vaqt suku-nat hukm surgach, kimdir qichqirdi:

– JINNA!

Kamin yonida hasrat chekib yig'layotgan missis Uesli-ning ovozi. Ayol mister Uesli bilan bir vaqtda o'rmidan ir-g'ib turib, qizchasini bag'riga bosdi.

Ammo Garrining nigohi boshqa kishiga qaratilgan. Ka-min yonida keksa Damblдор chehrasi ochilib turibdi. Uning yonida esa qo'lini ko'kragiga g'ayriixtiyoriy bosib olgan-cha, ovoz chiqarib yig'layotgan professor Makgonagall tu-ribdi. Yangus Garrining qulog'i yonidan qanot qoqib o'tdi-da, Damblдорning yelkasiga qo'ndi. Bu paytda missis Uesli Garri bilan Ronni mahkam quchib oldi.

– Xaloskorlarim! Pahlavonlarim! Qizginamni qanday qilib xalos etdingiz?

– Ha, buni bilish hammamizga qiziq. – bazo'r gapirdi professor Makgonagall, yig'lamsirab.

Missis Uesli Garrini bag'ridan bo'shatdi. Bola biroz ik-kilanib turdi-da, stol yoniga kelib, taqsimlovchi Shlapa, sopi yoqut ila bezalgan qilich va Reddlning teshilgan kundaligini terib chiqdi.

Shundan so'ng u, chorak soat davomida mutlaq jimlik hukm surgan vaziyatda bor gapni tartib bilan, tegishli iz-chillikda aytib berishga kirishdi. Jumladan u: egasi yo'q ovoz eshitgani, Germiona ushbu ovoz quvurlar ichida sud-ralib yurgan Vasilisk ovozi ekanini fahmlagani, Ron ikka-lasi o'rgimchaklar ketidan «Taqiqlangan o'rmon»ga kirib chiqishgani, Aragogdan Vasiliskning so'nggi qurboni qa-

yerda o'lganini bilib olishgani, o'sha so'nggi qurbon G'amgin Mirtl ekani va Maxfiy xonaga kirish yo'li aynan Mirtlning hojatxonasida ekanini qanday fahmlashgani va shu kabilar haqida batafsil so'zlab berdi.

– Demak, – gapga aralashdi professor Makgonagall. Garri nafas rostlayotganida. – Maxfiy xonaga kirish yo'li qayerda ekanini aniqladingiz va ayni vaqtda, ta'kidlab o'tishim joizki, maktabning yuzlab qoidalarini vijdotsizlarcha buzgansiz. Biroq jamiki muqaddas ruhlar haqi, ayting-chi, Potter, qanday qilib siz Maxfiy xonadan tirik qaytdingiz?

Gapiraverib ovozi xirillab qolgan Garri o'z vaqtida yordamga kelgan Yangus va taqsimlovchi Shlapa bergan qilich haqida so'zlab berdi. Biroq hikoyasining shu yeriga kulganda bolaning ovozi o'zgardi. Shu vaqtgacha u Reddning kundaligi-yu, Jinnani tilga olmadi. Qizaloq peshanasini onasining yelkasiga tirab, hanuzgacha unsiz yig'lamoqda. Jinna maktab o'quvchilari ro'yxatidan chetlatilishi haqida sarosima ila o'ylanib qoldi. Reddning kundaligi endi hech narsani isbotlay olmaydi... Jinnani jinoyat sodir etishga aynan Redd majbur qilganini ular qanday isbotlay olishadi?

Garri g'ayriixtiyoriy ravishda Dambldorga qarab qo'ydi. Kamindagi olov shu'lasi ko'zoynagining gardishida o'ynoqlab ko'ringan maktab direktori sezilar-sezilmas kulib turibdi.

– Ishonchli manbalardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, ayni vaqtda Albaniya o'rmonlarida yashirinib yurgan Lord Voldemort qanday qilib Jinnani sehrlab qo'yishga muvaffaq bo'lgani meni ko'proq qiziqtiradi, – dedi u. muhojir ohangda.

Garrining vujudi bo'ylab baxtli, maroqli va tantanavor yengillik hissi tarqaldi.

– N-nimalar d-deyapsiz? – g'udrandi hang-mang bo'lib qolgan mister Uesli, – «O'zingiz-Bilasiz-Kim»-a? Jinnani-

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

ya? Axir, Jinna... Jinna... yoki...

– Hammasi mana bu kundalik vositasida ro'y bergan. – dedi Garri, yon daftarni Dambldorga taqdim etar ekan, – Reddl uni o'n olti yoshligida yuritgan...

Dambldor bola qo'ldan qabul qilib olgan yon daftar-chaning kuygan va nam tortgan sahifalariga uzun ilmoqsimon qayrilma burni ustidagi, yarim oy shakliga ega shisha ko'zoynak ustidan tikilib qoldi.

– Ajoyib, – dedi u nihoyat. – Reddl chindan ham «Xogvars»ning eng qobiliyatli o'quvchilaridan biri bo'lgan.

Dambldor ruhiy larzaga kelib o'tirgan er-xotin Ueslilar tomon yuzlandi.

– Lord Voldemortning ismi qachonlardir Tom Reddl bo'lganini hamma ham bilavermaydi. Ellik yil muqaddam u mening o'quvchim bo'lgan. Maktabni tamomlagach, qayoqqadir g'oyib bo'lib... jahongashtalik qildi... Yovuz kuchlar sehriga mukkasidan berilib ketdi, sehrigar va afsungarlar elatining eng yomon vakillari bilan muloqot qildi, boshqa qiyofaga aylanishning bir qator xavfli turlarini o'zida sinab, o'zlashtirdi... shu bois ham u oramizga Lord Voldemort sifatida qaytganida hech kim Tom Reddlni tanimadi. Hech kim Lord Voldemortni qachonlardir maktabimizda tahsil ko'rgan aqlli, barno yigitcha, sinfboshi sifatida ko'rmadi.

Biroq Jinna, ser, – bazo'r e'tiroz bildirar oldi mister Uesli, – Bizning qizalog'imiz bilan... uning o'rtasida qanday umumiylik bo'lishi mumkin?

– Kundaligi! – ho'ngrab yubordi Jinna, – Men daftarcha sahifalariga o'z fikr-mulohazalarimni yozib yurar edim. Daftarcha esa men bilan... butun o'quv yili davomida... savol-javob qilib bordi...

– Bolaginam! – xitob qildi aqlini yo'qotib qo'yishiga sabab qolgan mister Uesli. – Men senga hech narsa o'rgatmaganmanmi? Miyasi qayerda joylashganini bilmasang, mus-

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

taqil fikr yuritish qobiliyatiga ega biron-bir narsaga ishonch bildirma. degan gapni takror va takror aytgan edim-u?! Ni-ma uchun kundalikni menga yoki oyingga ko'rsatmading? Bunday shubhali narsa yovuz kuchlar sehriga mansubligi ayon-ku...

– Bilganim yo'q. – hiqilladi Jinna. – Oyim xarid qilgan eski kitoblar orasidan chiqdi. Kitobning oldingi sohibi esi-dan chiqarib qoldirgan deb o'yladim...

– Miss Ueslini zudlik bilan kasalxonaga yotqizish kerak. – gapga aralashdi Dambldor, – U nihoyatda og'ir si-novlarni boshidan kechirdi. Tashvishlanmang, hech qanday jazo chorasi ko'rilmaydi. Lord Voidemort ushbu qizaloqqa nisbatan yoshi ancha ulug', boy tajribaga ega sehrgarlarni ham ahmoq qilishga erishib kelgan. – dedi Dambldor eshik-ni ochib. – Shunday ekan, yotib davolanish rejimi va katta krujka to'la issiq shokolad tayinlayman. Bunday davolanish muolajasi meni doimo qisqa muddat ichida oyoqqa turg'i-zib kelgan. – u qizaloqqa ko'z qisib qo'ydi-da. – Pomfri xonim hali uyquga yotgani yo'q. Hozir u jabrlanganlarni Mandragora darmon-dorisi bilan davolamoqda. Jur'at etib aytamanki, ayni daqiqalarda Vasilisk qurbonlari asta-sekin uyg'onishmoqda...

– Demak, Germiona ham sog'-salomat ekan-da! – qu-vonch-la xitob qildi Ron.

– Oxir-pirovardida, yetkazilgan zarar o'rni qoplanishi-ga erishildi. Jinna. – dedi Dambldor.

Missis Uesli Jinnani yo'lakka olib chiqdi. O'ziga kela olmayotgan mister Uesli ham ular ortidan chiqib ketdi.

– Bilasizmi, Minerva, – dedi o'ylanib qolgan Dambldor, professor Makgonagallga, – nazarimda, bugun bo'lib o'tgan hodisalar yaxshigina ziyofat uyushtirilishiga sabab bo'la oladi. Agar xizmat bo'lmasa, oshxonaga borib, tegish-li ko'rsatmalar bersangiz, iltimos!

XVIII BOB. Dobbinning qullikdan ozod bo'lishi

– Juda soz, – bardam ruh-la javob berdi professor Makgonagall, eshik tomon yo'l olib, – Potter bilan Uesli masalasini o'zingiz hal qilarsiz?

– Albatta, – ishontirdi Damblдор.

Fakultet mudiri xonani tark etdi, Garri bilan Ron esa ikkilanib maktab direktoriga qarashdi. «Masalani hal etish» degani qanday kechar ekan? Ularga nisbatan jazo chorasi ko'rilmas, har qalay?

– O'quv yili boshlangan, siz maktabga mashinada uchib kelgan kuni agar yana bir bor o'xshash xatti-harakatga takror qo'l uradigan bo'lsangiz, haqiqatan ham o'qishdan chetlatishdan boshqa chora qoldirmaysiz deb aytganimni eslayman, – dedi Damblдор.

Hang-mang bo'lib qolgan Ronning og'zi lang ochildi.

– Bu esa o'ramizdagi ayrim shaxslar, ming aqili bo'lmasin, ba'zan o'zining so'zi o'zining bo'g'ziga tiqilishini yana bir bor isbotlaydi, – davom etdi Damblдор, kulib boqib, – Ikkalangiz «Maktab oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun maxsus sovrin» bilan taqdirlanasiz. Bundan tashqari, har biringiz «Griffindor»ga, qani o'ylab ko'raylik-chi, ha, ikki yuz balldan keltiringiz.

Yuzining rangi avliyo Valentin kuni Charuald tomonidan yaratilgan g'ayritabiiy pushtirang gullarga o'xshab qolgan Ron og'zini yana yopib oldi.

– Biroq o'ramizda o'tirganlardan biri negadir juda jim, bunday xavfli sarguzashtga qo'shgan hissasi haqida indamay o'tiribdi, – qo'shimcha qildi Damblдор. – Nima sababdan bugun bunchalik kamtarinsiz, Sverkarol?

Garri bir sakrab tushdi. Charualdni esidan chiqarib yuboribdi-yu. Orqaga o'girilib, yuzida biron bir ma'no kasb etmagan, xona burchagida irshayib turgan yovuz kuchdan himoyachini ko'rdi. Damblдорning murojaatini eshitgach,

yulduz bilan haritish quradi.

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

– Professor Dambldor, – tez tushuntirish berdi Ron. – Pastda, Maxfiy xonada baxtsiz hodisa ro'y berdi. Professor Charuald...

– Men professormanmi? – hayron bo'ldi Charuald. – Qarang-a! Juda ovsar professor bo'lsam kerak, a?

– U bizga qarshi Unuttirish afsunini qo'llamoqchi bo'ldi-yu, tayoqcham noto'g'ri tomon zarb berdi, – pichirladi Ron Dambldorga.

– Yaxshi ish bo'lmabdi, – bosh chayqadi Dambldor, kumushsimon uzun mo'ylovi qimirlab. – O'zing qo'llab yurgan qurol oxiri o'zingning boshingni yebdi-da, Sverkarol?

– Qurol? – so'radi Charuald. – Menda qurol nima qil-sin. Ana, anavi bolakayning quroli bor. So'rasangiz berib turadi.

– Ronald, iltimos, professor Charualdni kasalxonaga kuzatib qo'y. Senga esa Garri, ikki og'iz gapim bor...

Charuald tebranib, xonadan chiqdi, Ron Dambldor bilan Garriga qiziqsinib qaradi-da, Charualdning izidan chiqib, eshikni yopdi.

Dambldor kamin yonidagi kreslolardan biriga yaqin keldi.

– O'tir, Garri, – dedi u.

Bola o'zini noqulay his etib kresloga o'tirdi.

Avvalambor senga o'z minnatdorligimni izhor etmoqchiman, Garri, – dedi Dambldor, ko'zi boz yarqirab, – Bo'lib o'tgan ishlarga qaraganda pastda, Maxfiy xonada, sen menga bo'lgan sadoqatingni namoyon etding. Chunki, har qanday boshqa holat Yangusni chorlay olmas edi.

U tizzasiga kelib qo'ngan Yangusni mehr-la siladi. Garri Dambldorning sinchkov nigohiga javoban kamtarin kulib qo'ydi.

Shunday qilib sen, Tom Reddi bilan tanishib olding,

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

– fikrini davom etdi Dambldor o'ylanib. – Ishonchim komilki, sen bilan o'tgan uchrashuv unga qiziqarli kechdi...

Garri o'zi uchun kutilmagan tarzda anchadan buyon ichini timdalab kelayotgan mavzuni ochdi.

– Professor Dambldor... Reddning gapiga qaraganda men unga o'xshar ekanman. U ikkalamizning o'rtamizda juda g'alati umumiylik borligini aytdi...

– Chindan ham shunday dedimi? – so'radi Dambldor qalin qoshi ostidan Garriga o'ychan qarab. – O'zing nima deb o'ylaysan, Garri?

– Unga hech ham o'xshamayman! – dedi Garri, o'zi kutgandan ham baland ovozda. – Aytmoqchimanki, men, men axir, «Griffindor»da tahsil ko'ryapman, men...

Bola jim bo'lib qoldi. Yuragini ezayotgan shubha uning ongini boz chulg'ab oldi. Sal o'tib fikrini davom etdi:

– Professor, taqsimlovchi Shlapaning gapiga qaraganda, men chindan ham «Slizerin»da ko'p narsalarga erishgan bo'lar ekanman... Hamma meni Slizerinning vorisi deb o'yladi... chunki men serpentargo tilida gaplasha olaman...

– Serpentargo tilida gaplasha olishingga sabab bor, Garri, – vazmin ohangda gap boshladi Dambldor. – Lord Voldemort, chindan ham Salazar Slizerinning bugungi kunda yashayotgan yagona avlodi sanalib, serpentargo tilida gaplasha oladi. Yo men juda qattiq adashyapman, yo senga mana bu chandiqni qoldirib ketgan o'sha tunda, Voldemort o'z qudratining ma'lum bir qismini tasodifan senga o'tkazib yuborgan. Shubha yo'qki, bunday bo'lishini u istamagan, albatta, Biroq falakning amri shunday bo'lgan...

– Voldemort o'z qudratini menga o'tkazib yuborgan? – so'radi Garri, chaqmoq urganday bo'lib.

– Ehtimoldan uzoq bo'lmagan tushuntirish shu.

– Demak men «Slizerin»da tahsil ko'rishim kerak ekan-da, – dedi Garri, shuki o'zini tinchlashtirib bo'lib.

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

taqsimlovchi Shlapa mening tabiatimda slizerinchining qobiliyati bor deb aytganday bo'ldi-yu...

– Seni «Griffindor»ga yo'lladi. – Garrining fikrini yakunladi Damblдор vazmin ohangda, – Quloq sol, Garri. Falakning amri ila sening tabiattingda Salazar Slizerin tomonidan yuqori baholangan va shaxsan o'zi tanlab olgan o'quvchilarga xos ko'plab sifatlar mujassam bo'lgan. Bunday sifatlar jumlasiga uning o'zida bo'lgani kabi va nihoyatda kamdan kam uchraydigan ilonzabonlik va qat'iyatlilik qobiliyati hamda... belgilangan muayyan tartiblarni ma'lum ma'noda pisand qilmaslik sifati kiradi. – qo'shib qo'ydi Damblдор, boz mo'ylovi qinirlab. – Shunday bo'lishiga qaramay, taqsimlovchi Shlapa seni «Griffindor»ga yo'lladi. Bilasanmi nima uchun? Qani o'zing o'ylab ko'r-chi.

– Chunki men shlapadan «Slizerin»ga emas «Griffindor»ga yo'llashni iltimos qilganman, – dedi Garri, mag'lub bo'lgan kishiday.

– To'ppa-to'g'ri, – dedi Damblдор, chehrasi yorishib, – Aynan mana shu sifating bilan ham sen Tom Redddan keskin farq qilasan. Esingda bo'lsin, qobiliyatimizdan ko'ra tabiatimizning haqiqiy mazmun-mohiyatini faqat o'zimiz tanlagan hayot yo'ligina ochib tashlaydi. Agar senga chindan ham griffindorchchi ekanligingni isbot qiladigan dalil kerak bo'lsa, Garri, mana bunga diqqat bilan qara.

Damblдор qo'lini professor Makgonagallning stoliga uzatib, qon bilan bulg'angan kumush qilichni oldi-da, Garriga uzatdi. Hech narsani his etmagan bola, yoqutlari o'choqdan chiqayotgan shu'ladan qizil tus berib tovlangan qilichni aylantirib ko'rdi. Ana shundagina u, qilich sopi ostida o'yib yozilgan ismni ko'rdi:

Godrik Griffindor

– Faqat haqiqiy griffindorchigina ushbu qilichni shlapa ichidan chiqura oladi. – dedi Damblдор.

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

Bir daqiqaga yaqin vaqt davomida ikkalasi sukut saqlab o'tirishdi. Shundan so'ng Dambldor stol tortmasini tortib, pat-qalam bilan siyoh shishasini chiqardi.

– Sen hozir to'yib ovqatlanishing va tinchgina uxlab olishing kerak, Garri. Ziyofatga borishni taklif qilaman. Men esa Azkabanga xat yozay. Qorovulimizni qaytarishimiz kerak, shunday emasmi? Bundan tashqari, «Bashorat-u, karomat gazetasi»da chop etiladigan e'lon tayyorlashim darkor, – qo'shib qo'ydi u, biroz o'ylanib. – Axir, biz yana yovuz kuchdan himoya fani o'qituvchisiz qoldik-ku... Yolg'on gapirayotgan bo'lsam, chaqmoq ursin meni, biz chindan ham ushbu fan o'qituvchilarini qo'lqop almashtirganday, har yili almashtirmoqdamiz, to'g'rimi, Garri?

Garri o'midan turib, chiqish eshigi tomon yurdi. U endigina dastaga qo'l uzatgan ediki, birdan eshik qattiq ochilib, devorga urilgancha, sapchib qaytdi.

Ostonada darg'azab Lyutsius Malfoy ko'rindi. Uning oyog'i ostida esa a'zoyi-badani bintga o'ralgan Dobbi qo'r-qoqlarcha tiz bukib turibdi.

– Salom, Lyutsius, – xushmuomala salomlashdi Dambldor.

Xonaga bostirib kirgan mister Malfoy Garrini turtib yiqitishiga bir baxya qoldi. Uning ketidan yuzida qo'rquv aks etgan Dobbi sohibining etagi ostiga bekinib olishga uringancha, yo'rtib ergashdi.

Qo'lga kir latta ushlagan elf, sohibining poyafzalini tozalashga urinmoqda. Aftidan mister Malfoy uydan shoshilinch ravishda chiqqan ko'rinadi. Negaki uning botinkasigina kir bo'lmay, odatda, silliq yotadigan sochi ham to'zg'igan edi. To'pig'i atrofida elfning zomin sakrab yurishini pisand qilmagan mister Malfoy Dambldorga sovuq qaradi.

– Shunday qilib! – dedi u, alik qaytarishni xayoliga ham keltirmay. – Siz qaytdingiz. Ma'muriyat sizni lavozim-

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

dan chetlashtirganiga qaramay, «Xogvars»ga qaytish munim deb topdingiz.

– Gap shundaki, Lyutsius, – betashvish tabassum qildi Dambldor, – Ma'muriyatning qolgan o'n bir nafar a'zosi bugun men bilan aloqa bog'ladi. Xuddi boyqush selida qolib ketganday his etdim o'zimni. Ular Artur Ueslining qizi go'yo halok bo'lgani borasida xabar topib, zudlik bilan maktabga qaytishimni talab qilishdi. Aftidan, meni hamon direktorlikka munosib kishi sifatida topishgan ko'rinadi. Bundan tashqari, ular menga qandaydir g'alati narsalar haqida ham xabar berishdi... Emishki siz, ularning ayrimlariga, agar mening lavozimdan chetlatilishim borasida ovoz berishmas ekan, oila a'zolariga nisbatan har xil qarg'ish afsunlarini qo'llashga tahdid qilganday ko'rinibsiz...

Ko'zi g'azabdan yarqirab, qisilgan mister Malfoyning rangi odatdagidan ham battar oqarib ketdi.

– Xo'sh, tajovuzlarga barham berilishiga erishildimi?
– nafrat-la so'radi u. – Jinoyatchi qo'lga olindimi?

– Ha, biz uni qo'lga oldik, – javob berdi Dambldor, kulib.

– Xo'sh, – keskin so'radi mister Malfoy. – Kim ekan u?

O'xshash jinoyatni o'tgan safar sodir etgan shaxs, – javob berdi Dambldor. – Faqat bu gal Lord Voldemort soxta kishi orqali o'zining kundaligi vositasida ish tutgan.

U mister Malfoyni diqqat bilan kuzatgancha, stol ustidagi o'rtasi teshilgan qora muqovalı yon dattarchani ko'rsatdi. Garri esa bu paytda Dobbining harakatini kuzatdi.

Elfning harakati qandaydir tushunarsiz kechdi. U katta ko'zini Garriga ma'noli qaratib, dam kundalikka, dam mister Malfoygа imo qildi-da, o'zining boshiga o'zi musht soldi.

– Tushunarli... – sekin gapirdi mister Malfoy.

– Nihoyatda ustomonlik bilan tuzilgan reja, – ohangiga

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

qandaydir alohida ifoda berib tushuntirdi Dambldor, mister Malfoyning ko'ziga tik qarab. – Agar, ushbu kundalikni qarshingizda turgan Garri bilan uning do'sti Ron topib olishmaganda, barcha ayblar to'la-to'kis Jinna Ueslining bo'yniga qo'yilgan va u, o'z xohish-irodasi bilan ish ko'rmaganini hech kim isbotay olmagan bo'lar edi...

Basharasi hech bir ma'no uqib bo'lmaydigan niqobday qolgan mister Malfoy Garriga yeb qo'ygudek qarab qo'yida, sukut saqlab turdi.

– O'shanda nima bo'lishini tasavvur qilib ko'ring, – fikrini davom etdi Dambldor. – Ueslilar, mashhur aslzoda sehrgar oilalardan biri sanalishini bilasiz, albatta. Qizi magllar oilasida tug'ilgan afsungarlar qotili sifatida ayblangan Artur Uesli va u ishlab chiqqan Magllarni himoya qilish to'g'risidagi qonunning taqdiri nima bo'lishini faraz qilyapsizmi... Xayriyatki, kundalik topilib, undan Tom Reddning xotiralari batamom bartaraf etildi. Bunday qilinmaganda nima bo'lishini kim biladi...

Mister Malfoy o'zini gapirishga majbur qildi.

– Ha, xayriyat, – bazo'r ayta oldi u.

Shunday bo'lsa-da, uning ortida turgan Dobbi dam kundalikka, dam Lyutsius Malfoyga imo qilganicha, o'zining boshiga o'zi musht solishni qo'ymadi.

Birdan Garri Dobbining nima demoqchi ekanini tushunib, bosh iring'idi. Dobbi burchakka o'tib, o'zini jazolash sifatida qulog'ini bura boshladi.

– Ushbu kundalik Jinnaning qo'liga qanday tushib qolganini bilishni istamaysizmi, mister Malfoy? – so'radi Garri.

Lyutsius Malfoy do'q-po'pisa ifodalagancha, bolaga yuzlandi.

– Nega endi men, kundalikning allaqanday mitti ahmoqcha qo'liga tushib qolishini bilishim kerak ekan? – iriladi u.

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

– Chunki bu kundalikni aynan siz, mister Uesli bilan mushtlashgan «Jimjimador va siyoh dog'i» do'konida, uning qizi Jinnaning «Boshqa narsaga aylanish va aylantirish usullari. O'rganuvchilar uchun qo'llanma» darsligi ichiga hech kimga bildirmay solib qo'ygansiz, shunday emasmi? – so'radi Garri.

U mister Malfoyning oq mushti dam ochilib, dam yana tugilayotganini ko'rdi.

– Avvalo, buni isbotlash kerak. – vishilladi u.

– Ha, albatta, – gapga aralashdi Garriga kulib qaragan Damblдор. – Buni hech kim isbotlay olmaydi. Ayniqsa Reddl kundalik ichidan yo'q bo'lganidan so'ng. Biroq Lyutsius, Lord Voldemortning eski maktab jihozlarini o'ng-u, so'lga tarqatib yurishni bas qilishingizni maslahat bergan bo'lar edim. Agar biron-bir o'xshash buyum begunoh odamlar qo'lga yana tushib qolgudek bo'lsa, ishonchim komilki, Artur Uesli birinchilardan bo'lib sizning bunday qilmishlardagi ishtirokingizni isbot qilishga astoydil kirishib ketadi...

Lyutsius Malfoy bir muddat tek qoldi. Qo'li, sehrli tayyoqchasini chiqarish uchun siltanganini Garri aniq ko'rib turdi. Lekin Malfoy o'zining quliga murojaat qila qoldi.

– Ketdik, Dobbi!

U zarda qilib eshikni katta ochdi. Yaqin kelgan uy elfi ni kuchli tepib, baxti qora maxluqni o'zidan nari uchirdi. Tepki zarbidan joni qattiq og'rigan Dobbining uvillashi uzoq eshitildi. Garri bir daqiqa o'ylanib turdi-da, nihoyat o'yiga yetdi...

– Professor Damblдор, – shosha-pisha gap boshladi u.

– Mana bu kundalikni mister Malfoygа qaytarib bersam bo'ladimi? Iltimos!

– Albatta, Garri, – ijozat berdi Damblдор. – Faqat tezroq bo'l, ziyofatdan quruq qolasan...

Garri kundalikni changalladi-da, xonadan Dobbining

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

uzoqlashib borayotgan afg'onlari tomon o'qday uchib chiqdi. Xayoliga kelgan o'y kor berish-bermasligini o'ylab, dastlab botinkasi so'ng loy va shilimshiq singigan paypoq'ini shartta yechdi-da, yon daftarchani paypoq ichiga joyladi. Botinkasini yalang'och qolgan oyog'iga kiyib qorong'i yo'lak ichra yugurdi. Mister Malfoy bilan Dobbi ikkalasiga zinaning eng yuqori maydonida yetib oldi.

– Mister Malfoy, – dedi u, hansiragancha to'xtab. – Sizga berib qo'yiladigan narsa bor.

U paypoqni Lyutsius Malfoyning qo'liga majburan ushlatib qo'ydi.

– Bu nimasi?...

Mister Malfoy kundalik ustidagi paypoqni shartta yechib, hazar qilgancha chetga uloqtirdi-da, nafrat to'la nigo-hini teshik daftarchadan Garriga olib o'tdi.

– Bir kun kelib, Garri Potter, ota-onang qismatini ko'rasan, – dedi u. – Ular ham senga o'xshab, bironing ishiga tumshuq suqib yurishgan edi.

U ketishga shaylanib, orqa o'girdi.

– Ketdik, Dobbi! Ketdik dedim senga.

Lekin Dobbi joyidan qilt etmadi. U jirkanch paypoqni burniga yaqin keltirib, unga bebaho xazina topib olganday tikilib qoldi.

– Sohib paypoq berdi, – xitob qildi elf, hayrat-u haya-jon ila. – Sohib Dobbiga paypoq berdi.

– Nimalar deb aljirayapsan? – tupurib yuborganday so'radi Malfoy. – Nima beribman senga?

Paypoq, – javob berdi Dobbi, o'z gapiga o'zi ishonmay. – Sohib paypoq uloqtirdi, men oldim. Demak, Dobbi endi ozod.

Lyutsius Malfoy elfga tikilgancha, serryib qoldi. So'ng Garriga tashlandi.

– Hoy bola, seni dastingdan men xizmatkordan ayrilib

qoldim.

– Garri Potterni xafa qilishga jur'at etmang! – baqirib qoldi Dobbi shu payt.

Tarsillagan qattiq tovush yangradi. Mister Malfoy orqaga uchib, zinaning qatorasiga uchtadan pog'onasi orqali dumbaloq oshgancha, ezilgan uyumday eng quyi maydonchada to'xtadi. U bir iloj qilib oyoqqa turdi-da, qo'lga sehrli tayoqchasini oldi. Biroq Dobbi mister Malfoyga tahdid solgancha, uzun barmog'ini ko'tarib turibdi.

– Siz ketishingiz kerak, – darg'azab ogohlantirdi u, mister Malfoyga barmoq o'qtab. – Garri Potterga ziyon yetkazishga jur'at eta olmaysiz. Siz ketishingiz kerak.

Lyutsius Malfoyning boshqa chorasi qolmadi. U yuqorida turganlarga so'nggi bor nafrat-la qarab, ridosiga o'randi-da, tez ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Yaqin oradagi derazadan tushayotgan oy nuri elf ko'zida aks etdi.

– Garri Potter Dobbini ozod qildi! jarangli ovozda xirgoyi qildi u. – Garri Potter Dobbini ozod qildi!

– Senga qo'limdan kelgancha qaytargan yagona yaxshiligim shu, Dobbi, – kulib qo'ydi Garri. – Faqat hayotimni saqlashga qaratilgan xatti-harakatlaringni bas qilishga va'da ber.

Kutilmaganda yirik tishi yalang'ochlangan elfning badburush jigarrang yuzi tabassumdan keng yoyildi. Qo'li hayajondan titragan Dobbi iflos paypoqni oyog'iga kiyib oldi.

– Senga bir savolim bor, Dobbi. Bo'lib o'tgan ishlarining bari «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ga aloqasi yo'q deb aytgan eding, esingdami? Bevosita aloqasi bor ekan-u. bu yog'i necha pulga tushdi...

– Men sizga kalit bermoqchi bo'ldim, ser, – dedi Dobbi, shundoq ham tushunarli narsani tushuntirganday, yirik

Kaliti yamali kalit ochilish. – Senga kalit bergan edim. Yo-

XVIII BOB. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi

vuz Lordning ismi, o'z ismini o'zi o'zgartirguncha har qanaqa bo'lishi mumkin edi, tushundingizmi?

– Haqiqatan ham, – dedi Garri. – Xo'p, mayli, men bo'ray. Ziyofatdan quruq qolishim mumkin. Do'stim Germiona ham uyg'onadigan vaqt bo'ldi.

Dobbi Garrining belidan quchib oldi.

– Garri Potter Dobbi o'ylagandan ham buyuk inson! – ko'ziga yosh oldi Dobbi. – Xayr, Garri Potter!

So'nggi qarsillash eshitilib, Dobbi ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Garri ikki yillik o'qish davomida bir necha marta o'tkazilgan maktab ziyofatlarida bo'lgan, albatta. Ammo bunaqangi ziyofat hali uyushtirilmagan. Pijama kiygan odamlarning bayrami tongotar mahalgacha cho'zildi. Tantananing qaysi fursati ko'proq yoqqanini bolaning o'zi bilmaydi, jumladan: Germiona «Sen jinoyatni fosh etding! Jinoyatni fosh etding!» degancha qichqirib qarshi olganini, xufflpuffchilar stolidan turib kelgan Jastin son-sanoqsiz uzrlar so'rab, qo'lini qayirib yuborguday darajada siqqanini, kechasi ikki yarimda Azkabandan qaytib kelgan Xagrid Garri bilan Ronning yelkasidan quchoqlab, ikkalasining basharasini biskvit solingan tikoplariga yopishtirib qo'yishiga sal qolganini, Ron bilan birgalikda «Griffindor»ga to'rt yuz ochko keltirib, fakultetning maktab kubogi bilan ikkinchi bor taqdirlanishi e'lon qilinganini, professor Makgonagall o'ziga xos tuhfa sifatida bu yilgi imtihon bekor qilinganini e'lon qilganini, Damblдор professor Charualdning ming afsuski, klassi o'quv yiliga qola olmasligi, u xotirasini tiklash uchun davolanish muassasasiga jo'nashi lozimligini ma'lum qilganini, Damblдор yetkazgan ushbu yangilikni qarshi olgan qichqiriqlarga falakka shukrona o'qigan aksariyat o'qituvchilar ham qarsak chalib, jo'r bo'lishganini

ko'rganini, bilmaydi.

XVIII BOB. Dohhining qullikdan ozod bo'lishi

– Esiz. – dedi Ron, og'ziga yog'da ko'pchitib pishirilgan murabboli kulchani solib. – U menga juda bog'lanib qolgan edi.

Semestrmning qolgan qismi ko'zni qamashtiradigan quyosh nurida tez erib ketganday bo'ldi. «Xogvars»dagi hayot tarzi asta-sekin o'z maromiga qayta boshladi. Yagona istisno, yovuz kuchdan himoya darslari bekor qilingani bo'ldi.

– Xafa bo'lma. – dedi Ron, yangilikni eshitib dilsiyoh bo'lgan Germionaga. – Bu fanga oid amaliy ko'nikmalari-miz yetarlicha ortiq shakllanib bo'ldi.

Lyutsius Malfoy «Xogvars» shergarlik va afsungarlik san'ati maktabini boshqarish ma'muriyatining a'zolidan chetlashtirildi. Drako endi xo'jayin qiyofasida yurmay, qandaydir xafahol va ma'yus bo'lib qoldi. Jinna esa, aksincha, yana quvnoq va baxtiyor qizaloqqa aylandi.

Har doimgiday, yozgi ta'til boshlanib, uy-uyga tarqalib ketish vaqti ko'z ochib yunguncha tez yetib keldi. Garri, Ron, Germiona, Fred, Jorj va Jinna bitta kupeni band qilishdi. Ular hali sehr bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan so'nggi soatlardan imkon qadar unumli foydalanib qolishga urinishdi. Do'stlar portlovchi poqildoq o'ynashdi, doktor Filibusterning suvdan olovsiz otiladigan fantastik mushaklarini oxirigacha uchirib tugatishdi, bir-birini qurolsizlantirish afsonini mashq qilib, ijrosini me'yoriga yetkazishdi.

Ular Kings-Kross vokzaliga yetay deb qolishganida Garrining yodiga bir gap tushib qoldi.

– Jinna ayt-chi, Persining nima ish qilib turganini ko'rib qolding-u, akang bu haqda og'iz ochishni man etib qo'ydi.

– Ha, bumi. – hiringladi Jinna. – Nima desam ekan... Xullas, Persi bir qizni sevib qolibdi.

Bu gapni eshitgan Fred ukasi Jorjning boshiga bir dasta

kitobni tushirib yubordi.

– Nima?

– «Ravenklo» fakultetining sinfboshisi Penelopa Kristalluoter, – tushuntirdi Jinna. – Akam o'tgan yozni aynan o'sha qiz bilan yozishib o'tkazdi. Persi doimo u bilan maktab hududida pinhon uchrashib yuradi. Bo'sh sinf xonasida bo'sa olib turgan paytda ko'rib qoldim. O'sha qiz, o'zingiz bilasiz, unga tajovuz qilinganida akam juda ezilib yurdi. Voy, bu gaplarni nega aytib qo'ydim o'zi, sizlarga?! Persi akamni mazax qilmaysiz, a? Qilmaysiz, to'g'rimi?

– Bu haqda orzu qilishga ham jur'at eta olmaymiz, – dedi basharasi makkorona qiyofa kasb etgan Fred.

– Esimizga ham kelmaydi, – dedi yirtqichlarcha irshaygan Jorj.

«Xogvars-Ekspress» sekinlab, nihoyat to'xtadi.

Garri pat-qalam bilan pergament bo'lagini chiqardi. Allaqanday raqamlarni ikki marta yozdi-da, ikki bo'lib, Ron bilan Germionağa uzatdi.

– Mana bu «telefon raqami» deb ataladi, – tushuntirdi u Ronga. – O'tgan ta'tilda telefondan qanday foydalanish kerakligini mister Uesliga tushuntirganman. U biladi. Dursllarning uyiga qo'ng'iroq qilib, meni so'raysan, xo'pmi? Dudli bilan o'tadigan ikki oyga dosh bera olmayman...

Ular poyezddan tushib, xaloyiqqa qo'shilishdi.

– Bu yil nima ish qilganingdan xabar topgan amaking bilan xolang sen bilan rosa faxrlansa kerak, a? – dedi Germiona.

– Faxrlanadi? – so'radi Garri. – Esingni yedingini, Germiona? Axir, o'lib ketish uchun shuncha imkoniyatim bo'la turib, birortasidan foydalanmadim-u! Agar bundan xabar topishsa bormi, aqldan ozishlari turgan gap!...

Bolalar to'siq ichra o'tib, magllar dunyosiga kirib ketishdi.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI	3
I Bob. Juda ko'ngilsiz tug'ilgan kun	5
II Bob. Xavf haqida Dobbining xabar berishi.....	18
III Bob. «Boshpana»	32
IV Bob. «Naqshli yozuv va siyohi dog'i» do'konida ..	52
V Bob. Urishqoq tol	79
VI Bob. Sverkarol Charuald	104
VII Bob. Maglvachecha va shivir-shivir gaplar	126
VIII Bob. O'lgan kun yubileyi	147
IX Bob. Devordagi qo'rqinchili yozuv	168
X Bob. Telba tajovuzkor	193
XI Bob. Duelchilar klubi	216
XII Bob. Barcha qiyofalar damlamasi	244
XIII Bob. Sirli kuch yashiringan kundalik	269
XIV Bob. Kornelius Fuj	294
XV Bob. Aragog	312
XVI Bob. Maxfiy xona.....	333
XVII Bob. Slizerinning vorisi	359
XVIII Bob. Dobbining qullikdan ozod bo'lishi	382

JAHON ADABIYOTINING JAVOHIRLARI

Joanna Kellin ROULING

GARRI POTTER

(ruxchadan Dstimov Shokir tarjimai)

GARRI POTTER VA MAXFIY XONA

(«Garri Potter» romanlar turkumining II qismi)

Nashrga tayyorlovchi:
Ergashbay MATYAKUBOV

Iqtiboslar va izohlarni tayyorlovchi:
Ergashbay MATYAKUBOV

Bosh muharrir:
Alisher RAYSHANOV

Badiiy muharrir:
Asaloy ESHONQULOVA

Musahhib:
Lolaxon QO'ZIBOYEVA

Kompyuterda sahlalovchi:
Doniyorbek SALIYEV

Dizayner:
Feruzbek Voxidov

DIQQAT!!! «Garri Potter» romanlar turkumining o'zida tashkil etilgan ushbu tarjimasini yoki uning bir qismini nashrga tayyorlovchi, nashrga (yozma) ruxsatisiz kitob holida yoki gazeta va jurnallarda chop etish, elektron ko'rinishida tarqatish, internetga joylashtirish, shuningdek, asarlar kataloqlarida izoh va iqtiboslardan ijodiy foydalanish qat'iyan taqiqlanadi.

Litsenziya raqami AI № 7069. 22.10.2020 y.

Bosishga 09.06.2021 yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84/108 1/32.
Bosma to bog'i 25 Shartli bosma to bog'i 28
Garritura "Times New Roman" offset qog'ozi.
Adadi 3 000 nusxa. Buyurtma № 11
Bahosi kelishilgan narxda.

"BOOK MEDIA PLUS" xususiy korxonasida chop etildi va tayyorlandi
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho'pon ota ko'chasi, 28 A.



ISBN 978-9943-7201-4-5



9 789943 720145